O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

«SAN’AT YO‘NALISHLARIDAGI BO‘LAJAK KADRLARGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR» MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Samarqand – 2024y. 23-24 aprel

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

“SAN’AT YO‘NALISHLARIDAGI BO‘LAJAK KADRLARGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2024-yil 23-24aprel

SAMARQAND - 2024

UDK: 78.081
BBK: 85.31O’zb

“San’at yo‘nalishlaridagi bo‘lajak kadrlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani anjumani maqola va tezislar to‘plami. Samarqand, 2024 – 442 bet.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, o‘qituvchilar, tadqiqotchilar hamda magistratura va bakalavriat talabalari foydalanishlari mumkin.

To‘plamda nashr etilgan maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

ANJUMANNING TASHKILIY VA DASTURIY QO‘MITASI

1.Sh.Sh.Negmatova	- Institut rektori, tashkiliy qo‘mita raisi
2. A.R.Safarov	-Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari
3. B.R.Boltayev	- Musiqa ta’limi kefedrasi mudiri, raisi o‘rinbosari
4. Z.O.Mo‘minova	-Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, a’zo;
5. K.D.Kuliyev	- O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, a’zo;
6. B.T.Xaydarov	- San’atshunoslik fakulteti dekani, a’zo;
7. A.S.Ismoilov	- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a’zo;
8. R.Jiyanqulova	- Texnologik ta’lim kafedrasi mudiri, a’zo.

TEXNIK MUHARRIRLAR:

S.A.Pardayev.	- Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti , rais o‘rinbosari
Sh.Shayqulov	- San’atshunoslik fakulteti dekan o‘rinbosari, a’zo;

TAHRIR HAY’ATI

1.	I.Qudratov**.**	- Musiqa ta’limi kafedrasi professori, a’zo;
2.	E.K.Djalilov	Musiqa ta’limi kafedrasi professori, a’zo;
3.	I.Suvonqulov	- Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi professori, a’zo;
4.	H.X.Jo‘rayev	- Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi professori, a’zo;
5.	D.E.Omonov	- Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi mudiri, a’zo;
6.	G.M.Davronova	- Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti, a’zo;
7.	Sh.N.Omonqulova	- Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti, a’zo;
8.	E.Shavqiyev	- Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi dotsenti, a’zo

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Ilmiy texnik kengashining 2024-yil apreldagi 4 - sonli yig’ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2024 yil 23-24-aprelda **“San’at yo‘nalishlaridagi bo‘lajak kadrlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, muammo va yechimlar”** mavzusida o‘tkaziladigan Respublika ilmiy-amaliy anjumanida institut rektori Negmatova Shahzoda Shuhratovna

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar anjuman ishtirokchilari!

Bugungi **“San’at yo‘nalishlaridagi bo‘lajak kadrlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, muammo va yechimlar”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etish va yuqori saviyada o‘tkazishga ruxsat berganligi hamda ishtirokchilar bilan ta’minlashda amaliy yordamlari uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Respublika oliy ta’lim kengashi hamda oliy ta’lim muassasalari rektorlari, prorektorlari va professor-o‘qituvchilariga o‘zimizning minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Sana’t insonning ongi, tuyg’ulari va e’tiqodini shakllantirishda muhim va ta’sirli kuchga ega. Zamonaviy insonning yakuniy maqsadi - ong va qalb uyg’unligidir. Bu maqsadga erishishda o’sib kelayotgan yosh avlodni nafosat tarbiyasini to’g’ri yo’lga qo’yish asosiy vazifa deb qaralishi kerak. Zamonaviy pedagogika bolalarni estetik tarbiyalash va nafosat olamiga olib kirishga xizmat qiladi. Bu borada o’quvchi-yoshlarni va qiziqishi bo’lmaganlarni ham qiziqtirish uchun o’quv jarayoniga ilmiy-ijodiy yondoshish talab etiladi.

Ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi musiqa, tasviriy san’at darslarini sifatli raqobatbardosh kadrlar bilan ta’minlash asnosida bir qancha qaror va farmoishlar qabul qilinmoqda: O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 21.06.2022-yildagi “pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289 qarori, Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 02.02.2022-yildagi PQ-112 qarorlari shular jumlasidandir.

Musiqa va tasviriy san’atini rivojlantirish uni keng ommaga targ‘ib etishda turli ko‘rinishdagi bayram tadbirlarining, festivallarning, ko‘rik-tanlovlarning balki Respublika, Xalqaro miqyosdagi mana shunday ilmiy-amaliy anjumanlarning ham o‘rnibeqiyosdir.

“San’at yo‘nalishlaridagi bo‘lajak kadrlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, muammo va yechimlar” nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiya mavzusi dolzarb ahamiyatga ega bo’lib musiqa va tasviriy san’at sohasi oldida turgan bir qator muammo yechimlarga qaratilgan. Binobarin, unda ko‘tarilayotgan masalalar respublikamiz ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish asosida uni isloh qilish yo‘nalishlarini belgilab beradi degan umiddamiz

Bu borada konferensiyada ishtirok etayotgan barcha ma’ruzachilarga, chiqish qiladigan professor-o‘qituvchilar, amaliyotchi-mutaxassislar va ilmiy izlanuvchilarga muvaffaqiyat tilagan holda anjumanni ochiq deb, e’lon qilaman. Konferensiya ishiga, ma’ruzachi va qatnashchilarga omad tilayman. E’tiborlaringiz uchun rahmat

I SHO‘BA
OLIY TA’LIM TIZIMIDA DARS SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI.

OLIY O’QUV YURTLARIDA BO’LAJAK JISMONIY MADANIYAT O’QITUVCHILARIDA KASBIY AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti San’atshunoslik fakulteti dekani: p.f.n.prof.B.T.Xaydarov

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport o’qituvchilarini tayyorlash muammosi ochib berilgan. Professor-o’qituvchilar axloqiy fazilatlarini rivojlantirish bilan bog’liq mintaqamizdagi pedagogik jarayon oldiga nafaqat ta’lim tizimini inqirozdan olib chiqa oladigan, balki uni yangi darajaga ko’taradigan jismoniy tarbiya o’qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash vazifasi qo’yilgan. Bo’lajak mutaxassislarni yangi innvatsion texnologiyalardan xabardorlik bilan integral ravishda axloqiy fazilatlarga ham et’ibor berilgan.*

Kalit so’zlar: *o’qituvchi, jismoniy tarbiya, innovatsiya, tayyorlik, kasbiy faoliyat.*

Tadqiqotning dolzarbligi. Oliy ta’limidagi sifat o’zgarishlari oliy ta’lim tizimining maqsadlarini yuqori kasbiy mahorat bilan keng umumiy gumanitar dunyoqarashni uyg’unlashtirgan mutaxassislarni tayyorlashga yo’naltirishda namoyon bo’ladi. Shu munosabat bilan oliy ta’lim tizimida integratsion jarayonlarning ustunligi yuzaga keladi, unda gumanitar bilimlar etakchi rollardan biri hisoblanadi.

O’rganilganligi. Yuksak ma’naviyatli mutaxassislarni tarbiyalash, respublikamizda kadrlar tayyorlashni davr talablari darajasiga ko’tarish, ta’limning rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mexanizmini yaratish, uning mazmunini takomillashtirish, o’quvchi va o’qituvchilarda ta’lim-

tarbiya jarayoniga bo’lgan yangicha munosabat va qarashlarni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Xususan, bo’lg’usi jismoniy madaniyat o’qituvchilarining kasbiy axloqiy sifatlari hamda ma’naviyatining ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi zaruriyati, uning o’ziga xos xususiyatlari, kasbiy axoloq tushuncgasining falsafiy, ijtimoiy va pedagogik jihatlari, kasbiy axoloqning nazariy asoslari, uni shakllantirishning huquqiy, ijtimoiy va ma’naviy qirralari hamda zamonaviy jamiyat ziddiyatlari masalalariga qaratilgan tadqiqot natijalari muhim ahamiyatga ega.

Shuning bilan birgalikda bo’lg’usi jismoniy madaniyat o’qituvchilarining kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishga oid innovatsiyon texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish zarurati mavjud.

Jamiyat rivojlanishida turli xil davrlarda mehnat va kasb-hunarlarni o’rganish nazariyasi va amaliyoti, pedagog-o’qituvchilarni tayyorlash muammolari va yechimlari bilan shug’ullanganlar. Masalan, ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy texnologiyalar masalasida turli zamon va makonlarda yashagan xorijlik olim va mutaxassislar Z.Bjezinskiy, G.Grachev, A.Zinoev, I.Zasurskiy, S.Kara-Murza, A.Karayani, K.Kalandarov, S.Rastorguev, R.Xarris, V.Druzin, I.Kolotilova, O.Petrich, R.Chaldini va boshqalar mafkuraviy kurash, yoshlarga xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlar, manipulyatsiya jarayonlari, “Ommaviy madaniyat”ning globallashuvi, g’oyaviy kurashning turli jabhalarini tadqiq qildilar.

Tadqiqotning maqsadi: Bo’lajak jismoniy madaniyat o’qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning innovatsiyon texnologiyasi nazariy tomonlarini ishlab chiqish va amalda sinab ko’rish.

Tadqiqotning obyekti: Oliy ta’lim muassasalarida bo’lg’usi jismoniy madaniyat o’qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Oliy ta’lim muassasalarida bo’lg’usi jismoniy madaniyat o’qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik tizimi, mazmuni, samarali shakllari, uslublari, vositalari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:-bo’lg’usi jismoniy madaniyat o’qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning yangi pedagogik texnologiyalarini aniqlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi;

- bo’lg’usi jismoniy madaniyat o’qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning mazmuni, samarali shakl, vosita va ilg’or metodlari belgilab beriladi, amalda sinab ko’riladi;

- bo’lg’usi jismoniy madaniyat o’qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishshning pedagogik texnologiyalari tanlanadi va amalda sinab ko’riladi;

- dars va darsdan tashqari sharoitlarda bo’lg’usi jismoniy madaniyat o’qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning yo’llari va shart sharoitlari belgilanadi;

Tadqiqot metodlari. Vazifalarni hal qilish va tadqiqot farazini tekshirish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo’llanildi: falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik va maxsus adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, universitetlarning jismoniy tarbiya kafedralarining shaxsiyat muammolari bo’yicha tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish. jismoniy tarbiya jarayonida bo’lajak mutaxassisni shakllantirish, talabalar va o’qituvchilaridan so’rovnoma va anketa olish, o’z pedagogik faoliyatini retrospektiv tahlil qilish, modellashtirish, ekspert baholash usuli, gumanitar yo’naltirilgan mazmunning ishlab chiqilgan modelini aprobatsiya qilish va tuzatish bo’yicha pedagogik tajribalar o’tkazildi. Jismoniy tarbiya bo’yicha ta’lim, tajriba ishtirokchilarining harakatchanligini nazorat qilish testlari, statistik ma’lumotlarni qayta ishlashning matematik usullari qo’llanildi.

Jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismlarini bo’limlar bo’yicha umumiy kasbiy komponentning vakolatlari tizimi sifatida ko’rib chiqish mumkin:

Bo’limlar bo’yicha umumiy madaniy komponentning vakolatlari:

1. Umumiy madaniy bilimlar va uni xulq-atvorda amalga oshirish.
2. Pedagogik mahorat.
3. Pedagogik aloqa.

Keling, jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlariga ye’tibor qarataylik, unda professional komponent mavjud:

1. Jismoniy tarbiya o’qituvchisining yetikasi.

2. O’z-o’zini tarbiyalash, o’z-o’zini tarbiyalash va o’zini takomillashtirish; o’zini o’zi boshqarish.

O’qituvchining malakasini, jismoniy tarbiya o’qituvchisi faoliyatining tarkibiy qismlarini aniqlab, biz kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish bosqichiga o’tamiz. Ushbu bosqich o’qituvchilar tomonidan jismoniy madaniyat sohasidagi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishni o’z ichiga oladi, ularsiz samarali faoliyat mumkin yemas, o’qituvchining kasbiy o’sishi mumkin yemas, talabalarning sog’lig’ini yaxshilash va talabalarning jismoniy madaniyat bilan shug’ullanish motivatsiyasini rivojlantirish. Samarqandni rivojlantirishda yosh avlod salomatligi ustuvor ahamiyat kasb yetmoqda.

Muvaffaqiyat rag’batlantiriladi - ledshilashga intilishning natijasi, yerishishda maqsadi bilan qat’iy va to’liq ta’sir qiladi beremenigan shaxsiy xarakter asosida. Ta’lim va sport faoliyati bilan shug’ullanadigan talabalar asos sifatida qaror qabul qilishga qaror qilishdi, unga yerisha uzoq so’rovnoma o’tkazishi kerak.

O’z-o’zini anglash, o’zini o’zi belgilash, o’z-o’zini anglash, o’z-o’zini tarbiyalash, o’zini o’zi anglash va o’zini o’zi boshqarish jarayonlarini o’rganish uchun o’z-o’zini anglash testi qo’llanildi. Uning yordami bilan quyidagilar baholandi: o’quvchilarning istak va ehtiyojlariga munosabati, o’ziga ishonchi (o’zini o’zi anglashi); shaxsning ruhiy salomatligi, uning yaxlitligi, mustaqilligi va erkinligi (avtonomiya); o’quv va kasbiy faoliyatga, hayotga (ijodkorlikka) ijodiy munosabat; boshqalar bilan do’stona munosabatlar o’rnatish qobiliyati (aloqa). Muvaffaqiyat motivatsiyasi - natijalarni yaxshilashga intilish, o’z maqsadlariga erishishda qat’iyatlilik - butun hayotga ta’sir qiladigan asosiy shaxsiy xususiyatlardan biridir. Talabalarning jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlarida o’z taqdirini o’zi belgilashga tayyorligi, uni takomillashtirish yo’llarini izlash

to’g’risida qaror qabul qilish uchun asos bo’lib, unga erishish zarurligi to’g’risidagi

Tajriba oxirida jismoniy madaniyatning insonparvarlik qadriyatlarini ichkilashtirish: 1 - o’z-o’zini baholash va o’zini o’zi bilish, 2 - o’z taqdirini o’zi belgilash, 3 - o’zini o’zini tushunish va o’zini o’zi anglash, 4 - o’zini o’zi rivojlantirish. o’z-o’zini takomillashtirish, 5- o’z-o’zini tashkil etish va o’z-o’zini tartibga solish (1-rasm).

Tajriba davomida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish sub’ektlar guruhlarida talabalarning shaxsiy fazilatlarining jiddiyligini aniqlash imkonini berdi. Aniqlanishicha, barcha tanlangan ko’rsatkichlar bo’yicha tajriba guruhi talabalari sezilarli ijobiy o’zgarishlarni o’zlarida sezishgan. ($P<0.01$ darajasida) o’z-o’zini anglash, ijodkorlik va erishish istagi zarurati nuqtai nazaridan o’zgarishlar sezilarli darajada edi.

Jismoniy tarbiya o’qituvchisining imkoniyatlari dars o’tkazishning namunaviy vositalari va usullaridan foydalanish bilan cheklanib qolmay, balki darslarga ijodiy yondashish, o’quvchilarning yangi usullarini amalga oshirish imkoniyati yaratilganini ko’ramiz faoliyati, jismoniy madaniyat o’qituvchilari [1] kasbiy mahoratini oshirish yesa. Uzluksiz ta’lim tizimida malaka oshirish, kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish orqali o’qituvchi ushbu sohadagi yangi shakllanishlarni boshqarish imkoniyatiga yega bo’ladi.

Hozirgi bosqichda jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy mahoratini oshirish masalasi mavjud. Jismoniy tarbiya tizimida o’qituvchining kasbiy kompetentsiyasining o’sishi butun o’quv jarayoni davomida talabalarning salomatlik ko’rsatkichlarini yaxshilaydi.

Jismoniy tarbiya o’qituvchisining pedagogik jarayonidagi innovatsion texnologiyalarning aloqasi va uning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda, biz ushbu ikki komponent o’zaro bog’liqligini, ularni to’liq ko’rib chiqish kerakligini payqadik. Bu bizga uzluksiz ta’lim tizimida jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish darajasini har tomonlama ko’rib chiqish imkoniyatini beradi.

Jismoniy tarbiya mutaxassisi malakasini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishni maqsad qilib, biz jismoniy tarbiya darslarida qo'llanilmaydigan, ammo hamma ular haqida biladigan yoki g'oyaga yega bo'lgan bir qator fanlarni taklif qilmoqchimiz.

Ushbu sohada sifatli o'zgarish uchun biz yangi yondashuvlarni qo'llashimiz, Sovet dars tizimining mazmunini yangilashimiz kerak. So'nggi 30 yil ichida yosh avlodning jismoniy tarbiyasi muammosini hal qilish orqa fonga surildi, jismoniy tarbiya va sport qadriyatlari almashtirildi. Zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq "jismoniy madaniyat" fanini o'qitish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy yetish yaxshi sinflarga olib keladi, bu yerda o'qituvchi jismoniy madaniyatga muhabbat uyg'otishi mumkin [3; 4]. Ushbu tizimni o'z amaliyotida qo'llash orqali zamonaviy o'qituvchi talabalarning motivatsiyasini oshiradi, talabalarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va sog'lig'ini yaxshilash bo'yicha strategik vazifani amalga oshiradi.

1. Plyometrik mashqlar

2. Pilates-bu xavfsiz mashqlar to'plami. maxsus tibbiy guruhlarda (tayyorgarlik guruhlari) va terapevtik jismoniy madaniyat guruhlarida (fizioterapiya) qo'llash mumkin. U turli mushak guruhlarining moslashuvchanligi va kuchini rivojlantiradi, umurtqa pog'onasi shikastlangan bemorlar uchun foydalidir, tanani yanada moslashuvchan va nozik qiladi, tanani mustahkamlaydi va ruhni shakllantiradi.

3. Fitnes texnologiyalari (cho'zish, akva aerobika, step aerobika, Slayd, tana uchun bodibilding, jismoniy rivojlanishni tuzatish, ortiqcha vazn va boshqalar.), callanetika3 [8].

4. Sharq amaliyotlari. Hatha Yoga (nafas olish, muvofiqlashtirish asanasi) 4.

5. Crossfit–bu dasturga birlashtirilgan, minimal vaqt ichida ketma-ket ketma-ket bajariladigan va 5,6 [9] barcha mushak guruhlarini rivojlantirishga qaratilgan yuqori intensiv mashqlar majmuasi.

Jismoniy madaniyat sohasida kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil yetishning innovatsion texnologiyalari sog'lom odamning ijobiy imidjini yaratishga qaratilgan

va ularni amalga oshirish zamonaviy jismoniy tarbiya o’qituvchisining malakasi va ijodiy yo’nalishiga bog’liq.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyalardan foydalanmasdan jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy kompetentsiyasi darajasini oshirish mumkin yemas. Uzluksiz ta’lim tizimida kasbiy tayyorgarlikni qismlarga bo’lish mumkin yemas, chunki bu o’qituvchining o’z faoliyatiga tor yo’naltirilishiga, kompetentsiyaning pasayishiga va yeng muhimi, yosh avlodning jismoniy tarbiyaga bo’lgan qiziqishining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Agar zamonaviy o’qituvchi doimiy ravishda yangi texnologiyalarni izlasa, u o’zini rivojlantiradi, o’zini takomillashtiradi, bilim, ko’nikma va malakalarni amalga oshirishning barcha tushunchalarida "o’zlik" darajasini oshiradi, bu yesa o’z navbatida jismoniy tarbi talabalarning tizimli sog’lomlashtirish samarasiga olib keladi.

Shuning uchun, agar zamonaviy o’qituvchi doimiy ravishda yangi texnologiyalarni izlasa, u o’zini rivojlantiradi, o’zini takomillashtiradi, bilim, ko’nikma va malakalarni amalga oshirishning barcha tekisliklarida "o’zlik" darajasini oshiradi, bu yesa o’z navbatida talabalarning tizimli sog’lomlashtirish samarasiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida " PF-5368-son farmoni. 2018 yil 5-mart.

2. 2019-2023 O’zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kontseptsiyasi 2019-yil 15-fefral.

3. A.O.Abduquddusov, H.F.Rashidov. Kasb-hunar pedagogikasi. O’quv-uslubiy qo’llanma. -T.: O’MKHTTKMO va UQTI, 2011.- 108 b. 3.

4. I.J.Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. Ilmiy jurnal.–T.: TDPU, 2004.-44 b. 4.

5. Xolboyeva G.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” “7-8 yosh bolalardaida» “SamDU” nashri darslik. 2020 y. 178 b.

6.Holboyeva G. H. Nazarova D. Mechanisms of increasing the motor activity of children aged 5-6 years on the basis of initial gymnastic exercises. // Scientific theoretical journal "Science to sport". 2020 Year Number 6. ISSN.2181-7804; 72-75.

7.Haydarov B.T., Holboyeva G.H., Theory and methodology of physical education. // Textbook Samarqand state university edition. 2020; 56-59.

8.Xolboeva G. Jismoniy tarbiya sohasi kadrlarini tayyorlashda kasbiy, gumanitar, mintaqaviy-milliy konseptual salohiyatni oshirish //Aktualьnыe problemы sportivnoy nauki. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 23-29.

9.Xolboeva, G. (2023). Jismoniy tarbiya sohasi kadrlarini tayyorlashda kasbiy, gumanitar, mintaqaviy-milliy konseptual salohiyatni oshirish. Aktualьnыe problemы sportivnoy nauki, 1(1), 23-29.

10.Gulhayo Kholboyevna Kholboyeva Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6-7 years through initial gymnastics classes. Published 2021.Education, Medicine

11. Xolboyeva.G.X. Haydarov.B.T. Tojiyeva.X.B. Methodology of the improvement of preliminary gimnstic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-№6 ISSN:1475-7192 Scopus. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSIQA TA’LIMI YO‘NALISHI TALABALARINING SHAXSIY TA’LIM TRAYEKTORIYASINI SHAKLLANTIRISH.

Sh.N.Mustafayev. Pedagogika fanlari doktori.

Ta’lim masalasi jahonning ko‘plab mamlakatlarida muhim vazifalar qatoridan o‘rin olgan. Ko‘pchilik davlatlarda global raqobat sharoitidagi yangi talablariga javob beruvchi, moslashuvchan ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy maqsad oliy o‘quv yurtlarining va o‘quv dasturlarining moslashish imkoniyatlarini oshirishga

qaratilgan bo‘lib, uni amalga oshirish akademik va tashkiliy tuzilmani isloh qilish, infrastrukturani, ta’lim metodlari va texnologiyalarini yangilash, pedagogik jarayonni takomillashtirish, o‘qituvchilar tarkibi sifatini yaxshilash orqali rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-fevral, 2022-yildagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mazkur qarorga 1-ilovadagi ro‘yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o‘rgatilishi lozimligi hamda bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga(shahodatnoma) tegishli qayd kiritilishi, musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslari o‘tkazilishi milliy cholg‘ulardan kamida bittasida, 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab musiqa ta’limi fani o‘qituvchilari kamida uchta milliy cholg‘u asboblarida kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lish majburiyligi, musiqa fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholg‘u” shiori ostida cholg‘u ijrochiligi dars mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilishi alohida vazifa sifatida belgilab berilgan.

Bu esa bugungi kunda musiqa ta’limi bo‘yicha tayyorlanayotgan mutaxassislarning cholg‘u ijorchiligini nafaqat bir chog‘u asbobida balki kamida uchta milliy cholg‘u asbobida ijro qilish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi ta’kidlangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish,o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Kredit ta’lim tizimiga o‘tish O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasining darajalari, bosqichlari, akademik darajalarini aniq baholashga imkon beradi va ularni shaffof, tashhislanadigan va tan olinadigan holatga keltiradi. Bu esa jahon ta’lim muhitiga qo‘shilishning bosh shartlaridan biri hisoblanadi.

Akademik kreditning joriy qilinishi o‘quv rejalarini takomillashtirish, integrallashgan o‘quv kurslari, qo‘shma ta’lim dasturlarini yaratish orqali oliy ta’lim tizimini yangicha tashkil qilish uchun asos bo‘ladi va jahon bozorida bizning ta’limimiz va mutaxassislarimizning raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartirish, oliy ta’limda o‘quv jarayoni kredit-modul tizimiga o‘tkazish, qator oliy ta’lim muassasalarini o‘zini o‘zi moliyaviy ta’minlashga o‘tkazish, ta’lim sohasini to‘liq raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ta’lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Talabalarning sifatli ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini mustahkamlash, sifatli ta’lim xizmatlari taqdim etish uchun rahbarlarning mas’uliyatini belgilovchi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish. Oliy ta’lim bosqichlari bo‘yicha O‘zbekiston modeli tayanch bosqich kamida 3 yil davom etishi jihatidan Bolonya jarayonlari talablariga va har biri 2 pog‘onadan iborat 2 bosqichdan iborat ekanligi bo‘yicha amerika modeliga mos keladi.

Bakalavriat dasturi kasbiy faoliyatning umumiy, integrallashgan jihatlarini inobatga olish, kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish va mustaqil bilim olish ko‘nikmasini shakllantirish orqali ixtisoslik fanlari bo‘yicha bilimlar asosini egallashni nazarda tutuvchi keng tayanch kasbiy tayyorgarligini nazarda tutadi.

Oliy maktabdagi o‘quv jarayoni oliy malakali mutaxassisni tayyorlashdagi tashkiliy, boshqaruv, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi ko‘p qirralarni o‘z ichiga oluvchi murakkab jarayondir. O‘quv jarayoni asosan o‘quv mashg‘ulotlari va nazorat jarayonlaridan tashkil topgan. O‘quv mashg‘ulotlari barcha turdagi akademik mashg‘ulotlarni, talabalarning mustaqil ta’limi va malakaviy amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Nazorat jarayonlari

talabalarning ta’lim dasturini qay darajada o‘zlashtirganligini ko‘rsatadi. O‘quv jarayonini rejalashtirish oliy o‘quv yurtining o‘quv faoliyatini boshqarishda muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Bakalavriat namunaviy o‘quv rejalari 4 ta blokdan iborat bo‘ladi:

1) gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar bloki;
2) umumkasbiy fanlar bloki;
3) ixtisoslik fanlari bloki;
4) qo‘shimcha fanlar bloki;

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25-30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga bo‘linadi. Talaba bakalavriatda o‘qish muddati kamida 3 yil bo‘lganda 180 kredit to‘plashi zarur.

Ro‘yxatga olish xizmati belgilangan jadvalga muvofiq talabalarni fanlarga ro‘yxatdan o‘tkazadi va talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantiradi. Talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi ular tomonidan mustaqil ravishda guruh murabbiyi yordamida namunaviy o‘quv rejasi va tanlov fanlari katalogi asosida umumiy o‘qish davri uchun tuziladi. Shaxsiy ta’lim trayektoriyasiga har o‘quv yilidan oldin o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Ma’lumki, talabaning umumiy yuklamasi auditoriya va mustaqil ta’lim yuklamalaridan iborat. Amaldagi ta’lim tizimida auditoriya yuklamalariga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ish turlari hali ommalashmagan. Kredit tizimida eng avvalo talabaning mustaqil ishiga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Kredit bu baho emas, balki ish hajmi hisoblanadi. Masalan, talaba 5 kreditlik fanni o‘zlashtirgan bo‘lsa, u 5 kredit hajmidagi ishni bajargan hisoblanadi, ya’ni u ushbu fanning ma’ruzalarida, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida qatnashgan, mustaqil ish topshiriqlarini bajargan hisoblanadi. Demak, bu fanni o‘zlashtirgan talaba uni qanday bahoga o‘zlashtirganidan qat’iy nazar u 5 kreditni qo‘lga kiritadi. Kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini

ochib berishda uni faqat “kredit” va “modul” atamalari orqali izohlash yetarli bo‘lmaydi. Bu atamalar uni ixcham nomlash uchun qo‘llanilgan, xolos. Biz kredit-modul tizimining mohiyatini boshqacha usulda ochib bermoqchimiz. Ya’ni, asosiy tamoyillar, kredit-modul tizimining amaldagi ta’lim tizimidan farq qiluvchi jihatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Bugungi kunda kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari va elementlari musiqa yo‘nalishiga ham tatbiq qilingan.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi yo‘nalishining 2023-2024-yil o‘quv rejasidagi - Cholg‘u ijrochiligi fani(xalqaro kodi ChIJ M106) o‘quv jarayonining faqat birinchi bosqich 1-semestrida o‘qitiladi. Umumiy yuklamaning soni 180 soat bo‘lib, shundan, auditoriya mashg‘ulotlari 76 soat, mustaqil ta’lim 104 soatdan iborat. Yillik kredit 6 kreditni tashkil etadi. Lekin keyingi semestrlarda cholg‘u ijrochiligi fani yuq. Ikkinchi kursda tanlov fanlar tarkibida qo‘shimcha cholg‘u asbobi fani berilgan bo‘lib, bu fan ham 3-semestrda bor yo‘g‘i 4 kredit soat berilgan. Uchinchi kursda cholg‘u ijrochiligi yoki qo‘shimcha cholg‘u fanlari umuman berilmagan.

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarini sifatli va zamon talabiga javob beradigan qilib tayyorlash uchun avvalo mutaxassislik fanlariga ya’ni chog‘u ijrochiligi, qo‘shimcha cholg‘u asbobi, vokal, jamoa bo‘lib kuylash kabi fanlarga e’tibor qaratmasak prezident qarorida keltirilgan musiqa ta’limi o‘qituvchilarining kamida uchta milliy cholg‘u asboblarida ijro etaolish malakasiga erishish qiyin bo‘ladi. Sababi shundaki malaka talablarida mutaxassislik fanlarining davomiy emasligi(Cholg’u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, dirijorlik) faqat bir semestrda malaka talablarida maktab uchun zarur bo’lgan xor va xorshunoslik fani umuman yo’q, malaka talablarida pedagogik yo’nalishlardagi umumiy fanlar(umumiy psixologiya, umumiy pedagogika, falsafa va hakazolar) yo’nalishlarda kreditlar to’rlicha berilgan.

Shundan xulosa kelib chiqadiki, Respublikadagi OTM musiqa ta’limi yo’nalishidan mutaxassislar ishtirokida fanlarni muhimligi, mutaxassislik fanlarini

davomiyligi, ketma-ketligi, izchilligi, sistemaliligi nuqtai nazaridan o'quv reja va malakaviy talablarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son hamda «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-fevral, 2022-yildagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA "MUSIQA O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR" FANINI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM JIHATLARI.

G.M. Davronova

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,

Musiqa ta'limi kafedrasi v/b dotsenti. p.f.f.d. (Phd).

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda, "Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar" fanini o'rganish va uni takomillashtirishning muhim jihatlari tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, texnologiya, texnologiyalashtirish, kasbiy faoliyat, zamonaviy yondashuv, pedagogik texnologiya, zamonaviy ta'lim, pedagogik mahorat kompetensiya.*

Oliy ta’lim muassasalarida mashg’ulotlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari vositasida tashkil etish va unga oid o‘quv adabiyotlarni zamon talabi asosida tayyorlash va amaliyotga tadbiq etish, har bir professor-o‘qituvchilarining asosiy vazifalardan biridir.

Oliy ta’limni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim, ko‘nikma ega, tanqidiy, mantiqiy va kreativ fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi farmoni qabul qilindi.[1.] Shuningdek “Ta’lim to‘g’risidagi Qonun” qayta ko‘rib chiqilib, ta’lim – tarbiya tizimi, sifat va samaradorligiga oid talablar bilan mazmunan boyitildi. Ta’lim to‘g’risidagi Qonunning 46 moddasida O‘qituvchi-pedagoglar ta’lim jarayonida axborot – kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishlari pedagogik majburiyat sifatida belgilandi. Bu kabi Farmon va Qarorlarni ijrosini ta’minlash maqsadida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlarni yuqoridagi talablar asosida tashkil etish, hamda, “Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini yanada takomillashtirish, qayta ko‘rib chiqish, musiqa o‘qitishda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar asosida boyitishda innovatsion yondashuvni taqozo etmoqda.

“Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini, musiqa o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiya yutuqlaridan dars va mashg’ulotlar jarayonida optimal foydalanish orqali ta’lim sifat-samaradorligini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan mavzular asosida nazariy, amaliy materiallar va topshiriqlar bilan boyitish, fanga, mavzuga mos pedagogik texnologiyalarni tanlash va maqsadli foydalanishga o‘rgatish, ta’labalarni mustaqil ishlash va tayyorgarlikga yo‘naltirish kabi jihatlariga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning pedagogik mahoratini oshirishda, kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda shu kabi fanlarning takomillashuvi dolzarb masalalardandir. Zero, kuchli mutaxassis o‘zida bor musiqiy qobiliyat, ko‘nikma va malakalarni yosh avlodga mahorat bilan yetkazib bera olishi bilan uning musiqiy-pedagogik faoliyatiga baho beriladi.

Rivojlanishning hozirgi bosqichida ta'lim tizimi va o‘quv jarayonida o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ta'lim mazmuni yanada murakkablashmoqda. Ta’lim oluvchilarni ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda an'anaviy usullar o‘rnini sifatli ta'lim va tarbiyaning faol usullari, vositalari va zamonaviy pedagogik, axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan almashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu o‘zgaruvchan sharoitda musiqa o‘qituvchisi zamonaviy texnologiyalarning keng doirasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini, musiqa o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirish, zamonaviy darslarni tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiya yutuqlaridan dars jarayonida optimal foydalanish orqali ta’lim sifat-samaradorligini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan mavzu va topshiriqlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Ushbu fan 60111300-Musiqa ta’limi yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, musiqa darslarini bugungi talablar asosida tashkil etishning optimal yo‘l va usullari borasida bilimlar berishda, zamonaviy o‘qituvchi qiyofasni yaratishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlashda muhim masalalardan biri innovatsion texnika texnologiyalarini, maqbul pedagogik texnologiyalarni musiqa ta’lim tarbiyasida, musiqa mashg‘ulotlarida izchil qo‘llay olish malakalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, musiqachi-pedagoglarni tayyorlashda nafaqat ularning mutaxassislik kompitensiyalarini rivojlantirish, shu bilan birga, yangi pedagogik texnologiyalardan musiqa ta’lim-tarbiyasida samarali foydalana olish imkoniyatlariga ega bo‘lishi ham dolzarb masalalardandir.

O‘qituvchilik kasbining boshqa kasb egalaridan farqli jihati shundaki, muntazam talablari ortib, tafakkuri yangilanib, rivojlanib, takomillashib boruvchi

shaxslar bilan faoliyat olib boradi. Bu o‘z navbatida mutaxassis o‘qituvchilarning kompetensiyasiga qo‘yilgan talablarni oshishiga va pedagogik faoliyatida zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Bu kabi o‘zgarishlar o‘qitilayotgan adabiyotlarni ham mazmunan boyishiga, zamonaviylashuviga bo‘lgan talabni oshiradi. [5-75b.]

Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: “O‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish” rivojlantirish dasturining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.[2-1b.]

Milliy dasturiga binoan, pedagog - kadrlar, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatiga tayyorgarlik jarayoniga zaruriy talablarni belgilaydi.

Bugungi kunda zamonaviy ta’ limni innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin.

Musiqa ta’limida o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirish deganda - multimedia vositalari, turli dasturiy ta’minot imkoniyatlaridan, hamda, musiqiy tovushlarni tahrir qilish uskunalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini amalga oshirish nazarda tutiladi.

Musiqa ta’limi - pedagogika fanlari tarmog‘iga kiradi va o‘quvchilarga musiqaning amaliy va nazariy jihatlari borasida ma’lumotlar berish, musiqa ta’limi va tarbiyasini amalga oshirishning samarali yo‘llari, vositalari, shakllari va metodlarini ishlab chiqish, shuningdek, musiqa san’atining turli sohalari bo‘yicha amaliy malaka, tajriba va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan shug‘ullanadi.[4. 51-b.]

Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fanini takomillashtirishdan maqsad – talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘quv-tarbiya jarayonida ahamiyatini bilish, musiqa ta’limida qo‘llash va undan foydalanishning nazariy va amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali zamonaviy musiqa darslarni tashkil etishga o‘rgatishdir.

Zamonaviy musiqa darsi – innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompyuter, elektron musiqa asboblari va boshqa zamonaviy texnika texnologiyalar vositasida tashkil etilishi bilan izohlanadi. [4. 46-b.]

Xulosa qilib aytganda, talabalarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda "Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini takomillashtirishdan maqsad, musiqa ta’limi yo‘nalishi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, musiqa ta’lim-tarbiyasi sifatlarini oshirishda, musiqachi-pedagog sifatida kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fani yuzasidan mavjud adabiyotlarni mazmunan yanada boyitish va takomillashtirishda, mavjud o‘quv adabiyotlardagi mavzular qatori, “Musiqa o‘qituvchisining pedagogik takt va texnikasi”, “Musiqa o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning muhim jihatlari”, hamda “O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi va ilmiy tadqiqotchilik faoliyati” mavzulari yuzasidan ham material va topshiriqlar berilishi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini zamon talablari darajasida musiqiy-pedagogik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa pedagogikasiga kirib kelishga tayyor bo‘layotgan yosh mutaxassislar, bu boradagi faoliyatni amalga oshirishda universal, ijodkor, zamonaviy shaxs bo‘lishlari zarur. Zero, jamiyatimizning bugungi shiddatli taraqqiyoti, umumta’lim maktablarida darsliklarni takomillashuvi, tahsil oluvchilarning talabi shuni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida” gi Qonuni. (23.09.2020) //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son. 46-modda. /Elektron manba: – https://lex.uz/docs/5013007.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

3. 2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son.

4. G. M. Davronova Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. O‘quv qo‘llanma 162 bet. Toshkent 2019y.

5. G. M. Davronova “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari vositasida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish” mavzusida Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiya ishi. 2023yil

6. D Karimova D. Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik T. 2012. 210 b.

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Usmanova Xurshida Aybekovna
Andijon davlat pedagogika instituti, Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kreativ shaxs bo’lish uchun talaba bilimlar, malakalar va ko’nikmalarning DTS va malaka talablarda keltirilgan zarur va yetarli darajasini egallagan bo’lishi, yuqori darajadagi motivatsiyaga ega bo’lish va ta’lim olishga va ijodiy faoliyatga qiziqish namoyon qilishi, boshqalarga o’xshamaganlik va fikrlashning ravonligini namoyish qilishi borasida kichik tavsiyalar ham o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar*: kreativ shaxs, malaka talablar, ijodiy faoliyat, fikrlashning ravonligi, ta’lim-tarbiya.*

Mamlakatimizda olib borilayotgan uzluksiz ta’lim tizimidagi islohotlar, salohiyatli, malakali mutaxassislar tayyorlash, ta’lim mazmuni, sifati va samaradorligini oshirish jarayonida ta’lim-tarbiya yo’nalishi ishtirokchilari uchun barcha zarur va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berilishi oliy o’quv yurtlari rahbarlari va professor-o’qituvchilariga ham katta mas’uliyat yuklaydi.

Bugungi ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlantirish jarayonida ta’lim mazmunini qayta ko’rib chiqish va zamon talablari asosida yangilash muhim sanaladi. Ta’lim muhitini yangilash degani, albatta, o’tmishning ijobiy g’oyalaridan, tajribalaridan voz kechish degani emas, balki, o’tgan davr davomidagi ilmiy salohiyatga tayanish, milliy va umumbashariy, ma’naviy merosni amaliyotga tadbiq etish hamda xorijiy tajribalarning ixtimoiy-ma’daniy, foydali va samarali jihatlarishi o’zimizga moslagan holda ijtimoiy xayotga olib kirish lozim.

Insoniyat dunyosi hamisha yangilikka intiladi, yangi g’oya va yangicha faoliyat nafaqat kundalik hayotimiz, avvalo, ta’lim-tarbiya tizimi uchun muhim sanaladi. Ta’limda, ilm-fan sohasida yangilik yaratish oson masala emas, bu ko’p mashaqqat, mehnat va tinimsiz izlanishni, atrofdagi insonlardan ko’ra kengroq fikr-mulohaza yuritishni, kreativlikni talab etadi. Hozirda rivojlanayotgan dunyo, bugungi real hayotning har sohasi uchun kreativ shaxs va uning g’oyalari zarur desak mubolag’a bo’lmas.

Ijodiy faoliyat mahsulotlarini ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli turlarga bo’lishni M.Boden taklif qilgan, va kreativlikning natijalarini baholashda qiyinlik bilan shartlangan. Bundan tashqari, M.Bodenning fikriga ko’ra, ancha ko’p hollarda inson jamiyat tomonidan tan olinish uchun emas, balki o’zini kreativ shaxs deb his qilish imkonini beradigan (ruhan, ichdan, kayfiyat) ko’tarilish holatini his qilish maqsadida ijod qilishi faktini hisobga olish zarur [1].

Kreativ shaxs. Sub’ektiv omillarni ularning ob’ektiv omillar bilan tinimsiz o’zaro faoliyatida hisobga olish zarurligini tushunish so’nggi o’n yilliklar davomida kreativlikni tadqiq qilishda ijodkorning yoki yaratuvchi odamning shaxsiy xarakteristikalariga tobora ko’proq e’tibor qaratilishiga olib keldi [2].

Kreativ muhit. Muhitning kreativlikka ta’sir ko’rsatishi masalasiga nisbatan 2 nuqtai nazar mavjud. Muhitga asoslangan yondashuv vakilarining fikriga ko’ra, kreativlik – shaxsning boshqa odamlar tomonidan majburlanmagan holda va majbur qilmaydigan vaziyatda idrok qilishi, javobi, amaliy ishi yoki muloqoti hisoblanadi. ushbu nuqtai nazar muhitning kreativlikka ta’siriga bag’ishlangan tadqiqotlarga asoslanadi. Bu tadqiqotlar natijasida inson muhit ta’siri natijasida o’z g’oya va fikrlarini erkin ifodalashdan qo’rqishga olib kelishi aniqlangan [3].

Oliy ta’lim tashkiloti talabalarida Kreativlikning rivojlanishining pedagogik imkoniyatlari namoyon bo’lishi uchun qulay muhit nafaqat muhit a’zolarining bir-birlarini qabul qilishi bilan emas, balki bir-birlariga stimul berish bilan tavsiflanadi, kreativlik uchun qulay muhit kreativ xulq-atvorni mustahkamlashi, taqlid qilish uchun ijodiy xulq-atvorning namunalarini berishi (ifodalashi) zarur.

Saymonton D, [4] va boshqa bir qator olimlar esa qarama-qarshi nuqtai nazarni ilgari suradilar. Ularning fikriga ko’ra, ijtimoiy va siyosiy beqaror muhitgina kreativlikning rivojlanishi uchun maksimal darajada qulay (yaxshi, ma’qul) hisoblanadi, chunki oilada uyg’un bo’lmagan emotsional munosabatlari, ota-onalarning psixik, ruhiy barqaror bo’lmaganliklari va bolalarning yuqori darajada kreativligi orasida ijobiy korrelyatsiyalar topilgan.

Mamlakatmiz olimlari ishlarida kreativlik ziddiyatlarni hal eta olish imkoniyati analogiyalar, o’xshatishlar, metoforalar, taqqoslashlar va assotsiatsiyalar tuza olish qobiliyati savollarni o’ylab chiqara olish, o’ylab topa olish qobiliyati deb o’rganiladi. Muammoli ijodiy vaziyatlar va ularni algoritmik metodlar yordamida yechish usullarini ishlab chiqish ishlari bilan ham bir qator olimlar shug’ullanishgan.

XXI asr kompetentsiyalarining ta’lim tizimiga tatbiq etilishi bir vaqtning o’zida bir nechta tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilmoqda. Xorijiy loyihalar orasida biz quyidagilarni ajratib ko’rsatamiz. OECD asosiy kompetentsiyalari (DeSeCo) kompetentsiyalarning uchta asosiy toifasini aniqlaydi: texnikalardan interaktiv foydalanish.

Bu kognitiv qobiliyat va bilimlarni aniqlamaydi, refleksiv fikrlar va harakatlarni ajratib ko'rsatadi. OECD global kompetentsiya global va madaniyatlararo muammolarni bilish va tushunishga e'tibor qaratadi [5].

Madaniyatlararo, fuqarolik, ijtimoiy va transversal kompetentsiyalarni qadriyatlar, munosabat, ko'nikma, bilim va tanqidiy tushunchalarni qamrab oladigan. YUNESKOning madaniyatlararo kompetentsiyalar doirasi, globallashgan dunyoda hayot uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalarni baholaydi, kommunikativ kompetentsiyalar (til, muloqot, og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar) va madaniy kompetentsiyalar (shaxsiyat, qadriyatlar, munosabat va e'tiqod). Har bir kompetentsiyaga boshqasi nuqtai nazaridan qarash kerak. O'quv jarayoni uchun YUNESKOning global ta'lim tizimi 2012-2013 yillarda ishlab chiqilgan [6]. Bolalar, o'quvchilar va talabalarga kerak bo'lgan kompetentsiyalarni aniqlash maqsadida xalqaro ishchi guruhi tashkil etilgan. Bu maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni qamrab oladi. Barqaror rivojlanish maqsadlarida, tuzilma "global ta'lim ko'rsatkichlari" ni ishlab chiqish uchun asos yaratishga mo'ljallangan. Ular uchun "butun dunyodagi asosiy ta'lim imkoniyatlarini o'lchashlari va o'quv natijalarini baholashda tenglik", bu jarayonda asosiy vazifa hisoblanadi. Ushbu loyiha "ta'lim va ko'nikmalar kelajagi. Ta'lim 2030" yangi xalqaro kontseptual ta'limni rivojlantirishga qaratilgan. Loyiha doirasidagi asosiy kompetentsiya tuzilmasi DeSeCo tuzilishiga asoslangan. Bu yangi tuzilma doirasida uchta o'zgaruvchan kompetentsiya uchun bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni belgilashi ko'zda tutilgan.

Bo'lajak pedagogning kasbiy potentsialidan tashqari, uning nostandart, ijodiy vazifalarni yecha olish qobiliyati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu talabalarni kasbga tayyorlash ta'lim jarayonining verbal yoki nutqiy kreativligini rivojlantirishda namoyon bo'ladigan ijodiy tarkibiy qismini kuchaytirishni talab qiladi.

O'z ixtisosidan qat'iy nazar, bo'lajak pedagog, jumladan bugungi kun sharoitlarini hisobga olgan holda soni tobora ko'payib borayotgan nostandart vaziyatlarda ham ijtimoiy ahamiyatli qarorlar qabul qilishi zarur. Ko'rsatib o'tilgan

omillar reproduktivlikka qaratilgan kasbiy ta’limni shaxsga va ijodga qaratilgan ta’lim bilan almashtirish zaruratiga olib keldi. Bunday shaxslar nafaqat texnologiyalarning tinimsiz o’zgarilarishlariga tezlik bilan javob beradilar, balki “ularning yangi intellektual muammolarni yechishda hayotan zarur ma’naviy qoniqa olish imkoniyati sifatida qaraydilar ham”. SHu munosabat bilan bo’lajak pedagog ko’p jihatdan verbal kreativlikka ega bo’lishi shart.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, yangi jamiyat qurish uchun, avvalo, yoshlar ayniqsa, talabalar qatlamini zamon talab etayotgan darajaga ko’tarish lozim. Bu maqsadga erishish yo’lida pedagogik tajribalarni o’rganish, ularni ijobiy jihatlarini tizimli tahlil etish va tahlillarga tayangan holda Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining kreativligini rivojlantirishni mavjud pedagogik imkoniyatlarini o’rganish lozimligini taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Штофф, В.А. Моделирование и философия / В.А. Штофф. - М.: Наука, 1966.-301 с.
2. Грузенберг, СО. Гений и творчество. Основы теории и психологии творчества. /СО. Грузенберг/ - М : Красанд, 2010. - 264 с.
3. Сластенин, В.А. Педагогика / В.А. Сластенин, Л.С. Подымова. - М.: Юрайт, 2012.-336 с.
4. Варлакова Ю. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Красноярск -2013. 178 с.
5. Сапоугольцев В.Ю. Развитие креативности будущих дизайнеров костюма: автореф дис. ...канд. пед. наук: 13.00.08 / В.Ю.Сапоугольцев; М-во образования Рос. Федерации, Оренбургский гос. ун-т.- Оренбург: [б.и.], 2011. - 24с.
6. Варлакова Ю. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Красноярск -2013. 178 с.

OLIY TA’LIMDA DARSLAR SIFATINI OSHIRISH: MUVAFFAQIYAT MEXANIZMLARI.

Javohir Ismoil o’g’li Abdullayev

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktorant

Annotatsiya: *Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida dars sifatini oshirishning asosiy mexanizmlarini o'rganadi. Innovatsion o'qitish usullari, texnologiya integratsiyasi, faol baholash strategiyalari, professor-o'qituvchilarni rivojlantirish dasturlari, talabalarga yo'naltirilgan yondashuvlar va sifatni ta'minlash choralariga e'tibor qaratgan holda, maqola dinamik va samarali o'quv muhitiga hissa qo'shadigan ko'p qirrali strategiyalarni har tomonlama ko'rib chiqishga qaratilgan. Ushbu maqola oliy ta'limda dars sifatini oshirishning oltita asosiy mexanizmini o'rganadi.*

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, Dars sifati, O‘qitish strategiyalari, Texnologiya integratsiyasi, Fakultetni rivojlantirish, Talabalarga yo‘naltirilgan yondashuvlar, Sifatni ta’minlash, Faol baholash.*

Oliy ta’lim shaxs va umuman jamiyat kelajagini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Universitet va kollejlarda olib borilayotgan darslarning sifati talabalarning akademik muvaffaqiyati va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Talabalarning o‘zgaruvchan ehtiyojlari va tez o‘zgaruvchan dunyo talablarini qondirish uchun o‘qitish usullari, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va baholash strategiyalarini doimiy takomillashtirish zarur. Ushbu maqolada biz oliy ta'limdagi darslar sifatini oshirishning asosiy mexanizmlarini ko'rib chiqamiz.

O‘qitishning innovatsion usullari:

O‘qitishning innovatsion usullarini tatbiq etish o‘quvchilarni qiziqtirish va dinamik ta’lim muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Faol ta'lim usullarini, texnologiya bilan ta'minlangan darslarni va real dunyo ilovalarini o'z ichiga olish talabalarning tushunishini va eslab qolishini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Professorlarni turli xil ta'lim uslublariga mos keladigan yangi pedagogik yondashuvlarni o'rganishga undash kerak.

Texnologiya integratsiyasi:

Oliy ta’limda texnologiya integratsiyasi dars sifatini oshirishning kuchli mexanizmi hisoblanadi. Interfaol multimedia, onlayn resurslar va hamkorlik platformalari yanada qiziqarli va interaktiv ta'lim tajribasini osonlashtiradi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn munozaralar talabalarga nazariy bilimlarni amaliy stsenariylarda qo‘llash imkoniyatini beradi.

Faol baholash strategiyalari:

Baholash nafaqat o'quvchilarni tushunish o'lchovi, balki chuqur o'rganishga yordam beradigan vositadir. An'anaviy imtihonlardan tashqariga chiqish, loyiha ishi, taqdimotlar va amaliy tadqiqotlar kabi turli baholash usullarini o'z ichiga olish tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rag'batlantiradi. Semestr davomida shakllantiruvchi baholash ham talabalar, ham o'qituvchilar uchun qimmatli fikr-mulohazalarni berishi mumkin.

Fakultetni rivojlantirish dasturlari:

Fakultetni rivojlantirishga sarmoya kiritish o'qitishning yuqori standartini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Uzluksiz treninglar va seminarlar o‘qituvchilarga eng so‘nggi o‘qitish metodologiyalari, texnologik yutuqlar va pedagogik tadqiqotlardan xabardor bo‘lish imkonini beradi. Institutlar professor-o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishini qadrlaydigan va qo'llab-quvvatlaydigan madaniyatni rivojlantirishi kerak.

Talabalarga qaratilgan yondashuvlar:

Talabalarning fikr-mulohazalarini tan olish va ularga kiritish darslarni ularning ehtiyojlariga moslashtirish uchun zarurdir. Talabalarga yo'naltirilgan yondashuvlar ko'proq interfaol va ishtirokchi o'quv muhitini yaratishni o'z ichiga oladi, bu erda talabalar muhokamalar, loyihalar va muammolarni hal qilish faoliyatiga faol hissa qo'shadilar. Bunday yondashuv o'z ta'limi uchun egalik va mas'uliyat hissini uyg'otadi.

Sifatni ta'minlash choralari:

Sifatni ta'minlashning mustahkam mexanizmlarini yaratish darslarni o'tkazish institutsional standartlarga mos kelishini ta'minlaydi. Muntazam ichki

auditlar, o'zaro tekshiruvlar va tashqi akkreditatsiya jarayonlari dars sifatini doimiy baholash va yaxshilashga yordam beradi. Akkreditatsiya standartlariga rioya qilish ham ta’lim muassasasiga ishonchni oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Oliy ta’limda darslar sifatini oshirish ko‘p qirrali ish bo‘lib, u o‘qitishning innovatsion usullari, texnologiya integratsiyasi, professor-o‘qituvchilar tarkibini rivojlantirish, talabalarga yo‘naltirilgan yondashuvlar va sifatni ta’minlash choralarini uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Ushbu mexanizmlarni amalga oshirish orqali muassasalar talabalarni kelajak muammolariga tayyorlaydigan jonli va samarali ta'lim muhitini yaratishi mumkin.

Doimiy izlanishlar va akademik hamjamiyat doirasidagi hamkorlik oliy ta’lim ertangi kun yetakchilarining bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda dinamik va tezkor kuch bo‘lib qolishini ta’minlab beradi va mexanizmlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.Chick, NL va Poole, G. “Oliy ta’limda samarali ta’lim va tarbiya”. Routledge. (2019).

2. Bates, AW, & Sangrà, A. "Oliy ta'limda texnologiyani boshqarish: British va o'qitishni o'zgartirish strategiyalari". Jossey-Bass. (2011).

3. Biggs, J. va Tang, C. "Universitetda sifatli ta'lim olish uchun dars berish". McGraw-Hill Education. (2011).

4. Olmos, RM "Akademik etakchilik bo'yicha qo'llanma". Jossey-Bass. (2002).

5. Veymer, M. "O'quvchiga yo'naltirilgan o'qitish: Amaliyotga beshta asosiy o'zgartirish". Jossey-Bass. (2002).

6. Oliy ta'lim sifatini ta'minlash agentligi (QAA). "Oliy ta'lim uchun Buyuk Britaniya sifat kodeksi".(2018).

OLIY MA’LUMOTLI MUSIQA O‘QITUVChILARIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Anvar Lutfullayev,
Nizomiy nomidagi TDPU
“Ijrochilik mahorati va madaniyati”kafedrasi mudiri, professor

Annotasiya: *Maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar majmui va ularning oliy ma’lumotli sifatli kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati masalalari tahlil etilgan hamda metodik tavsiyalar taqdim qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, musiqa o‘qituvchisi, zamonaviy talablar, shakllantirish va rivojlantirish, nazariy bilim, ijrochilik uslubi, o‘qituvchi va o‘quvchi.*

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatimizda 2030 yilga qadar sifatli ta’lim ko‘rsatgichlariga erishish vazifalari qo‘yilgan [1]. Mazkur vazifalar ijrosi jarayonida “Musiqa madaniyati” o‘quv fani bo‘yicha malakali va sifatli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

Oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda dars sifatining o‘rni. Mamlakatimiz pedagogika universitetlari va institutlarida “Musiqa madaniyati” o‘quv fani bo‘yicha hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa murabbiyi yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu ta’lim jarayonida dars mashg‘ulotlari o‘qitishning 4+2 tizimi asosida tashkil qilingan bo‘lib, unda nazariy mashg‘ulotlar uchun 30 foiz, amaliy va mustaqil mashg‘ulotlar uchun 70 foiz dars soatlari belgilangan [2]. Biroq, bu o‘rinda *dars sifati* masalasi muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari dars sifati mezoni bo‘yicha quyidagilarni o‘zlashtirishlari lozim:

1) musiqa nazariyasi bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lish;
2) musiqa didaktikasi bo‘yicha metodikaga ega bo‘lish;
3) kamida 3 cholg‘u bo‘yicha ijrochilik ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

4) o‘zlashtirilgan nazariy bilimlardan foydalana olish malakasiga ega bo‘lish.

Oliy musiqa ta’limida dars sifati mezonlarini ana shular tashkil qiladi. Bu mezonlar asosida oliy musiqa ta’limini tashkil qilish professor-o‘qituvchilar tomonidan innovatsion yondashuvni taqozo etadi. Chunki nazariy bilimlarni berish jarayonida yangiliklarga tayanmasdan bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini bilim kompetensiyasini kutilgan darajada shakllantirib bo‘lmaydi. Shu sababli mazkur mezonlar musiqa o‘qituvchilarini tayyorlaydigan oliy pedagogik muassasalari hamda amaliy faoliyatdagi musiqa o‘qituvchilarini Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish markazlari orqali malakasini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli Yangi O‘zbekiston sharoitida oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha dars sifatlarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirib borish dolzarb bo‘lib turibdi.

Oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda individual ijrochilik uslubining ahamiyati. Oliy musiqa ta’limi yo‘nalishida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining individual ijrochilik uslubini tarkib toptirish dars sifatining muhim mexanizmlaridan birini tashkil qiladi. Bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining individual ijrochilik uslubini tarkib toptirish uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini kamida 3 cholg‘uda ijro etish ko‘nikmasini shakllantirish;

2) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini umumiy musiqa, qo‘shiq va raqs ijrochiligi uslublari bilan qurollantirish;

3) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini bolalar musiqasi, qo‘shiqlari va raqslari ijrochilik uslublari bilan tanishtirish;

4) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining individual ijrochilik uslublarini tarkib toptirish va rivojlantirish.

Bunday yondashuv bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining ijrochilik uslubini tarkib toptirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli dars sifati

mezonlaridan kelib chiqib ijrochilik uslubini tarkib toptirishda yangicha yondashuvlarga asoslanish kerak bo‘ladi. Buning uchun an’anaviy ijrochilik uslublari mashg‘ulotlari tizimini saqlab qolgan holda, individual shug‘ullanish, iste’dodli va tajribali san’atkorlarning amaliy ijrochilik kurslarini tashkil qilish, bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining individual lektoriy konsert - tomosha dasturlarini o‘tkazib borish, Ustoz – shogird an’anasi mashg‘ulotlarini yangilash, amaliy faoliyatdagi tajribali musiqa o‘qituvchilarining individual tajribalarini o‘rganib borish kabi innovatsion shakllarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining individual ijrochilik uslubini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Bu borada oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Talabalar akademiyasi” tuzilmasi vositasida amaliy faoliyatdagi musiqa o‘qituvchilarining individual tajribalarini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish kutilgan samarani beradi.

Oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda nota savodxonligining zaruriyati. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining nota savodxonligini tarkib toptirish ham dars sifatining muhim tamallaridan biri sifatida qabul qilinadi. Buning uchun quyidagilarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini nota tizimi bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini tarkib toptirish;

2) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining asarlar notasi ustida ishlash metodikasini tarki toptirish;

3) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini nota ijodkorligiga o‘rgatish;

4) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini nafaqat musiqa notasi bo‘yicha, balki bolalar musiqasi, qo‘shiqlari va raqslari bo‘yicha nota ko‘nikmasini shakllantirish.

Bunday yondashuv bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining nota savodxonligini kutilgan darajada tarkib toptirish imkonini beradi. Shu sababli

aynan mana shu malaka bilan bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining nota savodxonligini tarki toptirishda imkon qadar innovatsion yondashuvlarga tayanish mug‘im ahamiyatga egadir.

E’tibor berilsa, bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda nazariy bilim, individual ijrochilik uslubi va nota savodxonligi oliy musiqa ta’limi dars sifatini takomillashtiruvchi muhim mexanizmlaridan hisoblanadi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, Yangi O‘zbekiston sharoitida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda bir necha omillarni hisobga olish ham zaruriyat bo‘lib turibdi. Bunda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini jahon xalqlari bolalar musiqa san’ati namunalari bilan tanishtirish;

2) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini jahon xalqlarining eng muhim cholg‘ulari ijrochiligi uslublari bilan tanishtirish;

3) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini ansambl va orkestr ijrochilik uslublari bilan qurollantirish;

4) bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining jahon xalqlari musiqa asarlari va ularning ijrochilik uslublari tahlili bilan qurollantirish.

Bunday yondashuv maktabgacha va maktab ta’limi oluvchilarining jahon xalqlari musiqa madaniyati eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish imkonin beradi [3].

Shunday qilib oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni idrok etish taqozo etiladi. Bunda ayniqsa, bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining nazariy bilim, individual ijrochilik uslubi, nota savodxonligi va jahon xalqlari musiqa san’ati bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lishi eng muhim zamonaviy talablar hisoblanadi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilari mazkur zamonaviy talablarni idrok etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi. // www. Ziyonet. uz.
2. Lutfullaev A.Q. Xalq cholg‘ulari ijrochiligi: manbalar, tajribalar va zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2023
3. Qoraboev U. Madaniyat masalalari. – Toshkent, 2009

“SAN’AT YO‘NALISHLARIDAGI BO‘LAJAK KADRLARGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR”

Qurbonova Muslima

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining

“Musiqa ta‘lim va madaniyati” fakultetining 1 kurs magistri,

Rejametova Nilufar Ilhamovna

Ilmiy rahbar: dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Ph.D)

Annotatsiya. Ushbu maqolada san‘at yo ‘nalishlaridagi bo‘lajak kadrlarga qo‘yilgan talablari haqida o‘qtuvchilarning ko’nikmasini rivojlantirishga yordam beruvchi omillar, usullar haqida yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: san‘at, musiqiy tarbiya, jahon tajribalari.

Hozirgi kunlarda musiqa san’ati juda qadimdan ijtimoiy-madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan bo‘lib, inson shaxsini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan va tez ta’sir etadigan san’at turi hisoblanadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasidir. Uning asosiy va murakkab qirralaridan biri bu atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g’ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma’naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish orqali unga turli ijodiy qobiliyat va imkoniyatlarni ochib bera oladigan ruhiy ta’sir etuvchi vositadir.

Shu bois talabalarni ma’naviy axloqiy fazilatlarini tarbiyalashdagi asosiy qismi bu bevosita san‘at shaydolari bo‘lgan yosh kadrlarni muttahassis qilib tayorlash bosh maqsadi bo‘lib turadi. Mustaqillik sharofati bilan musiqa ta’lim-tarbiyasining maqsadi yangicha mazmunga ega bo‘ldi.

“Yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan va umumbashariy musiqa boyliklarini qadrlaydigan, madaniyatli kishilar qilib voyaga etkazish” muhimligi belgilandi. Endilikda ta’lim mazmunini takomillashtirish uchun an’anaviy tarbiyaning milliy asoslariga murojaat qilib, yoshlar musiqiy didi, axloqiy karashlari, badiiy tafakkurini tarbiyalashda unumli foydalanishga kirishildi.

Yetishib chiqayotgan bilimga chanqoq yosh kadrlarni yuksak badiiy didni tarbiyalashda qo‘shiqchilik san’atining hamma turlari muhim va ularning har biri o‘z xususiyati va imkoniyatiga ega. Mamlakatimiz maktablarida san‘atning barcha turlari yani estrada, milliy an‘anaviy ijrochilik, xor bo‘lib ishlash yonalishlari estetik tarbiya sifatida yordam berib kelmoqda, shu sababli o‘qtuvchilar musiqa ta‘lim muassasalarida jamoaviy ishlash jarayonini yolga qoyishga harakat qilish kerak. Bunga misol tariqasida maktabgacha bo‘lgan yoshdagi yoki maktab yoshidagi bolalar birgalikda ishlash ko‘nikmalari shaklanadi. Oqituvchi barcha yonalishda ilg‘or bo‘lishi zarur o‘quvchilarda yuksak estetik badiiy didni voyaga etkazish uchun zaruriy zamin hozirlab berish lozim.

Hozirgi kundagi muommolardan biri bu Oliy ta’lim muassasalarida qolaversa maktablardaham G’arb musiqasiga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, ularni ta’lim dasturidagi kuy va qo‘shiqlar borgan sari qiziqtirmay qo‘ymoqda, hatto ulardan qanday kuy va qo‘shiqlarni yoqtirasizlar deb so‘ralsa, albatta G’arb davlatlaridagi hozirgi mashhur qo‘shiqlarni misol tariqasida keltiradilar va hatto qo‘shiqlarni ijro etib berishni hohlashadi bu esa milliy ijrochilik san‘atining etibor darajasi pastlayotganligi haqida dalolat beradi. Ularning bu darajada G’arb davlatlari madaniyatiga ixlos qo‘yishlari natijasida ularning badiiy didlari ham shunga moslashib bormoqda tarbiyaga katta tasir otkazmoqda.

Buni ba’zi talabalarning tashqi ko‘rinishlari ham isbotlab turibdi. Biz ta’lim muassasalarni qat’iy suratda, faqat ta’lim maktabi emas, balki tarbiya maktabi bo‘lishiga harakat qilishimiz lozim. Talabalarda badiiy didni tarbiyalashda ta’lim muassasalarining butun hayoti barobar qatnashsada, musiqiy darslarning, musiqiy

mashg’ulotlarning alohida o‘rni bor. Ya’ni musiqa darsi badiiy didni tarbiyalashda ta’sirchan vositadir. Bu borada eng ma’suliyatli vazifa Oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan musiqa o‘qituvchilariga topshiriladi.Badiiy did tarbiyasini musiqiy darslarining barcha fanlarida olib borish va hattoki dastlabki musiqa darslaridanoq boshlash har bir musiqa fani o‘qituvchisining vazifasidir. Shuning uchun yosh kadrlar zamondan chetlashmagan va milliy koloritni unutmagan holda darslarni tashkililashtirishi lozim. Ayni paytda ko‘plab o‘zbek kompozitorlari zamonaviy koloritni milliylik bilan uygunlashtirib musiqiy teatr studiyalarida, O‘zbelisyon davlat Konservatoriyasida tashkil qilingan misiqiy labaratoriyalarda asarlani ijro qilib sinab ko‘rishmoqda va bu asarlar sahnalar yuzuni ko‘rmoqda. Shu sababli yosh kadrlar zamonaviy o‘quv qollanmalar chiqarishi o‘z oquv qollanmalariga har hil metodikalarni uyg‘unlashtirib o‘quvchilarning san‘at sohalariga qiziqtirishlari eng katta vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. PQ-112-oxirgi 02.02.2022 Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish doir qo’shimcha chora tadbirlar tog’risida (lex.uz)

Shokarimov.O‘. I. Xor teatr jurnali 5-soni 2021 yil.

2. 1.S.Begmatov. D.Tashbayeva ‘‘методика преподавание и школный репертуар’’ T,2007 yil

3. Shokarimov.O‘. I. Xor teatr jurnali 5-soni 2021 yil.

4.O’zbek Milliy ensklopediya.T.G’ofurbekovni maqolalari.

5. История современной отечественной музыки: Учебное пособие. Вып. 3 / Ред.-сост. Е. Долинская. — М.: Музыка, 2001. — 656 с.

MAGISTRATURA TALABALARINI TA’LIM JARAYONIDA ILMIY TADQIQOT ISHLARIGA MAQSADLI YO‘NALTIRISHGA ASOSLANGAN INTEGRATSION JARAYON

Usmanova Umida Aybekovna

Andijon davlat pedagogika instituti, kafedra mudiri, (DSc), dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada magistratura talabalarini ta'lim jarayonida ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli yo'naltirishga asoslangan integratsion jarayon to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasasi va undan keyingi kasbiy rivojlanish jarayonida magistratura talabalari o'z fanidagi ilmiy yondashuvlar, konsepsiyalar, nazariyalar, eng so'ngi axborotlar mazmunidan xabardor bo'lishi kerakligi asoslab ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *yangilik, ilm-fan, ilmiy-pedagogik faoliyat, tadqiqot, ilmiy tadqiqotchilik, kashfiyot, o'z-o'zini anglash, ilmiy konferensiyalar, intellektual-rivojlantiruvchi.*

Kirish. Oliy ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishni ta'minlaydigan tizimli o'zgarishlarning umumiy asosidir.

Shunga muvofiq, O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida " …ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvshi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish", …ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvshi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish" ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida belgilandi.

Birinchidan, inson kapitali mamlakatning muhim milliy boyligi hisoblanadi. Uning har tomonlama ko'payishi va taraqqiy etishi, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan, professional tayyorgarlikka ega bo'lgan, mamlakatni modernizatsiya qila oladigan va demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan, yurt va xalq manfaatlariga sadoqatli yangi avlod kadrlarini tayyorlash bugungi zamon talabidir. Bunga erishishda eng asosiy e'tiborni kadrlarni tayyorlab berishdagi muhim bo'g'in,

pedagog kadrlar tayyorlashdagi asosiy bosqish hisoblangan magistratura mutaxassisliklariga e’tibor qaratib, bu yo‘nalishda ayrim islohotlarni keshiktirmasdan amalga oshirish lozim.

Ikkinshidan, resrublikamizda magistratura bosqishida ilmiy tadqiqotshilik kompetensiyasi baland emas. Ayni paytda bu yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ham barmoq bilan sanoqli. Ilmiy izlanishlar orqali iqtidorli yoshlarni bu sohada ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish maqsadida ilmiy g’oya va yangiliklarni, tadqiqot natijalarini loyihaga jalb qilingan professor o‘qituvshilar, pedagogik sohadagi magistratura bosqichi talabalari orqali tajriba-sinov hamda aprobatsiyadan o‘tkazish, amaliyotga joriy qilish vazifalari ham g’oyat muhim dolzarb ahamiyatga ega.

Uchinshidan, OTMlaridagi magistratura bosqichi talabalarini, bo‘lajak tadqiqotshilarni ilmiy faoliyatga tayyorlash, kasbga ruhiy sozlanish jarayonini yo‘lga qo‘yish ushun ayni paytda ularning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug’ullanishlari, magistratura talabalarida pedagogik ilmiy-tadqiqotshilik komretensiyalarini rivojlantiruvshi mobil ilova hamda elektron platforma yaratish orqali ilmiy-metodik ta’minotni yaratilishi, talabalarni masofadan turib ilmiy faoliyatga tayyorlanishi, egallagan bilimlarini nazorat qilinishi, SMART ta’limni joriy qilish orqali bilim olishdagi qulayliklarga erishish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

To‘rtinchidan, magistratura bosqichidagi ta’lim-tarbiya jarayonining bevosita ijrochisi bo‘lmish talabalar faoliyatini metodik ta’minlaydigan va to‘ldiradigan o‘quv-uslubiy adabiyotlarining, ayniqsa, elektron shakldagi uslubiy ishlanmalar, ta’limiy multimediya mahsulotlarining tanqisligi og’riqli muammolardan sanaladi.

Magistratura talabalarini ta’lim jarayonida ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli yo‘naltirishga asoslangan integratsion jarayon qisqa muddat ichida oliy ta’lim muassasalari kafedralarining ilmiy imkoniyatlari kengayishiga ko‘maklashadi. Bugungi kunda fan va ta’lim integratsiyasining rivojlanishi ko‘p jihatdan amalga oshiriladigan tadqiqotlarga ham bog‘liq.

Hozirgi texnologik jarayonlar rivojlangan davrda, oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan tadqiqotlar mavjud muammolar yechimiga qaratiladi. Bu o‘rinda ilmiy laboratoriyalarning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Bugungi axborot texnologiyalari asrida oliy ta’lim jarayonida faqat mavjud bilimlarnigina o‘zlashtirib, so‘ngra ilm bilan shug‘ullanish emas, balki ta’lim jarayonini ilmiy tadqiqot ishlari bilan bir vaqtda va bir-biri bilan bog‘lagan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni juda ko‘p ma’lumotlarga asoslanilgan tarzda amalga oshirilishi tufayli talaba barcha ma’lumot yoki axborotlarni o‘zlashtira olmaydi hamda ularni tizimlashtirish imkoniyatiga ham ega bo‘lmaydi. Shuning uchun bo‘lajak mutaxassisning bilim darajasi mukammal bo‘lmay turib o‘z ishiga yuqori qiziqish bilan yondoshmaydi. Ta’lim ilmiy tadqiqot jarayoni bilan qo‘shib amalga oshirilganda esa, talaba o‘zi ishtirok etayotgan yoki olib borayotgan ilmiy tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchli bo‘lishi uchun, mavjud va axborotlarni o‘zi mustaqil ravishda hamda tanlangan qiziqqan sohasini mukammal egallash maqsadida barcha imkoniyatlarda foydalanishga harakat qiladi. Tadqiqot ishi talabani mas’uliyat hissini anglab yetish va oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda intizomga qat’iy rioya qilishga undaydi.

Fan bilan ta’lim jarayoni integratsiyasini yuqori darajada tashkil etish uchun avvalo, o‘quv va ilmiy-muammoli laboratoriyalar holati hamda ularda olib boriladigan tadqiqotlarning mazmun-mohiyatiga e’tibor berish kerak. Bunda asosiy e’tibor talabaning ushbu faoliyatiga qiziqishi va kerakli ko‘nikmalarni hosil qila olishiga qaratilishi, buning uchun ilmiy laboratoriyalarda olib boriladigan tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar qo‘proq mahalliy muammolar bilan bog‘langan bo‘lishi lozim. Chunki talaba o‘zi duch keladigan muammo yechimi bilan bog‘liq tarzda olib boriladigan tadqiqotlarga ko‘proq e’tibor beradi. Ushbu jarayon ta’lim va fan integratsiyasini tashkil etishning bosh mezonlaridan biridir.

Ilmiy tadqiqot natijalari bayonining maqsad va vazifalari ushbu yo‘nalishdagi yangiliklar va ma’lumotlarni ommalashtirishdan iboratdir. Buning natijasida ilmiy tadqiqot ishidan olingan xulosalar soha vakillari va

mutaxassislarning e’tiboriga havola etiladi va bildirilgan munosabatlar orqali ish samaradorligini aniqlash, zarur hollarda yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish imkoniyati vujudga keladi.

Hozirgi o‘quv-tarbiya jarayonida magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati juda katta. Raqamli texnologiyalar XXI-asr yoshlari hayotining ajralmas qismidir. Magistratura talabalari raqamli muhitda elektron vositalar uchun har qachongidan ko‘proq, yoshligidanoq vaqtlarini sarflaydilar. Bu esa ularda hayot uchun zarur bo‘lgan raqamli ko‘nikmalarni erta shakllantirish, ta’limda natijalarga erishish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Misol tariqasida taniqli olim Eynshteyn yoshligida kamgap, juda kuzatuvchan bola bo‘lgan. Besh yoshida uning qo‘liga kompas tushib qoladi. Yosh Albert kompasni qaysi tomonga burmasin, uning ignasi har doim bir xil yo‘nalishni ko‘rsatishidan hayratda edi. U o‘yinchoq deb tasavvur qilgan fizik moslama uni ilm olamiga olib kirdi, magnit maydoniga oid ilk tushunchalar bilan tanishtirdi. “Bu tajriba menda chuqur va uzoq taassurot qoldirdi”, deb yozgan u yillar o‘tib. “Keyinchalik men uning ortiga yashiringan sir-asrorlarni bilish uchun ilm-fanni chuqurroq o‘rganishga harakat qildim.

Magistratura talabalarining ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari natijalari hisobot, referat, maqola, ixtiro, tavsiyanoma va bitiruv-malakaviy ish ko‘rinishlarida yakunlanadi. Shu singari ishlar bo‘lajak mutaxassislarning tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirib, rivojlantiribgina qolmasdan, balki ular o‘zlashtirgan bilimlarning yanada chuqur va mustahkam bo‘lishiga olib keladi hamda kasbiy-amaliy ko‘nikmalarini takomillashtiradi.

Magistratura talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

magistratura talabalarining ilmiy eruditsiyasi va nazariy dunyoqarashini kengaytirish;

-nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish;

-ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ilmiy munozaralar olib borish;

ko‘nikmalarini shakllantirish, ma’lum ilmiy, texnik masalalarni yechishga undash;

-yuksak ishbilarmonlik manaviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga ko‘maklashish hamda talabalarning jamoa va tashkiliy ishlarini olib borish tajribasini o‘ziga singdirish.

O‘quv jarayonidan tashqari magistratura talabalarilarni ilmiy tadqiqot ishiga jalb etishning quyidagicha 2 xil shakli mavjud: fan ilmiy to‘garagi va mutaxassislik bo‘yicha ilmiy tadqiqot to‘garagi.

Shunday qilib, fan va ta’limning maqsadlari umumiy bo‘lib, muammoning yagona yechimini topishga qaratilgandir. Ilmiy tadqiqotlar oliy ta’limni keng doirada rivojlantirish, ilmiy xizmat ko‘rsatishning samaradorligini oshirish hamda ta’lim-tarbiya va tadqiqot jarayonlari oxirgi natijalarining takomillashuviga yo‘naltirilishi kerak.

Ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarining kirib kelishi fanlarni zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish tizimining shakllanishiga asos bo‘ldi. Bu tizim nafaqat oliy, balki butun uzluksiz ta’lim tizimida noan’anaviy usullarni qo‘llash imkoniyatini yuzaga keltirdi.

Ta’limda zamon va rivojlanish talablari asosida yangicha yondashuvlar usullarini izlash bilan bog‘liq holda oliy ta’lim muasasalari faoliyatida ilm orqali bilim berish usuli ustuvor bo‘lmoqda. Bu usulning amaldagi namunasi sifatida kafedralar qoshida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda tashkil etilgan "Ilmiy-amaliy muzey", ”Ilmiy adabiyotlar kutubxonasi",” Seloksion tajribalar eksperimental maydonlari", "Mintaqaviy tadqiqot markazi", “Pedagogik innovatsiya markazi”, “Pedagogik ilmiy tadqiqotlar" markazi, “Kichik maktab”lar, "Kvorking markazi” kabilarning tashkil etilganligini misol qilib keltirish mumkin. Shunday markazlarning tashkil etilishi magistratura talabalarining ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ilmiy izlanishlarini yo‘lga qo‘yish, qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirishning ma’muriy-tashkiliy tomonlariga asos bo‘ladi.

O‘quv maqsadlarida ham, haqiqiy muammolarni hal qilishda ham (ilmiy, ishlab chiqarish, tashkiliy va boshqalar) turli xil o‘yin turlari mavjud. Bular ta’lim, simulyatsiya, rol o‘ynash, tashkiliy faoliyat, operativ, biznes, boshqaruv, harbiy, muntazam, innovatsion va boshqalar. Ular ko‘pincha turli sabablarga ko‘ra ajralib turadigan va bir-biriga mos keladigan darajada qat’iy tasnifga berilmaydi.

Mazkur fikrlar jamiyatimizda yoshlar qatlamini har jihatdan raqobatbardosh etib tarbiyalash, dunyo o‘zgarishlarga jonli tarzda javob beradigan, buyuk yurt kelajagini o‘z aql-zakovati, ma’naviyati, madaniyati, tashkilotchiligi va tadbirkorligi bilan rivojiga xissa qo‘sha oladigan tarzda ta’lim-tarbiya berish darkor.

Zamonaviy voqelik sharoitlaridan kelib chiqib, innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadi deb ijodiy individuallikka va alohida o‘ziga xos kreativ tafakkurga ega shaxsni rivojlantirishni hisoblash lozim. Faqatgina maxsus bilimlarni olish yaxshi bitiruvchi bo‘lish uchun yetarli emas, va bunda shaxsning eng ko‘p jihatdan individual tabiat, ijodiy potensialiga mos keladigan tomonlarini rivojlantirishni ham hisobga olish zarur. Mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri – ularda o‘quv-bilish jarayonida induvidual yondashuvni rivojlantirishdan iborat.

Tahlil va natijalari:

Tadqiqotshilik faoliyati magistratura talabalarining izlanuvshanlikka, ijodkorlikka yetaklovshi faoliyatdir. Tadqiqotchilik faoliyati tajriba qo‘yish va uni o‘tkazish, kuzatuv natijalarini qayd etish, olingan natijalarni qayta ishlash, jamoa oldida o‘z fikrini bayon etish, nutq so‘zlash kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Tadqiqotshilik faoliyati ijrochi insonni emas, balki ilmiy salohiyatga ega, zamon talabiga mos ijodkor va tadqiqotshi insonni tarbiyaladi.

Ilmiy tadqiqotshilik faoliyati bu – yechimi noma’lum bo‘lgan muammoni hal etish, o‘rganilayotgan obyektga oid qonuniyatlarni amaliyotda foydalanish uchun kashf etish, yangi bilimlarni ishlab shiqish jarayoni bilan bog’liq bilish faoliyati.

Ilmiy tadqiqotshilik – magistratura talabalarining bu intellektual jihati mashg'ulotlarga tayyorlanish va ilmiy izlanishlari jarayonida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotchilik talabaning puxta va aniq ilmiy qarashlarga egaligi, fikriy mustaqilligini ta'minlash bilan birga o‘ziga xos ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

Tadqiqotshilik kompetensiyasi – bu shaxsning ajralmas sifati bo'lib, u tadqiqot muammolarini mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati va tayyorligi, tadqiqot ko`nikmalarining tadqiqotshilik kompetensiyasi – bu shaxsning ajralmas sifati bo'lib, u tadqiqot muammolarini mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati va tayyorligi, tadqiqot ko`nikmalarining qiymatini tan olish va ularni ilmiy sohada qo`llashga tayyorlikda namoyon bo`ladi.

Kuzatishlarimiz va mavjud tajriba ilmiy savodxon bo‘lgan shaxsda turli kompetensiyalar shakllangan bo‘lishini ko`rsatgichini tan olish va ularni ilmiy sohada qo`llashga tayyorgarlikda namoyon bo`ladi.

1.Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish:

texnologiyalar, tabiiy hodisa-jarayonlarning izohlarini bilish, taklif qilish va baholash;

tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish;

izohlovshi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foudalanish; tegishli prognozlar qilish va asoslash;

izohlovshi farazlarni taklif etish; ilmiy bilishning jamiyat ushun amaliy ahamiyatini tushuntirish.

2.Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash. Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi:

berilgan ilmiy tadqiqotda o‘rganilayotgan muammoni aniqlash;

berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usulini taklif etish;

ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligini ta'minlashda olimlar tomonidan qo‘llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash;

ilmiy tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan savollarni farqlash;

berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash;

3.Ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish:

ma’lum bir ko‘rinishdagi ma’lumotlarni boshqa ko‘rinishda ifodalash;

ma’lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish;

ilmiy dalillarga asoslangan mulohazalarni boshqa qarashlardan farqlay olish;

ilmiy adabiyotlardan olingan matnlardagi faraz, dalil va xulosalarni aniqlash;

turli manbaalardan olingan ilmiy mulohaza va dalillarni baholash.

Oliy ta’lim tizimida ilmiy dunyoqarashga ega, ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirish, uning axloqiy qiyofasini tarkib toptirishda magistratura talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli jalb etishning katta ahamiyatga ega ekanligi mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan. Jamiyat taraqqiyoti ushun zarur bo‘lgan, insoniyat farovon turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan yangilikni kashf etish shaxs ma’naviyatiga xos sifatlarni shakllantirishga eng salmoqli hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan faoliyat turi tadqiqotshilikdir.

Magistratura talabalarining tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish orqali shakllantiriladigan ko‘nikmalar:

1. Tadqiqot muammosini aniqlash: a) kuzatish; b) obyektning muhim jihatlarini aniqlay olish; s) muammoni qo‘ya bilish; d) diqqatni jamlay olish.

2. Tadqiqot obyekti, predmetini ifodalash: a) umumiydan xususiyni ajrata olish; b) muhim jihatni aniqlay olish; s) tarkibiy qismlarga ajrata olish.

3. Tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilash: a) maqsadni to‘g’ri belgilay olish; b) muammoni savol shaklida ifoda etish; s) asosli savol bera olish; d) kreativ fikr yuritish;

4. Tadqiqot farazini ishlab shiqish: a) dalillarga asoslanib bashorat qilish; b) tadqiqot rejasini tuzish.

5. Tadqiqot metodlarini belgilash: a) muammoni hal etish ushun eng maqbul usulni tanlay bilish.

6. Ma’lumotlar to‘plash, kuzatish, tajribalar o‘tkazish: a)ma’lumotlar yig’ish; b) ma’lumotlarni qayd etish; s) kuzatish; d) hisoblash; y) ma’lumotlarni jadvallarda ifoda etish; f) jihozlardan foydalanish.

7. Natijalarni tahlil qilish va dalillarni qayd etish: a) ma’lumotlarni umumlashtirish; b) ma’lumotlarni grafik, diagrammada ifoda etish; s) matematik-statistik tahlil; d) taqqoslash; ye) klassifikatsiyalash; f) korrelyatsiya-mutanosiblikni aniqlash.

8. Tadqiqot natijalarini xulosalash: a) sabab-oqibat bog’lanishlarni aniqlash; b) umumlashtirish; s) tizimlashtirish.

9. Tadqiqot natijalari ishonchliligini tekshirish: a) tanqidiy baholash; b) mavjud mezonlarlardan foydalanib natijalarni tekshirish.

Ilmiy tadqiqotshilik faoliyati o‘z navbatida, bir qator vazifalarni o‘z ishiga oladi. Quyida tadqiqotshilik faoliyatini shakllantirish jarayonida bajariladigan ishlarga izoh berilgan va aniqliklar kiritilgan:

1. Magistratura talabalarining qiziqishlarini o‘rganish.

Magistratura talabalarining ilmiy yo‘nalishini aniqlash ushun umumiy savollar asosida suhbat o‘tkaziladi va talaba tadqiqot sohasining qaysi yo‘nalishlariga qiziqishi belgilanadi. Uning bu sohadagi bilimi, dunyoqarashi, ko‘nikma va malakalari darajasi aniqlanadi.

2. Ilmiy mavzulardagi suhbatlarga jalb qilish.

Magistratura talabalari kafedrada tashkil yetilgan ilmiy seminarlar, suhbatlar, ilmiy munozaralar, konferensiyalarga jalb etiladi. Ilmiy bahslarda shaxsiy munosabati va qarashlarini bayon etadi.

3. Ilmiy mavzuda ma’ruza tayyorlash.

Qiziqqan sohasi bo‘yisha o‘rgangan materiallari, tadqiq qilingan ilmiy izlanishlar xulosalari, ilmiy tadqiqotlar, manbalar tahlili asosida maqola va ma’ruza matni tayyorlaydi.

4. Referat, kurs ishlari tayyorlash.

Tadqiqot ishlarining mazmuni asosida o‘quv rejasidan tashqari referat, kurs ishi, taqriz, rezyume, annotatsiya tayyorlaydi.

5. Ilmiy materiallarni tahlil qilish.

Magistratura talabalarining ilmiy yo‘nalishi aniqlanganidan so‘ng unga shu yo‘nalishda bajarilgan tadqiqot ishlarini o‘rganish va tahlil qilish malakasini

egallashi ushun ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, ilmiy maqolalar) tavsiya etiladi. Talabaning shu yo‘nalishda bajargan ishlari belgilangan muddatlarda o‘rganib chiqiladi va yig’ilishlarda muhokama qilinadi.

6. Ilmiy tadqiqotshilik hujjatlarini tayyorlash.

Ilmiy ishning maqsadi va mohiyatini anglaganidan so‘ng talabaga tadqiqot ishlarining me’yoriy (nizom, qaror, konsepsiya va b.), joriy (buyruq, dastur va b)ishchi (chora-tadbir, reja va b.) hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish va tartib - qoidalari o‘rgatiladi.

7.Tadqiqot rejasini ishlab shiqish.

Tadqiqot ishining ishchi rejasini ishlab chiqish, unda e’tiborga olinadigan holatlar va tartibga rioya qilish, tadqiqot ishi davrining umumiy va yillik hisobot rejalarini belgilash topshiriladi.

8. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlash.

Ilmiy tadqiqot natijalari bayonining maqsad va vazifalari ushbu yo‘nalishdagi yangiliklar va ma’lumotlarni ommalashtirishdan iboratdir. Buning natijasida ilmiy tadqiqot ishidan olingan xulosalar soha vakillari va mutaxassislarning e’tiboriga havola etiladi va bildirilgan munosabatlar orqali ish samaradorligini aniqlash, zarur hollarda yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish imkoniyati vujudga keladi.

Magistratura talabalarining ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari natijalari hisobot, referat, maqola, ixtiro, tavsiyanoma va bitiruv-malakaviy ish ko‘rinishlarida yakunlanadi. Bu bo‘lajak mutaxassislarning tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirib, rivojlantiribgina qolmasdan, balki ular o‘zlashtirgan bilimlarning yanada chuqur va mustahkam bo‘lishiga olib keladi hamda kasbiy-amaliy ko‘nikmalarini takomillashtiradi.

Biz magistratura talabalarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini ta`minlashga yo`naltirilgan o‘z-o‘zini rivojlantirish sharti sifatida qaraymiz, bu ko‘rinsha ular tashkil etayotgan tadqiqot faoliyati ta’sirida amalga oshiriladi. Buning uchun talabalar ilmiy o‘z-o‘zini uzluksiz ravishda tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirib borishi lozim, bunda bakalavriaturada

shakllangan motivlar ta’sirida o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va aniq natijalarga erishadi. O‘z-o‘zini namoyon qilish va o‘zini-o‘zi tasdiqlash shakllaridan foudalanganda, uning faoliyat sifati yaxshilana boshlaydi. Talabaga aynan shu jarayon tadqiqot faoliyatidagi xatti-harakatlar usullarini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, biz zamonaviy sharoitda tadqiqot malakasini o‘z-o‘zini rivojlantirish kontekstida magistraturada talabalarning subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish muammosini hal qilish uchun ma’lum shartlar mavjud degan xulosaga kelamiz. Redagogika magistraturasi talabalarining ilmiy-tadqiqot malakasini o‘z-o‘zini rivojlantirishning pedagogik shartlari ularning subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish ushun to‘liq ta’lim maydonini ta’minlashni nazarda tutadi. Universitet amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, magistrantning mavzu pozitsiyasi uning tadqiqotchi sifatida shakllanishining ushbu ko‘rsatkichi bilan bog’liq holda harakat qiladigan shaxsiy pozitsiyasining zaruriy rivojlanuvshi jihati sifatida qaralishi mumkin. Biz buni uning o‘z ta’limini oshirishga tayyorligini shakllantirishning tabiiy jarayoni deb bilamiz, ushbu jihat magistratura tizimi universitet sharoitida shakllanishiga yordam beradi. Shu munosabat bilan, pedagogika magistraturasi talabalarining ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar aniq ko‘rsatmalarga ega bo‘lib, ular kontekstida, ta’limning bakalavriatura bosqichi talabani tadqiqotchi sifatida tarbiyalashda muhim sanaladi. Bu, xususan, muayyan vazifalarni aniqlash va hal qilishga qaratilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish jarayonida o‘z shaxsiy pozitsiyasining quyidagi fazilatlari rivojlanadi:

- o‘zlarining ta’lim imkoniyatlarida harakat qilish qobiliyati, shu jumladan o‘zlarining ta’lim muammolarini aniqlash va ularni hal qilish variantlarini torish qobiliyati;

- ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish ushun qulay shart-sharoitlarni yaratish ushun magistraturaning barcha imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyati;

- universitet hayotining turli sohalarida, birinchi navbatda, ilmiy xarakterdagi faoliyatda o‘zini namoyon qilish uchun har qanday imkoniyatni topish qobiliyati;

- tegishli muammolarni hal qilishga tayyorligini hisobga olgan holda, tadqiqot malakasini o‘z-o‘zini rivojlantirish kontekstida shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish qobiliyati;

- o‘z ta’limini qadrlash va mas’uliyat bilan yondashish, uning maqsad va mazmunini o‘ylangan holda belgilash qobiliyati.

Shu munosabat bilan magistrantning ilmiy-tadqiqot malakasini rivojlantirish yo‘llarini tanlashda uning faolligi kabi omilni hisobga olish zarur, bu kasbiy yo‘naltirilgan bilimlarni o‘zlashtirganda o‘zining amaliy ilmiy faoliyatida samarali qo‘llash imkonini beradi. Magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini mustaqil ravishda rivojlantirish shartlarini hisobga olgan holda, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini va harakatchanligini, ijodkorligini va bilishga tayyorligini namoyon etish imkoniyatlarini ta’minlash zarurligini ta’kidlash muhimdir, bu ularning kognitiv faoliyatini tashkil etish kompetensiyasining ma’lum bir ko‘rsatkichi hisoblanadi. Magistratura dasturi doirasida tadqiqot malakasini o‘z-o‘zini rivojlantirish g’oyasi shaxsning rivojlanishini faollik bilan to‘ldirish sifatida amalga oshiriladi va shaxsiy rivojlanish tadqiqot faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu muvaffaqiyat faqat shaxsiy va kasbiy rivojlanishning birligi natijasida amalga oshishi mumkin.

Shunday qilib, magistrantlarning ilmiy-tadqiqotshilik kompetensiyasini o‘z-o‘zini rivojlantirish ushun shart-sharoitlarni yaratish quyidagilarni nazarda tutadi: bo‘lajak ilmiy faoliyatning aniq maqsadlari va tadqiqot faoliyatining aniq dasturini ishlab shiqish; talabalarning ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘z-o‘zini rivojlantirishni pedagogik qo‘llab-quvvatlash modelini ishlab shiqish; ushbu jarayonning barcha subyektlarining o‘quv va tadqiqot jamoasi o‘zining pedagogik salohiyatini ta’lim resursiga aylantirish uchun muhitga aylanadigan maxsus ta’lim maydonini yaratish; tadqiqot faoliyati natijalarini baholash mezonlarini aniqlash; uning natijalarini haqiqiy baholash va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr.

2. Appleton, K. (2003). How do beginning primary school teachers cope with science? Towards and understanding of science teaching practice. Research in Science Education, 33: 1-25.

3. Narziyeva N.N. Umumta'lim maktab o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalar asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish. Pedagogika

MUSIQA O‘QITUVCHISI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Romanova Sanobar Yerejepovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI Musiqiy ta‘lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarga kasb bo‘yicha bilimlar berishda pedagogik musiqiy kompetensiyalarni shakllantirish yoshlar tarbiyasidagi asosiy poydevor ekanligi va bu sifatlarga ega pedagog bo‘lish nafaqat hozirgi zamon musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari talabi haqida yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *Pedagog, kompetentsiya, tarbiya, musiqa kuylash, tinglash, musiqa savodi, o‘qituvchi mahorati.*

Hozirgi kunda respublikamiz ta’lim tizimida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning eng asosiy sifat bosqichida belgilangan vazifalarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha chuqur o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Milliy dasturda ko‘zda tutilganidek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish hamda axborot tizimi bilan ta’minlash jadal rivojlanmoqda.

Ta’lim mazmuni qanchalik yangilanmasin, mukammal o‘quv dasturlari, darsliklar yaratilmasin, o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining pedagogik mahorati, yangi ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishi va

ulardan ta’lim jarayonida unumli va o‘rinli foydalana olishiga bog‘liq.

Fan va ta’limning moddiy, uslubiy bazasi mustahkamlanib, o‘quv-uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy vositalar mukammallashib o‘quv jarayoniga tadbiq qilinmoqda. Ma’lumki, didaktikaning predmeti o‘rgatish, o‘rganish hamda ta’lim mazmunidan iborat. Bu uchala komponentdan birortasini e’tiborda tutmaslik ta’lim mazmunini yo‘qqa chiqaradi. O‘rgatish ham, o‘rganish ham ularning oxirgi natijasi ham ta’lim mazmuniga bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida har xil mavzularni o‘ziga hos usullar bilan o‘rganish uni o‘ziga xosligi va mazmunidan kelib chiqadi, bu esa asosan o‘rganishni tashkil etuvchi, pedagog o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq.

Har qanday fanni, shu jumladan, musiqa fanini o‘qitish jarayonida ham faollashtiradigan, ularni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fkirlovchi mushohada qiluvchi o‘z fikrlarini bildira oluvchi o‘quvchi sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi – bu o‘qituvchidir. O‘qituvchi o‘zi va o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo‘lgan o‘qitish usullari, yo‘llari, shakllari, vositalari ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta’lim texnologiyalariga o‘quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Pedagogika oliy ta‘lim fan dasturlari mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarga kasb bo‘yicha bilimlar berish, pedagog faoliyat sirlarini o‘rgatish va talabalarda ko‘nikma hosil qilishga qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahoratini shakllantirishga ahamiyat berish zarur. Mahorat - bu “ishni muvaffaqqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari kombinatsiyasidir”[1]. Zero o‘qituvchi “pedagoglik kasbiga doir bilimlarni, ya'ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo‘lishi”[2] maqsadga muvofiq. Pedagogik texnologiya hozirgi kunda eng rivojlangan

1 Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996. 26-bet
[2] Mavlonova R, Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. Fan va texnologiya nashriyoti. T., 2009- yil. 11-bet

mamlakatlar ta’lim tizimida bo‘lgani kabi bizning Respubliksmizda ham ta’lim jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog‘liq ishlarda ustuvor o‘rini egallamoqda.

Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar yaxshi xabardor bo‘lishi, ta’lim jarayonida ularni qo‘llab dars o‘tishlariga muhim e’tibor berilmoqda. Bu aynan jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlariga mos bo‘lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan ta’lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari shunga mos ravishda takomillashib borishi bilan bog‘liqdir. Hozirgi sharoitda inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari taraqqiyotga mos maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi modulli tizimga, ya’ni ta’limni texnologiyalashtirishga aylanib bormoqda.

Musiqiy ta’lim mazmunini milliy asosda shakllantirish, milliy musiqiy merosdan to‘laqonli foydalanish, xalq kuy-qo‘shiqlari, doston, mumtoz va maqom hamda ularning ta’sirida yaratilgan zamonaviy musiqalar vositasida o‘quvchi yoshlarni milliy qadryatlarimizni teran anglaydigan, Vatanga, o‘z xalqiga, tilimizga, dinimizga, tariximizga, san’atimizga ongli munosabatda bo‘ladigan va unga vorislik qila oladigan ma’nan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad va vazifa sifatida ko‘rsatilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar musiqa san’atini butun nafosati bilan o‘rganishlari, idrok etishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqa tinglash, tahlil qilish, jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash, nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, (musiqa savodxonligi) raqsga tushish, bolalar cholg‘u asboblarida chalish va unga jo‘r bo‘lish, musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish masalalarini shakllantirish musiqiy ta’limning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyalarni barcha turlarida birdek qo‘llaniladigan va ta’lim-tarbiya jarayonini tadrijiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi omillar hamda tarkibiy elementlar uch xil faoliyatdan iborat bo‘lib, ular so‘zlash, ko‘rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo‘lib musiqa darslariga uni tadbiq etilganda quyidagicha ketma-ketlik va bog‘liqlikda amal qiladi. Musiqa ta’limining o‘ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, o‘qitish usullari, ularning samaradorligini ta’minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy

ijodiy va ijobiy jihatlarini umumlashtirish musiqa ta’limini o‘zigagina xos bo‘lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bular ham o‘z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko‘ra pedagogik texnologiya bo‘lib, ularni musiqa mashg‘ulotlariga tadbiq etish yaxshi natija bermoqda. Bunday darslar o‘quvchilarda yaxshi kayfiyat, jo‘shqinlik, ko‘tarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda[3].

Musiqa madaniyati darslarida qo‘shiq o‘rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi:

Bolalar diqqatini qo‘shiqqa jalb qilish, qo‘shiq haqida o‘qituvchining kirish so‘zi, qo‘shiqni ifoda vositalari, xarakteri mazmuni haqida suhbat qurish, qo‘shiqni musiqiy jumlalarga bo‘lib o‘rgatish kabi kuylash kompetensiyasiga ega bo‘lsa, bu jarayonlar ketma-ketligiga amal qilgan tarzda pedagog bolalarda kuylash malakasini shakllantira oladi. O‘quvchilarga kuylash, cholg'uda ijro etishni o‘rgatishda avvalambor musiqa savodxonligiga bog‘liq. O‘qituvchi musiqaning nazariy ma'lumotlari bilangina shakllantira oladi, uning musiqiy atamalarni yaxshi bilishi, ularni tushunarli tarzda o‘rgata olishi, ijro jarayonlarida foydalana olishi o‘qituvchining musiqiy savodxonlik kompetensiyasiga ega ekanligini anglatadi. bolalar cholg'u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyati o‘quvchilar uchun eng qiziqarli faoliyatlardan biri. Bu faoliyatni amalga oshirishda albatta o‘qituvchining o‘zi namuna ko‘rsatadi, Bu qobiliyatlar Oliy ta'limda yo‘lga qo‘yilishi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini “ijrochi” sifatida ham tarbiyalash yetakchi vazifalardan.

Shuningdek, musiqa darslarida musiqa tinglash faoliyati eng muhim jarayon. Aynan musiqa tinglash orqali o‘quvchi uning mazmuni, xarakterini o‘zining fikr - mulohazali orqali ham tushunib boradi. Bu esa o‘quvchining dunyoqarashi, tasavvur, taassurot boyligini oshirishda, his-tuyg'u, go‘zallik kabilarni teranroq anglashga xizmat qiladi.

O‘qituvchi, aniqroq aytganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shu jarayonlar orqali o‘quvchining musiqiy ko‘nikmasini hosil qilishida musiqiy did, axloqiy-estetik qarashlar, musiqiy-nazariy, musiqiy-tarixiy bilimlar, keng dunyoqarash,

[3] Иброхимов О.А. Ўзбек халқ мусиқа ижоди (методик тавсиялар, I қисм). - Т.: «Ибн Сино», 1994.

nutqiy ravonlik qobiliyatlarini o‘zida shakllantirib borishi maqsadga muvofiq. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi ega bo‘lishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar o‘quvchilarni tarbiyalashda asosiy tirak ekanligi va bu sifatlarga ega pedagog bo‘lish nafaqat hozirgi zamon musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari, balki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari oldiga ham bir qator dolzarb masalalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibroximov O.A. O‘zbek xalq musiqa ijodi (metodik tavsiyalar, I qism). - T.: «Ibn Sino», 1994.

2. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. - M.: Znanie, 1996. 26-bet.

3. Mavlonova R, Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. Fan va texnologiya nashriyoti. T., 2009- yil. 11-bet.

4. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. - M.: Znanie, 1996. 26-bet.

5. Mavlonova R, Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. Fan va texnologiya nashriyoti. T., 2009- yil. 11-bet.

SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA O‘QITISH JARAYONI .

D.A.Karimova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

Har bir mamlakatning har tomonlama ravnaq topishi, uning tinchligi barqarorligi ta’minlashining eng muhim jihatlaridan biri ushbu jamiyatda yashab turgan shaxslarning bilim-saviyasiga bevosita bog’liq. Jahonda rivojlangan va rivojlanib kelayotgan davlatlarning barchasi o‘z xalqining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish va har bir shaxs hayotda o‘z o‘rnini topishi, firklarni erkin va tushunarli bayon qila olishlishi uchun ta’lim jarayonini takomillashtirish va uni amaliy hayotga tadbiq qilinishini davlat ta’lim tizimining asosiy konsepsiyasiga aylantirilganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, mamlakatimizda bu sohada qator izlanishlanishlar olib borilayotganini Musiqa pedagogikasi shaxsning musiqiy tarbiyasi ta’limi va rivojlanish jarayonlarining qonuniyatlari hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning har biri o‘ziga xos va alohida xususiyatlarga ega. Musiqa tarbiyasi jarayoni inson musiqa madaniyatining umumiy, shaxsiy

asoslarini shakllantirishga, musiqa o‘qitish jarayoni esa muayyan musiqiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltirilgan. Musiqiy rivojlanish jarayoni har bir alohida insonning musiqa madaniyati va musiqiy qobiliyatlari hamda ruhiy-fiziologik imkoniyatlarining umumiy o‘sib borishi bilan bog‘liq. Musiqa pedagogikasi tarixi yer kurrasida insonning paydo bo‘lishi, pedagogikaning shakllanishi, musiqa madaniyatining insoniy turmush tarzi sifatida vujudga kelishi bilan bog‘liq qadimiy manbalarga ega. Musiqa pedagogikasining rivojlanishi qadimiy davrlardan boshlangan va hozirgi kungacha davom etmoqda: Qadimiy dunyo (Misr, Suriya, Hindiston, Xitoy), Antik Yunoniston, Rim (Fisog‘urs, Suqrot, Demokrit, Aflotun, Arastu va b.). Qadimiy Xorazm, Eron, “Avesto”, qadimiy turklar – Xunnu, Turk xoqonligi, Arab Xalifaligi, Qur’oni Karim, Hadislar, Uyg‘onish davri, O‘rta asr Sharqi (Forobiy, Ibn Sino, Kaykovus, Marog‘iy, Jomiy, Navoiy, Kavkabiy, Darvish Ali va b.), xalq, mumtoz sharq musiqasi shakllanishi, qo‘shiq, ashula, katta ashula, doston, maqom, xorazm nota yozuvi. Yevropada nota yozuvining paydo bo‘lishi (Gvido Aretssoli), pedagogikaning fan sifatida shakllanishi (Yan Amos Komenskiy, Pestalotsi, Disterverg va b.), klassik musiqa davri (Bax, Gaydn, Mosart, Betxoven va b.), jadidlar pedagogikasi, ularning yangi uslubdagi maktablari (Munavvarqori, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Avloniy, Zafariy va b.), “ustoz-shogird” musiqa ta’limi tizimi (Abdulaziz Rasulov, Usta Olim Komilov, Yunus Rajabiy, Turg‘un Alimatov va b.), jahon umumiy, bolalar musiqa tarbiyasi tizimlari (Karl Orf, Zoltan Koday, D. Kabalevskiy va b.), professional musiqa ta’limining jahon maktablari (K. N. Igumnov, A. B. Goldenveyzer, G. G. Neygauz, L. S. Auer, A. I. Yampolskiy, P. S. Stolyarskiy va b.). O‘zbekistonda maxsus musiqa ta’limining shakllanishi. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona xalq konservatoriyalari. Buxoroda Fitratning Sharq musiqa maktabi (1921) va b.. O‘zbekistonda zamonaviy musiqa ta’limi tizimi. Shaxsning musiqiy rivojlanishi, tarbiyasi va shakllanishi musiqa pedagogikasining umumiy asoslari bo‘limi bosh mavzulari hisoblanadi. Insonning musiqiy rivojlanishi uning musiqiy qobiliyatlari va musiqa madaniyatining bir butun tashkil topishi va shakllanishi jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Musiqiy rivojlanish — bu shaxs musiqa madaniyatining

jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishdagi tug‘ma va o‘zlashtirilgan, miqdor va sifat o‘zgarishlarining har tomonlama takomillashuvi. Bu jarayonda musiqiy meros masalasi muhim qiziqish uyg‘otadi. Musiqiy meros o‘tish masalalarini o‘rganishda musiqa pedagogikasining fiziologiya, psixologiya, genetika, kibernetika va informatika fanlari bilan aloqasi ko‘p foyda keltirishi mumkin. Lekin qator avlodlarda iste’dod sohiblari, daho musiqachilarning paydo bo‘lishi nafaqat irsiyatga, balki ular hamda ularning ota-onalari yashagan va tarbiyalangan muhitga ham bog‘liq. Pedagogikada muhit deganda, atrofdagi tarbiyalovchi voqelik tushuniladi, mana shu sharoitda inson rivojlanadi, uning shaxsi shakllanadi. Insonni hayotga, mehnatga tayyorlash, shaxsning musiqiy shakllanishi mazkur jamiyatda qabul qilingan muayyan milliy madaniy, musiqiy an’analarga javob beradigan, axloq normalari va qoidalariga rioya qilish asosida amalga oshiriladi. Shu ma’noda, masalan, sharq musiqasi g‘arb musiqasidan farq qiladi, dunyodagi 31 turli xalqlarning musiqasi o‘zining milliy xususiyatlariga ega va h.k. Biroq tildan farqli ravishda musiqa hamma uchun tushunarli, baynalminal (internatsional) xususiyatga ega. Shunga asosan, turli xalqlarning musiqa san’ati vositasida shaxsning musiqiy shakllanishi ham baynalminal xususiyatga ega. Shaxsning musiqiy shakllanishida inson o‘zini o‘zi musiqiy tarbiyalashi va takomillashtirishi haqida faol o‘ylay boshlagan davr katta ahamiyatga ega. Uning o‘zi o‘z shaxsini faol shakllantiradi. Inson o‘zining musiqiy rivojlanishida qator yosh bosqichlaridan o‘tadi. Insonning yoshga xos umumiy xususiyatlarini o‘rganish bilan psixologiyaning maxsus sohasi – yosh psixologiyasi shug‘ullanadi. Eng umumiy ko‘rinishda maktabgacha yosh, maktab yoshi, o‘smirlik va ijtimoiy yetuklik davri kabi yosh bosqichlari ajratiladi. Shu asosda quyidagi yosh davrlarini va ularga muvofiq ta’lim-tarbiya muassasalarini ko‘rsatish mumkin: Maktabgacha yosh 1. Ilk bolalik – 3 yoshgacha; 2. Maktabgacha davr oldi – 3 yosh (bolalar bog‘chasi, kichik guruh); 3. Maktabgacha davr – 4 yosh (bolalar bog‘chasining o‘rta guruhi), 5 yosh (katta guruh), 6 yosh (tayyorlov guruhi). Maktab yoshi 1. Kichik – (I–IV) boshlang‘ich maktab. 2. O‘rta (o‘smirlik) – (V–IX sinf) tayanch (o‘rta) maktab. 3. Katta (o‘spirinlik) – (X–XI sinflar) akademik litsey yoki kasb-

hunar kollejlari. Ushbu yosh davrlarida shaxsning musiqiy rivojlanishi turli bosqichlardan o‘tadi. Chaqaloqlik, go‘daklik yoshida, hayotining birinchi yilida bu ko‘proq ona aytadigan alla qo‘shig‘i hamda bolani o‘rab turgan musiqiy muhit bilan bog‘liq. Hayotining ikkinchi va uchinchi yillarida, bola yura boshlaganda, u kattalar ortidan ayrim musiqiy va qo‘shiq jumlalarini takrorlay oladi. Bu yoshda ritmik eshitish qobiliyati faol rivojlana boshlaydi, bu bolaga musiqani alohida ritmik va raqs harakatlari bilan ifodalashga imkon beradi. Bolani uy sharoitida musiqa maktabiga joylashtirishga tayyorlash, musiqa o‘qituvchisi bilan o‘tkaziladigan xususiy mashg‘ulotlar va bolalar bog‘chasidagi musiqa mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich maktabning birinchi sinflarida bolaning ovozi hali zaif, nafasi qisqa bo‘ladi, u qo‘shiq so‘zlarini kuylashdan ko‘ra ko‘proq “so‘zlayotganga” o‘xshaydi. Shuning uchun kichkintoylar uchun qisqa jumlali va yorqin ifodaviy mazmunli qo‘shiqlar tanlash lozim, bu ularda qo‘shiqqa nisbatan e’tibor va qiziqish uyg‘otadi. Cholg‘u asboblarining jo‘rligi, ko‘povozlilikni ular hali “shovqin” sifatida qabul qiladilar, ular tarkibidagi akkordlar va tovushlarni hozircha anglab yetmaydilar. Biroq shunga qaramasdan, o‘qituvchi nafas, xushohang, muloyim ovoz, legato ustida ishlashi kerak va jamoa bo‘lib kuylashga ko‘povozlilik unsurlarini kiritishi lozim. Musiqiy rivojlanishdagi navbatdagi keskin davr o‘smirlik yoshi (12—16 yosh) hisoblanadi. Bu yosh ovozning o‘zgarishi (mutatsiyasi), ovoz apparatining yosh bilan bog‘liq o‘zgarishiga xos. Odatda, ovoz mutatsiyasi davri 13—15 yoshga to‘g‘ri keladi. Qiz bolalarda mutatsiya davri ertaroq boshlanadi va o‘g‘il bolalarga nisbatan sezilarsiz o‘tadi, o‘g‘il bolalarda ovoz paychalari anchagina yiriklashadi, shu sababli ovoz buzilishlari yaqqol seziladi. Pedagogikada o‘smirlik yoshi qiyin davr hisoblanadi, chunki o‘smirlarda nigilistik mayl, hamma narsani, ayniqsa tarbiyaviy ta’sirlarni inkor qilish ustunlik qiladi. Bu davrda shaxs shakllanishining tabiiy jarayoni kechadi. O‘smirning o‘zi u yoki bu ko‘rinishga ishonch hosil qilishi, uni o‘zi bilan taqqoslashi, shu yo‘l bilan, nimaga qodir ekanligini, bu hayotda qanday qilib mahkam o‘rnashishni bilishi kerak. Navbatdagi yosh davri o‘spirinlik, musiqa litseyi yoki musiqa kolleji davri bo‘lib, bo‘lajak kasb tanlash bilan bevosita

bog‘liq. Bu davrda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tarbiyaviy ish katta ahamiyatga ega bo‘la boshlaydi. Shaxs uning dunyoni bilish, o‘zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni anglash, tushunishi va o‘zaro munosabatlar jarayonida o‘zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi, hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog’liq ayrim jihatlarini taxlil qilish, bizga umumiy ravishda shaxs jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudoddir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya'ni, u tug’ilgan ondan boshlab o‘ziga o‘xshash insonlar qurshovida bo‘ladi va uning butun ruhiy potensiali ana shu muhitda namoyon bo‘ladi. Chunki, agar insonning taraqqiyoti tarixiga e'tibor beradigan bo‘lsak, hali gapirmay turib odam bolasi o‘ziga o‘xshash mavjudodlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko‘rinishlarining faol obyekti va subyektiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan har birimizning jamiyatdagi o‘rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo‘lgani, jamiyatga qo‘shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir.

Musiqa tarbiyasida, shuningdek, shaxsni har tomonlama – ma’naviy, axloqiy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy rivojlantirishni yoddan chiqarmaslik kerak. Musiqiy-pedagogik jarayon musiqa pedagogikasi o‘rganadigan asosiy mavzu hisoblanadi. Keng ma’noda bu jarayon musiqa ta’limining butun tizimini qamrab oladi, tor, sohaga oid zarur ma’noda esa zarur musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Musiqiy-pedagogik jarayon kechadigan tizim sifatida keng ma’noda unga xalq ta’limining butun tizimi – bolalar bog‘chalari, maktab, sinf, to‘garaklar, ijodiyot uylari va boshqalar kiradi. Jarayonning o‘zi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o‘zaro aloqasi va birligida amalga oshiriladi. Musiqiy-pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismlari musiqa ta’limi va musiqa tarbiyasi jarayonlari sanaladi, ular shaxsni musiqiy bilimdonlik, musiqiy tarbiyalilik va musiqiy rivojlanishning ichki o‘zgarishlar jarayonlariga olib boradi. Musiqiy-pedagogik jarayon o‘zining qonuniyatlari, shakllari, bosqichlari, uslublari, umumiy va maxsus, yakka va jamoa, nazariy va amaliy, konsert va mustaqil musiqiy mashg‘ulotlariga ega. Musiqiy-pedagogik jarayonning qonuniyatlarini aniqlash uchun ushbu barcha aloqalarni tahlil qilish talab etiladi. Bu aloqalarni bir butun

hisobga olish ularning birligiga, jamiyat ehtiyojlariga bog‘liqligiga, milliy va jahon musiqa madaniyatining taraqqiyotiga olib keladi. Musiqiy-pedagogik jarayonda musiqa o‘qituvchisi shaxsiga katta ahamiyat beriladi. Musiqa didaktikasi – musiqa ta’limi va uni o‘qitishning umumiy nazariyasi. Musiqa didaktikasining o‘rganish predmeti musiqa ta’limining mazmuni, musiqa o‘qitish jarayoni va uning qonuniyatlari hisoblanadi. Musiqa didaktikasi musiqa ta’limi va musiqa o‘qitishning umumiy nazariyasi sifatida musiqa ta’limidagi barcha fanlarni o‘qitishga xos bo‘lgan umumiy qoidalar va qonuniyatlarni ko‘rib chiqadi. Shuningdek, fanlariga oid metodikalar yoki xususiy didaktikalar mavjud Musiqa pedagogikasida musiqa didaktikasining quyidagi asosiy turkumlarini ajratish mumkin: musiqa o‘qitish jarayoni, musiqa o‘qitish tamoyillari, musiqa ta’limi mazmuni, musiqa o‘qitish metodlari va musiqa o‘qitish shakllari. Musiqa o‘qitish jarayoni – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning muayyan maqsadga qaratilgan birgalikdagi o‘zaro harakati bo‘lib, bu jarayonda musiqa ta’limi, tarbiyasi va shaxsning musiqiy rivojlanishi amalga oshiriladi. Shu bilan birga, musiqiy ta’lim vazifasi ushbu jarayon uchun ayniqsa o‘ziga xosdir. Bu jarayonning asosiy tarkibiy qismlari – o‘qitish (bu o‘qituvchi faoliyati) va o‘qish (o‘quvchi faoliyati) hisoblanadi. Ularning didaktik o‘zaro ta’sirisiz musiqa o‘qitish jarayoni bo‘lmaydi. Musiqa o‘qitish jarayoni musiqa o‘qitish qonuniyatlari va prinsiplariga mustahkam tayanishi lozim, ular o‘quvchining imkoniyatlari va musiqiy iqtidoriga asoslanadi, bu esa zarur musiqiy o‘rgatuvchi repertuarni to‘g‘ri tanlash imkonini beradi. Musiqa o‘qitish prinsiplari eng muhim musiqiy-didaktik qoidalar va talablar tizimini o‘z ichiga oladi, ularga rioya qilish musiqiy o‘quv jarayonining samarali kechishini ta’minlaydi. O‘qitishning umumpedagogik prinsiplari (ilmiyligi, qulayligi, tizimliligi, izchilligi, o‘qitishning hayot bilan bog‘lliqligi, ko‘rgazmaliligi, mavhumligi, ongliligi, faolligi, tarbiyaviy xususiyati, bilim va malakalarning puxtaligi)dan tashqari, musiqa o‘qitishning quyidagi maxsus prinsiplariga rioya qilish kerak: – musiqa o‘qitishning o‘quvchilarning tabiiy iste’dodlari, iqtidori va ulardagi mavjud musiqiy qobiliyatlarga bog‘liqligi; – musiqani qabul qilish, eshitish, ovoz va ijroni rivojlantirishning bir butunligi; –

hissiy va ratsional, badiiy va texnik, shakl va mazmun kabi jihatlarning o‘zaro ta’siri va birligi; – jamoaviy va yakka musiqiy mashg‘ulotlar, musiqiy va umumta’lim fanlarining o‘zaro bog‘liqligi; – musiqiy qobiliyatlar (tovushning baland-pastligini, ritm, lad, tembr, kuchini, kuy, ko‘povozlilik, aniq ijro, musiqiy xotiraning xususiyat shakli, mazmunini his etish)ni uyg‘un holda rivojlantirish. Musiqa ta’limining mazmuni musiqiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning pedagogik tizimidan iborat bo‘lib, ularni o‘zlashtirish o‘quvchilarning musiqa madaniyati va musiqiy qobiliyatlari rivojlanishini ta’minlaydi. Musiqiy bilimlar – musiqa madaniyatining to‘plangan tajribasi va uning inson ongida to‘g‘ri aks etishi. Musiqiy ko‘nikmalar – musiqa san’atidagi g‘ayriixtiyoriy yetkazilgan maxsus harakatlar. Musiqiy malakalar – mavjud musiqiy bilim va ko‘nikmalardan to‘g‘ri va samarali foydalanish. Musiqa ta’limining mazmuni ijtimoiy buyurtmaning, jamiyatning musiqiy bilimdon inson nimalarni bilishi va uddalay olishi, qanday xislatlarga ega bo‘lishiga nisbatan jamiyat qo‘yadigan talablarning pedagogik nuqtaiyi nazardan amalga oshirilishi sifatida qaraladi.. Musiqa o‘qitish uslublari o‘qituvchidan o‘quvchiga, shuningdek, ochiq master-klasslar va o‘quv-uslubiy adabiyotlar orqali o‘tadi. Musiqa o‘qitish shakli deb, musiqa o‘qituvchisi va o‘quvchilarning belgilangan va muayyan tartibda amalga oshiriladigan faoliyatiga aytiladi. Musiqa o‘qitishning asosiy shakli musiqa darsi hisoblanadi. Maxsus musiqa ta’limi tizimida bu musiqa asbobida ijro etish, qo‘shiq kuylash, dirijorlik kabilarga o‘rgatish bo‘yicha yakka tartibdagi mashg‘ulotlardir. Umumiy musiqa tarbiyasi tizimida bu musiqa mashg‘ulotlari (bolalar bog‘chasida) yoki musiqa darslari (umumiy o‘rta ta’lim maktablarida), maxsus musiqa ta’limidagi guruh mashg‘ulotlari, unda musiqa mashg‘ulotlari doimiy tarkibdagi, yoshi va tayyorgarlik darajasi bir xil bo‘lgan o‘quvchilar guruhi bilan muayyan vaqt davomida va belgilangan jadval asosida o‘tkaziladi. O‘qituvchi darsga yillik va taqvim rejalar, o‘quv dasturlaridan tortib, to dars rejalari, konspekt va hisobotlargacha, barcha zarur hujjatlarni tayyorlaydi. Musiqa darsidan tashqari, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari musiqa to‘garaklari ishi, shuningdek,

konsertlarga, musiqiy spektakllarga, muzeylarga tashrif, musiqachilar, bastakorlar bilan uchrashuvlar, kechalar, bayramlar, diskotekalar mavjud.

Xulosa qilib aytsak Har qanday jamiyatning istiqboli uning ta`lim – tarbiya maqomiga, yangicha ta`lim tizimi tarkibi va mohiyatiga, teran ma`rifiy madaniyatiga bog`liq. Zotan, ta`lim ma`rifati darajasigina jamiyatning, davlat va millatning kelajagini ta`minlaydigan, dunyo uzra nufuzini belgilaydigan yagona omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rauf Qodirov. Musiqa pedagogikasi. T:.O‘quv qo‘llanma. “Musiqa”nash. 2018 y.

2. Karimova D.A. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash T.;Darslik, “Lesson Press”nashriyoti,2021 y.

3. Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari T:. O‘quv qo‘llanma. T.Moliya iqtisod 2008 y.

MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARNI O'TKAZISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINI AHAMIYATI.

S.A.Pardayev

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Musiqa ta’limi kafedrasi v.v.b dotsenti. p.f.f.d. (Phd)

Annotatsiya: *Bugungi kunda ta’lim jarayonida olib borilayotgan islohatlar va taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli sohaning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket ko’rgazmali amaliyot bilan bog’langanligi haqida va taqdimot materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining o’zaro optimal variantda berilgan taqdimot materiallarining bayon etilishi shaxsga yo’naltirilgan bo’lishi kerakligi to’g’risida yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Texnologik, targ’ibot, ma’naviyat,ma’rifat, faoliyat, jarayon, pedagogika, psixologiya, mafkura, g’oya, ijtimoiy, siyosiy.*

Bugungi kunda berilayotgan axborotlar tinglovchilarda tadbir mavzusi yuzasidan zarur ko’nikma hamda malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi

topshiriqlar va vazifalardan tashqil topishi, auditoriya o’zlashtirishi lozim bo’lgan axborotlar xajmini aniqlash, ularning ma’lum bir mantikiy tizimda taqdim etilishi, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga mos kelishi, nixoyat, tizimlilik tamoyiliga javob berishi zarur. Shuningdek, axborotlarning yig’ilganlar tayyorgarlik darajasiga mos bo’lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Joriy etish, eng avvalo, pedagogik-psixologik talablarga javob berishi kerak. Mazkur texnologiyalardan foydalanishni tashqil etishda quyidagi texnologik ketma-ketlik muhim hisoblanadi:

- taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli sohaning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket ko’rgazmali amaliyot bilan bog’langan;

- taqdimot materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining o’zaro optimal variantda berilgan;

- taqdimot materiallarining bayon etilishi shaxsga yo’naltirilgan bo’lishi kerak.

Notiq, tashkilotchilar bilan qatnashchilar o’rtasida muloqot va o’zaro murojaat uchun qulay, samimiy muhit yaratish tadbir samaradorligini oshirishda muhim omil. Buning uchun auditoriya bilan notiq o’rtasida samimiy munosabat o’rnatilishi kerak. Tadbirga kelgan har bir qatnashchi o’zining ham tinglanishini xohlaydi. Shuning uchun tadbir qatnashchilariga o’z fikrlarini emin-erkin bildirishiga imkoniyat berilishi muhim. Faqat notiq qatnashchi tomonidan bildirilgan fikrni tadbir maqsadiga yo’naltira olishi kerak. Aynan shu yerda notiqdan e’tiborlilik, ziyraklik hamda mavzuni chuqur o’zlashtirganlik talab qilinadi.

Tadbir so’ngida ishtirokchilar bilan mavzu yuzasidan savol-javob uchun vaqt ajratilishi shart. Gap shundaki, yoritilgan mavzu tinglovchiga tushunarli bo’lsa, ularda savollar tug’iladi. Aksincha, agar hech kim savol bermasa, fikr bildirmasa, bu mavzuning tushunilmaganidan dalolat bo’lishi mumkin. Agar auditoriyadan savollar berilmasa, ma’ruzachi mavzu yuzasidan o’zi qo’shimcha savollar berib, tadbir samaradorligini ta’minlashi mumkin.

Targ’ibot odamlarda yangi bilim, tuyg’u, orzu-istaklarni hosil qilish, to’g’ri asoslangan fikr, e’tiqodni mustahkamlash, noto’g’ri shakllangan stereotip, qarash, yanglish xulosalarni o’zgartirishni ham ko’zda tutadi. Shunday ekan, masalaga ilmiy-amaliy yondashuv inson psixikasining tuzilishini bilishni, targ’ibotning metod, shakl, texnologiya va vositalarini ijtimoiy psixologiya va pedagogika, sotsiologiyaning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda tanlash va amalga oshirishni taqozo etadi. Aks holda, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining yig’ilishida qayd etilganidek, «nuqul ulug’ allomalarimiz, bobolarimiz erishgan yutuqlarni madh etish; yutuqlarimizni qayd etish; targ’ibotning zamonaviy usullaridan foydalanmaslik; yangiliklarni kechikib yetkazish; mafko’raviy tahdidlarni oldindan ko’ra bilmaslik, preventiv choralar qo’llanilmayotganligi; asosiy fikrlar taxminiy gaplar, improvizatsiya qilish, «ijodiy» yondashishlar soyasida qolib ketayotganligi; ilmiy-nazariy asosga tayanmaslik, intuitsiyaga tayamish» kabi kamchiliklarga yo’l qo’yiladi. Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish masalaga ilmiy-nazariy asoslarga tayangan holda yondashishni talab qiladi.

Odamning har bir hodisa, narsaga shaxsiy munosabati bo’ladi. O’zaro suhbatda yoki tarbiya, targ’ibot maqsadlarida. bilib yoki bilmasdan kishi o’z gapi orqali shaxsiy munosabatini ham tarqatadi. Natijada, bir kishining munosabati yuzlab kishilarning u yoki bu narsa, hodisaga nisbatan munosabatiga aylanishi mumkin. Zero, kishi ko’pincha yonidagi suhbatdoshini nimagadir ishontirishga, uning xulk-atvorini o’zgartirishga, o’z fikrini uning ham fikriga aylantirishga, o’z istaklarini boshqalarning istaklariga, e’tiqodining boshqalar e’tiqodiga aylanishiga harakat qiladi. Ishontirish uslubi haqida psixologik-pedagogik adabiyotlarda ko’plab fikrlar bildirilgan.

Ko’pincha odam o’zi ishongan, chukur hurmat qiladigan kishisining so’zini xech bir tahlil, mulohaza va tanqidsiz to’g’ridan-to’g’ri qabul qiladi. Bu hol ko’prok jaxon reklama-tijorat targ’ibotida hisobga olinadi. Shuning uchun ham xorijiy va milliy telereklamalarda atoqli kinoaktyor, qiziqchi, qo’shiqchilarning u yoki bu tovarni reklama qilayotganini ko’p kuzatamiz.

So’z orqali guruh yoki shaxsni ishontirish uslubini qo’llashda qat’iy talablarga rioya qilinadi. Bular:

a) shaxsga individual (yakka) yondashuv;

b) uning shaxsiy ma’naviyatini, mafkuraviy qarashlarini bilish;

g) uning ishonishga moyilligini, siz taklif qilayotgan g’oyaga munosabatini aniqlash;

d) mafkuraviy ta’sir usullarini yaxshi bilish;

g) monoton - ya’ni bir ohanglik ritmda fikrni jamlovchi bir-ikki markaziy tushunchani, so’zlarni faol takrorlashdan (bosh miyaning bir nuqtasini muttasil qo’zg’atib, boshqalarini uxlatib qo’yishdan) iborat.

So’z - inson uchun shartli qo’zgatuvchi. U insonning o’tgan umri davomida bosh miyasida sodir bo’lgan barcha ichki va tashqi ta’sirlanishlar bilan bog’liq. U shartli qo’zgatuvchilar ta’siri haqida signal beradi. Samarali ishlatilgan so’z, hatto, ularning o’rnini bosa oladi. Ya’ni narsa, hodisa yoki voqeani so’zda ifodalash orqali shartli qo’zgatuvchi (o’sha narsa, hodisa) tufayli sodir bo’luvchi barcha xatti-harakatlarni paydo qilishi mumkin (I.P.Pavlov tajribalari).

Targ’ibot, u yoki bu ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy hodisaning sodir bo’lgan vaqtidan kelib chiqib, uch turga bo’linadi. Bular - preventiv (oldini oluvchi, ogohlantiruvchi), parallel (voqea sodir bo’lishi bilan boshlanuvchi) va voqeadan keyin boshlanuvchi targ’ibotdir.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g’oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to’g’risida»gi F-5465 son Farmoyishi. 2019 yil 8 aprel.

1. Quronov M. Biz anglayotgan haqiqat. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 152 b.

2. Quronov M. Bolam baxtli bo’lsin, desangiz... – Toshkent: Ma’naviyat, 2014.-315 b.

3. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: “Ma’naviyat”, 2007. – 240 b.

4. Quronov M. Ezgu g’oyalar ro’yobi. – T.: «Ma’naviyat», 2011. -160 b.

TALABALARDA IJROCHILIK MALAKALARI DAVOMIYLIGINI BARQAROR SHAKLLANTIRISHNING OMILLARI.

Boltayev Baxtiyor Rustamovich

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,

“Musiqa ta’limi” kafedrasi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Oliy ta’lim musiqa yunalishi talabalarida mutaxasislik fanlarida ijrochilik malakalrini shakllantirishga doir bir qator tavsiyalar shningdek dars jarayonida talabalar ishlash mazmini va metodikasi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: Musiqiy qobiliyat, vokla, sofedjio, dirijorlik, xor.*

Inson kamolotida har bir davr muhim ahamiyat kasb etgani holda oliy o‘quv yurtida o‘qish davri, talabalarning ma’lum kasbga professional darajada yo‘naltirilish alohida, muhim ahamiyatga ega. Zero, oliy o‘quv yurti oliy ma’lumotli bakalavr va magistrlarni tayyorlaydi. Ular o‘z navbatida yosh avlodni kamolga yetkazuvchi asosiy figura hisoblanadi. Inson, pedagog olimlarning ta’kidlashlaricha, bioijtimoiy mavjudod bo‘lib, uning ijtimoiy mohiyatini bilim tashkil qiladi. Barcha fanlar singari musiqiy ta’limning ham o‘ziga xos spetsifik bilimlar doirasi borki, talabalar o‘qish jarayonida o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, kuchi yetguncha bilim zahiralarini jamlaydilar. [1]

O‘qituvchi-muallimning shaxsiy ijtimoiy sifatlari har bir zamon talabidan kelib chiqqan holda pedagogga qo‘yiladigan talablar borgan sayin takomillashib, murakkablashib boraveradi. Uzluksiz musiqiy ta’lim jarayonini amalga oshirishda pedagoglarning ijtimoiy sifatlari qanday bo‘lishi kerak degan savolning qo‘yilishi tabiiy albatta. Bunda biz birinchi navbatda ajdodlarimizning fikr-mulohazalarini hisobga olishimiz zarur. Xususan, qadimiy turk yerida, Xorazmda vujudga kelgan Zardo‘shtiylarning muqaddas kitobi Avestoda shunday deyilgan: «Muallim-kohinlarning burchlari bilimli. yaxshi bilan yomonni ajratadigan qilib tarbiyalash va to‘g’ri yo‘lga hidoyat etishdir». «Noshud, yomon muallim o‘quvchi qalbidan hunarmandchilikni yo‘qotar ekan, ey Yazdon, yomon ustozdan o‘zing asra» - deb yozilgan.

O‘qituvchining mas’uliyati va burchi haqida buyuk alloma Ibn Sino quyidagicha talab qo‘yadi:

- bolalar bilan muomilada bosiq, jiddiy bo‘lish;

- beriladigan bilimni talabalar qanday o‘zlashtirib berishida amaliyotchisiga e’tibor berish;

- ta’limda turli usul va shakllardan foydalanish;

- talabalarning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;

- fanga qiziqtira olish;

- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o‘qitish;

- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg’otish darajasida bo‘lishga erishish zarur. [2]

Musiqa o‘qituvchisining kasbiy shakllanishi - birinchi navbatda yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirishdan boshlanadi. Ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, musiqa kasbi alohida qobiliyat va iqtidor talab qiladi. U faqat o‘qituvchi emas balki u san’atkor hamdir. Bu ikki jabhani birlashtirish juda katta iqtidor va mehnat talab qiladi. Oliy o‘quv yurti musiqa pedagoglari talabalarga faqat o‘z fanining asoslaridan bilim beribgina qolmay ularni - kelajakda egallaydigan kasbiga, ya’ni musiqa o‘qituvchiligi kasbiga ham tayyorlab borishlari muhimdir. Musiqa o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar oliy o‘quv yurtida o‘qitiladigan barcha fanlarning majmuidan kelib chiqishi lozim. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisiga qo‘yiladigan kasbiy talablar quyidagi malakalarni shakllantirishni taqozo etadi:

- yoqimli va yorqin ovozda kuylay olishi, akadem qo‘shiqchilik va xalq an’anaviy qo‘shiqchilik uslublaridan foydalana olishi;

- biron, o‘quvchilarga ham qo‘shiq o‘rgatish, ham yakka holda chalib musiqa tinchlata olish uchun qulay bo‘lgan o‘zbek xalq cholg’u sozlaridan birida mahorat bilan chala olishi;

- musiqa nazariyasidan puxta bilimga ega bo‘lishi, «Ustoz-shogird» an’analarini nota yozuvi asosida - professional tarzda olib borishi;

- dirijorlik elementlari orqali o‘z o‘quvchilarining ijrosini boshqarib bora oladigan bo‘lishi;

- solg’fedjio elementlaridan xabardor bo‘lishi, nota bo‘yicha kuylay olish va chala olish malakasiga ega bo‘lishi;

- xor va ansambl malakalaridan xabardor bo‘lish va ularni boshqara olish;

- dars berish metodikasidan puxta bilim va malakaga ega bo‘lish;

- ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug’ullanish malakalariga ega bo‘lish;

- pedagogik sezgirlikka ega bo‘lish;

- pedagogik muloqot o‘rnata olish;

- tashkilotchilik o‘quviga ega bo‘lish. [3]

Shuni alohida ta’kidlash joizki, musiqa o‘qituvchisining ilmiy salohiyati faqat umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari yoki o‘rta kasb beruvchi kollejlar o‘quvchilarining bilimi darajasidan ikki-uch hissa puxtaroq bo‘lishini hisobga olgan holda ularga beriladigan bilim ham keng va puxta bo‘lishi lozim.Buning uchun cholg’u ijrochiligi (fortepiano yoki xalq cholg’u asboblarida chalish) vokal malakalari va xalq ashulachiligi yo‘llarini o‘rgatuvchi va barcha musiqachilar uchun muhim bo‘lgan dirijorlik elementidan chuqur bilim olishlari uchun bu fanlardan darslar yakka holda olib borilishi talab etiladi. Unutmaslik lozimki, musiqa o‘qituvchisi nafaqat o‘z ish joyida o‘z kasbining bilimdoni bo‘lishi, ayni paytda keng jamoatchilik orasida ham faoliyat ko‘rsata oladigan yetuk kadr bo‘lishi hamda chet el mutaxassisliklari bilan bahslasha oladigan raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishi lozim.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash maqsadida: O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 21.06.2022-yildagi

“pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289 qarori qabul qilindi. [5] Ushbu qarorga muvofiq oliy ma’lumotli pedagoglarni tayyorlashda o‘quv rejalardagi fanlarning zamon talablariga mosliligi, davomiyligi uta muhim masaladir. Ayniqsa aloida iqtidor talab qiladigan musiqa yunalshilaidagi ijrochilik kunikma va malakalarini muntazzam oshirib boruvchi fanlar cholg’u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, dirijolik xor ijochiligi, ansambl sinfi, qo‘shimcha cholg’u juda muhim sanaladi.ushbu fanlar talaba o‘qishni tugatgunga qadar davom etishi kerak. Afsuski hozirgi o‘quv rejada ushbu fanlar yarim semestr davom etmoqda.

Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 02.02.2022-yildagi PQ-112 qaroriga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o‘rgatiladi va bularning shahodatnomasida qayd etilishi belgilab qo‘yilgan.[4] OTMlarda musiqa yo‘nalishlardagi mutaxasislik fanlari muntazzam davom etmasa talabalarning bilim va kunikmlari yetarli darajada shakllanmayid. Shu sababli o‘quv rejlardagi mutaxasislik fanlarini davomiyligini muvofiqlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablarida musiqa ta’lim-tarbiya kontseptsiyasi»T. (Musiqa 1995 yil 24 may).

2.Bo‘ri Ziyomuxamedov. «Pedagogika». - T., Turon-Iqbol. 2006 yil. 59-bet.

3.Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi.- Toshkent.; 2009 y..

4.https://lex.uz/uz/docs/-5849580 “O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 02.02.2022-yildagi PQ-112 qarori”

5.https://lex.uz/docs/-6079561 “O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 21.06.2022-yildagi “pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289 qarori”

ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Тригулова Аделя Хусаиновна

Доцент кафедры «Теории и методики преподавания музыки» ТГПУ им. Низами PhD .

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение духовного наследия узбекского народа в формировании музыкальной культуры у студентов педагогических вузов Республики Узбекистан.*

Annotation: This article examines the importance of the spiritual heritage of the Uzbek people in the formation of musical culture among students of pedagogical universities of the Republic of Uzbekistan.

Ключевые слова: *музыкально-теоретическая мысль в Средней Азии, опера, симфония, балет*.

Президент нашей страны Ш. М. Мирзиеев в сентябре 2020 года на церемонии, посвященной 29-й годовщине независимости, объявил о начале Третьего Ренессанса, назвав культуру и просвещение главным столпом, на котором строится новый Узбекистан. Прочным фундаментом для Третьего Ренессанса стала для нас национальная культура и наука, имеющие многовековую историю. Глубокий смысл для современного Узбекистана в настоящий момент имеют идеи возрождения творчества выдающихся деятелей культуры, ученых энциклопедистов, отличающиеся высокой духовностью, чувством национальной гордости и уникальными общечеловеческими качествами.

Изучение лучших образцов узбекской и мировой литературы и культуры осуществляется на факультете «Музыкальной культуры» в Ташкентском государственном педагогической Университете имени Низами в курсе «Истории музыки», который состоит из трех разделов: «Истории зарубежной музыки», «Истории русской музыки» и «Истории узбекской музыки». Каждый из этих разделов рассматривает музыкальное искусство

как непрерывно развивающийся социально – исторический процесс, во всем многообразии связей и явлений.

Курс «Истории узбекской музыки», изучается студентами на двух этапах. В бакалавриате и в магистратуре.

В бакалавриате этот предмет дает студентам знания об узбекской музыкальной культуре по темам, соответствующим программе курса.

Нацеленность программы на формирование ключевых знаний у студентов ставит перед дисциплиной новые методические задачи. Важнейшая из них – достижение такого качества знаний, которое позволяет осознать данный предмет как целостно развивающийся мир, связанный со всей духовной и материальной культурой узбекского народа. Это качество связано с системностью знаний.

Методологической основой формирования знаний по истории узбекской музыкальной культуры является исторический аспект, значение которого заключается в том, что каждое музыкальное явление оценивается на фоне исторического процесса, оно соотносится с аналогичными явлениями других эпох, осмысливается его связь с прошлым и направленность в будущее.

Музыкальное искусство рассматривается как непрерывно развивающийся социально – исторический процесс, во всем многообразии связей и явлений (Древняя музыкальная культура Средней Азии; Искусство раннего средневековья (IV—IX века); Музыкальная жизнь в государстве Саманидов (IX—X века); Музыкальная культура в период образования узбекской народности (XI—XV века); Музыкальная культура XVI – XIX веков; Музыкальная культура конца XIX – начала XX века; Современная узбекская музыка.).

Большое внимание в курсе «Истории узбекской музыки» уделяется ознакомлению с важнейшими философско – эстетическими учениями, ставшими основой музыкально-теоретической мысли в Средней Азии. Мы выделяем деятельности ал-Фараби, который связал науку Востока с

античностью, с наукой Древней Греции. Он прославился как комментатор Аристотеля, за что получил почетное имя «второго учителя». Большой вклад внес Аль –Фараби в теорию музыки. Занимаясь вопросами акустики, он пользовался для этого звукорядом лютни (уд), чтобы вычислить интервалы гаммы.

Другой выдающийся ученый Востока Ибн Сино в своих трудах дает сведения о музыке, ее физических свойствах, музыкальных ладах и ритмической основе. В «Книге исцеления» и «Книге спасения» Ибн-Сина развивает акустическую сторону музыкальной науки.

Мы отмечаем значение «Трактата о музыке» Абдурахмана Джами (1414—1492), который продолжил и развил основные музыкально-теоретические положения своих предшественников — ал-Фараби. Ибн-Сины, Абд-аль-Кадира. Как и они, Джами дает интервальные взаимоотношения тонов, выводя их из соотношения частей струн, показывает способ образования основных звукорядов (тетрахорда и пентахорда) и метод образования из них ладов.

Курс «Истории узбекской музыки» направлен на формирование широких, разносторонних знаний об истории Узбекистана, литературе, поэзии и живописи**.**

Так, при изучении оперного творчества студенты знакомятся с подлинными историческими событиями, происходившими в древней Согдиане в IV в, до и. э. (334 г,), когда произошел захват Александром Македонским согдийских земель, во времена Спитамена (опера «Леопард из Согдианы» И. Акбарова), с великими историческими героями - Улугбек (одноименная опера А. Козловского, «Самаркандская легенда» Г. Мушеля), Тимур Малик (симфоническая поэма М. Ашрафи), и др..

Импульсом для творческой фантазии многих узбекских композиторов послужили древние памятники зодчества, что отразилось на названиях частей: «Биби-ханым», «Регистан», «Медресе Улугбека», «Шах-и Зинда», «Гур Эмир» в («Самаркандские рассказы») И. Акбарова (1972),

посвященых 2500-летнему юбилею Самарканда и, естественно, связанных по замыслу с его историческим прошлым.

Знакомясь с музыкально - сценическими произведениями студенты узнают произведения Навои, которые стали сюжетами оперы «Лейли и Меджнун» Р. Глиэра и Т. Садыкова, одноактного балета на этот же сюжет Икрама Акбарова, оперы «Диларом» М. Ашрафи (по мотивам одной из частей поэмы Алишера Навои «Семь планет»), «Фархад и Ширин» В. Успенского и Г. Мушеля и др. Поэма Х. Алимджана, стала сюжетом оперы «Зайнаб и Амон» Т. Садыкова и Б Зейдмана, произведение Тураб Тулы – опера «Свет из мрака» Р. Хамраева и тд.

Весь основной материал по курсу «История узбекской музыки» выстроен по жанровому принципу и это дает возможность нашим студентам четко осознать смену художественно – стилистических эпох и эволюцию важнейших жанров. Таковыми являются темы: вокальная, инструментальная музыка, опера, балет, симфоническая музыка.

Поскольку курс «Истории узбекской музыки» выстроен проблемно, то собственно анализ музыкальных произведений имеет здесь подчиненное значение, являясь либо подготовкой музыкально – исторических обобщений, либо их конкретизацией, тем не менее, студенты имеют возможность четко осознать эволюцию важнейших жанров и форм в творчестве узбекских композиторов.

Известно, что узбекская музыкальная культура XX века обогатилась новыми жанрами, которые включают в себя и традиционно-восточные, и традиционно-западные формы. Знакомясь с темой «Симфоническая музыка», студенты имеют возможность узнать, что в творчестве таких композиторов, как М. Бафоев, появились новые жанровые виды, не сводимые ни к европейским, ни к восточным образцам. Это произведения с двойными жанровыми обозначениями, такие, как «симфония-газель» (для солиста, мужского хора, струнных и ударных М. Бафоева), «симфония – балет» М.

Таджиева (вторая программная симфония «Ойгуль и Бахтиер» по сказке Х. Алимджана) .

Изучая современную узбекскую музыку, студенты знакомятся с такими понятиями, как макомный симфонизм, представленный в творчестве М. Таджиева, который в лучших своих симфониях (Первая, Третья, Пятая, Девятая) интерпретирует жанр симфонии, исходя из музыкальных закономерностей макомов.

Формируя музыкально – исторические и теоретические знания по курсу «Истории узбекской музыке»», мы ставим перед собой конкретную цель: научить студентов осмысливать каждое музыкальное явление с позиций общих культурно – исторических процессов, анализировать музыкальные произведения и иметь представления об их драматургии, выявлять характерные черты стиля того или иного композитора, творческого направления. Студенты должны уметь раскрывать, как воплощаются идеи времени в конкретных музыкальных явлениях, и как данное музыкальное явление оценивается на фоне определенного исторического процесса в целом. В результате, формируются такие качества личности, как творческая активность, самостоятельность, познавательный интерес, компетентность, профессионализм и музыкальная культура.

Литература:

1. Trigulova A.X.,Axunova U . For participation in the scientific conference «Innonative research in modern edication» with an article entitled. Stylistic approach in music pedagogy**.** 20.09. - 2023 c.2

2. Trigulova, A. X. (2023). Umumiy o’rta ta'lim maktabining o'quv jarayonida musiqa tinglashning ahamiyati. Наука и инновация, 1(4), 193-195.

3.Тригулова, А. Х. Значение курса «История узбекской музыки» в профессиональной подготовке будущих учителей музыки в общеобразовательной школе / А. Х. Тригулова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 11 (115). — С. 1560-1562

4. Тригулова А.Х. Предметная интеграция и ее значение в профессиональной подготовке будущего учителя музыки. Молодой учёный №12 (198) март 2018 г.- с. 173-175

5. Trigulova, A. X. (2023). Maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ilmiy muammo sifatida. Наука и инновация,1(13), 43-45.

6. Abdullajonova, N., & Trigulova, A. (2023). Development of creative abilities of schoolchildren as a scientific problem. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 399-401.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA DARS SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.

Aliqulov Shukurullo Fayzulla o‘g‘li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti assistenti.

Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Bu maqola oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirish mavzusiga bag‘ishlangan. Ushbu maqolada dars sifatini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan innovatsion texnologiyalar va ularning o‘quv jarayonida o‘zgarishlarga olib kelgan roli muhokama qilindi. Mavzu, oliy ta’limning muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi, chunki uni takomillashtirish, talabalar va o‘qituvchilar uchun o‘rganishni samaraliroq qilish, bilim va malakalarini oshirish va ta’lim jarayonini yanada samaraliroq qilishda muhim ahamiyatga ega. Maqola mavzuning muhimligini, muammolarni va ularni hal qilishda ishlatiladigan qo‘llanmalarni aniqlash uchun asosiy yo‘llarni ta’riflaydi. Bu esa dars sifatini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan, o‘qitish metodlari va o‘rganish usullaridan qanday foydalanishning muhimligini ta’kidlaydi. Maqolada dars sifatini takomillashtirishda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun kerakli usullar va ularning o‘quv jarayonini samaraliroq qilishdagi o‘rinlari ta’riflandi.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, dars sifati, takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar, ta’lim jarayoni, o‘quv usullari, adabiyotlar tahlili.*

Kirish. Oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirish, ta’lim sohasidagi rivojlanishning muhim aspektilaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy innovatsion

texnologiyalar, masalan, interaktiv dars sahifalari, ta’lim platformalari, va mobil ilovalar, ta’lim jarayonini yanada samaraliroq qilish imkoniyatini yaratishda katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu maqolada, dars sifatini takomillashtirish uchun innovatsion texnologiyalar va ularning amaliyotdagi o‘rnini tahlil qilinadi.

Dars sifatini takomillashtirish, oliy ta’lim tizimining asosiy maqsadlari ichida muhim o‘rin egallaydi. Darslar talabalar uchun ilmiy, amaliy va ma’naviy rivojlanishning vositasidir, shuning uchun dars sifati va o‘qitish uslubiy ko‘rinishi jiddiy e’tiborga sazovor. Bu mavzuda o‘qituvchilar va metodistlar qisqa vaqt ichida dars sifatini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni va o‘qitish metodlarini o‘rganib, ularni amaliyotda qo‘llash yo‘llarini izlaydilar. Oliy ta’limda dars sifatini takomillashtirish, talabalarning o‘zlashtirishini kuchaytirish, bilim va malakalarini oshirishning katta qo‘lga kiritmasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili: Bu maqolada, oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirish mavzusiga oid turli adabiyotlar tahlil qilinadi. Adabiyotlar, masalan, “Effective Teaching Methods: Research-Based Practice” (Borich, 2014) va “How Learning Works: Seven Research-Based Principles for Smart Teaching” (Ambrose et al., 2010) kabi muhim asosiy manbalardan foydalaniladi. Bu adabiyotlar dars sifatini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlar, metodlar va ta’lim prinsiplari haqida tafsilotlar ko‘rsatiladi.

Borich (2014) tahlilida, dars sifatini takomillashtirishdagi asosiy muhimliklar va qo‘llaniladigan innovatsion usullar katta e’tibor qaratiladi. U dars sifatini oshirishda empirik va nazariy tadqiqotlarga muhim ahamiyat beradi va o‘quv jarayonini yanada samaraliroq qilish uchun amaliy tajribalar ko‘rsatadi.[1]

Ambrose va jamoasi (2010) o‘quv jarayonini yanada samaraliroq qilishda yedi ilmiy prinsiplarni ta’kidlaydi. Ular, masalan, talabalarning ilmiy izlanishlarini tezlashtirish, ma’lumotni tashqi ma’lumotlarga bog‘lash, va o‘rganish jarayonlarini maslahatlar va amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lash kabi prinsiplarga muvofiq amaliyotlarni takomillashtirishni ko‘rsatadi.[2]

Nilson (2016) dars sifatini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning katta ahamiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. U, talabalarning

o‘rganishini samaraliroq qilish uchun yangi texnologiyalardan foydalanishning zarur bo‘lganligini, masalan, interaktiv dars sahifalari va ta’lim platformalari kabi, ta’kidlaydi.[3]

Angelo va Cross (1993) dars sifatini takomillashtirishda baholash va monitoringning muhim ahamiyatiga duch keldilar. Ular dars sifatini oshirish jarayonida baholash usullari va monitoring tizimlari orqali talabalarning o‘rganishini baholashni ta’kidlaydilar, shuningdek o‘qitish metodlarini yangilashda foydalaniladigan boshqa qo‘llanmalar haqida ko‘rsatmalarda beradi.[4]

Tahlil va natijalar. Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqgan natijalar, oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirish uchun innovatsion texnologiyalar va ularning o‘quv jarayonida o‘zgarishlarga olib kelgan rolini ta’kidlaydi. Tahlillarga asoslanib quydagi natijalarni kiritamiz:

Innovatsoin texnologiyalardan foydalanish. Oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan, masalan, interaktiv dars sahifalari, ta’lim platformalari va mobil ilovalar kabi vositalardan foydalanish muhimdir. Bu texnologiyalar talabalarning motivatsiyasini oshirish va o‘rganishni samaraliroq qilishda katta o‘rin egallaydi.

O‘qitish usullarini yangilash. O‘quv uslubiy va metodikani yangilash, masalan, aktiv talabalarning qo‘llanilishini kuchaytirish, ta’lim materiallarini o‘zgartirish, va talabalarning qatnashishini oshirish uchun interaktiv va hamkorlik asosida o‘quv uslubiy ko‘nikmalar qo‘llash kerak.

Baholash va monitoring. Dars sifatini takomillashtirish uchun ta’lim jarayonini baholash va monitoringni keng qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir. Bu baholashlar talabalarning o‘rganish darajasini aniqlash, o‘quv jarayonini tashkil qilish va ta’lim uslubiy ko‘nikmalarini yangilashda yordam beradi.

Bu natijalar talabalarning o‘rganish va tushunish jarayonlarini samaraliroq qilishda, o‘qituvchilar uchun esa ta’lim jarayonini tashkil qilish va baholashda o‘zlariga yordam beradi.

Oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirishda muhimligi ko‘p asosiy o‘rin egallaydi. Bu, talabalarning o‘rganish jarayonini samaraliroq qilish, bilim va

malakalarini oshirish, va ta’lim jarayonini o‘zlashtirishga qaratilgan katta e’tibor talab etadi. Dars sifatini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalar, o‘qitish usullari, va o‘quv jarayonini baholash muhim ahamiyatga ega. Bu tahlil, oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirish uchun qanday strategiyalarni va texnologiyalarni qo‘llashni o‘rganishda yordam beradi.

Dars sifatini takomillashtirishning muhim natijalari talabalarning o‘rganishni yanada samaraliroq qilishda yashaydi. Innovatsion texnologiyalar va yangi o‘qitish usullari talabalarning motivatsiyasini oshirish, ularning aktiv o‘rganishni ta’minlash va o‘zlashtirishini kuchaytirishga yordam beradi. Dars sifatini takomillashtirish natijalariga kirishga olib kelish, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada kuchaytirishga yordam beradi va oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining muvaffaqiyatli va samaraliroq olib borilishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish joizki, dars sifatini takomillashtirish uchun innovatsion texnologiyalar va ularning amaliyotdagi o‘rnini ta’kidlaydi. Maqola oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar va ularning o‘quv jarayonida o‘zgarishlarga olib kelgan rolini ko‘rsatadi. Oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirish, talabalarning o‘rganish jarayonini yanada samaraliroq qilish, bilim va malakalarini oshirish, va ta’lim jarayonini o‘zlashtirish uchun muhimdir. Bu mavzuda amaliy va nazariy usullarni qo‘llash, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, va dars sifatini baholash o‘quv jarayonini yanada samaraliroq qilishda katta ahamiyatga ega. Oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirish muhim masalalardan biri bo‘lib, bu jarayonda talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni kuchaytirish, talabalarning motivatsiyasini oshirish va o‘rganishni o‘zlashtirishda katta roli mavjud.

Oliy ta’lim tizimida dars sifatini takomillashtirish uchun bu takliflar dars sifatini oshirishda va talabalarning o‘rganishini samaraliroq qilishda katta o‘rin egallaydi. Bu esa oliy ta’limning muvaffaqiyatli va samarali olib borilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Borich, G. D. “Effective Teaching Methods for Higher Education”, Effective Teaching Methods: Research-Based Practice, Pearson 2014.
2. Susan A. Ambrose et al, “How Learning Works: Seven Research-Based Principles for Smart Teaching”, 2010.
3. Linda B. Nilson, “Teaching at Its Best: A Research-Based Resource for College Instructors”, 2016.
4. Thomas A. Angelo, K. Patricia Cross, “Classroom Assessment Techniques: A Handbook for College Teachers”, 1993.
5. Prensky M., “The Use of Information and Communication Technologies in Education”, Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning, Corwin Press 2010.
6. Kozma, R. B., “The Role of Technology in Education: Present and Future Prospects”, Technology, Innovation, and Educational Change: A Global Perspective, Teachers College Press 2003.
7. Yahyokhonova, M. M. (2021). Increasing the effectiveness of the learning process for the use of information and communication technologies. Academicia Globe: Inderscience Research, 2(04), 206–211.
8. Shaxnoza Mashrabovna Muxtarova, “Ta’lim sifatini oshirishda individual ta’lim mohiyati”, National University of Uzbekistan, Quality education – the foundation of Uzbekistan's development, Volume 4 | NUU Conference 3 | 2023.

MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Quvondiqova Mohinur Ilhomiddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalishning imkoniyatlari,*

axborot texnologiyalaridan foydalanib pedagogik jarayonlarni tashkil qilish pedagog-o‘qituvchilarning ish faoliyatini osonlashtirib, o‘quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko‘tarishga erishish masalalarini o‘rganadi. Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishda o‘ziga xos texnologik jihatlariga e’tibor qaratish xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, innovatsiya, texnologiya, AKT*

Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ta’limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta’sir etuvchi va uning samaradorligi va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biridir.

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog‘i orqali masofadan turib, onlayn yoki oflayn o‘qish imkoniyatlarining paydo bo‘lishi, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilarga juda katta imkoniyat bermoqda. Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab elektron ta’lim olish imkonini beruvchi juda ko‘plab elektron ta’lim platformalari faoliyat yuritmoqda. Elektron usulda ta’lim olishning eng afzal tomoni ta’lim oluvchi ayrim sabab bilan darsda qatnasha olmasa yoki darsni yaxshi o‘zlashtira olmasa, platformaga kirib, video-ma’ruzalardan qayta-qayta foydalanishi mumkin. Bu esa ta’lim olish samaradorligini sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ta’lim tizimida fan va ishlab chiqarishning integratsiyasiga e’tibor qaratish, ta’lim jarayoniga elektron ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, masofaviy ta’limni qo‘llabquvvatlash zarur. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini masofaviy ta’lim jarayonida qo‘llashning ikkita zaruriy sharti mavjud:

-texnik jihozlar bilan taminlanganlik;

-maxsus dasturiy ta’minotlarning mavjudligi.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri–bu talabalar uchun mustaqil ta’limni tashkil etish va ularda mustaqil o‘qish faoliyatini shakllantirishdan iboratdir. Har qanday o‘quv fani bo‘yicha bilimlarni

o‘zlashtirishda mustaqil o‘quv faoliyati muhim hisoblanib, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimining barcha pog‘onalarida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish va amaliy tajribalarni qo‘yishda texnologik muammolar yuzaga keladi. Ya’ni, aksariyat talabalarda mustaqil o‘qish va mustaqil ishlash ko‘nikmalari yetarli darajada emas. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar talabalarga mustaqil ishlash uchun har doim bir xil shakldagi vazifalarni (taqdimot tayyorlash, seminarlarda ma’ruza qilish, konspekt qilish, referat tayyorlash va hokaz) beradi. Shuningdek, AKT o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda, talablarga tavsiya etish va tavsiya etilayotgan o‘quv materiallarini to‘liq o‘zlashtirishga qo‘l keluvchi vosita bo‘lib, o‘quv materiallarini tinglovchilarga tushunarli va jonli, qisqa muddatda ko‘p ma’lumotlarni yetkazib berish kabi yuqori samarali pedagogik-didaktik usullardan foydalanish zarur bo‘ladi.AKTni ta’lim jarayonlariga tadbiq etilishi talabalarning, nafaqat talabalarning, balki pedagoglarning ham axborot madaniyati davr bilan hamnafas tarzda shakllanishiga munosib zamin yaratadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’lim olishlari uchun zamonaviy axborot texnologiyalari mavjud Bular:

-kompyuter dasturlari va o‘rgatuvchi tizimlar –eletron o‘quv qo‘llanmalar, bilimni baholashning test shakli:

-vediotexnikalarni qo‘llash bilan yasalgan multimedia texnologiyalari;

-elektron pochta, telekonferensiya, ZOOM tizimi va jahon kommunikatsiya tarmoqlariga chiqish imkoniyatiga beruvchi telekommunikatsiya tizimlari;

-ta’lim oluvchilar uchun jahon axborot manbalariga kirish imkoniyatini beruvchi elektron kutubxonalar.

Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng ko‘lamda joriy qilish quyidagilarni imkoniyatlarni beradi:

- O‘quv va ilmiy axborotlarni talaba hamda professor-o‘qituvchilar tomonidan qidirib topishga ketadigan vaqtning qisqarishi;

- Elektron o‘quv adabiyotlar mazmunini davr talabidan kelib chiqqan holda

o‘zgartirishni tezlashtirilishi;

X**ulosa.** Bugungi kunda ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o‘rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi, buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o‘ziga savol berishi ya’ni, an’anaviy ta’limdan qochib, noan’anaviy ta’lim berishga intilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov J.N, Xodiyeva S.Sh “Ta’lim sifatini oshirishda AKT vazamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni”

2. Turdiboyev D.X, Abduraimov D, Nafasov G‘.A “Ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘rni”

3. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.

TALABALARNI MUSIQA VOSITASIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Boliyev Uchqun Ismatovich

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Musiqa ta’limi” kefedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolaning mazmuni shundan iboratki talabalarni guruhda ma’naviy - axloqiy tarbiyalashning mazmun mohiyati yoritib berilganligi, ularni ma’naviy – axloqiy faoliyat jarayoniga tayyorlash omillari, falsafiy, ijtimoiy, pedagogik – psixologik xususiyatlarning aniqlashtirilganligi, kasbiy pedagogik ta’lim jarayoni hamda guruhda musiqa vositasida ma’naviy – axloqiy tarbiyalash imkoniyatlarning ochib berganligi bilan izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *talaba, guruh, ma’naviy - axloqiy tarbiyalash, pedagogik faoliyat pedagogik – psixologik xususiyatlar, musiqa vositasi.*

Inson tabiat ijodining eng murakkab va shu bilan birga eng nozik mevasidir. O‘z navbatida inson muhitga moslashishda o‘zini o‘zi tartibga soluvchi subyektiv tizimdir. Murakkabligi, sharoitga moslasha olishi va aql zakovatining imkoniyatlarining kengligi jihatdan hozir mavjud bo‘lgan elektron va kompyuter qurilmalari insonga teng bo‘la olmaydi. Inson aql zakovatini bu darajada o‘sishiga jamiyat taraqqiyoti darajasi hamda ta’lim-tarbiya belgilovchi hisoblanadi. Ammo inson aql zakovatining cheksiz imkoniyatlarini rivojlanishi ko‘p omillar ichida belgilovchi bo‘lgan tarbiyaga bog‘liq bo‘ladi. Inson tarbiyasi ham o‘zidek murakkab va ko‘p qirralidir. Eng muhimi talaba shaxsi va kamolotining asosi bo‘lgan ma’naviy-axloqiy tarbiyadan to‘g‘ri foydalana olishdir. Bunda eng nozik borliqdagi hamda jonli va jonsiz narsalardan qimmatli insonga ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mos keluvchi, nozik usullari orqali to‘g‘ri ta’sir ko‘rsata olish muhimdir.

Oliy o‘quv yurtida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ta’lim-tarbiyaning ilg‘or faol usullarini qo‘llash hamda hozirgi zamon o‘qitishini pedagogik va informatsion texnologiyalaridan foydalanish bilan birga talabalarni yoshi o‘ziga xos xususiyatlarini bilishga ham bog‘liqdir.

Ijtimoiy yetuklik esa talabadan zarur aqliy qobiliyatni va ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallashga, kasb egallab, jamiyatda ma’lum ijtimoiy mavqega ega bo‘lishga o‘zini tayyorlashni taqozo qiladi. Shu bilan birga talaba shaxsining xususiyatlarida asosiy mezonlar kasb egallash, jamoat ishlarida ishtirok etish, ta’lim-tarbiyada faollik ko‘rsatib o‘zini namoyon qilish, yuridik-siyosiy talablarining ustuvorligini ta’minlash hamda ularni bajarishga intilish tuyg‘usi va irodaviy zo‘r berish, yosh ota yoki onaning burchini anglash, bo‘sh vaqtini tashkil eta olish, sport bilan shug‘ullanish, to‘garak ishlarida qatnashish kabi jihatlar ustuvor bo‘ladi[4].

Shaxsning tarkib topishi va o‘zini namoyon qilishi uning ongi va o‘zini anglash asosida borliqqa ma’lum munosabatida o‘z ifodasini topib, xulq-atvor va

faoliyatining subyekti tarzida ijtimoiy taqozo qilingan sifat va xususiyat, o‘z hayotiy pozitsiyasi, baholay olish, qiziqishlari bilan ajralib turadi.

Talaba ma’lum yoshga yetgan inson va shaxs sifatida uch jihati ajralib turadi:

1.Ijtimoiy jihatdan talaba ijtimoiy munosabatlarni, ma’lum insoniy sifatlarni mujassamlashtirgan, ma’lum guruh (ziyoli) millat, jamoa-guruhga, mansub. Uning jamiyatdagi mavqei talabalar ijtimoiy guruhiga kirib, ta’lim oluvchi o‘quvchi vazifasini bajarishi bilan belgilanadi.

2.Pedagogik psixologik jihatdan talaba psixik jarayon, holatlar va shaxsiy sifatlarning birligining namoyon bo‘lishidir. Uning bu jihati psixik jarayonlar (yo‘nalganlik, mijoz, xarakter, iroda, qobiliyat) bilan belgilanib, ularning holati oqibatida psixik jarayonning paydo bo‘lishi, davom etishi, namoyon bo‘lishida ko‘rinadi. Ammo bu jarayonlar har bir talabada o‘ziga xos individual namoyon bo‘lishini unutmaslik lozim.

3.Biologik jihatdan talaba oliy nerv faoliyatining tipi, analizatorlar, reflekslar, instink, jismoniy kuch, gavda va yuz-ko‘z tuzilishi, ko‘z va teri rangi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar asosan irsiyat bilan belgilanib, lekin ma’lum yashash sharoiti ta’sirida o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi.

Oliy o‘quv yurtida ta’lim–tarbiya jarayonining murakkablashib borishi, talaba shaxsiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bakalavr darajasini oluvchi talabaning bo‘lajak mutaxassis sifatidagi imkoniyati oshadi:

-talabaning g‘oyaviy e’tiqodi, kasbga yo‘nalganligi, bilimining mustahkamlanishi, zaruriy qobiliyatlari rivojlanadi;

-Shaxsiy (psixofiziologik) xususiyatlari mutaxassislashadi, holati va tajribasi oshadi;

- mustaqillikka, Vatan, xalq oldidagi burchini anglash hissiyoti kuchayadi, kasbiy mutaxassislik, o‘ziga xosligi (individuallik), hayotiy pozitsiyasi mustahkamlanadi;

- talabaning bo‘lajak kasbiga nisbatan qiziqishi oshadi;

- ijtimoiy va kasbiy tajribani muntazam o‘zlashtirish oqibatida, kasbiy sifatlar shakllanib, ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik rivojlanib, talaba shaxsini umumiy qat’iyligi oshadi.;

- kasbiy mutaxassisligi va bo‘lajak ishiga amaliy tayyorgarligi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qarori, 17.11.2017 yildagi PQ-3391-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son.

3. Umarov B Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat jarayonida talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirishning pedagogik asoslari .: Ped.fanlari nomzodi. Avtoref.- Toshkent, 2005 yil, 22bet

TALABALARGA O‘ZBEK MUMTOZ ASHULALARINI ‘RGATISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Axrorov Jamshed Rustamovich

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

“Musiqa ta’lim va san’at” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga mumtoz ashula ijrochiligini o‘rgatishda kelib chiqayotgan pedagoggik muammolar haqida so‘z yuritilib, o‘qituvchi va talabalarga pedogogik muammoni yechish uchun turli tavsiya va ko‘rsatmalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *talabalar, o‘zbek mumtoz ashulalar, pedagogik muammolar, oliy ta’lim muassasalari, ijrochilik ko‘nikmasi, pedagogik faoliyat, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi, musiqiy amaliy va nazariy bilimlar.*

Yangi O‘zbekiston davriga kelib yurtimizda ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar va uning mazmun mohiyatini milliy tamoyillar asosida takomillashtirish va ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi musiqa ta`limida ham birinchi

navbatda milliy o‘zlikni anglash, shu asnoda milliy qadriyatlarimizni tiklash, yuksaltirish, amaliyotda keng joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda musiqa san’atida yangi e’tiborga molik ishlar amalga oshirilib, keng ko‘lamli rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Yosh avlodga milliy mumtoz musiqamiz asosida ta’lim-tarbiya berish uchun muhim ishlar amalga oshirildi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr kuni imzolagan “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[4] qarori mamlakatimizda an’anaviy mumtoz san’atimiz hisoblangan maqom ijrochiligiga bo‘lgan e’tiborning yuksak namunasidir. Mazkur qarorda milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, eng avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish. Mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ‘ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari nazarda tutlimoqda”.[1]

“O‘zbek mumtoz musiqasi o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Mumtoz musiqamiz xalqimiz o‘rtasida professional va havaskor sozanda va xonandalar ijrosida doimo yangrab, asrlardan-asrlarga, ustozdan shogirdlarga o‘tib, mukammallashib, sayqal topib, boyitilib bizning davrimizgacha yashab keldi va xalqimizning bebaho mulkiga aylandi. O‘zbek mumtoz musiqa asarlari o‘ziga xos badiiy tizimga ega bo‘lib, har bir janr kuy ohang tuzilishi va rivoji, shakli va o‘ziga xos ijro uslubi sifatida namoyon bo‘ladi. Mumtoz musiqa ham o‘z mavqei, mohiyati, mazmuni, vazifasi va ijrochilik xususiyatlari jihatidan ikki yirik guruhga - ovoz va so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan aytim yo‘llari(Shashmaqomda “Nasr” Xorazm

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qarori, 17.11.2017 yildagi PQ-3391-son.

maqomlarida “Manzum”) va cholg‘u (Shashmaqomda “Mushkilot” Xorazm maqomlarida “Mansur”) orqali ifoda etiluvchi cholg‘u yo‘llariga bo‘linadi”. [2,12b]

“Mumtoz shoirlarimiz, xonanda va sozandalarimiz tomonidan yaratilib va ijro etib kelingan deyarli barcha asarlar axloqiy-estetik tarbiya uchun xizmat qilib kelgan. Ustoz xonanda va sozandalarimiz ijodiyotidagi qo‘shiq-ashulalarining she’riy matnida ifoda etib kelingan g‘oyalar va matn mazmuniga xos ohanglar kishilarning ruhiy hissiyotiga kuchli ta’sir etib kelgan”.[3,5b]

Musiqashunos olim To‘xtasin G‘ofurbekovning quyidagi fikrlari bizning mulohazalarimizni tasdiqlaydi.“O‘zbek xalq g‘oyat boy va qadimiy musiqiy merosga ega. U maktablarimizda, oliy va o‘rta ta’lim muassasalarida o‘rgatilmasa, qayerda, qachon o‘rganiladi. Ahvol shu tarzda ketaversa bu bebaho boylik ta’lim va tarbiya tizimidan uzoqlashib, begonalashib ketmaydi-mi?...bugungi yoshlarimiz an’anaviy ma’nodagi musiqani, maqom va mumtoz kuy-qo‘shiqlarni, ko‘p ovozli hamda zamonaviy musiqani birdek bilishi, tushunishi zarur”[4.34b].

Demak, an’anaviy xonandalik san’ati rivoji nafaqat musiqiy merosni zamon talabida ijro etish va talqin qila olish, balki tushunish va tushuntirib bera olish bilan rivojlanadi. Balki uchun mumtoz musiqani o‘rganish bilan birga yangi namunalarni yaratishda nazariy bilimlarga tayanish, saviyasi baland, chuqur ma’noga ega, falsafiy negizli asarlar ijod etish lozimdir. Shu sabab o‘zbek mumtoz musiqasining bugungi kundagi to‘laqonli rivoji uchun nimalarga e’tibor berish lozimligi, yosh ilmiy izlanuvchi sifatida mulohazalarimiz quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- musiqiy me’rosni zamonga mos, texnika davri bilan hamohang talqin qilish, rivojlantirish.

- adabiyotning nazm qonuniyatlarini yaxshi o‘zlashtirib, ijodda qo‘llash.

- falsafiy tafakkurni badiiy ijodga singdirish.

- teatr, kino va ommaviy tadbirlarda mumtoz musiqa namunalarini qo‘llash.

Mumtoz ashulalar o‘quvchilarning ongi, sezgisi, musiqiy idrokiga ta’siri (ijobiy) murakkab psixoligik jarayon hisoblanib, bunda o‘qituvchi ijro mahorati,

musiqiy nazariy bilimdonligi, qo‘llagan ish usullari, pedagogik yondoshuv va texnik ko‘rgazmali vositalardan o‘z o‘rnida foydalangan holda darsni tashkil etilishida muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek ijro etiladigan ashulalarni cholg‘u jo‘rligida mahorat bilan o‘qituvchi tomonidan ijro etilishi talab qilinadi. Bunda o‘qituvchining yoqimli ovozi, ashulaning musiqiy bezalishi asarning estetik ta’siri va qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Agar bu jarayonda kuy, matn va ijro o‘rtasidagi mutanosiblik buzilsa u tinglovchini o‘quvchilarni badiiy-estetik qimmatini pasayishiga va o‘quvchilarning ashuladan qoniqmasligiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi aytib o‘tilgan muammoga duch kelmasligi uchun o‘zi birinchi navbatda o‘rganishi kerak bo‘lgan talablarni o‘rganmoqligi lozim.

- ashula turlari, ularning ko‘rinishi va ularning tarkibi haqida bilish;

- ovoz xarakteristikasi (ovoz turlari, diapozonlari) haqidagi bilimlarga ega bo‘lish;

- ashula ijrosida asosiy badiiy-ifoda vositalari (jumlasi, dinamikasi, sezura, nafas, tembr, artikulyatsiya, ritm, temp, fermato, o‘lchov kabilar) yaxshi bilish, ularni xor ijrochiligi amaliyotida qo‘llay olish malakalariga ega bo‘lish;

- ansambllik, yaxshi sozga erishish, so‘z talaffuzi, diksiya, ohang talaffuzi (intonatsiya), to‘g‘ri nafas olish, vokal tovush barpo qilish bo‘yicha yetarli tayyorgarlik va malakasiga ega bo‘lish;

- nafas, nafas olish turlari, nafasni ishlatish (zanjir usuli, og‘izni yumib va ochib kuylash) holatlari bilan ishlay olish;

- ohangni (tovushni) yo‘llash (legato, stakato, markato) usullaridan kuylash qoidalarini, yo‘llarini yaxshi egallash;

- ashula ijrosida ovozlarini tayyorlash (ovoz sozlash mashqlari orqali ashula ijro etish) holatiga keltirish;

- ashula ijrochiligida jo‘r bo‘ladigan cholg‘u sozlar turlari va u soz ustida ishlash uslublari bo‘yicha kerakli bilim va malakalarga ega bo‘lish;

- ashula ijrochiligida xos bo‘lgan doira usullarini haqida ma’lumotga ega bo‘lmoq va ularni cherta olmoq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 17.11.2017-yil PQ-3391-son qarori.

2. R.S.Abdullayev. O‘zbek mumtoz musiqasi —T.: Yangi nashr, 2008-y.

3. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi. —T.: Fan va texnologiya 2018,

4. T.G‘ofurbekov. O‘zbekiston musiqa madaniyati —T.: Yangi nashr, 2018-y.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLARI VA MUSIQIY MUHARRIRLAR VOSITASIDA MUSIQA FANLARINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sh. Usmonova. NavDPI 1-bosqich magistranti.

Bugungi shiddatli va globallashuv jarayonida eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelayotgan ta’lim tizimida yoshlarga ta’lim berish, bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Hozirgi axborot asrida fan-texnika taraqqiyoti naqadar yuksak bosqichda jadal ravnaq topayotganligining guvohi bo`lib, barcha sohalar shu jumladan musiqani ham tasavvur qilish mushkul ekanligiga amin bo`lamiz. Ta’lim jarayonida media-ta`lim, kompyuter, internet, multimedia vositalari, televideniya, radio va boshqa texnik aloqa vositalari o`z samarasini ko`rsatmoqda. Elektron ta’lim barcha ta’lim sohasi sifatini yanada yuqoriroq pog‘ona ko`tarishga, axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda. Ya’ni, o`qituvchiga o`quv jarayonida nazariy bilim berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamoniviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatini yaratdi. Shu sababdan, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘lajak o‘qituvchilardan yuqori kasbiy kompetentlik, shuningdek zamonaviy yangicha innavatsion yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahon oliy ta’lim muassasalarining bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi, uning mazmuni, tizimli tarzda tashkil etishning metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modellarining samaradorligini oshirish, innovatsion metodikalar hamda, elektron ta’lim resurslari asosida tashkil etish, bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini yanada rivojlantiruvchi jarayonni tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik imkoniyatlarni aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda ta’lim sohasi rivojida pedagogik kadrlarning bilimli, zamon talablariga mos tarzda bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’nan va jismonan sog`lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo‘ymoqda. Yangi O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda o‘z yo‘lini tanlashida kadrlar masalasini ham dolzarb vazifa sifatida belgiladi. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi kelajakdagi ta’lim tizimining ikkita asosiy tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi: mavjudlik printsipi va uzluksizlik printsipi. Aynan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’limni yanada qulaylashtirdi. So‘nggi yillarda umumiy ta’lim maktablari, kollejlar va universitetlar tobora ko‘proq o‘quv fanlarini o‘rganishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga murojaat qilmoqdalar, ta’lim sohasini axborotlashtirish amalga oshirilmoqda. Axborotlashtirish deganda kompyuter texnologiyalari va yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqarish, ta’lim, odamlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotining turli sohalariga joriy etishning faol jarayoni tushuniladi. Dasturlar, qoida tariqasida, ko‘plab musiqiy atamalarni, musiqiy savodxonlik va musiqa nazariyasining elementlarini, notalarni, akkordlarni va boshqalarni aniqlash uchun test topshiriqlarini tushuntirib beradigan o‘yin va ta’lim bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Solfedjio, garmoniya, polifoniya an’anaviy mashg‘ulot shakliga muvofiq nazariy fanlardan biridagi darsga taqlidni ifodalaydi yoki uzoq muddatli mashqlarni talab qiladigan individual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, dastur

talaba bilan pedagogik muloqotni olib borishi, fikr-mulohazalari bo‘lishi va baho berishi kerak.

Eshitish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar - intonatsiya, garmonik, ohangdor eshitish va hokazolarning sofligini rivojlantirish bo‘yicha turli treninglarni o‘z ichiga oladi. Ular tarkibida notalar, intervallarni va boshqalarni aniqlashda mashq qilishga imkon beradigan turli xil eshitish diktantlari mavjud. Musiqiy adabiyot dasturlari - bular kitoblar, ensiklopediyalar, MIDI fayllari ko‘rinishidagi musiqiy asarlar to‘plamini, tegishli bastakorlar va musiqachilarning qisqa tarjimai hollarini o‘z ichiga olgan turli xil musiqiy asarlar to‘g‘risidagi kichik rasmli ma’lumotnomalar va ushbu material bo‘yicha kichik viktorina bo‘lishi mumkin. Musiqa va musiqiy adabiyotlar tarixi bo‘yicha dasturlarning matnlari slaydlar va reproduktsiyalar, musiqiy asarlardan parchalar, videofilmlar bilan tasvirlangan, tanlangan musiqiy va badiiy asarlar va maqolalar slayd-shousi bilan birga rivoyatlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday dasturlar yordamida siz turli mamlakatlar va davrlarning bastakorlari ijodi bilan tanishishingiz, ularning tarjimai hollarini bilishingiz, u yaratgan musiqa haqida ma’lumot olishingiz, lavhalar bo‘yicha ba’zi qismlarini saralashingiz, musiqiy san’atning turli janrlari, musiqachilar va musiqa asboblari haqida bilib olishingiz mumkin. Gipermurojaatlar dasturning bir qismidan ikkinchisiga tezda o‘tish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalaridan turli xil kasbiy faoliyatda foydalanish qobiliyati zamonaviy sharoitlarda tobora zaruriy talabga aylanib bormoqda. Musiqachi ishida musiqa muharrirlari alohida ahamiyatga ega, ular juda keng imkoniyatlarga ega va deyarli barcha musiqa mutaxassisliklari vakillari tomonidan talab qilinadi. Musiqiy muharrirlardan bastakorlar va aranjirovkachilar ijodiy muammolarni hal qilishda foydalanadilar, ijrochilik mutaxassisliklari musiqachilari turli xil aranjirovkalarni yaratishda, taniqli asarlarning moslashuvlarida, original ijro nashrlarida, shuningdek, professional musiqachilar ushbu dasturlardan uslubiy va ilmiy ishlarda musiqiy material tayyorlashda foydalanadilar. Musiqiy muharrirlarga faoliyatning turli sohalarida

- professional musiqa ta'limi va ijodida, kino sanoatida, televidenieda, teatr, konsert, musiqa nashriyoti tashkilotlari va kutubxonalarida talab katta. Zamonaviy musiqa amaliyotida yangi axborot texnologiyalaridan tobora koʻproq foydalanilmoqda, bu zamonaviy madaniyatning bir qismiga aylandi. Elektron musiqa asboblarining (sintezatorlar, namuna oluvchilar, musiqa kompyuterlari) tobora koʻpayib borayotgan turlari mavjud. Musiqiy ta'limda multimedia tizimlaridan foydalanish musiqiy entsiklopediyalar, kitoblar, ma'lumotnomalar va lazer kompakt-disklariga yozilgan turli xil antologiyalardan ta'lim maqsadida foydalanish imkoniyatini beradi. Zamonaviy musiqa darsi – bu darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompyuter texnologiyalari va electron musiqa asboblaridan foydalaniladi. Musiqa fanlarini oʻqitishda ayniqsa, quyidagi axborot-kommunikatsiya vositalari juda katta yordam koʻrsatadi.

Finale Musiqiy matnni terish bilan shug'ullanadigan koʻplab odamlar Finale dasturini yaxshi tanishishadi. Boshqalar kamroq tarqalgan, ammo juda faol boʻlgan Sibelius dasturidan foydalanadilar. Eng tajribali foydalanuvchilar dasturlarning Finale + Score kombinatsiyasidan foydalanadilar. Notalarni Finaledan Scorega o`girish uchun maxsus yordamchi dastur mavjud. Dasturning kamchiligi shundaki, uni tushunish juda qiyin. Umuman intuitiv interfeys emas. Musiqa muharriri dasturining yangi foydalanuvchilari uchun Sibelius koʻproq mos keladi. U aniq nazoratga ega. Har qanday funktsiyani bir necha marta bosish bilan bir vaqtning oʻzida topish mumkin. Barcha ob'ektlar grafik jihatdan toʻg'ridan-toʻg'ri fayl menyusida koʻrsatiladi, shuning uchun hatto ingliz tilini yaxshi bilmaydigan odam ham dasturni tushunishi mumkin. Ishni tezlashtirish uchun siz ularning klaviatura birikmalarini oʻrganishingiz va hatto ularni oʻzingiz tayinlashingiz mumkin. Sibeliusda buni bajarish juda oson, masalan, chiziqli tanaffuslar va boshqa zamonaviy musiqaga xos boʻlgan narsalar. Ushbu dasturda atigi 20 ga yaqin nota yozuvi ko`rinishlari, shuningdek, taxminan 25 ta kalit mavjud. Finaleda ham siz bunday yozuvlarni muvaffaqiyatli yozishingiz mumkin, lekin ba'zi ba'zida muammolar mavjud boʻlib, ularni hal qilish uchun siz mutlaqo

g'ayrioddiy yechimlarni topishingiz kerak. Sibeliusda bu ikki marta bosish bilan amalga oshirilishi mumkin. Finale juda chalkash fayllar menyusiga, juda ko‘p sonli panellarga ega, qaysi biri nima uchun javobgar ekanligini darhol anglash qiyin, ammo Sibeliusda hamma narsa mantiqiy ravishda qurilgan. Ammo tezkor tugmachalarni yoqtirganlar Finaleni yaxshi ko‘radilar. Deyarli barcha operatsiyalar uchun asosiy topshiriqlar mavjud. Shuningdek, maxsus dastur mavjud - FinKey, bu sizga kalitlarni tayinlash bo‘yicha operatsiyalar sonini ko‘paytirishga imkon beradi. To‘g'ri, Sibeliusning so‘nggi versiyalari deyarli barcha funktsiyalar uchun o‘zlarining klaviatura yorliqlariga ega, bu juda qulaydir. Finale ham, Sibelius ham Plug In 'ni qo‘llab-quvvatlaydi, shuning uchun ularning imkoniyatlari yangi versiyalar chiqishini kutmasdan kengaytirilishi mumkin. Va yana bir muhim jihat - bu nashr qilish kabilardir.

Axborot texnologiyalari musiqa va unga aloqador mavzular uchun o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. Axborot texnologiyalari imkoniyatlari musiqa fanlarini o‘qitishda ham o‘qitish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arobidin Xusnidinovich Arabbayev. Musiqa darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samarasi, o‘ziga xosligi va bugungi kundagi ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences VOLUME2|ISSUE10|2021.

2. Axmedov Bekjan. Musiqa fanlarini mustaqil o‘zlashtirishda axborot kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish.

3. Karimova D.A. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. Darslik T.,2020 Musiqa darslarida axborot texnologiyalari.

MUSIQA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARI

Omanqulova Shohida Nematillo qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogiga instituti dotsenti, p.f.f.d, (PhD)

Zamonaviy jamiyatda, oliy ta’lim inson faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning

eng muhim qiymati va asosiy kapitali yangi bilimlarni qidirish va o‘zlashtirishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir mutaxassisni tayyorlash ekanligini tushunishdir. Zamonaviy pedagogik fanning muhim yo‘nalishi o‘qituvchini o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan vositalar va sharoitlarni izlashdir. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” degan fikrlari ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan oliy ta’limning pedagog xodimlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi[5].

O‘quvchi shaxsiga ta’lim-tarbiya beradigan umumta’lim maktablari oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishi, avvalo, oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga bog‘liq. Mutaxassislarning kompetentlilik darajasi, kasbiy mahorati, pedagogik jarayonlarni to‘g‘ri va maqsadli boshqara olishi o‘quvchi shaxsini tarkib toptirish muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bu oliy pedagogik ta’lim tizimi, umuman ta’lim va kadrlar tayyorlash uchun mas’ul bo‘lgan barcha tashkilotlar oldiga bo‘lajak pedagoglarning barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishga kasbiy tayyorgarligi masalalarini yanada mukammal tadqiq qilishdek dolzarb vazifani qo‘yadi.

Bunday maqsadlarga erishish yo‘lida oliy ta’lim tizimi o‘quv-metodik bazasini yanada mustahkamlash, talabalarni har tomonlama intellektual bilim olishlari uchun sharoitlarni yanada yaxshilash, Shuningdek musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompitentligini oshirish lozim bo‘lmoqda.

“Kompetensiya” so‘zi fanda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qo‘llangan va insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqatini bildirgan. “Kompetensiya” bilim, ko‘nikma va malakalarning samarali qo‘llanishi; “kompetentlilik” esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan layoqatdir. Shu bois har bir fanni o‘qitish jarayonida uning mazmuni

[5] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi [6].

Musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompitentliligini takomillashtirish muammosining dolzarbligi musiqa o‘quv yurtlarini tugatgan bitiruvchilarning ko‘pincha mustaqil kasbiy faoliyatga layoqatsizligi bilan bog‘liq. Kamchiliklar orasida musiqiy madaniyat va san’at sohasidagi bilimlarning cheklanganligi, musiqa ta’limi metodologiyasi, mutaxassis tayyorlash va ijrochilik amaliyotining yetarli emasligi alohida ahamiyatga ega. Ko‘pincha yosh mutaxassisning to‘liq ijodiy qobiliyatsizligi mavjud. Musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompitentliligiga qo‘yilgan zamonaviy talablar ularning ijodiy faoliyatini, o‘zini o‘zi anglashga hissa qo‘shadigan kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga ta’sir qiluvchi omillarni ajratib ko‘rsatish kerak. Bulardan eng muhimi musiqiy qobiliyatdir. Ma’lumki, musiqani o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida musiqiy o‘quv jarayonda qobiliyatning rivojlanishiga katta e’tibor beriladi va o‘ziga xos musiqiy qobiliyatlar yetakchi aniqlovchi kompetensiya hisoblanadi. “Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi” asarida B.M.Teplov shunday yozadi: "Musiqiy qobiliyat″ musiqiy faoliyatning bir qismi sifatida, har qanday boshqa musiqadan farqli o‘laroq, lekin shu bilan birga musiqiy faoliyatning har qanday turi bilan bog‘liq bo‘lgan individual psixologik xususiyatlar majmuidir”[3] degan fikrlarni bildirgan.

Bugungi kunda musiqa o‘qituchisining kasbiy kompetentliligiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar tizimi o‘rganib, ularni uch asosiy guruhga ajratishimiz mumkin. Musiqa ta’limi o‘qituvchisining kompetentliligini aniqlovchi mezonlarni quyidagi turkumlarga bo‘lish mumkin.

Vositaviy musiqiy kompetensiyalar:

-musiqa ta’limi va pedagogikasi bo‘yicha bazaviy bilimlarni egallaganligi;

-axborot texnologiyalaridan foydalana olish malakalari;

- musiqa ta’limi muammolarini yechish qobiliyati;

Komunikativ musiqiy kompetentlilik:

- musiqiy tanqid va o‘z-o‘zini tanqid qila olish;

-o‘zaro muloqatga kirisha olish;

-axloqiy qadriyatlarni tan olish;

-turli xalqlar musiqa madaniyatiga hurmat bilan qarash;

Tizimli musiqiy kompetentlilik:

- musiqiy bilimlarini amalda tizimli ravishda qo‘llay olish;

- musiqa ta’limi bo‘yicha tadqiqot olib borish;

- musiqiy ijod qilish;

- musiqiy loyihalarni ishlab chiqish va ularni boshqarish;

Musiqa ta’limi o‘qituvchisining kasbiy kompetentlilik sifatlari

T/r	Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy-kompetentlilik sifatlari	Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy-kompetentlilik sifatlari mazmuni
1	Musiqa savodi	Musiqa o‘qituvchisining musiqa nazariyasini mukammal egallagan bo‘lishi va kasbiy-pedagogik jarayonda o‘quvchilarga o‘rgata olishi.
2	Vokal ijrochiligi	Ashula aytish san’atini yaxshi egallagan holda dars jarayonida vokal ijrochiligini muvaffaqiyatli qo‘llash orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini oshirish;
3	Cholg’u ijrochiligi	Musiqa o‘qituvchisining cholg‘u ijrochiligi orqali kasbiy faoliyati davomida darsning mazmunini boyita olishi, o‘quvchilarni musiqa san’atiga qiziqtira olishi;
4	Xor ijrochiligi va dirijorlik	Musiqa darslarida jamoa bo‘lib kuylash faoliyatini tashkil etishi, ularni boshqarish malakasiga yega bo‘lishi;
5	Musiqiy savod	Musiqa asarlarini tinglab, ham musiqiy, ham mazmun jihatidan idrok etish va tahlil qilishga o‘rgatish;
6	Musiqa psixologiyasi	Pedagogik jarayonda sog‘lom muhitni yarata olish, o‘quvchilarning musiqa ijodiyoti va qobiliyatini, talantini, ijrochilik imkoniyatlarini o‘rganish layoqatiga ega bo‘lishi;
7	Musiqa pedagogikasi	Musiqa darslarini faoliyat turlari asosida pedagogik jihatdan tashkil eta olishi;
8	Musiqiy estetik kompetentliligi	Musiqa san’atining mohiyatini, voqelikka munosabatini, ijtimoiy rolini, badiiy mazmunini his etishi, g‘oyaviy xarakterini his eta olishi va ulardan barkamol inson

		tarbiyasida foydalana olishi;

Xulosa. Musiqa o‘qituvchisining pedagogik faoliyatiga nisbatan kasbiy kompetensiyalarga ko‘ra, uning shaxsiyati va kasbiy mahoratining ajralmas xarakteristikasi tushuniladi, bu uning muayyan vaziyatlarda pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan professional muammolarni samarali hal qilish qobiliyatini belgilaydi. Musiqa ta’limi o‘qituvchisi professional faoliyatining keng doirasi tegishli tayyorgarlikni, ko‘p tomonlama professional (musiqiy va pedagogik) bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishni talab qiladi. Musiqa ta’limi o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi uning barcha bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu orqali u musiqa va estetik ta’lim muammolarini hal qilishni taminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Boshuk, G. A. Pedagogicheskie osnovy tvorcheskoy samorelizatsii lichnosti studenta v konsertmeisterskoy praktike v vuze [O‘rta maktab konsert-master amaliyotida talaba shaxsini ijodiy o‘zlashtirishning pedagogik asoslari]: tezis ped fanlar / G. A. Boshuk. - Krasnodar, 2004 - 196 b.

3. Teplov, B. M. Musiqiy qobiliyat psixologiyasi / B. M. Teplov. - Moskva; Leningrad: RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasi, 1947. - 355 b.

4. Noulz M.Sh. Sovremennaya praktika obrazovaniya vzroslых. Andragogika protiv pedagogiki. – M.: Izdatelskiy otdel NMS SPO, 1998. s. 118.

XORAZM DUTOR MAQOMLAR

Raximov Botir Matyakubovich

Urganch davlat universiteti “San’at” kafedrasi mudiri.

San’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Annotatsiya: *Maqolada Xorazm maqomi tarixi, yozma manbalari, dutor maqomlari tizimi va uning Xorazm olti yarim maqomidan farqlari, Xorazm tanbur notasida Devoniy tomonidan yozib olingan dutor maqomlari xaqida so’z boradi.*

Kalit so'zlar: *Maqomat, navba, tanbur notasi, dutor, Olti yarim maqom, dutor maqomlari, Devoniy.*

Tarixiy ma'lumolarga ko'ra, dutor maqomlari Buxoro shashmaqomi va Xorazmda olti yarim maqomi tizimidan ancha oldin paydo bo'lgan tur. Dutor maqomlari avval Xorazmshohlar davrida "navba" (arabcha "alanma" so'zidan olingan) deb atalgan.

Manbaalarda yozilishicha, Xorazmshohlar Takash, Muhammad va Jaloliddin musiqa ilmiga juda ixlosmand bo'lganlar. Ular bo'sh vaqtlarida soz chalib (bu umumiy nom rubob, tanbur kabi cholg'u asboblari sinfiga tegishli bo'lib, ba'zi manbalarda ikki va undan ortiq torli "ud" deb ham ataladi) navbalar yaratgan [1, 231]. Shunga ko'ra ,navba (taronalar va qo'shiqlar silsilasi) va dutor maqomlarini Xorazm maqom tizimsining eng qadimiy qatlamlaridan biri deyish mumkin. Ijrolari bugunki kungagacha saqlangan "Qora dali" turkumi Jaloliddinning zotdor oti tarixi bilan bog'lanib yaratilgan asar xisoblanadi.

Buxorodagi kabi Xorazmda ham mumtoz musiqa san'atining rivojlanishi ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'lgan. Birinchisi, bu saroy muhiti bilan bog'liq maxsus maqom an'analari , tom ma'noda "olti yarim maqom" tizimi. Ikkinchisi keng ixlosmandlar doirasiga kiritilgan maqomlarning ma'muliy shakli. Bu haqda "dutor maqomlari", "xalq sozandalari ijodi" kabi atamalarda aytilgan [4, 80].

Xorazmda xalq sozandalari tomonidan to'y- hasham, kecha va ziyofatlarda ijro etiladigan keng tarqalgan turlari orasida dutor maqomlari alohida o'rin tutadi. Dutor maqomlari Buxoro Shashmaqomi va Xorazm olti yarim maqomlaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: olti yarim maqomning ichki qismlari usul nomlari bilan ajralib turadi. Dutor maqomlarida ichki qismlar olti yarim maqomga qaraganda ancha erkin qurilgan.

Dutor maqomlari Buxoro Shashmaqomi va Xorazm olti yarim maqomlaridan yana bir farqi qismlar parda nomi yayrimlari usulni nomi bilan yuritilmaydi. Har bir qism bir xil nom bilan ataladi: "Qori navo", "Miskin" I va II, "Rahoviy" I va II, "Aliqambar", "Qoradali", "Orazibom", "Gusfand". Dutor maqomlarining asosiy qismlari ixcham ishlangan bo'lib " Avji Turk" , "Avji zebo

pari”, va “Muxayar” avjlar dutor maqomlarida uchramaydi. Har bir maqom biror rivoyat yoki voqeyalik bilan bog’lanib ijod qilingan.

Xorazmda maqomatni 5 ta ko’rinishi bizgacha saqlgan. Bular Urfiy “Olti yarim maqom”, Niyozjon xo’ja tomonidan tartiblashtirilgan “Olti yarim maqom”, Urfiy “Dutor maqomlari”, Komil Devoniy tomonidan tartiblashtirilgan “Dutor maqomlari” va “Surnay maqomlari” .

XIX-asrda Xiva xonligida boshqa fanlar qatori musiqa san’atining rivojlanishiga ham katta e’tibor berilgan. Xorazm maqom ustalari va musiqashunoslari “Tanbur chizg’ilari” nomi bilan mashhur nota yozuvini yaratdilar. Ana shu yozuvlar tufayli olti yarim maqom to’planib yozib olingan.

Paxlavon Mirzaboshi va uning o’g’li Muhammad Rasul Mirzaboshi boshlagan ishni uning shogirdi Komil Devoniy davom qildirib dutor maqomlarining tanbur yozuvi tamoyillari asosida yozib olgan

Shu davrda bir nechta mutaxassislar tomonidan Olti yarim maqom qatori dutor maqomlarini qog’ozga tushirishga urinishlar bo’lgan. Bu haqda “Xorazm musiqa tarixi”da shunday deyiladi: Sayyid Muhammadxon va Muhammad Rahimxonlar davrida dutor qo’shiqlarining maxsus qatorini yaratishga bir qancha sa’y-harakatlar qilinganligi haqida ma’lumot berilgan [3, 36].

Dutor maqomlarini qog’ozga tushirishga to’sqinlik qilayotgan qiyinchiliklardan xabardor Komil Devoniy dutor maqomlarini yozib olish, Dutor ijrochiligiga kuylariga xos bo’lgan uzluksiz qo’l harakatlarini (zarbalarini) yozishda avvalgi ustozlardan farqli va erkin yo’l tanladi. U amalda bo’lgan maqom majmualari cholg’u va qo’shiq shaklida bir xilda ijro etilishini hisobga olgan. Ana shu tamoyildan kelib chiqib, olti yarim maqom va dutor maqomlarini so’zlari bilan uyg’unlashtirib kuylash shakli sifatida joriy etishga qaror qildi. U olti yarim maqom va dutor maqomlarining barcha tarkibiy qismlari doira usullari va ularning umumiy tuzilmalari, so’zlarning ajratilgan matnlari va ularga mos ohangdor jumlalarni bir zarb asosida yozib olgan.

Musiqa va she’riyat asoslarini yaxshi bilgan Devoniy olti yarim maqom va dutor maqomlaridan iborat to’plamga, maqom qismlariga she’r tanlashda qat’iy

yondashgan. Navoiy, Munis, Ogaxiy, Bedil, Fuzuliy, Komil Xorazmiy ijodiga oid dunyoviy-romantik va didaktik ruhdagi so'fiy g'azallari tanlab olgan. Dutor maqomlariga she'r tanlashda zamonaviy shoirlar ijodiga ham e'tibor bergan.

Bugungi kunda Xorazm tanbur notasining nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'at tarixi instituti, Davlat arxivi, Yunus Rajabiy uy-muzeyi va shaxsiy kutubxonalar boshqa joylarda tanbur xalqlarining nusxalari saqlanmoqda..

O'zbekiston Davlat konservatoriyasida saqlanayotgan K.Devoniy tanbur xalqining nusxasida olti yarim maqomning qo'shiq qismi va yetti dutor maqomining siklik qo'shiq qismlari Zikhiy Nazzora, Urganjiy, Miskin, Raxoviy, Sadri Iroq, Oher va Choki giribon to'liq kiritilgan.

Devoniyning Xorazm dutor maqomlarini qog'ozga tushirgani haqidagi xabar 20-asrning 20-yillari oxirlarida tarqaldi. Zamondoshi Hasanmurod Laffasining yozishicha: "Devoniy barcha dutor maqomlarini o'z aql-zakovati natijasi sifatida tasniflaydi [2.67]. Biroq o'sha davrdagi to'lqinlar, sozanda boshiga tushgan qiyinchiliklar bu buyuk voqeaning musiqachilar orasida keng tarqalishiga imkon bermadi".

O'tgan asrning 30-yillarida sho'rolar davrida boshqa milliy musiqa qadriyatlari qatori "dutor maqomlari" atamasi ham foydalanishdan butunlay olib tashlandi.

O'zbek maqomchilari tizimida dutor maqomlari tushunchasi keyingi yigirma yil ichidagina ilmiy foydalanishda qayta tiklana boshladi. O.Matyoqubov, R.Boltaev va X.Aminovlar tomonidan tanbur yozishning yangi ro'yxatlarining ochilishi [3,3] dutor maqomlarini musiqiy atama sifatida qaytadan kiritdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bunyadov Z.B. Xorazmshohlar davlati - Anushteginiylar. Moskva, 1971 yil.

2. Laffasiy. Tazkirai shuaro. Urganch, 1992 yil.

3. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixi. Toshkent, 1998 yil.

4. Matyoqubov O. Makomot. Toshkent, Musiqa, 2004.

5. Matyoqubov O., Boltaev R., Aminov X. Xorazm tanbur notasi Toshkent 2010 y.

6. Nizomov A. Tasavvuf Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyati kontekstida. – Dushanbe: Irfon, 2000.

XORAZM TANBUR NOTASI

Boltayev Rustam Kurbonbayevich

Urganch Davlat universiteti "San'at" kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mulla Bekjon Rahmon o'g'lining "Alanga" 1928-yil 3-4 mart-aprel ro'znomasida "O'zbek notasi" maqolasi haqida, K. Xorazmiyning yangi kashfiyoti "Tanbur tabulatirasi" yozuvlarida Xorazm olti yarim maqomi kuy va ashulalarning izmi tanbur pardalariga muvofiq sodda hamda qulay uslubda ko'rsatib berilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Maqomi Rost, Maqomi Navo, Maqomi Segoh, Maqomi Dugoh, Maqomi Buzruk, Maqomi Iroq, Maqomi Panjgoh, tanbur sozlanishi, parda va usul asoslari, Saqil usuli*

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ayni vaqtda biz Xorazmning mana shunday bebaho madaniy merosini, ayniqsa, Xorazm maqomlarini yanada chuqur o'rganish va targ'ib qilish, ularni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, katta bilim va fidoyilikni talab qiladigan bu sohaga yosh san'atshunoslarni jalb etish, buning uchun tashkiliy, moddiy va ma'naviy tomondan tegishli sharoitlarni yaratib berish bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz zarur[1].

O'zbek xalqining madaniy merosi boy va ko'hna tarixga ega ekanligi yaxshi ma'lum. O'lkamiz o'tmishida, ayniqsa, adabiyot va musiqa san'ati juda yuksak darajada rivojlangan davrlar bo'lgan. Musiqa madaniyatining gullab-yashnashi o'z navbatida musiqashunoslik ilmining rivojlanishiga ham asos bo'ldi. Jumladan, bobolarimiz musiqiy asarlarni yozuvga tushirish borasida hayratomuz kashfiyotlar

qilganlar. Ulardan biri bu — Xorazm tanbur chizig‘i bo‘lib, uning mukammalligini hamda qo‘llanish doirasini hisobga olgan holda birinchi bor 1928 yil “Alanga” jurnalining 3-sonida Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li “O‘zbek notasi” nomli maqola chop qildirgan.

O‘zbek notasi 1873-1874 yillar orasida Xorazmda ixtiro qilingandir. Bu notaning ismi “Tanbur chiziqi” deb shuhrat tarqatdi. Notani ixtiro qilgan kishi, Xorazmning “Xiva” shahrinda tug‘ilgan “Palvon niyoz Mirza boshi ” degandir. Bu odam Xorazmning mashxur musiqashunoslaridandir.

Xiva xonlaridan Muhammad Rahim soniy (Feruz) tanbur, dutor, g‘ijjak va boshqa sozlarda o‘ynab yurgan nag‘malarni xat kabi qog‘oz yuzasiga olish va kitob qildirish orzusiga tushadur, shu tushunchasini ro‘yabga chiqarishni Polvon Niyozga buyuradir.

Bu to‘g‘risida Polvon Niyoz shunday bir reja tuzadir:

1- tanbur, pardalarining sonlari ham zil, bam saslarini e'tiborga olish;

2- tanbur pardalarining oraliqlariga mutanosib ufqiy chiziqlar bilan pardalarni ko‘rsatish;

3-nag‘malar chalinganda har bir pardada tanbur tariqa “nohun”ni qancha berib (tepaga) qaytqanin(pastga urush) ifoda qilish;

4- naxunning bergan va qaytqanin(pastga urush) bildirish uchun har qaysiga ayrim “nuqtalar” belgilash;

5-naxunning pardaga berish (tepaga zarb) uchun qo‘yilgan nuqtani tanbur pardasini ko‘rsatgan chiziqning ust tamaniga, qaytish(pastga urush) uchun esa ost tamonida ko‘rsatish[2].



Tanbur pardabandlari

Xorazm “Tanbur chizg‘ilari” yozuvlarida maqom kuy va ashulalarining izmi tanbur pardalariga muvofiq sodda hamda qulay uslubda ko‘rsatib berilgan.

1. “Rost” maqomi 1-oktava “do” tovushidan, tanburning 3- pardasi
2. “Navo” maqomi 1-oktava “fa” tovushidan, tanburning 6-pardasi
3. “Segoh” maqomi 1-oktava “Re” tovushidan, tanburning 4-pardasi
4. “Dugoh” maqomi 1-oktava “Re” tovushidan, tanburning 4-pardasi
5. “Buzrak” maqomi 1-oktava “Re” tovushidan, tanburning 4-pardasi
6. “Iroq” maqomi 1-oktava “Lya” tovushidan, tanburning 1-pardasi

Ushbu tartib I. Rajabovning “Maqomlar” kitobida ham keltirilgan[10].

Xorazm “Tanbur chizg‘ilari” – Olti yarim maqom va Shashmaqom amaliyotda mustahkam o‘rnashgan olti maqomlardan iborat bir butun majmua sifatida namoyon bo‘ladi. Bu majmua tarkibidagi har bir kuy va ashulaning parda va usul asoslari qat’iy qayd qilingan.

Chertim va aytim yo‘llarining usul tizimi tartibi, ichki tuzilishi Shashmaqom Nasrlardan sezilarli farq qiladi. Garchand har bir maqom turkumining umumiy parda asosi mavjud bo‘lsa-da, ularning shakl-shamoyillari mushkilot va nasrlardan tubdan farq qiladi[3].

Xorazm Rost maqomi Cholg‘u(Mansur) qismi	Shashmaqom Rost maqomi Mushkilot-cholg‘u bo‘limi
1. Maqomi Rost	1. Tasnifi Rost
2. Tarje’ Rost	2. Garduni Rost
3. Peshravi Rost va Gardun	3. Muxammasi Rost
4. Murabba’ Komil	4. Muxammasi Ushshoq
5. Muxammasi Rost	5. Muxammasi Panjgoh
6. Musaddasi Jadidi Feruz	6. Saqili Vazmin
7. Musabba’ Rost	7. Saqili Rok-rok
8. Saqili Rost	
9. Saqili Muhirkon	

Xorazm Panjgoh maqomi Cholg‘u(Mansur) qismi	Shashmaqomda yo‘q
1.Maqomi Panjgoh	
2.Avvallanji Peshravi Panjgoh	
3. Ikkilanji Peshravi Panjgoh	
4. Muhammasi Panjgoh	
5. Muhammasi Ushshoq	
6. Muhammasi Feruz shohiy	
7. Saqili Vazmin	
8. Saqili Feruz shohiy	
9. Se usuli Panjgoh	

Saqil usulini tahlil qiladigan bo‘lsak Shashmaqomda 2/4 o‘lchovida 24 taktni tashkil qiladi. Xorazm olti yarim maqomida ham 2/4 o‘lchovida 24 taktda aylanadi, lekin ichki tuzilishini ko‘radigan bo‘lsak, Shashmaqomda usul 1 xona to‘liq davom etadi va Bozgo‘yda ham 24 taktni tashkil qiladi. Lekin, Xorazm olti

yarim maqomida bu shakl bashqacharoq, 16 takti xona oxirgi 8 takti esa bozgo‘y bo‘lib keladi.

XIX asrning 80-yillariga kelib ilmiy-nazariy risola vazifasini bajaruvchi Xorazm maqomlarining musiqiy va so‘z matnlari bitilgan mukammal kitoblar yaratganlar. Xorazm “Tanbur chizg‘ilari” nusxalarida keltirilgan doyra usullari o‘zaro muvozanatlardan tuzilgan. Bu esa, o‘z navbatida, musiqa riyoziy ilm degan tamoyilni yana bir karra tasdiqlab, Shashmaqom va uning muvoziy (parallel) shakli bo‘lgan Xorazm “Tanbur chizg‘ilari” aniq o‘lchovlar asosida yaratilgan, degan fikrni isbotlaydi.

Tanbur tabulaturasida Xorazm “Tanbur chizg‘ilari” va dutor maqomlarining besh asosiy tamoyili xatga tushirilgan:

1. Maqom va uning tarkibiy bo‘lak qismlari, usul, tasnifoti nomlari;
2. Maqom yo‘llarining to‘la-to‘kis kuy harakati;
3. Doira usullarining tarhi;
4. Maqom kuylari tarkibiy bo‘laklarining belgilovchi ishoralar;
5. Maqom yo‘llariga manzuma etilgan so‘z matnlari.



Bugungi kunda maqom san’atini o‘rganish va rivojlantirish borasida Respublikamizda katta ishlar qilinmoqda. O‘zbek milliy maqom markazi va O‘zbekiston xalq artistlari aka-uka Eshchanovlar rahbarligidagi Xorazm namunaviy maqom ansambli bilan hamkorlikda Xorazm tanbur chizg‘ilarida bitilgan Rost maqomi aytim yo‘li to‘la o‘rganildi. Mana shulardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, Xorazm olti yarim maqomlari ularning tarkibidagi cholg‘u kuylari va aytim yo‘llari hozirgi globallashuv asrida ham san’atkorlarimiz, maqomchilarimiz ijro dasturlaridan o‘rin olib kelayotgani bu ijro an’analarimizni xalq orasida saqlanib kelayotgani dalillovchi ko‘rsatkichlardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017

2. Mullo Bekchon Raxmon o‘g‘li “O‘zbek notasi” Alanga jurnali 1928. 3-4 soni

3. Xudaybergan Muhirkon. Xorazm tanbur chizg‘ilari. Qo‘lyozma. O‘zR FASHI inv. № 7406.

4. Mullo Bekchon Raxmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixchasi. Toshkent 1992

5. Aminov H. Tanbur chizig‘i nusxalari. Shashmaqom saboqlari (maqola va ma’ruzalar to‘plami). Toshkent 2005

6. Boltayev R. Raximov B Tanbur chizg‘ilarining ilmiy-amaliy asoslari. Yangi asr avlodi nashriyoti. Toshkent 2020

7.Matyakubov O. Maqomot. Musiqa nashriyoti. Toshkent 2004

8. Matyakubov O. Xorazm Dutor maqomlari va Olti yarim maqomi. Yangi asr avlodi nashriyoti. Toshkent 2018

9. Matyakubov O. Boltayev R. Aminov X. “Xorazm tanbur chizig‘i” Toshkent 2010

10. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent 2006

II – SHO‘BA

SAN’AT YO‘NALISHLARIDAGI BO‘LAJAK KADRLARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBASINI O‘RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.

SAN’AT YO‘NALISHLARIDAGI BO‘LAJAK KADRLARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBASINI O‘RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Nishonova Shahzoda Murodjon qizi

Toshkent davlat Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti musiqa ta’lim yo‘nalishi magistratura bo‘limi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada san’at yo‘nalishi talabalarida xorij tajribasining nazariy va amaliy o‘rganish. Bilimlarni innavatsion faoliyat hamda psixologik metodlar bilan shakllantirish yo‘llari haqida fikr mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy mahorat, barkamol avlod, ma’naviyat, musiqa madaniyati, pedagogika, psixologiya, kasbiy metodika, pedagogik mahorat.*

Kirish: Bugungi kunda O‘zbekistonda, oliy ta’lim insonlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday e’tiborning asosiy sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qiymati va asosiy kapitali yangi bilimlarni qidirish, xorij tajribalarini o‘rganish va o‘zlashtirishga, qodir mutaxassisni tayyorlash ekanligini tushunishdir. Zamonaviy pedagogik fanning muhim yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchini o‘qitish jarayonining samaradorligini yuqori darajaga oshirishni ta’minlaydigan vositalar va shart-sharoitlarni izlashdir. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” degan o‘z qarashlari ta’lim

tizimida va oliy ta’limning barcha pedagog xodimlariga juda katta mas’uliyat va ishonch yuklaydi.

Dunyoning bir qator mamlakatlarda o‘quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari va xususiy maktablar, shaxsiy va davlat kollejlar va oliy ta'lim muassasalarida ijodkorlik va estetik tarbiyani shakillantirish uchun o‘quvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan. Xorij davlatlarida o‘qituvchilar o‘zining imkoniyatlari va o‘quvchi va talabalarning bilim darajasiga qarab o‘quv rejalarga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Hozirgi kunda O‘zbekistonning bir qator ta’lim muassasalarida ham ushbu tajriba amalga oshirilmoqda. Yevropa va AQSh davlarlarida yagona davlat dasturiva o‘quv reja yo‘q. Darsdan tashqari xar bir o‘quvchi o‘z vaqtini samarali o‘tkazish uchun musiqa to‘garaklar (xor, orkestr, raqs) a'zolari bilan bir maktabda simfonik orkestr tashkil etilgan. Bugungi kunda rivojlangan Yaponiyada ham yagona o‘quv rejaga amal qilishmaydi. Yaponiyaning o‘ziga xos sistemasi mavjud. Ularda bolalar bog’chasidan oliy ta'lim tizimigacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya esa intengrasiya qilingan fan bo‘lib unga musiqa, tasviriy san'at va mexnat kabi fanlar bilan birlashgan. Bolalar bog’chasida mashg’ulotlarda bolalarning onasi ham otasi ishtirok etishadi. Xorij davlatlarida bolalar bog’chasida oilaning hamkorligi ham muhum rol o‘ynaydi. Ushbu xorij davlarlari tajribalari o‘z mamlakatimizda ham o‘rganilda va tajri sinov jarayonida juda katta muaffaqiyatga erishilib kelinmoqda. Yangi O‘zbekistonda milliy madaniyatimizni va urf-odatlarimizni o‘ziga xosligini tiklash uchun maktablarda yoshlarni tarbiyalash va xozirgi kunimizni to‘laroq idrok etish uchun tariximizni yaxshi bilmoqliklari kerak. Musiqa ta'limidan, davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim mazmuni o‘quvchiarning musiqiy bilim va tajribalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani taqqoslash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Demak, yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda musiqiy madaniyat darslarini ahamiyatga ega. Musiqiy madaniyat darslari o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Ulardagi go‘zalikka, yaratuvchanlikka bo‘lgan xis-tuyg’ularini o‘stiradi, san'atga mexr-muxabbat va qiziqish uyg’otadi.

Prezidentimiz qarori bilan 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o‘rgatiladi va bu ularning shahodatnomasida qayd etilishi takidlangan. Mazkur qaror ham xorij davlatlarining tajribalaridan foydalanilgan. Ushbu qaror musiqa fani o‘qituvchilariga ulkan masulyat uyg’otadi. Hozirgi kunda ta’lim maskanlarida musiqa darslarini hayotga joriy etish maqsadida umumiy o‘rta ta'lim maktablari standarti asosida yangi dasturning mavzulari o‘zgartirib kelindi. Darsni qiziqarli va maroqli bo‘lishi uchun musiqa tinglanadi, barcha musiqa faoliyatlari yani musiqa savodhonli, tinglash dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bog’lanib o‘tiladi. Dars - ta'lim vs tarbiyani amalga oshirishni eng samarali shaklidir.

Hozirgi yillarda tajribali metodistlar, o‘qituvchi va olimlar o‘quv jarayonini kuzatish va taxlil qilish soxasida o‘tkazilgan tadqiqotlar dars samaradorligini oshirish pedagogik va didaktik shart-sharoitlariga uzviy bog’lik ekanligini ko‘rsatmokda. Darsliklar, qo‘llanmalar, didaktik ko‘rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish juda ham kerakli shart sharoitlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda musiqa o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan sifatlarni shakllantirishimiz lozim yani pedagogika, psixalogiya, estetik did, musiqiy savadhonlik kabi. Xulosa qilib aytganda o‘qituvchilar o‘z ustilarida ishlab xorij tajribalarini o‘rganishlari va amaliyotta sinab ko‘rishlari kerak. O‘quvchilarga musiqa san’atini o‘tgatishda ko‘plab uslub va metodlardan foydalanishlari lozim bu esa dars samaradorligini oshiradi. Bunday dars jarayonlari musiqa san’atini yoshlar orasida keng targ’ib qilib, san’atimizni jahonga tanitishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Milliy mafkura – mamlakat kelajagining poydevori” I.A. Karimov.

2. “Musiqa uslubiyoti” Jayxun Sh. Raxmatullayev Termiz. 1991 yil.

3. “Metodika uz obucheniye” O. Apraksina 1978 Moskva.

4. Omonullayev D. “Umumiy ta’im maktablari uchun musiqa dasturlari” Toshkent. 1992

5. “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi “Musiqa ta’limi fanlarining taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari” moduli bo‘yicha o‘quv – uslubiy majmua. Q.B. Panjiyev, Sh. N. Raximov, A.X.Trig’ulova. Toshkent 2018.

6. Asafev B. V. Muzыkalnaya forma kak protsess. L.: Gosud. muz. izd., 1971g. s 372

7. Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. T., 2009. 225-b. 4. Mahkamova, Sh. R. (2020). Musiqa ilmi va islom dini: talqin muammosi. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 1331-1334.

8. Qorayev S. B. (2020). Professional ta’limda o‘quv amaliyotlarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BUXORO BOLALAR FOLKLOR QO’SHIQLARINI O’RGATISH MUAMMO SIFATIDA

Xamrokulov Naimjon Baxronovich.

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “ Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o’qituvchisi.

Annotatsiya: *Maqolada, musiqa darslari faoliyatida Buxoro bolalar folklor qo’shiqlarini o’rgatish muammo sifatida urganilib yoritilib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Urf-odat, g’oya, tarbiya, qadriyat, tafakkur, folklor, pedagog, estetika, jamiyat, madaniyat.*

Ma’lumki, umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarida musiqiy-estetik tarbiyaning dastlabki asoslariga zamin yaratiladi. Bu bosqich boshlang’ich ta’lim tizimining eng mas’uliyatli bo’g’ini hisoblanadi. Ayni shu bosqichda o’quvchilar musiqa san’atining insonlar hayotidagi mavqei, ahamiyati, uning badiiy ifoda tili, janrlari, milliy xalq cholg’ulari, xalq musiqa ijodidagi turli marosim, mavsum, urf-odat va an’analar bilan bog’liq namunalari bilan yaqindan tanishib boradilar va ular haqida ilk nazariy ma’lumotlarga, bilim va tushunchalarga ega bo’ladilar.

Respublikamizda o’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy yetuk kishilar bo’lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib

berilmoqda. Ta’limning barcha bo’g’inlarida bo’lgani kabi umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchi-yoshlarni ta’limni ilk bosqichidan boshlab har jihatdan yetuk qilib, ya’ni jismoniy, aqliy, axloqiy, ma’nan sog’lom qilib tarbiyalash, ayniqsa ularda milliy g’urur, milliy ong, nafosatni uyg’un kamol toptirishga alohida etibor berib kelinmoqda. Chunki, milliy ong, milliy g’urur va tafakkur eng avvalo, milliy qadriyatimiz sanalmish-tilimiz, tariximiz, xalqimizning uzoq tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan o’ziga xos madaniy va moddiy boyliklarini o’rganish, ularga mehr qo’yish, asrab avaylash va rivojlantirish negizida tarkib topadi. Shuning uchun ham xalqimizning milliy qadriyatlari tizimida muhim o’rin tutuvchi xalq musiqasining yoshlar tarbiyasida tutadigan o’rni va ahamiyati beqiyosdir.

1. Mavsum-marosim kuy-qo’shiqlari. Bunga eng ommaviy ko’rinishdagi yor-yorlar, o’lanlar, aytishuvlar, bayram, fasllar bilan bog’liq mavzuli aytimlar o’z o’rnida yig’i yo’qlovlar va xalqning turli viloyatlariga xos udumlari bilan bog’liq qo’shiq-aytimlari kirsada, lekin bolalar folьklor qo’shiqlari ham bundan mustasno emas va ular ham o’z mazmun-mohiyati va tematikasiga ko’ra kattalar folьklori bilan chambarchas bog’langandir.

2. Mehnat qo’shiqlari. Asosan, dehqonchilik (dehqonlarning hosil yig’ishtirish, yerga urug’ ekish, ishlov berish) chorvachilik va mehnatning boshqa turlari (kosibchilik, temirchilik, hunarmandchilik, ayollarga nisbat beriladigan kasb-hunarlar)ga oid aytimlar kiradi. Bolalar folьklor qo’shiqlarida ham mehnatga doir g’oyalarni uchratish mumkin. Maslan, “Tomdan tarasha tushdi” qo’shig’ida ”Qamchinni akamga berdim”, “Donni tovuqqa berdim”, “Tuxumni o’choqqa qo’ydim” kabi mehnatga doir iboralar mavjud.

3. Doimiy, (kunda) ya’ni har doim va har vaziyatda aytilishi mumkin bo’lgan ko’y- qo’shiqlar. Bu turdagi qo’shiq aytimlar mavzulari juda keng va xilma-xil bo’lib, turli xil o’yinlar, do’stlik, tinchlik, insoniy fazilatlar, nasihat, sof ishqiy mazmundagi, beg’ubor baxtiyor bolalik kechinmalar, insonlarni yorqin kelajak, farovon turmush haqidagi orzu-umid, intilishlari ifodalangan qo’shiqlarni kiritish mumkin.

Xalq laparlarida hajviy laparlar ham keng o’rin tutadi. Kishilarning tabiiy nuqsonlaridan tortib, ishyoqmaslik, dangasalik, andishasizlik, yulg’ichlik kabi illatlar ustidan kulinadi. Bunday laparlar asarning ijtimoiy-g’oyaviy vazifasini oshirib, katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Musiqa darslarida xalq laparlaridan foydalanishda ularga faqat bir tomonlama, ya’ni o’quvchilarga o’rgatish va kuylattirish nuqtai-nazaridan yondoshish emas, balki ulardan darsning musiqa tinglash faoliyatida foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbek musiqashunosligida lapar janri ancha keng o’rganilgan. Yana shunday namunalar borki, ijrosi professional mahoratni talab qiladi”. Shu xususiyatiga ko’ra xalq orasida qo’shiq ijrochilari qo’shiqchi, xalfa, satang, go’yanda (nahvagar), ashulakash (ashulachi), laparchi, o’lanchi tarzida farqlanadi. Qo’shiqchi ko’pincha to’rtliklarni ijro etsa-da, aslida nisbatan kengroq ma’noda, umuman, qo’shiq ijrochisi va ijodkori bo’lsa, go’yanda (nahvagar), asosan, yig’i-yo’qlovlarni kuylashga ixtisoslashgan qo’shiqchidir. Ashulakash yoki ashulachi ko’pincha maqom tarkibidagi qo’shiqlarni yoki katta ashula deyilguvchi jo’rsiz ijro etiladigan qo’shiqni kuylay oladiganlardir. Laparchi raqsga tushgan holda qo’shiq aytuvchi bo’lsa, o’lanchi to’y marosimi qo’shiqlarini ijro etuvchidir.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni folьklor qo’shiqlari vositasida estetik tarbiyalashda musiqani hissiy idrok qilishga yo’naltirish eng asosiy omil hisoblanadi. Musiqa ta’limida o’quvchini qiziqtirish alohida ahamiyatga ega. Qiziqish o’quvchilarning ehtiyojiga aylansa, ularning diqqati va fikri, xayolini jamlashga katta imkon beradi. Folьklor qo’shiqlaridan oladigan ma’lumotlarning keng qamrovli bo’lishini ta’minlash, hissiy ta’sirchanlikni o’stirish uchun o’quvchilarning musiqiy madaniyatini rivojlantirish zarur. O’quvchilarga o’rgatiladigan folklor qo’shiqlarining musiqiy bezagi, undagi nola va qochirimlardan unumli foydalangan holda xalq an’analari, udumlari hamda turli marosimlar bilan uzviy bog’lab, o’quvchilarga singdirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidetining Madaniyat va san’at soxasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora –tadbirlar to’g’risida 2017 yil 31 maydagi qarori.-T.:Ma’rifat gaz.2017.5-son

2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ №222-son “2010-2020 yillarda Nomoddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ’ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to’g’risida”Xalq so’zi gaz.2010. yil 8 oktyabr.

3. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi//-T.; “O’zbekiston”,-2014.-39b.

TALABALARDA VOKAL IJROCHILIGI KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Murodov Mirshoxid Burxanovich

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,

Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarning vokal ijrochiligi ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy bilimlarning ahamiyati, pedagogik shart-sharoitlarning mazmuni keng yoritilib berilgan. Shu bilan birga vokal ijrochiligi faning maqsad va vazifalari, vokal ijrochiligi fani o‘qituvchisiga qo‘yiladigan pedagogik talablar xususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlari: *vokal ijrochiligi, ijrochilik ko‘nikmalari, vokal asoslari, to‘g‘ri nafas, kuylash, qobiliyat, mashg‘ulot, o‘qituvchining pedagogik mahorati.*

Bugungi kunda ta’lim musassasalarida o‘qituvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir

qo‘shimcha chora-tadbirlar[6], hamda sohaga tegishli boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda va ularni ijrosini ta’minlashda bevosita oliy ta’lim musassasalaridagi musiqa ta’limida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar, tahsil olayotgan talabalar ham ahamiyatga ega. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisi kasbiy faoliyati davomida musiqa darslarida musiqiy faoliyat turlariga alohida vaqt ajratishi muhim sanaladi, shu ma’noda vokal ijrochiligi malakalarini mukammal egallagan talaba musiqa darslarini samarali tashkil eta oladi.

Vokal – musiqa san’atining o‘ziga xos sohasi bo‘lib, bu ashula aytish san’atini mukammal darajada o‘zlashtirishga asoslanadi. Bu san’at turi bugungi kunda opera, musiqali drama, komediya va estrada konsertlarida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Vokal musiqa asosan badiiy matn bilan bog‘liq. Bundan tashqari so‘zsiz ijro etiladigan vokaliz ham vokal musiqadir. Ijro asosining poydevori - bu nafas. Yaxshi ijro - bu nafas chiqarish ustaligi bo‘lib, ustalik bilan nafas chiqarish uchun nafas olishni o‘rganish kerak. N.D.Andguladzening fikriga ko‘ra esa: "Kuylash san’ati nafas olish san’atidir" degan fikrni bildirgan [2]. Bu bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko‘maklashadigan bo‘lishi kerak.

Ta’lim jarayonidagi qattiqqo‘llik talabalar orasida g'ayratni keltirib chiqarmaydi va ularning ijodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Ijobiy muhitda har bir talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va shaxsiy ahamiyati namoyon bo‘ladi, ular odamni qiyinchiliklarni yengishga va hayotdan zavq olishga qodir qiladi, kognitiv jarayonlarga rag‘batlantiruvchi ta'sir ko‘rsatadi. Talaba o‘z harakatlarini va boshqalarning harakatlarini yanada aniqroq baholash qobiliyatiga ega bo‘ladi, bu esa "o‘qituvchi-talaba" tizimidagi o‘zaro munosabatlarni osonlashtiradi va o‘quvchining sezgirligini oshiradi.

"Vokal ijrochiligi" tushunchasi insonning kuylash qobiliyati bilan bog‘liq nutqdan farqli o‘laroq, xonandalik ovozi tovushlari aniq balandlikka ega, uzoq

[6] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o’rni va ta’sirini yanada oshirish chora tadbirlari to’g’risida”gi PF-6000-sonli Farmoni

davom etishi mumkin. Vokal ijrochiligida ovozning muhim sifati uning kuchidir. Ovoz tabiatan registrlarga ega. Registr deb tovushlarning tembri bo‘yicha bir xillik qatori tushuniladi, u yagona fiziologik mexanizm bilan hosil qilinadi.

Tovush sifatini ko‘zlangan natijada tarbiyalashda ovozni ko‘rsata bilish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi ham yaxshi ovozga ega bo‘lishi lozim, talaba esa - taqlid qobiliyatiga ega. Biroq taqlid kuylashni o‘rganishda majburiy hisoblanmaydi.

Xonanda nafas olishni rivojlantirish kuylash asosi sifatida ijrochilik ustida ishlash jarayonida kechadi va asta -sekin, sistemali tarbiyalanadi. U bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko‘maklashadigan bo‘lishi kerak. Faqatgina kuylash bilan bog‘liq tashkil etilgan, tinch nafas olish "tayangan" tovush uchun sharoit yaratiladi [4]. Bunday tovush to‘liq va chiroyli eshitiladi.

Vokal-pedagogik amalyotida pastki qovurg‘a - diafragmatik, ya’ni aralash nafas olish eng qulay sanaladi. Nafasning bu tipda ko‘krak qafasi va diafragma ishga faol kirishadi. Masalan, nafas olish ularning bir paytdagi harakati bilan kechadi, bu to‘liq nafas olish imkonini beradi. Nafas va ovoz to‘qimalari o‘zaro ta’siri tovush tayanchini belgilaydi. Boshqacha aytganda, xonandalik tayanchi - ovoz apparatining barcha qismlari ya’ni, bo‘g‘iz, nafas a’zolari muvofiqlashgan ishi natijasidir [3].

Kuylash jarayonida yuqori badiiy musiqiy obrazni yaratish aktyorlikning ba'zi elementlarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Chunki, xonanda ushbu obrazni, bastakor tomonidan musiqiy asarga kiritilgan fikrlarni qayta yaratishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli Farmoni.

2. Andguladze, N. D. O tvorcheskoy prirode pevcheskogo dыxaniya / N. D. Andguladze // Pervыy mejdunarodnыy mejdissiplinarnыy kongress «GOLOS»: sb. trudov. – Moskva, 2007. – S. 5-6

3. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2008. 314 b.

4. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Dasrslik. T.: Yangi avlod asri. 2009. 304 b.

TALABALARNING KUYLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH.

M.Djumaboyeva. Qo‘qon DPI Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar kuylash malakasini shakllantirishda vokal ijrochiligi fani doirasida to‘g’ri nafas olish, ovozni tarbiyalash, qo‘shiq kuylash qoidalari va qanday uslublar qo‘llanishi borasida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, nafas, ko‘nikma, kuylash, xirgoyi, musiqa, ovoz, tarbiya, ijod, ijro, ton, dinamika, diapazon, sozlanish, ohang.*

Musiqa san’ai orqali yosh avlodni ma’naviy tarbiyasiga g‘amxo‘rlik qilish, kamolot sari etaklash, milliy g‘oyani singdirish va tafakkurni kengaytirish borasida xilma – xil ko‘rik tanlovlar o‘tkazilmoqda. Bu ko‘riklar esa o‘z navbatida yangi – yangi ijrochi xonandalarni kashf etayotir.Kuylash nazariyasi bo‘yicha adabiyotlar talaygina, biroq bu vokal ishi amaliyotiga kam ta’sir etadi: qo‘shiqchilik hayoti undan deyarli xoli, o‘z yo‘lidan kechadi.Kuylash tajribasi, asosan, pedagoglar, vokal ishi ustalari tajribasini og‘zaki bayon etishdan foydalanadi. Qo‘shiqchi va uning ovozini tarbiyalash bo‘yicha aktyor bilan ishlash metodiga o‘xshash qandaydir umumiy metod yaratilmagan, kuylash ustalaridan o‘z amaliy faoliyatini nazariy jihatdan chuqur anglashni talab qilish qiyin. Na hofiz, na yozuvchi, na cholg‘uchi, na mo‘yqalam sohibidan iste’dodli va ulkan tajribasi bo‘lsa ham nazariya yaratishni talab qilib bo‘lmaydi. Shu holat qo‘shiqchilar tayyorlashning “yagona metodini” ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi haqidagi fikrlarni keltirib chiqaradi. Biroq bu kabi metodni yaratish vokalchilardan yuksak

uyushqoqlik talab etiladi. Vokal o‘qituvchilari kuylash paytida ovoz apparati ishi haqidagi batafsil tekshirilgan ilmiy ma’lumotlarga asoslangan ilmiy xulosalarga kelgandagina “yagona metod” ishlab chiqilishi va vokal amaliyotiga tadbiq etilishi mumkin.

Kuylashga o‘rgatishning foydali, demakki, hamma maqbul metodi eng yaxshi vokal peadgoglari va etuk ijrochilar tajribasi va amaliyotida chuqur, har tomonlama umumlashtishi natijasidagina yaratilishi mumkin. Bunday umumlashtirish fan ma’lumotlariga tayanishi lozim. Bugungi kunda na ilm, na pedagoglarga ajoyib musiqiy eshitish qobiliyati mavjudligi o‘quvchiga ovozning yaxshi yo yomon chiqishi ob’ektiv sabablarini tushinish imkoniyatini bera oladi. Ustiga – ustak pedagog va o‘qituvchining sub’ektiv tuyg‘ulari ko‘pincha mos kelmaydi. Ovoz (tovush) bo‘lishidagi tuyg‘ularini so‘z bilan ifodalash esa o‘ta mushkul. Zamonaviy vokal terminalogiyasi ham ba’zida talabaga yordam berishdan ko‘proq, uni chalg‘itadi. Kerakli ovozni chiqishini ko‘rsatish chog‘ida o‘z tuyg‘ularini sharhlab, pedagog talabalarga o‘xshash tuyg‘ularni uyg‘otmoqchi bo‘ladi. Biroq ko‘pchilikdagi ohangni ko‘rsatayotib, pedagog, odamda, bu tovush (ovoz) o‘qituvchiga aytayotgan tuyg‘u va texnik usullar natijasida yuzaga kelganiga ishonadi. Aslida esa tuyg‘ular juda aldamchi va individual, o‘quvchi – talabada bu boshqacha bo‘lishi mumkin.O‘z texnik usullari va tuyg‘ularini berish jarayonida pedagog ko‘proq og‘zaki tushuntiradi. Bu tushuntirishlar ko‘pincha obrazli ifodalar bo‘lib, kuylovchi ovozning yaxshi tarangini yoki bu tarangning turli sifatlarini xarakterlaydi. Talaba esa bu obrazli ifodalarni o‘z mushak tuyg‘ulari (hislari)ga “tarjima qilishi” ga to‘g‘ri keladi. Hamma vaqt ham talaba bu “tarjima”ni eplay olmaydi. Kuylash chog‘ida ovoz apparati ishi xaqida u qadar to‘g‘ri bo‘lmagan tasavvurga asoslangan talim metodlari bazida pedagogning amaliy tajribasi xisobiga yaxshi natija berishini inkor etib bo‘lmaydi. Biroq bu ko‘rsatkich past.Bu metodlar muvoffaqiyatini, aftidan, ayrim qo‘shiqchilarning o‘z ustozi ishlatgan mushak usulidan nusxa olish yoki o‘z tasavvuridagi ovozning chiroyli chiqishi idealining intuitiv amalga oshira olish qobilyati bilan izoxlash mumkin. Pedagogik ovozning yaxshi jarangidan nusxa olib, ko‘shiqchi, xatto

kuylash jarayonini noto‘g‘ri sharxlaganda ham o‘zining vokal idealiga mos ovozni ta’minlaydigan mushak ko‘nikmalarini hosil qiladi. Musiqiy tarbiyaning muhim vazifalarini amalga oshirishda, yosh avlodni yuksak musiqiy – estetik didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ijro mahoratini yuzaga keltirishda vokal o‘qituvchisi alohida ahamiyat kasb etuvchi shaxs hisoblanadi. Ovoz a’zolari yordamida chiqariladigan, balandligi, kuchi va tembri har xil bo‘lgan tovush (odam va o‘pkadan nafas oluvchi hayvonlarda). Ovoz hiqildoqda hosil bo‘ladi: o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi, bir-biriga tegib turgan Ovoz boylamlari oralig‘idan o‘tib uni tebratadi, natijada nozikkina Ovoz hosil bo‘ladi, so‘ngra buni yuqori rezonatorlar (og‘iz bo‘shlig‘i, halqum, burun va yondosh bo‘shliqlari) kuchay-tirib berib, Ovoz o‘ziga xos ohang (tembr) oladi. O‘pkadan chiqayotgan havo oqimining kuchiga, jips turgan Ovoz boylamlarining ko‘rsatayotgan qarshiligi va ularning tebranish amplitudasiga qarab, Ovoz kuchli yoki kuchsiz, shuningdek, tebranishining uzunligi va chas-totasiga qarab baland yoki past bo‘lishi mumkin. Ovoz paydo bo‘lishida ishtirok etadigan a’zolarning hammasi sog‘lom bo‘lsa, Ovoz yengil va bemalol eshitiladi. Pedagogik texnologiya nazariyasi va uni ta’lim jarayonida qo‘llash muammolariga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlar mazkur nazariyaning ta’lim rivojini ta’minlashdagi ahamiyatini chuqur anglab etish, uning imkoniyatlarini aniqlash va keng qo‘lamda axborot maydonini egalashga yordam beradi. Bolalar ovozini parvarish qilish, vokal va xor malakalarini oshirishda qo‘shiq o‘rganishdan oldin maxsus vokal mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda avval o‘quvchilarning ishchi diapazonining primar (o‘rta) tovushlardan boshlab pastki tomon yo‘naluvchi tetraxodlardan foydalaniladiO‘qituvchi zimmasiga yuklanadigan bunday mas’uliyatni hisobga olgan holda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari, bakalavr talabalarning professional uquvini takomillashtirib borish, xususan ularning kuylash mahoratini o‘stirib borish hayotiy zarurat ekanligini anglab olish muhimdir.Musiqiy ta’lim dargohida bo‘lajak bakalavrlarni kasbga tayyorlar ekan, ularning kuylashga o‘rgatuvchi yakka xananda, vokal o‘qituvchisi talabalarning har birini ertaga izlab o‘quvchilarga vokal sirlarini o‘rgatuvchi ustoz sifatida tasavvur qilish, uni kuylash san’atining eng muhim sirlari bilan

qurollantirishlari lozim.Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi ya’ni talabaning ovozi qanday bo‘lishi kerak? – degan savol tug‘ilishi o‘z – o‘zidan tabiiydir.

Talabaning ovoziga qo‘yiladigan birinchi navbatdagi talablar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O‘qituvchi – talaba faqat texnikasini egallabgina qolmay, uning ovozi yoqimtoy va o‘quvchilarni o‘ziga tortadigan bo‘lishi.

2. Talaba biron cholg‘u sozida (fortepiano, rubob, dutor va xokazoda) o‘z – o‘ziga jo‘r bo‘lib kuylay olishi.

3. Cholg‘u sozisiz ham chiroyli, yoqimli tembrda kuylay olishi.

4. O‘z ovoz diapazonining barcha registrlarida (o‘rta, past va yuqori) birday o‘z ovoz tembirini yo‘qotmasdan kuylay olishi.

5. Hirgoyi qilib yoki falset ovozda kuylay olishi.

6. Kuylaganda intervallarni to‘g‘ri talaffuz qilib kuylay olishi.

7. Xalq qo‘shiqlarida turli qochirimlarni, bezaklarni mahorat bilan qo‘llay olishi.

8. Turli dinamik tuslarda kuylay mahoratiga ega bo‘lishi.

9. O‘quvchilar bilan muloqotda o‘z ovoz tonini to‘g‘ri tanlay olish lozim.

Yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlar talabaning kuylash texnikasini qay darajada mukammal egallaganligini ko‘rsatadi. Xilma – xil vokal malakalariga talaba, birinchi navbatda professional o‘qituvchilardan ta’lim olish jarayonida erishadilar. Xususan, vokal, mumtoz qo‘shiqchilik, xor va xalq qo‘shiqchiligi darslaridan puxta bilim olgan talabalar soatlab cho‘chimasdan kuylash malakalarini ya’ni chidamlilikni ham o‘rganib boradilar. Shu o‘rinda mashhur ashulachi Shalyapinning qo‘shiqchilikka xos muhim bashoratini eslatib o‘tish o‘rinlidir. Uning fikricha har bir ashulachi o‘z ichini ikki kishiga bo‘lgandek his qilishi lozim. Birinchi ashulachi sifatida u professional darajada kuylasa, ikkinchi ashulachi sifatida u o‘z ijrosini muntazam nazorat qilib borishi, o‘zining yutuq va kamchiliklarini belgilab, uni tuzatish yo‘llarini o‘ylab borishi lozim. Bu esa, kuylovchiga yanada kattaroq mas’uliyat yuklaydi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, musiqa madaniyati darslarida vokal malakalari bo‘yicha olib boriladigan ishlarning

sifati va samaradorligini oshirishda, vokal asarlarini mukammal o‘rganishda, nota savodxonligini bilish va uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalana olish orqali o‘quvchilarning vokal san’atini puxta o‘zlashtirishlarida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarda vokal ko‘nikmalarini shakllantirishda ovoz qo‘yish mashqlarini mukammal egallash, ularda kuylash malakalari samaradorligini oshirishda asosiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N.Sharafieva. Xorshunoslik. Toshkent, 1987 y.

2. L.N.Qo‘ldoshev. Maktabda xor to‘garagi. Toshkent, 1975 y.

3. R.T.Qodirov. Darslarda o‘quvchilarni ko‘p ovozda kuylash malakalarini shakllantirish. toshkent, 1992 y.

4. Qobilova E. B. "Formirovat duxovnoe mirovozzrenie podrastayuщego pokoleniya cherez folklora janra."*Oriental art and culture* 3.1 (2022): 291-295.

5. Bakirovna Q. E. "Theoretical and methodological basis of overcoming contradictions in modern musical and educational practice." *eurasian journal of learning and academic teaching* 1.1 (2021): 117-120.

6. Qobilova Ezoz. "The place of folk songs in isajan sultan's stories." *american journal of social sciences and humanity research* 4.02 (2024): 44-49.

7. Qobilova Ezozxon. "The significance of interdisciplinary connection in the formation of music literacy in children with hearing defect in music lessons." *Onomázein* 62 (2023): december (2023): 1382-1388.

8. Qobilova E.B., "Qadimiy musiqiy san’atning shakllanish jarayoni." *Science and innovation* 2.special issue 14 (2023): 560-565.

9. Jamoliddinova D. "Bo‘lajak musiqa talimi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. E’zozxon Qobilova." 269.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOIOGIYALARI.

Oygul Sobirova.

Qo‘qon DPI 3-kurs tayanch doktoranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida metodik kompetentlilikni rivojlantirish texnologiyalari ya'ni, musiqa o‘qituvchisi uchun o‘quv jarayoni doirasida bajariladigan ishlar fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta'lim, tarbiya, ijod, kompitensiya tafakkur, sharoit, kreativ, o‘qitish, musiqa, san'at, o‘rgatish, madaniyat, ma'naviyat*

Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev musiqa va san’at sohalariga alohida e’tibor qaratadilar.Xususan O`zbekistonda yuz berayotgan innovatsion jarayonlar sharoitida tobora yuqori talablar qo‘yiladigan ta'lim bugungi kunda insoniyatning rivojlanishini asosiy talabiga aylanib bormoqda.O‘qitish metodlari bilan bir qatorda ta'lim jarayonida samarali pedagogik texnologiyalarni qo‘llash asosida pedagog kadrlarning tegishli kasbiy tayyorgarligi bilan belgilanadi.Mamlakatimizda "O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi" atamasini o‘rganish va undan foydalanish XX asrning 80-90 yillariga to‘g'ri keladi. Ushbu davrda mahalliy olimlarimiz ushbu ta'lim hodisasi va turli xil kompetentsiya tarkibiy qismlarini chuqur kontseptsiyalashga qaratilgan istiqbolli urinishlarni amalga oshirdilar. Hozirgi kunda "O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi" toifasi XXI asr o‘qituvchisiga zamonaviy talablar sharoitida etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. O‘quv jarayonida o‘qituvchining kasbiy malakasini shakllantirishning pedagogik shartlari ko‘rib chiqiladi hamda, ijodiy muhitni yaratish; aks ettirish faoliyati uchun motivatsiya; o‘quv jarayonini dialoglashtirish; o‘qituvchining kasbiy malakasini muvaffaqiyatli shakllantirishga yordam beradigan ta'lim texnologiyalari va faol o‘qitish usullari tahlil qilindi. O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishning yuqori darajasiga erishish Musiqa ta’limi o‘quv jarayonida o‘qituvchining bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy malakasini shakllantirish samaradorligiga yordam beradigan pedagogik shartsharoitlar quyidagilardan iborat:

- musiqa o‘qituvchisi sifatida o‘zini o‘zini baholash va o‘zini o‘zi anglash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsning sub'ektivligiga yo‘naltirish;
- musiqa o‘qituvchisi sifatida ijodiy muhitni yaratish;
- musiqa o‘qituvchisi sifatida aks ettirish faoliyati uchun motivatsiya;
- musiqa o‘qituvchisi sifatida o‘quv jarayonining dialoglashuvi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik o‘zaro munosabatlar jarayonida aks ettiruvchi madaniyatni shakllantirish; pedagogik faoliyatning ilmiy intensivligini oshirish; shaxsiyatning rivojlanishi va faoliyatga bo‘lgan ehtiyojning namoyon bo‘lishi, shaxsning faoliyat jarayoni va natijalaridan qoniqish hissiga erishish, qiyinchiliklarni engish istagi va murakkab muammolarni hal qilishning muvaffaqiyati, faoliyat jarayonida o‘z imkoniyatlarini namoyish etish istagi bilan bog'liq. O‘qituvchining muhim vazifasi o‘quvchini o‘quv faoliyati sub'ekti sifatida shakllantirishdir, bu o‘z faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, to‘liq o‘rganish, muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini anglatadi. Talabaning dunyoqarashini shakllantirish uni faoliyat sub'ekti sifatida o‘zini anglashini rivojlantirish demakdir. Ma'lumki, o‘quv jarayoni yangi bilimlarni rivojlantirish vazifasini bajaradi, bu talabaning individual tajribasidan uzoq bo‘lishi mumkin, shuning uchun universitetning o‘quv jarayoni, agar u shaxsga tanlov erkinligi va ijodini ta'minlasa samarali bo‘lishi mumkin. Yangilikka moyillik, o‘rganish istagi va o‘zini o‘zi yuqori baholash, o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan birgalikda o‘quv jarayonida ijodiy muhit yaratilishiga hissa qo‘shadi, bu esa o‘z navbatida talabalarning ijodiy qobiliyatlari va bilim mustaqilligini, mustaqilligini yuqori darajasiga erishishga qaratilgan. Ijodiy muhit o‘quv jarayonida turli xil ochiq tipdagi ijodiy vazifalardan foydalanish (ya'ni bitta to‘g'ri echim yo‘qolganda), pedagogik vaziyatlarni va ijodiy faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish, shuningdek o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, quvonch hissiyotlarining ustunligini, paydo bo‘lish qo‘rquvining yo‘qligini rag'batlantirish orqali yaratiladi. Ta'limning faol va muammoli usullaridan foydalanish talabalarning yangi bilimlarni mustaqil ravishda kashf etishga bo‘lgan munosabatini rag'batlantiradi, shu bilan birga o‘zlarining ijodiy qobiliyatlariga

bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi. O‘quv jarayonida ijodiy muhit yaratishning ahamiyati insonning kasbiy pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga qodirligi va tayyorligi nazariy va amaliy jixatlar bilan belgilanadi. O‘qituvchiga kasbiy rivojlanishiga imkon beradigan potentsial holatning o‘ziga xos xususiyati sifatida tayyorgarlik universitetning o‘quv jarayonida shakllanadi va bo‘lajak o‘qituvchining o‘zining tizimli bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini sub'ektiv baholashi bilan belgilanadi. O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi o‘z navbatida, shaxsning tarkibiy qismlaridan biri sifatida, uning shakllanishi va rivojlanishiga asoslanadi, bu shaxsning ijtimoiy va kasbiy yo‘nalishi, shu jumladan o‘qituvchining o‘zaro munosabatlarga tayyorligi, kasbiy pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun xizmat qiladi. O‘qituvchi mobil, muqobil va jamiyatda o‘zini o‘zi belgilash va rivojlantirishga qodir bo‘lgan mobil sub'ekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-ma'rifiy, madaniy muhitni loyihalashda, aniq pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda va hokazolarda o‘qituvchining ijodiy faoliyatini amalga oshirish uning o‘zini anglashiga, potentsial kuch va qobiliyatlarini ochib berishga, shuning uchun kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Ijodkorlik o‘qituvchining innovatsion jarayonlarga, munosabatlarning yangi turlariga, har qanday muammoli vaziyatlarda o‘zini o‘zi namoyon qilishi uchun tayyorligiga asoslanadi, ijodkorlik esa odamning moslashuvchanligi tufayli yangisini yaratish jarayoni sifatida uning mavjud bo‘lishiga aylanadi. O‘zini aks ettirish qobiliyati ijodiy shaxsning muhim ko‘rsatkichi, degan taklifdan kelib chiqib, universitetning o‘quv jarayonida o‘qituvchining kasbiy malakasini samarali shakllantirishning uchinchi sharti bu refleksiv faoliyatni rag'batlantirishdir.Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari o‘z oldiga ulkan maqsadlar qo‘yishi zarur. O‘z kasbini sevishi ijodiy yondoshuvi, fanni chuqur bilish,muomalamadaniyatiga ega bo‘lishi hamda eng asosiysi Vatanparvar bo‘lishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azizxo‘jaeva N.N.Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat.–T.: 2003.–174b.

2. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan. nom. diss...avto loyihai.–Toshkent: 2002.-22 b.

3.Ahlidinov R. Sotsialno-Pedagogicheskie osnovi upravleniya kachestvom obshego srednego obrazovaniya. Avtoref.dis...d-ra ped.nauk.–T.: 2002.-44 b.

4. X.SHaripov, N.Muslimov, M.Ismoilova: “Kasbiy ta’lim pedagogikasi”. Metodik qo‘llanma. – T. 2005 y.

5. N.A.Muslimov Bo‘lajak kasb-ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish T.,Fan 2004.

TALABA YOSHLARNI MUSIQIY FAOLIYATLAR ORQALI TARBIYALASHDA O‘QITUVCHISINING O‘RNI.

O.Tillaxo‘jayev.

Qo‘qon DPI Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada talaba yoshlarni tarbiyalashda musiqaning naqadar muhimligi, musiqa orqali yoshlar ma’naviyatini, madaniyatini, dunyoqarashini, erkin fikrlashini shakllantirish, musiqa darslarini o’qitish jarayoni tashkil etilishi talabalar ilmiy nazariy bilimlarni ularni amalda qo’llash metodlari ijodiy tashabbuskorlik manaviyatli jamiyat taraqqiyoti uchun o’z xissasini qo’shish xaqida fikr yuritilgan.*

Kalit so’zlar*: san’at, ijod, milliylik, kommunikativ, bilim, tashabbus, metod, ma’naviyat, ta’lim, tarbiya,* madaniyat.

Ma’lumki musiqa musiqa san’atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalaridan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. Musiqaning milliy ma’naviyatimizga ta’sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy “Katta musiqa” kitobida musiqa nazariyasi ohanglarining turlari, kelib chiqish sabablari, kishiga ma’naviy, ruhiy ta’siri haqidagi qimmatli fikrlarini bildirgan. Forobiy musiqa ilmida faqat nazariyotchi bo’libgina qolmay, amaliyotchi ham bo’lgan. Uning o’zi taniqli musiqachi, ajoyib sozanda va

bastakor, yangi musiqa asbobi ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan. Musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo'jizakor ta'siri haqida fikr yuritib, Forobiy "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida" asarida shunday yozadi: "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi". Musiqa, avvalo, bolalarning his-tuyg'ularini mayinlashtiradi. Musiqa asarlarini his etish kabi ularda ko'pgina insoniy fazilatlarni uyg'otadi. Albatta, insoniy fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport va boshqa sohalar katta o'rin tutadi. Binobarin, nazm va musiqa doimo yonma- yon yashaydi. Musiqani his etish tabiat taassurotlari ostida tug'iladi, qolaversa, bog'cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqa darslari o'quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma'noda ma'naviy- axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan, ne-ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu-armonlari, o'ylari va intilishlarini mujassam etgan kuy-ko'shiqlarimiz, maqomlarimiz barcha turdagi ta'lim muassasalari o'quv dasturlaridan kengroq joy olsa yaxshi bo'lar edi. Zamonamizning zabardast yozuvchisi, jahonga mashhur adib Chingiz Aytmatov "Kunda" romanida yozadi: "... hayot, o'lim, muhabbat, shavq va ilhom hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy hurlikka erishamiz, bu hurlik uchun ongimiz yorishgan zamonlardan boshlab, butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga musiqadagina erishganmiz". Xalqimiz yaratgan musiqa durdonalari har bir faoliyatimizda, har soniyada - tarbiyada, mehnatda, ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Milliy musiqa atrofdagi hodisalardagi go'zallikni idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma'naviy olamni kengaytiradi. Shu bois musiqani "tilsiz falsafa" deb bejiz aytishmagan. Zero, musiqiy bilimlarni egallash avvalo shaxsning ruhiy olami bilan chambarchas bog'liq. Musiqashunos olimlar tomonidan tavsiya etilgan kontsepsiyalarga tayanib, biz musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bola shaxsining qanday faoliyat turida qaysi shaxsiy xususiyatlari shakllanishini chizma yordamida ko'rsatib berdik. Musiqiy bilimlarni

o’zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirishda musiqa ta’limining ahamiyatini musiqa mashg’ulotlarini tahlil qilish orqali ko’rishimiz mumkin.

Demak, musiqiy mashg’ulotlar davomida:

1. Qo’shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqiy bilimlarga asoslangan holda qo’shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taalluqli bo’lgan ma’lumotlarni o’zlashtiradilar. Shu jarayonda ularda musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanadi.

2. Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari – ritm, metr, registr, o’lchov, lad, temp, nota yo’li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqa ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo’lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o’z navbatida bolalarni musiqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi.

3. Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi

4. Bolalarda cholg’u asboblarida jo’r bo’lish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o’zlari bevosita musiqiy asarga jo’r bo’ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko’radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko’rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo’r bo’lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Bola bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi

5. Musiqa ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida o’quvchilarda deyarli barcha musiqiy psixologik

xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o’zlari bevosita musiqiy asarga jo’r bo’ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko’radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko’rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo’r bo’lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. O’quvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

Musiqaning ilohiyligi, uning ruhiyatga bog’liqligi, ohanglarning sirli olami insoniyatni doimo qiziqtirib kelgan. Xonandaning qo’shig’i dardlarga malham bo’lib, shodlikni oshirsa, sozandaning kuyi g’amni aritib, ko’ngillarga xush kayfiyat bag’ishlaydi. Shuning uchun musiqaning chinakam sehriga har ikki subekt birdek daxldor bo’ladi. Shunday ekan, insonni kamolga yetkazishda musiqa san’atining ahamiyati beqiyosdir. Musiqa hayotni insonlarning his tuyg’ularini va orzu istaklarini o’ziga xos badiiy tilda ifoda etadi.Xulosa qilib aytganda musiqa sanatiga suyanish, uning asriy ananalari va namunalaridan yosh avlodni ko’proq baxramand etish lozim.Oilada ota-onlar, maktabda musiqa muallimlari bolalarga yaxshi musiqa va qo’shiq odamning qalbini tozalashini, ruxini poklashini, kayfiyatiniko’tarishini, ezgu maqsadlar sari yo’naltirishini ko’p bor uqdirishadi. Yoshlarni boy manaviy meros xisoblangan musiqa sanatini puxta biladigan yetuk mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash masalasi bugungi kunning muxim, ustivor vazifalaridan xisoblanadi. Birinchi navbatda yoshlar milliy g’urur va yuksak madaniyat egasi bo’lishlari uchun xam musiqa sanatiga oshno bo’lishlari kerak bu vazifalarni amalga oshirishda musiqa fani o’qituvchilari zimmasiga katta masuliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Darvesh Ali Changiy. Risolayi musiqiy. O’zR FA ShI .Forschadan tarjima B.Ashurovniki.

2. Qobilova, E. B. "Formirovat duxovnoe mirovozzrenie podrastayuщego pokoleniya cherez folklora JANRA."*Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 291-295.

3. Qobilova, E. B. "Formirovat duxovnoe mirovozzrenie podrastayuщego pokoleniya cherez folklora janra."*Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 291-295.

4. Bakirovna, Q. E. "Theoretical And Methodological Basis Of Overcoming Contradictions In Modern Musical And Educational Practice."*Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 1.1 (2021): 117-120.

5. Qobilova, Ezoz. "The place of folk songs in Isajan Sultan's stories."*American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* 4.02 (2024): 44-49.

MADANIY TADBIRLARNING PAYDO BO`LISH TARIXI VA ULARNING JAMIYATIMIZDA TUTGAN O`RNI

Valijonova Sug`diyona

O`zDSMIFMF "Xareografiya jamoalar rahbari" ta'lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi: Ilmiy rahbar: "Teatr san'ati" kafedrasi dotsenti Ravshan Utaganov

Anotatsiya: *Musiqa tarixi qanday? Madaniy tadbirlar qay tariqa shakllangan? Ularning rivojlanishi hamda shakllanishi qanday bosqichlarda vujudga kelgan? Ushbu maqolada shu kabi bir qancha savollarga javob topishingiz mumkin. Shuningdek, bugungi kun jamiyatimizdagi madaniy tadbirlarni soha ilmining rivojiga ijobiy ta'siri haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *musiqa, san'at, madaniy tadbirlar, jamiyat, tarix, iste'dod, dirijyorlik, opera san'ati, musiqa turlari.*

"San'at – jamiyatning bebaho xazinasi, inson tafakkuring buyuk kashfiyotidir. San'at ijod va mahoratning, tinimsiz izlanishning eng oliy darajasida yaratilgandagina inson ko`nglini ishg`ol qila oladi."[7] Madaniy tadbirlar bugungi kunda jamiyatimizning ajralmas bir qismidir. Bunday tadbirlarning amaliyotda keng tarqalishi – soha ilmining yanada rivojlanib borishiga xizmat qilmoqda. Madaniy va ma'rifiy faoliyatning muhim bir bo`lagiga aylangan madaniy tadbirlar – aholining bilim darajasini o`stirish, ma'naviy kamol toptirish, dunyoqarashini

[7] Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish. S.To`ychiyeva. Darslik. – Toshkent, 2020. 5-bet.

kengaytirish, saviyasini oshirish hamda bo`sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etishga ko`mak beradigan shakllar sifatida namoyon bo`lmoqda. Chunki, tadbirlar jamiyatning barcha bo`g`inlarida - oiladan tortib, xalqaro darajalarda tashkil etilmoqda. Bir qancha san'at va madaniyat sohasiga ixtisoslashgan oliy o`quv yurtlarida ham madaniy tadbirlarni tashkil etish va boshqarishga yo`naltirilgan darslar o`qitilmoqda. Bu kabi islohotlar albatta, xalqimizning, ayniqsa, o`sib kelayotgan yosh avlodning adabiyot, san'at, ma'naviyat, ma'rifat hamda madaniy saviyasini yuksaltirish, shuningdek, badiiy didini shakllantirishga xizmat qiladi va erkin ijod qilishlariga mustahkam poydevor yaratadi:

"Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalaring qobiliyati va salohiyatini ro`yobga chiqarish borasida keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi"[8]

"Madaniy tadbirlar" – so`zi quyidagicha izohlanadi: hayotiy ehtiyot, g`oya, mazmun, maqsad asosida vujudga keluvchi tadbirlarning shaklidir. Tadbir atamasi nafaqat san'at va madaniyat sohasida, qolaversa, jamiyatning turli sohalarida ham qo`llaniladi. Masalan, texnika, chorvachilik, qishloq xo`jaligi, tarbiya va hokazo. Shunday qilib, madaniyat sohasidagi tadbirlar "madaniy tadbirlar" deb ataladi.

"Madaniy tadbirlar, hayotdagi muhim hodisalarga bag`ishlanib, ko`proq aholining bo`sh vaqtida, madaniy dam olish shakli sifatida uyushtiriladi"[9]

Madaniy tadbirlar tarixi:

Har sohada bo`lgani kabi, san'at va madaniyat sohasi ham ko`p davrlardan buyon rivojlanib, sayqallanib kelmoqda. Asrlar mobaynida yuza kelgan musiqa sohasidagi rivojlanishlar natisida, ilk bor ommaviy konsertlar vujudga kelgan. G`arbda ommalashgan konsert chiqishlari va sahna ko`rinishlarini tomoshabinlarga keng targ`ib qilish maqsadida, Germaniya va Angliyada aristokratlar tomonidan

[8] O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to`g`risida"gi Qarori // www.lex.uz.

[9] "Madaniy tadbirlar". Usmon Qoraboyev. Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003.

konsert zallari yaratilgan. Shu tariqa, ijrochilar ham, musiqiy asarlar ham o`z muhlislariga ega bo`lib bordi. Bu esa, iste'dod egalarini va yangidan-yangi musiqiy asarlarning dunyo yuzini ko`rishiga turtki bo`ldi. XIX-XX arslarga kelib musiqiy tomoshalar uchun to`liq imkoniyatlar ochildi. Ayniqsa, o`sha davrlarda opera san'ati aholining - zodagon qatlamlari uchun eng sevimli musiqa turi bo`lgan. Opera san'ati rivojlanib borgani sayin, turli xil musiqa asboblari ohanggini jo`rlash va bir maromdagi ishtirokini tomoshabinga yetkazish uchun "dirijyorlik" san'atiga ehtiyoj sezila boshlaydi.

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, musiqa san'atiga "dirijyorlik" tushunchasi kirib keldi. Madaniyat va san'at sohasining jadal rivojlanishi, yangidan-yangi musiqa turlari – mumtoz, klassik, pop kabi ommabop asarlarning yaratilishiga turtki bo`ldi.

Musiqiy faoliyatdagi qator bosqichlar jamiyat hayotining ajralmas tarkibiga aylana bordi. Ular quyidagicha:

1. Badiiy ta'lim (barcha ta'lim muassasalarida);

2. Musiqaga bo`lgan badiiy ehtiyoj (musiqa san'atning barcha turlarining alohida o`z ixlosmandlariga ega ekanligi);

3. Ijodkorlik (bastakorlar uyushmasi, kompozitorlar uyushmasi);

4. Badiiy asarlar (konsert, ovoz yozish), musiqiy asarlarning orginalligini saqlash maqsadida ularni muhofaza qilish va saqlash);

5. Musiqiy asarlarga ommani jalb qilish va tarqatish (musiqiy dasturlar, taqdimotlar).[10]

Shunday qilib, insonlarning san'atga, musiqaga bo`lgan qiziqishi - patefon, radio, grammofon plastinkalari yaratilishiga ham turtki bo`ldi. Bu esa, o`z navbatida, insonlarga musiqani chuqurroq tushunish, e'zozlash va yangi san'at turlarini yaratishning o`ziga xos yo`lini ochib berdi. Natijada, san'atning juda ko`plab bugungi kundagi bir qancha ko`rinishlari – klassik, mumtoz, pop, jaz, rok musiqalari vujudga keldi. Va bu o`z navbatida, madaniy tadbirlar rivojiga va

[10] U.Qoraboyev "Madaniyat masalalari", -T.: "O`zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiynashriyoti. 2010 y.,-B.64.

takomillashuviga samarali hissa qo`shdi, shuningdek, konsert dasturlari tarkibi o`sishiga, musiqiy asarlar saviyasining yanada yuksalishiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to`g`risida”gi Qarori // www.lex.uz.

2. U.Qoraboyev “Madaniyat masalalari”, -T.: “O`zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiynashriyoti. 2010 y.,-B.

3. Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish. S.To`ychiyeva. Darslik. – Toshkent, 2020- 264 bet.

4. Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari / A.Haydarov. – Toshkent: G`afur G`ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 196 b.

5. Madaniyat va san’at muassasalarida targ`ibot-tashviqot ishlari. S.To`ychiyeva. O`quv qo`llanma.Toshkent, 2021. 172 bet. “Madaniy tadbirlar”.

6. “Madaniy tadbirlar”. Usmon Qoraboyev. Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003.

7. Madaniy dam olishni tashkil etishning ilmiy asoslari [Matn]: o`quv qo`llanma / Umarov, A., Qoraboyev U. – Toshkent: “Donishmand ziyosi” nashriyoti, 2023. – 184 bet.

MUSIQA VA UNING INSON ONGIGA TA’SIRI

Ismatova Oyniso Hikmat qizi

NavDPI “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Jalilov Shokir Isomiddinovich

NavDPI *“Musiqa ta’limi” kafedrasi dotsenti v.b.*

Annotatsiya*.Ushbu maqolada musiqa va inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, musiqaning inson ongiga ta’siri va bugungi kun musiqasining insonlar ongiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ushbu maqolada sharq va g‘arb musiqa san’ati, ularning bugungi kunda tutgan o‘rni va insonlar ongiga qay yo‘sinda singish jarayonlari haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa, inson ongi, mavsum qo‘shiqlari, bolalar qo‘shiqlari, musiqa asboblari, ohang, ona allasi, skripka, nay, hofiz, sozanda, ashula.*

Musiqada asosiy badiiy vosita kuy (melodiya) dir. Musiqaning mazmuni shaxsiy, ilmiy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda ma’lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur’at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Bastakor, hofiz va sozandalar o‘zbek musiqa merosi durdonalarini keng targ‘ib qilibgina qolmay, yangi cholg‘u, kuy va ashulalar yaratdilar. XX asrda o‘zbek va boshqa Markaziy Osiyo xalqlari musiqa merosini yozib olish va o‘rganish bo‘yicha muhim ishlar yozildi, bajarildi va yuzlab nota to‘plamlari va ilmiy tadqiqotlar nashr etildi.

Musiqa inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san’at hisoblanadi. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan: ko‘tarinkilik, shodlik, g‘am-qayg‘u, mushohadalik va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa insonning irodaviy sifatlari, qat’iyatlilik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqa tabiatlarini ham yorqin namoyon qiladi. U inson ongiga shu qadar kirib boradiki, insonni xohlagan holatga tushirib qo‘yishi mumkin. Masalan sho‘x-shodon insonni bir sokin musiqa bilan g‘amgin holatga solish mumkin. Chunki, musiqaning har bir so‘zi insonni o‘ylashga, fikr yuritishga majbur qiladi. Nay asbobidan taralayotgan kuy inson ongida ajib bir hislarni uyg‘otadi, skripka sadolari esa insonga sokinlik, mayinlik baxsh etadi. Musiqaning birgina misrasi inson hayotida bo‘lib o‘tgan bor hodisalarni yodiga soladi, ba’zan inson bir oz musiqa tinglab, qaytib tug‘ilgandek bo‘ladi. Chunki, ba’zi bir musiqalar inson ongiga shu qadar ta’sir qiladiki, u hech qayerdan, hech kimdan ololmagan kuchni birgina musiqadan oladi. Shu sababli musiqani “Sehrli so‘zlar guldastasi“ desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Germaniyalik olimlar izlanishlaridan ma’lum bo‘ladiki, turli musiqa asboblaridan taraladigan kuylar inson organizmiga turlicha ta’sir etar ekan. Masalan, arfa yurak faoliyatini yaxshilaydi, baraban qon aylanishini yaxshilaydi, skripka kayfiyatni ko‘taradi, saksofon ishtiyoqni kuchaytiradi, organ osteoxondozdagi og‘riq hissini kamaytiradi, fortepiano moddalar almashinuvini

yaxshilaydi. Rivoyatlarda musiqa inson organizmiga nayning nolalari va sadolari orqali singdirilgan. Musiqa inson ongida madaniyat, ma’naviyat, vatanga bo‘lgan sadoqat, mehr-muhabbat, odamiylik kabi tushunchalarni shakllantiradi.

Musiqa san’atidagi asosiy faoliyat turlaridan biri musiqa ijrochiligidir. Ijrochi uchun tinglovchiga tushunish va his etish, estetik talablar, kayfiyat ulashish, mohirlik bilan yetkazib berish, tinglovchiga hissiyotlarni uyg‘otish juda muhimdir. Musiqani tinglash va idrok etish bolalikdan singdirib borilishi zarur. Aytishlaricha, musiqani barcha eshitadi, biroq uni hamma ham tinglab idrok eta olmaydi. Biz hissiy tuyg‘ular orqali musiqani o‘z ongimizga singdiramiz. Musiqiy asarlar, musiqiy iste’dodlar, mo‘jizaviy sadolar bizni hayratga soladi va o‘ziga jalb qiladi. Misol uchun, musiqiy asarni eshitib, biz uning kuyi, ritmi, tembr xususiyatlari garmoniyasini qabul qilamiz va aksincha, musiqaning obrazlari, sadolari, nolalari insonni jalb qiladi hamda insonga turli kayfiyatlar baxsh etadi. Musiqa psixologiyasi haqidagi yanada qadimiyroq ta’limotlar Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy olimlari, Zardo‘shtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” da bayon etilgan. Pifagorning evritmiya, Arastuning mimesis ta’limotlari shular jumlasidandir. Ular musiqaning inson ongiga, shaxsiga, umuman, jamiyat rivojiga ulkan ta’sirini ta’kidlab o‘tishgan. Masalan, Aflotun: “davlatning qudrati unda qanday musiqa, qaysi lad va qanday ritmda yangrayotganligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq”, - degan. XVIII asr klavisinisti Filipp Emmanuel Bax shunday deb ta’kidlagan: ”Musiqachining o‘zi kechinmalarga to‘lib toshgan bo‘lsagina, tinglovchi yuragiga ta’sir qila oladi. Uning o‘zi tinglovchiga yetkazmoqchi bo‘lgan paytda affekt holatida bo‘lishi mumkin“. Buyuk qomusiy olim, musiqa cholg‘ularini mohirlik bilan chalgan Abu Nasr Farobiy o‘z ijrosi bilan kishilarni quvontirish yoki qayg‘uga solish, ovutish yoki chuqur o‘y surishga majbur qilish, xursand qilish, hayratga solish va hatto uxlatib qo‘yishning uddasidan chiqa olganligi haqidagi rivoyatlar va hikoyalar bizgacha yetib kelgan.

O‘zbek xalq musiqa san’ati o‘ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq og`zaki ijodi va mumtoz musiqasiga ega. Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlarigacha bo‘lgan jarayonlarni faqatgina

ohanglarda muhrlangan betakror asarlardagina anglash mumkin. Ona allasida vatanparvarlik, insonparvarlik, odamiylik, vatanga bo‘lgan sadoqat, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlar mujassamlashadi. Yoshligimizdan musiqa darslarida bizga mehnat qo`shiqlari, bolalar qo‘shiqlari hamda mavsumiy-marosim qo‘shiqlari singdirib kelingan. Misol uchun, bahor faslida daraxtlar kurtak ochib, maysalar unib chiqqanda “Oftob chiqdi”, “Laylak keldi”, “Boychechak“, “Bahor”, ”Sumalalak” kabi qo‘shiqlar aytiladi. Mavsumiy qo‘shiqlarda yomg‘irni chaqirish uchun “Sust xotin“, yoz-kuz faslida “Oblo-baraka”, “O‘rim”, “Qovun sayli“; qishda o‘tkaziladigan gap-gashtaklarda “Yas-yusun” marosim aytimlari, kuz faslida “Mehrjon“, bahorda “Navro‘z“ qo‘shiqlarini aytib, o‘zbek xalq musiqasi va aytimlarimiz xalq ongiga singdiriladi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Jabborov A. Begmatov S. Azamova m. O`zbek musiqa tarixi. T.., - 2018

2. Jalilov Sh.I. “Musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati” o‘zmu xabarlari. o‘zmu ilmiy jurnali. T., - 2021 yil, 1/3/1. 59-62 betlar.

3. Qodirov R.G. Musiqa psixologiyasi. T.., - 2005.

FORTEPIANO IJROCHILIGI USLUBIYOTIGA YANGICHA YONDASHUVLAR

Umaralieva Diyora,
Nizomiy nomidagi TDPU
“Musiqa madaniyati” fakulteti 103 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Anvar Lutfullayev,
Nizomiy nomidagi TDPUprofessori

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa maktablarida fortepiano sinfida ta’lim olayotgan o’quvchilar bilan ishlashda yangicha pedagogik uslublardan foydalanib dars tashkil qilishning nazariy va amaliy jihatlari borasida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: ijro, fortepiano, solfedjio, vokal, nota, mahorat, yondashuv, qobiliyat, texnika, fiziologiya, madaniyat, ma’naviyat, kreativlik.

Musiqa san’ati — nafosat tarbiyasining muhim omili bo‘lib, yosh avlodni kamolotga yetishishi uchun ta’sir etuvchi jarayon. Bu jarayon maktabdan boshlab shakllanadi va yosh avlodning ichki dunyosini boyitib, butun hayoti mobaynida unga hamroh bo‘lib boradi.Musiqa insonga hamisha kuch quvvat ishonch va xotirjamlik bag’ishlagan.Hukumatimiz tomonidan musiqa, madaniyat san’atga juda katta e’tibor berilmoqda. Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019- yil 19-martdagi video selektorda 5ta tashabbusni hukumatga taklif qilishi va yoshlarni bo’sh vaqtini samarali o’tkazish haqida ilgari surilgan.

Besh tashabbusning birinchisi aynan bizni sohaga tegishli ekani barchamizga ma’lum. Cholg’u ijrochiligi musiqa sohasida eng ommalashgan turidan biridir. Ayniqsa fortepiano cholg’usi muqisiy tadbirlarda eng kerakli cholg’u sifatida ishlatiladi. San’at maktablarida ta’lim olayotgan o’quvchilar uchun fortepiano chalish uslubiyotini o’rganish juda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda musiqa va san’at maktablarida o’z faoliyatini olib boradigan bo’lajak o’qituvchilar uchun bu fan kasbiy tayyorgarliklarni hamda nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlaydigan tarkibiy qism hisoblanadi.

Fanning asosiy vazifasi o’quvchilarga o’z ishiga sitqidildan kirishish, o’quvchiga o’qituvchilik kasbiga bo’lgan muhabbatni uyg’otish hamda san’at maktablarida o’zlashtirgan bilim va ko’nikmalarini shakllantirish va uslubiy o’quv-qo’llanmalardan to’g’ri foydalangan holda u bilan ishlash kabi bir qancha vazifalarni o’z ichiga oladi. Har bir kasbning mashaqqati bo’lganidek o’qituvchilik kasbida ham o’ziga yarasha qiyinchiligi bor. O’qituvchi avvalo o’quvchini fanga qiziqtirishi zarur. Bola hali yosh, o’yinqaroq bo’lishiga qaramay o’qituvchi uni darsiga qiziqtira olishi lozim. Birinchi marotaba darsga kelgan bola bilan 45 minut dars o’tmasdan, dars davomida har xil o’yin va mashqlar, qiziqarli savol-javoblar o’tkazish kerak.

San’atda olingam ilk taassurotlari bolaning musiqiy rivojlanishiga muhim ahamiyatga ega. Musiqa o’qituvchisi avvalo bolalarga estetik tarbiya berishi lozim. Eng muhimi bolani musiqa darsiga qiziqtirish va musiqaga bo’lgan muhabbatni bola qalbida uyg’otishdir. Musiqa darslari juda katta tarbiyaviy

ahamiyatga egaligi bilan boshqa fanlardan ajrab turadi. Shuning uchun tarbiya va ta’lim vazifalarini uzviy birlikda, bir-birini to’ldirgan holda tushuntirish va o’rgatish kerak. Pedagog o’quvchining nimalarga qiziqishi u bo’sh vaqtlarida nimalar bilan shug’ullanishi, uning oilaviy sharoiti qandayligini bilib olishi kerak. Birinchi darsda bola bilan suhbat davomida u haqida barcha ma’lumotga ega bo’lishi kerak. Har bir pedagogning o’z majburiyatlari bo’lgani kabi musiqa o’qituvchisining ham o’ziga yarasha zaruriyatlari bor. Musiqa o’qituvchisi musiqiy qobilyatli, amaliy va nazariy bilimga ega bo’lishi kerak. Fortepiano o’qituvchisi uchun ijodning 2 turi mavjud.

1) Og’zaki tushuntirib asar yoki kuy haqida nazariy ma’lumot berish.
2) Asarni cholg’u asbobida ijro etib, bolaga eshittira bilish.

O’qituvchi o’z shogirtlariga asarning mohiyati va unda yashiringan mazmun-g’oyani tushuntirishni, musiqani tinglab uni ichiga kirib borishni, kuyni qanday holatda o’rganish kerak, uning sanog’i, notalar cho’zimi, dinamikasi, kuyning xarakteri haqida ma’lumot berib berish kerak. Fortepiano darslarida avvalo bolani fortepiano cholg’usi bilan tanishtirish lozim. Boshlang’ich ta’limda bolaga turli xil kuy-qo’shiqlarni o’rgatish bilan bir qatorda, ilk darslardan bolani cholg’u bilan tanishtirishni boshlash kerak. Fortepianoning tuzilishi haqida gapirib berilsa, klaviaturani ko’rsatish, o’rta, yuqori va pastki registrlarning chalinishi turi xi lbalandlikdagi tovushlarni tinglab ko’rish zarur.

Qora va oq klavishlar haqida ma’lumot berishi ular qanday vazifani bajarishi haqida gaprishi lozim. O’quvchi bilimini mustahkamlash sifatida uyda mashq qilish uchun har xil topshiriqlar berish kerak. O’quvchini chalishga o’rgatishdan avval uni cholg’u oldida to’g’ri, qulay va erkin o’tkazish kerak. Bunda bolaning bukchaymasligi yoki zo’riqib o’tirmasligiga, ijro vaqtida yelkalarini ko’tarmasligiga e’tibor berish muhimdir. Tirsaklarni tanaga juda yaqin tutish ham, tashqariga qaratib burish ham ma’qul emas. Balandligi darajasidan tirsaklar taxminan klaviatura darajasida bo’lish kerak. O’quvchining fortepiano ijrosi paytida qanday o’tirishi hamisha o’qituvchining diqqat markazida turishi kerak. Ammo bu masala bo’yicha o’quvchini hadeb bezovta

qilaverish kerak emas.

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsam bolalarga to’g’ri bilim va ko’rsatmalar berib ularni darsga qiziqtira bilish har bir pedagogning o’z oldiga qo’ygan ulkan maqsadlaridan biri desak mubolag’a bo’lmaydi.

Adabiyotlar ro’yxati

1.SH.Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent 2016y.

2.G.Sharipova, G‘.Najmeddinov— Musiqa o‘qitish metodikasi darslik Toshkent 2018y

3.Shkola igri na Fortepiano 2008.y

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARI BADIIY DIDINI SHAKLLANTIRISHDA VOKAL ASARLARIDAN FOYDALANISH

Ismoilova Mahbuba Elamonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,“San’atshunoslik kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini vokal asarlaridan foydalanish orqali badiiy didini shakllantirishning eng maqbul yo`l va usullari ko`rsatilgan. Bulardan tashqari kuylash uchun vokal asarlarini tanlashda oddiydan murakkabga qarab borish va ko`proq tarbiyaviy ahamiyatga molik asarlarni tanlab kuylatish to`g`risida fikr mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so`zlar: *Estetik tarbiya, musiqa san’ati, musiqa asarlari, ritm, tembr, artikulyatsiya, ovoz tembri, vokal asarlari, ovoz apparati, asar ijrosi, xonanda ovozi, ovoz diapazoni, musiqiy estetik tarbiya.*

Barkamol avlodni tarbiyalashda musiqa muhim o`rin titadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi etakchi omillardan biri ta’lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san’atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta’limotga suyanib, talabalarning

obyektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste'dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, talabalarni go‘zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo‘ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan bo‘ladi, musiqada hayot va o‘lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi. Shu o`rinda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini so‘zimiz isboti sifatida keltirib o‘tishimiz joiz: “Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga etkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir”[1.2-b]

Musiqa ham fan, ham san'atdir. U matematikaga asoslanadi, bu fan musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg‘un tushunchasi sifatida qarab bo‘lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san'atdir. Musiqa inson umrining doimiy yo‘ldoshi. Tarbiyaviy ta'sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g‘oyaviy mazmuniga bog‘liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi.

Vokal musiqasi san'atning mushtarak turi sifatida o‘rganilganda, uning barcha unsurlari o‘zaro bog‘lanib, bir-birini boyitib murakkab tizimni tashkil etadi. Vokal musiqada so‘z mazmuni, uning ifoda vositalari kuyning ritmi, kuyi bilan bog‘lanadi. Ritm, tembr, melodika, artikulyatsiya, balandlik birgalikda musiqa tili (nutqni)ni barpo etadi.

Har bir inson faqat o‘zigagina xos ovoz tembri va so‘zlashuv tarziga (manerasiga) egadir. Xar xil millat kishilari va ijtimoiy guruhlarni xarakterini aniqlovchi o‘ziga xos nutq ohangi mavjuddir. Bundan tashqari nutq ohangi u yoki bu nutqiy holatni (situatsiyani) (darak, so‘roq va tasdiqlash) hamda turli emotsional holatlarni (g‘azab, quvonch, noziklik va h.k.)ifodalaydi. Bundan shu narsa ma'lum bo‘ladiki, nutq ohangi o‘zida faqatgina takrorlanmas individual hislatlarnigina mujassam etmaydi. Vokal asarlarni o`rganish murakkab jarayon bo‘lib, ko‘p mehnat va izlanish talab qiladi. Bu jarayonda muayyan vazifalarni

muvaffaqiyatli hal etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, vokal asarlarining matni mazmunini o‘rganish, matnni yod olish (so‘zlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz etishni o‘rganish). Ijro uslubini o‘rganish (ovoz toni, ritmi, sur’ati, diapazonidan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini o‘zlashtirish). Vokal asarlarini sozandalar jo‘rligida, yoki orkestr jo`rligida ijro etish malakasini o‘zlashtirish. O‘z-o‘zini baholash asosida ijro uslubi va darajasini tahlil qilish. Ijro malakasini yanada rivojlantirish yo‘lida ijodiy izlanish.

Musiqiy ovoz apparati asoslari tibbiyot va fiziologiya tomonidan aniq belgilanadi. Har qanday musiqiy ovoz o‘z tembriga, ya’ni o‘z musiqiy rangiga ega. Tembr ovoz apparatining ovoz bo‘g‘imlari (paylari) tuzilishi (ular musiqiy asbob torlari kabi baland va past tembrdagi tovushlarni hosil qiladi), tabiiy bo‘shliqlar – burun-xalqum, peshana (manglay) bo‘shlig‘i, gaymor bo‘shlig‘i (yuqori jag‘ suyagining burun bo‘shlig‘iga tutash bo‘shlig‘i), qattiq tanglay, ko‘krak tuzilishi singari fiziologik xususiyatlariga bog‘liq. Qo‘shiqchining o‘z ovozini boshqarish qobiliyati rassomni ranglar jilosidan keng foydalana olish mahoratiga teng.

Vokal asarlari xorij va o`zbek shoirlarining she’rlariga bastalangan. Matnni o‘rganishdagi murakkab jihat misralarda ifoda etilgan mavjud so‘zlarning mazmunan, mantiqan bir-biriga birikishi asosida shakllangan mazmunni anglab olishdan iborat. She’riy matnlardagi o‘xshatishlar, solishtirishlar, tashbehlar, ruhiy holatlar, obrazlarga xos sifatlarning bo‘rttirib tasvirlanishi kabi holatlar talabalar tomonidan ularni o‘rganishda muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bunda talaba she’rning mazmunini to‘liq anglab olishi lozim. Har qanday shoirning she’rida so‘z uning o‘zi aks ettirishni istagan fikr va tuyg‘usidan bir necha hissa ortiq ma’nolarni ifodalaydi. Shuning uchun haqiqiy she’rning g‘oyaviy-badiiy tarkibida hamisha nimalardir sir bo‘lib, allaqanday ma’no gavhari yashirinligicha qolaveradi. Eng zukko she’rshunosning ham tahlil imkoniyati cheklangan, chunki u har qancha urinmasin, so‘zning majoziy mohiyatini barcha rang, ohang tovlanishlari bilan idrokdan o‘tkaza olmaydi. Birdaniga bir necha ramziy mazmunlarni tarkibiga birlashtira olgan she’r - chinakam she’r sanaladi.

Shunday ekan, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida vokal asarlarini ijro etish

ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda, eng avvalo, ularga qo`shiqning matn mazmunini tushuntirish, bayon etilayotgan fikrning mohiyatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Talabalarni vokal qo`shiqlari mazmuni bilan tanishtirishda quyidagi mezonga tayanib ish ko‘rish metodik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

Adabiyotshunoslar she’rda ifodalangan fikr, qo‘llanilgan so‘z o‘yinlariga tayangan holda bir misrani bir necha mazmunda talqin eta oladilar va isbotlab beradilar. Biroq talabalardan she’riy asarda yoritilgan ko‘p ma’noni anglab olishni talab qilish metodik jihatdan to‘g‘ri emas. Binobarin, bu holat ular uchun qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli talabalardan qo‘shiq mazmunidagi eng muhim g‘oyani tushuna olishini talab qilishning o‘zi kifoya. Shoir Jumaniyoz Jabborov “Odamlar avaylang bir – biringizni” deb nomlanuvchi she`rida dunyoda har bir narsadan inson ulug`ligini ta’riflar ekan qiyidagilarni bayon etadi.

Dunyoda insondan azizroq ne bor,
Ne mavjud insondan go`zal ulug`vor.
Insondir hayotning ko`rki gul toji,
Yashamoq ma’nosi umr rivoji. [2.220-224 b.]

Anog Nazarov musiqasi bilan kuylanuvchi ushbu qo`shiqda insonlar va ona-diyor madh etiladi. Asar asosan professional erkak va ayol ovozlarga mo`ljallab yaratilgan. Asarni jarangdor tovush bilan tantanavor, erkin va zavq bilan kuylash talab etiladi. Asarning vokaliz ijrolari professional ovoz mahoratini talab qiladi. Ushbu asar o`zining jozibador xarakteri va vals usulida yaratilganligi bilan ajralib turadi. Asarni ijro etishda xonandalar uning matniga, ya’ni, aniq talaffuzga e’tibor berishlari kerak.

Ushbu matnda ilgari surilgan fikr asta-sekin rivojlantirib borilib, yaxlit voqeabandligi, mantiqiylik, mubolag‘a va o‘xshatishlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi va u o‘ziga xos zanjirli kompozitsion tuzilmani tashkil etadi. Bu qo`shiq ilk bor " Vatan azizdir" nomi bilan ijro etilgan. Qo`shiqni O`zbekiston xalq artisti Muyassar Razzoqova va O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artist Avaz Rajabovlar ijro etishgan.

Talabalarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda vokal asarlarining o‘rni beqiyosdir. Qo`shiq kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatar ekan, kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta’sir qilib, unda har xil hislarni uyg‘otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo‘shiqning matni, g‘oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta’sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma’naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg‘otadi. Bunday ta’sir g‘oyat murakkab va kuchlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak vokal asarlarini kuylash orqali talabalar badiiy didini takomillashtirishda ikki muhim vositaning she’riyat va musiqa ohanglarining, xonanda ovozi va talaffuzining o‘zaro bir- biri bilan uyg‘unligini his qila olishiga bog‘liq bo‘ladi. Vokal asarlarini quyidagi talablarga ko‘ra tanlash tavsiya etiladi: tarbiyaviy ahamiyati, xarakteri, badiiy yuksakligi, garmonik tuzilishi, shakli, necha qismdan iboratligi, lad va tessitura talabaning ovoz diapazoniga mosligi. Bu o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, she’riy matn va ohanglar orqali asar mazmunida yashiringan badiiy obrazlarni ifodalab bera olishga alohida e’tibor beriladi. Frazalarning orqama-ketin bir biriga bog‘lanib, fikrlar zanjirini uzmasdan davom ettirish va voqe’lik dramatizmini eng yuqorigi nuqtagacha, avjigacha olib chiqa olish hamda hissiy to‘lqinlarni jilovlab, asardan tugal bir fikr chiqarib asarni mantiqan me’yorli qilib tugallay olishga erishish, asar obrazlarining talabalar tasavvuridan aniq o‘chmas joy olishiga erishish, bu talabalardan katta diqqat-e’tibor, ruhiy ko‘tarinkilik, murakkab kasbiy mehnat talab qiladi. Aynan shunday mukammallikka erishish - she’riy matn va ohanglar jarangidagi obrazlar tasvirini yurakdan his etish juda katta aqliy mehnat, idrok va ijodkorlik natijasida yuzaga keladi. Ayni shu mehnat natijasi sifatida talabalarning badiiy dидida ham ijobiy o‘zgarishlar ro`y beradi. Yuqoridagi talablarga amal qilgan holda vokal asarlarini kuylashga e’tibor qaratilsa, bo`lg`usi musiqa o`qituvchilari badiiy didini shakllantirishda samarali natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Sharq taronalari” o‘n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so’zi 2019 yil 27 avgust 2-bet.

2.Qahhorov N.B. “Vokal asoslari” Darslik.T.: 2008. 220-224 betlar.

4.Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Darslik.Toshkent, Yangi avlod, 2009.

2.Panjiyev K,B. Salimova D.I. Vokal va zamonaviy musiqa. O`quv qo`llanma. -T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.-184 bet.

AMIR TEMUR DAVRIDA SANAT VA MUSIQA

Eshboboyeva Diyora,
Nizomiy nomidagi TDPU
“Musiqa madaniyati” fakulteti 101 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Anvar Lutfullayev,
Nizomiy nomidagi TDPU professori

Annotatsiya: Ushu maqolada o’zbek harbiy sarkardalarining vakili bo’lgan Amir Temurning musiqa san’atini Temuriylar davridaga tarixi xaqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: san’at, ijod, maqom, bastakor, sarboz, marsh, nog’ora, qo’sh nog’ora, (naqqoi), dovul (duxul) surnay.

Yuksak ma’rifatli o’zbek harbiy sarkardalari vakili bo’lgan Amir Temur musiqa san’atining muhim estetik ahamiyatini ma’naviy olim jangovorlik ruhiyatini oliy darajasini saqlab turuvchi katta kuch deb bilgan va uning rivojiga hamisha e’tibor berib kelgan.U tarixda birinchi bo’lib, askarlarni jangovor bayroqlari va musiqa cholg’ulari bilan ta’kidlash odatini harbiy udumga olib kirgan. «Amir qildikim,- deb yozadi u «Tuzuklar»ida, qaysi bir amir biron fatx etsa, yo g’anim lashkarlarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar- faxrli kitob, tig’ va nog’ora berib uni Baxodir deb atasinlar».

Shunisi e’tiborliki Amir Temur lashkarlarida harbiy matonat, shijoat, nishoni, jangchilarning tabaqa va martabalarining ko’rsatuvchi har biy darajada

belgisini anglatgan. Amir Temurning musiqa san’atini yuqori darajada baxolashi. Cholg’ulardan har bir nishon, jasorat ramzi sifatida foydalanish-jahon san’ati tarixida mislsiz voqeadir. Shunga qaramasdan «Temur tuzuklari» jangchilarni safarbar etish chog’ida inson ovozidan, ayrim maxsus intonatsional tizilmalardan keng foydalanilgani haqida ma’lumotlar keltiradi. «Yana amr etdim,-deydi u, shoxlar g’anim lashkarlariga ko’zlari tushishi hamono, baland ovoz bilan «Ollohu Akbar» deb takbir aytsinlar va suron (jangovor chaqiriq «Ur xo-ur!») solib, dushmansherigi o’stiga bostirib borsinlar».Amir Temur armiyasining harbiy orkestri puflama va zarbli cholg’ularning xilma- xil turlaridan tashkil topgan edi.Hususan nog’ora, juft nog’ora, qo’sh nog’ora, (naqqoi), dovul (duxul) surnay singari cholg’ular keng qo’llanilgan.

Bir qal’ani zabt etish manzarasini mashhur tarixchi Ali Yazdiy qo’yidagicha ta’riflaydi: Unda (ya’ni qal’a) 300 erkak duxul va surnaylarni chalish bilan mashg’ul erdi. Sohibqiron harbiy orkestrning, ayniqsa puflama cholg’ular guruhi Somoniylar davrida mashhur bo’lgan karonay (hozirgi karnay) nayni rumiy bug, nofir, tirsaki karnay, T.S.Vizgola boyitgan edi. Harbiy musiqa turlarining mazmuni ohang tuzumi xususida manbalarda ma’lumotlar keltirilgan, ularning notalari va usul shakllarigina saqlab qolingan. Masalan: Abduqodir Marog’iy o’z risolalarida Samarqandda ijod qilgan «Zarbo’l- Fatx» va «Dav Shoxiy» usullarini keltiradi.Shunday qilib Temur va temuriylar davrida musiqaning ko’pgina turlari singari harbiy Amir Temur orkestrida, shuningdek musilmon Sharqida nom olgan, mashhur bo’lgan talba va misdan yasalgan jaros (tarelka bo’lsa kerak) urma asboblari keng foydalanilgan.

Musiqiy risolalarda oxirgi asbob, ya’ni jarosning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirmaydi. Biroq A Navoiy she’riyatida jaros tez-tez eslatiladi.

Harbiy orkestr ushbu davrlarga kelib turkiy xalqlar an’analari bilan bog’liq yana bir urma asbob- kavarka (Navoiyda kavarga) hisobida yana boyiydi. Uning tasviri, minatyuralari saqlanmagan, musiqa risolalarida eslatilmaydi, biroq Sharofiddin Ali Yazdiyning ma’lumotlariga qaraganda kavarta qo’sh nog’ora toifasiga mansub zarbli cholg’u asbobi turi bo’lsa kerak, deb taxmin qilish mumkin:

«Lashkar hozir bo’lib, turtib berildi kavarga va burgux urib yuzlandilar ...» Kovarga «Zafarnoma»da juda ko’p tilga olinadi, jang manzarasining doimiy musiqiy ramzi sifatida tasvirlanadi. Ammo u so’ngi asrlarga oid manbalarda deyarli qayd etilmaydi.Soxibqiron harby orkestrning ayniqsa, puflama, cholg’ular gruhi sozlarining boyligi va xilma-xilliga bilan farqlanadi.

Biroq uni Qur’oni Karimdan boshlab so’nggi asrdan manbarida qayta – qayta eslatuvchi Sur va jangu jadallarni doimiy ishtirokchisi Suron Surining kattaroq biron turi, deb faraz qilish mumkin.Bunday taxmin Navoiy keltirgan ma’lumotlar asosida ta’kidlanishi mumkin.

Temur davrida an’anaviy orkestriga yana bir yangi puflama cholg’u asbobi turi-burg’u kirib keldi .Uning turkiy odatlari madaniyati bilan bog’liqligi uning nomlanishidan ham ko’rinib turibdi. G.Dj Formerning ko’rsatishicha cholg’uning nomi Temur davrida burg’u deb atalgan.Ali Yazdiy keltirgan bir ma’lumotda aytiladiki, Qarshi shaxrining qamal qilinishi chog’ida «Soxibqiron hazrati farmon berdilarki - burg’u chalsinlar, oqibat Qarshi axolisini ko’zlarida uyqu qochib, nodir burg’u tovushlardan toka yur dudi ularning boshlariga urdi. Qarshi zabt etilgandan so’ng soxibkor, Darveshak burguchi ismli harbiy sozanda xizmatini aloxida ta’kidlaydi keyinchalik, Bobur lashkarlarini musiqiy ramzi sifatida Hindiston madaniyatiga kirib keladi.

Qadim davrdan hozirgi kungacha mashhur bo’lgan surnay bilan bog’liq «Chabig’»va cholg’ulari keng qo’llaniladi. Xoji Abdulqodir Marog’iyning ma’lumotlariga qaraganda, chabig’. Darhaqiqat burg’uning asosan turkiy xalqlarning asl yurti Sibir va Olgoyda yashashni uning shohi hozirgacha shimoliy elatlarda cholg’u sifatida ishlatilishini e’tiborga olsak, Formerning ta’kidi to’g’ri ekanligiga amin bo’lamiz.Shoximan puflama cholg’u turlari Markaziy Osiyoda turk xoqonligi davridan boshlab tarqala boshlaydi. Xorazmda topilgan 6-7 asrlarga mansub kumush tovoqda yettita burg’uchidan iborat harbiy orkestr tasvirlanadi. Unda aks ettirilgan sozandalarning sovut, tubgalari va liboslari ham temuriylar davri harbiy kiyim- boshlarga juda o’xshash, xullas Xorazmlik turkiy lashkarboshi atrofidagi burchilar orkestrining Amir Temur armiyasida xizmat

qilgan burg’uchilarining qadimgi ajdodlarimiz moxir sozandalar ularga yordamchi pardalar teshikchalarini qo’shishgan.

Harbiy musiqa turlarining mazmuni ohang tizimi xususida manbalarda ma’lumotlar keltirilgan.Ularning faqat nomlari va usul shakllarigina saqlanib qolingan masalan, Marog’iy o’z risolalarida Samarqandda ijod qilgan. «Zarbo’lfatx» va «Davriy Shoxiy» usullarini keltiradi. Xullas, Temur va temuriylar davrida harbiy musiqa mustaqil janr sifatida o’zil - kesil shakllanadi, harbiy orkestr esa yangi cholg’ular bilan yanada boyiydi.«Marmar hofo’z to’g’risia o’tirgan shirakayf Mironshoh raqqosalar o’yini tugamay turib, sozanda va xonanda Mavlono Mahammad Qubistonga va o’tkir nafasli hofiz Abdulqodir Marog’iyga ishora qilib «Qo’shiq boshlang», - farmon qildi.

Faryod qiluvchi g’ijjak nolasiga nay navosi qo’shilib, ko’ngillarni sel qilib oqizdi, qo’shiq so’zlariga mahliyo bo’lib Mironshoh ko’z yoshlarini to’xtata olmaydi». Mazkur misralarda tarixiy haqiqat, san’atimiz tarixi yaqqol namoyon bo’lmoqda. Haqiqatdan ham Davlatshoh Samarqandiyning ta’rificha, Temur va Temuriylar zamonida san’at ayniqsa, musiqa san’ati rivoj topgan. Tariqat va haqiqat manzillaridan ogoh etuvchi tasavvufiy musiqa asarlari «Navo», «Rost» maqomlari, «Munojot», «Ushshoq», «Bayot» quylari shu davrda ravnaq topgan. Temur va Temuriylar zamonida ilm va san’at ahli benihoya qadrlangan.

Davlatning olamga shon – shuhrati istagi hukmdorlarni va naqqosh va hofizlarini to’plashga imkon yaratganligi tarixiy manbalardan ma’lum. Ayniqsa, Klavixoning «Kundaliklari» da bu masala oydinlik bilan yoritilgan. Tarixiy manbalarni varaqlar ekanmiz, Sheroz hukmdori Ibrohim Mirzo va Xirot hukmdori Boysunkur Mirzo o’rtasidagi xat yozishmalarida hofiz suf Andijoniyning Sherozga yuz ming dinor naqd tillo evaziga yuborish masalasi yoik Boysunkur Mirzoning o’z sevimli hofizini Sherozga yubormaganligini guvohi bo’lamiz.Shuningdek, otdan yiqilib, miyasi lat yegan Mironshohni atrofidagi bazm tashkil qiluvchilar «uni yo’ldan ozdirgan, saltanatni boshqarishdan chalg’itgan», - degan tuhmat ostida qolgan hofiz Marog’iyga Amur Temurni o’zi uning shirali ovozi va mayi» qur’on tilovatidan keyin ozod qilib

yuborganiga tarixiy manalar guvoh.

«Boburnoma»ni varaqlar ekanmiz, XV – XVI asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida rasm bo'lgan an'anaviy tomosha san'atining ko'pgina turlaridan voqif bo'lamiz. Masqara, taqlid, mutoiba, raqs, guyandalik, mualloq, poyi chubin (yog'och oyoq), kushtigirlar (kurash), qabox o'yini, chavgon, tirandozlik (o'q – yey otish), qo'chqor, tuya, fil, kiyik urishtirishlar, maymun o'ynatish, shatranj va nard o'ynilari shu jumladandir. Bizning davrimizdagi tushunchalar bilan yondoshadigan bo'lsak, mazkur xilma – xil tomshalarni teatr – raqs, sirk san'atlari va sport deb qarashimizga to'g'ri keladi. Temuriylar sultonlar, Alisher Navoiy va Bobur (sultonlar) davrida ham bu sohalar faxrlanib turgan, lekin ular orasida qat'iy chegara – to'siq bo'lgan emas.

Zotan, ijrochilar san'ati va sportning bir necha xilidan o'z malakalarini namoyon qilganlar. Bunga Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, tamomi arqoni, davlat shahzodalari suygan pahlavon Mahmud faoliyati yorqin misol bo'la oladi, u sozda, ashulada, zarofatda, zikr, sa'moda, ayniqsa, kurash ilmida tengsiz ekan. Bundan keng ko'lamli ijrochilarni – o'sha davrdagi masqaralarni, mukallidlarni, zaiflarni, guyandalarni qissaxonlarni, voizlarni hozirgi akter tushunchasiga kiritishimiz mumkin. Ular haqida «boburnoma» da ba'zi ibratli qaydlar uchraydi.«Boburnoma» da raqs san'ati, raqqosalar xususida ham ba'zi qaydlar, ma'lumotlarga duch kelamiz.

Xuroson va Mavorounnahrda shuhrat qozongan Tohir Chaka, Maqsudali degan raqqosalar Bobur Mirzo xizmatida bo'lishgan. Chunonchi, Bobur 1528 yilda Gang daryosi sohilida bir suhbat haqida xabar berar ekan, «yigitlar bir pora sho'xlik qildilar, bir pora kushtiriglik qildilar» - deb yozadi. «Bir pora sho'xlik» bu shubhasiz harakatli o'yindir. Birgalikdagi o'yin turi ham rivojlanganligini guvohi bo'lamiz. Shuningdek, «Boburnoma»da raqqoslardan Sayd Bahriddin degan kishi alohida ta'riflangan. «Ajab sohib usul kishi edi. G'arib ul raqs aning ixtirosidur».

Xulosa qilib, aytganda, Amur Temuriylar davrida boshqa san'at turlari singari musiqa san'ati o'zining rivojlangan davriga kirdi. Bu davrda musiqa nazariyasiga oid, ijrochilik amaliyotiga dahldor qator risolalar yozildi. Sozanda va

xonandalarning ijrochilikka oid raqs va o’yinlari bugungi kunda ham ijro etib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
2. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil
3. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari.-Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.

CHOLG‘U IJROCHILIGIDA IQTIDORLIK VA KASBIY MAHORAT MASALALARI

Muxtorova Sabrina, TDPU “Musiqa madaniyati” fakulteti 102 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Anvar Lutfullaev,
Nizomiy nomidagi TDPUprofessori

Annotasiya: *Maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar majmui va ularning oliy ma’lumotli sifatli kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati masalalari, shuningdek yoshlarni cholg‘u ijrochiligida kasbiy mahorat masalalari tahlil etilgan hamda metodik tavsiyalar taqdim qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, musiqa o‘qituvchisi, talaba, cholg‘u, ijro, ijrochilik, zamonaviy talablar, shakllantirish va rivojlantirish, nazariy bilim, ijrochilik uslubi, o‘qituvchi va o‘quvchi.*

Ta’lim sohasi keng bir ummondek suv usti, suv osti, aynan suvda bo‘ladigan jarayonlar kabi siru asrorlarga boy. Suvda muqimlik ya’ni uni ushlab bo‘lmagandek, tovush (musiqa)ni ham tutib bo‘lmaydi. Bu o‘xshashlik qaysidir

ma’noda tanlanish, insonga qandaydir hislatlar berilishi, jo‘nroq aytganda iqtidor egasi bo‘lishlik baxtidir. Dunyoviy talaffuzda keng tarqalgan ibora – *“talant”* haqida mushohada yuritmoqchimiz.

Har bir shaxs o‘zining qobiliyatini to‘laqonli namoyon etishda kasbni tanlash mummosiga duch keladi. Bu izlanishlar ba’zi hollarda turli ob’ektiv sabablarga ko‘ra butun umrini qamrab olishi yoki davomiy cho‘zilishi mumkin. Musiqa san’ati sohasida, puflama cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida, tajribadan kelib chiqib kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kasbiy yo‘naltirish masalalari nechog‘lik vaqtliroq boshlansa, shunchalik ijobiy natijalarni kutishga zamin yaratiladi. SHu bilan birga yosh ijrochilarning tarbiyasi bilan mashg‘ul shaxslar (ota-onalar, murabbiylar, o‘qituvchilar) ularda birlamchi ko‘nikmalar, mazkur kasbga moyilligini aniqlashga alohida e’tibor qaratmog‘i lozim. Ushbu jarayon quyidagi talablarga javob berishi nazarda tutiladi:

1. Musiqiy qobiliyatning mavjudligi;
2. Jismoniy (fiziologik) ko‘rsatgichlar
3. Tanlangan cholg‘uga qiziqish jiddiyligi;
4. Musiqaga chuqur ixlos qo‘ygan yoshlarning xarakterlarida kasbiy sinovlardan o‘tish uchun tinimsiz mexnat qilish va sabr-toqatligi kabi fazilatlar mavjudligi.

Yuqorida qayd etilgan lo‘nda fikrlar (tezislar) alohida ahamiyatga molik. Shu bois ularning har biri musiqiy pedagogika faniga oid tayanch tushunchalar sifatida qabul qilingan bo‘lib, nazariy adabiyotlarda o‘z aksini topganligini ta’kidlash lozim. Bundan tashqari ayrim ta’lim yo‘nalishlarida, misol uchun, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda hamda so‘nggi uch-to‘rt yil mobaniyda kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan nashr qilingan yangi avlod o‘quv adabiyotlarda o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish va takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalalari turli ta’lim bosqichlari (boshlang‘ich, o‘rta maxsus, oliy) misolida atroflicha yoritilganligi ham ma’lum. Ayni paytda kun tartibida turgan dolzarb

muammolardan biri – musiqa maktablari, akademik litsey va kollejlar o‘quvchilari orasidan saralangan va o‘ta qobiliyatli yosh cholg‘u ijrochilarni oliy ta’lim tizimida kasbiy o‘stirishni davom ettirish yo‘llarini belgilashdir. Yuzaki jihatdan mazkur masala oydin ko‘rinsa-da, aslida murakkab va ko‘p hollarda tahlilni talab qiladigan jarayondir.

Sir emaski, mustaqillik yillarda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida shaxsan davlat rahbari, O‘zR Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O‘rta maxsus, Xalq ta’limi va Madaniyat vazirliklari tomonidan bir qator Farmoyishlar, muhim qarorlar va buyruqlar imzolangan. Ularga asoslangan holda har o‘quv yili, faqatgina O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga 25-30 dan ziyod iste’dodli musiqa ijrochilari (xalqaro va respublika tanlovlar sovrindorlari), Davlat mukofoti sohiblari, nomdor stipendiatlar qirish imtihonlarni topshirmasdan imtiyoz asosida o‘qishga qabul qilinmoqda. Biroq, so‘nggi besh-olti yil mobaynida o‘ylashga chorlaydigan masalalardan biri shundaki, o‘qishga imtiyozli kirganlarning umumiy hisobidan deyarli 20 foyizi 1-kursning o‘zidayoq qishqi reyting nazoratini topshirishga “qiynaladi”. Taajjublanarli tomoni shundaki, “qarzdor” fanlar qatoridan mutaxassislik bloki fanlari ham tez-tez uchraydi. Vaziyatni tahlil qilish jarayonida aniqlandiki, “yulduzli kasallikka” chalg‘igan ayrim yoshlar oliy ta’lim tizimiga mutlaqo o‘rnashmaganligi, qishki va yozgi reyting nazorati o‘rtasidagi muddatlar “erkinlik” (dangasallik) payti sifatida noto‘g‘ri talqin qilinganligi, muntazam o‘qishga qatnashish zarur emasligi hamda yangi bilimlarni darsma-dars, bosqichma-bosqich o‘zlashtirish talablarga beparvo munosabatda bo‘lganligi natijasida vujudga kelgan. E’tiborli tomoni yana shundaki, o‘rta maxsus ta’lim tizimiga bu “toifadagi o‘quvchilar”da mustaqil ishlash ko‘nikmalari payvand qilinmaganligi, o‘qish mazmuni laureatlik unvonini olish va u bilan imtiyozlarga ega bo‘lish bilan bog‘langanligi, shuningdek, bir necha yillar davomida bitta dastur ustida ishlaganligi kabi sabablar vaj bo‘lmoqda. Afsuski, bunday o‘z-o‘zini chegaralashdek salbiy holatlarni kuzatib, qo‘l qo‘vushtirib turilsa, ikkinchi kurs boshlaridayoq, peshqadamlikda yurgan laureat talabalar aksariyat fanlardan “qoniqarli” ballarni to‘plashdan nari o‘ta olmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bakalavriatning uchinchi-to‘rtinchi kurslarida esa tahsil olayotgan bunday qoloq “yulduz”larning umumiy ijro salohiyati yanada susayib boradi, o‘sish jarayoni to‘xtatiladi, pirovardida esa, katta umidlar bog‘lagan yorqin iste’dod parvarishsiz “chala payvandlangan” daraht kabi qurib boradi.

Xo‘sh, bu vaziyatda qanday choralar ko‘rish mumkin? Avvalambor, mutaxassislik bo‘yicha ustoz, guruh murabbiysi, kafedra mudiri bilan birgalikda maqsadli ish olib borish, talaba bilan oliy ta’lim tizimining mohiyati haqida tushuntirish suhbat o‘tkazish hamda boshqa fanlardan o‘zlashtirish ahvolidan xabardor bo‘lish tavsiya etiladi. Qolaversa, 1-kurs mobaynida darslarga qatnashish davomatni muntazam nazorat qilish ham foydadan holi emas. Shu bilan birga iqtidorli talabaning erishilgan yutuqlarini targ‘ib etishni ko‘zlab, uni ruhan mustahkamlash niyatida nufuzli konsert dasturlariga jalb etish, eng muhimi, uning ongiga ijro mahoratni oshirish uchun keng qamrovli kasbiy, tarixiy, nazariy bilimlarning barchasi kerakligi haqidagi fikrini o‘rnatish lozim deb o‘ylaymiz.

Ushbu maqolamizda ko‘tarilgan muammoning faqatgina ayrim salbiy jihatlarni yaqqolroq ko‘rsatish uchun ba’zi holatlarni “bo‘rtirishga” majbur bo‘ldik. Aslida esa laureatlarga tegishli umumiy manzara ijobiydir. Biroq, doimo unutmasligimiz kerakki, iqtidorli yosh musiqachini mohir ijrochi darajasiga etkazishda Ustoz va shogirddan tinimsiz izlanishlar, o‘zaro hamkorlik, hamnafaslik va jonli kasbiy muloqot talab qilinadi. Bunda Ustozlarning hozirjavobligi, serg‘ayrati hamda mas’uliyati beqiyosdir. Shu o‘rinda buyuk rus kompozitori P.CHaykovskiyning fikri ibratli ko‘rinadi: “Hattoki tabiatan buyuk iste’dod sohibi mashaqqatli mehnat qilmasa, nafaqat ko‘zga ko‘ringan, balki umuman o‘rta me’yordagi natijalarga erisha olmaydi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Jahon musiqasi tarixi fanidan o‘quv qo‘llanma: G‘arb musiqa san’atining XVIII asrgacha shakillanish va rivojlanish davri/ G. va R. Tursunova – Toshkent 2017
2. O‘zbek musiqasi tarixi/ T. E. Solomonova – Toshkent “O‘qituvchi” 1991
3. Doston navolari/ B. Matyoqubov – Toshkent 2009.

BO`LAJAK MUSIQA O`QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI.

AXRAROVA MUNOJAT MASHRAF QIZI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
TAYANCH DOKTORANTI
+998902975051
munojataxrorova@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo`lajak musiqa o`qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish asoslari yoritilgan bo`lib, sohaga doir bir qator muammolar ko`rib chiqilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *musiqa, ta'lim, texnologiya, xorijiy tajriba, axborot-kommunikatsiya, o`qituvchi, tizim.*

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlatning, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti, jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi masalalari uning yoshlarining bilimi, ta`lim tizimi, salohiyati, dunyoqarashi, ma'naviyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Bugungi kunda jahonda ta'limga har tomonlama yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, bo‘lajak musiqa ta'limi o‘qituvchilarida kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kasbiy kompetentliligini takomillashtirish, shuningdek oliy ta'limning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Shu ma'noda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirilgan o‘qitish ta'lim muhitini shakllantirish, hamda uni amaliyotga keng tatbiq etish asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyati ijtimoiy va ta'lim funksiyalarining murakkabligi tufayli yangi mazmun

bilan to‘ldirilmoqda. Bugungi kunda tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki malakali, pedagogik madaniyati, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash muammosi ayniqsa dolzarbdir. Uning faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta’minlash mumkin.

Bugungi kunda musiqa ta’limiga kompyuter texnologiyalarini jadal joriy etish, turli madaniyatlar va ijod turlarining o‘zaro aloqasi musiqiy-ilmiy izlanishga tayyor va kasbiy kompetentliligi yuqori bo‘lgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini, san’at va ta’limning turli sohalarida bilimlarini rivojlantirish, o‘zlarining professional faoliyatida fanlararo aloqalarni o‘rnatish, ayniqsa muhim. Shu ma’noda, bugungi kunda pedagogik madaniyati va mahoratiga ega bo‘lgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga talab katta. Mamlakatimizda bugungi kunda oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish mazmuni va shakllari zamon talablariga to‘liq mos emas.

Oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini maktab musiqa o‘qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash musiqa san’atining bir necha yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘lajak kadrlarda zarur kompetensiyalarni egallashlarini taqazo etadi. Bir soatlik dars jarayonidagi musiqa mashg‘uloti o‘qituvchidan musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, cholg‘u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, dirijorlik va xor bilan ishlash bo‘yicha malakaviy tayyorgarlikni talab qiladi. Tabiiyki, bu san’at yo‘nalishlari bo‘yicha yetarli darajada zarur nazariy va amaliy (cholg‘u asbobida chalish, dirijorlik qilish, vokal – xor malakalari, xor bilan ishlash) bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlari bir xil darajada bo‘lmaydi

Respublikamizning bir qator OTMlarida bakalavriatning pedagogika sohasi 60311100-“Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishida umumta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani bo‘yicha, shuningdek, pedagogika kasb-hunar kollejlari, musiqa va san’at akademik-liseylari, bolalar musiqa va san’at maktablari uchun “Musiqa ta’limi” kasbi beruvchi kadrlar tayyorlanib kelinmoqda va ularga Davlat namunasidagi diplomga “Musiqa ta’limi yo‘nalishi” kasbi berilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, musiqa o‘qituvchisini bugungi kun talabi darajasida tayyorlashda, o‘quv rejasidagi fanlarni o‘qitishda, ta’lim yo‘nalishi nomida bir qator muammolar borki, ularni bartaraf etmay turib, sifatli kadrlar tayyorlab bo‘lmaydi, qolaversa, quyi ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni o‘qitish uchun tayyorlayotgan o‘qituvchilarimiz sinflarga kirib dars o‘tishda yetarlicha bilimga ega bo‘lmaydilar.

Zamonaviy jamiyatda, oliy ta’lim inson faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy, yetakchi omili sifatida qabul qilindi. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qiymati va asosiy kapitali yangi bilimlarni qidirish va o‘zlashtirishga, nostandart qarorlar qabul qilishga qodir mutaxassisni tayyorlash ekanligini tushunishdir. Zamonaviy pedagogik fanning muhim yo‘nalishi o‘qituvchini o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan vositalar va sharoitlarni izlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Begimqulov U. Sh. Oliy pedagogik ta’lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy pedagogik asoslari: Avtoref.-T., 2007, -37 b
2. Bahar Gudek. Computer Self-Efficacy Perceptions of Music Teacher Candidates and Their Attitudes towards Digital Technology. Ondokuz Mayis University, TURKEY. European Journal of Educational Research.
3. Ibragimova G. Pedagog kadrlarning kasbiy kompetentliligini uzluksiz rivojlantirish yo’nalishlari. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. – T., 2015. – B. 75-77.
4. Kenjaeva D.T. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida barkamol shaxsni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari: Ped. fan. nomz. diss. – T., 2005. -241 b.
5. Omankulova Sh.N. The factors affecting the professional competence of future music education teachers. Solid State Technology Volume: 63 Issue: 6. 2020.
6. **Jorge Sastre Martínez**. Wenceslao García. New Technologies for Music Education. September 2013 DOI:10.1109/ICeLeTE.2013.6644364. www.scopus.com

III SHO‘BA
MUSIQA FANLARINING BOSHQA FANLAR BILAN O‘ZARO INTEGRATSIYASI

MUSIQA SAN'ATINING INTEGRATIV O‘ZARO TA'SIR JARAYONLARI

Karimov Inoyat Allamovich

Urganch davlat unniversiteti o‘qituvchisi,

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy pedagogik jarayonda musiqiy fanlarning fanlararo aloqasining o‘rni, o‘quv jarayonidagi san'atning o‘zaro ta'sirining xususiyatlari yoritilgan. Musiqa va tasviriy san'atning o‘zaro ta'siri musiqiy ta'lim darsidagi amaliy faoliyat namunalari asosida ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *fanlararo aloqa, san'atning o‘zaro ta'siri, integral jarayonda musiqa madaniyati, tasviriy san'at, umumiy o‘rta ta’lim.*

Kirish. O`tgan XX asrga nisbatan zamanoviy ta`lim jarayoni hamda shu qatori san`at kabi bir qancha ichtimoiy hayotda insonlar uchun o`z qadrini hamon saqlab kelayotgan narsalar haqida bildirilgan fikir hamda qarashlar o`zgardi. Yuqoridagilarga misol qilib yaqinda maktab o‘quvchilarining estetik tarbiyasida san'atning kompleks o‘zaro ta'sirining integratsiya jarayoni aniqlandi. Dunyoqarash va uslubiy jihatdan adabiyot, tasviriy san'at va musiqaning integratsiyasi turli xil san'at turlari inson ongida shakillangan obrazli fikirlashni hamda fikirlash qobilyatini o`stirishga xizmat qiladi.

Estetik davr jarayonida ob'ektlarining bir-biridan ajralishini olib tashlash istagi V. V. Vidgof, M. S. Kagan, I. V. Konshina, A. A. Melik-Pashayev, B. M. Nemenskiy va boshqalarning ko‘plab asarlarida kuzatilgan. yuqoridagi mualliflar integratsiya yondashuvini ikki nuqtai nazardan ko‘rib chiqadilar. Birinchisi integratsiya yondashuvini tamoyilini o‘rganish vositasi sifatida tushunishdir. Bunda mexaniz fan bilimlarini yaqinlashtirishning umumiy platformasini topish. Ikkinchisi-integratsiya yondashuvini o‘rganish maqsadi sifatida tushunish. Shu munosabat bilan M. S. Kogan, xususan, "*maktab dasturlarida ongli ravishda,*

maqsadga muvofiq va izchil fikr yuritish kerak: uchta fan ham o‘quvchini san'at olami bilan, inson tomonidan dunyoni badiiy rivojlantirishning yaxlit sohasi bilan tanishtirishning yagona jarayonining qirralari" [3, 28-b].deb hisoblaydi.

Integratsiya yondashuvini o‘rganish vositasi sifatida tushunish nuqtai nazaridan integratsiya fanlararo aloqalarga yaqin. Jumladan badiiy-gumanitar tsikl fanlarini yagona axloqiy va estetik baholashlar, insonning dunyoga hissiy munosabati normalari va mezonlari asosida qurishning umumiy mantig'idan kelib chiqqan holda, fanlararo aloqalar D. B. Kabalevskiyning musiqiy ta'lim dasturining muhim tarkibiy qismlari edi [4, 45-b].

Shunday qilib, onlayn talim platformasi tarkibiga musiqiy san'atning sintetik shakllari va janrlari – qo‘shiq, opera, musiqa va she'riy so‘z o‘rtasidagi bog'liqlik kiradi. Shuningdek, bolalarni musiqiy o‘qitish jarayonida musiqa va tasviriy san'at o‘rtasidagi bog'liqlik (integratsiya) ta'minlanadi. "*Musiqa madaniyati*" fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasini yanada chuqurlashtirish E. B. Abdullin [1, 67-b]. D. B. Kabalevskiy dasturining negizida quyidagicha keltiriladi.

- o‘quv fanlarining umumiyligini maqsad, ta'limning asosiy tamoyillari nuqtai nazaridan o‘rnatish;
- talabaning badiiy asarlardagi voqelikka hissiy va axloqiy munosabati tajribasini badiiy davriyligining har qanday predmeti mazmuniga uning etakchi elementi sifatida kiritish;
- san'atning yaxlit darsini tashkil etish va uning mazmunini o‘zlashtirishga olib keladigan usullarni ishlab chiqish va talim jarayonida qo‘llash [4, 25-b].

Musiqiy ta’lim mualliflari xor qo‘shiqlari, ritmik mashqlar, shuningdek musiqiy asarlarni keyinchalik tahlil qilish bilan tinglash boshqa darslarda talabalarda shakllangan bilim va ko‘nikmalar bilan bog'liq bo‘lishi kerak deb taxmin qilishdi. Shunday qilib, masalan, musiqa va darslarining (*o‘qish va nutqni rivojlantirish)* fanlararo aloqalari, dastur mualliflariga ko‘ra, matnlar ustida ishlashda (*she’r yodlash qo`shiq kuylash kabi jarayonlarida*) o‘zini namoyon qilishi mumkin. Shu ma'noda musiqa o‘qituvchilari o‘quvchilar tomonidan o‘qish

darslarida olingan bilimlar orqali xalq ijodiyoti asarlari, matnni ifodali o‘qish qobiliyati haqidagi umumlashtirilgan g'oyalarga tayanishi mumkin.

Bugungi kunda fanlararo aloqalarning ishlashining yana bir modeli bir nechta o‘quv fanlarining "*vertikal tematikasi*" ga asoslangan modeldir. Masalan, "*musiqaning ifodali va vizual imkoniyatlari*" mavzusi boshlang`ich sinif o`quvchilari uchun so‘z, musiqa va rasm san'ati vositalari tomonidan quyidagicha ishlab chiqilishi mumkin.

Yuqoridagi kontseptsiyadan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy pedagogik jarayonda fanlararo aloqalar tobora ko‘proq integratsiyaga intilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik jihatdan turli xil san'at turlarining mavjud munosabatlarini aniq aniqlash qiyin. Shu sababli, bir qator tadqiqotchilar bir vaqtning o‘zida manoni aniq ochib berish uchun quyidagi atamalardan foydalanishni taklif qilishadi: o‘zaro ta'sir, integratsiya, sintez, sinkretizm, ularning har biri o‘ziga xos ma'noga ega.

Shunday qilib, tadqiqotchi olim T. O. Yusovning so‘zlariga ko‘ra, san'atning fanlar aro o‘zaro ta'siri ularning integratsiyasidan farq qiladi. Bu, shuningdek, ommaviy san'at darslarini ulardan birini chuqur o‘rganish bilan bog'lash bo‘lishi mumkin. Integratsiya aslida har xil turdagi badiiy faoliyatning o‘zaro yordami va to‘ldirilishi asosida yagona darsga o‘zaro kirib borishini o‘z ichiga oladi.

B. M. Nemenskiy maktab o‘quvchilarining estetik tarbiyasida san'atning o‘zaro ta'sirini umumestetik rivojlanishning yaxlit kursi sifatida belgilaydi. Uning so‘zlariga ko‘ra, boshlang'ich maktab o‘quvchilarining umumiy estetik rivojlanishining yaxlit kursi uchun yetarli va zarur shartlar quyidagilar [2, 57-bet]:

- turli xil san'at turlarining hayotga estetik munosabati barcha turdagi badiiy ijodning umumiy asosi sifatida, ko‘p qirrali san'at daraxti o‘sadigan yagona ildiz;
- uning estetik mohiyatini san'atning har xil turlari to‘g'risida yagona tushuncha;
- san'at tilida, o‘ziga xos mi zonalari bilan bir qatorda, tasviriy, tasvirning assotsiativligi, ritm, metafora kabi umumiy zonalarning mavjudligi, bu antik davr an'analariga borib taqaladigan san'atning murakkabligi g'oyalari bilan bog'liq;

Boshlang'ich maktab o‘quvchilarining estetik tarbiyasida turli xil san'at turlarini birlashtirish uchun asos, shuningdek, ushbu yosh guruhidagi bolalarning idrokning sinkretizmiga moyilligi hisoblanadi. Bizning o`rganishlarimizcha, inson amaliyotida va maktab kurrikulumlarida namoyish etiladigan (*yoki ehtimol taqdim etiladigan)* turli xil san'at turlari jumladan musiqa bitta umumiy ildizdan qochish, inson tomonidan dunyoning yagona badiiy va ijodiy rivojlanishining turli shakllari sifatida harakat qilganda yondashuvlar bo‘lishi kerak.

Ushbu moslashuv mantiqiy ravishda san'atning qarindoshligini, turli xil san'at asarlarining yosh o‘quvchiga hissiy va estetik ta'sirining umumiyligini idrok etish uchun asos yaratish vazifasini belgilaydi. San'atning kompleks rivojlanishi tasavvurni, badiiylikni, aqlni uyg'otadi, ya'ni.faoliyatning har qanday sohasi uchun muhim bo‘lgan universal qobiliyatlarni shakllantiradi.

Musiqiy ta’limning turli xil majoziy talqinlarida taklif qilingan syujetni qiyosiy baholash usuli bilan bir qatorda, masalan, quyidagi savollar orqali assotsiativ qidirish usulini taklif etamiz: qaysi musiqiy asarlarni (*mazmuni, majoziy ma'nosi bo‘yicha)* musiqa qanday musiqiy ranglarda yozilgan bo‘lishi mumkin? Integratsiyani darajalarda tushunish mumkin:

- *turli xil san'at turlarining majoziy-semantik, intonatsion, lingvistik sohalari umumiyligini topish vositasi bilan badiiy hodisani ko‘p qirrali ko‘rib chiqish;*
- *badiiy va ijodiy faoliyatning har xil turlarining birligi.*

Xulosa: Shunday qilib, san'atning o‘zaro ta'siri orqali estetik ta'limni tashkil etishning tavsiflangan modellari pedagogikada o‘rnatilgan san'atning o‘zaro ta'sirining quyidagi turlari bilan bog'liq:

- *an'anaviy o‘quv rejasi doirasidagi fanlararo aloqalar;*
- *maktab o‘quvchisini polixudolik tarbiyasiga kompleks yondashuv;*
- *san'atning ayrim turlarini boshqa san'at turlaridan analoglar va rag'batlantirishlarni jalb qilgan holda ko‘p badiiy asosda o‘qitish*.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullin E., 1983, Theory and practice of music education in secondary schools, Moscow, Enlightenment.

2. Curriculum şcolar. educaţia muzicală. clasele V-IX, 2000, Ministerul EDU Educaţie artistică. Ghiduri metodologice, Chişinău, Grupul editorial Litera.

3. Kagan M S., 1987, The role and interaction of the arts in the pedagogical process. In: Music at school, no. 4, p. 28-32.

4. Kabalevsky D., 1986, About three whales and much more, M.

MUSIQA TA'LIMINI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVLAR VA UNING TAHLILI

Muratova Saodat Abduraxmanovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Musiqa madaniyati fakulteti Ijrochilik mahorati va madaniyati kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur tezisda integratsiya jarayonlarida zamonaviy musiqiy ta'lim masalalari ko‘rib chiqiladi, musiqiy ta'limni shakllantirishning asosiy bosqichlari kompleks, tizimli va fanlararo yondashuvlar tamoyillarini amalda qo‘llash tajribasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Integratsion ta’lim, musiqa madaniyati, integrativizm, ta’lim tendensiyalari, ilmiy faoliyat, master-klasslar.*

Kirish. Musiqa pedagogikasi rivojlanishining hozirgi bosqichida musiqachilarni o‘qitish va tarbiyalashning mavjud tizimi mazmunini yangilash va qayta tashkil etishning murakkab va noaniq jarayonlari eng maqbul yechimga keltirish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Musiqiy ta'limning bugungi darajasi turli xil musiqa muassasalari o‘qituvchilarining ijodiy va ilmiy-qidiruv faoliyatini tavsiflovchi o‘quv ishlarida eksperimental yo‘nalishlarning imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish va umumlashtirishni talab qiladi. Ushbu vazifa turli xil aniq tarixiy vaziyatlarda o‘quv va musiqiy-pedagogik tizimlarning individual jihatlari va bo‘g'inlarining notekis rivojlanishi va ularni muvofiqlashtirish va muvofiqlashtirish zarurati aniq bo‘lgandan keyin muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qismi. Integratsiya jarayonlari musiqa va pedagogik fan oldida ham shunga o‘xshash muammolar paydo bo‘ldi ular nafaqat ijrochi musiqachilarni, balki musiqa pedagogikasini yangi bosqichga ko‘tarishga qodir bo‘lgan

musiqachilarni, o‘qitishda yangi g'oyalarni joriy etishga qodir bo‘lgan o‘qituvchi musiqachilarni to‘liq tayyorlashni ta'minlash tendentsiyasini o‘z ichiga oladi. Olimlar musiqa o‘qituvisining ajoyib va hozirgi kunda ham dolzarb ta'rifini keltiradi: "faqat san’at arboblari dars berishlari kerak, ovozi chiqqan o‘qituvchilar emas". Ta'lim mazmunini birlashtirish g'oyasi vaqtinchalik pedagogika vazifalariga juda mos keladi. Biz musiqa o‘qituvchisini tayyorlashni fundamentalizatsiya qilish, uning kontekstiga mazmunli va asosli aloqalarni kiritish haqida gapirar ekanmiz oldimizda musiqa o‘qituvchisining shaxsini shakllantirish muammolarini hal qilish kabi vazifalar paydo bo`ladi. Bazi tadqiqotchilarning fikricha “integratsiya jarayoni - bu maqsadlarga samarali erishishga qaratilgan elementlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga asoslangan birlashtiruvchi jarayon yaxlit tizimni shakllantirish va uning birligini mustahkamlash bilan bog'liq” [2, 157-bet].

Musiqiy ta'lim sohasidagi integratsiya - bu ish faoliyati davomidagi tajriba ilmiy va amaliy ish tajribasini o‘z ichiga olgan hodisa. Eng yaqin integratsiya-bu ta'limga kompleks yondashuv g'oyasi, uning maqsadi ta'lim va tarbiyaning turli tarkibiy qismlarini bog'lash, o‘quv dasturiga turli xil kompleks kurslarni joriy etish, fanlararo tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar, asosiy mutaxassislik kimiga yaqin bo‘lgan fanlar bilan bog'liqlik va boshqalar. Ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ta'limga kompleks yondashuv bir qator universitetlarda, o‘tmishdagi yetakchi o‘qituvchilar faoliyatida ijobiy natijalarga erishdi, ammo u hech qachon yaxlit ta'lim tizimiga aylanmadi. Ushbu g'oyalarni ishlab chiqishning kamchiligi shundaki, ushbu usulning asosiy maqsadi musiqiy ta'limning turli tarkibiy qismlarini bog'lashda edi, ammo bog'lanishlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ular birlashtirgan elementlar aniqlanmagan. Kompleks usulni ishlab chiqish va amalga oshirish tajribasi o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega edi, bu shubhasiz ushbu g'oyalarning fonga o‘tishiga, musiqiy ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichida ularning ahamiyatsizligiga ta'sir ko‘rsatdi.

Musiqiy ta'lim sohasidagi ilmiy-pedagogik fikr va ijtimoiy faoliyatning bosqichma-bosqich tiklanishi kuzatildi. Hozirgacha bu vazifa to‘liq hal qilinmagan. U bir qator istiqbolli yo‘nalishlarni belgilab berdi:

- musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash mazmuni va tashkil etilishiga tizimli yondashuv tamoyillarini amalga oshirish;
- maxsus ijro, musiqiy-nazariy va psixologik-pedagogik fanlarning integratsiyasi.

Musiqachi o‘qituvchilarining mutaxassis shaxsiyati sifatida kerakli kasbiy tayyorgarligining kontseptual xususiyatlari malakali pedagoglar tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shaxsini tarbiyalashning gumanitar tarkibiy qismini kuchaytirish;
- asosiy psixologik va pedagogik bilimlarni chuqurlashtirish;
- musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashning professional asoslarini asoslash;
- amaliy faoliyat oldidan ijtimoiy-madaniy va kasbiy voqelikka e'tibor;
- musiqiy ta'limning istiqbolli metodologiyalari va faol usullarini o‘zlashtirish;
- musiqiy ta'lim falsafasi;
- zamonaviy musiqa o‘qituvchisini tayyorlashda axborotlashtirish.

Zamonaviy pedagogikada yangi tushunchalar paydo bo‘ldi: *"integrativizm", "integrativ yondashuv*", pedagogik faoliyatning keng amaliyotiga integratsiya g'oyalarini joriy etishga yordam beradigan ob'ektiv omillar tahlil qilinadi, qismlarning ahamiyati, ularning xususiyatlari aniqlanadi, bu ularni boshqa qismlar bilan organik ravishda birlashtirishga imkon beradi. Borgan sari olimlar pedagogikada integratsiya jarayonini texnologik qo‘llab-quvvatlash muammosini ko‘tarmoqdalar.

A. Ya. Daniluk haqli ravishda ta'kidlashicha, fanni turli xil kelib chiqadigan tobora ko‘proq bilimlar bilan to‘yinganligi, ushbu bilimlarni sintetik idrok etishni ta'minlashga imkon beradigan samarali qarshi choralarni qabul qilish vazifasini qo‘yadi: o‘quv jarayonida amaliy muammolar, ilmiy va nazariy muammolarni ham hal qilish, o‘quv jarayonida kibernetik mashinalardan keng foydalanish, ta'limning

barcha bosqichlarida faol foydalanish mustaqil bilim olishga ko‘nikmalarni singdirishni ta'minlaydigan usullar [3].

Pedagogik jarayon, yetakchi malakali o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, ta'limning o‘zi tajribasini rivojlantirishga, turli xil dars shakllaridan foydalanishga (*individual, individual guruh, ochiq darslar, master-klasslar, kontsert va pedagogik amaliyot va boshqalar*), nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tahlil qilishga yo‘naltirilishi kerak. Tubdan ishlab chiqilgan kasbiy musiqiy faoliyatni rag'batlantirishning psixologik va pedagogik masalalarini ko‘rib chiqish ham muhimdir. Zamonaviy o‘quvchilarning nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki bilimlarni integratsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish vazifasi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davrida eng dolzarb bo‘lib qolmoqda. Musiqiy ijodiy ko‘nikmalar sohasida axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarning integratsiyasi juda dolzarb bo‘lib, o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga undaydi, shaxsiy va ijodiy o‘zini o‘zi anglash zarurligini shakllantiradi. T. L. Lixacheva, nazariy nuqtai nazardan, integratsiya "*nafaqat tizimning alohida elementlari o‘rtasidagi bog'liqlik, balki ularning interpenetratsiya va yaxlit birlashishga asoslangan organik to‘plami sifatida tushuniladi. Bunday sharoitda faqat integrativlik printsipi, uni zamonaviy pedagogikada amalga oshirish doirasida, uni amalga oshirish xarajatlarini kamaytirish va natijalar sifatini oshirish nuqtai nazaridan o‘quv natijalarini birinchi darajaga ko‘tarish uchun barqaror turtki berishi mumkin*" [4, 62-bet].

Xulosa. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi tendentsiyalarga muvofiq, integratsiyaning pedagogik modelini izlash, o‘qitishning yangi tamoyillariga tayanish zarurati paydo bo‘ldi, ularni hisobga olish zarurati vaqtni talab qiladi. Pedagogik faoliyat sohasidagi yetakchi olimlarning tadqiqotlari ushbu muammoni hal qilishning turli usullarini izlashdan dalolat beradi. Bizning fikrimizcha, bu o‘quv rejalari va dasturlaridagi qisman o‘zgarishlar kabi amaliy muammolarni hal qilish bilan emas, balki bugungi kunda oliy ta'lim uchun taqdim etilayotgan maqsad va vazifalarni aniq belgilash bilan boshlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R, Abduqadirov A. Innovative technologies in education. - Tashkent, - Science, 2008.

2. Levchenko, V. V. Integratsionnыe protsessы v pedagogicheskoy nauke / V. V. Levchenko / / Vestnik SamGU. - 2007. - № 5/1(55). - S. 157-165.

3. Danilyuk, A. Ya. Teoretiko-metodologicheskie osnovы proektirovaniya integralnыx gumanitarnыx obrazovatelnыx prostranstv: dis... d.p.n / A. Ya. Danilyuk. - Rostov na Donu, 2001. - 347 s.

4. Yakonyuk, V. L. Muzыkant. Potrebnost. Deyatelnost / V. L. Yakonyuk. - Minsk, 1993. - 147 s.

MUSIQA VA MATEMATIKA FANLARINING INTEGRATSIYASI

Murotova Dilnavoz Uktamovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada integratsiya tushunchasining ta'rifi va ta'lim tizimidagi ahamiyati, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni tashkil etishning dolzarbligi haqida fikr yuritilgan. musiqa va matematika fanlari bilan integratsiyalash misolida fanlararo aloqadorlik muammosining muhim jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar*: musiqa, matematika, integratsiya, mantiqiy fikrlash, idrok.*

Bugungi kunda zamonaviy maktab ta'limining eng muhim vazifalarida biri bu - bilimlarni samarali o'zlashtira oladigan, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan yuksak rivojlangan shaxsni shakllantirishdir. Ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, o'qitish uslub va vositalarini yangilash yangi pedagogik izlanishlar asosidir. O'quv predmetlari aniq fanlar mantig'ida qurilganligi va ularning barchasi bir-biri bilan bog'langanligi sababli fanlararo aloqalarni o'rnatish zarurati tug'iladi.

Fanlararo aloqadorlik muammosini har tomonlama o'rganish pedagogikaning ilmiy, nazariy asoslarini ishlab chiqish uchun ham,

o‘qituvchilarning amaliy faoliyati uchun ham fundamental ahamiyatga ega. Aynan fanlararo bog‘lanishlar butun fanlar tizimida o‘qitishga singib ketishi kerak bo‘lgan tizimli ilmiy g‘oyalarni aniqlashga asoslangan, yaxlit metodologik asosni ta'minlash uchun mo‘ljallangan.

Integratsiya (lotincha - qayta tiklash, to‘ldirish, butun) - bu tizim, organizm funktsiyalarining alohida farqlangan qismlarining bir butunga bog‘liqlik holatini, shuningdek, bunday holatga olib keladigan jarayonni anglatuvchi tushuncha. Maktablarda integratsiya usullari turlicha bo‘lib, bu bir nechta o‘quv fanlarining yagona fanga birlashishidir. Taniqli rus pedagog D.I.Kornyushchenko integratsiyaning quyidagi tamoyillarini belgilaydi:

- universallik tamoyili;
- keng qamrovlilik tamoyili;
- uyg‘unlik tamoyili (ruh va fikr);
- rivojlanish tamoyili;
- shaxsiy tamoyil [4, b. 370-371].

Bugungi kunda o‘quv amaliyotida eng keng tarqalgani musiqa va u bilan bir xil ta’lim sohasida joylashgan fanlar (musiqa va adabiyot, musiqa va tasviriy san’at, musiqa va ritm va boshqalar) o‘rtasidagi integral aloqalardir. Biroq, musiqaning ancha uzoq ta’lim yo‘nalishlari (musiqa va fizika, musiqa va matematika, musiqa va biologiya, musiqa va chet tillari, musiqa va geografiya va boshqalar) bilan integratsiyalashuv tendentsiyasi mavjud.

Musiqashunos pedagog T.Yu. Gunyashovaning fikricha musiqaning tabiiy, gumanitar va estetik tsikllar sub'ektlari bilan bog‘liq ekanligini aytib o‘tadi. Musiqa va matematika (Pifagor), musiqa va fizika (Nyuton), musiqa va biologiya, kimyo (A.P. Borodin), musiqa va geografiya va boshqalar fanlar bilan o‘zaro bog‘liq. [2]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib musiqa va matematikaning integratsiyasi alohida ahamiyatga ega. Musiqa va matematikaning o‘zaro ta'siri masalasi musiqachilarni ham, matematiklarni ham o‘ziga jalb qiladi. Musiqiy nazariy fanlar matematika bilan faqat alohida matematik tushunchalar (son, simmetriya, nisbat,

sanash va boshqalar) bilan emas, balki pedagogik usullar va usullar (diagramma, grafik, formulalar va boshqalar) bilan ham bog‘liq. Tadqiqotchi E.B. Yejova [3] bolalar musiqa maktabi o‘quvchilarining solfejio sinfida matematika elementlarini jalb qilgan holda musiqa eshitish qobiliyatini rivojlantirish xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq. Avvalo, predmetlar o‘rtasidagi bog‘liqlik “umumiy tushunchalarni qo‘llashda (sanoq, kasr, o‘lcham, kvadrat - kvadrat emas, kasr, koordinatalar tizimi, formulalar, son, juft-toq va boshqalar); arifmetik amallardan foydalanishda (sanoq, qo‘shish, bo‘lish, ayirish); fikrlashning umumiy turini qo‘llashda (mantiqiy); umumiy aqliy sifatlarga (mantiqiy fikrlash, fikr yuritish, mulohaza yuritish va h.k.) ega bo‘lish zarurati» [3, b. 19]. “Matematika elementlaridan foydalanish musiqiy tushunchalarni adekvat idrok etish, musiqiy tuzilmalarning uyg‘unligi va go‘zalligini estetik his qilish, fikrlashning moslashuvchanligini rivojlantirish, turli bilim sohalaridagi tushuncha va g‘oyalarni bog‘lash, aqliy faoliyatning umumiy texnikasini ishlab chiqish (tasniflash, solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish va hokazo)” [3, b. 15]. O‘z navbatida, matematika o‘qituvchilari o‘quvchilar ongida "quruqlik", matematikaning rasmiy tabiati va uni hayot va amaliyotdan ajratib qo‘yish g‘oyasini oldini olish uchun o‘z darslarida musiqa nazariyasi elementlaridan foydalanish yuzasidan ish olib borgan.

Musiqa va matematika fanlar integratsiyasida dars maqsadlari: - talabalarning dunyoqarashini kengaytirish; - musiqa va matematikada umumiy qonuniyatlarni aniqlash; - o‘rganilayotgan fanlarga qiziqishni tarbiyalashdir. Fanlararo aloqalarni amalga oshirish darajasi har xil bo‘lib, bu darsning mazmuniga bog‘liq. Masalan:

Ritm (Musiqa fanida)

Atrofimizdagi dunyo ritmlarga to'la. Bu so'z nimani anglatadi? Bir nechta misollar ritmlarni ko'rish va eshitishimizga yordam beradi. Keling, atrofga qaraylik: qadamlar ritmik tovushlar, nafas olishimiz ritmik, poezd g'ildiraklarining ovozi ritmik.

(Matematika fanida)

Ritmlarni raqamlar orasida ham uchratish mumkin. Ushbu rasmga qarang. Birinchi 100 ta natural son nafis muntazam figura - Pifagor kvadrati deb ataladigan shaklda joylashtirilgan.

Proportsiyalari (Musiqa fanida):

“Ritmik orkestr” tashkil qilamiz va har bir o‘quvchi faqat o'zi vaqtini belgilaydi.

Bir o‘quvchi -

Ikkinchi -

Uchinchi -

To'rtinchi -

(Matematika fani):

O'n oltinchi, sakkizinchi, chorak, yarim, butun nota... Davomiylik nomlari ham son otlari vazifasini bajaradi.

Davomiyligi

1/16 ga to'g'ri keladi

1/8 ga to'g'ri keladi

Musiqiy notalarning davomiyligi nima uchun ularning nomlarini kasrlardan olganligini tushunish qiyin emas

1=(1/1)

0/2; ½

0/4;1/4

Biz davomiylik kasrlar bilan bir xil tarzda olinishini ko'ramiz: ular bir butun teng qismlarga bo'linganda paydo bo'ladi. Shuning uchun, davomiylikni kasr sonlar sifatida hisoblash mumkin, masalan:



Bu erda tenglik chap tarafdagi davomiylik o'ngdagi umumiy davomiylikka teng degan ma'noda tushuniladi. Raqamlar yordamida bir xil tenglikni 1/4 = 1/8 + 2/16 sifatida yozish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, musiqa fani boshqa fanlar bilan aloqador. Fanlarni musiqa fani bilan integratsiya holda darsdan foydalanilsa, darsning samaradorligi hamda o‘quvchilarning badiiiy saviyasi, musiqa, matematika, fizika va boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqishlari yanada ordati.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Andreeva S.V. musiqa va matematika - ular qanchalik bog‘liq! (6-sinf uchun ikkilik dars) [elektron resurs] – kirish rejimi. – url: http://festival.1september.ru/articles/508853/

2. Gunyashova T.Y. musiqaning tabiiy, gumanitar va estetik tsikllar sub'ektlari bilan aloqasi [matn] / T.Y. Gunyashova //maktabdagi musiqa - 2003. - 1-son. – b.54-57.

3. yejova e.b. solfejio darslarida bolalar musiqa maktabi o‘quvchilarida musiqiy eshitishni rivojlantirish [matn]: referat. dis. ishga ariza uchun olim qadam. ph.d. ped. fanlar: (13.00.02) /e.b. yejova. - moskva, 2007. - 24 p.

4. Kornyushchenko D.I. integral dialog: gumanitar ta'limning yangi texnologiyasiga urinish: (ish tajribasidan) [matn] / d.i. kornyushchenko. – m.: moskva psixologik va ijtimoiy instituti, 2003. – 608 b.

5. Musiqa fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar monografiya / umurova ma’rifat yoshiyevna, raximov abdurasul ravshan o‘g‘li – Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» durdona nashriyoti, - 2022. – 136 b.

6. Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi, “boshlang’ich sinf o’quvchilarini fanlarni integrativ yondashuv sosida o’qitish metodikasi” / "ekonomika i sotsium" №5(84) 2021.

7. Qudratov I, Abdukarimova E. “musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik” Samarqand, SamDU Bosmaxonasi, 2015yil.

MUSIQA VA PSIXOLOGIYA FANINING UZVIY BOG’LIQLIGI.

N.Madaminov.
Qo‘qon DPI Musiqa ta ta’limi kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya.*Ushbu maqolada musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri va o‘quvchilar bilan ishlashda ruhiyat masalasi borasida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ruhiyat,iste’dod, qobiliyat, ijod, kreativlik, kayfiyat, zavqlanish, qat’iylik, mushohada, ko‘tarinkilik, depressiya, irpda, ta’lim, tarbiya.*

Musiqa qadimgi yunoncha: *μουσική* – „muzalar san’ati“– inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san’at turi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar) ni o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat’iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviytasviriy imkoniyatlari yunon olimlari –Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari–Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur, Kavkabiy, tasavvuf arboblari–Imom G‘azzoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqa tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta’sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo‘lgan protsessual– muayyan jarayonli tabiati bilan bog‘liqdir.

Musiqa iste’dod va zakovat o‘zining cheksiz imkoniyatlari, mo‘jizaviy tabiati bilan bizni hayratga soladi va o‘ziga maftun etadi. Musiqa psixologiyasi juda

qadim davrlardanoq o‘rganib kelinmoqda. Musiqa psixalogiyasi bo‘yicha ilk izlanishlar antik davr faylasuflari asarlarida va o‘rta asrlarga kelib sharqning buyuk mutaffakkirlari asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan: Pifagor (er.avv.VI asr) asarlarida, uning evritmiya ta’limotida musiqa psixologiyasi haqida gap boradi. Evritmiya deganda olim insonning barcha hayotiy hodisalardan munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan. Shu tarzda ijtimoiy hayotni musiqaga ya’ni ladga, orkestrga qiyoslash Pifagordan qolgan. Bu orkestrda har bir ijrochi ma’lum bir cholg’uni chalganidek, hayotda har bir insonning o‘z vazifasi bor. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta’sir ko‘rsatishini ham aniqlagan va shu tariqa musiqa va inson pisixologiyasi bir biriga chambachas bog’liqligi haqidagi fikrlar taraqqiy eta boshlagan. Umidsizlik, ruhiy istirob, asabiylashish, g’azab va boshqa psixologik vaziyatlarda musiqaning inson psixikasiga sezirlarli ta’siri aniqlanib borgan. Boshqa bir Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch - qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va ritmda yangrayotganligiga to‘g’ridan-to‘g’ri bog’liqdir degan fikrni ilgari surgan.Platon va uning izdoshlari davlat uchun insonni yuksaklikka ko‘tarishga yordam beruvchi musiqa kerak deb hisoblashgan. Aristotel (er.avv.IV asr) ham musiqani individning ijtimoiy hayot bilan uyg’unlashish vositasi deb hisoblagan. Musiqa psixologiyasi yo‘nalish va tarmoqlarga egadir. Masalan: musiqiy ijod psixologiyasi – bu asosan bastakor va kompozitorlarning xayol, tasavvur, musiqa yaratish, yangi musiqiy asarni dunyoga keltirish bilan bog’liq bo‘lgan faoliyatidir. P.I.Chaykovskiy mazkur jarayon va o‘sha daqiqada paydo bo‘luvchi ilhom haqida shunday degan edi: “Ilhom kelgan paytda, odatdagi holatdan chiqa boshlaysan. Bir fikr boshqa birini haydamoqchi bo‘ladi, bu tushuntirib bo‘lmas ilhom tuyg’usidir”. Kompozitor nota yozish bilan birga asarni tinglovchiga aniq yetkazib bera oladigan ijrochini ham yaxshi tasavvur qilishi kerak. Musiqa psixologiyasining yana bir yo‘nalishi bu – musiqiy ijrochilik psixologiyasidir. Bu yo‘nalishda musiqa san’atidagi asosiy faoliyatlardan biri musiqa ijrochiligidir. Zo‘r ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg’ularini his etamiz yoki yunonlar

aytganidek,”ichki”, ruhiy poklanish va yengilanish Musiqiy idrok psixologiyasi bu - musiqani tinglab idrok etishini ham xuddi musiqa yozish va ijro etish kabi musiqa san’atidagi asosiy faoliyat turi deb hisoblash lozim. Qolaversa, tinglovchisiz musiqa san’ati o‘z ma’nosini yo‘qatadi va yashashdan to‘xtaydi. Musiqa tinglash va uni idrok etish musiqa faoliyatining shunday turiki, u Musiqiy ta’lim, tarbiya psixologiyasi bu – musiqa psixologiyasining mazkur tarmog’i psixologik yo‘riqlariga asoslanadi, o‘quvchilar bilan ishlashning aniq usullarini topishga yordam beradi. Bu tarmoq o‘quvchilarning tabiiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini to‘g’ri yo‘naltiruvchi va musiqiy qobiliyatini rivojlantirishga imkon beruvchi musiqa pedagogikasiga uzviy bo‘gliqdir. Musiqani eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritmni aniqlash, tekshirish kabi an’anaviy usullar bilan bir qatorda musiqa psixologiyasida musiqiy zehn, is’tedod, qobiliyatlarni aniqlash, asarni o‘rganish va uning ustida ishlash, konsertda chiqish uchun tayyorgarlik ko‘rish, o‘quvchilar va konsert jamoasi bilan o‘zaro munosabatlar va boshqa testlar ishlab chiqilgan. Musiqa ta’limi va tarbiya psixologiyasi ikki yo‘nalishda o‘rganiladi: bu maxsus musiqa ta’limi va umumiy musiqa tarbiya yo‘nalishidir. Musiqashunoslik, musiqa targ’iboti va musiqiy ma’rifat psixologiyasi –bu musiqashunoslik va musiqiy ma’rifiy faoliyat musiqa san’ati o‘rganish va targ’ib etishga yo‘naltirilgan. Musiqa tarixchilari, tanqidchilari, nazariyotchilari, targ’obotchilari, musiqa ma’rifati bilan shug’ullanuvchilar musiqa holatidagi fanlarni o‘rganishadi, tahlil qilishadi, boyitishadi, rivojlantirishadi hamda klub, istirohat bog’lari, dam olish uylari, radio, telvidenia, matbuot va boshqa joylarda omma o‘rtasida madaniy-ma’rifiy ishlarni olib borishadi. Musiqa psixoterapiya psixologiyasi– sog’lomlashtirish maqsadida foydalanilgan musiqa musiqiy psixoterapiyada o‘rganiladi. Buning uchun tinglash va ijod qilishga mo‘ljallangan musiqa tavsiya etiladi. Bizda musiqa psixologiyasining mazkur sohasi deyarli o‘rganilmagan, negaki u ham meditsina, ham musiqa sohalari bo‘yicha jiddiy ilmga ega bo‘lishni taqazo etadi. Biroq buyuk mutaffakir –olim Ibn Sino tadqiqotlarida bu sohadagi izlanishlarni ko‘rishimiz mumkin. Musiqaning odam

ongi va hissiyotiga ta’sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo‘lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiati bilan bog‘liqdir. Musiqa asarlari mazmunida musiqali obrazlarning o‘zaro munosabatlari (taqqoslanish, to‘qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko‘ra Musiqa mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo‘lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo‘lgan lirika Musiqaning „botiniy“ tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda ma’lum xalq, jamiyat va tari-xiy davrga xos ruhiy tarovat, sur’at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma’naviyma’rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko‘pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o‘zaro etik va estetik ta’sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir. Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o‘ziga xos o‘ringa egadir.Musiqa hayotimizda juda katta rol o‘ynaydi. U ilhomlantiradi va tinchlantiradi, zavqlantiradi va tantanavorlikni beradi. Umuman olganda va har bir inson uchun individual ravishda qadimgi faylasuflar va donishmandlar yozgan.Musiqa butun dunyoni ilhomlantiradi, qalbni qanotlar bilan ta'minlaydi, tasavvurning parvoziga yordam beradi; musiqa mavjud hamma narsaga hayot va zavq bag'ishlaydi.Uni hamma narsaning go‘zal va hamma narsaning timsoli deb atash mumkin. “Musiqa ruhning axloqiy tomoniga ma'lum bir ta'sir ko‘rsatishga qodir; musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, uni yoshlar tarbiyasi uchun fanlar qatoriga kiritish kerak “Musiqa quvonch manbai dono odamlar, u odamlarda ezgu fikrlarni uyg'otishga qodir, ularning ongiga chuqur kirib boradi, odat va odatlarni osongina o‘zgartiradi.Musiqaning inson salomatligi, emotsional holatiga ta’sir etish imkoniyati, musiqani tinglash va ijro etish jarayonidagi chuqur musiqiy kechinmalarning ijobiy ta’siri

psixologiyada ham, musiqada ham ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim asosdir. Musiqa o‘qituvchisi psixologiyani yaxshi bilsagina bolalar qalbiga yo‘l topa oladi.

8. Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.G’.Qodirov. “Musiqa psixologiyasi”. ,,Musiqa “ nashryoti Toshkent 2005 .

2. V.I.Petrushin. “Muzika’kalnaya psixologiya” M.1997

3.Kabilova , E. B. "Formirovat dukhovnoe mirovozzrenie podrastayuschego pokoleniya cherez folklora genre." *Oriental Art oath Culture* 3.1 (2022): 291-295.

4.Kabilova , E. B. "Formirovat dukhovnoe mirovozzrenie podrastayuschego pokoleniya cherez folklora genre." *Oriental Art oath Culture* 3.1 (2022): 291-295.

5. Bakirovna , QE "Theoretical And Methodological Basis Of Overcoming Contradictions In Modern Musical And Educational Practice." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 1.1 (2021): 117-120.

6.Kabilova , Ezoz . "The place of folk songs in Isajan sultan's stories." *American Journal Of Social Sciences And Humanities Research* 4.02 (2024): 44-49.

7.Kabilova , Ezoz . " The place of folk songs in Isajan sultan's stories" *American Journal Of Social Sciences And Humanities Research* 4.02 (2024): 44-49.

TA’LIM JARAYONIDA SOZANDANING ORKESTR VA ANSAMBLLARDA IJRO ETISHI MAHORATI

D.Yu. Ruziyev

BuxDU “Musiqa ijrochiligi va madaniyat” kafedrasi professori, p.f.n.

Ansambl (orkestr) ijrochiligining yakkaxon ijrodan farqi shundaki, talqinning umumiy rejasi ham, barcha tafsilotlari ham bir kishi tomonidan emas,

balki bir nechta ijrochilarning fikrlashi va ijodiy tasavvurining mevasi bo‘lib, ularning birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan amalga oshiriladi.

Musiqiy ansambl va orekestrda muloqot - uning barcha ishtirokchilari tomonidan alohida partiyalarning ko‘p qirrali aloqalarini aniq va muvofiqlashtirilgan holda tushunishi va ularning ijrosini umumiy maqsadga erishishga bo‘ysundirish qobiliyati sharti bilan mumkin.

Ansambl va orkestr musiqa ijro etishning eng yaxshi variantlaridandir. Chunki u yakkaxon(solo) partiyasi, hamrohlik(jo‘rnavozlik)ni o‘z ichiga oladi.

Musiqiy ta’lim faoliyatningi faol vositalaridan biri, bu xalq cholg‘ulari hisoblanadi. Xalq cholg‘u asboblaridan foydalangan holda musiqa mashg‘ulotlari odatda yuqori ijodiy, hissiy va bilimlarni o‘zlashtirish darajada o‘tkaziladi. Xalq cholg‘u asboblarida chalish sozanda shaxsiyatini yanada kengroq ochish, uning ishida o‘zini namoyon qilishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi, shu bilan birga, xalqning ma’naviy qadriyatlari va bunyodkorlik salohiyatining tashuvchisi bo‘lgan xalq cholg‘ulari o‘z xalqi madaniyatini e’zozlash, ta’lim-tarbiya muammolarini hal etishda yordam beradi.

Xalq cholg‘ulari ansambllari va orkestrlar — milliy cholg‘u asboblaridan asl yoki rekonstruksiya qilingan shakldagi ansambl va orkestrlardir. Ular tarkibi jihatidan bir xil (ruboblar, dutorlar, g‘ijjaklar, changlar) va aralash (rubob-dutor, rubob-dutor-chang yoki to‘liq orkestr). Xalq cholg‘ulari ansambli va orkestrini tashkil etish tamoyili ma'lum bir xalqning musiqa madaniyatining xususiyatlariga bog‘liq.

O‘zbek xalq cholg‘u asboblari ansambli va orkestrida musiqa matnini taqdim etishning gomofonik (ko‘p ovozli) - garmonik usuliga asoslangan bo‘lib, unda ovozlardan biri - ohang ustun rol o‘ynaydi, qolganlari - bo‘ysunuvchi (garmonik hamrohlik, jo‘rnavozlik) bo‘ladi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ansambllari va orkestrlari, birinchi navbatda, turli tembrlarning o‘zaro ta'siri tizimidir. Zamonaviy o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestri tarkibiga barcha oilalarning cholg‘u asboblari, shuningdek, boshqa xalq cholg‘u asboblarining ba’zi turlari kiradi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining tuzilishi, birinchi navbatda, orkestr cholg‘ularining asosiy qismini tashkil etuvchi ruboblar, g‘ijjaklar, changlar, dutorlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan oldindan belgilanadi. Bu cholg‘ularda ijro etishning turli usullari - tremolo, stakkato, pitsikato, arpedjio, to‘lqinlatish va boshqalar tovush chiqarishning umumiy tamoyiliga asoslanadi. Masalan, qisqa cho‘zimli tovushlar zarb (chertish)da, uzun cho‘zimli tovushlar tremolo usuli bilan ijro etiladi.

Ansambl va orkestr ijrochiligi asoslarini bilmasdan turib, ansambl va orkestrda badiiy muammolarni hal qilish mumkin emas yoki ishlash uchun o‘ta murakkablikni hosil qiladi. Ansambl hamda orkestr ishining dastlabki davrida bunga katta ahamiyat berish kerak.

Ansambl va orkestrni ijro etish texnikasida, birinchi navbatda, har bir ishtirokchining asbobga egalik qilish (chalish) muammolarini tushunmaslik kerak (garchi bu masalalarni hal qilish kerak bo‘lsa ham), balki birgalikda musiqa obrazlarini yaratish muammolari: ijro birligi, ta'rifi. temp-ritm, har bir partiya vazifasining umumiy partiya vazifalariga muvofiq kelishini turshunish kerak. Ansambl va orkestrning har bir a'zosi nafaqat o‘z ijrosini, balki umumiy tovushni tinglash qobiliyatini rivojlantirishi va umumiy tovushda o‘z qismining rolini aniqlashi kerak. Ijro etilayotgan asar mazmunini yaxlit tushunish, uning ishtirokchilari tomonidan yagona talqin qilish ansambl va orkestr ijrochiligining asosiy xususiyatlaridan biridir. Jamoaning har bir a’zosining ijro rejasini tuzishda ijodiy faolligini rivojlantirish eng muhim vazifadir.

Ansambl va orkestr mashg‘ulotlarida o‘zaro xushmuomalalik va moslashuvchanlikni namoyon etish muhim, aks holda ijodiy tashabbus yo‘qolib, mashg‘ulotlar “mashq”ga aylanib ketishi mumkin, ijro esa rasmiy, jonsiz, yuzsiz bo‘lib qoladi. Amalda ko‘pincha yoshi kattaroq, tajribali va obro‘li shogird-musiqachi jamoada yetakchiga aylanadi (rasmiy va norasmiy rahbar), boshqa hollarda "yetakchi" vazifalar barcha ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlanadi. Bunday ansambl va orkestrlarda shuni esda tutish kerakki, tashabbuskor ijrochi kim

bo‘lishidan qat'i nazar, qolganlarning hammasi unga tengdir. Faqat shu shartda jamoaning ham, yosh ijrochining shaxsiyatini ham ijodiy rivojlantirish mumkin.

Ammo shuni yodda tutish kerakki, shunga qaramay, xalq cholg‘ulari orkestri va ansambli bilan ishlashda nafaqat har bir sozandaning individual qobiliyatini rivojlantirish, balki cholg‘ularning o‘zaro ansambl ijrosini ta’minlay olishi va ijro mahoratini shakllantirish muhim vazifadir. Ansambl va orkestr sozandasining asosiy texnikasi janrning nomi bilan oldindan belgilanadi va birgalikda chalish qobiliyati zamirida yotadi.

Ansambl va orkestrning texnik jihatdan malakali ishlashi, birinchi navbatda, ular tarkibida faoliyat yurutuvchi talabalarning bir nechta ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Jumladan:

- tovush chiqarish texnikasining birligi;
- zarblarning izchilligi;
- temp-ritm birligi;
- dinamikaning birligi;
- barcha partiyalarning ovozi kuchi muvozanati;
- barcha partiyalar tovushining sinxronik tarzda bo‘lishi.

Ansambl va orkestrda chalishda talabalarning o‘zaro hamkorlikda, birgalikda cholg‘u asboblarida tovush chiqarish texnikasining o‘ziga xosligi muhim ahamiyatga ega. Ansambl va orkestrda ijro etishning dastlabki chora-tadbirlaridan boshlab, ishtirokchilardan tovush chiqarish usullarida to‘liq kelishuv bo‘lishini talab qiladi. Shtrixlar ustida puxta ishlash katta e'tiborni talab qiladi, bunda musiqiy fikr sayqallanadi, uning ifodalanishining eng muvaffaqiyatli shakli topiladi.

Ansambl va orkestrning zaruriy sharti barcha partiyalarning musiqiy matnini sinchkovlik bilan tahrirlash, ularda umumiy ijro zarblarini o‘rnatishdir. "Shtrix(zarb)" atamasi ma'lum bir tovush xarakteriga erishish uchun turli xil ijro texnikalarining an'anaviy belgisidir. Musiqiy matndagi zarblar liga, nuqta, chiziqcha(tire), urg‘u, og‘zaki ko‘rsatkichlar yordamida ko‘rsatiladi. Musiqiy iboraning bir vaqtda yoki ketma-ket talaffuzi ansambl(orkestr) ijrochisi

(sozandasi)dan tovushga o‘xshash natija berishni talab qiladi. Bir yoki boshqa zarbni tanlash butunlay musiqiy tarkibga bog‘liq. Zarblar ustida ishlash - bu musiqiy fikrni takomillashtirish, uni ifodalashning eng muvaffaqiyatli shaklini topishdir. Ansambl (orkestr)dagi zarblar alohida cholg‘u partiyalarining zarblariga bog‘liq. Faqat cholg‘u partiyalarining umumiy ovozi bilan har qanday zarb savolining badiiy maqsadga muvofiqligi va ishonarliligi bilan aniqlash mumkin. Ansambl va orkestr musiqasidagi xilma-xil zarblarning kombinatsiyasi musiqa asarida maxsus ko‘p qatlamli tovush tekstura (faktura)sini yaratadi.

Ma’lumki, ritm musiqaning markaziy elementlaridan biridir. Ansambl (orkestr) ijrochisining musiqiy tayyorgarligida ritm tuyg‘usini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Sur’at va ritm sohasida ijrochilarning individual xususiyatlari juda aniq ta'sir qiladi. Birgalikda ijro etilganda yakkaxon ijroda sezilmaydigan sur’at va ritmning ozgina o‘zgarishi orkestr(ansambl) chalish sinxronligini keskin buzishi mumkin va buni tinglovchilar juda sezgir tarzda ilg‘aydilar. Yagona sur’at hissi va yagona ritmik puls faqat organik musiqiy hamdardlik va ajralmas musiqiy aloqa bilan paydo bo‘ladi.

Ritm ustida ishlashning asosiy vazifalari: ritmik tuzulma(tasvur)ning aniqligi va ravshanligiga erishish, eng qiyin metro-ritmik tuzulmani o‘zlashtirish, ritmni moslashuvchan va jonli qilish. Ushbu ko‘nikmalarning eng muhimi bir xil davomiyliklarning bir xil ketma-ketligini takrorlashdir. Talabalar tomonidan qat'iy o‘zlashtirilgan, o‘lchangan pulsatsiya(tezlik kuchi)ni takrorlash mahorati temp hissini rivojlantirish uchun "moddiy" asos yaratadi.

Dinamika (tovush balandligining kuchini o‘zgartirish) eng samarali ifoda vositalaridan biridir. Dinamikadan mohirona foydalanish musiqaning umumiy xarakterini, hissiy mazmunini ochishga yordam beradi va asar shaklining dizayn xususiyatlarini ko‘rsatadi. Orkestr turli xil dinamik imkoniyatlarga ega asboblarni birlashtiradi, ular nafaqat ovoz kuchining umumiy diapazoniga, balki turli tessituralardagi tovush intensivligiga ham ega.

Talabalar asarning umumiy dinamik rejasini to‘g‘ri va aniq ifodalashlari kerak. Uning avj nuqtasini aniqlash, tovush kuchini asta-sekin oshirish yoki

kamaytirish kerak. Ovoz kuchidagi keskin qarama-qarshi o‘zgarishlar nafaqat ayrim jumlalarni aniq, badiiy bo‘rttirib berishga, balki butun musiqiy asarning tarkibiga ham sezilarli ta'sir qiladi. Shuning uchun barcha tafsilotlarda yagona dinamikani yaratish texnik jihatdan birgalikda malakali chalish uchun zaruriy shartdir.

Cholg‘ular ijrosinin sinxronlashtirish o‘zaro birgalikda chalishning asosiy texnik talablaridan biridir. Ansambl(orkestr) ijrosining sinxronligi deganda barcha ijrochilar uchun eng kichik davomiyliklarning (tovushlar va pauzalarning) maksimal aniqligi bilan mos kelishi tushuniladi. Sinxronlik sozandalarning eng muhim fazilatlari - sheriklar tomonidan temp va ritmik pulsni umumiy tushunish va his qilishning rivojlanishi natijasidir. Ijrochilar tovushni birgalikda hosil qilishi, birgalikda uzishi yoki keyingisiga o‘tishlari, pauza qilishlari kerak.

O‘zini va sheriklar ijrosini tinglash, - bu turli e'tibor kayfiyatining namoyon bo‘lishiidir. Ijrochilar eshitish diqqatini tezda o‘zgartirish uchun zarur qobiliyatga ega bo‘lishi kerak, lekin undan ham muhimi, umumiy ijroni tinglash va faqat zaruriy nazorat doirasida o‘zini, sheriklar ijrosini tinglash qobiliyatidir. Ansambl(orkestr)ning dinamikasi har doim yakkaxon ijroshi chalish dinamikasiga qaraganda kengroq va boyroqdir. Musiqa asboblarining hamkorlikda shakllantirgan ovozi umumiy tovush palitrasiga qo‘shimcha kuch va rang-baranglik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ruziyev D.Yu. Orkestr ijrochiligi. O‘quv qo‘llanma. Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2020.

2. Ruziyev D.Yu. Ansambl bilan ishlash uslubiyoti. Darslik. Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2021.

3. Ruziyev D. Yu. Konsert ijrochiligi asoslari. Darslik - Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2022.

4. Do‘stov S. Cholg‘u ijrochiligi va ansambli. - Buxoro “Durdona”, 2019.

5. “Xalq cholg‘ulari ijrochiligining zamonaviy omillari” Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasining maqolalar to‘plami. T., 2015.

MUSIQA TA’LIMI YO‘NALISHI TALABALARINI ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.

Samatova Dilnoza Salaidinovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Musiqa ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining estetik tafakkurini rivojlantirishda cholg’u ijrochiligi mashg’ulotlarini samaradorligini oshirish, cholg’u ijrochiligiga asoslangan ta’lim muhitini shakllantirish, ijrochilik uslublarini amaliyotga keng tatbiq etish haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *estetik tarbiya, estetik tafakkur, cholg’u ijrochiligi, mahorat, badiiy asar, ifodalilik, ijro etish usullari.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida" gi PQ-112 Qarorida bugungi kunda jahonda ta’limga har tomonlama yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining ijrochilik kompetentliligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan estetik tafakkurni rivojlantirish, shuningdek oliy ta’limning ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Shu ma’noda cholg’u ijrochiligiga asoslangan ta’lim muhitini shakllantirish, ijrochilik uslublarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarini estetik tafakkurini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Musiqa ta’limi o‘qituvchisidan bilim berish jarayoniga qo‘shimcha ravishda o‘quvchilarni estetik tafakkurini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan musiqiy cholg’u sozi ijrochiligiga ega bo‘lishni talab qiladi.[1]

Bugungi kunda pedagogik muammo shundaki, bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining estetik tafakkuri zamon talabi darajasida yetarlicha rivojlanmaganligidadir. Sababi, bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining aynan, cholg’u ijrochiligida yetarlicha malakaga ega emasligida, kasbiy faoliyatida musiqa darslarida cholg’u sozlarini qo‘llay olmasligida, ya’ni, maktab darsligida keltirilgan kuy - qo‘shiqlarni biron – bir cholg’u sozi jo‘rligida o‘quvchilarga o‘rgata olmasligida va buning natijasida o‘quvchilarning estetik dunyo qarashini, san’atga, go‘zallikkka bo‘lgan intilishini rivojlantirishga yetarlicha hissa qo‘sha olmayotganligidadir.

Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri - ta’lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san’atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta’limotga suyanib, o‘quvchilarning ob’ektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste’dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma’naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

“Yoshlar ongini tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”. Shuning uchun ham maktab musiqa darslarini o‘qitishda o‘zining estetik tafakkuri asosida dars sifat va samaradorligiga javob beradigan, dars mashg’ulotlariga ijodiy yondasha oladigan malakali bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash muhim. Maktab musiqa ta’limi darsalarini ijodiy tashkil etish esa o‘qituvchining cholg’u ijrochiligi malakalarini mukammal egallaganligi bilan belgilanadi. Cholg’u ijrochiligi malakalarini mukammal egallashda oliy pedagogik musiqa ta’limida tayyorlanayotgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini o‘qitish tizimini yanada rivojlantirish hamda ularning cholg’u ijrochiligi malakalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va bunday mexanizmlar orqali ularning estetik tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

Ma’lumki, har qanday musiqa asari bu badiiy asar. Uni badiiy asar darajasida ijro etish sozandadan puxta bilim, yuksak mahorat, estetik tafakkur va

ijrochilik malakalarini talab etadi. O‘qituvchi talabada ijrochilik malakalarini rivojlantirar ekan, unda shu cholg’uga nisbatan mehr uyg’ota olishi kerak. Buning uchun dastlabki davrlardanoq imkoni boricha yaxshi jaranglaydigan, talabaga yoqadigan asarlarni, ularni o‘rganishga ishtiyoqini kuchaytiruvchi musiqiy asarlarni repertuarga kiritib borish lozim.

Badiiy ifodalilik o‘zbek xalq cholg’u sozlarining cholg’u ijrochiligida muhim ahamiyatga ega. Sozandaning ijro texnikasi qanchalik yuqori bo‘lmasin, agar u asarning badiiy xususiyatlarini ochib bera olmasa tinglovchida yaxshi taassurot qoldira olmaydi. Bunday asar quruq, go‘yo jonsiz, ruhsiz oddiy bir ko‘rinishga ega bo‘lib qoladi. Buning uchun sozanda o‘z cholg’usini yaxshi bilishi va shtrixlarning ifodalilik xususiyatlarini yaxshi egallagan, ularni kerakli darajada qo‘llay bilish, hamda tiniq ohangdor yig’ilgan tovushni hosil qila olishi va uni boshqara bilish kabi malakalarni to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Bunday malakalarni o‘zlashtirish juda murakkab bo‘lib, u muayyan vaqt talab etadi. Tajribada ijro texnikasi yuksak darajada, lekin kuyni his qila olmaydigan sozandalar uchrab turadilar. O‘qituvchi talaba bilan shug’ullanar ekan har bir mashg’ulotda talabaning musiqani his qila olish va uni sezish kabi nozik tuyg’ularini uzluksiz ravishda tarbiyalab borishi kerak. Bu esa ularning estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagog N.V.Vetlugina «... musiqa kechinmalari aslini olganda doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi». - deb ta’kidlagan[3]

Har bir kuyning, har bir cholg’uning o‘ziga xos xususiyatlari va ijrochilik imkoniyatlari mavjud. Cholg’ularning rang-barang koloriti xususiyatlari ularning o‘zigagina xos bo‘lgan asarlarni chalish imkoniyatini yaratadi. Shunday ekan har bir sozanda o‘z cholg’usini yaxshi bilishi kerak.

Kuyning dinamikasidan tortib har bir shtrixlarni qo‘llashgacha bo‘lgan barcha ijro etish usullari, badiiy ifodalilik vositalari bo‘lib xizmat qiladi ya’ni sozning holati, tovush sifatining buzulib qolmasligini doim nazorat qilib turushi lozim. O‘qitishning ilk bosqichlaridanoq talabalarni bunga o‘rgatib borishlari

kerak. Musiqa asarining to‘kis jaranglashida yaxshi sifatli cholg’uning ahamiyati kattadir.

Talabalarni ijro malakasini oshirishda shtrixlar alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi shtrix muayyan mukammallikni belgilovchi omil hisoblanadi. Biz shtrixlar bobida har bir shtrix muayyan asarda har xil xarakterga ega ekanligi haqida aytib o‘tgan edik. Yevropa klassik musiqalarini o‘zbek xalq cholg’u sozlarida ijro etganda avvalo talaba asar va asar muallifi, yaratilgan davri, asarning janri va yo‘nalishini tushunib yetgandagina asarning badiiy xarakterini yechib bera oladi.

O‘zbek xalq cholg’u sozlari ijrochiligi malakalarini mukammal egallash, asarlarni to‘liq badiiy qimmatli qilib ijro etish malakasini shakllantirish sozandadan tinimsiz mehnat va izlanishni talab qiladi. Bu darajaga erishish uchun talaba o‘z musiqa sozi ya’ni faqatgina mutaxassislik cholg’usi ijro malakasini puxta egallabgina qolmay, balki o‘zbek xalq cholg’u sozlaridagi asarlar ijrosini tushuna oladigan va tahlil qila oladigan musiqiy va estetik tafakkurga ega bo‘lishi kerak. Bu esa musiqani chuqur his qila olish demakdir.

O‘quvchilarni musiqa san’atiga qiziqtirish, avvalambor ularning eshituv qobiliyatlarini, musiqiy idroklari va eng muhimi va murakkabi hisoblanmish ijrochilik malakalarini shakllantirish jamiyatimizda haqiqiy san’at ahlini, madaniyatli va yuksak odob-axloqli yosh avlodni safini oshishiga xizmat qilishini tushunib yetmog’i muhim hisoblanadi.

Bu maqsadga erishish yo‘lida quyidagilar muhim rol o‘ynaydi.

1. Musiqani idrok etishni rivojlantirish;

2. Musiqani eshitish qobiliyatini va ijrochilik malakalarini shakllantirish;

3. Musiqa vositalari orqali o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish;

Musiqa san’atini turli xil yo‘llar bilan o‘rganib borish mumkin, masalan musiqa sirlari haqida suhbatlashish va ularning sadolari bilan zavqlanish mumkin. Bundan tashqari dars jarayonida buyuk kompozitorlar ijodi va ijrochilar ijodiyoti bilan tanishishimiz mumkin. Bunda hattoki eng yengil va sho‘x musiqaning qanchalik qiyinchilik bilan yaratilishining guvohi bo‘lishimiz mumkin va nihoyat birin-ketin nota savodi, qo‘shiq kuylashni, turli xil sozlarda chalishni o‘zlashtirish

mumkin shu orqali musiqa olamini tubdan o‘rgana boshlash nazarda tutiladi. Ijrochilik malakalarini shakllantirish uchun avvalo o‘quvchi musiqa haqidagi barcha bilimlarni tushunib, idrok eta olishi, u haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi, musiqaning ifoda vositalarini, badiiy bezaklari haqidagi, notalarning ijro etish malakalarini puxta egallagan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-112.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. –464 b.

3. N.V.Vetlugina. Ashula o‘qitish metodikasi. M.1963 y

4. Xoliqov A Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma 2010y 7 bet

5. Karimova D, Xonazarova R. O‘quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda «musiqa madaniyati» fani oldida turgan dolzarb masalalar. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2018. № 7. –b. 32

6. www.wikipedia.com

ABDURAUF FITRATNING IJODI O‘ZBEK KLASSIK MUSIQASIGA QOSHGAN HISSASI

U.G‘.SOBIROV

Buxoro davalat pedagogika instituti o‘qituvchisi

A.H.KARIMOVA

Buxoro davlat pedagigika instituti 2-kurs talabasi

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada Buxoro jadid ma’rifatparvarlaridan biri, o‘zbekning birinchi professori Aburauf Fitratning musiqa sohasidagi ilmiy izlanishlari, milliy musiqa madaniyati, o‘zbek musiqa san’atining tarixi haqida fikr mulohazalari hamda musiqa sohasiga qo‘shgan hissalari bayon etilgan. Shunindek, buyuk Abdurauf Fitratning milliy musiqachiligimizning yoshlar ongida nechog‘lik tarbiyaviy ahamyati to‘g‘risidagi fikrlari ham keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar**: musiqa, madaniyat, klassik, maqom, musiqashunoslik.*

Ayni mana shu jadidchilik davrida ham mutaffakir, olimlarimizdan biri bo‘lgan Abdurauf Fitrat yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, siyosatshunos bolsa-da shu bilan birga musiqa san’ati bilan ham mashg‘ul bo‘lgan o‘sha davrda ham musiqa san’atining amaliy va nazariy qismlari to‘g‘risida buyuk asarlar ijod qilinganki bu asarlar hozirgi davrda ham jahon musiqa ta’limi – tarbiyasida va madaniyatida olamshumul ahamyat kasb etib kelinmoqda. Buyuk sharq mutaffakirlarining yozishicha inson jamiyatda yashab kamol topadi. Uning baxt saodati, xulq-atvori, ma’naviy qiyofasi shu jamiyat quchog‘ida shakllanadi. Shuning uchun oiladagi ijobiy muhit ijtimoiy hayot oqimidagi bir yo‘nalish deb qarash lozim.

Musiqa bu - qadimgi yunoncha “muzalar san’ati”-inson hissiy kechinmalari, fikrlar, tasavvus doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks etuvchi san’at turi. Musiqa insonning turli kayfiyatlarini (masalan, ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amxo‘rlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Xalq og‘ir kunlarda musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo‘shiq va musiqa ularga hamroh bo‘lgan. Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o‘zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma’naviyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an’anaviy qo‘shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamyat kasb etadi. An’anaviy musiqa odamlarni hamisha iymonga, mehr oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda mana shu dolzarblikni yo‘qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo‘lida barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo‘lib qolaveradi. Ayniqsa, xalqimizning an’anaviy ruhdagi qo‘shiqlari o‘lmas meros bo‘lib, barcha davrlardagidek bugun ham o‘z o‘rnini saqlab kelmoqda. Musiqa odamning ongi va hissiyotiga ta’sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlariga hamohang bo‘lgan protsessual-muayyan jarayonli tabiat bilan bog‘liq. Musiqiy madaniyatdan

bahramand bo‘lish inson tarbiyasining ajralmas qismidir. Chunki musiqaviy tarbiya insonni qalban pok va go‘zal sog‘lom fikrli, badiiy didli hamda fikrlash qobilyatini o‘tkir qilib o‘stiradi, shu bilan nafosat olamiga chorlaydi. Ulkan tarbiyaviy ahamyatga ega bo‘lgan o‘zbek xalq musiqa merosining zarchashmalari tarixan olis zamonlardan bog‘lanib ijtimoiy hayot bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Musiqiy madaniyat o‘zining serqirraligi bilan ajralib turadi.Ayniqsa, o‘zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o‘zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham ketgani yo‘q. U xalq ijodining yuksak namunalari, kuy tuzulishi folklor ijrochiligi, mazmunan rivojlangan cholg‘u va ashula asarlari ,murakkab ijrochilik turkum atalmish maqom musiqasi hamda dostonlar ijrochiligini o‘z ichiga oladi.

XIX asrda Rossiya tomonidan Turkistonning istilo qilinishi ikki tomonlama qarashlarga olib keldi. Chunki ba’zi hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta’sirni kuzatsak, ikkinchi tomondan o‘ziga xos rivojlanish davri bo‘lganligini ham e’tirof etish zarur bo‘ladi. Bu sohadagi rivojlanishda ma’rifatparvarlarimizdan biri bo‘lgan Abdurauf Fitratning ham o‘rni beqiyosdir. Abdurauf Fitratning musiqa madaniyati sohasidagi say harakatlarning mutassil davomi sifatida bir tarixiy voqeani misol qilib olishimiz mumkin. U ham bo‘lsa rus etnograf va musiqashunosi V.Uspenskiy Shashmaqomni ilk bor zamonaviy notaga olish uchun Buxoroga taklif etildi. Abdurauf Fitrat homiyligi va V.Uspenkiyning zahmatli mehnati samarasi sifatida 1924-yilda “Shashmaqom’’(“shest muzikalniz poem”) (“Olti musiqiy doston’’) nomi ostida Moskvada nashr etildi. Abdurauf Fitrat adab, ilm-fan va marifat peshvosi o‘rnida o‘zining serqirra ijodi orqali tariximizda chuqur iz qoldirgan ulkan shaxs. “Ozbek musiqa to‘g‘risida’’ maqolalari va “Ozbek klassik musiqasi ham uning tarixi’’ risolasi bilan XX asr o‘zbek musiqashunoslik fanini boshlab beradi. Abdurauf Fitratning musiqashunoslikka kirib kelishi Abdurauf Fitratning ilm yo‘lida qilayotgan ishlari Buxoro Kompartiyasi tomonidan qoralandi va ushbu qarorga muvofiq Buxoro hukumati tarkibida Fitratning chiqishi barcha lavozimlardan chetlatilishi va uning Buxorodan haydalishi Abdurauf Fitratning siyosiy faoliyatiga qaysidir ma’noda

yakun topdi. Shundan so‘ng Abdurauf Fitrat o‘zini ilmiy hamda o‘qituvchilik faoliyatiga bag‘ishladi. Moskvaga ketgach Lazerov nomidagi “Sharqshunoslik Instituti”, 20-yillarida esa Toshkentga ko‘chib keladi. Samarqandda Pedagogika Institutida ishlaydi.Ayna o‘sha davrda Abdurauf Fitratning o‘zbek musiqa san’ati sohasidagi ishlari Samarqandda milliy musiqa san’atini rivojlantirish va uni ommalashtirish bo‘yicha faol ishlarni amalga oshiradi. Abdurauf Fitratning tashabbusida o‘tkazilgan Musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilgan bo‘lib unga birinchi marta N.N.Mironov rahbarlik qiladi. Institut bitiruvchilaridan biri bo‘lgan M.Burxonov Abdurauf Fitratning institutidagi o‘qish, imtihonlarida qatnashganini iliq xotira sifatida eslaydi. 1927-yilda Abdurauf Fitratning musiqaga oid yagona yirik tadqiqoti bo‘lmish “Ozbek klassik musiqasi va uning tarixi’’arab yozuvida kitobni o‘zbek tilida, o‘z nihoyasiga yetkazadi. Ushbu kitobda o‘zbek musiqasiga bo‘lgan ehtiyoj uning qadr qimmati va uni millatning qadryati sifatida qadrlash zarurati, o‘zbek milliy musiqasining kelib chiqishi haqida, madaniyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Eng avvalo shuni ta’kidlash joizki, ulug‘ marifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat o‘zining musiqa to‘g‘risida maqolalari hamda “Ozbek klassik musiqasi va uning tarixi’’nomli risolasi nomi bilan XX asr o‘zbek musiqashunosligining tamal toshini qo‘yishga intildi. Ma’lumki bizda o‘zbek adabiyot va musiqiy merosiga nisbatan ilk marotaba “klassik’’ tushunchasini Abdurauf Fitrat ozining “Adabiyot Qoidalari” asarida kiritadi. “Klassik” darajasini ta’kidlash uchun Abdurauf Fitrat avvalo, “Adabiyot qoidalari’’ risolasida “sanat’’ tushunchasiga umumiy tarif beradi. *“Sanat” lug‘atda hunar demakdirkim, bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir’’*[11].

Abdurauf Fitrat nazdida san’at deyilganda avvalo, biror bir ezgu maqsadga xizmat qiladigan hunar-ishdir. Ammo, tanbur yoki dutor cholg‘usini yasash san’ati bilan tanburda muayyan bir kuyni masalan, “*Iroq”ni ijro etish sanati doirasida o‘ziga xos farq borligini ham ta’kidlaydi. Binobarin, tanbur cholg‘uning san’at*

[11] Tanlangan asarlar: Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar /Abdurauf Fitrat; Mas’ul muharrir B. Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. — T.: «Ma’naviyat», 2009. — 11b.

sifatidagi yaxshiligi biror ishga yaraganligi bo‘lsa, Iroq kuyining yaxshiligi uning insonga ma’naviy ta’sir etish hamda inson ongini to‘lqinlashtirishidir[12], deb xulosa qiladi. Abdurauf Fitrat o‘z risolasida bugunki kun uchun muhim ahamyat kasb etadigan “el kuylari’’, “el ashulalari’’, “olti qator kuylari” yoki etnograf, kompazitor V.Uspenskiyga nisbatan “ozod sanatkor’’ kabi iboralarni qo‘llaganligi ham qiziqarlidir.

Keyingi eng muhim nuqtalardan biri Abdurauf Fitrat tomonidan bot bot takrorlangan Shashmaqom bayrog‘i ostiga kirmagan el kuylari xususida bo‘lib ,xalq og‘zaki ijodi namunalariga “yopiq tizim” I o‘lchovida bo‘lgan holda ‘’el kuylari’’ yoki ‘’termalari’’ ekanligi va bu xususida tegishli nazariy ma’lumotlar yo‘q deya aytib o‘tgan.1925-yilda I.G‘.Zafariy va M.Yunus (Elbek)larning ‘’El ashulalari’’to‘plam nashrida o‘z aksini topgan.’’Yallama Yorim’’,’’Dog‘imga yet’’,’’Gulyor’’, “Alla”, “Aliyor Alla”, “Omon Omon”, “Yor yor’’kabi namunalarni sanab o‘tadi va ularning misralaridagi eng jonli,ko‘p qo‘llanadigan so‘zlardan asarning nomi kelib chiqishini ta’kidlash bilan chegaralanadi.Eng muhim jihati Abdurauf Fitrat mazkur el kuylarimizni tekshirish, ohanglarini buzmasdan notaga solish lozimligini hayajon bilan ta’kidlaydi. Abdurauf Fitrat 1928- yilda shu davrda O‘zbekistonning poytaxti bolib turgan Samarqand shahrida nafaqat musiqa va raqs institutini oyoqqa qo‘yishda faol ishtirok etdi, balki g‘oyaviy ermakdosh o‘rnida ulkan jonbozlik ko‘rsatganligini alohida e’tirof etish joiz. Abdurauf Fitrat ayni adabiyot va nazariy asarlari ham juda mashhur hisoblanadi. Abdurauf Fitrat zullisonayn adib, shoir hisoblanadi. Istanbuldagi to‘rt yillik ta’limi davomida faqat forsiy tilda ijod qilgan. Ko‘p o‘tmay u drammaturgiya va prozada ham sinab ko‘rdi. U “Munozara’’(dastlabki nomi “Hindistonda bir farangi ila Buxorolik bir mudarrising bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi’’) asarini Turkiyaga borishdan oldin 1905-1907- yillarda yaratgan. “Sayha”, “Chorlov”, “Nara” fors tilida yozadi. “Munozara” va “Sayha” asarlari XX asr boshlarida Turkistondagi milliy uyg‘onish harakatining norasmiy

[12] Tanlangan asarlar: Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar /Abdurauf Fitrat; Mas’ul muharrir B. Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. — T.: «Ma’naviyat», 2009. — 12 b.

dasturi bolib xizmat qilgan va yoshlar dunyoqarashining keskin o‘zgarishi va ularning jadidlar safiga kelib qo‘shilishiga sabab bo‘lgan. Keyinchalik bu asarlar orqali Abdurauf Fitratni millatchilikda ayblashgan.

Abdurauf Fitrat xususan ashulaga tarif berar ekan *“Kuy ohang bilan o‘qiladigan she’rlar, tizimlarga ashula deyiladi. Ashula ko‘proq milliy (barmoq) vaznda bo‘ladir”*[13] deyilgan ta’rif fikrimizcha bugungi kun musiqashunosligi uchun juda ahamyatli.

1993-yilda “O‘zbek klassik musiqa va uning tarixi” kitobining krill xatidagi nashri yangi izohlar bilan chop etiladi. Ushbu risoladagi mavzularni o‘rganib chiqib shuni aytish mumkinki “Abdurauf Fitrat musiqa ilmiga, eng avvalo, nazariy tomondan yondashgan va o‘tmish allomalariga payravlik qilib, ularning musiqiy risolalarini chuqur o‘rganish yo‘li bilan tegishli xulosalar chiqarishga intilgan alloma sifatida maydonga chiqadi. Shunga ko‘ra uning yaxshiligini afzalligini go‘zallik deb ataydi va bu kabi san’atlarni umuman go‘zal san’atlar deyilishini ta’kidlaydi: - “yurak, fikr, tuyg‘u to‘lqinlarini so‘z, bo‘yov (rang boyo‘q) shakl, harf, harakat kabi tovar (material)lar yordami bilan jonlantira chiqib, boshqalarda ham shu to‘lqinni yaratmoq hunariga –go‘zal san’atlar deydilar” deb ta’rif berdi.

Ular jami oltita:

1.Musiqiy,

2.Rasm,

3. Haykalchilik,

4. Me’morchilik,

5. O‘yun,

6. Adabiyot.

Keskin siyosiy o‘zgarishlar natijasida vujudga kelgan Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasi milliy merosning qonunyatlari jo bo‘lgan, o‘tmish va yangicha zamon mafkuralari mujassamlashgan ulkan tadqiqot namunasidir. U o‘zbek musiqasining yorqin shakli –Shashmaqom timsolida

[13] A.Fitrat “O‘zbek klassik musiqa va uning tarixi” T.:“Fan” nashriyoti 1994y-56 b.

mintaqamiz musiqiy salohiyatini o‘rganish borasidagi yangi o‘zbek musiqashunosligining debochasi sifatida benazir ma’naviy boylik hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. A.Fitrat “Adabiyot qoidalari” Nashrga tayyorlovchi H.Boltayev

2. A.Fitratning “O‘zek klassik musiqasi va uning tarixi” T.’’Fan’’ nashriyoti 1996- yil 56- b.

3. “Musiqa madaniyati va uning hayotdagi o‘rni” https://cyberleninka.ru

4. http://interscience.uz

O‘ZBEKISTON MUSIQA SAN’ATI TARIXIDA SAMARQAND MUSIQIY MAKTABINING O‘RNI

Rahmatov Ahmat.

Turon FA faxriy dotsenti

Moziyga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Sharq xalqlari san’ati tarixi ming-ming yillik solnomani tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin. Shu jumladan, o‘zbek mumtoz musiqasi qadim-qadim zamonlardan insonlar qalbini zabt etib kelgan. Ulug‘ va azim shahar – Samarqand esa Sharq sivilizatsiyasining beshigi sifatida musiqa va qo‘shiqchilik san’ati rivojida muhim o‘rinni egallab kelgan.

Samarqandda tarixan katta musiqa va qo‘shiqchilik maktabi shakllangan. Ajdodlarimiz tomonidan bu san’atning sir asrorlari asrlar mobaynida asrab-avaylab xalqimizga yetkazib kelingan. Ushbu an’analar bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

Tarixiy manbalar va adabiyotlardagi ma’lumotlarda aytilishicha, qadimgi Xorazm Baqtriya va Sug‘diyona hududlarida bir necha ming yillar avval benihoya boy musiqa san’ati rivoj topgan. Vatanimizning Ayritom, Tuproqqal’a, Ichanqal’alarining, Afrosiyob singari qadimiy shaharlarining qoldiqlaridan topilgan san’at obidalariga ajdodlarimizning musiqa hayoti tasvirlanganligi bunga dalildir.

O‘rta asrning buyuk allomasi sharqda “Shayx ur-rais”, G‘arbda esa “Avitsenna” nomlari bilan shuhrat topgan Abu Ali ibn Sino o‘z asarida: “Inson

ovozi paydo bo‘lishi bilan musiqa ham paydo bo‘lgan”, deb yozadi . Arxeolog olimlarimiz So‘g‘diyona – Samarqand hududidan eng qadimgi musiqa asboblarini, ularning suratlarini topganlar. Akademik Ahmadali Asqarov Samar-qand viloyati Urgut tumanidagi Mo‘minobod qishlog‘i-dan Bronza davri (miloddan avvalgi III-ming yillik o‘r-talaridan II-ming yillik oxirlarigacha)ga oid yodgor-likni tekshirayotganida, bu yerda suyakdan yasalgan nayni topadi. Tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, bu noyob nay 3 ming 300 yillar avval yasalgan ekan. Bu musiqa asbobi Markaziy Osiyo hududidan topilgan eng qadimgi cholg‘u asboblaridan biri ekanligi bilan ham qadrlidir . Shu xildagi boshqa topilmalar esa Samarqandning qadimiy o‘rni bo‘lgan Afrosiyobdan topilgan miloddan avvalgi I asrlarga oid bir nechta ud chalayotgan ayol ter-rakota – haykalchalaridir. Milodiy VII asrda So‘g‘diyo-naning markazi Samarqandga tashrif buyurgan budda di-nining roxibi o‘z xotiralarida: “Bu shaharning xalqi, kuy-qo‘shiq va sayllarni sevadi, ularning har xil mu-siqa asboblari bordir” deb yozgan edi.

Haqiqatdan ham Samarqandning qadimiy o‘rni Af-rosiyobda arxeologlarimizning olib borgan ilmiy tad-qiqotlari yuqoridagi tarixiy ma’lumotlarni to‘liq tasdiqladi. Bu makondan arxeologlar tomonidan loydan yasalgan qo‘plab haykalchalarning namunalari topildi. Bu topilmalar orasida ayniqsa surnay, nog‘ora, arfa, ud, chalayotgan haykalchalar diqqatga sazovor. Milodiy I-VIII asrlarda qadimiy haykaltaroshlar tomonidan yara-tilgan bu ajoyib san’at namunalari So‘g‘diyona-Samar-qandning musiqa san’ati xaqida jahon ahliga keng ta-savvur beradi. Yuqorida aytganimiz Urgut tumanidagi Jartepa qishlog‘idan topilgan musiqa san’atimizga oid noyob ashyoviy dalillar haqida taniqli olim Am-riddin Berdimurodov shunday deydi: “Biz bu yerda V- VIII asrlarga oid otashparastlar ibodatxonasini tek-shirmoqdamiz. Qazish jarayonida ibodatxona devorlari-da arfa chalayotgan sozandaning suratini topishga erish-dik. Ko‘pchilik uchun bu ajablanarli tuyulishi mumkin, negaki arfa xalqimizning tasavvurida Yevropa xalqla-rining cholg‘u asbobi sifatida shakllangandir. Yuqori-dagi misoldan ko‘rinib turibdiki, asfani dastlab biz-ning ajdodlarimiz kashf qilgan, so‘ngra bu cholg‘u as-bobi Yevropaga tarqalib ketgan.

Tarixdan ma’lumki bobolarimiz So‘g‘diylar ming yildan ortiqroq vaqt mobaynida Buyuk Ipak yo‘lida sarbonlikni o‘z qo‘llarida saqlab kelishgan. Bu yo‘l orqali So‘g‘diylarning turli savdo maxsulotlari va shu bilan birga musiqa madaniyati ham Sharqiy Turkiston, Xitoy, Koreya va Yaponiyagacha yetib borgan. VIII asrda Movarounnahrni arablar tomonidan istilo qilinishi bu o‘lka xalqlarining asrlar davomida yaratilgan mada-niyatiga va ayniqsa musiqa san’atiga ham qattiq zarba berdi. Arab istilochilari So‘g‘diylarning yozuvi tilini va dinini yo‘q qilishni uddasidan chiqqan bo‘lsalarda, xalq ichida keng tarqalgan musiqa va qo‘shiqchilik san’-atini yo‘qota olmadi. IX-XI asrlardagi renesans davri-da movarounnaxrda fan va madaniyat gurkirab rivojlan-di. Bu davrda Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Al-Xorazmiy kabi buyuk mutafak-kirlar musiqa sohasiga doir ilmiy asarlar ham yarat-ganlar. “Muallimus-Soniy” (ikkinchi muallim nomi bilan shuhrat topgan Abu Nasr Farobiy “Kitob al-mu-siqi al-kabir” musiqa haqida (katta kitob) deb nomlan-gan asarida tovushlarning xarakteriga ko‘ra, musiqa as-boblari xilma-xil ahamiyatga egaligini ko‘rsatib o‘tadi. Uning takidlashicha janglarga mo‘ljallangan cholg‘u as-boblari mavjud, ularning ovozlvri baland va keskin, karnay va nog‘ora ziyofat va raqslar uchun, surnay, chang, doira, ud cholg‘u asboblari xizmat qilishini yozadi. Bu cholg‘u asboblari ichida udning alohida o‘rni bor. XII asrda yashagan saroy xonandasi va changchisi Darveshali Changiy o‘zining “Risolai musiqiy” asarida udni barcha musiqa asboblarining podshosi deb baho bergan edi. Farobiy gamma va intervallarni hisoblashda ud asbo-bidan foydalangan. IX-XIII asrlarda musiqa san’ati ahillarining ijodiy faoliyati ma’suli sifatida 12-maqom vujudga keladi. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa san’ati taraqqiyotida yangi bosqich paydo bo‘ladi. Bu davrda yangi kuy va qo‘shiqlar cholg‘u asboblari va musiqa nazariyasiga oid asarlar yara-tiladi. Ko‘plab mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar yetishib chiqdi.

Amir Temur va Temuriylar davrini mubolag‘asiz na-faqat o‘zbek xalqining, balki butun yaqin va O‘rta Sharq ellarining musiqa san’atlari jadal ravnaq topgan, ka-molot cho‘qqisiga erishgan chinakkam uyg‘onish davri bo‘l-gan deyish

mumkin. Temuriylar sulolasining deyarli 5 asrlik hukmronligi mobaynida xonanda va sozandalar rasmiy diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilarga aylanib xalq tomoshalari, om-maviy bayramlar ularsiz o‘tmas edi. “Amr qildimki, -deb yozadi Amir Temur o‘z “tuzuklar”ida, - qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarla-rini yengsa, uni 3 narsa bilan mumtoz qilsinlar: faxr-li xitob, to‘g‘ va nog‘ora berib uni bahodir deb atasin-lar”.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur davrida ilm-fan, adabiyot va san’at, hunarmadlik va me’morchilik ravnaq topdi... Buning uchun movaraunnaxrning hamma joylari-dan tobe mamlakatlardan juda ko‘p fan va san’at ahil-larini me’mor va musavvirlarni poytaxtga to‘pladi. 1404-1406 yillarda Samarqandda bo‘lgan Ispaniya elchi-si Gonzales De Klavixo bu haqida o‘z kundaliklarida Samarqandning benihoya obodligini, aholisi beqiyos ko‘p va gavjumligini Samarqandda yerli xalqdan tashqa-ri turli qavm va turli masxabdagi kishilar istiqomat qilishini, Amir Temur tomonidan turli mamlakatlar-dan 100 mingga yaqin olimlar hunarmandlar, me’morlar, san’atkorlar Samarqandga keltirilganligini hikoya qiladi .

Temur g‘oyasi bo‘yicha yaqin va o‘rta sharqdan to‘plangan sohibi hunarlar, san’atkorlar hisobiga Movarounnaxr xalqlarining mavjud badiiy ijodi yanada yuksalishi, Samarqand esa o‘rta va yaqin Sharq ijodiy kuchlarining markazga aylanishi – bularning hammasi madaniyat va san’atda yangi yo‘nalishlarni vujudga keltirishi kerak edi. Amir Temur ilm-fan va san’at namoyandalarini o‘z himoyasiga oladi. Ma’lum sharoitlar yaratadi. Ularning tirikchiligi, ijodiy faoliyatlari davlat hisobiga oli-nadi, bu haqida Tumur tuzuklarida “...o‘ninchi toifa hu-nar, san’at egalaridir, ularni davlatxonaga keltirib o‘rdadan o‘rinlar belgiladim” deb yozilgan. Bu haqiqat edi. Amir Temur sa’y-harakatlari tufayli 14 asr o‘rta-lari 15 asr boshida Samarqandda astranomiya, tibbiyot, rioziyot, falsafa, tarix kabi fanlar me’morchilik, ada-biyot, san’at, xattotlik va musiqa san’ati gurkirab o‘s-di. Ko‘p olimlar, san’atkorlar yetishib chiqdi .

Amir Temur va nabirasi Mirzo Ulug‘beklar Samarqandga mu-siqa san’atining yetuk namoyondalarini olib kelib ularga yuqori maoshlar tayinlab musiqa san’atini yana-da yuksalishiga xizmat qildilar.

Temuriylar davrida mumtoz musiqamiz taraqiyotiga Xo‘ja Abduqodir Marog‘iy, Husayn Udiy, Shoxquli G‘ijjakiy, Xofiz Changiy, Darvesh Ahmad Qonuniy, Mavlon Pirmuhammad va boshqalar katta hissa qo‘sh-ganlar. Ular bilan bir qatorda Mirzo Ulug‘bek, Ali-sher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlar ham musiqa san’ati bilan shug‘ullanib uning rivojiga ma’lum hissa qo‘shganlar. Mirzo Ulug‘bek “Bulujiy”, “Shodiyona”, “Axloqiy”, “Tabriziy”, “Usuli Ravon va Usuli Otliq”, Alisher Navoiy “Isfahoniy” kuylarini yaratgan. Abduraxmon Jomiy musiqa nazariyasiga oid asar yaratgan .

XVIII asr oxirlariga kelib Buxoroda 6 maqomdan iborat Shashmaqom shakllanadi. U “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” maqomlaridan iborat bo‘lib, 250 dan ortiq turli xil kuy va ashula namuna-laridan tashkil topgan. Maqom ashulalarining she’riy matnlari uchun Ro‘dakiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Be-dil, Bobur, Nodira singari turkiy va forsiy tilli mumtoz shoirlarning g‘azallaridan foydalanilgan. Shashmaqom o‘zbek musiqa san’atining gultoji bo‘lib avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘zbek milliy qo‘-shiqchiligi asosan to‘rt yo‘nalishda Xorazm, Samarqand-Buxoro, Toshkent-Farg‘ona, Qashqadaryo-Surxandaryo yo‘-nalishlarida rivojlangan. Bu davrda xalqimiz orasi-dan o‘zbek musiqa va qo‘shiqchilik san’atini dunyoga ta-nitgan mashhur hofizlar yetishib chiqdilar. Ulardan bi-ri Samarqandlik mashhur hofiz Hoji Abdulaziz Ab-durasulovdir. Bu hofiz Eron, Avg‘oniston, Arabis-ton, Iroq, Hindiston va Yunonistonda o‘z ijrochilik san’ati bilan tanilgan edi. Benazir san’atkorning ijrochilik maktabi Samarqandda yaratildi, shakllandi va umummillatning bebaho mulkiga aylandi. Mashhur hofizning Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Tolib-jon Sodiqov, Imomjon Ikromov, Mo‘tal Burxonov, Do-ni Zokirov, Manas Leviev, Sulaymon Yudakov, Nabijon Hasanov, Qori Siroj Yusupov, Sharifjon Akramov singari iste’dodli shogirdlari musiqa san’atining rivojiga katta hissa qo‘shdilarki bu

ustozu-shogirdlik ananalari bugungi kunda ham davom etib kelayotir . Ular safida Abuhoshim Ismoilov kabi iste’dodli bas-takorlar, Mustafo Vafoev kabi kompozitorlar o‘zbek musiqa san’atini yuqori pog‘onalarga ko‘tarishda beqiyos hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Badirov. M. Kiyamov. R. Xoliqulov. “Samarqanddan taralgay jahonga sharq taronalari”. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot san’at nashriyoti. Navruz. T.2013.
2. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at.T.;1996.
3. Sharipov A. “Hofiz yurgan yo‘llarda”. S.Zarafshon 1995.
4. A.Murodov. A.Rahmatov. Samarqand bulbuli. “Fan ziyosi” nash., T.2023.

IV SHO‘BA
UMUMTA’LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSLARI, MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI MUSIQA MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA MILLIY G‘OYA TARG‘IBOTI.

MUSIQA DARSLARINI O‘TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO‘RISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA SAMARADORLIKKA ERISHISH YO‘LLARI.

G.M.Davronova

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Musiqa ta’limi kafedrasi v/b dotsenti. p.f.f.d. (Phd)

Musiqa ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi: Rahmatova F.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, musiqa darslarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishda innovatsion yondashuvlarning musiqa ta’lim-tarbiyasining samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyati yoritilgan. O‘qituvchining dars o‘tishga tayyorgarlik ko‘rishda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan muhim jihatlar, muoammo va yechimlari xususida to‘xtalib o‘tilgan, hamda, taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion yondashuv, dars, musiqa darsi, dars berish, individuallashtirish, kontseptsiyasi, didaktik, sifat, tayyorgarlik, pedagogik texnologiya.*

Umumta’lim maktablarida musiqa darsi, maktab o‘quvchilariga musiqiy ta'limi va tarbiya berish orqali estetik tarbiyalash va musiqa madaniyatini shakllantirishning asosiy shaklidir. Musiqa darsi va mashg’ulotlarini o‘tkazish o‘qituvchidan alohida tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi. Musiqa darsining bir soatlik ta’limiy loyihasini ishlab chiqish, o‘ziga xos faoliyat turlari asosida tashkil etish musiqa darsining muhim jihatidir. Maktabdagi musiqa darsi - bu maktab o‘quvchilarini yaxlit ta'lim jarayonida musiqiy tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha

ishning ma'no-mazmuni, tashkiliy jihatdan yakunlangan muayyan shakli hisboblanadi. Bunda eng muhimi, - innovatsion yondashuvlar asosida darslarga tayyorgarlik ko‘rish hisoblanadi.

Dars - butun o‘quv-tarbiyaviy jarayonning negizi bo‘lib, u o‘quv rejasi va fan dasturiga tayangan holda, ma’lum pedagogik-psixologik talablar hamda belgilangan me’yorlar asosida tashkil etiladi. Dars- ta’lim muassasalarida ilm, ma’lumot berish maqsadida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlari, saboq. [6.]

Musiqa o‘qituvchisi musiqa darslarini o‘tkazishga tayyogarlik ko‘rishda yodda tutishimiz kerakki, dars loyihasi nafaqat dastur materiallarga va o‘qituvchi oldida turgan pedagogik-psixoligik vazifaga, balki dastur tomonidan tavsiya etilgan materialning faoliyat turlari asosida o‘zlashtiriladigan vaqtiga ham bog'liq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, musiqa tinglash, jamoa bo‘lib kuylash, musiqa savodxonligiga tegishli bo‘lishi ham mumkin. Darsga tayyorgarlik ko‘rish birinchidan, darsni loyihasini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi;

Ikkinchidan, o‘qituvchining o‘tgan dars mavzusini so‘rab baholashni, darsga yaxshi tayyorlangan o‘quvchilarni munosib rag‘batlantirishni, baholashni, past o‘zlashtirganlar bilan alohida shug‘ullanishni, demak, o‘tiladigan dars mavzusini tahliliy xulosalashga oldindan tayyorlanishni o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, yangi mavzu bo‘yicha nazariy va amaliy tayyorlanish, o‘quvchilarga singdiriladigan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar hajmini aniqlash, vaqtni belgilash, ijro dasturi hajmini aniqlashtirish va uning ijro etilishi bilan bog‘liq barcha musiqiy ijro xususiyatlarini ko‘z oldiga keltirgan holda o‘quvchilar bilan tashkillashtiriladigan bilimlarni singdirish mexanizmlarini rejalashtirib olinishi lozim.

To‘rtinchidan, pedagogik muloqotga tayyorlanish, ya’ni, sinfdagi o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini ko‘z oldiga keltirgan holda amalga oshiriladigan pedagogik muloqotni taxminiy rejalashtirishni o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchi musiqa ta’lim tarbiyasini o‘quvchi taqdirida hayotning bir qismi sifatida qabul qilishi juda muhim, chunki, bugungi kunda musiqa o‘qituvchisi

uchun muhim, qiziq bo‘lmagan narsa o‘quvchilar uchun ham deyarli ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Darslarga tayyorgarlik ko‘rayotganda, diqqatni o‘zingizga qaratishingiz kerak. Darsning kontseptsiyasi[14] hayotni hozirgi idrok etish nuqtai nazaridan shaxsan sizni qiziqtirsa yaxshi bo‘ladi. Siz o‘rgatayotgan bilimlar, ko‘nikmalar aytaylik: musiqa asri, musiqaning nazariy qismi, asar tahlili (musiqiy va pedagogik tahlili) ning mazmuni: birinchidan siz va o‘quvchilar uchun qiziq ekanligi, hayotiy ahamiyati, zarurati; ikkinchidan: ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadga egaligi va hakozo. O‘quvchilarga o‘rgatilayotgan ma’lumottni dastlab siz o‘zingiz chuqur bilishingiz, qiziqishingiz, ahamiyatini anglashingiz kerak. Dars mazmunli, maqdsadli, qiziqarli, yangiliklarga boy, bugungi kun o‘quvchilarini diqqatini tortib, jamlab, mavzuni, musiqa asarini qabul qilishga undasa, unda darsdan ko‘zlangan maqsadga erishish bilan bog’liq muammolar bo‘lmaydi.

Darslarga tayyorgarlik ko‘rishida o‘qituvchining ijodiy niyati, birinchi navbatda, asarni tinglatish va anglatish, qo‘shiqni o‘rgatish, o‘quvchilarning, musiqiy savodi, musiqiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslarini tanlashda amalga oshiriladi.

Darsga tayyorgarlik ko‘rish kontseptsiyasining keyingi bosqichida - bu dars kim uchun tayyorlanayotgani, qaysi sinflarda dars borishi bilan bog’liq. Bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qabul qilish darajasi ham hisobga olinishi lozim.

Musiqa darslarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish musiqa o‘qituvchilariga alohida mas’uliyat yuklashini his qilishi lozim. Musiqa darslariga tayyorgarlik ko‘rish quydagi tamoyillar asosida tashkil qilinishi maqsadga muvofiq:

- Musiqa darslariga tayyorgarlik ko‘rish ta’lim samaradorligini oshrishning muhim sharti sifatida:

- Umumta’lim maktablarda musiqa darslari yillik ish rejasi asosida tashkil qilinishi;

[14] Konsepsiya (lot. conceptio — majmua, tizim) — 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar;

- Mukammal dars loyihasini ishlab chiqish;
- O‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- Har bir darsni faoliyat turlari asosida tashkil etish;
- Har bir darsning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlariga erishish;
- Zamonaviy dars talablariga amal qilish;
- Samarali innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlash va qo‘llash, metodlar, tamoyillarga rioya qilish. [2-66 b.]

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda fanlarni o‘zlashtirishda mustaqil darslarga tayyorgarlik ko‘rish ehtiyoji, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, kelgusi faoliyatlarda ham o‘zining ijobiy natijalarini beradi. Talabalarni dars o‘tishning, dars o‘tishga tayyorgarlik ko‘rishning mas’uliyatliligi, afzalliklari va muhim jihatlarini anglab yetishi, kelgusi kasbiy faoliyatlarida musiqa darslarini mazmunli tashkil etishda muhim ko‘nikma va malaka bo‘lib xizmat qiladi.

Darslarni mustaqil bajarishga talabalarni amaliy tayyorlashda to‘rt bosqichni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) izlanish – dasturda berilgan mavzuni o‘quvchilarga yetkazib berish uchun metod, vosita, pedagogik texnikalarni topish, tanlash va qo‘llash, o‘z ustida ishlash, natijada tayyorgarlikning talab darajasi bo‘ladi;

2) tayyorgarlik - manbalar bilan ishlash, tematik faktlar va ma'lumotlarni tanlash, suhbat va materiallarni ko‘rib chiqish, ushbu bosqichning natijasi vazifani bajarish darajasi bo‘ladi;

3) asosiy qism – barcha o‘zlashtirilgan, tajribada sinalgan nazariy va amaliy bilimlardan mustaqil foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, takomillashtirish, o‘rganishning soddadan murakkabga borishi, musiqa ta’lim-tarbiyasi imkoniyatlarini bilish, oldindan olingan bilim, ko‘nikma va malakalardan samarali foydalanish;

4) yakuniy - ish natijalarini muhokama qilish, maqsadga erishish kafolati, qiziqarli dars loyihasi imkoniyati to‘g'risida xulosani shakllantirish. [4-28 b.]

Musiqa darslarini sifatsiz tashkil etilishining quydagi omillari mavjud:

- Dars o‘tishga tayyorgarlik ko‘rmaslik, turli sababga ko‘ra; (Musiqa darsi o‘ziga xos tashkil etilishini hisobga olib, darsga tayyorgarliksiz o‘tish mumkin emas.)

- Dars loyihasi, dars ishlanmasi yo‘qligi, darsning optimal rejasi tuzulmaganligi vaqt taqsimotini buzulishiga sabab bo‘ladi.

- Dars mavzusini yoritishda, musiqa asarini o‘rgatishda noto‘g’ri metod va pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

- Musiqa asarlarini musiqiy va pedagogi tahlil qilmaslik, ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qiladi.

- Darsda faqat nazariy bilimlarga yoki amaliy malakaga tayanib qolish;

- Darsda faqat erkin mavzuda qo‘shiq kuylash, o‘quvchilarning hohish istagiga qarab ish turish;

- Nomutaxassis o‘qituvchining dars o‘tishi;

Xulosa qilib aytganda, ta’lim oluvchilarning talabi ortib borayotgan hozirki kunda, darslarini tashkil etishga va o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish, o‘qituvchidan alohida mas’uliyat talab etadi. Bugungi kunda, musiqa darslarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishning ahamiyatini aniqlash va anglash, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, talabalik vaqtidan amaliy ko‘nikma va malaka hosil qilish lozimligini ko‘rsatadi. Musiqa darslarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish, musiqa o‘qitish sifatini va samaradorligini oshirishda, ta’limiy maqsadga erishishda, kafolatlangan natijaga ega bo‘lishda, hamda, musiqa darslarining o‘ziga xosligiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. 2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-son Farmoni.

2. G.M.Davronova Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. O‘quv qo‘llanma 162 bet. Toshkent 2019 y.

3. G.Davronova “Musiqa o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. Samarqand 2021 yil 192 bet.

4. D. Karimova D. Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik T. 2012. 210 b.

KOMPOZITOR VA BASTAKORNING FARQI

S.Qodirjonova
ADPI Musiqa ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
F.Q.Maksumova
Ilmiy rahbar: ADPI “Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan “kompozitor” va “bastakor” atamasini farqlay olish tog‘risidagi fikr va mulohazala keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *kompozitor, bastakor, pedagogika, monodik.*

O‘zbekistonda madaniyat va san’atga bo‘lgan e’tibor tobora rivojlanib borilishiga keyingi yillarda ijobiy yondashilmoqda. Shunday islohotlardan biri, bu 2022-yil 2-fevraldagi O‘zbekistin Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar tog‘risida”gi PQ-112-son qarori shular jumlasidandir.[15] “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”[16] oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta’minlash asosidadir.

Bugungi kunda musiqa san’atida mavjud bo‘lgan “kompozitor” va “bastakor” atamasining asl ma’nosi musiqa lug‘atida aniq belgilab berilgan bo‘lsa-da, soha egalari tomonidan noto‘g‘ri targ‘ib qilinmoqda. Ularning farqi nimada? degan savol tug‘ilishi mumkin. Kompozitor (lot.Compositor-ijodkor) – musiqa asarini yaratuvchi ijodkor[17]. Ushbu atama XVI asrga kelib Italiyada keng tarqalgan. Kompozitor ma’lum bir mavzuni badiiy tasvirlaganidek, xalq ijodiyoti, ya’ni folklordan foydalanib, yoki shu folklor materialini o‘zgartirmagan holda, uni

[15] Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g ‘risidagi PQ-112-son.
[16] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
[17] Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati – Toshkent: G‘ofur-G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1987, 159b.

boyitib, badiiylashtirib beradi. “Bastakor ham musiqa yaratadiku?” degan bir fikr o‘rtaga tashlanadi. Bastakor[18] (fors-toj, basta-bog‘lov, kor-ish, mashg‘ulot) – monodik uslubida asar (asosan, qo‘shiq, ashula, cholg‘u kuy)lar yaratuvchi ijodkor. Odatda bunday san’atkorlar o‘z faoliyatida ijrochi (xonanda, ko‘proq sozanda)lik va ijodkorlikni uzviy bog‘lagan. Faoliyati davomida asosan bir ovozli asarlar yozadi.

Kompozitor va bastakorning bir-biridan farqi nimada? degan savolga soha mutaxassislari bilan olib borilgan suhbatlardan quyidagi fikrlar shakllandi.

Kompozitor bu – ko‘p ovozli asarlar muallifi bastakor esa bir ovozli (monodik) asarlar muallifidir. Bastakor bastalagan asarlarini notaga tushirish yoki tushirmasligi ixtiyorida. Sharq musiqasi notasi bilan Yevropa musiqasining notalari, tovushqatori 2 hil bo‘ladi. Yevropa musiqasida 12 ta yarim ton bitta oktavada joylashgan. Sharq musiqasida esa 1ta oktavaga 17 yoki 18 pog‘ona joylashadi. Sababi bastakor bu Sharq xalqlaridagina mavjud bo‘lgan mutaxassislikdir. Shu jihat bilan kompozitor, monodiya tizimida ijod etuvchi bastakorlardan farq qiladi. Afsuski, bugungi kunda ayrim bolalar musiqa va san’at maktablarida bastakor bu kompozitor atamasining o‘zbekcha ma’nosi deb singdirilmoqda. Pedagoglar o‘zlari bilmagan holatda ushbu xatolarga yo‘l qoyishi bevosita ko‘zga tashlanmoqda. Hattoki, bola kompozitor va bastakorlarga kimlar kirishini ham farqlay olmasligi achinarli ahvoldir.

Bastakorlik ijodiyoti O‘rta Sharqda XIV asr boshlarida chuqur ildiz ota boshlagan. Oradan vaqt otib XX asrda bastakorlik ijodiyoti yangilana boshlandi. Bularga: Ota Jalol Nosirov, To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Abduhoshim Ismoilov, Mansur Toshmatov va boshqa shu kabi bastakorlarni misol qilib olish mumkin. Farg‘ona-Toshkent hududining yorqin vakili To‘xtasin Jalilovning “To‘ylar muborak” qo‘shig‘isiz o‘zbek xonadonlarining to‘ylarini tasavvur qilish mumkin emas. Biz kichik izlanishimiz sabab, ushbu asarni notaga tushirdik.

[18] Akbarov I.A . Musiqa lug‘ati – Toshkent: G‘ ofur-G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1987,40b.

TO‘YLAR MUBORAK

Bastakor T.JALILOV

Nota oluvchi: S.QODIRJONOVA

Uning 200 dan oshiq kuy va qo‘shiqlari hozirgacha yangrab kelmoqda. To‘htasin Jalilov har qanday jozibali asarning yangicha variantini yaratishga eng mohir va usta bastakorlardan hisoblangan.

Kompozitorlarga esa: Yevropa kompozitorlaridan Iogan Sebastyan Bax, Yozef Gaydn, Volfgang Amadey Motsart, Lyudvig Van Betxoven, Friderik Shopen, Robert Shuman, Frans Shubertlarni aytish mumkin.

O‘zbek kompozitorlaridan Mutal Burxonov, Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, (ham bastakor ham kompozitor), Suleyman Yudakov, Sobir Boboyev, Ikrom Akbarov, (ham musiqashunos ham bastakor), Dilorom Omonullayevalarni aytishimiz mumkin. Ular orasida eng ko‘p ovozli (polifonik) asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. I.S.Baxning “Yaxshi temperatsiyalangan klavir” hamda “Tokkata va fuga d-moll”[19] asarlari kompozitorlik ijodining yorqin namunalaridan biridir.

[19] I.S.Bax d-moll Tokkata va fuga

TOKKATA VA FUGA d-moll

Yuqorida korish mumkinki, asar ko‘p ovozli (polifonik) shaklda yozilgan bo‘lib, fortepiano ijrosi uchun mo‘ljallangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bastakor va kompozitorning bir-biridan osmonu-yer qadar farqi bor. Afsuski, hali beri ko‘plab san’atkorlar buning asl, tub mohiyatini anglab ulgurgan emas. Xalqning ma’naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g‘oyalar, ona vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda musiqa san’atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti ”, 1987, 450 b.

2. Bax I.S. d-moll “Tokatta va Fuga”

3. Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son.

4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5847-son, 08.10.2019

MUSIQIY SAVODXONLIKNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI XUSUSIDA.

Mustabova Guzal Sadulla qizi

“Musiqa ta’limi va san’at” yo‘nalishi magistranti,

I.Qudratov

Ilmiy rahbar O’zFinPI professori

***Annotatsiya**. Ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarish va yangilanishlar mazmunida uni ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda innovatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirilishiga ustuvor e’tibor qaratilayotganligi bois maqolada umumta’lim maktablari musiqa darslarida o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** musiqa ta’limi, nazariy savodxonlik, xorijiy tajribalar, innavatsion texnologiyalar, takomillashtirish, imkoniyat.*

Keyingi yillarda ta’lim sohasini yuqori darajada takomillashtirish, uni fan va texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari, ilg’or xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida takomillashtirish borasida ko‘plab qaror va farmoyishlar qabul qilinayotganligi–bu ta’limga davlatimiz tomonidan qaralayotgan yuksak e’tiborning natijasidir. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Ma’daniyat va san’at sohasini yanada rivojlanishiga doir qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi №112 sonli qarori (2.02.2022 yil) umumta’lim maktablarida fanlarni o‘qitish yangi va yuqori darajadaga ko‘tarish zamon talabi ekanligi, umumta’lim maktabi o‘quvchilari milliy cholg‘ularimizdan kamida bitta kuy ijro etish maxoratiga ega bo‘lishi lozim [20]ligi takidlangan.

Mazkur davr talabiga javob beradigan, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantiruvchi vazifasini hal etishda musiqa ma’daniyati fanining musiqa savodxonligi faoliyati eng muhim vositalardan biridir. Biz bilamizki, musiqaning mazmuni hayot tajribalarini tovushlar orqali ifodalangan fikr va his-tuyg‘ulardir. Musiqani ifoda etish vositalari musiqaning elementlari deb atalib, musiqaning

[20] *“Ma’daniyat va san’at sohasini yanada rivojlanishiga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi №112 sonli qarori (2.02.2022 yil)*

elementlari va ularning o‘zaro bog’langanlari haqidagi boshlang’ich fan musiqasining elementar nazariyasi fanidir. Nota savodxonligi maktab o‘quvchisiga tinglayotgan, kuylayotgan musiqa asarini mazmunini to‘g‘ri idrok etilishiga, uni nota o‘qish malakalarini rivojlanishiga, ya’ni musiqiy savodxonlikka erishish uchun nazariy qoidalarini, musiqaning ifodaviy belgilarini chuqur o‘zlashtirish zarur.

Maktab musiqa darsliklarida musiqa savodxonligiga oid tushunchalarni o‘zlashtirish uchun birinchi navbatda musiqaning ifoda vositalari-kuy, ritm, metr, tembr, lad(tonallik), akkord, temp, tovushlar cho‘zimi, nota belgilari, ularni yozilishi, kabi tushuncha va bilimlarni egallashlari lozim bo‘ladi. Darsda musiqiy savodxonlik barcha faoliyatlarda qo‘llanilishi mumkin. U asosan ikki shaklda: nazariy bilimlar va nazariy bilimlarni amaliy faoliyatida o‘zlashtirish.

O‘quvchilarni nota savodxonligini o‘stirish, rivojlantirish va mustahkamlash turli amaliy faoliyatlar yordamida amalga oshirishni muayyan natijalarga:

Musiqani tinglash,tahlil qilish;

Solfejiolash;

Ritmik harakatlar bajarish;

Bolalar cholg‘u asboblarida ijro etish;

Musiqaga mos harakatlar yoki drijorlik qilish;

Musiqiy jo‘rliklar va ularni amalda qo‘llanilishi haqida ko‘rgazmali va texnik vositalardan, ya’ni elektron qurollar foydalanish.

Shu o‘rinda ilg‘or xorijiy mamlakatlarda amal qilayotgan musiqa o‘qitilishining ayrim faol metod, shakl, vositalaridan o‘rinli va ijodiy foydalanishni ham ijobiy ahamiyat berishi mumkin. Nafaqat musiqa ta’limi va tarbiyasi balki, umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha fanlar zamonaviy, interfaol texnologiyalar, komputerli, hamkorlikda o‘qitish, shuningdek o‘quvchilarni qiziqishi va qobiliyatiga qarab yo‘lga qo‘yilgan ta’lim tizimi haqida so‘z yuritar ekanmiz, bu borada fin ta’lim tizimi o‘ziga xosligi va yuqori darajada samaradorlikka ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Finlandiya ta’lim tizimining alohida farqli, o‘ziga hoslik tomonlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Ta’limning to‘lo‘qsizligi;

Har bir o‘sib kelayotgan shaxsni bilib olish huquqiga egaligi va maktabga berishning majburiyligi;

O‘quv reja va dasturlarni ilmiy asosga egaligi;

O‘qituvchining malakaviy kompotensiyasiga bo‘lgan ishonchning yuqori darajada ekanligi;

Ta’limni tashkil qilish va boshqarish vazifalari mahalliy sharoitga moslashuvchanligi;

Oxirgi yillarda Finlandiya ta’lim tizimida ta’lim rivoji yuqori darajaga ko‘tarilgan mamlakatlar o‘rtasida o‘quvchilarning o‘zlashtirishini baholashning iqtisodiy hamkorlik va rivojlanishni yangi (OESD) tashkiloti faoliyat ko‘rsatishni boshladi. Bu tashkilot o‘quvchilarni o‘qish va grammatika, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim, qobiliyati va ko‘nikmalarini taqqoslash va baholashni tashkil etdi. Tashkilot dasturida o‘ttizdan ziyod mamlakatlarning 15 yoshli o‘quvchilarning ta’lim, shu jumladan musiqa ta’limi bo‘yicha yutuqlari kiritildi. Bunda fin o‘quvchilarining ko‘rsatgichlari yuqori natijani ko‘rsatdi. Buning asosiy sababi bir qator olimlarga bevosita bog‘liq bo‘lib, bular sirasida maktabni qurshab turgan atrof-muhitning ta’siri alohida mavqega egadir. O‘quvchilarni o‘qishga hech qanday trasnportdan foydalanmagan holda kelishi, ta’lim olishi va o‘zlashtirishlari, tartib-intizomi, ota-onalarning qat’iy e’tibori va nazoratida bo‘lishi, o‘quvchining doimiy ravishda jismoniy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi kabilardir.

Ilg‘or xorijiy davlatlardan bo‘lgan Shvetsariyada musiqa ta’limi Emil Shak-Dalkroz (1865-1950. Kompozitor, musiqachi, yozuvchi) asos solgan “Musiqa va ritm” deb nomlanuvchi musiqiy dinamika va emotsional harakatlarni, hamda obrazli mazmun, plastik harakatlar ostida musiqiy faoliyatga jalb qilish, o‘quvchilarni obsalut eshitish, improvizatsiya qila olishi musiqiy tarbiya tizimi amal qilib keladi. Uning mazkur tizimi London, Parij, Vena, Barselona, Nyu-York shaharlarida muvaffaqiyatli ravishda qo‘llanib kelinadi.

Musiqa hissiy-obrazli emotsional qurol etish qanchlik faol,ta’sirli va chuqur bo‘lsa uni o‘zlashtirish samarali bo‘ladi. Bu holatlar ijodiy faollik natijasida sodir bo‘ladigan jarayondir. O‘quvchilarni darsga qiziqtirish avvalo, ularda musiqani tinglash va ijro etish uchun tanlanadigan repertuar va qo‘llaniladigan metodikaga (an’anaviy yoki interfaol) bog‘liq. Xuddi mana shu tamoyilda Rossiya musiqa ta’lim tizimida ustuvor o‘rin tutadi. Dars kompozitsiya va dramaturgiya, uning pedagogik g‘oyasi, turli xil texnologiyalar, vositalar, uslublar barcha-barchasi o‘quvchilarda musiqa, o‘quv materiallariga qiziqishi oshiradi. Rivojlangan mamlakatlar musiqa ta’limida interfaol doska(smartboad)lardan foydalanishga e’tibor ortib borayotganligini zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishning natijasidir. Interfaol doska komputerga ulanadi va o‘qituvchi raqamli ruchka yordamida nazariy ma’lumotlarni tushuntirishga kirishadi hamda bevosita musiqiy asarni (kuylash, tinglash, tahlil qilish) visual tarzda o‘rgatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, musiqa nazariyasini o‘rganishda mobil ilovalar keng ommalashtirilayotganligini e’tirof etish lozim. Bulardan eng ommabop ilova “Perfect ear” bo‘lib, bu nazariy bilimlar bilan birgalikda ingliz tilini o‘rganishda katta yordam beradi. Ilova o‘z ichiga musiqa nazariyasi, solfejio va ularga doir testlar qamrab oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yurtimizda ma’daniyat va san’at ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ask etgan an’anaviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga ustivor chora-tadbirlarga nihoyatda hamohangdir. Har bir millat o‘z taraqqiyoti va san’atining qudrati bilan jahon tamaddunidan mustahkam joy egallaydi. Aynan mazkur soha taraqqiyoti mamlakatning kuch va salohiyatini, xaqlning qadr-qimmatini, dunyodagi obro‘-e’tibori hamda maqomini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Bu borada butun jahon tan olgan zamonaviy va xorijiy tajribalardan foydalanish yanada samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Soipova. musiqiy ba musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish – Toshkent, fan va texnologiyalar markazi nashriyoti, 2005 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2020 yil, 06.10

3. Golsman T., Pervin 20., Pervina N. Elementы muzыkalnoy gramotы v kurse ronnecho obucheniya, muzыki. – M: // INFO. 2001 - №5

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent, Ma’rifat, 2020 yil.

5. Fayziyev O. Musiqa o‘qitish metodikasi – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbuot ijodiy uyi, 2007 yil.

INNOVATSION TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISH ORQALI BOSHLANG’ICH SINF O‘QUVCHILARIDA CHOLG’U MASHG’ULOTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

Nurboyeva Mahliyo Amaliddinovna

Toshkent davlat Pedagogika universiteti Musiqiy ta’lim yo‘nalishi

1-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Rejametova Nilufar Ilhamovna (PhD).

Annotatsiya. *Ta’lim sohasini yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san’atning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish va yosh avlodni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash oliy maqsadlardan biri etib belgilandi. Kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta’lim maktablari musiqa ta’lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog‘i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat’iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi.*

Kalit so‘zlar: *Musiqiy ta’lim, modernizatsiya, axborot texnologiyalari, innovatsiya, multimediya, Internet, cholg’u ijrochiligi, axborot resur markazlari, metod, axborot komunnikasiya.*

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi na'munalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san’atning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish va yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash oliy maqsadlardan biri etib belgilandi.

Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 28-noyabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasida milliu madaniuatni uanada rivojlantirish konsepsiuasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarorida madaniuat va san’atning barsha sohalari kabi musiqa ijroshiligini rivojlantirish, 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniuat va san’at sohasini uanada rivojlantirishga doir qo‘shimsha shora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-112-sonli qarorida ham aniq vazifalar belgilab berilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”.

Barchamizga ma’lumki, XXI asr yuksak axborot-texnologiyalar davri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish, ta’lim jarayoni sifati va natijadorligini oshirish maqsadida axborot telekommunikasion texnologiyalaridan samarali foydalanish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta’lim maktablari ta’lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog‘i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat’iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo‘lishi axborot texnologiyalarining umumiy ta’lim maktablari ta’lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo‘l ochib bermoqda. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o‘stirishda tutayotgan o‘rni va ta’siri ortib borayotganligini inkor etib bo‘lmaydi. Umumiy ta’lim maktablaridagi ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchilar oldida keng imkoniyatlar ochdi. Har bir o‘qituvchi albatta unga davlat, jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar asosida o‘z kasbining xususiyati, maqsad-vazifalarini yuqori darajada tushunmog’i lozim. U ilmiy va ilmiy-uslubiy izlanishlar jarayonida mutaxassislik fanlarini to‘la-to‘kis egallagan va bu fanlarni yuqori darajada o‘quvchilar ongiga singdira olishi, usul va metodlardan foydalangan holdagina o‘z kasbining bilimdoniga aylanishini chuqur xis qilib, muntazam ravishda o‘z ustida ishlashi lozim.

Prezident qarori bilan 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o‘rgatiladi va bu ularning shahodatnomasida qayd etiladi. Musiqa fani o‘qituvchilarining milliy cholg‘ulardan kamida bittasini, 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo‘lish majburiy hisoblanadi. Maktablarni notalar to‘plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi.Bu esa madaniyatimiz va san’at sohasini yanada ravnaq topishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

O‘quvchilarning musiqa mashg’ulotlari va cholg’u ijrochiligi fanini o‘zlashtirishda ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quv jarayonida keng qo‘llaniladi. Axborot-

resurs markazlari kompyuterlari, “Internet”, “Ziyonet” va boshqa axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o‘quv adabiyotlari shuningdek, darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi. Bunday dasturlar yordamida o‘quvchilar turli mamlakatlar va davrlarning kompozitorlari ijodi bilan tanishisb, ularning tarjimai hollarini bilishi, kompozitor va bastakorlar yaratgan musiqa asarlari to‘g’risida ma’lumot olishi, musiqiy san’atning turli janrlari, musiqachilar va musiqa cholg’ulari haqida keng bilim olish imkoniyatlarini yaratib beradi. Ta’lim jarayonida yangi axborot texnologiya vositalaridan foydalanish tafakkurning vizual-majoziy va nazariy turlarini rivojlantirishni boshlaydi. Talabalarning ijodiy, intellektual salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborot texnologiyalari musiqa va unga aloqador mavzular uchun o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. Axborot texnologiyalari imkoniyatlari boshqa va boshqa musiqa fanlarini o‘qitishda ham o‘qitish samaradorligini oshirishga imkon beradi. Musiqada kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi istiqbolli, dolzarb va obyektiv zarurdir. Axborot kompyuter texnologiyalaridan malakali va tizimli foydalanish talabalar, o‘qituvchilar, tadqiqotchilarga vaqtni yanada samarali taqsimlash, ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki Axborot texnologiyalari musiqa va unga aloqador mavzular uchun o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalari vositalari, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish musiqa fanlarini o‘qitishda ham bilim olish samaradorligini oshirishga imkon beradi. Musiqa ta’limida kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi istiqbolli, dolzarb va ob’ektiv zarur bo‘lib, ulardan malakali va tizimli foydalanish talabalar, o‘qituvchilar, tadqiqotchilarga vaqtni yanada samarali taqsimlash, ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Sh.Mirziyoyev “Erkin va farovon, Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” 2016-yil.

2.O.Matyokubov “Og’zaki an’anadagi professional musiqaga kirish”.T.1985.

3.Qodirov R. G‘ “Musiqa psixologiyasi” T: Musiqa. 2005- yil.

4.Toshmatov O‘, Beknazarov X. “Cholg’shushunoslik” – T.: Darslik 2015.

REFLEKSIV MUNOSABATLARDA TA’LIM NAZARIYASINING O‘RNI

Vapayeva Fazilat Shuhratovna

Andijon Davlat Pedogogika Instituti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Keyingi paytlarda ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida jiddiy o`zgarishlar ro`y berdi. Natijada avvallari an’ana bo`lgan ta’lim jarayonida qo`llanadigan metodlar o`rniga yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlar kirib kela boshladi. Mavzularning o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilishi va ularning mustaqil fikr yuritishlariga undash bevosita o`qituvchi faoliyatiga bog`liqdir. Zero, yangi ta’lim standartlarini o`zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy metodlarni qo`llashni talab etadi.*

Kalit so‘zlar:*ta’lim nazariyasi, boshlang’ich refleksiya asoslari, o‘quvchi faoliyati, pedogogik tizim, pedogogik mahorat.*

Kirish. Ta’lim nazariyasi islohot munosabati bilan boshlang`ich ta’lim oldiga qo`yilgan talablar o`qish darslarida pedagogik texnologiyalarning rivojlantiruvchi, differensiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo`naltirish, izlanish, muammoli o`qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda boshlang`ich sinf o`qish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o`quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o`qitish, musobaqa–bellashuv metodlaridan, turli interfaol metodlardan foydalaniladi. Darslarni aqliy hujum, mustaqil tahlil, ta’limiy o`yin, turli sahna ko`rinishli andazasiz usullardan foydalanib uyushtirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Metodologiya. Savod o`rgatish davrida ham o`quvchilarning mavzuni chuqur o`zlashtirishlarini, uni tahlil qila olishlarini ta’minlash kerakligini hisobga

olgan holda metod tanlashga e’tibor qaratiladi. Bunda interfaol metodlarni qo`llash maqsadga muvofiqdir. Chunki zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o`quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko`nikma hamda malakalar darajasini baholash o`quvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Muhokama. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to`plangan bo`lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfoal metodlar nomi bilan yuritilmoqda. «Interfaol» atamasi ingilizcha “interact”-o`zaro tasirlashishi (yoki “interaction”-o`zaro ta’sir) so`zidan olingan bo`lib, biror faoliyat yoki ma’lumot o`zaro muomalada, o`zaro bahs- munozara, debat usulida, fikrlashni asnosida, hamjihatlik bilan hal qilish ma’nosini anglatadi.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchlarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati orqali uyg’unlashtiriladi. Shu sababli o‘quvchlarning ta’lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg’unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o‘yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- O‘yin faoliyati orqali shaxsning o‘qishga, mehnatga bo‘lgan qiziqishi ortadi;

- O‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya’ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;

- Shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi.

- Hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo‘ljalni to‘g’ri olish ko‘nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;

- O‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

- Shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

- Insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga e’tibor qaratiladi.

- O‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Natija. Didaktik o‘yinli mashg’ulotlarni o‘quvchlarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg’unligiga qarab: syujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferentsiyalar, o‘yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O‘qituvchi-pedagog avval o‘quvchlarni individual (yakka tartibdagi), so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchlar didaktik o‘yinli mashg’ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Boshlang’ich sinf o‘qituvchisining pedagogik yo‘nalishining texnologik tomoni ma’lum malakalarda namoyon bo‘ladi. VA Slasteninga ko‘ra [1], ixtiyoriy faoliyat sohasidagi mahoratning asosiy ko‘rsatkichi maxsus umumiy ko‘nikmalarni egallashdir. Tadqiqotimiz yo‘nalishini hisobga olgan holda biz quyidagi kasbiy va pedagogik mahorat guruhlarini ajratamiz:

a) pedagogik mahorat;

- konstruktiv ko‘nikmalar (talabalar faoliyatining turli shakllarini rejalashtirish va o‘tkazish qobiliyati, faoliyat maqsadlariga muvofiq materialni tahlil qilish, sintez qilish va tanlash qobiliyati);

- kommunikativ ko‘nikmalar (talabalar bilan munosabatlarni o‘rnatish, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish, turli odamlar bilan to‘g’ri muloqot ohangini topish, jamoada normal psixologik muhitni o‘rnatish qobiliyati);

- nazariy-tahliliy ko‘nikmalar;

- tashkilotchilik qobiliyatlari (o‘quvchilarning har xil turlarini tashkil etish qobiliyati).

b) refleksiv qobiliyatlar: refleksiv-idrok etish malakalari; pedagogik faoliyatni refleksiv-funksional tahlil qilish malakalari.

Xulosa. O‘z-o‘zini amalga oshirish qobiliyati bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida pedagogik aks ettirishni rivojlantirishning ikkinchi mezoni bo‘lib xizmat qiladi (refleksiv-shaxsiy imkoniyat). O‘quvchilarning pedagogik va refleksiv-perseptiv qobiliyatlari, shuningdek, o‘zlari, bolalar va pedagogik faoliyat bilan tizimli munosabatlarini amalga oshirish o‘z-o‘zini namoyon qilish qobiliyatining natijasidir, deb hisoblaymiz.

O‘z-o‘zini amalga oshirish tushunchasi sintetik bo‘lib, u shaxsning ijodiy va ma’naviy imkoniyatlarini har tomonlama va uzluksiz rivojlantirish, shaxsning barcha imkoniyatlarini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish, o‘zgalarni, dunyoni va undagi o‘z o‘rnini adekvat idrok etishni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Slastenin V.A. O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida uning shaxsini shakllantirish. – M.: Prosveshchenie, 1976. – 160 b.

2. Anisimov O.S. Pedagogicheskoe mыshlenie kak sredstvo upravleniya i razvitiya pedagogicheskoy deyatelnosti. – Samarkand, 1986. – 43s.

3. Falsafiy ensiklopediya: V 5t. – T.5 / Gl. Ed. F.V. Konstantinov. M., 1970. – 740b

BOLALARDA BADIIY-MUSIQAVIY DIDNING SHAKLLANISHI.

Xodjakulov Baxodir Xudoykulovich

Guliston davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti “An’anaviy xonandalik va xalq cholg‘ulari” kafedrasi mudiri, dotsent v.b

Annotatsiya*. Mazkur maqolada Respublika pedagogika sohasi oliy ta’lim muassasalari “Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishida tayyorlanayotgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash kompetensiyalari, o‘qitishning asosiy mazmuni va didaktik prinsipilari, bakalavriat talabalarida kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirishning*

nazariy va kasbiy-metodik asoslari, ularni auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlashning samarali shakl, vosita va metodlari, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani darslarini tashkil etish va olib borishning metod va usullari o‘rin olgan. Maqola Respublikamiz pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichi “Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishida pedagogik faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, bakalavriat talabalari, musiqa ta’limi va tarbiyasi sohasida tadqiqot ishlari olib borayotgan izlanuvchilar, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari musiqa fani o‘qituvchilari va boshqa musiqa pedagogikasi sohasiga doir fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *musiqa san’ati, badiiy vositalar, ijodkorlik, ma’naviy, qo‘shiq, kuy, uslub, vosita.*

Kirish. Musiqaning bola hissiyotiga, ruhiyatiga, o‘y-xayollariga va intilishiga, ularning hayot mazmuniga katta ta’sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqelikni to‘g‘ri aks ettirgan musiqali asardan o‘rinli foydalanish alohida o‘rin tutadi. Musiqiy san’at uchun odamning fikrlash va ifodalash hissiyoti asos bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa tovush bilan hamohanglik rivojida dastlab nutq va raqs bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan edi. U mehnat harakati ritmi bilan moslashib, bir maqsadga intilayotgan kishilarni bir-birlariga birlashtirishni osonlashtiradi. Nutq ohanglarini, mehnat jarayonlari ritmlari va musiqali ohanglarning umumlashuvi natijasida xalq musiqasi shakllanadi.

Xalq san’ati manbalariga asoslangan musiqa hamisha jozibador bo‘lib, qalbda turli his-hayajonlar uyg‘otadi. Shu bilan birga, musiqada tovushlarga va tasviriy holatlarga taqlid qilish hollari bor, ammo masalaning mohiyati bular bilan belgilanmaydi. Musiqali obraz o‘zining aniq ko‘rinishi bilan bog‘liqdir.

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo‘lmish bolalarni estetik va ma’naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalash muhim masaladir. Bu maqsadni amalga oshirishda musiqaning ham alohida o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari bor. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya – bu

bir aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ya’ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o‘z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o‘rgatishdan iboratdir. Har bir bola musiqaning qaysi yo‘nalishini o‘rganishidan qat’iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim. Unda uzluksiz davom etadigan bir butun ta’lim-tarbiya jarayonini belgilovchi ilk turi “maktabgacha ta’lim” deb ataladi.

Agar kichik yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni hamda vatanparvarlikni musiqa yordamida uyg‘unlashtira olsak, bundan-da ziyoda qudratni topa olmaymiz.

San’at – kishilik faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, kishi shaxsi san’at vositasida va ishtirokida to‘laligicha yorqin namoyon bo‘ladi. Hozirgi kelajak avlodni estetik tarbiyalashda san’at muhim o‘rin tutadi. San’at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o‘stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g‘amxo‘rlik qilar ekanmiz, san’at bilan muomala qilishdan hosil bo‘ladigan his-hayajondan uni o‘z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o‘rgatishimiz kerak. Shu sababli u estetik tarbiya tarmog‘ining ajralmas qismi sanaladi.

Bolalarda kichik yosh chog‘idan idrok etish, his etish, turmush va san’atdagi go‘zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go‘zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo‘lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog‘i kerak. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o‘ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san’atlar ichida musiqa san’atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan

musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari – ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta’siri, uning ichki dunyosini o‘zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo‘lgan. Musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta’sir etadi. Oilada, MTMda, maktabda musiqa mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san’atni to‘g‘ri tushunishdagi samarali yo‘ldir. Musiqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda qiladi va kishining his-tuyg‘ulariga faol ta’sir etadi. Musiqa ham fan, ham san’atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg‘un tushunchasi sifatida qarab bo‘lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san’atdir. Musiqa san’ati inson hayotining ilk yillaridanoq uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Musiqa inson umrining doimiy yo‘ldoshi. Stendalning aytishiga ko‘ra, musiqa – san’at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir. “Musiqa san’atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me’morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o‘lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko‘rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok qilinadi. Musiqa mavzui o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma’naviy dunyosini, uning tuyg‘u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqa voqelikning his-tuyg‘uli qiyofasini yaratadi”. Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo‘lib, u hech narsa bilan bog‘lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo‘lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo‘lgan tuyg‘u-munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg‘urish, xayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o‘xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o‘zaro bog‘liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi. Bolalar bilan musiqali ish olib borish, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Omma orasida musiqali targ‘ibot olib bormay turib, to‘laqonli natijalarga yerishib bo‘lmaydi. Musiqiy

tarbiya bolalarda erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg‘u uyg‘otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o‘sib, hissiyotini yanada boyitilib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma’naviy va boshqa sifatlarni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Musiqaga kichik yoshlikdan uyg‘ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog‘liq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Ma’lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o‘zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o‘stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi, bolalarning badiiy ijodkori hamda iqtidorini rivojlantirishi kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta’sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqelikni to‘g‘ri aks ettirgan musiqiy asardan o‘rinli foydalanish alohida muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, musiqali obrazlarning shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdagi dunyo va undagi go‘zalliklarni idrok etishga bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltayev B, Xodjayev J.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi (darslik) – Samarqand. – B. 2021 y.

2. Namozova D.T, Nosirov D.T. Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy ta’lim metodikasi. – Qo‘qon: 2006-y.

3. Eydemiller E.G. Yustisiskis V. Psixologiya i psixoterapiya semi. Sankt-Peterburg: ―Piter‖, 2000 y.

4. Karimov M., Ikromova M. Raqs elementlari orqali bolalarni jismoniy rivojlantirish. – T.: “Ilm ziyo” nashriyot uyi .2008y.

5. Altibayeva G.M. Maktabgacna ta’limda musiqiy tarbiya metodikasi. Maruza matni. – Termiz. 2018 y.

6. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013 y.

7. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X. To‘xtaxo‘jaeva tahriri ostida. – T.: Moliya-iqtisod, 2008-y.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA MASHG’ULOTLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Mamatova Sunbula

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Musiqa ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohatlar, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tashkil etilayotgan barcha ta’lim mashg’ulotlari jamiyatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillar hisoblanadi. Shu ma’noda Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o’zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”[21] deb aytgan so‘zlari ta’lim tizimidagi pedagog xodimlar zimmasiga mas’uliyatli vaziflarni yuklaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash ota-ona, oila, ta’lim tizimining barcha bug’inlarida faoliyat yuritayotgan barcha pedagoglar zimmasidagi eng asosiy vazifalaridan sanaladi. Shu jihatdan olib qaraganda bolaning tarbiyasi, uning ham ma’nan, ham aqlan yetuk bo‘lib rivojlanishi va uni ijtimoiy muhitga moslashishini takomillashtirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining musiqa mashg’ulotlarining salmog’i katta. Musiqa mashg’ulotlarining mazmunli tashkil etilishi shaxsni shakllanishida hamda rivojlanishida muhim vositachi hisoblanadi. Olida bola tug’iladi, o‘sadi, dunyoni

[21] Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O’zbekiston, 2017yil-488-bet.

o‘rganadi, ijtimoiylashadi, his-tuyg’ulari rivojlanadi, axloqiy qadriyatlari shakllanadi, jismoniy va ruhiy salomatliligi, insoniy fazilatlari shakllanadi. Shu bilan birga bolalarda yuqorida keltirilgan sifatlarni takomillashtirish aynan musiqa mashg’ulotlarining maqsadi qilib belgilab olingan.

Musiqa san’ati inson hayotining dastlabgi yillaridan boshlab uumiy madaniy rivojlanishiga bevosita va kuchli ta’sir ko‘rsatishda muhim omil hisoblanadi. Musiqa insonning doimiy hamrohi bo‘lib, uni ko‘p jihatdan estetik tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa bolaning hissiy tabiatiga yaqin. Musiqa ta’siri ostida uning badiiy idroki rivojlanadi, tajribalar boyib boradi.

Bolaning musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirishda bog’cha va oilaning hamkorlikdagi ishtiroki hamda musiqa mashg’ulotlarini mazmunli tashkil etish muammosi hozirgi kunda juda dolzarb bo‘lib bormoqda. Bolalarni musiqaga bo‘lgan muhabbatini uyg'otish uchun malakali va musiqiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan, musiqani his etadigan, uni chuqur idrok etadigan musiqa rahbari bo‘lishi lozim. Shuning uchun musiqa rahbarlarining musiqa savodi, musiqaga muhabbat hissi, hamda musiqani to‘g’ri idrok etishlari, musiqiy qobiliyati har taraflama rivojlanganligi talab qilinadi. Bola o‘z oilasida musiqaning ilk namunalarini his etishni boshlaydi. Masalan, onalar chaqaloqlariga tasalli berish uchun alla kabi qo‘shiqlarni kuylashadi, yoki musiqa tinglash vositalari orqali har xil yoqimli qo‘shiqlarni eshittirsh orqali, bolalar ushbu yoqimli ashulani eshitib o‘zlaring qug’irchoqlariga kuylab berishadi. Bolalarda kattalar bilan birgalikda musiqa tinglash natijasida ularni paydo bo‘lgan his-tuyg'ularni muhokama qilish, o‘zlarining his-tuyg'ulari haqida fikr almashishga undaydi. Musiqa, shuningdek, nutqni, xotirani boyitishga yordam beradi, chunki bola qo‘shiqdan iboralarni yodlab, keyinchalik ularni suhbatda qo‘llay oladi.

Musiqachi pedagog musiqa mashg’ulotlarini mazmunli tashkil etishi tufayli bolada quvnoq kechinmalarni doimo o‘yg’otishi va qo‘llab-quvvatlashga erishadi. Shu maqsadda u musiqoy mashg’ulotlarda bir nechta metodik usullardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar orasida asosiysi pedagogning qo‘shiqni, instrumental musiqani ifodali ijro etishidir. Bundan tashqari hozirgi

kunga kelib, juda ham ko‘b interfaol metodik va texnik vositalardan, jumladan: televizor, video pleyer, kompyuter, monitor kabilardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu vositalar orqali bolaga musiqani tinglash malakalarini tarkib toptirishda qo‘shiqda tilga olinadigan buyumlarni ko‘rsatishi muhim ahamiyatga ega. Bolaning qo‘shiqni anglashi, avvalo, bolaning qo‘shiq kim (nima) haqidaligini anglashdan boshlanadi. Buni eslab qolishga muayyan musiqa bilan bog’langan predmet, ko‘riladigan obraz yordam beradi.

Yana shuni ta’kidlash kerakki, musiqa mashg’ulotlarida musiqa o‘qituvchisining so‘zi katta ahamiyat kasb etadi. Ko‘pincha u qo‘shiq mazmunini tushintiradi, tushuntirishni boshlashdan oldin o‘qituvchi tarbiyalanuvchilarda qo‘shiqda nima haqida kuylanishini so‘rab, ularning e’tiborini asarning asosiy obraziga qaratadi.

Bolada qo‘shiq aytish ovozini rivojlantirish jiddiy, puxta, uzoq muddatli ishni talab qiladi. O‘qituvchi-pedagog bolada musiqaga, ashulaga bo‘lgan ishtiyoqini o‘yg’otadi, kichkintoylarda paydo bo‘layotgan qo‘shiq aytish ishtiyoqini qo‘llab-quvvatlaydi, shu tariqa ularni katta yoshli kishilarning qo‘shig’iga jo‘r bo‘lishga undaydi. Bolalarni qoshiq mazmuniga qiziqtiradi. Qo‘shiqni ifodali ijro qilib, o‘qituvchi tegishli o‘yinchoqlardan foydalanishi, qo‘shiq mazmunini instenirovka qilishi mumkin bo‘ladi.

Bolalarning o‘qituvchining ashula aytishiga taqlid qilishi, kattalarga jo‘r bo‘lishi ashulachilik intonatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan asosiy metodik usuldir. Bular quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Dastlabki bosqichlarda bolalar qo‘shiqni butunligicha ijro etolmaydilar – ular tovushga taqlid qilishni takror ifoda qiladilar, takrorlanuvchi jumlalarni aytadilar, xolos.

2. Ularning ovozlari hali zaif, sozlanmagan, ayrim kichkintoylar umumiy tempdan orqada qoladilar. Musiqa rahbari bolalarga qo‘shiqni o‘rgatishda fortepiano asbobidan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Pedagog fortepiano jo‘rligi bilan tanishtirib, kuyni chalib, qo‘shiqni ovozdan o‘rgata boshlaydi.

4. U kichkintoylarni ma’qullab, tortinchoqlarini individual kuylashga ko‘proq jalb qiladi va ular bilan birga kuylaydi.

5. Qo‘shiq o‘rganilib, bolalar aktiv kuylay boshlaganlaridan keyin pedagog vaqt-vaqtida qo‘shiqni aytishdan to‘xtashi va ovozlariga dam berishlari kerak.

6. U tarbiyalanuvchilarni musiqiy jo‘rligini e’tiborga olib kuylashga odatlantirishi mumkin.

7. Bolalarni qo‘shiqqa emotsional munosabatlari qo‘shiqchilik intonatsiyasining paydo bo‘lishi uchun qulay zamindir. Shuning uchun asarni o‘zlashtirish bosqichida, xuddi asar bilan tasnishtirishda bo‘lganidek, bolalarni qiziqishlarini oshiruvchi o‘yinchoqlar, o‘yin usullaridan foydalaniladi.

8. Bolalar bilan o‘rganilgan qo‘shiqlarni pedagog turli vaziyatlar (qo‘shiqda kuylanadigan yangi o‘yinchoqni ko‘rsatish, qo‘shiqdan o‘yinlarda foydalanish va shu kabilar) dan tez-tez takrorlab turadi.

Musiqa rahbari mashg’ulotlarini har tomonlama mazmunli tashkil etib, bolani har xil vositalar bilan musiqaga qiziqtira olishi zarur. Shu o‘rinda ota-onalarning ham bolani musiqiy tarbiyalanishida o‘rni beqiyosdir. Ota-ona pedagog tomonidan bergan vazifalarga befarq bo‘lmasdan, aksincha, uyda ushbu berilgan vazifani birgalikda bajarishi, Bolani qiziqtirishi lozim. Ota-ona ham, o‘qituvchi kabi musiqani eshitib, obrazga kirib, har xil usullar yordamida qo‘shiqni mazmunini yoritib, bolani qiziqishini oshirishi lozim. Bolaga ikki tomonlama ko‘mak berilsa, unda musiqaga, qolaversa boshqa fanlarga nisbatan qiziqish ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017yil-488-bet.

2. Altibayeva G.M. Maktabgacna ta’limda musiqiy tarbiya metodikasi. O‘quv-uslubiy majmua. – Termiz 2018 yil.

3. Bolajon tayanch dasturi (Takomillashtirilgan “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari” asosida ishlab chiqilgan) Nashr uchun mas’ul: O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri A. M. Marahimov –Toshkent: 2010. 132 b.

4. Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun modullar T-2012 y, ikkinchi nashr 126 b

5. Soipova D. Musiqa o’qitish nazariyasi va metodikasi.O’quv-metodik qo’llanma. Toshkent: – 2009. 225 b.

MILLIY MUSIQIY MEROSDAN FOYDALANISHNING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Qudratov I. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori

Annotatsiya. *Milliy xalq musiqasi o‘z mazmunida xalq hayoti, turmush tarzi, urf-odat va an’analarini ifoda etishi bilan qudratli tarbiya vositasi hisoblanadi. Maqolada xalq musiqa me’rosi namunalaridan yosh avlod ta’lim-tarbiyasida foydalanish imkoniyatlari va bu boradagi ayrim muammolar xususida fikr yuritiladi.*

Tayanch iboralar: *Yosh avlod, tarbiya, xalq musiqasi, milliy meros, mumtoz va maqom, folklor, estetika, axloq.*

Respublikamizda ta’lim tizimi va mazmunini yangicha, milliy asosda shakllantirish vazifalari ilg‘or mamlakatlarda qo‘llanilayotgan yangi texnologik jarayonlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, xalqimizning tarixiy an’analari, ma’naviy va madaniy me’rosdan oqilona foydalanish ko‘lami va sifati hamda samaradorligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta’minash, ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ma’rifiy sohalardagi jadal o‘zgarishlarni yanada yuqori sur’atlarda amalga oshirish zaruratini vujudga keltirdi. Bunday ijtimoiy zarurat asosida yosh avlod tarbiyasiga mas’ul ta’lim muassasalari zimmasiga qo‘yilayotgan vazifalar Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilinayotgan qaror, farmon va amaliy ishlar mazmunida o‘z aksini topmoqda.

Mazkur yangilanishlar, avvalo milliy-madaniy merosimizni keng targ‘ib qilish, milliy qadriyatlarimizni yoshlar ma’naviyatiga chuqur singdirish bilan ta’lim sohasiga innovatsion texnologiyalar va taraqqiy etgan mamlakatlarning

ilg‘or tajribalarini keng tadbiq etish, yoshlarning kamoloti yo‘lida barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish kabilarda namoyon bo‘lmoqda.

Haqiqatdan ham uzoq yillar davomida bizda ta’lim-tarbiya ishlari jahon svilizatsiyasining ilg‘or yutuqlaridan va xalqimizning tarixiy ildizlaridan uzib qo‘yilgan edi. Mustaqilligimiz sharofati bilan barcha jabhalarda bo‘lgani kabi musiqa ta’limi va tarbiyasini milliy negizda shakllantirish va rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaraldi, uni xalqimizning milliy ma’daniyati, an’analari negizida barpo etishning keng imkoniyatlari yaratildi.

Xalq musiqa me’rosi o‘z mazmunida xalqimizning muayyan tarixiy bosqichlari, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy turmush tarzi, hayotiy qarashlari, orzu-umidlari, urf-odatlari, umuminsoniy g‘oyalarni mujassamlashtiradi. Shu bois ulardan yosh avlodni milliy g‘oya va mafkura ruhida, qolaversa barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda foydalanish hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydigan vazifalar sirasiga kiradi. Bu esa Respublikamizda amaldagi ta’limning barcha bo‘g‘inlarida, xususan, ta’limning eng muhim shakllantiruvchi bosqichi bo‘lgan umumta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlarni milliy musiqa merosimizning eng noyob namunalari bo‘lmish xalq qo‘shiqlari, ashulalari, kuylari, mumtoz va maqom asarlari bilan chuqur tanishtirib borishni taqozo etadi.

Mustaqil rivojlanish yillarida musiqa ta’limi sohasida, uni milliy asoslarda shakllantirish borasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bu ishlarni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bu o‘rinda quyidagilarni ko‘rsatib o‘tishni joiz deb hisoblaymiz:

1. Umumta’lim maktablarining “Musiqa ma’daniyati” fani bo‘yicha o‘quv dasturlari va darsliklariga kiritilgan kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar repertuarlarini qayta ko‘rib chiqish, o‘zbek xalq qo‘shiqlari, mumtoz va maqom musiqasi haqida bilim va malakalar hosil qilishga mo‘ljallangan o‘quv materiallarni muayyan sinf, chorak mavzulari doirasida cheklanib qolmasligiga e’tibor qaratish lozim.

2. Yuksak va murakkab ijod namunalari bo‘lgan mumtoz qo‘shiqlar vositasida olib boriladigan ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni sinfdan tashqari shakllarini uzviylik va tizimlilik tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yish.

3. Xalq musiqa merosi (folklor, mumtoz va maqom) haqidagi o‘quv materiallari va ular uchun ajratilgan o‘quv soatlari hajmini ko‘paytirish, mazmunan yanada boyitish lozim.

Shuni e’tirof etish joizki, o ‘zbek xalq musiqa merosi ulkan ma’naviy xazina bo‘lib, uning tarkibidagi og‘zaki an’anadagi folkyor kuy-qo‘shiqlari, mumtoz va maqom ashulalari negizida xalq og‘zaki ijodi yoki mumtoz she’riyat namunalariga xos adabiy matn yotadi. Bu bebaho xazinaning yana bir qimmatli jihati zamonaviy kompozitorlarning ulardan ilhomlanib yangi-yangi asarlar yaratib kelishayotganligida ko‘rinadi.

Mumtoz adabiyot namoyondalari yaratgan she’riy asarlar xalqimiz tomonidan asrlar davomida yuksak ijod namunalari sifatida e’zozlanib kelinadi. Ularning badiiy asar sifatida yuksak mahorat va iste’dod mevasi ekanligi, ular mazmunida ifodalangan g‘oyalar, ishq ta’rifida bayon etilgan lirik kechinmalar, nozik his-tuyg‘ular, g‘oyat nafis tasvirlar, o‘xshatishlar, ranglar tavsifi har qanday kishi qalbida o‘ziga xos ajib hissiyotlar uyg‘otadi. Bunday asarlarni har gal o‘qiganda bir-birini takrorlamaydigan tuyg‘ularni tuyasan kishi. Shoirning betimsol hayoloti, o‘z hayolotida siymosini chizgan mashuqasining oliyjanob fazilatlari-yu, kishi erkini zabt etuvchi tashqi ko‘rinishi, harakatlari beixtiyor o‘quvchi qalbini o‘ziga rom etadi. Bunday she’riy matnga bastalangan kuy, musiqaning sehrli ta’siri bilan uyg‘unlashib, inson hissiyotiga kuchli emotsional ta’sir etishi bilan estetik tarbiya vositasiga aylanadi. Shuning uchun ham xalq musiqa merosidagi folkyor, mumtoz va maqom musiqa namunalaridan, ularning ma’naviy-estetik tarbiyaviy imkoniytlaridan pedagogic maqsadlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Inson o‘z tabiyatiga ko‘ra doimo go‘zallikka intilib yashaydi. Go‘zalikka intilish mayli bilan yashaydigan insonni yoshligidan go‘zallik qonunlari bo‘yicha tarbiyalash, ularda go‘zallikni his etish, baholash, unga o‘z munosabatini bildira

olishga o‘rgatish, go‘zallik yaratishga bo‘lgan iste’dodini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish estetik tarbiyaning bash maqsadi va vazifasini belgilaydi. Milliy nafosat va milliy axloq, milliy etika o‘zbek xalqining, Respublikamizning ma’naviy-ma’rifiy hayotining ravnaqiga naqadar muhim va salmoqli ahamiyatga ega bo‘lsa, estetik va axloqiy tarbiya ham yoshlarning ma’naviy barkamol, aqlan yetuk, milliy qadriyatlarni teran his etuvchi shaxs sifatida kamol topishiga bebaho vositadir. Bugungi kunda turli texnik vositalar(internet tarmoqlari, telefon) orqali behayolikni, sharmsizlikni, quruq ohang bilan yo‘g‘rilgan “raqslar, shovqinli, baqiroq, yig‘loqi nolalarni “Ommaviy ma’daniyat” niqobi ostida yoshlar hayotiga kirib kelayotganligi, zamonaviy estrada san’atidagi qo‘shiqchilikni “internasionallashuvi” (boshqa xalqlar musiqasiga taqlid, o‘zbekchaga o‘girish, ohangidan foydalanish, shularga mos hatti-harakat, qiliqlar bilan “bezalgan”kliplar) natijasida xalqimizning chinakam milliy, betakror jozibasiga ega bo‘lgan musiqiy an’analari, ijrochilik uslublariga ega bo‘lgan san’at o‘rnini soxta, yengil-yelpi ohanglarga qiziqsh mayillari egallab olayotganligi achinarli holdir. Bularning barchasi bugungi kunda ta’limning barcha bo‘g‘inlarida, xususan, umumta’lim maktablarida o‘quvchi yoshlarni milliy ma’naviy qadriyatlarga munosabatini milliy asoslarda milliy musiqa merosimizni chuqur o‘rganish, unga qiziqish va muhabbat tuyg‘ularini o‘stirishning ilmiy-pedagogik tizimini ishlab chiqish, yosh avlod tarbiyasi uchun mas’ul pedagog-murabbiylar oldiga o‘z faoliyatiga yuksak mas’uliyat bilan yondashish vazifalarini qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2018 yil, 14-avgust.

2. Umumiy o‘rta ta’limning DTS va o‘quv dasturi. Musiqa T.: Ta’lim taraqqiyoti, axborotnoma, 6,7-maxsus sonlar yil.

3. Estetik tarbiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. N.Kushayev tahriri ostida. T.: O‘qituvchi, 1988 yil.

QOBILIYATNING NAMOYON BO‘LISHIDA MUSIQA O‘QITUVCHISINING ROLI.

S.Rasulova.
QO‘qon DPI Musiqa ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada musiqiy qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi omillari, o‘qituvchi boladagi qobiliyatlarni ko‘ra olishi borasida so‘z yurirlgan.*

Kalit so‘zlar*: diqqat, qobiliyat, iste’dod, tajriba,idrok,ta’lim,tarbiya, ishtiyoq, ruh, ong sezgi xotira tafakkur xayol yoki fantaziya temperament.*

Musiqa olami juda go‘zal. Bu olamda yashash uchun uni xis qilmoq kerak. Qobiliyat – ma’lum bir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sub’ektiv sharti bo‘lib hisoblanuvchi shaxsiyatning individual xususiyatidir. Qobiliyat – bilim, malaka va ko‘nikmalar emas, balki ularga erishish dinamikasidir. Qobiliyat faoliyat usullari va yo‘llarini egallash tezligi, chuqurligi va puxtaligida aniqlanadi. Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo‘luvchi imkoniyatdir. Masalan, agar inson musiqiy faoliyat uchun zarur ko‘nikmalarni egallamagan bo‘lsa, uning musiqiy qobiliyati haqida gapirish mumkin emas. Amaliyotdan misol keltiramiz: o‘qituvchi bir sinfning ikki o‘quvchisiga bir asarni topshiradi. Bir o‘quvchi bir haftadayoq bu asarni tez va bexato idrok etadi, boshqasi esa bir oydan so‘ng ham ijroda xatoga yo‘l qo‘yadi. Bunday hollarda har qanday pedagog Yutuqlardagi farqni qobiliyatlardagi tafovut hisobiga kiritadi. Demak, qobiliyat deganda insonning lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarni egallashida va ularni amaliyotda samarali qo‘llashida yordam beruvchi psixologik xususiyatlar tushuniladi. Qobiliyatning namoyon bo‘lishi va uning testi Ko‘pchilik yosh musiqachilar uchun ixtisoslashish juda muhim hisoblanadi. Musiqachi tomonidan tanlanayotgan mutaxassislik uning temperamenti va xarakteri psixodinamik xususiyatlariga mos kelishi kerak. Bir faoliyat turi uchun afzal temperament sifatlari boshqasi uchun foydasiz bo‘lib chiqishi mumkin. Musiqachining u yoki bu mutaxassislikni tanlashiga mutlaq musiqiy qobiliyat emas, aksincha neyrotizm, introversiya va ekstroversiya kabi psixologik

ko‘rsatkich, bosh miyaning o‘ng yoki chap yarim shari ustunligi turtki berishi mumkin. Musiqa o‘qituvchisi, konsert ijrochisi, xor yoki orkestr artisti, kompozitor, dirijyor, musiqashunos, nazariyotchi kabi musiqa yo‘nalishi mutaxassislari turli psixologik sifatlarni talab etadi. Lekin bunga, afsuski, etarlicha e’tibor berilmaydi. Neyrotizm darajasi Yuqori bo‘lgan insonlar jizzaki, asabiy, hissiyotli, betoqat va xavotirchan bo‘ladi. Neyrotizm darajasi past odamlar muvozanati, og‘ir-bosiqligi, o‘ziga Yuqori baho berishi bilan ajralib turadi. Ekstravertlar kelishuvchanligi, tashqi olam bilan muomala qilishga moyilligi, ijtimoiy muhitga oson moslashuvchanligi bilan farqlanadi. Lekin ular ortiqcha qiziqqon, hissiyotlarda Yuzaki va o‘ylanmagan xatti-harakatlarni sodir etishga moyil bo‘lishlari mumkin. Introvertlar o‘z shaxsiy dunyosiga o‘ralib qolgan, pismiq, yolg‘izlikka moyil bo‘ladi. Ular kelishuvchan emas, ammo qat’iyatli, hissiyotli va teran fikrlaydi. Introversiya bilan Yuksak neyrotizm uyg‘unlashganlarga faol muloqot qilish bilan bog‘liq mutaxassisliklar tavsiya etilmaydi. Ularga nazariy musiqashunoslik, kompozitorlik ijodi, musiqiy muharrirlik kabi tadqiqot ishlari mos keladi. Ekstraversiya bilan Yuksak darajadagi neyrotizm uyg‘unlashgan insonga o‘z talabini intensiv muloqot jarayonida qondira oladigan mutaxassissliklar to‘g‘ri keladi. Bu – xor, orkestr, ansamblda ishlash. Agar neyrotizm darajasi u qadar Yuqori bo‘lmasa pedagogik faoliyat maqbul. Past darajadagi neyrotizmga ega introvertlarga tashkilotchilik va boshqarish bilan bog‘liq ma’muriy faoliyat, tadqiqotchilik va muharrirlik ishlari, shuningdek, musiqa cholg‘ularini tayyorlash, sozlash ishlarini tavsiya qilish mumkin. Neyrotizmi past darajada bo‘lgan ekstravertlar yaxshi tashkilotchi, dirijyor, konsert ijrochilari bo‘lishi mumkin. Bularning barchasi tavsiya, ularni mutlaq aniq ko‘rsatma deb tushunmaslik lozim. Musiqachining o‘zini o‘zi tarbiyalashi va o‘z ustida tirishqoqlik bilan ishlashi unga yoqqan yoki hayot taqozosi bilan qilishiga to‘g‘ri kelgan ishlarni bajarishi uchun etishmaydigan psixologik sifatlar o‘rnini qoplab ketishiga oid hayotiy misollar ko‘p. Tavsiya etilayotgan testlar musiqiy faoliyatning aniq turlaridagi mashg‘ulotlar uchun rag‘bat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. SHunisi aniqki, estrada ijrochisi uchun zarur xususiyatlar pedagog

yoki musiqa nazariyotchisi uchun kerak bo‘lmasligi mumkin. SHunday qilib, yakkaxon konsert sohasiga ixtisoslashishni istovchilar uchun o‘z talantini omma oldida namoyon qilish www.ziyouz.com kutubxonasi 35 xohishi, musiqiy asarni puxta pardozlashga intilish, boshqalar bilan raqobatlashishga ehtiyoj kabi xususiyatlar muhim. Pedagogik faoliyat sohasida ixtisoslashish uchun ommani uYushtirish va o‘z ortidan ergashtira olish, kelishuvchanlik, bolalarga muhabbat, ta’lim uslubiyotini yaxshi ko‘rish ko‘proq ahamiyatga ega. Musiqashunoslik faoliyati uchun tahliliy va obrazli fikrlash qobiliyati, o‘z fikrlari va hissiyotlarini yaxshi adabiy til bilan etkazib bera olish muhim hisoblanadi. Toki potensial tinglovchi (bilimdon yoki havaskorlar) musiqashunos ishi bilan tanishgandan so‘ng yana bir bor musiqaga murojaat qilishni istasin. Kompozitor uchun o‘z imkoniyatlarini namoyish etish, boshqalar bilan muloqot emas, o‘zining hayotiy taassurotlarini musiqiy obrazlar tiliga ko‘chirishga intilish muhimdir. Psixologlar A.Kemp va P.Martin, Ayzenk va Kettel testlari yordamida musiqiy kollej talabalari shaxsiyati xususiyatlarini tadqiq etishgan. Ularning ma’lumotlariga ko‘ra, torli musiqa cholg‘ulari bo‘limi o‘quvchilari – skripkachilar, al’tchilar, violonchelchilar uchun intravertivlik, uyatchanlik, o‘zidan qoniqish kabi xususiyatlar xosdir. Devis ma’lumotlariga ko‘ra, bu xususiyatlarga Yuqori darajadagi xavotirchanlik ham qo‘shiladi. Puflab chalinadigan mis musiqa cholg‘usi bilan shug‘ullanuvchi talabalarda tadqiqotchilar Yuqori bo‘lmagan intellektual muvaffaqiyatlar darajasi, kam hissiyotlilik, guruh fikriga bog‘liq bo‘lish, ya’ni konformizm, boshqalar fikriga qo‘shilish tendensiyasini aniqlagan. Pianinochilarni tekshirishda nisbatan xilma-xil shaxsiy xususiyatlar aniqlangan. Ularga ekstravertivlik, ijtimoiy talablarga moslashuvchanlik, odatlar va qarashlarda konservatizm, o‘zini urintirmaslik, ziyraklik xosdir. Xonandalarda, Kemp ma’lumotlariga ko‘ra, ekstravertivlik, mustaqil fikrlash, yaqqol namoyon bo‘luvchi hissiyotlilik, mahoratlilik va norozilik aniq namoyon bo‘ladi. O‘z psixik ahvolini tekshirish uchun Spilbergerning xavotirchanlikni aniqlash bo‘yicha testidan (qarang: testlar) foydalanish mumkin. Test orqali o‘lchangan xavotir darajasi qancha Yuqori bo‘lsa, hayotdan qoniqish shunchalik kam va qandaydir kasallikka chalinish ehtimoli ko‘p

bo‘ladi. Yuqori xavotirchanlik darajasi ijroda ko‘pincha ritmik tomonga zarar etkazadi, ommaviy chiqishlarda esa keraksiz uzilishlar bo‘lishi mumkin. Yuqori xavotirchanlik odatda kompozitorlik, ijrochilik va pedagogik faoliyatiga xalaqit beruvchi baland emosionallik bilan bog‘liq bo‘ladi. Musiqachi qanday tabiiy qobiliyatga ega bo‘lmasin, u ham xuddi hayotda nimagadir erishmoqchi bo‘lgan har qanday odam kabi ichki va tashqi g‘ovlarni engib o‘tishi uchun irodaviy kuch sarflashiga to‘g‘ri keladi. Lekin ko‘pincha ijobiy sifatlarga ega bo‘lishni istagan holda u o‘ziga yoqimli va qulay bo‘lgan nuqsonlaridan voz kechgisi kelmaydi. Yalqovlik, serjahllik, uyatchanlik, bo‘shanglikni engish juda ko‘p mehnatni, mehnat irodani, iroda esa katta xohishni talab etadi. Shu yerda A. Navoiy hikmatlaridan yana bir bor keltirib o‘tish o‘rinli bo‘ladi: Tabiatga har neki odat bo‘lur, Chu eskirdi odat tabiat bo‘lur. Xarakterning istalgan sifatini tarbiyalashdagi birinchi qadam – shaxsiyatdagi irodaning rivojlanganlik darajasini anglashdir.

Foydalanilgan adabiyotylar.

1.Sh.Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent 2016y.

2. R.Qodirov.«Musiqa» nashriyoti. Toshkent-2005

3.Qobilova, E. B. "Formirovat duxovnoe mirovozzrenie podrastayuщego pokoleniya cherez folklora janra."*Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 291-295.

4.Qobilova, E. B. "Formirovat duxovnoe mirovozzrenie podrastayuщego pokoleniya cherez folklora janra."*Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 291-295.

5.Bakirovna, Q. E. "Theoretical And Methodological Basis Of Overcoming Contradictions In Modern Musical And Educational Practice." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 1.1 (2021): 117-120.

6.Qobilova, Ezoz. "The place of folk songs in isajan sultan's stories."*American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* 4.02 (2024): 44-49.

7.Qobilova, Ezoz. "The place of folk songs in isajan sultan's stories."*American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* 4.02 (2024): 44-49.

MUSIQAVIY RITMIK HARAKATLAR VOSITASIDA SOG‘LOMLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Raxmanov Halim Mo‘minovich

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Musiqa ta’limi va san’at” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. *Maqolada musiqaviy ritmik harakatlar vositasida sog‘lomlashtirish texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan, musiqiy ritmik harakatlar o‘quvchilarning ham ma’naviy, ham jismoniy tomondan sog‘lomlashtirishga xizmat qilishi haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: musiqa, ritmika, sog‘lomlashtirish, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa o‘yinlar, musiqa madaniyati.*

“Musiqa harakatni, harakat jismoniy faollikni, jismoniy faoliyat esa farovonlik va salomatlik manbai” [4]

Musiqa fani ijtimoiy-gumanitar fanlar, aniq fanlar kabi amaliy fanlar bilan ham kuchli va kuchsiz darajada bog‘langandir. Musiqa fanlarining amaliy fanlar ichida kuchli darajada bog‘langani jismoniy tarbiya yoki jismoniy madaniyat fanidir. Chunki, musiqa bu fanning ichki tizimlarigacha kirib borgan bo‘lib, ayni vaqtda jismoniy madaniyat fani mazmuni va mohiyati ham musiqaning ichki tizimlarigacha kirib kelgandir. Avvalo, jismoniy tarbiya yoki jismoniy madaniyat bu sport demakdir. Sport esa musobaqasiz bo‘lmaydi. Musobaqalar boshlanish vaqtidagi tantanali marosim va musobaqalar yakunidagi g‘oliblarni taqdirlash marosimi, albatta O‘zbekiston Davlat Madhiyasisiz bo‘lmaydi. Chunki Davlat Madhiyasi sportchilarni g‘alabaga ilhomlantiruvchi, ularda o‘z vatanlariga, yurtlariga va xalqiga nisbatan cheksiz g‘urur va faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otuvchi qudratga ega. Bunga misol tarzida xalqaro sport musobaqalarida yurtimiz sportchilari erishgan yutuqlarni taqdirlash vaqtidagi sportchilarimiz holatini, bundan tashqari Respublikamiz miqyosidagi sport musobaqalari chempionatlarining, universiadalarning ochilish marosimi hamda ularda g‘olib chiqqan sportchi yigitqizlarni taqdirlash marosimidagi vaziyat va

sportchilarimizning psixologik holatlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Jismoniy madaniyat va musiqa madaniyatining umumiy mushtarakligi yana shundaki, har ikkala sohaning cho‘qqisiga chiqish, kishidan tinimsiz mashq qilish, shug‘ullanishni talab qiladi.

Har ikkala yo‘nalishning mohir ustasi bo‘lish, faqatgina nazariy bilimlar emas, balki, u bilan birga tinimsiz amaliy mashg‘ulot, o‘z ustida qiyinchiliklarga, sharoitga qaramay, tinmay ishlashni talab qiladi [3]. Jismoniy tarbiya darslarining quyidagi faoliyat turlarida musiqadan foydalanish bolalarning bajarilayotgan jismoniy mashqlarni nihoyatda qiziqish va sidqi-dil bilan bajarishlariga sabab bo‘ladi:

1. Musiqa bilan yurish (marsh sadolari ostida shaxdam qadam bilan yurish ham).

2. Musiqa bilan yugurish (joyda yoki xona bo‘ylab yugurish).

3. Musiqali gimnastik mashqlar (qo‘l va gavda harakatlari, bundan tashqari buyum va predmetlar bilan bajariladigan mashqlar).

4. Badiiy gimnastika (bu harakat jismoniy mashqdan tashqari raqs harakatiga ham yaqindir va u halqa, lentalar yordamida xam amalga oshirilishi mumkun).

5. Aerobika (jismoniy mashqning raqs bilan bog‘liq va raqsga eng yaqin bo‘lgan turi). Yuqorida ko‘rsatilgan jismoniy faoliyat turlari asosan yopiq binolarda, zallarda bajariladi. Bu esa musiqa cholg‘u sozlari ichida eng mukammali bo‘lgan fortepiano cholg‘u sozidan foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari bunday joylarda texnik vositalar bo‘lmish; proigrivatil, magnitafonlardan ham foydalanish imkoniyati bor. Shuningdek, texnik vositalardan ochiq joylarda o‘tkaziladigan jismoniy faoliyat turlarida ham foydalanish mumkin. Jismoniy faoliyat turlarida musiqadan foydalanishni quyidagicha tarzda kengroq sharxlash mumkin: 1. Musiqa bilan yurish bolalar qadam tashlashlarini tartibga olishning eng samarali vositasidir. Uning bir qancha turlari mavjud: a) oyoq uchida qadam tashlab yurish; b) oyoqning tovon qismi bilan yurish; v) egilgan holda qo‘llarni tizzaga qo‘yib yurish; g) prujinali yurish

(har qadam tashlaganda gavdani yarim o‘tirgan holatgacha olib borish); d) tizzalarni bukmasdan harbiychasiga shahdam qadam tashlab yurish va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin [2]. Demak, yurish hillariga va yurish jarayonidagi holatga ko‘ra musiqa asarlari tanlanadi hamda ijro etiladi. Yurish jarayonida musiqa bilan yurayotgan bolalarning bir xil qadam tanlashlariga erishish lozim. Buning uchun musiqaning har bir hissasi matematik sanoq yordamida sanab boriladi va sanoqlarning qaysi raqamiga bolalarning qaysi oyog‘i bilan qadam tashlashi tushuntiriladi. Masalan: 1-deganda chap oyoq, 2-deganda o‘ng oyoq, 3-degan chap oyoq, 4-deganda o‘ng oyoq tushishi lozimligi musiqa ijrosida avval bolalarga tushuntiriladi. Musiqa ijrosi jarayonida esa faqat bolalarga eshitilarli darajada baland ovoz bilan sanab turiladi hamda bolalarning qadam tashlashidagi bir xillik va ularning birin-ketin emas, balki musiqa hissasi bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelishi nazorat qilib turiladi. Musiqa bilan yurish faoliyati ikki xil tarzda amalga oshiriladi, ya’ni musiqa bilan joyidan siljimagan holda yurish va musiqa bilan xona bo‘ylab yoki biror belgilangan maydon bo‘ylab, safni buzmagan holda yurish. Musiqa bilan yurish bolalarni musiqaning mazmuni, xarakterini tushunib yetishlariga sabab bo‘luvchi muhim omil bo‘lishi bilan birga ularning musiqa xissalari, ya’ni ritm, o‘lchov xususiyatlarini ham tushunib yetishlariga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga ularni safda to‘g‘ri turish, o‘rtoqlari bilan birga safni buzmagan holda, bir xil harakat bajarishga o‘rgatadi, bu esa o‘z-o‘zidan ham jismoniy, ham estetik tarbiya faoliyatidir. Musiqa bilan yugurish musiqali yurishga qaraganda bir muncha murakkabroq jarayon bo‘lib, u bolalardan musiqaning xarakteri va ritmik xususiyati, shuningdek tempni (tezligini) aniq his etishni, musiqadan oldinlab ketmaslikni yoki orqada qolib ketmaslikni qat’iy talab qiladi. Chunki, musiqa bilan yugurish jarayonida musiqa ham, harakatlar ham tezlashadi va tezlik jarayoni bolalarning o‘z harakatlarini boshqarib borishini qiyinlashtiradi. Xuddi musiqa bilan yurish kabi musiqa bilan yugurishning ham ma’lum bir turlari mavjud. Bular esa quyidagilar:

1. Musiqa bilan erkin yugurish.
2. Navbat bilan bir oyoqda yugurish.

3. Oyoqlarni navbat bilan yon tomonga harakatlantirib yugurish.

4. Prujinasimon elastik qadam tashlab yugurish.

5. Har xil shaklda sakrab yugurish. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, musiqa bilan yurish, joyida qadam tashlab yurish va masofali yurish kabi turlarga bo‘lingani kabi musiqa bilan yugurish ham joyidan siljimasdan yugurish va masofali yugurish kabi turlarga bo‘linadi [2]. Agar har bir musiqali yugurish turini sharhlaydigan bo‘lsak quyigicha izohlash mumkin: 1. Musiqali erkin yugurish, bu musiqa ritmiga, uning hissalariga mos ravishda qadam tashlab, tabiiy ravishda joyida yoki masofa bo‘ylab yugurishdir. Bunda bolalar o‘zlari turgan saf qatorlarini buzmasdan joyida yuguradilar yoki xona bo‘ylab yuguradilar. Yugurish jarayonida bolalarning bir xil ravishda qadam tashlashlari, gavda va qo‘l harakatlaridagi bir xillik nazorat qilib boriladi. 2. Musiqali navbat bilan oyoq alishtirilgan holda bir oyoqda yugurish. Bu yugurish turi gimnastik mashqdan ko‘ra ko‘proq raqs harakatlariga moyildir. Bunday yugurish turi ko‘p hollarda o‘g‘il va qiz bolalar qo‘l ushlashgani holda qarama-qarshi tomonga aylana bo‘ylab harakatlanishi yoki juft-juft bo‘lib bir tomonga aylana bo‘ylab bajariladi. Bunday harakatlar qo‘lda xalqalar bilan ham bajarilishi mumkin yoki arqonchaning ikki uchidan ushlagan o‘g‘il va qiz bolalar bir-birining atrofida aylanishi yoki davra bo‘ylab aylanishi mumkin. 3. Oyoqlarni navbat bilan yon tomonga harakatlantirib yugurish. Bu yugurish turi qo‘llarni belga qo‘ygan holda bajariladi. U yakka holda, o‘g‘il va qiz bolalar juft-juft bo‘lib qo‘l ushlagan holda, shuningdek, bolalar saf tortgan holda bajarilishi mumkin. Yugurishning bu turi ham o‘zida raqs xarakterini mujassam etib, ko‘proq jismoniy tarbiya bilan bog‘liq holda bolalarga estetik zavq baxsh etadi. Harakat jarayonida ishtirok etayotgan bolalar ham, ularni tomosha qiluvchilar ham birdek zavqlanishadi. Bu yugurish turi davomida ijro etiladigan musiqa asari ham yugurishning boshqa turlarida ijro etiladigan musiqa asarlaridek sho‘x, o‘ynoqi va jozibador bo‘lishi lozim. 4. Prujinasimon elastik qadam tashlab yugurish. Bu yugurish turida ko‘proq bolalarni jismoniy jihatdan chiniqtirish nazarda tutiladi, ya’ni oyoq muskullari va paylari bu yugurish turida faollashadi. Gavdaning butun og‘irligi asosan oyoq panjalari va tizza muskul-paylariga tushib,

bundan tashqari ular gavdani yuqoriga va pastga prujina simon ko‘tarib tushiradilar. Bu esa ortiqcha kuch sarflashni talab qiladi. Yugurishning boshqa turlarida gavdaning asosiy og‘irligi oyoq suyaklariga tushganligi bois bolalar unga ko‘p kuch sarf qilmaydilar.

Musiqiy tarbiya va jismoniy tarbiya uyg‘unligining eng yorqin ko‘rinishlaridan biri musiqali gimnastik mashqlar bajarish turidir. U turli ko‘rinishlarda bulishi; tik turgan holda, o‘tirgan holda, yotgan holda, buyumsiz va qo‘lda buyumlar (tayoqcha, arqoncha, koptokcha va hokazo) bilan bajarilishi mumkin. Musiqali gimnastik mashqlar inson gavdasining barcha a’zolarini chiniqtirishi va bu mashqlar musiqa jo‘rligida ma’lum ritmga mos bajarilishi bilan xarakterlidir, musiqali gimnastik mashiklar bolalarni estetik. jihatdan tarbiyalashi, ularni bajarayotgan mashqlarini astoydil, sidqidildan bajarishga undashi bilan ahamiyatlidir. Musiqali gimnastik mashqlar bajarish yuqorida aytib o‘tganimizdek, gavdaning barcha a’zolarini, qismlarini chiniqtirishga mo‘ljallangan harakatlar majmuidir. Uning me’yorini jismoniy tarbiya bo‘yicha mutaxassis belgilaydi, ya’ni u haddan tashqari qisqa, yoki bolalarni toliqtiradigan darajada uzoq muddat bajarilmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: O‘zbekiston. 2016.

2. Konorova.Y “Ritmika”. T:, 2017.

3. Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. “Musiqa” nashriyoti T: 2017.

4.https://uz.1xmatch.com/ot-muzyki-k-sportu-zanyatiya-sportom-pod-muzyku/

MUSIQIY-RITMIK HARAKATLAR FAOLIYATIDA MUSIQA VA HARAKAT UYG'UNLIGI

E.B.Qobilova.

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'quvchilarning har tomonlama musiqiy rivojida musiqiy-ritmik harakatlar boshqa faoliyat turlari kabi muhim ahamiyatga ega. Ularda musiqiylik, ijodiylik qobiliyatlari rivojlanadi, jamoa bo'lib harakat qilish malakalari shakllandi. Musiqaga mos harakat bajarishning tarbiyaviy ahamiyati-ritm hissi faollashadi, Musiqiy materialning o'zlashtirishi chuqurlashadi. Harakatlar bajarish musiqiy obraz rivojini kuzatishga yordam berishi va bu tanning sog'liginuchun muhim ekanligi borasida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar*: ritmika, raqs,harakat, uyg'unlik, ritm, marsh, o'yin, ta'lim, tarbiya, muhit, o'rganish, madaniyat, ma'naviyat, go'zallik, nafosat.*

Ma'lumki musiqiy tarbiyani amalga oshirishda bolalarni nafaqat musiqiy asarni ijro etishga, balki musiqani emosional va ruhan idrok etishni o'rgatish kerak. Asosan, bolalar musiqani qo'shiq kuylash jarayonida eshitadilar. qo'ldaga ko'ra, o'qituvchi qo'shiq o'rtgatishdan avval, bolalarga uni o'zi ijro etib beradi. O'quvchilarning musiqani eshitish va idrok etishlari uchun bu juda kamlik qiladi. Buning uchun avvalo o'qituvchi o'quvchilarni o'zlari kuylaydigan qo'shiqlaridan murakkabrok kuy va qo'shiqlarni tinglashga o'rgatishi kerak. Shuning uchun ham o'qituvchining o'zi Yuqori darajada musiqani ijro eta olishi va qo'shiq kuylay olishi talab etiladi. Afsuski, hozirgi paytda hamma o'qituvchilari ham bunday imkoniyatga ega emaslar.O'quvchilarning har tomonlama musiqiy rivojida musiqiy-ritmik harakatlar boshqa faoliyat turlari kabi muhim ahamiyatga ega. Ularda musiqiylik, ijodiylik qobiliyatlari rivojlanadi, jamoa bo'lib harakat qilish malakalari shakllandi. Musiqaga mos harakat bajarishning tarbiyaviy ahamiyati - ritm hissi faollashadi, Musiqiy materialning o'zlashtirishi chuqurlashadi. Harakatlar bajarish musiqiy obraz rivojini kuzatishga yordam beradi.Musiqani diqqat bilan tinglab o'z hissiyotlarini harakatlarda ifodalash imkoniyati o'quvchining o'z harakatlarini nazorat qilish qobiliyatiga ta'sir etadi. Musiqiy-

ritmik harakatlar jamoaviy faoliyatlardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yurish, yugurish va sakrashda harakat koordinasiyalari juda yaxshi. Musiqa sadolari ostida o'zlari maroq bilan: qarsak chaladilar, oyoqlari bilan tupillatadilar, turli buyumlar bilan, xususan, koptok, tayoqchalar, lentalar, sun'iy gullar, oddiy musiqa asboblari bilan ifodali harakatlar bajaradilar. Musiqa va harakat birligini his qilish ularga xosdir. Bu sifat esa - bolalar musiqiy-ritmik harakat faoliyatida musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy hisoblanadi. Vaqtning chegaralanganligi va maxsus xonaning yo'qligi sababli musiqa darslarida harakatlarni bajarish o'rinsizdir, balki ular ayrim raqs elementlarini o'tirgan yoki turgan holda bajaradilar.

Musiqiy-ritmik harakatlar ham boshqa faoliyat turlari kabi o'quvchilarda har tomonlama musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi:

- Musiqiy rivojlanadi;
- Ijodiy qobiliyatlarni;
- Jamoa bo'lib harakat bajarish malakalari shakllandi.

Musiqa ostida harakatlar bajarish bolalarda ritm hissini faollashtiradi. Bu esa darsning musiqiy materialini yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishi tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Harakatlar yordamida o'quvchilar asarning harakter xususiyatlarini ko'rsata oladilar.Musiqiy-ritmik harakat - faoliyat asosida musiqiy materialni moterplastik qayta ishlashdir. U musiqaning emosional ta'sirini kuchaytiradi. Bularning hammasini musiqa, uning harakteri, kayfiyati bilan harakatning uyg'unlashtiruvchi ko'nikma va malakalarni singdirilishi oqibatida yuz beradi va maqsadga erishiladi. Ritmik harakatlar yordamida musiqa shakllari, musiqiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi taassurotlar mustahkamlanadi. Harakat harakteri va yo'nalishini o'zgartirish orqaligina erishish mumkin. Musiqiy pyesalar, qo'shiqlarni sahnalashtirish ifodali harakatlar orqali nafaqat musiqiy-eshituv taassurotlari rivojlanadi, balki ijrochilik qobiliyatlari, badiiy didlari shakllandi. Agarda ularga mustaqil harakat o'ylab topish vazifasi yuklatilsa, ular musiqaning obraziga, harakteriga mos o'zlari harakat o'ylab topadilar va bajaradilar. Odatda sahnalashtiruvchi raqslarga dasturli musiqa tanlab olinadi,

chunki uning mazmuni va harakatlarning ketma-ketligi ayon bo‘ladi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda mos harakatlarni topadilar. Bajarish vaqtida o‘qituvchi bolalarga yordam beradi, yangi harakatlarni to‘g’ri va ifodali bajarish kerakligini tuShuntiradi, ko‘rsatib beradi. Harakatlarni o‘rgatish jarayonida kirish so‘zi, tushuntirish, she’riy matndan foydalaniladi.Harakatlarning yorqin taqqoslanishi o‘quvchilarni ushbu harakatlarni to‘g’ri va ifodali bajarishlariga yordam beradi. Musiqa ostida harakatlarni takomillashtirish paytida texnik vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa o‘quvchilarni o‘ziga tanish bo‘lgan kuylarni yangicha yangrashi bilan tanishishlari, o‘qituvchiga esa harakatlarni aniq bajarishini ta’minlash imkonini beradi.Musiqa va harakat uyg’unligi insonning ma’naviy va jismoniy rivojini o‘zaro bog’laydi va barkamollikka yo‘naltiradi deb aytish mumkin. Musiqa va harakatning o‘zaro bog’liqligi masalalari ko‘p marotaba psixologiya, pedagogika, fiziologiya, musiqaShunoslikda ko‘rib chiqilgan.

Birinchisi Musiqiy rivojlantirishni ta’minlaydi, ya’ni musiqiy eshituvni o‘stirish, harakatni musiqaga moslash ko‘nikmalarini shakllantirish, musiqiy bilimlarning o‘zlashtirishi; musiqiy va musiqiy eshituvni rivojlantirishni ta’minlaydi, harakatni musiqaga buysundira olish malakasini shakllantiradi, musiqiy bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ikkinchi yo‘nalish to‘g’ri harakat ko‘nikmalarini hosil qiladi: yurish (marshona, shaxdam, tetik, xotirjam, sportcha, tantanavor, keskin prujina yurish va hokazo); qadam tashlash (baland, oyoq uchida, keng, yumshoq, prujinali, xorovodli va hokazo); sakrashlar (engil, harakatchan); aylanishlar; qo‘l harakatlari (mayin, ohista, harakatchan); chapaklar (sekin, qattiq, past, baland, qo‘l siltab, bir-biriga yaqin ushlab turib, sirg’aluvchi «likopchalar», kaftlarni yaqin tutgan holda sirpanma harakatlar); raqs elementlari (o‘zbek xalq raqslaridan «oyna», «arqon», «elka uchirish», «koptokni Yuqoriga ot», chapak va yon tomonga qo‘l harakati, ball, pol’ka, golop, val’sga o‘xshash raqs elementlari va hokazo.); oyoq uchida aylanish, prujinali qadam bilan sakrashning uyg’unligi; qo‘l harakatlari (mayin, keskin); turli holatlarda turish va o‘zgartirish; buyumlar bilan harakat bajarish (koptok, lentalar, bayroqchalar bilan) ni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi yo‘nalish o‘quvchilarda tana harakatlarini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan; aniq va tez to‘xtash, harakatni o‘zgartirish va hokazo).

Dars boshida va o‘rta qismida qanday harakatlarni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lishi ham alohida ahamiyat kasb etadi.Bolalar tomonidan harakatning sifatli va aniq bajarilishi musiqiy obrazning tuShunishlari hamda o‘qituvchining asarni ifodali ijrosiga bog’liqdir.O‘qituvchi o‘quv materialini yoddan bilishi kerak. Harakat paytida u o‘quvchilarni kuzatishi, ko‘rishi va xatolarini tuzatishi zarur. O‘quvchi barcha harakatlarni avval o‘zi ko‘rsatib berishi zarur, ayniqsa 1-2 sinflarga. Chunki birgina tuShuntirish bilangina kerakli natijaga erishib bo‘lmaydi. Harakatlarni ko‘rsatish musiqaga bo‘lgan emosional javob qaytarishni kuchaytiradi.

O‘qituvchi barcha harakatlarni o‘rgatish jarayonida obrazli so‘z, tuShuntirish, she’riy matndan foydalanish maqsadga muvofiq. Harakatlarni tuShuntirishda yorqin taqqoslashlar o‘quvchilarga harakatlarni to‘g’ri va ifodali bajarishga yordam beradi. Masalan, "Mening jajji toychog’im" so‘zlari bolalarga tez, yengil, harakatchan, baland qadam tashlash va sakrama harakatlarining ifodaviyligini anglashda yordam beradi. Bu esa M.Otajonovning «Toychoq» pyesasi mazmunini, undagi musiqiy obrazning rivojlanishi xususiyatlari, asarning shaklini his etish va ongli tuShunish imkonini beradi.Musiqaga harakatlar bajarishda o‘qituvning texnik vositalaridan keng foydalanish lozim. Bu o‘quvchilarni ularga tanish bo‘lgan asarni yangi talqinda, jaranglashda ko‘rsatib berish, o‘qituvchiga o‘quvchilar bajarayotgan harakatlarning sifatini kuzatish, lozim bo‘lgan joylarda o‘zgartirishlar kiritishga imkon yaratadi.

O‘quvchilar aniq mo‘ljal uchun berilgan mashqlarni o‘zlashtirganlaridan so‘ng, darsga maxsus vazifalar kiritiladi: Musiqiy obrazning harakter xususiyatlarini harakatlarda ko‘rsata olish, bajara olish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan: marshning turli harakterida turlicha harakatlanishni o‘rganadilar: sportdagi marshda - tetik, o‘yinchoqlar marshida-engil, oyoq uchida; harbiy marshda-baland qadam bilan va hokazo.Bunda

S.Abramovaning «Marsh» kuyidan foydalanish mumkin. O‘qituvchi harakat uchun mashqlar va sinfga kirish uchun nafaqat marshlardan, balki tetik, tantanovor kayfiyatdagi asarlarni ishlatish mumkin. O‘zbek xalq kuyi «Qari navo» kuyi ostida sinfga kirib kelish mumkin. Eng oddiy raqs harakat elementlari bu - qarsak va oyoq tupillatishdir. Ularning yordamida o‘quvchilar o‘z taassurotlarini mustahkamlaydilar. Harakatlarda ritmik suratni o‘zlashtirishga katta ahamiyat berish kerak. O‘quvchilarning diqqatini to‘xtamlarga, bir tekis harakatning o‘zgarishiga, marsh musiqasining punktir ritmga qaratish kerak. Buni masalan, «Kim yuryapti?» degan o‘yin yordamida o‘rgatish mumkin. Bu erda bolalar bir necha guruhga bo‘linadilar: birinchi guruh «Turnalar» musiqasiga yura-yura bir oyoqda to‘xtaydi; ikkinchi guruh-poezd musiqasi ostida harakat-yurish tezligi oshadi va sekin-astalik bilan to‘xtaydi; uchinchi guruh - "Qurbaqalar" musiqasi ostida sakrab yurishadi. Shunday o‘yinlarni qo‘llasak, bolalarda ritm hissi faollashadi, musiqani yanada chuqurroq tinglash malakasi oshadi.Bu yoshdagi o‘quvchilar harakatlarni o‘zlari o‘ylab topadilar. Keyin esa o‘qituvchi harakatlarning ifodali bajarilishiga e’tibor qaratadi, chunki bolalar harakatlarni musiqa bilan aloqasini tuShunishlari, ularga tanish bo‘lgan musiqiy o‘yinlardagi harakatlarni qo‘llay olish malakasini shakllantirishga yordam beradi. Bolalar musiqaning harakter va ifoda vositalarining o‘zgarishini aniq sezishlari kerak. Musiqiy nutq elementlari, ifoda vositalari haqidagi taassurotlar ijodiy vazifalarda mustahkamlanadi. Jak-Dalkroz o‘z tizimini rivojlantirish va mukammallashtirish davomida bu ishga turli kasb vakillari – pedagoglar, musiqachilar, shifokorlar, keyinroq esa teatr xodimlari va musavvirlarni ham jalb etdi. “Bizning mashg‘ulotlarimiz san’atga bo‘lgan umumiy tayyorgarliklardan iborat”, - degandi Jak-Dalkroz va bu so‘zlari bilan ritmga o‘ld tarbiyaning mohiyatini to‘g‘ri ifodalab bergan edi[22].Musiqa va harakat ritmik mashg‘ulotlarning asosiy vositasini tashkil etadi.

22KonorovaY. Ritmika. Cho‘lponnomidaginashriyot-matbaaijodiyuyi. -T. 2006.

Xulosa o‘rnida shuni aytish jo‘lzki, musiqa madaniyati darslarida raqs va musiqali harakatlarga alohida e’tibor berishimiz kerak. Bu faoliyat turi o‘quvchilarni musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm-usul tuyg’usi va asar badiiyatini ifodalash, ijrochilik malakalarini rivojlantirish bilan birga ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino aytganidek - tebranish jismni chiniqtirsa, musiqa esa ruhiyatni tarbiyalaydi. Shu bo‘ls, musiqa o‘qituvchisi boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda, raqs san’atimizning oddiy harakatlarini bilishi va darsda qo‘llash usullarini puxta egallagan bo‘lishi bugungi davr talabidir

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. N.Abraykulova “Raqs”. Toshkent. “Turon-iqbol” 2018 y.

2. Qobilova, E. B. "Formirovat duxovnoe mirovozzrenie podrastayuщego pokoleniya cherez folklora janra."Oriental Art and Culture”3.1 (2022): 291-295.

3. Qobilova, E. B. "Formirovat duxovnoe mirovozzrenie podrastayuщego pokoleniya cherez folklora janra."Oriental Art and Culture”3.1 (2022): 291-295.

4. Bakirovna, Q. E. "Theoretical And Methodological Basis Of Overcoming Contradictions In Modern Musical And Educational Practice." Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 1.1 (2021): 117-120.

5. Qobilova, Ezoz. "The place of folk songs in Isajan sultan's stories."American Journal Of Social Sciences And Humanity Research”4.02 (2024): 44-49.

6. Qobilova, Ezoz. " The place of folk songs in Isajan sultan's stories.."American Journal Of Social Sciences And Humanity Research”4.02 (2024): 44-49.

7. Qobilova, Ezozxon. "The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons."Onomázein”62 (2023): December (2023): 1382-1388.

8. Qobilova, E. B., et al. "Qadimiy musiqiy san’atning shakllanish jarayoni."Science and innovation”2.Special Issue 14 (2023): 560-565.

9. Jamoliddinova, D., et al. "Bo‘lajak musiqa talimi o ‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning o ‘ziga xos xususiyatlari. E’zozxon Qobilova." 269.

MUSIQA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING CHOLG’U IJROCHILIGI MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

SHUKUROV OTAJON ZOXIDOVICH

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institut “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi talabasi,

SAMATOVA DILNOZA

Ilmiy rahbar “Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada maktab o‘quvchilarining cholg’u ijro mahoratini shakllantirish mazmuni va uning pedagogik muammolari yoritib berilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda cholg’u ijrochiligi mahoratini shakllantirish orqali ularning estetik tafakkurini rivojlantirish masalalari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *cholg'u ijrochiligi, ijrochilik mahorati, o‘quvchi, maktab, pedagogik muammo, bilim, ko‘nikma, malaka.*

Bugungi kunda har qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi uning ta’lim-tarbiya ishalarini to‘g’ri yo‘lga qo‘yilishi, fan, madaniyat sohalariga bo‘lgan e’tiboriga bog’liq bo‘lmoqda. Zotan ta’lim-tarbiya jamiyatning, millatning kelajagini ta’minlaydigan jahon miqiyosidagi nufuzini belgilaydigan ustuvor omil hisoblanadi. Shu ma’noda Prizidentimizning “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida" gi PQ-112 qarori muhim vazifalarni oldimizga qo‘yadi [1]. Prezidentimiz tashabbusi bilan eng avvalo ta’lim tizimini isloh qilish, uni yangicha, rivojlangan mamlakatlarning ilg’or tajribalari va milliy madaniy meros asosida shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. “Ta’lim to‘g’risida”gi yangi qonun mazmunida ham ta’limni milliy madaniy meros negizida barpo etishga urg’u berilganki, milliy madaniy meros namunalari mazmunida aks etgan g’oyalar yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ularda milliy ong, milliy nafosat, milliy madaniyat ruhida va estetik

tafakkurini tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ham musiqa ta’limining mazmunida milliy madaniy meros tizimida salmoqli mavqega ega bo‘lgan cholg’u ijrochiligi negizida shakllantirishga e’tibor kuchaydi. Shuningdek zamonaviy kompazitorlik ijod mahsuli bo‘lgan cholg’u sozlari uchun yaratilgan asarlari orqali o‘quvchilarni estetik tafakkurini tarbiyalash bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning badiiy didini shakllantirishga xizmat qiladi. Maktab o‘quvchilarini madaniy va ma’naviy merosimiz xazinasida muhim o‘rin tutuvchi qo‘shiq va kuylarimiz, durdona asarlarimiz bilan tanishtirib borish, ijro etish, ularni kelgusida jamiyatimizning barkamol insonlari, kelajakni yaratuvchilari bo‘lib yetishishlarida bebaho omil bo‘lib xizmat qiladi[4]. Cholg’u ijrochiligi haqidagi nazariy va amaliy tushunchalar, ijro uslublari, ijrochilik maktablari, mashhur ijrochilari, asarlarning g’oyaviy mazmuni, ulardagi badiiy estetik g’oyalarni, asarni mahorat bilan ijro etish orqali o‘quvchilarga yetkazish bilan ta’lim va tarbiya mazmunini yanada samarali bo‘lishini ta’minlash masalalari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shuning uchun ham o‘quvchilarning ijrochilik malakalarini, ijro mahoratlarini shakllantirish ahamiyati katta.

O‘qituvchining yana bir muhim vazifasi o‘quvchilarda musiqa mashg’ulotlariga qiziqishini o‘z ijrosida musiqani obrazli va badiiy govdalantirishga ishtiyoq va intilishni tarbiyalashi zarur [2].

Ijrochilik ko‘nikma va malakalar zahirasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarda musiqiy ijrochilik malakalarini shakllanganligini ta’minlash imkoniyati vujudga keladi. O‘quvchilarda ijrochilik malakalrini qay darajada shakllanganligi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi. Bu mezonlar o‘quvchilarning ijrochilik malakalarini shakllanganlik darajasini aniqlashda yordam beradi.

Ushbu mezonlar quyidagicha:

- o‘quvchilarni musiqa asarini tinglash va ijro etish, ular haqida ko‘proq bilishga bo‘lgan qiziqishlari va ishtiyoqlarini kuchayganligi;

- darsda o‘rganilgan kuy janri, tuzilishi, ijro uslublari, mualliflari, g’oyaviy-badiiy mazmuni haqidagi tasavvur va tushunchalari kengayganligi;

- musiqa asar xarakteri, ifoda vositalari, musiqiy-badiiy obrazlar mohiyatini anglash, his qilish, asar haqidagi o‘z ta’surotlarini so‘zlab berish iqtidorlarini oshganligi;

-asar badiiy mazmunini anglash, tushunish, asardagi obrazlilikni o‘zining shaxsiy ijrosida gavdalantirish mahoratini o‘sganligi;

-asarlarda eng nozik, hayajonli o‘rinlar, qochirimlar, nolalar, o‘ziga xosligi, mavjud murakkabliklarni his etishi, dinamik belgilarni aniq ifoda eta olishlari;

-o‘zining va sinf jamoasi ijrosini baholay olishi va unga naqadar to‘g’ri va ijodiy yondoshish malakasini rivojlanganligi;

Mazkur ko‘nikma va malakalarni to‘g’ri shakllantirish musiqa darslarini izchillik, tizimlilik, davomiylik, ilmiylik tamoyillariga asoslanganligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va ilg’or tajribalardan unumli foydalanishga ko‘p jihatdan bog’liq bo‘ladi. Har bir o‘qituvchi, pedagog o‘quvchilarda estetik jihatdan qadrli bo‘lgan asarlarni idrok qilish, baholash va yaratish qobiliyatini rivojlantirishga, e’tirof etib o‘tilgan mezonlarga tayangan holda ularni musiqiy-estetik tafakkurini shakllantirib borishga intilib ish tutish lozim [3].

Xulosa. Musiqa ta’limini amalga oshirishda, o‘quvchilarda musiqa ilmiga qiziqish uyg’otish muhim hisoblanadi. Musiqiy asarlarni ijro etish alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi bunday asarlarni, tinglagan, kuylarni cholg’u asbobida o‘z ijrolarida aks ettirgan o‘quvchida musiqa san’atiga mehr, uni o‘rganishga astoydil ishtiyoq paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘quvchilarda ijrochilik malakalarini shakllantirish ko‘p ma’noda muhimdir. Bunda cholg’u ijrochiligi eng kerakli vosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022 y., 07/22/112/0099-son).

2. Fayzullaev Y. Bo’lajak musiqa o’qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o’zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish. -T.: 2008

3. Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari» T., 2008 yil

4. Samatova D. “Cholg’u ijrochiligi (rubob sinfi)” o‘quv qo‘llanma. “STAP-SEL” nashriyoti Samarqand-2024 yil, 230 bet.

QO‘SHIQ AYTISH JARAYONIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH

Ergasheva Zilola Ko‘paysin qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

“Musiqa ta’limi va san’at” yo‘nalishi magistranti

Yosh avlod salomatligiga g‘amxo‘rlik qilish butun jamiyatning muhim vazifasidir. Inson tug'ilganda tabiiy ravishda bebaho sovg'a – “ovoz”ni oladi. Va yangi tug'ilgan chaqaloq o‘z-o‘zidan qiladigan birinchi narsa uning ovozini sinab ko‘rishdir. Aynan shu tabiat in'omi - ovoz kelajakda tana salomatligining asosi, poydevori bo‘lishi mumkin, chunki ovoz tana salomatligining ko‘rsatkichi sifatida ishlaydi. Ovoz indikatorlari kasalliklarining 80% turli xil kasalliklarning alomatlari bo‘lib, ovozning ko‘plab tana tizimlari bilan aloqasi tufaylidir. Aristotel davridan (miloddan avvalgi 384 yilda tug'ilgan) qo‘shiq aytishdan salomatlikni tiklash maqsadlarda foydalanilgan. [1]. Ovoz apparati xususiyatlarini, uni mustahkamlash va rivojlantirish usullarini bilish, shuningdek, yaxshi shaklni saqlash butun tanaga shifobaxsh ta'sir ko‘rsatadi.Qo‘shiq aytish bu eng yaxshi nafas olish mashqlaridan biridir, bu mashqlar davomida nafas olish mushaklari, diafragmali nafas olish, o‘rgatiladi, bronxial drenaj yaxshilanadi, o‘pkaning hayotiy sig'imi oshadi. Nafas olish funktsiyasining rivojlanishi bilan bir qatorda ovoz tovushi bo‘lgan tebranish ham shifo beradi. Bir qator zamonaviy tadqiqotchilar (V.P. Morozov, N.V. Fedyunina va boshqalar) ta'kidlaganidek, qo‘shiq aytish paytida hosil bo‘lgan tovush faqat 15-20% tashqi makonga boradi. Tovush to‘lqinining qolgan qismi ichki a’zolar tomonidan so‘riladi va ularning tebranishiga sabab bo‘ladi [4]. Rus olimi S.V.Shushardjan ta’kidlashicha, “vokal terapiyasi himoya va adaptiv reaksiyalarni faollashtiruvchi fiziologik usuldir. Qo‘shiq aytish barcha mamlakatlarda va barcha xalqlarda nihoyatda mashhur bo‘lgani uchun u o‘zining qulayligi bilan mavjud usullar bilan yaxshi taqqoslanadi.” [5]. Amerikalik

olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, qo‘shiq kuylash nafaqat o‘pka va ko‘krak qafasini rivojlantiradi, yurak mushagini mustahkamlaydi. Qo‘shiq aytayotganda, tez nafas olasiz va sekin nafas olasiz, bu yurak-qon tomir tizimining yaxshi ishlashiga yordam beradi. Vokal amaliyoti sovuqni oldini olishga yordam beradi. Unli tovushlarni kuylash bodomsimon bezlar va bezlarni tebratadi, nafas olish organlarini shilliq va toksinlardan tozalashga yordam beradi. Ovoz tovushi bosh suyaklari va miya bilan rezonanslashsa, halqum va miyaning bir-biriga yaqin bo‘lishi ham tananing himoya kuchlarini kuchaytiradi. Shunday qilib, qo‘shiq kuylash shamollashning yaxshi oldini olish hisoblanadi. Bu, ayniqsa, bola uchun juda muhimdir. [2]. Qo‘shiq kuylash paytida tananing holati umumiy salomatlikka ta'sir qiladigan yaxshi holatni rivojlantirishga yordam beradi. Qo‘shiq aytishning inson tanasiga ijobiy ta'siri haqida bilib, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ko‘p yillik pedagogik tajribaga ega bo‘lgan holda, biz "Qo‘shiq aytish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligini yaxshilash" usulini ishlab chiqdik. Ushbu uslub bola rivojlanishiga integral yondashuvni taklif etadi.



Qo‘shiq aytish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligini mustahkamlash[3].

Bolalar bilan amaliy ishda texnika dars boshida 6-7 daqiqa vaqt oladi va tizimli foydalanishni nazarda tutadi. O‘qituvchi o‘z xohishiga ko‘ra metodikaning har bir bosqichini o‘yin vazifalari bilan to‘ldirishi mumkin. Bunday ishning natijasi ko‘p sonli bolalarning sog'lig'ini saqlash yoki sog'lig'ini yaxshilash,

bolalarda ovozini to‘g'ri ishlatish, nafas olish, qo‘shiq aytish va nutqda nafas olish havosidan oqilona foydalanish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyati bo‘ladi, ovozning kuchini oshirish, nutq apparatini mustahkamlash, diksiyani, artikulyatsiyani yaxshilash, hissiy quvonchli, orzu qilingan faoliyat bilan shug'ullanish. "



Qo‘shiq aytish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligini mustahkamlash" usuli mashqlarni[2].

1. Salomlashish qo‘shig‘i. Bolalar boshqa mashg‘ulotlardan so‘ng musiqa xonasiga kelishadi. Ular o‘tirishlari, musiqiy faoliyatga moslashishlari kerak. Salomashish qo‘shig’i va musiqa faoliyati uchun motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi. Har bir yoshning o‘ziga xos salomlashish qo‘shig'i bor. Kichik va o‘rta yoshdagi bolalar guruhida ushbu qo‘shiqni o‘qituvchi boshlaydi va bolalar bu usullona salomga javob berib, asta-sekin birgalikda hamma qo‘shilishadi. Shu bilan birga, o‘ynash va kommunikativ aloqani o‘rnatish orqali biz vokal apparatini isitamiz, uzoq nafas ushlab turishning afzalliklarini eslab qolish, artikulyar apparatni isitish va dam olish imkoniyatini beramiz.

2. Nafas olish mashqlari. Bunday mashqlar diafragma nafas olishni rivojlantirishga qaratilgan. Bolalar uchun odatiy xususiyat - bu ko‘krakning yuqori qismining ustun ishtiroki bilan sayoz, sayoz nafas olishdir. Nafas olish mo‘'tadil,

juda ko‘p havosiz bo‘lishi kerak. Siz havodan tejamkorlik bilan foydalanishingiz kerak, shunda u iboraning oxirigacha davom etadi. Agar bolada diafragma nafasi rivojlanmagan bo‘lsa, bu uning iboralarni to‘liq talaffuz qilishiga, jumlalarni to‘g'ri tuzishiga to‘sqinlik qiladi va qo‘shiq aytish jarayonida u tez-tez havo olishiga to‘g'ri keladi.

3. Vokal mashqlari. Nafas olish mashqlaridan so‘ng, diafragma nafas olishdan foydalanib, biz ovozimizni ishlatamiz. Vokalchilarning professional tilida bu "Suyanchda kuylash" deb ataladi. Ushbu jarayonda diafragma faol ishlaydi. Vokal kordlari diafragma mushaklari tomonidan faol ravishda kuchayib, yuz, frontal va ko‘krak rezonatorlari tomonidan ranglangan kichik tovushni hosil qiladi. Shunday qilib, "tayanchda qo‘shiq aytish" ning yana bir ijobiy jihati paydo bo‘ladi - yuk tovush kordlaridan chiqariladi.Ovoz mashqlari baland eshitish tovushini rivojlantirishga, ovoz diapazonini kengaytirishga va rezonatorlarning to‘g'ri ishlashiga qaratilgan. Bunday mashqlar bolalarda cho‘zilgan, ohangdor qo‘shiq aytish, alohida tovushlarni va musiqiy iboralar uchlarini yaxlitlash qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Artikulyatsiya gimnastikasi. Sof ovozli talaffuz uchun kuchli, elastik va harakatchan nutq organlari, til, lablar va yumshoq tanglay kerak. Barcha nutq organlari o‘rgatish mumkin bo‘lgan mushaklardan iborat.

5. Qo‘shiqlar - qo‘shiq kuylaydi. Bu barcha oldingi ishlarni birlashtirgan bolalar qo‘shiqlari. Bolalar bu qo‘shiqlarni ijro etganda, diafragma faol ishlaydi, nafas olish iboralarda uzaytiriladi va artikulyar apparatlar rivojlanadi.

6. Erkin faoliyatda chiqish (boshqa sinflarda, guruhda, oilada). Barcha didaktik materiallar (nafas olish mashqlari, to‘g'ri turish, ovoz mashqlari, qo‘shiq aytish qoidalari, musiqiy va nutq o‘yinlari, tilni burish, qo‘shiqlar) o‘yin shaklida o‘rgatiladi. Bolalar buni osongina eslab qolishadi va guruh xonasida, ko‘chada, bolalar bog'chasiga borishda o‘z o‘yinlarida foydalanadilar. Pedagogik jarayonning boshqa ishtirokchilarini (ota-onalar va bolalar bog'chasi o‘qituvchilari) ushbu metodologiyaning mazmuni bilan tanishtirish tavsiya etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki ushbu texnikani ishimizda qo‘llagan holda, biz bolalarning ovozini va nafasini to‘g'ri ishlatish qobiliyatini rivojlantiradi; 40 ta musiqiy ibora uchun yetarli bo‘lgan havodan oqilona foydalanadi; Ular qo‘shiqlarning ohangini juda aniq ijro etadilar, ularning ijrosini nazorat qiladilar, imo-ishoralar bilan o‘zlariga yordam beradilar. Diafragma nafasini to‘g'ri qo‘llash orqali bolalarning ovoz kuchi oshdi; Ularning ovoz diapazoni kengaydi, ular undan qanday foydalanishni bilishadi. Bolalar hissiyot bilan, istak bilan kuylashadi; bolalarning diktsiyasi va artikulyatsiyasi yaxshilandi, bolalar kamroq kasal bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boltayev B.R. Maktabgacha ta’limda musiqa o‘qitish metodikasi.- 2023 y. “SamDCHTI” nashriyoti .(o‘quv qo‘llanma)

2. Davronova G.M. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. / – Samarqand: SamDU nashri, 2021yil

3 Malinina Ye.M. Vokalnoe vospitanie detey.-L: Muzыka, 1967 –87 s.

4 Morozov. V.P. Iskusstvo rezonansnogo peniya. Osnovы rezonansnoy teorii i texniki.- M.:Institut psixologii RAN, 2002 –494s.

5 Shushardjan S.V. Muzыkoterapiya i rezervы chelovecheskogo organizma. M. 1998 «Razvitie yazыkovых sredstv rechi u detey rannego i mladshego doshkolnogo vozrasta sredstvami dopolnitelnogo obrazovaniya».

SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQIY FAOLIYATLARDA O‘QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASH

JAMOLOV SARDOR OTABEK O‘G’LI

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

“Musiqa ta’limi va san’at” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. *Maqola umumta’lim maktablari, musiqa va san’at maktablarida sinfdan va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida musiqiy-estetik tarbiyani milliy usullarda tashkil etish vazifalari xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlari: *Umumta’lim, musiqa va san’at maktablari, sinfdan va maktabdan tashqari musiqa mashg’ulotlari, milliy musiqa, estetik tarbiya.*

Musiqa ta’limi va tarbiyasi o‘quvchi shaxsini axloqiy-estetik, ruhiy tarbiyalashda ustuvor o‘rin tutadi. Ta’lim tizimiga jamiyatni istiqbolini belgilaydigan, uning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy negizini mustahkamlaydigan kuch sifatida qaralyotgan hozirgi kunda har tomonlama rivojlangan yetuk yoshlarni umumta’lim maktablarida, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy faoliyatlarda axloqiy-estetik, ma’naviy, madaniy, musiqiy-nazariy va amaliy ishtirokchilik qobiliyatlarini uzluksizlik va uzviylik tamoyili tamoyili asosida shakllantirib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ma’lumki o‘quvchi-yoshlarni musiqiy-estetik tarbiyalash birinchidan musiqa pedagogikasining umumdidaktik tamoyillariga rioya etilishida, ikkinchidan musiqiy xotira, musiqiy idrok, tasavvur va musiqiy didni shakllantirish bilan bog’liq maxsus shart-sharoitlar bilan bevosita bog’liq. Mazkur shart-sharoitlar o‘quvchilarni o‘ziga xos pedagogic-psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda sinf va sinfdan tashqari mashg’ulotlarda dars va darsdan tashqari faoliyatlarning uyg’unlashgan aloqalarining shakli bo‘lgan zamonaviy o‘qitish va milliy pedagogikaning usullari orqali amalga oshiriladi. Bu umumta’lim maktablarida musiqiy to‘garaklar faoliyati, musiqa va san’at maktablari, bolalar musiqa maktablari musiqiy mashg’ulotlar samaradorligini ta’minlaydi. Shu bilan sinfdan va maktabdan tashqari musiqa mashg’ulotlarining quyidagi turlarini alohida ajratib ko‘rsatamiz:

1. An’anaviy tur – bunda musiqa faoliyatining barcha ma’lum turlaridan muayyan izchillikda foydalaniladi.

2. Ustun tur – uning tarkibida musiqiy faoliyat turlaridan biri ustuvor o‘rin tutadi.

3. Mavzuli tur – u tarkibidan muayyan mavzu tevaragida tashkil topadi.

4. Kompleks tur – xilma-xil san’at turlari materiallarga asoslansa ham muayyan mavzuni yoritishga qaratiladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa mashg’ulotlarining birinchi an’anaviy turi musiqiy faoliyatning har xil turlariga doir bir qancha vazifani bir vaqtda bajarishni sazarda tutadi. Lekin u hamisha ham o‘qituvchiga musiqiy tarbiya vazifasini to‘liq darajada hal qilish imkonini bermaydi.

Ikkinchi ustun turdan bolalar musiqiy faoliyatining bir turidagi qoloqlikning barham toptirishda foydalaniladi. Mazkur mashg’ulot turlariga muvofiq ravishda to‘rtta variant mavjud bo‘lib, ularning har birida musiqa tinglash, qo‘shiq aytish, bolalarning musiqa asboblarini chalishi, musiqa jo‘r bo‘lib harakat qilishi ustunlik qiladi. Mashg’ulotlarning uchinchi mavzuli turi darsning barcha tarkibiy qismlariga yaxlitlik bag’ishlaydi. To‘rtinchi kompleks tur esa darsning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi, xissiy tahliliy tafakkurni rivojlantiradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa mashg’ulotlarini o‘tkazishda musiqa o‘qituvchisiga 1-4-sinflar uchun nashr etilgan “Umumiy ta’lim maktablari musiqa dasturlari” yordam beradi. Darslarni o‘tish tajriba o‘tkazish jarayonida dasturlarda ko‘rsatilgan asarlardan to‘la foydalanish yoki aniq sharoitdan kelib chiqib, ulardan ayrimlarini boshqa maqul asarlar bilan almashtirish ham mumkinligini unutmaslik lozim. Bunday repertuar tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish zarur: o‘zbek musiqa asarlarining yuksak badiiy va tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchilarning musiqa asarini idrok etish va ijro qilishi uchun qulay bo‘lishi.

Maktablarimizda yosh avlodni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan estetik tarbiya masalalarini muvoffaqiyatli hal qilishga katta ahamiyat berilmaydi.

Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning eng asosiy va ancha murakkab majmualaridan biri bo‘lib, bolalarning musiqa san’ati asarlarini tushunishga ijro etishga o‘rgatish ishlarini kichik yoshdan boshlashni taqozo etadi. Shunga ko‘ra estetik tarbiyalash maqsadida barcha maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda bolalarning badiiy musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik bilan shug’ullanishga sharoit yaratish alohida nazarda tutilgan.

Musiqa bolalar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning g’oyat ta’sirchan va samarali vositasi sifatida ham ahamiyatga egadir. Maktabdagi musiqa ta’limi va tarbiyasi bo‘yicha sinfda va sinfdan tashqari olib boriladigan

faoliyatlar va shular orqali Vatanga muhabbat hislarini, xalqqa nisbatan do‘stlik va hamkorlik munosabatlari, barcha millat xalqlarining huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish bilan chambarchas uzviy bog’liqdir.

O‘quvchilarda o‘zbek musiqasi tilining o‘ziga xos xususiyatlariga doir tushuncha va tasavvur hosil qilish ancha murakkab, uzoq vaqt davom etadigan jarayondir. Bunda eng muhim vazifa o‘quvchilarning musiqani ongli idrok etishlari, mazmun-mohiyatini anglab yetishlariga erishishdir.

Ma’limki, umumta’lim maktablari, musiqa va san’at maktablari va boshqa musiqaga ixtisoslashtirilgan muassasalar darsliklari va o‘quv dasturlariga juda ko‘plab xalq musiqa ijodiyotiga mansub kuy-qo‘shiqlar kiritilgan. Ularni o‘rganish va qayta musiqa darslari va sinfdan tashqari mashg’ulotlarning tashkiliy-pedagogik tizimi xususiyatlariga ko‘ra jamoaviy tarzda olib boriladi. Shunga qaramay ashula va xor to‘garagi ishini umumlashtirgan holda mashg’ulotlarni quyidagi vazifalar bilan olib borilishini maqul deb bilamiz:

- Mashg’ulotlarda o‘quvchilarni ma’naviy, estetik kamolotiga alohida e’tibor qaratish.
- O‘quvchilarni istak, xoxishi va qiziqishlarini qondirish, ijro malakalarini uzliksiz rivojlantirib borish;
- Kuylashda so‘z eshitib kuylashga o‘rgatish;
- Ko‘p ovozli kuylash malakalarini egallash;
- Jo‘rli va jo‘rsiz ijro etish;

Amaliy mashg’ulotlar jarayonida nazariy bilimlarini qo‘llab ijro etish.

Ta’lim mazmunini milliylashtirish va maktab o‘quvchilarining estetik ma’naviyatini shu asosida shakllantish – bu ta’lim mazmuni va sifatini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa mashg’ulotlari o‘quvchilarda estetik madaniyat, milliy g’uruni shakllantirishda milliy musiqa namunalarini tiklash, o‘rganish va kuylash benihoya ta’sirli va samarali vosita ekanligini mutaxassis, pedagog olimlar chuqur bilishlari va o‘z faoliyatlarining nuqtai-nazaridan amalga oshirishlari zarur.

Musiqa o‘zining tabiatiga ko‘ra estetik fan bo‘lib, musqa va estetik tarbiyani alohida tasavvur etib bo‘lmaydi. Shunday ekan sinfdan va maktabdan tashqari mashg’ulotlarda o‘quvchilarga barcha estetik qarashlarni singdirib borish muhim. Bu esa ularda insoniy fazilatlarni: insonparvarlik, mehnatsevarlik, yurtga muhabbat, hurmat, fidoiylik kabi xislatlarni rivojlantirib borishga olib keladi.

Ta’lim-tarbiya jarayoni ta’sirchanligi o‘rtacha yuqori darajada bo‘lishi eng avvalo o‘quvchi shaxsining salohiyatini, estetik tarbiyani amalga oshirish borasida bilim, malaka va talaba shaxsiy sifatlariga va bolalar bilan muloqot qilish, hamkorlikda ish olib borish mahoratiga bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N. Qushayev. “Estetik tarbiya asoslari”.-Toshkent. O‘qituvchi. 1997-yil.

2. I.Qudratov. “Talabalarni xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash.-Toshkent”, FAN, 2009-yil.

3. A.Sh. Xalimov.” Musiqa va tarbiya”. - Toshkent, O‘qituvchi.1997-yil.

4. Narziyeva Z.A. “Xalq og’zaki ijodi vositasida o‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish”. -Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti 2012-yil.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASI MUSTAQIL VATANIMIZ TA’LIM TIZIMINING BOSH VAZIFASIDIR.

Jumayev Axmadjon Qodirovich.

JDPU Musiqa ta‘limi kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada umumta‘lim maktablarida musiqa ta‘limi va musiqiy to‘garaklar orqali yoshlarning musiqiy savodxonligini va estetik tarbiyasini rivojlantirishda musiqaning o‘rniga oid ko‘rsatmalar berilgan. Shuningdek, bugungi kunda musiqa ta‘limi jarayonida o‘quvchilarda musiqa san’atiga nisbatan qiziqish va havaslarining ortib borishi va bu san’atning yoshlar ma‘naviy kamolotidagi ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Musiqa madaniyati, estetik tarbiya, milliy madaniyat, ta‘lim muassasalari, milliy qadriyatlar.*

Respublikamiz taraqqiyoti va o‘zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarning har tomonlama komol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma’naviy baquvvat, bilimli, o‘z mustaqil Vatanimizdan fahrlanish tuyg’usiga boy kishilarni tarbiyalash zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta’lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko‘lamli muammolardan biridir.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o‘zida ahloqiy poklik, ma’naviy boylik va jismoniy barkamonlikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san’ati yetakchi o‘rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa san’atni inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma’naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda maktabning roli bilan bilan to‘garak ishining faoliyati shak-shubhasiz kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. U bolani ilmiy dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlanishi yo‘lida asosiy poydevor bo‘lib hizmat qiladi.

Estetik tarbiya go‘zallikni his qilish va tushunish tarbiyasi demakdir. Estetik tarbiyada darsdan tashqari olib boriladigan musiqa san’ati o‘ziga hos alohida o‘tkir ta’sirchanlikka ega bo‘lganligi sababli qadim zamondan buyon hozirgacha maorifchilarning e’tiboriga sazovor bo‘lib kelmoqda. Xullas, o‘quv maskanlarida musiqa orqali amalga oshiriladigan estetik tarbiya yosh avlodda go‘zal odob-ahloqiy, insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda muhim vosita ekanligi tarixdan ma’lum. Jamiyat taraqqiyoti moddiy madaniyat bilan ma’naviy madaniyatning bir-birini to‘ldirishi va uyg’unlashtirishi orqali amalga oshadi.

Umumta’lim maktablarida xalq musiqa ijodiyotini o‘rganishda nimalarga e’tibor berish, ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatni qanday tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqiy izlanishlar quyidagi pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish ijobiy natijalarga erishish imkonini berishni ko‘rsatdi:

1. Umumta’lim maktablarida dars va darsdan tashqari faoliyatda xalq musiqa ijodiyoti namunalaridan foydalanishda ularni ma’lum mezon va talablarga ko‘ra tanlash. Bu o‘rinda:

a) Xalq musiqa ijodiga mansub asarlarni har bir sinfning musiqiy mavzulari (yil, chorak) ga va dastur talablariga mosligi;

b) Asarlarning o‘quvchilarni musiqiy qiziqishi, qobiliyati va ijrochilik imkoniyatlariga to‘g’ri kelishi;

v) Tanlangan asarlarni o‘quvchilarning musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini, pirovard natijada milliy madaniyatini shakllantirish nuqtai nazaridan tarbiyaviy ta’sirchanlikka ega bo‘lishi;

g) O‘quvchilarda o‘qishga, mehnatga, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag’bat uyg’otishi;

d) Xalq musiqa ijodiyoti namunalarining, hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan umumhalq bayramlari, madaniy-ma’rifiy va ommaviy tadbirlar mavzulariga mosligi;

s) Asarlarni o‘rganish ta’limning boshqa tarkibiy qismlarini (musiqa savodi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi) o‘zlashtirish uchun ahamiyatliligi yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga egaligiga e’tiborni qaratilishi bizningcha to‘g’ri bo‘ladi.

2. Xalq musiqa ijodiyoti namunalaridan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda sinfda o‘rganilgan mavzularni mustahkamlash nuqtai-nazaridan yondashish. Dars va darsdan tashqari jarayonda xalq musiqasi namunalarini o‘rganish, ijro etish ishlari ular haqidagi tarixiy, adabiy, nazariy manbalardan imkon qadar ko‘proq foydalanish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu pedagogik talab musiqa darslarining asosiy faoliyat turlari mazmuni va mohiyatiga muvofiq holda ish yuritishni nazarda tutadi. Ya’ni, erkin tanlov asosida o‘rganilgan asar ayni vaqtdagi asosiy maqsad va hal etilayotgan vazifalarga ijodiy yondashish xarakterida bo‘lishi lozim.

3. Dars va darsdan tashqari faoliyatda o‘rganish uchun tanlab olingan namunalar o‘quvchilarni an’anaviy mumtoz va folklor yo‘nalishida mustaqil bilimlar olishga bo‘lgan talab va istaklariga mos kelishi va o‘qituvchi tomonidan mashg’ulotlarni tashkil etishda e’tiborda tutilishi lozim. Bu pedagogik sharoit o‘z mazmunida o‘quvchilarni musiqiy iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish

uchun izchil va maqsadli mashg’ulotlar olib borishni nazarda tutadi. Shuningdek, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni dars va darsdan tashqari mashg’ulotlarga imkon qadar keng va ommaviy jalb qilishni sinf va sinfdan tashqari ishlarda o‘zaro aloqadorlikni kuchaytirishni o‘qtiradi.

4. Xalq musiqa ijodiyotiga murojaat qilganda ularni qaysi mahalliy uslubga xosligi, janri, ijrodagi cholg’ular ishtiroki, raqs jo‘rligi kabilarga e’tibor berish eng muhim shartlardan hisoblanmog’i lozim. Chunki, bu jihatlar xalq musiqasini eng muhim xususiyatlarini aks ettiradi va o‘quvchilarni umummusiqiy biluv darajasini takomillashuviga, milliy musiqaning o‘ziga xos uslublarini, ijrochilik an’analarini chuqur o‘zlashtirishlariga ijobiy ta’sir etadi, ta’kidlab o‘tilgan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishishni kafolatlaydi.

5. Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qituvchisi dars va darsdan tashqari faoliyatda o‘quvchilarni xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borishga nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan doimiy ravishda tayyorgarlik ko‘rib, o‘z bilim va malakalarini oshirib borishi lozim. Chunki, bu faoliyatda o‘qituvchi-murabbiyning muvoffaqiyati uning xalq tarixi, madaniyati, urf-odatlari va an’analari, shuningdek, musiqa san’atidan qanchalik keng bilim va malakalarga ega ekanligiga hamda shaxsiy namunasiga ko‘p jihatdan bog’liq bo‘ladi.

Shunday ekan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. U o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o‘ziga xosligi shundaki, to‘garak dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o‘smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. SH.M.Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz”. Toshkent.2007-yil

2. N.Xasanova “Xor va xorshunoslik” O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Book Trade” 2023- yil.

3. Musiqa o‘qitish metodikasi. Tuzuvchi G. Sharipova. – T; TDPU- 2000 yil.

4. N.Xasanova. Cholg‘u ijrochiligida noxunli mezrobli cholg’ular va ularning o‘ziga hosligi. Oriental Art And Culture.scientifik methodical Journal. Volume 4 ISSUE.6 Kokand 2023- yil.

5. N. Xasanova. Xorovoy iskusstvo i vokal v xore. Science and Education. Scintific Journal. Vol. 4 No. 9. 2023.

6. Tafakkur gulshani. V. Voronsov kompozitsiyasi G‘.G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at” nashriyoti T

BOLALARDA MUSIQA IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Kuchkarbayeva Feruzaxon Xayrullo qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Musiqa ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim va boshlang’ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilarda musiqa fanining o‘qitish metodikasini hamda musiqa ijrochiligini rivojlantirish uslub va usullari yoritilgan. Kelajak avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda maktabda o‘qitiladigan barcha fanlar qatori nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyati darslarining ahamiyati va qo‘shiq ijro etish vaqtida ohangga ritmik jo‘r bo‘lishda kichik tavsiyalar ham o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar*: musiqa, qo‘shiq, ritm, musiqiy pedagogika, usul, uslub.*

Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilgan masalalarning aksariyati aynan bizning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Chunki yoshlar aynan ilmu hunar o‘rganadigan davr. Yoshlarning intellektual va jismoniy kamolotini ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etish, hududlardagi

islohotlarning sifat samaradorligi ustidan doimiy nazoratni olib borish bizning asosiy vazifalarimizdan biridir”[23].

Kelajak avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda maktabda o‘qitiladigan barcha fanlar qatori nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. Musiqa o‘zi nima degan savol tug‘ilishi mumkin? Musiqa-(yunoncha musike, musa) turli-tuman tovushlar bilan badiiy obroz yaratib beruvchi, g‘oyaviy emotsional mazmuniga ega bo‘lgan san’atning bir turi hisoblanadi[24]. Musiqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va inson hissiyotlariga faol ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa fani maktabda boshqa fanlarni o‘zlashtirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa jonli san’at turi sifatida davr, hayot, tabiat va inson his-tuyg‘ularini, orzu-istaklarini aks ettiradi. Uni quvontiradi, o‘ylantiradi va hayotdan ozuqa olishga xizmat qiladi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Farobiy aytganlaridek, “Bu fan tana sog‘lig‘iga foydalidir”. Bobomiz Shayx Sadiy “Musiqa odam ruhining yo‘ldoshidir”, degan edilar. Shunday ekan, biz musiqa o‘qitishni boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlashimiz lozim. Chunki, boshlang‘ich sinfda musiqa ta’limotining poydevori qo‘yiladi. Boshlang‘ich maktabda musiqa o‘qitishning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga musiqa san’atining go‘zallik qonunlari asosida o‘rganish malakasini singdirish va ularga musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Boshlang‘ich sinflardagi musiqa madaniyati darslari, umumiy ta’limning axloqiy-estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo‘lib hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitish quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘yadi:

O‘quvchilarda musiqaga ixlos uyg‘otish va ularning musiqiy qobiliyatlarini, ritm tuyg‘usini o‘stirish, musiqiy o‘quv, xotira, diqqat va badiiy didni shakllantirish.

[23] 2020-yil 29-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.
[24] Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati – Toshkent: G‘ofur-G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1987, 209 b

O‘quvchilarda milliy musiqa merosimizga va u orqali ona-vatanga muhabbat hissini tarbiyalash[25]. Andijon davlat pedagogika insituti Musiqa ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni kelajakda o‘z ishining mutaxasisi, malakali kadr, kelajak avlodlarga yaxshi ta’lim berish maqsadida hozirda ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Bunda talabaning bilimi, qiziqishi, istedodi, imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Musiqa ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun maxsus fanlar xususan Musiqa o‘qitish metodikasi Maktab repertuari, O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti, Musiqa asarlar tahlili, vokal va xor darslari hamda malakaviy amaliyot dasr mashg‘ulotlari bo‘lib o‘tadi. Biz ushbu darslarda o‘zlashtirganlarimizni kelgusida yangi metodlar bilan qo‘llashimiz mumkun.

Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligini amalga oshirishning eng asosiy sharti yuqorida bayon etilgan to‘rtta qat’iy qoidaga jiddiy amal qilishdan iboratdir.

Birinchidan, bilim va malakalaning chuqurligi, mustahkamligi va hayotiyligini taminlash, ya’ni mazkur asarni va uning ijro uslubi madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil qildirish.

Ikkinchidan, asarlarni tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

asarning bolaning ma’naviy hamda axloqiy tarbiyasi uchun mosligi;

musiqani o‘quvchilarning yoshi, ovoz diapozoniga mosligi;

sinfdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqtira olish va to‘la o‘zlashtirishga erishish.

Uchinchidan, darsda olinadigan bilimlar doirasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustahkamlash. Masalan, qo‘shiqlarni jumlalarga bo‘lib o‘rgatish va keyingi darslarda mustahkamlab takrorlash.

To‘rtinchidan, musiqa darslarida har bir yangi mavzu elementi dars faoliyatida to‘liq o‘zlashtiriladi va keyingi darslarda keng qo‘llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi.[26]

[25] Sharipova G. Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish metodikasi / darslik / - Toshkent - ”NIF MSH” - 2020, 136 b

[26] Sharipova G. Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish metodikasi / darslik / - Toshkent - ”NIF MSH” - 2020, 136 b

Bolalarda musiqiy ijrochiligini rivojlantirish bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bu ritm[27] va ritmni aniqlash, ohang va ohangni tushunish, musiqani o‘qish va yozish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bolalar nota yozuvlari haqida tushuncha va turli musiqiy uslublarni talqin qilish va ijro etish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Shuningdek, bolalarda ritmga to‘g‘ri tushishi, ritmni xis qilishlari lozim. Ritmni rivojlantirish uchun turli xil mashq va metodlar bor. Bulardan eng keraklisi, na’munada keltirilgan misollar orqali bolalar nota chozimlarini sanash orqali ritmga to‘g‘ri tushishni o‘rganishlari mumkin.

Bundan tashqari, ular turli xil musiqa janrlari va tarixiy davrlar bilan tanishishlari kerak. Bolalarni ritm, ohang va garmoniya kabi musiqiy elementlar bilan tanishtirish ularning tinglash qobiliyatini oshiradi va ijodkorlikni rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa ta’limi o‘quv faoliyatini yaxshilashi va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Bolalarda musiqa ijrochiligini rivojlantirish haqida gap ketganda, o‘rganish va ijodkorlikni rag‘batlantiradigan samarali strategiyalarni qo‘llash juda muhimdir. Bolalarda musiqa ijrochiligini tarbiyalash orqali biz kelajak avlodda musiqiy bilim va ijodning saqlanishi va o‘sishini ta’minlaymiz. Bu gullab-yashnayotgan va rang-barang musiqiy manzaraga yo‘l ochadi. Musiqa ijrochiligi bolalarga musiqa

[27] Ritm-(yunoncha, rythumos-bir tekis oqim) musiqa asaridagi tovushlarning uzun-qisqaliklari jixatdan bo‘lgan munosabatlar.

nazariyasi, nota yozuvlari va ijrochilik bo‘yicha mustahkam asos yaratadi. Bu ularni musiqa sohasidagi kelajakka tayyorlaydigan muhim ko‘nikmalar bilan ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati – Toshkent: G‘ofur-G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1987, 444 b

2. Sharipova G. Xodjayeva Z. Musiqa o‘qitish metodikasi / darslik / - Toshkent - ”NIF MSH” - 2020, 136 b

3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi, 2020-yil 29-dekabr

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINI MA’NAVIY-ESTETIK TARBIYALASHDA MUSIQANING O‘RNI

Rustamova Xurshidabonu Jamshidovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo‘lmish bolalarni estetik va ma’naviy boy, axloqan pok shaxs sifatida tarbiyalash muhim masaladir. Buni amalga oshirishda musiqaning ham alohida o‘rni va o‘ziga xos ahamiyati bor.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya — bu aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ya’ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, unihg dunyoqarashini kengaytirish, o‘z iqtidorini namoyon qila olishga, musiqani tushunishga va unga ijodkorona yondasha olishga o‘rgatishdan iboratdir.

Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g‘amxurlik qilar ekanmiz, san’at bilan muomala qilishdan hosil bo‘ladigan his-hayajondan uni o‘z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o‘rgatishimiz kerak. Shu sababli musiqa estetik tarbiya tarmog‘ining ajralmas qismi sanaladi.

Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, mazmuniga va his etishiga katta ta’sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqeylikni to‘g‘ri aks ettirgan musiqa asaridan o‘rinli foydalanish alohida o‘rin tutadi. Musiqa asari bolalarni fikrlashi, obrazli ifodalash hissiyoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa tovushining hamohanglik rivojida nutq va raqs elementlari muhim ahamiyat kasb etadi. Harakat elementlari musiqa asari ritmi bilan o‘zaro uyg’unlashin, moslashib bolalarni bir-birlariga birlashishni, vazifalarni maqsadli bajarishlarini osonlashtiradi.

Har bir bola musiqaning qaysi yo‘nalishini o‘rganishidan qat’iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim. Negaki, bugunki yosh avlod XXI asrda kuchga to‘lib, sog‘lom, bilimli, aqlli bo‘lib jamiyatimizning faol a’zolariga aylantirishdek ulkan vazifa musiqa rahbari va tarbiyachi zimmasida turibdi.

Ma’lumki, bolalarda kichik yoshlik davridan boshlab musiqani idrok etish, his etish, turmush va san’atdagi go‘zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go‘zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi.

Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo‘lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog‘i kerak. Omma orasida musiqali targ‘ibot olib bormay turib, to‘laqonli natijalarga erishib bo‘lmaydi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma’naviy boy va boshqa sifatlarni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o‘zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o‘stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta’sirini hisobga olganda haqqoniy va voqelikni to‘g‘ri aks ettirgan musiqiy asardan o‘rinli foydalanish alohida muhim o‘rin tutadi. Zero, musiqali

obrazlarning shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdagi dunyo va undagi go‘zalliklarni idrok etishga bevosita bog‘liqdir.

Shu borada musiqa mashg‘ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan qator faoliyatlarni taqozo etadi. Musiqa asarlai ijrosini tinglash, qo‘shiqlar kuylash, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa cholg‘ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi. Tarbiyachi o‘z dasturiga o‘zbek kompozitor va bastakorlarning bolalar uchun yozgan kuy va qo‘shiqlaridan kiritishi lozim.

Hozirgi kun talabi maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga musiqiy- estetik tarbiya berish borasida quyidagi aniq vazifalarni qo‘yadi:

– bolalarni tabiat go‘zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;

– estetik did va hissiyotni shakllantirish;

– hayotda go‘zallik tushunchasini to‘liqligicha anglashni o‘rgatish;

– bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;

– bolalarda go‘zallikni o‘z hayoti va faoliyatlariga olib kirishni o‘rgatish va hokazo.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ahamiyati uzluksiz ta’limning oldingi bosqichi sifatida muhim rol o‘ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o‘qitilish ahamiyati oshib bormoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi har bir fanning asosiy vazifasi bolalarni fikrlash va o‘ylashga o‘rgatishdir.

Uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim muhim o‘rin egallaydi. Agar kichik yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni hamda vatanparvarlikni musiqa yordamida uyg‘unlashtira olsak, bundanda ziyoda qudratni topa olmaymiz. Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo‘lishlariga zamin yaratar ekanmiz, ularning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e’tiborimizni qaratmog‘imiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 1993.

2. Bola ma’naviyatini shakllantirish. (Yo‘ldoshev J.tahriri ostida.) – ToShkent:
Sharq, 2000. – 301 bet.

3.Nurullayev F.G. Bolalarning musiqiy ta’limi. O‘quv qo‘llanma. B.:Durdona.2021.

4. Qodirov R. G‘. “Musiqa psixologiyasi” T: Musiqa. 2005- yil 7-b

5. Nurullayeva N.K. Nurullayev F.G “Maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqiy-estetik tarbiya berishda ilg`or pedagogik texnologiyalarning o`rni”.Monografiya.Buxoro “Kamolot”nashriyoti 2022-yil. 90 bet.

MAKTAB MUSIQA DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Mirzayeva Malohat Tohir qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
“Musiqa ta’limi va san’at” yo‘nalishi magistranti

Musiqa ta’limida noan’anaviy usullar asosida yangi ta’lim mazmuni o‘quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi. shu bois, musiqa madaniyati ta’limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Maktabda musiqa darslarini olib borish amaliyoti jarayonida bir necha xususiy, ya’ni musiqa san’atini o‘qitishga xos bo‘lgan metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kontrast (tafovut) – taqqoslash metodi. Akademik B.Asafev tomonidan taklif etilgan va musiqani idrok etish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Badiiy-pedagogik tahlil jarayonida o‘qituvchi qo‘ygan vazifalarga javob berish uchun bolalar asarni diqqat bilan tinglashlari, musiqiy obrazning o‘zgarishi va

rivojlanishini kuzatishlari, o‘zlarining taassurotlarini anglashlari va xulosalar qila olishlarini taqozo etadi. Musiqiy tajribasi kam bo‘lgan kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari uchun tafovutli (kontrast) asarlarni taqqoslash ularda qiziqish uyg‘otadi. Masalan, «Andijon polkasi» bilan «Dilxiroj» asarlarini taqqoslagan holda bolalar bu asardagi umumiylik taraflarini aytishga qiynaladilar. Lekin «Dilxiroj» asari bilan M.Mirzaevning «Bahor valsi»ni taqqoslaydigan bo‘lsak, bolalar bu asardagi tafovutni va umumiylikni tez anglaydilar. «Bahor valsi» asaridagi mayinlik, kuychanlik borligi, kuyning «aylanma» harakatga ega ekanligi, «Dilxiroj» esa sho‘x, shaxdam, quvnoq harakatchanligini his etadilar. Bu asarlar raqs janriga mansubligi ulardagi umumiylikni hosil qilishini bilib oladilar. [1,33b]

«Musiqiy tasavvurni buzish» metodi. Musiqaga emotsional ta’sirchanlikni, musiqa «nutqi» elementlarining ifodaviyligi haqidagi tasavvurni shakllantirishi metodidan boshqacha yo‘l bilan ham foydalanish mumkin. O‘qituvchi bolalarga yaxshi tanish bo‘lgan asarning ma’lum bir ifoda vositasini o‘zgartirgan holda ijro etadi va bolalarga musiqaning xarakteri o‘zgargan yoki o‘zgarmaganligini aniqlashni taklif etadi. Vazifani haletilishi jarayonida bolalar musiqa ifoda vositalarining ahamiyatini to‘laroq tushunadilar, asarlarni yanada diqqat bilan tinglashga harakat qiladilar. Masalan, o‘qituvchi N.Norxo‘jaevning «Hakkalar» qo‘shig‘ini o‘zgartirib (ritmini soddalashtirib, sur’atini sekinlashtirib) ijro etsa, bolalar qo‘shiqdagi o‘ynoqi, hazil, quvnoq xarakter yo‘qolgani, asar mazmuni kuyga mos kelmasligini yaqqol his etadilar. Ritm va sur’at bu asarda etakchi ifoda vositalari ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. [2,24b],

Qiyosiy tahlil. Musiqiy tajriba orttirish natijasida o‘smirlar katta, jiddiy asarlarni qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, 6-sinf o‘quvchilari 1-chorak davomida mumtoz musiqa, mumtoz kuy va ashulalar, SHashmaqom haqida umumiy tushunchalarga ega bo‘ladilar va mavzu yuzasidan «Soqiynomai Savti kalon», «Bayot I», «Mushkiloti Dugoh», «Suvora» kabi asarlarni tinglaydilar. 3-chorakda esa SHarq xalqlari mumtoz musiqasining qadimdan bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanganligini o‘rganadilar, xususan, turk, ozarbayjon, tojik va afg‘on xalqlarimusiqasi namunalari bilan tanishadilar va

qiyosiy tahlil jarayonida ularda o‘zbek musiqasiga ko‘p jihatdan «maqom» janri orqali, musiqa ladlari, usullar, nola va bezaklarda, cholg‘ularda umumiylik mavjud ekanligini bilib oladilar.Taqqoslash, qiyoslash metodlari vokal-xor ishlarida, musiqasavodxonligini o‘zlashtirishda ham yaxshi samara beradi. [4,32b]

Muammoli o‘qitish metodi. O‘smirlarda mustaqillikka,o‘zligini anglashga bo‘lgan intilish ularning musiqiy qiziqishlari, ehtiyojlariga ham ta’sir etadi. Zamonaviy estrada yo‘nalishlari,taniqli ijrochilar va guruhlarni bilish ularga o‘z do‘stlari orasida obro‘ olishga, o‘zlarini kattalardak his etishga yordam beradi. SHuning uchun o‘qituvchining «Bizga mumtoz musiqa kerakmi?», yoki «Ovro‘pa musiqasini bilish zarurmi?», yoki «Zamonaviy estrada musiqasini jiddiy san’at deb atash mumkinmi?» kabi savollari bahslarga sabab bo‘ladi. Turli qarashlarning yuzaga kelishi muammoli holatlarni keltirib chiqaradi va ular «bahs-munozara» larda o‘z echimini topadi.Bu jarayonda biron-bir o‘quvchi chetda qolmaydi. Munozara jarayoni o‘quvchilarning musiqiy tajribasini faollashtiradi, o‘z fikrini himoyalashga undaydi. Mohirona tashkil etilgan bahslarda o‘qituvchi o‘quvchilarga turli fikr-mulohazalarni, ulardagi ziddiyatlarni xolisona ko‘rsata olishga yordam beradi. Har qaysi taraf ma’lum bir xulosalar chiqaradi, musiqiy namunalarni keltiradi, ya’ni faol munozara o‘quvchilarda dunyoqarashlar, ishonchlarni shakllantiradi.Yuqorida keltirilgandan tashqari musiqiy ta’lim-tarbiyada yana bir qator xususiy va innovatsion metodlar qo‘llaniladi. Bular:- «Oldinga yugurib, orqaga qaytish») yoki «perspektiv va retrospektiv» metodi– dastur mavzulari asosida uzviylik aloqalarini tashkil qilishga,o‘quvchilarda musiqa haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan. [1,45b]

Uzviy aloqalar 3 holatda hosil qilinadi:

1. O‘quv yillari bo‘yicha.

2. Chorak mavzulari asosida.

3. Musiqiy asarlar asosida.

- musiqiy umulashtiruv metodi [5,1b], – o‘quvchilar tomonidan musiqa haqida chorak mavzulari asosida tayanch bilimlaro‘zlashtirishiga hamda darsda mavzu asosida yaxlitlikka erishishga qaratilgan. Hayotiy assotsiatsiyalar metodi

(S.Portugalov) – yuqoridagi metodga yaqin turadi. Bu metod o‘quvchilarda musiqiy asar qahramonining holatiga yaqin bo‘lgan alohida emotsional tuyg‘ular uyg‘otishga qaratilgan. Bunday holat suhbat yordamida, boshqa san’atlarga murojaat qilish orqali, hamda dars o‘tkazishda alohida muhit yaratish orqali amalga oshiriladi. (Masalan, S.Yudakovning «Maysaraning ishi» operasi asosiy qahramonlari – Oyxon, Cho‘ponali va hokazolarning musiqiy obrazlarini idrok etishda bu metoddan foydalanish mumkin); - polifonik metod [3,74b]– musiqiy diqqatni uzoq vaqt ushlab turishga qaratilgan. Bunda ijrochilik tahlili va hissiy-ma’naviy dramaturgiya vazifalari baravar hal etiladi. Bir asarni turli talqin va ijro uslublarida ketma-ket tinglash, ijrochilik talqinlarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Musiqiy ta’lim-tarbiya metodlarining turlicha ekanligi musiqa san’atining o‘ziga xosligi hamda o‘quvchilar musiqiy faoliyatining xususiyatlari bilan aniqlanadi. Bu metodlarning har biri alohida qo‘llanmasdan, balki bir-biri bilan bog‘liq holda, bir-birini to‘ldirgan holda uzviy amalga oshiriladi. Masalan, o‘smirlarning musiqiy asar bilan tanishuvini o‘qituvchi suhbat orqali boshlab,ularga oldin o‘tilganlar yuzasidan kompozitor va uning asarlari haqida savollar beradi (og‘zaki metod); suhbat davomida tanish fragmentlarni ijro qiladi (musiqiy ilova, eshituv ko‘rgazmaliligi);asarning yaratilishi tarixi yoki ijro tarixi, tinglovchilarda qoldirgan taasuroti haqida qiziq ma’lumotlar beradi (og‘zaki,undovchi metodlar). Shunday qilib, musiqa darsining maqsadiga ko‘ra belgilangan vazifalarni amalga oshirishda eng muqobil metodlarni tanlashi, darsda nafaqat faol bolalarni, balki passiv o‘quvchilarni ham ishga jalb eta olishi, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligi holatini yuzaga keltirish – musiqa o‘qituvchisining ijodkorligini, mahoratini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. D.A. Karimova. Musiiy pedagogik mahorat asoslari. Toshkent-2008 y.

2. Xo‘jaeva M. “Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi” Toshkent O‘zDK tahrir nashriyot bo‘limi. 2008 yil.

3. Sharipova G. “Musiqa va uni o‘qitish metodilasi” Toshkent “Turon - iqbol” nashriyot .2006-yil.

4.Abdullin E.B. Metodologicheskaya kultura pedagoga–muzыkanta: ucheb. posobie dlya stud. vыssh. ucheb. ped. zavedeniy. M. : Akademiya, 2002.

5. Gogoberidze A.G. Derkunskaya V.A. Teoriya i metodika muzыkalnogo vospitaniya detey doshkolnogo vozrasta / Ucheb. posobie dlya stud. vыssh. ucheb. zavedeniy. M. : Akademiya, 2005

MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARGA MUMTOZ KUY-QO'SHIQLARNI O'RGATISH ORQALI MUSIQIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

Muhammatova Ozoda

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

"Musiqa ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yuksak didni shakllantirish, estetik did va tafakkurini shakllantirish haqida so'z boradi. Bundan tashqari bugungi kunda umumta'lim maktablarida mumtoz kuy-qo'shiqlarni o'quvchilarga o'rgatish orqali ularning ma'naviyiyatiga ta'sir etuvchi omillar mazmuni haqida aytib o'tilgan.*

***Kalit so'zlari:** ma'naviyat, ma'rifat, ma'naviy ozuqa, mumtoz musiqa, milliy an'ana, milliy musiqa, milliy kuy-qo'shiqlar, vatanparvarlik, o'quvchi, musiqa darsi.*

Bilamizki, musiqa san'ati rivojlangan mamlakatlarda boy madaniy meroslarning biri hisoblanib, ardoqlab kelinadi. Buning sabablaridan biri sifatida, tarbiyaviy ahamiyati kuchliligida deb qaraladi. Musiqa san'ati orqali tarbiyalash, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri hisoblanib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni go'zallik olamiga olib kiradi va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun aytish mumkinki, musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Bu jarayonni samarali tashkil

etishda albatta, musiqa o‘qituvchilarning roli juda katta. Shu sabab bugungi kunda jahonda musiqa o‘qituvchilarni o’qitishning yangi metod va imkoniyatlarni yaratish haqida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan yurtimizda ham ta’lim tizimini rivojlantirish, yoshlarlarning ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirish, umummilliy qadriyatlarimiz asosida o‘zlikni anglashni o‘rgatish va ta’lim-tarbiya berish ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida qaralmoqda. Bu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida milliy mumtoz musiqa san’atimizning o’rni muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrda “Milliy mumtoz musiqamiz hisoblanmish, maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[28] gi qarori tufayli maqomchilik san’ati orqali madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodlarimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirish uchun maqom san’ati ustida ilmy-izlanishlar olib borish, uni keng jamoatchilikga targ‘ib qilish, yoshlarga uning tub mohiyatini anglash va foydalanishni o‘rgatish vazifa qilib qo‘yilgan[1]. Shuning uchun mamlakatimizda o’quvchi-yoshlarning musiqiy dunyoqarashi va madaniy saviyasini yuksaltirish, mumtoz musiqa san’ati orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodni yetuk shaxs etib tarbiyalash masalasi davlat dasturi sifatida ko‘rilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022-yildagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorida umumiy o‘rta ta’lim maktabi bitiruvchilarining kamida bitta milliy musiqa cholg‘usini ijro eta olganlik to‘g‘risidagi bahoni shahodatnomaga kiritish, musiqa o‘qituvchilarining kamida uchta milliy musiqa cholg‘usini bilishi, maktablarda havaskor ansambillarning tashkil etilishi, yangi darslik va o‘quv qo’llanmalarni yaratish, talabga javob bera oladigan malakali kadrlarni tayyorlash masalalari nazarda tutilgan[2]. Tabiiyki, bunday imkoniyatlarning yaratilishi natijasida talaba-yoshlarning mumtoz musiqamiz haqida tushunchalarining kengayib borishiga xizmat qiladi. Kelajagi buyuk davlatni qurish uchun eng avvalo ma’naviy kamol

[28] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qarori, 17.11.2017 yildagi PQ-3391-son.

topgan insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Asrlar davomida shakllangan va xalqimizning ma’naviy hayotidan muhim o‘rin olgan mumtoz kuy-qo’shiqlarimiz bu jarayonda tutayotgan o‘rni benihoya muhimligi bilan ham ahamiyatlidir.

O’zbek xalqining musiqa merosida xalq qo’shiqlari qatorida bebaho ijod namunasi bo’lgan mumtoz kuy-qo’shiqlar ham salmoqli o’rin egallaydi.

Mumtoz shoirlarimiz, xonanda va sozandalarimiz tomonidan yaratilib va ijro etilib kelingan deyarli barcha asarlar bevosita yoki bilvosita axloqiy-estetik tarbiya uchun xizmat qilib kelgan. Binobarin xalq ijodiyotiga munosib qo’shiq-ashulalar o’z matni ya’ni she’riy mazmunlarida ifoda etib kelingan g’oyalar bilan uyg’un holatda, ya’ni matn mazmuniga nihoyatda mos ohanglar kishilar hissiyotiga kuchli ta’sir etgan. Qo’shiq, ashulalarda odob-axloq, vatanparvarlik, Vatanga sodiqlik, uni himoya qilish, ravnaqi yo’lida kurashish, otaning qadrini bilish, e’zozlash, insoniy odob-axloq qoidalariga rioya qilish, insonlarga yaxshilik qilish, mehr ko’rsatish, do’stlikni qadriga yetish halollik, to’g’rilik singari insoniy fazilatlar madh etilgan. Yomon illatlarga nafrat, ulardan tiyilish, aks holda xalq nafratiga duch kelishi, insoniyligini yo’qotish mumkinligi haqidagi nasihatimiz she’rlar ilohiy muhabbat, sevgi, insoniy ishq, sadoqat vafoni tarannum etuvchi g’azallar hofizlar tilidan tushmay kelgan.

Musiqa darslarida o’quvchilarga o’zbek mumtoz musiqa haqida beriladigan bilim, tushunchalar tub mazmunida xalqimizning musiqa madaniyatining asrlar osha bizga yetib kelgan va ular ta’sirida hozirgi kunda ham yaratilayotgan, ijro etilayotgan nodir merosni qadrlash, asrab-avaylash, o’rganish orqali Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy-pedagogik tizimini yaratish va hayotga tadbiq qilish musiqiy ta’limni o’qitishning muhim muammolaridandir.

O’zbek mumtoz musiqasi vositasida shakllangan badiiy did, badiiy nafosat, musiqiy madaniyat va xalq musiqa merosiga ongli munosabat omillari sarasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Musiqiy asarning g’oyaviy mazmuni hamda ularda aks etgan badiiy obrazlarni, lirik kechinmalarni tasavvur qilish;

2. Musiqiy asar g’oyaviy mazmunining ohanglarda aks etishiga e’tibor berish, ularda o’zaro mutanosiblik va sinixronlikni anglash;

3. Kuy va ohangni mukammalligini ta’minlovchi o’ziga xos ijro talqinlarini sezish, ko’ra bilish, baholay olish;

4. Ijrochining ijro mahoratini baholay olish;

5. Asarlarning turli murakkablik darajasini anglash, ijro usuli (o’lchov-ritm), ohang bo’yoqlari, tovlanishlarini idrok etish ko’nikma va malakalariga ega bo’lish;

6. O’z ijro imkoniyatlarini bilgan holda namunalarni ijro eta olish malakalariga ega bo’lish; [5]

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qarori, 17.11.2017 yildagi PQ-3391-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son.

6. Begmatov.S Musiqa: 6-sinf uchun darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2017.

7. Matyoqubov O. Maqomot. T.: Musiqa, 2004.

8. Tolliboyev N.M. «O’zbek xalq musiqiy merosi» –Samarqand, 2000 –yil

MUSIQA SAFODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OVOZINI TARBIYALASH HAMDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Yarashev Jo‘rabek To‘rayevich

Buxoro davlat pedagogika instituti

Musiqa va tasviriy san’at kafedrasi dotsenti

Annotatsiya.*Maqolada musiqa o‘qituvchisi musiqa tinglash jarayonida samarali texnikani qanday tashkil qilishi, o‘quvchilarni shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirish, ularning musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, shuningdek, yoshlar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilganligi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa tinglash, usul, mahorat, san'at, musiqa, madaniyat, shaxs, musiqiy savodxonlik, nafislik, badiiy did, milliy g‘urur.*

Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar ovozini tarbiyalash vokal dinamik sezgini rivojlantirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bunda har bir ijrochining o‘z ovozini ma’lum balandlikda jaranglashi, eshitish hamda boshqa kuylovchilarning ovozini ham eshitish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

O‘quvchilar ovozini rivojlantirish va tarbiyalashda talaffuz yoxud diksiyaning ham roli kattadir. Musiqa madaniyati darsida qo‘shiqni ijro etuvchilar uchun asar mazmunini tushunish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda ijro etiladigan asar tinglovchilarga ham aniq yetib borishi zarur. Shuning uchun ham darsda qo‘shiqni ijro etuvchi o‘quvchilar asar matnini aniq talaffuz qilish qobiliyatiga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar mungli, sho‘x, marsh, raqs, tez va ravon aytiladigan qo‘shiqlarni bir-biridan farq qilishini o‘rgnish lozim. O‘quvchilar tovushlar cho‘zimi va balandligi haqida dastlabki tushunchaga ega bo‘lmoqlari hamda nota yozuvini o‘rgnishga kirishishlari muhim hisoblanadi. Dastlab o‘quvchilar “baland” va “past” tovushlar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladilar. Musiqa o‘qituvchisi o‘quvchilar diqqatini kuylanadigan qo‘shiqda ovozini goh ko‘tarib borishi goh pastlanuvchi, ba’zida esa bir xil balandlikda saqlanib turish holatlariga jalb qilish kerak.

Buning uchun quyidagi metodik usuldan foydalanadi:

- O‘qituvchi qo‘llarini yuqoriga yoki pastga harakatlantirish yo‘li bilan tovushlar balandligini ko‘rsatadi;
- O‘quvchilarga qo‘shiqdagi mavjud bo‘lgan tovushlarning birin-ketin yuqoriga yoki pastga kuylash ham mumkinligini tushuntirish maqsadida tovushqator zinapoya shaklida chizib ko‘rsatiladi.

Mana shu xildagi mashg‘ulotlardan keyin tovushqatorning biror bo‘lagi nota yozuviga qarab kuylanadi.

O‘quv yilining oxirida o‘quvchilar nota yozuvini qo‘llanish va qo‘shiqlarni tushunib kuylash malakasini hosil qila boshlaydilar. Ularda musiqani tinglash va undan ta’sirlanish qobiliyatlari rivojlana boradi. Shuni esda saqlash lozimki

kelajakdagi musiqa tarbiyasining barcha asoslari mana shu boshlang‘ich sinf mashg‘ulotlaridan boshlanadi hamda o‘quvchilarning musiqaviy bilim darajasi kengayadi. Qo‘shiq kuylash uslublari – notaga qarab kuylash, tovushqator bo‘lagini kuylash, birinchi oktavaning do tovushidan ikkinchi oktavaning do tovushigacha bo‘lgan tovushqatorni o‘z ichiga olgan qo‘shiqlarni kuylash singari birinsi sinf mashg‘ulotlarini ikkinchi sinfda davom etaveradi. Qo‘shiqlarni o‘rgatish jarayonida dastlab notalarining nomlari aytiladi, so‘ngra ular kuylanadi.

Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar musiqaning ifoda vositalari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladilar. O‘qituvchi har bir musiqa darslarida kuylanadigan qo‘shiqlarning mazmuni, xarakteri hamda xilma-xil ifoda vositalarini o‘quvchilarga anglatishi lozim.

Musiqa darslarida o‘qituvchi o‘quvchilarga lad haqida ma’lumot berib boradi. O‘quvchilar dastlab ladning eng oddiy elementlari, so‘ngra ularning tuzilishi, tarkibi, bosqichlari, xarakteri kabi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Ladning eng oddiy elementlaridan biri biror bir qo‘shiqning tugallangan yoki tugallanmaganligidir. So‘ngra qo‘shiq kuyning tugallanishida muhim rol o‘ynaydigan tovush ya’ni tonika haqida tushuncha beriladi.

O‘quvchilar altersiya belgilari – diez va bemol bilan tanishadilar. Qo‘shiqlarni notaga qarab o‘rganish va kuylash mashg‘ulotlari ko‘proq amalga oshiriladi. Solfejio qilib kuylanadigan mashq va qo‘shiqlar aksariyat hollarda tayyorlanmasdan turib to‘g‘ridan-to‘g‘ri notaga qarab aytilishi lozim.

Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar ovozini tarbiyalab borishda quyidagi natijalarga erishiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda uchraydigan qator masalalar, ovozni rivojlantirish va tarbiyalashning ayrim usullari haqida fikr yuritiladi. Musiqa darslarida o‘quvchilar ovozini rivojlanirish va tarbiyalashda ovozni qizdirish juda katta ahamiyatga egadir.

Ovozni qizdirish dars mashg‘ulotlari boshida olib boriladi. Shu bilan bir qatorda ovozni sozlash, ovoz apparatini asar ustida ish olib borishga tayyorlash vazifasini bajaradi. Ovozni qizdirish quyidagi talablar asosida olib borilsa, ovozni rivojlantirishda yaxshi natijalar beradi.

1. Ovozni qizdirishda qo‘llaniladigan vokal xor mashqlari o‘quvchilarning ovoz diapazoniga mos bo‘lishi lozim.

2. Mashq kuylashda o‘quvchilar pastki hamda yuqori registrda erkin ayta olishlari, zo‘riqib yoki qiynalib kuylashga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

3. Vokal-xor mashqlari asta-sekin shoshilmasdan olib borilishi lozim.

4. Mashqlarni kuylash vaqtida noto‘g‘ri talaffuzda kuylashga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

5. Mashqlarni o‘rtacha balandlikda kuylatish lozim bo‘lib, juda baland yoki past kuylashga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

6. Kuylash jarayonida ijrochilarning sifatli va erkin kuylashiga e’tibor berish lozim.

7. Barcha tovushlarning bir xil balandlikda kuylanishiga e’tibor berish kerak.

Yuqorida bayon etilgan talablar faqat mashq kuylashda emas, balki asarlar o‘rgatish jarayonida ham qo‘llanilishi talabga muvofiqdir. Shu talablar asosida maxsus vokal-xor mashqlari doimiy ravishda olib borilsa, o‘quvchilarning kuylash malakalari o‘sib borishi va ovoz apparatining yildan-yilga rivojlanib borishi mumkin. Musiqa darsida o‘quvchilarning ovozini rivojlantirishda vokal-xor mashqlarining yoki kuyning pastdan yuqoriga tomon harakati yoki yuqoridan pastga tomon harakatida kuylash ham foydalidir. Chunki, bu mashqlar o‘quvchilar ovoz diapazonini rivojlantiradi va o‘stiradi. Musiqa darslari jarayonida o‘quvchilar ovozini rivojlantirish va tarbiyalashda vokal-xor mashqlaridan tashqari qo‘shiqlar muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, umumta’lim maktablarida o‘tiladigan musiqa madaniyati darslari o‘quvchilar ovozini tarbiyalash, vokal dinamik sezgini rivojlantirib borishda musiqa savodi, musiqa tinglash kabi faoliyat turlari bilan birgalikda olib borilsa katta samara beradi. To‘g‘ri qo‘shiq kuylash, o‘quvchilarning ovozini tarbiyalash va rivojlantirish kabi malakalarga erishiladi. O‘quvchilarda musiqa faniga bo‘lgan qiziqish hamda qo‘shiq kuylashga bo‘lgan havasi yanada ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yarashev J. Artistic and aesthetic features of “buchor” tune // Eastern European scientific journal. 2019, pp. 118-122.
2. Jurabek Turaevich Yarashev Muzыkalnaya terapiya // scientific progress. 2021. №5. url: https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalnaya-terapiya.
3. Dilnavoz O‘ktamovna Muratova Musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati // scientific progress. 2021. №5.
4. Yarashev J. T. Bukhorcha" and "Mavrigi" song classes-as a national and noetic spiritual values of the Uzbek nation //Traditsionnaya i sovremennaya kultura: istoriya, aktualnoe polojenie, perspektivы. – 2013. – t. 114. – s. 2181-1601.
5. Yarashev J. T. Research on Bukhara music heritage through axiologic features //European Journal of research and reflection in educational sciences vol. – 2019. – t. 7. – №. 12. – s. 2181-1601.
6. Yarashev J. T. Songs of composite cycles of "Buhorcha" and "Mavrichi" as musical values for uzbek people //aktualnыe problemы sovremennoy nauki. – 2012. – №. 2. – s. 93-95.
7. Yarashev Jurabek Turaevich Nravstvennoe i esteticheskoe vospitanie uchaщixsya v sotrudnichestve s semey i shkoloy // academy. 2021. №3 (66). url: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie uchaschihsya-v-sotrudnichestve-s-semiey-i-shkoloy (data obraщeniya: 30.03.2022).

O‘RTA UMUMTA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARI OVOZINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI.

Muzaffarova Nurjona Najmiddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Musiqa ta’limi yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya.*Maqolada musiqa o‘qituvchisi o‘quvchilarning ovozini to‘g‘ri yo‘naltirish texnikasini qanday tashkil qilishi, shuningdek, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilib kuylashni o‘rgatishga qaratilganligi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: musiqa, kuy, xor, vokal, usul, mahorat, san'at, musiqa, madaniyat, shaxs, musiqiy savodxonlik, nafislik, badiiy did.*

Musiqa darslarida o‘quvchilar ovozini tarbiyalash vokal dinamik sezgini rivojlantirib borishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda har bir o‘quvchining

o‘z ovozini ma’lum balandlikda jaranglashi eshitish hamda boshqa qo‘shiq kuylovchilarning ovozini ham eshitish qobiliyatini o‘stira borish lozim.

O‘quvchilar ovozini rivojlantirish va tarbiyalashda talaffuz yoxud diksiyaning roli juda muhim hisoblanadi. Musiqa darslarida maktab dasturida ko‘rsatilgan qo‘shiqlarni ijro etuvchilar uchun asar mazmunini tushunish muhim ahamiyatga egadir va shu bilan bir qatorda ijro etiladigan asar tinglovchilarga ham aniq yetib borishi zarur. Shuning uchun ham darsda ijro etuvchi bolalar asar matnini aniq talaffuz qilish qobiliyatiga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Birinchi sinfda o‘quvchilarga maktab dasturidagi mungli, sho‘x, marsh, raqs, tez va ravon aytiladigan qo‘shiqlarni bir-biridan farq qilishini o‘rgnish lozim bo‘ladi. O‘quvchilar tovushlar cho‘zimi va balandligi haqida dastlabki tushunchaga ega bo‘lmoqlari va nota yozuvini o‘rgnishga kirishishlari lozim. Dastlab o‘quvchilar “baland” va “past” tovushlar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladilar.

O‘qituvchi bolalar diqqatini aytiladigan qo‘shiqda ovozini goh ko‘tarib borishi goh pastlanuvchi, ba’zida esa bir xil balandlikda saqlab turish holatlariga jalb qilish kerak bo‘ladi. Buning uchun quyidagi metodik usul foydalidir:

- o‘qituvchi qo‘llarini yuqoriga yoki pastga harakatlantirish yo‘li bilan tovushlar balandligini ko‘rsatadi. Natijada ko‘rib eshitib bolalar idrok qiladilar;
- bolalarga qo‘shiqdagi mavjud bo‘lgan tovushlarning birin-ketin yuqoriga yoki pastga aytish ham mumkinligini tushuntirish maqsadida tovushqator zinapoya shaklida chizib ko‘rsatiladi.
- bolalarni tovushlarning xilma-xil cho‘zimlari bilan tanishtirish lozim.

Maktab o‘quvchilari tomonidan musiqa darslarida aytiladigan qo‘shiqlarda uchraydigan chorak va nimchorak notlari o‘rganiladi, xolos. Bolalarning “chorak” yoki “nimchorak” cho‘zimlarini nomlarini tushunish qiyin bo‘lgnligi sababli bu so‘zlarni shartli ravishda “uzun” va “qisqa” deb tushuntirish mumkin. Birinchi yarim yillikda nota yozuvini o‘rgnishga tayyorgarlik mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Ikkinchi yarim yillikda bolalar birinchi oktavaning “do” tovushidan boshlab, ikkinchi oktavaning “do” tovushigacha bo‘lgan oraliqdagi notalarni nota yo‘llariga

yozishni hamda ularning mohiyatini bilib oladilar. Shu bilan bir qatorda “skripka” hamda “bas” kalitlari bilan tanishadilar. Tovushlar balandligi va kalit belgilarini ko‘rsatishdan oldin beshta parallel nota yo‘li ko‘rsatildi. Notalarning mana shu parallel chiziqlar ustiga va orlig‘iga yozilishi, lozim bo‘lganda esa nota yo‘lining ostidan va ustidan beshtadan qo‘shimcha chiziqchalar chizilishi tushutirildi. So‘ngra nota yo‘liga skripka kalitida yozib ko‘rsatiladi. Masalan:

Notalar nota chiziqlarida yozilishi: Notalar chiziqlar orasida yozilishi:



Mana shu xildagi mashg‘ulotlardan keyin tovushqatorning biror bo‘lagi nota yozuviga qarab kuylanadi.

Musiqa madaniyati darslarida bolalar ovozini tarbiyalab borish serqirrli va murakkabdir. Bugungi zamonda musiqaviy sezish va ovozini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda uchraydigan qator masalalar, ovozni rivojlantirish va tarbiyalashning ayrim usullari haqida fikr yuritiladi. Musiqa darslarida o‘quvchilar ovozini rivojlanirish va tarbiyalashda ovozni qizdirish juda katta ahamiyatga egadir.

Ovozni qizdirish dars yoki mashg‘ulot boshida olib boriladi. Va shu bilan bir qatorda ovozni sozlash, ovoz apparatini asar ustida ish olib borishga tayyorlash vazifasini bajaradi. Ovozni qizdirish quyidagi talablar asosida olib borilsa, ovozni rivojlantirishda yaxshi natijalar beradi.

1. Ovozni qizdirishda qo‘llaniladigan vokal xor mashqlari bolalarning ovoz diapazoniga mos bo‘lishi lozim.

2. Musiqiy mashqlarni bajarishda o‘quvchilar pastki hamda yuqori registrda erkin ayta olishlari, zo‘riqib yoki qiynalib aytishga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

3. Vokal xor mashqlari asta-sekin shoshlmasdan olib borilishi lozim.

4. Musiqiy mashqlarni kuylash jarayonida noto‘g‘ri talaffuzga aytishga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

5. Mashqlarni o‘rtacha balandlikda kuylatish lozim juda baland yoki juda past kuylashga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

6. Kuylash jarayonida ijrochilarning sifatli va erkin kuylashiga e’tibor berish lozim.

7. Barcha tovushlarning bir xil balandlikda kuylanishiga e’tibor berish lozim.

Yuqorida bayon etilgan talablar faqat mashq aytishda emas, balki asarlar o‘rgatish jarayonida ham qo‘llanilishi talabga muvofiqdir. Shu talabalar asosida maxsus vokl-xor mashqlari va asarlari doimiy ravishda olib borilsa, o‘quvchilarning kuylash malakalarini o‘sib borishi hamda ovoz apparatining darsdan-darsga yildan-yilga rivojlanib boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qituvchidan tanlanadigan qo‘shiq ovoz diapazoniga mos bo‘lishi lozim. Dars jarayonida shunday hollar bo‘lishi mumkinki, qisqa vaqt ichida bir necha yoki murakkab qo‘shiqni ijro etish rivojlantiriladi. Bunday sharoitda o‘qituvchi mashg‘ulotlarni kuchli bolalarga tayangan holda tez tempda o‘tishga majbur bo‘ladi.

Musiqaviy qobiliyat jihatdan bo‘sh yoki yetarli tayyorgarligi bo‘lmagan bolalar o‘rgatiladigan qo‘shiqni tez o‘zlashtirish qobiliyatiga ega emaslar, natijada bolalarning charchashi va hatto ovoz apparti kasallanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham qo‘shiqni o‘rgatishda, ovozni rivojlantirishda, tarbiyalashda, mashg‘ulot vaqtlarini va har bir qo‘shiqqa ajratiladigan vaqtni uning oddiy va murakkabligiga qarab rejalashtirish lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish vuvkinki, musiqa darslarida o‘quvchialrning ovozini rivojlantirishda vokal-xor mashqlarining yoki kuyning pastdan yuqoriga tomon harakati yoki yuqoridan pastga tomon harakatida kuylash ham juda foydalidir. Chunki bu mashqlar bolalar ovoz diapazonini rivojlantiradi va o‘stiradi. Musiqa darslari jarayonida o‘quvchilar ovozini rivojlantirish va tarbiyalashda vokal-xor mashqlaridan tashqari qo‘shiqlar kylansa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yarashev J. Artistic and aesthetic features of “Buchor” tune // Eastern European scientific journal. 2019, pp. 118-122.

2. Jurabek Turaevich Yarashev muzыkalnaya terapiya // scientific progress. 2021. №5. url: https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalnaya-terapiya.

3. Dilnavoz O‘ktamovna Muratova musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati // scientific progress. 2021. №5.

4. Yarashev J. T. Bukhorcha and "Mavrigi" song classes-as a national and noetic spiritual values of the uzbek nation //Traditsionnaya i sovremennaya kultura: istoriya, aktualnoe polojenie, perspektivы. – 2013. – t. 114. – s. 2181-1601.

5. Yarashev J. T. Research on Bukhara music heritage through axiologic features //European journal of research and reflection in educational sciences vol. – 2019. – t. 7. – №. 12. – s. 2181-1601.

6. Yarashev Jurabek Turaevich Nravstvennoe i esteticheskoe vospitanie uchashixsya v sotrudnichestve s semey i shkoloy // academy. 2021. №3 (66). url: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie uchaschihsya-v-sotrudnichestve-s-semiey-i-shkoloy (data obrasheniya: 30.03.2022).

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA DARSLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Muzaffarova Nurjona Najmiddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Musiqa ta’limi yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Maqolada musiqa o‘qituvchisi va o‘quvchilarning estetik tarbiyasi, musiqa madaniyatining inson tarbiyasiga ijobiy ta’siri hamda o‘uvchilarni musiqiy estetik tarbiyaga o‘rgatishga qaratilganligi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa, kuy, estetika, tarbiya, mahorat, san'at, musiqa, madaniyat, nafislik, badiiy did.*

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti umumiy ta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari jumladan adabiyot, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog‘langan.Barcha o‘quv fanlari qatori musiqiy ta’limda ham davlat ta’lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to‘la qonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar hamda bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o‘z aksini topadi. Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tariyalashda ulrni barkamol bo‘lib yetishishlarida o‘ziga xos va takrorlanmas manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa ta’limidan davlat ta’lim standartlari asosida yangi ta’lim mazmuni o‘quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli va musiqiy did kabi hislarni rivojlantirishni taminlaydi.

O‘quvsilarning musiqiy estetik rivojlanishlari uchun o‘qituvchi o‘zining ish faoliyatida sidqidil tayyorlanib, darslarni yuksak metodik darajada o‘tilishini ta’minlashi lozim. Zero, dars o‘qituvchidan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik, hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishini talab etadi. Samarasiz, omadsiz dars, kamchiliklar uzoq vaqt o‘qituvchiga orom, halovat bermaydi, ortga nazar solib uni sabablarini qidirishga ehtiyoj sezadi.

Musiqa madaniyati darslari musiqiy faoliyatning turli shakllarini o‘z ichiga oladi. Bular ommaviy jamoaviy aytim, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa tinglash. Savodxonlik musiqa ijodkorligi bolalar cholg‘u ansambllarida chalish faoliyatidir.

Dars musiqa tarbiyasi sistemasida yetakchi omil hisoblanadi, zeroki, unda bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa darslari boshqa fan darslaridan o‘zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalardan ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otish bilan ajralib turadi. Musiqa darslari eng avvalo tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning mantiqiy mazmunidir.

Musiqa darslari quyidagi spesifik xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, u musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir namunalardan xor mashg‘ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg‘u asbobida chalish ritmik harakatlar bajarish elementlridan iboratdir. Shuning uchun u aralash dars tipiga kiradi.

Ikkinchidan, musiqa boshqa san’at turlaridan o‘zining ifoda vositalari, “tili” bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot, badiiy so‘z, tasviriy san’at ranglar va grafik chiziqlar raqs, badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Hatto ko‘zi ojiz kishilar ham yetuk musiqa ijrochilarining yetishib chiqishiga sabab, tasviriy san’at va haykaltaroshlik asarlari ko‘rish orqali, badiiy adabiyotni o‘qish va eshitish vositasida, kino va teatrni ko‘rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina idrok eta olamiz. “Faqat musiqiy quloqgina musiqaviy hissiyotni uyg‘ota oladi”.

Musiqa vositasida ifoda qilinadigan hiy-tuyg‘ularini so‘z bilan ifodalash qiyin. “Qachonki, so‘z ojizlik qilsa musiqa yordamga keladi”.

Uchinchidan, musiqa bolalarga faol emotsional ta’sir ko‘rsatadi, quvontiradi, ijobiy kechinmalar uyg‘otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsida bolalar quvnoq, xursand bo‘lib hordiq chiqaradilar.

Musiqa to‘lqinlantiradi bolalarni ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatib muayyan kayfiyat uyg‘otadi. Shakllangan badiiy taassurotlar o‘qituvchi ta’sirida nafaqat ifodali ijro, balki “so‘z” san’ati, yuz ifodasi, turli harakatlar yordamida yanada kuchaytiradi. O‘quvchilar diqqati yangrayotgan musiqaga jalb etilib, ularning xayoloti rivojlantiriladi. Musiqiy obrazlar olamiga kirishishlari ifodalilikni aniy his etishlariga erishiladi.

Darsda barchasi o‘ylangan bo‘lishi kerak – maqsad va vazifalari, mazmun va tuzilma, vosita hamda metodlar. Aks holda hech qanday ijobiy natijalarga erishib bo‘lmaydi. Darsga tayyorgarik o‘qituvchining pedagogik malakasi, mahoratig bog‘liq bu esa musiqa materialining tarbiyaviy, ta’limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tadbiq etish yo‘llarini ta’minlaydi. Asarlarni tanlab olish esa o‘quvchilar musiqiy tayyorgarligini hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Dars tuzilmasini tuzishda bolalar jismoniy, aqliy va emotsional holtlarini, sinfning o‘ziga xosligini inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘lib hisoblanadi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda kichik yoshdagi o‘quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olimaydi. Shu bois ularning faoliyatini o‘z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Bu bolalarning qiziqishlarini so‘nishidan saqlaydi. Murakkab qo‘shiqni raqsni bir necha dars davomida o‘rgatish samarali kechadi.

Dars oldindan rejalashtirilsa o‘ylab qo‘yilgan reja asosida bo‘lmog‘i, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlik faoliyati doimiy jonli jarayon asosida amalga oshirilishi lozim. Biroq, ayrim kutilmagan holatlar bo‘lishi mumkin. Va muayyan har bir holatga maslahat berib bo‘lmaydi. Ba’zan ko‘zda tutilmagan holatlar yo‘l-yo‘lakay dars tuzilishida ham amalga oshirishga to‘g‘ri kelib qoladi. O‘qituvchining kasb mahorati. O‘zini yo‘qotmasdan har bir holatga tegishla xulosa chiqarishini taqozo etadi. Natijada dars maqsadiga erishilib, belgilangan tuzilmada amalga oshiriladi. Tajribali o‘qituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamaiyat berishdi. Zamonaviy musiqa madaniyati darslarining sifati o‘quvchilarning faolligi bilan belgilnadi. Faollik muammosi nafaqat darsning qiziqarli tuzilmasi, bolalarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qo‘llash hal etiladi. Ko‘pincha o‘qituvchining har bir o‘quvchiga yakka ndividual yondashuviga ham bog‘liq bo‘ladi. Shubhasiz, bu o‘qituvchi oldidagi muhim vazifalaridan biridir. O‘qituvchi bolalar bilan hammasi bo‘lib bir amrotaba uchrashadi, musiqa mdniyai darsi sinf bilan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishni talb etadi. Shu bois, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini yaxshi bilmog‘i, ularning kuchli va zaif tomonlarini , qiziqish va ehtiyojlarini to‘g‘ri anglab , bolalar dunyosiga kirishib har bir o‘quvchi imkoniyatlarini baholashi kerak. Darsda bevosita muloqot o‘rnatishiga harakat qilish savollarga undovchi, so‘rovli nigoh, yuz ifodasiga bayon etish vosita va usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib shunu ayrish mumkinki, umumta’lim maktabida musiqa madaniyati o‘qituvchisi ijodining natijasi bo‘lgan dars g‘oyaviy emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lib, o‘quvchi ichki dunyosini zabt etib, musiqa san’atiga qiziqish va ehtiyojini tarbiyalaydi. Musiqa madaniyati darslarining muvofaqiyatli

savodxon, chuqur bilimli, o‘z kasbiga fidoiy bo‘lgan o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq. Shu bois, musiqadan bilim va malakalari yetarli bo‘lmagan o‘qituvchilarga musiqa darslarini mutaxassis mualliflardan zaruriy saboqlar olib, magnit yozuvlaridan keng foydalanib, musiqa o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalangan holda dars o‘tishlari maslahat beriladi. Aks holda o‘quvchilarning belgilangan dastur talablarini o‘zlashtirishlari mushkullashib, musiqa madaniyati darslri oldiga qo‘yiladigan talablarga erishilmay qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dilnavoz o‘ktamovna muratova musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati // scientific progress. 2021. №5.

2. Yarashev jurabek turaevich nravstvennoe i esteticheskoe vospitanie uchaщixsya v sotrudnichestve s semey i shkoloy // academy. 2021. №3 (66). url: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchaschihsya-v-sotrudnichestve-s-semiey-i-shkoloy (data obraщeniya: 30.03.2022).

MUSIQA TA’LIMIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARALI DARS VA MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.

Sh.Sh.Shaykulov

O’zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

Musiqa ta’limi kafedrasi dotsent v/b

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, umumiy musiqa ta’limida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning muhim jihatlari xususida so’z boradi. Musiqa ta’limida zamonaviy yondashuvlar orqali muayyan muammolarining oqilona yechimini topish, musiqa ta’limini takomillashtirish masallari keng yoritilgan.*

Kalit so’zlar*: Musiqa ta’limi, zamonaviy ta’lim, axborot, kommunikatsiya, texnologiya, multimediya, elektron darslik, dastur, innovatsion yondashuv.*

Bugungi kunda hamma sohada axborot - kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo’lib, bu hamma sohada faoliyatni qulaylashtirishda o’z natijasini bermoqda. Shuningdek, uning imkoniyatlari insoniyat taraqqiyotida ko'plab ijtimoiy sohalarda, xususan, ta’lim-tarbiyadada talab darajasidagi, zamonaviy, sifatli darslarni tashkil etishda muhim omil ekanligi o’z isbotini topmoqda.

Bugungi kunda, Yangi O’zbekistonni ravnaq toptirish va yuksaltirishda, o’tmishdan ilm-ma’rifatli ajdodlarimizning ilgari surgan g’oyalaridan biri bo’lgan ta’lim-tarbiyaning, jamiyatni har tomonlama rivojlanishiga bo’lgan ta’siri borasidagi qarashlari, bugungu kunda ham o’z mazmunini yoqotmagan holda dolzarb masala bo’lib, unga bo’lgan e’tibor va ta’lab kun sayin ortib bormoq.

Bugungi kunda ta’limni tizimini isloh qilishda “Ta’lim to’g’risidagi Qonun” qayta ko’rib chiqilib, ta’lim – tarbiya tizimi, sifat va samaradorligiga oid talablar bilan mazmunan boyitildi. Ushbu Qonunning 46 moddasida o’qituvchi-pedagoglarning ta’lim jarayonida axborot – kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik majburiyat sifatida belgilab qo’yildi. [1]

Axborot texnologiyalarining keng imkoniyatlaridan foydalanish, boshqa yo’nalish va fanlar qatori, musiqa ta’limida ham o’quvchi va talabalarni fanlarni o’zlashtirishda samaradorligini oshirish imkonini beradi. Musiqa ta’lim-tarbiyasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars va mashg’ulotlarni olib borish, dolzarb va ob'yektiv zaruratdir.

Musiqa darslarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish dars va mashg’ulotlarda vaqtdan unimli foydalanish va professor - o’qituvchi va o’quvchi-talabalarni jarayon davomida ijod qilish, kreativ fikrlash, o’rganganlarini tahlil qilish, ma’lumotlarni nazariy ham amaliy o’zlashtirish imkonini yaratadi.

Axborot texnologiyalarning ilm-fan rivoji va takomillshuvidagi ahamiyati xususida ilmiy adabiyotda turli talqinlarini ko’rish mumkin. Jumladan: Axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat: axborot madaniyatini shakllantirish, shaxsni rivojlantirish, ya'ni tafakkurni

rivojlantirish, estetik tarbiya, eksperimental tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish. Ijtimoiy buyurtmani bajarishda: foydalanuvchini umumiy ma'lumotga o'rgatish ("kompyuter savodxonligi" deb ataladi), istalgan sohada mutaxassis tayyorlash; o‘qitish samaradorligi va sifatini oshirish, bilim faoliyati motivlarini ta’minlash, axborot va fanlarni o‘qitish integratsiyasi orqali, fanlararo aloqalarni chuqurlashtirishni nazarda tutuvchi o‘quv jarayonini faollashtirish va boshqalar [7.3-b.].

Rus pedagogi I.G. Zaxarova, “Axborot - texnologiya" - fan sohasidagi axborotni yaratish, to'plash, uzatish, saqlash va qayta ishlash uchun ishlatiladigan ilmiy va muhandislik bilimlari, shuningdek, usullar va vositalar tizimi bo’lib, ta'limda axborot texnologiyalari - bu maxsus usullardan foydalanadigan pedagogik texnologiya; axborot bilan ishlash uchun dasturiy va texnik vositadir [2. 44-b.] deb tariflagan.

Musiqa ta’limida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, o’qitish jarayonida bir qator muhim masalalarda ijobiy yechim beradi:

- o‘quvchi-talabalarni fanlarni o’zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish;
- o’quvchi-talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatga qiziqishini rivojlantirish, ijodiy salohiyatini faollashtirish, tafakkurini boyitish;
- o‘quvchi-talabalarga musiqa madaniyatiga qiziqishini oshirish, boy milliy musiqa merosimiz, hamda, jaxon klassik musiqasi bilan tanishtirish, musiqiy did va ehtiyojini o’stish imkonini beradi;
- o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishning metodik va texnologik imkoniyatlarini boyitish, ularga zamonaviy daraja berish kabi masalalarni nazarda tutadi. [4-4 b.]

Musiqiy ta'lim va tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning:

- birinchi navbatda fanga qiziqtirish, fikrlash, idrok etish va xotirasini rivojlanishini rag'batlantiradi;
- o'quv materialini to’li va tizimli idrok etish uchun qulayroq sharoit yaratadi;

- o'quv materialini o'zlashtirishda va ta’lim oluvchilarni faollashtirishda yordam beradi;

- musiqiy asarlarni tinglash, ko’rish, mazmunini his qilish, tahlil qilish, ta’sirichaniligini oshish imkonini beradi.

Musiqa ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, musiqa ta’lim - tarbiyasini faol idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, o’quvchi-talabalarni musiqiy tajribasini boyitadi, ularga bilimlarni singdiradi, musiqiy madaniyatini boyitishning muhim sharti hisoblanadi.

Musiqa ta’limida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish - musiqa o‘qitish vositalari, shakllari va usullarini optimallashtirish, muayyan ta’lim muammolarining oqilona yechimlarini topish, ta’lim jarayonini takomillashtirishning tegishli yo‘llarini tanlash, dars va mashg’ulotlarda yuzaga keladigan bir qator qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Musiqa darslarini o’ziga xos jihatlarini keng yoritib, ijod darsiga aylantirish imkonini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish musiqa ta’limi sifatini oshirishda, zamonaviy talablarni bajarishda, bo’lajak musiqa ta’limi o’qituvchilarini zamonaviy ta’limga tayyorlashda, hamda, o’quvchilar jamoasini qiziqtirishda va faolligini oshirishda ko’plab ijobiy natijalar beradi, shuningdek musiqiy ta’limni axborotlashtirish, o’quvchi-talabalarni nazariy va amaliy bilim, ko’nikma va malakalarini oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Bunda ta’lim oluvchilar uchun qiziqarli, rang - barang, zamonaviy dars va mashg’ulotlarni hosil qilishda, ta’lim maqsadi va natijasiga erishishda, eng muhimi musiqa ta’limida zamonavuy darslarni tashkil etishda qulay vosita bo’lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni, 5-bob 46-modda. 23.09.2020 yildagi o‘rq-637-son.

2. Zaxarova, I. G. Informatsionnыe texnologii v obrazovanii /I. G. Zaxarova. – 4-ye izd., ster. – M.: 2008. – 192 s.

3. G. M. Davronova musiqa o’qitish texnologiyalari va loyihalash. o’quv qo’llanma 162 bet. Toshkent 2019yil.

4. Davronova G. M. “important aspects of forming the skills of using information and communication technologies in preparing students for professional activitiesi” international journal of pedagogics (issn – 2771-2281) volume 03 issue 12 pages: 132-138: december 09, 2023.

5. A. X. Arabbayev “Musiqa darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samarasi, o'ziga xosligi va bugungi kundagi ahamiyati”. academic research in educational sciences volume 2 | issue 10 | 2021.

6. Polyakov S.D. Pedagogicheskaya innovatika: ot idei do praktiki / S. D. Polyakov – M.: sentr «Pedagogicheskiy poisk», 2011. – 176 s.

7. Bekenova, D. U. Informatsionnыe texnologii v muzыkalnom obrazovanii / D. U. Bekenova, J. A. Muxataeva. — tekst: neposredstvennыy // aktualnыe zadachi pedagogiki: materialы iii mejdunar. nauch. konf. (G. Chita, fevral 2013 g.). — t. 0. — chita: izdatelstvo molodoy uchenыy, 2013.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA MUSIQIY-RITMIK HARAKATLAR KOMPONENTLARINI PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.

Shodiyeva Oygul Axmadjonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti San’atshunoslik kafedrasi o’qituvchisi

Butun dunyoda jamiyat taraqqiyoti va ta’lim sifatini rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb masala bo‘lib, bunday masalani hal etish ta’lim tizimida keng qamrovli islohatlarni amalga oshirishni va zamonaviy o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni musiqiy-ritmik komponentlarini pedagogik yondashuvlar asosida tarbiyalashda yuksak intellektual va ijodiy qobiliyatga ega shaxsni shakllantirish potentsial, zamonaviy dunyoga tezda integratsiyalashishga qodir yuqori texnologiyalar va axborot, olingan bilimlarni qo‘llash amaliyot va turli sohalarda yuqori natijalarga erishishga yordam

beradi. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni tayyorlashni yaxshilash zaruratitini amalga oshirishga yordam beradi. Shunung uchun oliy pedagogika maktabining muhim vazifasi tayyorgarlik sharoitni yaratib berishdir. Kasbiy mahoratga ega mutaxassis, bu sizga tezda jamiyatga moslashish imkonini beradi. Shuni hisobga olib, shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda musiqa ta’limida musiqiy-ritmikani ajralmas bo'lgan musiqiy va ritmik qobiliyatlar kelajakning individual ijodiy qobiliyatlarining tarkibiy qismi o'qituvchilar-xoreograflar, bu esa o'z navbatida rivojlanishga hissa qo'shadi. Mutaxassis shaxsining ijodiy salohiyati. Shaxsni rivojlantirish muammosi, uning imkoniyatlari, qobiliyatlar, xususiyatlar, xususiyatlar ko'p songa bag'ishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning fundamental ishlari. Ushbu muammoni o'rganishga quyidagilar katta hissa qo'shgan: R.Altshuller, V.Andreev, L.Venger, L.Vigotskiy kabi olimlar,V. Drujinina, V.Zagvyazinskiy, V. Kan-Kalik, D. Kirnos, L. Luzina, A. Melik-Pashchaev, R.Petrova, V. Shadrikov va boshqalar. Zamonaviy fan mazmuni va tuzilishini batafsil o'rganib chiqdi.Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlari, asosiy yo'llari va ularning malakasini oshirish usullari (A.Abdullina, Yu.Babanskiy, N. Kichuk, N. Kuzmina, S. Sysoeva, V. Slastenin). Shu bilan birga, ilmiy ishlar asosan shakllanishini o‘rgangan bo'lajak xoreografiya o'qituvchilarining kasbiy mahorati (A. Burlya, S. Zabredovskiy, A. Martynenko, B. Stasko, A. Tarantseva va boshqalar).

Bo'lajak o'qituvchining individual faoliyat uslubini shakllantirish xoreografiya, shuningdek, kelajakdagi xoreografiya o'qituvchilarining badiiy va estetik tajribasini shakllantirish. Kelajakdagi musiqa o'qituvchisining ijodiy salohiyatini shakllantirish, kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik e'tiqodlarini shakllantirish musiqa va musiqiy-ritmik harakatlar komponentlarini muhim bo'lishiga qaramay bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash masalalariga olimlarning e'tibori ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda musiqa ta’lim sifatida musiqiy va ritmik qobiliyatlarni shakllantirish muammosiga katta e’tibor qaratilmoqda. Musiqiy-ritmik harakatlar komponentlarini rivojlantirish individual ijodiy qobiliyatlarining tarkibiy qismi sifatida qaraydigan bo’lsak, bo‘lajak musiqa

o'qituvchilari jiddiy e'tibor berishmaydi. Olimlar nuqtai nazaridan musiqiy va ritmik qobiliyatlar imkoniyati uchun javobgar shaxsning psixologik xususiyati musiqiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, insonning musiqiy va ritmik qobiliyatlari faqat faol ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shakllanadi. Bunda nostandart fikrlashni, narsalarga yangicha yondashish qobiliyatini talab qiladi. Bo‘lajak musiqa o’qituvchisining musiqiy va ritmik qobiliyatlar haqidagi tushunchalarini shakllantirish, shu bilan birga - bu individual psixologik xususiyatlarni o’zgarishiga olib keladi.Insonning musiqiy va ritmik faoliyatining muvaffaqiyatli ishlashini belgilaydigan, bu aks ettirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Musiqiy-ritmik qobiliyatlar tuzilishida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida, aynan shu komponentlarni aniqladik: kasb-hunarga o'rgatishni shakllantiriladi va rivojlantiradi. Talabalar va individual ijodkorlikning bir qismi hisoblanib, kelajakdagi musiqa o'qituvchilarining qobiliyatlari,ritm hissi, musiqiy-ritmik xotira, musiqiy sezish va idrok kabi qobilyatlari shakllanadi. Musiqiy-ritmik xotira sintetik tushunchadir, u yodlashning eshitish va mushak xususiyatlarini bir butunga birlashtirish. Musiqiy-eshitishga asoslangan musiqiy-ritmik xotira tasvirlar harakatlarni, ularning yo'nalishini, tezligini va eslab qolish imkonini beradi shuningdek, uzunlik, ketma-ketlik va daraja kabi hislar mushaklarning kuchaytiradi. Idrok etish va ifodalash qobiliyati uchun musiqiy tasvirlar musiqiy sezgi va idrokga mos kela olishini ko'rishimiz mumkin. Aslida ritm hissi bilan biz shaxsning harakat qilish qobiliyatini tushunamiz,ammo musiqani boshdan kechirish, hissiy ekspressivlikni his qilish musiqiy ritm va uni aniq takrorlash bu biz kutgan natijani berdi. Biz shunday deb o'ylashga moyilmiz aynan shu komponentlar musiqiy idrok bilan bog'liq va ritmning takrorlanishi, musiqiy-ritmikning o'zagini tashkil qiladi. Bo‘lajak musiqa o'qituvchilarining qobiliyatlari oshirishga katta yordam beradi.. Universitetda ishlash va bo'lajak o'qituvchilar va musiqiy-ritmik harakatlar komponentlarini kuzatish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, zamonaviy talabalar har xil turlarni o'zlashtirishda ijodkorlik va mukammallik uchun axborot kommunikatsiya vositalari, ijodkorlikni talab qiladi

va o'zini namoyon qilish vositalari hisoblanadi. Fanlar bo'yicha boy materiallar mutaxassisliklari va individual ijodiy ishlari olib borishga yordam beradi.

Ritm tabiatan sintetik faoliyat turi, bir nechtasini birlashtiradi san’at turlarini (musiqa, pantomima, plastika san’ati, raqs) yakkalikka aylantiradi. Ijtimoiy taraqqiyotning tarixiy jarayonida musiqa va raqs voqelikni aks ettirishning ajralmas vositasidir.Raqs va musiqa san'ati yaratilganidan beri ajralmas birlikda mavjud bo'lgan va rivojlangan. Ularning munosabatlari va barcha sohalarda, ayniqsa, ishlash sohasida o'zaro ta'sir kuchi ko'rsatgan, shubhasiz va asrlar davomida saqlanib qolgan. Musiqa inson intonatsiyasining ifodaliligiga tayanadi nutq va inson tanasi harakatlarining ifodaliligini ravon ochib berishga harakat qiladi. Majoziy tabiatning umumiyligi musiqa va musiqani birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Raqs plastikligining ekspressivligi, unga hissiy va hissiy ritmik asosi sifatida qaraladi. Musiqiy rivojlanish mantig'i tufayli,raqsda plastik bo'lgan hissiy tasvirni yoritib beradi. Xoreografiya va musiqiy-ritmik harakatlar musiqa rivojlanish jarayonida bir-biriga bog'liq bo'lgan san'at turlaridir. Musiqiy san'at va raqs san'atining imkoniyatlari mavjud ruhning tubiga kirib, umumiy ma’noni ochib beradi. Esda tutish kerak qadimgi Yunoniston madaniyati va san'ati, unda raqs, musiqa va qo'shiq yagona san'at edi. Qadimgi raqs qat'iylikka asoslangan ritmga rioya qilish, ritmik qadam va to'g'ri kombinatsiyada qo'l harakatlari bilan rivojlanib borgan. Apollonning uyg'unligi, ruhni tana bilan to'g'ri birlashtirishga o'rgatadi. Pozalar va harakatlar chiroyli va uyg'un bo'lishi kerak, raqs aks etishida fikr va hissiyotlar kayfiyatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun bu tabiiy kombinatsiyadir. Musiqa va raqsni musiqiy va ritmik ta'limning yagona tizimiga aylantiradi. O'zining boy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan musiqa va ritmik ta'lim tizimi universaldir. Uning asoschisi Shveytsariyalik musiqachi, bastakor va o'qituvchi Emil Jak Dalkroze (1865-1950) harakatlardan foydalanish g'oyasini ilgari surgan deb hisoblanadi. Musiqaga bolalarning umumiy musiqiy qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida qaralganini ko’rishimiz mumkin. E. Jak-Dalkroze e'tiborni haqiqatga qaratdi ko'p o'quvchilarda ritm hissi rivojlangan emasligini bildi. Kompleksni ishlab chiqishni yo’lga qo’ydi u "tana uchun solfejio" deb

nomlangan ritmik mashqlar ustida ish olib bordi. Dalkroze talabalarda yaxshi eshitish-motor ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qildi.

Insonni ma'naviy va birligi sifatida ifodalash,jismoniy kuch, Dalkroze, agar tana tarbiyalangan bo'lsa, deb hisoblagan. Ularning umumiy asosi harakatdir. Ritm - bu musiqaning tanasi, uning o'zagi bastakor nazarda tutgan to‘g‘ri ma’noni topishga yordam beradi.

Faqat ritmni his qilish va uni o'zingizdan o'tkazish orqali siz ma'nosini tushunishingiz mumkin. Shuning uchun musiqiy-ritmik rivojlantirish vositalaridan biri hisoblanadi.

Oliy o‘quv yurtlarida talabalarning qobiliyatlari, “Ritmika va musiqiy harakat" ritmik mashqlar shulardan biridir. Yaxlit, faol va musiqani emotsional idrok etish, musiqa va o'rtasidagi yaqin munosabatlar harakatlar. Ritm - bu jismoniy tayyorgarlikning boshlanishi, asosi, turtki bolsa, ularning hayotlarining kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga ritm tushunchasi yordam beradi. Shaxsning uyg'un rivojlanishi, ma'naviy va jismoniy yutuqlarga erishish mukammallikka erishiladi. Ritm tufayli musiqiy-ritmik qobiliyatlar samarali rivojlanadi. Bo’lajak musiqa o’qituvchilarini qobiliyatlari, harakatlarning mustaqilligi va sinxronizatsiyasi, reaktsiya tezligi, motor-fazoviy tasavvur, analitik-sintetik epchillik, diqqatni jamlash va taqsimlash qobiliyatlari rivojlanishini ko’rishimiz mumkin. Musiqiy ritm musiqaning ajralmas qismi bo'lib, yuzaga keladi. Yangi nuqtai nazardan gapiradigan bo'lsak, u xuddi yangidek takrorlanadi, raqs harakati ritmi kabi, motorik, plastmassa va shu bilan musiqiy ritm g'oyasiga sezilarli qo'shimcha qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // O’n ikkinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o’n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T: O’zbekiston, 1998.–48 b.

2. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida» gi Qonuni // (qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y.,03/20/637/1313-son). – T: - 2020. – 40 b.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljalangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” gi PF-60-son farmoni

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida» gi PQ-2909-son Qarori// Xalq so’zi gazetasi 2017-yil 21-aprel.

5. Valixo’jaev N., Kiyamov N.S., Siddiqova D. Uzluksiz ta’lim tizimida musiqa fanlarini o’qitishning ba’zi muammolari// Uzluksiz ta’lim tizimida o’zaro hamkorlik sifati va samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy muammolari. I-qism. Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Samarqand, 2010. – B. 87-88.

6. Davronova G. M. Musiqa o’qitish texnologiyalari va loyihalash. O’quv qo’llanma. -Samarqand.: Samdu, 2019. - 162 b.

7. Kiyamov N.S. Musiqiy ta’limga oid darsliklarning pedagogik mazmuni va ta’lim-tarbiya jarayonidagi o’rni // SamDU Ilmiy tadqiqot axborotnomasi jurnali. – Samarqand, 2015. -№2. (90) – B. 153-155.

INSON SHAXSINI SHAKLLANISHIDA MUSIQANING AHAMIYATI

O‘rishboyeva Xumora O‘rol qizi

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti musiqa ta’limi yo’nalishi talabasi,

ilmiy rahbar dotsnet Sh.N.Omanqulova

Annotatsiya.*Ushbu maqolada inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishida musiqa asosiy vosita ekanligi tog’risida so’z boradi. Shu bilan birga yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda musiqaning ahamiyati yuzasidan buyuk allomalarimizning bildirgan fikr-mulohazalari ham bayon etilgan.*

Kalit so’zlari: *Musiqa, tarbiya, estetik tarbiya, estetik did, axloqiy tarbiya, shaxs kamoloti.*

O‘zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yoshlar tarbiyasida musiqa san’ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta’sir o‘tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o‘rin tutadi. Musiqa inson yuragiga juda chuqur kirib borib, inson qalb tug‘yonini yorqin ifodalash qudratiga

ega. Demak, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o’rni borligi ayni haqiqat.

Avvalo musiqa tarbiya fanidir. Musiqa-hayotimizdagi muhim ahamiyat kasb etadigan tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Ma’lum darajada hayotimizda muhim rol o’ynaydi desak mubolag’a bo’lmaydi. Bugungi kunda ijtimoiy turmushimizda bo’layotgan barcha tadbirlar, to’y-tomoshalar musiqa sadolari ostida o’tkaziladi. Bundan tashqari biror yumush bajarayotganimizda yumushimiz yengillashishiga, kayfiyatimiz ko’tarilishiga qalbimizdagi g’uborlardan xalos bo’lishimizga yordam beradi. Har bir inson o’z vaziyatidan, ichki kechinmalaridan musiqiy dididan kelib chiqib o’ziga mos keladigan kuyni tanlaydi. Musiqa biz bilan quvonch, xursandchilik shu bilan birga dard-alamni baham ko’radigan o’rtoq deya olamiz. Musiqa orqali insonlar his tuyg’ularini ohangga aylantiradi. Bundan tashqari chidamlilik, iroda, e’tibor, xotirani rivojlantirishda, jamoaviylikni tarbiyalashda muhim rol o’ynaydi.

“Musiqa – millat ruhining tili, musiqa – millat his-tuyg`ularining tarjimonidir. Shuning uchun faqat estetik tarbiyada emas, axloqiy, ma’naviy, ruhiy, hattoki, diniy-ilohiy tarbiyada musiqaning xizmatlari beqiyosdir” deb aytadi filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o`zining adabiy suhbatlaridan birida.[1] Prezidentimizning “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida"[29] gi PQ-112 Qarori oliy ta’lim muassasalari musiqa yo’nalishida ta’lim-tarbiya olayotgan bo’lajak musiqa o’qituvchilarining oldiga qator muhim vazifalarni qo’yadi va pedagogik kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi[2]. Qadimdan musiqa nafaqat san’at balki matematika, falsafa, tibbiyot fanlari bilan bir qatorda muhim fanlardan biri edi. Jumladan qadimgi Yunonistonda o’quvchilarga rasm chizish, raqs tushish, ashula aytish va lira chalish o’rgatilgan. “Musiqa ruhning axloqiy tarbiyasiga ma’lum bir ta’sir ko’rsatishga qodir, musiqa shunday xususiyatga ega ekan yoshlar tarbiyasi

[29] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022 y., 07/22/112/0099-son)

uchun musiqiy ta’limini targ’ib qilish maqsadga muvofiq”, “Musiqa axloqni yuksaltiradi” degan fikrlarni Aristotel aytib o’tgan.

Ibn Sino ham musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta’kidlab o’tadi. U san’at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratadi. O’zining “Tib-qonunlari” asarida “Go’dakning tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo’shig’i (Alla), birinchisi-tanaga, ikkinchisi-ruhga tegishlidir” [3] deb aytib o’tgan. Ibn Sino musiqaga oddiy fan sifatida emas, balki jamiyatshunoslik, psixologiya, poetika, etika va fiziologiya fanlari nuqtai nazaridan kelib chiqib qaragan. O’zining barkamol shaxsni tarbiyalash g’oyasida musiqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan.

Musiqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ta’sir etar ekan, yoshlarning tarbiyasiga ham ijobiy ta’sir o’tkazadi. Shu sababli yosh avlodga musiqaning mazmun mohiyatini o’rgatish va mustahkamlash uchun bugungi kunda musiqa san’atiga katta e’tibor berilmoqda. Musiqa - o’quvchilarda vatanparvarlik hissini shakillanishida ta’lim va tarbiya manbai hisoblanadi. Vatanparvarlik tarbiyasi vositasi qo’shiq so’zlari, musiqa sadosi bilan qo’shilib turadigan badiiy asarlarda ham bo’lishi mumkin.

Qadim-qadimdan xalqimiz hayotida mehr-muruvvat his-tuyg‘ular uning turli ko‘rinishlari yuzaga kelgan va rivojlangan. Bolalarni Vatan, millat, xalq, mahalla, oila, ota-ona, tabiat va tabiatning har bir bo‘lagiga nisbatan mehrli qilib tarbiyalash uchun ularda vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg‘ularini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladiBu yo’lda musiqa tarbiyasi katta yordam beradi.

Shu o’rinda Abu Nasr Forobiyning musiqa haqidagi fikrlari e’tiborga loyiqdir. Forobiy musiqani tarbiyaviy fan deb ataydi va uning ahamiyati haqida shunday deydi: “Bu fan shu ma’noda foydaliki, kimning fe’l-atvori muvozanatni yo’qotgan bo’lsa, muvozanatga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatda bo’lmaganlarning muvozanatini saqlaydi”[4].

Yosh o’quvchilarni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashga ta’sir etuvchi omillar qatoriga:

- milliy va jahon musiqa san’atiga o’quvchilar ma’naviyatini shakllantiruvchi vosita sifatida qarash;

- tarbiyalash imkoniyatlarini, asosiy yo’nalish va xususiyatlarini aniqlash;

- o’quvchi shaxsiga ta’sir etish sifatlarini ochib berish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko’plab omillari qatorida musiqa ham alohida o’rin tutadi. Shu o’rinda O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov takidlaganidek, - “... bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko’proq va kuchliroq ta’sir ko’rsatmoqda” .

Musiqa kuy va ohang ta’sirida o’quvchilarda hissiyot olamining o’sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilish, go’zallikni sevish, tabiatni asrash, go’zallikni idrok etishga, qadrlashga, Ona vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagi tobora ortib borishiga xizmat qiladi. O’quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda musiqa shaxs ma’naviy madaniyatining ajralmas qismi, shaxs xulqini boshqarishga, shakllantirishga yordam beradigan, shaxsning ko’p qirrali sifatlarini ochib beradigan uning umumiy yetuklik darajasini ifodalaydigan, tarbiyalanganlik darajasini belgilab beradi vosita sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ikramov R. (2020). Vospitaniye garmonichno razvitogo pokoleniya yavlyayetsya prioritetom gosudarstvennoy molodejnoy politiki. vestnik nauki i obrazovaniya, 14(92), 88-90

2. O’zbekiston respublikasi prezidentining Qarori, 02.02.2022-yildagi PQ 112-son. (qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y.

3. Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” i, II. T 1979-1980-yil.

4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b

MAKTAB MUSIQA TA’LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xusanova Maftuna Ilxomiddin qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

“Musiqa ta’limi va san’at” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya.*Ushbu maqolada bugungi kunda musiqa ta’lim jarayonlarida innovatsion va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritib berilgan. Musiqa savodxonligi fanlarida darsning samaradorligini oshirish yo‘llari, ilg’or zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari hamda o‘qituvchilardan* dars *olib borishda qo‘yiladigan talablar haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, texnologiya, innovatsion texnologiya, musiqa ta’limi.*

Bugungi kunda ta’lim jarayonlarida zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan qiziqish va e’tibor kuchayib bormoqda. Shuningdek, har bir o‘qituvchi va o‘quvchi jahon andozalariga mos ravishda ta’lim berish va puxta ta’lim olish zarur. Bu o‘z navbatida, musiqa savodxonligi fanlarida dars samaradorligini oshirishda ilg’or zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning o‘rni katta. Bu borada prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”[1] degan fikrlari maktab ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan musiqa o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi[30]. Maktab musiqa ta’limida ilg’or innovatsion – pedagogik texnologiyalar musiqiy ta’lim jarayonining unumdorligini va o‘quvchi yoshlarni ishtiyoq va qiziqishni oshiradi. Shuning uchun ham musiqa mashg’ulotlarini ilmiy – metodik jihatdan har tomonlama takomillashgan holda, axborot texnologiyalardan foydalanib olib boorish bugungi kun talabi hisoblanadi.

[30] *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.*

Pedagogik mahorat va texnologiyaga oid bilim va tajriba, metodlar o‘quvchilarning musiqiy bilimga ega bo‘lishini ta’minlaydi.[1]

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o‘qituvchiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- AKT bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish;

- yangi pedagogik texnologiya bo‘yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo‘lish (PISA,TIMSS);

- ta’lim jarayonini tashkil etishda didaktik o‘yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;

- ilg‘or pedagogik texnologiya bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirib borish;

- bilimlarni ko‘nikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo‘lishi;

- dars jarayonida harakatli o‘yinlardan unumli foydalana bilishi;

- imkoni bo‘lsa darsni internet tarmog‘iga bog‘lab o‘ta bilishi;

- o‘z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar.

- O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi.

- Ta’limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e’tirof etish kerak.

Shu bilan birga, darsni qiziqarli va maroqli o‘tqazishda adabiy asarlar slaydlar, she’rlar, hikoyalardan, musiqa asboblardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Bularning barchasi musiqaning ta’sirini orttiradi. O‘qituvchi darsni juda shoshilinch va juda sekin olib borishi mumkin emas. Kerakli vaqtlarda pauza qilishi, emotsiyali, jonli gapirishi lozim. Dars jarayonlarida jahon estradasi va milliy musiqalardan parchalar eshittirishi, har xil turdagi musiqa asboblarini o‘rgatishi va ularni farqlay olish qobiliyatini o‘quvchilarga o‘rgatishi kerak. Masalan, bitta musiqiy asarni solosini har xil musiqa asboblarda (fortepiano,

gitara, sikripka, g’ichchak, chang) yangrashini ko‘rsatib berishi lozim. Agar o‘qituvchida yetarlicha ijro mahorati bo‘lmasa maxsus ilovalardan foydalanishi mumkin.

O‘qituvchi ijodkor, puxta bilimli, mahoratli va musiqa savodxonligi fanlarida o‘quvchilarga zamon talabiga muvofiq innovatsion g’oyalarga va texnologiyalarga tayanib bilim bersa,kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishiga sabab bo‘ladi.O‘qituvchi qanchalik uddaburon va malakali bo‘lsa,o‘quvchilarning yutuqlaridan hamisha faxrlanib yuradi.Buning uchun o‘quvchilarga ko‘pgina zamonaviy texnologiyalar haqida ma’lumotlar berishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, zamon rivojlanishi bilan ta’lim jarayonlarida, xususan musiqa o‘qitishda ko‘pgina yangiliklar paydo bo‘ladi. Ta’im jarayonlarida islohotlar, innovatsion texnologiyalar va ustozlar malaka va mahoratlari o‘quvchi yoshlarni samarali bilim olishlarini ta’minlaydi va bu O‘zbekiston tajribasida ham o‘z isbotini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev sh.m. buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – t.: o‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Ortiqov t. musiqa o‘qitish metodikasi. “muharrir” nashriyoti.2010. 164-165-betlar.

3. Ishmuhamedov r., abduqodirov a., pardayev a muallifligidagi ta‘limda innovatsion texnologiyalar. -t.: o`qituvchi, 2003. -189 b.

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/musiqa.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MILLIY G‘OYANI TARG‘IBOT QILISH IMKONIYATLARI

Jalilov Shokir Isomiddinovich

NavDPI, “Musiqa ta’limi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu maqola ma’naviy tarbiyaning, xususan, uning ajralmas qismi bo‘lgan musiqiy-estetik tarbiyaning inson shaxsining g‘oyaviy jihatdan kamol*

topishidagi muhim ahamiyatini ilmiy nuqtai nazardan yoritib berishga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada musiqa darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tahkil etish musiqiy-estetik tarbiyaning ta’sir kuchini yanada oshirishi nazariy va amaliy misollar orqali ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: *Musiqiy-estetik tarbiya, ta’lim, san’at, musiqa, innovatsion texnologiya, shaxs, ijodiy fikr, multimediya, qobiliyat, ta’lim, e’tiqod, qadriyat*.

O‘zbek xalq musiqasi uzoq davrlar mobaynida shakllangan bo‘lib, u xalqimizning turli davr va sharoitlardagi turmush tarzi, mehnat mashg‘ulotlari, turfa marosimlari, urf-odatlari va bayram-marosimlari bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanib, shakllanib kelgan. Shu bois ham o‘tmishda yashab ijod etgan ko‘pgina mutafakkir olimlar, jumladan, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abduqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar musiqa nazariyasi hamda uning tuzilishi va tarixiga doir muammolar yuzasidan ilmiy risolalar yozganlar.

Ma’lumki, axloq normasi shaxsning o‘zi o‘zlashtirgan ichki qoidasidir. Musiqa madaniyati ana shu normani hissiyot orqali o‘zlashtirishni faollashtiradi. Bunda musiqa ijtimoiy hodisa sifatida anglash mexanizmining, xususan, o‘zini baholash tushunchasining shakllanishiga ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, shaxsning hissiyotlari orqali kishining o‘z bahosini tasdiqlashga mazkur shaxs qiyofasining ideal bilan qo‘shilishiga intilishi kuchayadi, mazkur holda yosh inson o‘zi ergashgan ma'naviy holatga emas, o‘z jamiyatining, o‘z jamoasining eng yaxshi vakili bo‘ladigan holatga yo‘naladi.

Inson shaxsining aqliy va hissiy kamol topishida, uning ijtimoiy faolligida san’atning, xususan, musiqa san’atining tutgan o‘rni beqiyos. Musiqa – o‘z tabiatiga ko‘ra hissiy va ruhiy kechinmalar uyg‘otuvchi, kishilarda nozik didni tarbiyalovchi, tinglovchini ham, ijrochini ham nafosatga, ma’naviy barkamollikka undovchi kuchli vosita. Musiqa san'ati insonning hayotini badiiy boyliklar bilan go‘zallashtiradi, uning atrofida kishilarga turmushda, mehnatda, jamoatchilik ishlari va dam olishda ijobiy ta'sir etadigan muhitni yaratadi. Musiqaning ana shu o‘tkir tarbiyaviy kuchidan foydalanish, san’at vositasida yosh avlodning ma’naviy

dunyoqarashini shakllantirish, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash ta’lim muassasalari zimmasidagi eng muhim va doim dolzarb bo‘lgan vazifalardan biridir.

Bugungi kunga kelib, musiqa darslarini yangi innovatsion texnologiyalar asosida o‘tish uslubi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ancha keng tarqalgan va kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Musiqa darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tahkil etish musiqa o‘qituvchisidan alohida tayyorgarlik ko‘rishni va ko‘proq ma’lumot to‘plashni, yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, kompyuter va multimediya uskunalari vositasida dars o‘tishni talab etadi. Sanoat ishlab chiqarishida oddiy ishchi ilg‘or texnologiyadan foydalangan holda oliy sifatli mahsulot tayyorlay olgani kabi, oddiy o‘qituvchi ham yangi pedagogik texnologiyadan foydalangan holda yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradigan usullarni chuqur va to‘g‘ri tushunishni tarbiyalash g‘oyat muhimdir. Ta'limning faol usullarini tanlash va qo‘llash, o‘ziga xos imkoniyatlarni har tomonlama aniqlash musiqiy qobiliyatlarni takomillashtirish orqali milliy g‘oyani targ‘ibot qilishning hal qiluvchi shartidir. Masalan, “Xonandalar dastalari” mavzusida innovatsion texnologiyalar asosida dars o‘tish jarayonida audio-video vositalar orqali o‘quvchilarni xonandalar dastalarilarining faoliyati bilan bevosita tanishtirish bilan bir vaqtda, o‘quvchilarning o‘zini ham turli havaskor xonandalar ansambllariga jalb etish yoki imkoniyat bo‘lsa, maktabning o‘zida ham xonandalar dastalarini tashkil etish tavsiya etiladi. Shuningdek, bulardan tashqari xususiy, ya’ni alohida o‘quv fanlarining al`ternativ hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari ham mavjud bo‘lib, yurtimizda va jahon miqyosida bunday pedagogik tajribalar hali ham davom etmoqda. Musiqa ta’limi tizimiga raqamli texnologiyalarning kiritilishi pedagogik texnologiyaning barcha turlariga ham o‘z ijobiy ta’sirini o‘tkazadi.

Musiqa tarbiyasi g‘oyaviy e’tiqodni shakllantiradi, axloqiy jihatdan tarbiyalaydi, shaxsdagi qiziqishlarning psixologik maqsadi va yo‘nalishlarini belgilaydi, ijtimoiy kayfiyatni vujudga keltiradi, tashkil etadi va birlashtiradi, ijtimoiy faollikni tarbiyalaydi. San'atni idrok etish, his qilish va tushunish

qobiliyatlarni rivojlantiradi, estetik va musiqiy didni o‘stiradi, aqliy kamolotni, ijodiy faollikni, tafakkurni kuchaytiradi, zarur musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qiladi, bo‘sh vaqt muammosini hal qilishga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avliyakulov N.X. Pedagogicheskaya texnologiya. –T., 2009 g

2. Jalilov Sh. I. Musiqa nazariyasi (solfedjio) o`quv qo`llanma. “Kamolot” nashriyoti. – Buxoro 2022 yil.

3. Jalilov Sh.I. “Musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati” ilmiy maqola o‘zmu xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi o‘zmu ilmiy jurnali. 2021 yil, 1/3/1. 59-62 betlar.

4. Ibrohimov O. Sadirov J. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. ”G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi”, – t., 2004 y.

5. Matyoqubov O. Maqomot. “Musiqa” – T., 2004 y.

7. Tashbaeva D. Metodika prepodovaniya muzыki i shkolnыy repertuar. «Fan va texnologiya» -T., 2007 g.

QAHRAMONLIK DOSTANLARNING O‘QUVChILARDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADIRIYaTLARGA QIZIQIShNI ShAKLLANTIRIShNING MUHIM MANBAI

A.Yerejepov

Nukus shahar Yesjan baxshi nomidagi 1-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi

Pedagogika fanlari bo‘ycha falsafa (PhD) doktor, dotsent

Kalit so‘zlar: i*jrochilik san’ati, Alpomish qahramonlik dostani, jirovchilik san’ati, folklor, musiqa tarixi, afsona, cholg‘u asboblar, ijrochilikning ustoz shogird maktablari.*

Markaziy Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan bo‘lgan o‘zbek xalqi ma’naviy madaniyati tarixida so‘z san’atining qadimgi turi hisoblangan xalq ijodi, ayniqsa, dostonlar g‘oyat fahrli o‘rin tutgan. Mehnatkash xalq ommasining g‘oyaviy, axloqiy, ma’rifiy va estetik takomilida xalqning asarlar davomida turmush

tajribalari, ozod va farovon hayotga intilishlari, adolatsizlikka qarshi kurashlari o‘z ifodasini topgan. Bu borada «Alpomish» dostonining ahamiyati nihoyatda kattadir.

Qoraqalpoq xalq dostonlari jaxon xalqlari eposlari singari o‘zining yuksak g‘oyaviyligi, badiiy kamoloti bilan alohida o‘rin tutadi. Doston epik ijodiyotning juda qadmiy turi sifatida barcha xalqlar og‘zaki adabiyotida mavjud. Epos xalq hayotini ob’ektiv bayoniy xarakterda tasvirlovchi keng ko‘lamli ko‘p tarmoqli asardir. Unda o‘tmishdagi ulkan burilishlar, keskin o‘zgarishlar aks etadi. Xalq og‘zaki ijodi asarlari esa yaratilish jihatidan mehnatkash xalq bilan bevosita aloqada bo‘lganligi uchun ham bu sohada benihoya katta ahamiyatga ega bo‘lgan materiallarga boydir.

Doston so‘zi qissa, hikoya, shon-shuhrat, sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarida ishlatiladi. Uning ijodiy tarixi yillar bilan emas, balki asrlar bilan o‘lchanadi. Tadqiqotchilarning yozishicha, epos (doston) o‘tmish zamonlar to‘g‘risida qahramonlik g‘oyaviyligi ko‘lamdagi hikoyalar, rivoyatlardir. Akademik V.M.Jirmunskiy ta’rifcha: Epos-bu xalqning qahramonlik g‘oyaviyligi ko‘lamidagi jonli o‘tmishidir. Uning ilmiy-tarixiy qimmati, ayni paytda, juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir» [4]. Folklorshunos Q.Ауымbetovning yozishicha, doston murakkab san’at asari bo‘lib, uning doston bo‘lishi uchun adabiy tekst, musiqa bo‘lishi, kuylovchi jirovchilik san’atini puxta egallagan va qo‘buz kuylarini cherta bilishi zarur[1]. Bu tushunchalarda hech qanday qarama-qarshilik yo‘q, balki ularning biri ikkinchisini to‘ldiradi.

Qoraqalpoq eposining birinchi tadqiqotchilari V.M.Jirmunskiy va Q.Ауымbetov, K.Mambetovlarning ta’rificha doston janrining yana bir muhim xususiyati uning o‘tmish bilan, xalq tarixi bilan mahkam bog‘liqligi ham o‘ziga xos ravishda hisobga olingan. Dostonlarda haqiqiy va ideal tarix birlashib, chatishib ketgan, halqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlari, hayoti, urf-odat va maishiy turmush tarzi ifodolangandir. Qoraqalpoq xalq dostonlari ko‘p turli va ko‘p mavzuli bir ijoddir. U uzoq asrlar davomida yaratilib, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda jirlanib kelindi, shu tariqa unda turli zamonlar qatlami vujudga keldi. Bu hol ularning har jihatdan asoslangan ilmiy tasnifini berishni muayyan turlarga

bo‘lib o‘rganishni nihoyatda qiyinlashtiradi. Xalqimiz orasida dostonlar ham bir necha turlarga bo‘linadi. Fanda qoraqalpoq xalq dostonlarining bir nechi klassifikatsiyalari mavjud. Dastlabki tasnif olimlar V.M.Jirmunskiy va Q.Ауымbetov, K.Mambetov, Q.Maqsetov, tomonidan berilgan. Ular qoraqalpoq xalq dostonlarini: a) qahramonlik eposi; b) jangnomalar; v) tarixiy mazmundagi dostonlar; g)romantik dostonlar; d)adabiy dostonlar; ye) yangi dostonlar kabilarga bo‘lib, “Go‘ro‘g‘li” turkumini oladilar [2]. Bu birinchi tasnif sifatida keyingisi uchun asos bo‘ldi. Dastlab xalq dostonlarini og‘zaki va yozma dostonlar tarzida ikkiga bo‘ladi. So‘ngra og‘zaki dostonlarni:

a) qahramonlik; b) jangnoma; v) tarixiy; g) sof sevgini kuylovchi; d) romantik dostonlar kabi turlarini ko‘rsatadi. Bu ikkita klassifikatsiyaning barcha afzalliklarini hisobga olib, asosan ichki bo‘linishlarga diqqat qiladi. Folklorshunoslar o‘zbek xalq dostonlarini quydagi turlarga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb topadilar:

1. Qahramonlik dostonlari. 2. Jangnoma dostonlari. 3.Tarixiy dostonlar. 4.Romantik dostonlar. 5. Kitobiy dostonlar. O‘zbek xalq dostonlari jahon xalqlari eposlari singari o‘zining yuksak g‘oyaviyligi, badiiy kamolati bilan o‘rin tutadi. Doston epik ijodiyotning juda qadimiy turi sifatida barcha xalqlar og‘zaki ijodiyotida mavjud. «Qirqqiz», «Alpomish», «Yedige» kabi qoraqalpoq xalq dostonlarining yaratilishi xalq og‘zaki ijodiyoti tarixida noyob uchraydigan hodisalardan bo‘lib, ular umuminsoniyat madaniyati xazinasiga qo‘shilgan bebaho ma’naviy hissa bo‘lib sanaladi. O‘zbek «Alpomish»i, qoraqalpoq va qozoqlarning «Alpamыs»i, o‘g‘uzlarning «Bomsi-bayrak» asari, tatarcha va boshqurdcha «Appamisha va Barchin xiluu», uyg‘urcha «Alip Manash» va boshqa turkiy xalqlarning juda katta hududiga tarqalgan qadmiy eposining muayyan o‘zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan namunalari bo‘ladi. Bular folklorshunoslikda «Alpomish»dostonining qo‘ng‘irot, o‘g‘iz, qipchoq va oltoy versiyalari deb yuritiladi. Ularning yaratilishi turli davrlar hamda etnik guruhlar tarixi bilan bog‘lanadi. O‘zbek «Alpomishi»ning yaratilishi davri haqida turlicha qarashlar mavjud. Folklorshunos olimlarimiz «Alpomish» dostonining o‘zbek xalq san’atida

yashash sharoitlari va katta shuhrati umuman, o‘zbek dostonchiligining jonli og‘zaki an’anasi asrlar davomida fanda ma’lum bo‘lmay keldi. Rus orientalisti Ye.F.Kal’ning o‘z kundaligida 1890 yilning oktabrida Termiz yaqinidagi Solixobod qishlog‘ida o‘zbek-qung‘irot urug‘ining ayinli aymog‘iga mansub Ommanazardan doston tinglaganini, u uch soatga yaqin to‘xtovsiz kuylaganini yozadi. Lekin, u qaysi dostonni tinglaganligini aniq ko‘rsatmaganidek, o‘zi eshitgan dostonning mazmunini ham matbuotda e’lon qilmagan edi. Ye.F.Kal’ning kundaligida o‘sha atrofdagi ba’zi joylar bilan bog‘liq bo‘lgan rivoyatlar haqidagi qaydlar borki, ular o‘zi ilgariroq eshitgan dostonga aloqador ekanligi yozilgan. Bu ma’lumotlarni sinchiklab o‘rgangan X.Zarifov Ye.F.Kal’ning tinglagan dostoni «Alpomish» ekanligini aniqlaydi [5]. Qoraqalpoq va qozoq xalqlarining «Alpamыs» dostoni XIX asrning boshlarida yozib olinib, fan olamiga chiqarila boshlagan bo‘lsa, o‘zbek «Alpomish» i ham ilm ahllariga XX asr boshlarida ma’lum bo‘ldi. V.M.Jirmunskiy [3], «Alpomish» dostoni ustida eng birinchi ilmiy tadqiqot ishlarini oliborgan olim hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o‘zbek olimi X.T.Zarifovning ham bu borada olib borgan ishlari diqqatga sazovor. A.K.Borovkov, Q.Ayымbetov, Q.Maqsetov, K.Mambetovlar ham «Alpomish» dostoni bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, uni ilm-fan olamiga tanitgan olimlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saydov M. O‘zbek xalq dostonchiligida badiy mahorat. Toshkent.1969.-21 b.

2. Saimov B, Mo‘minov G. O‘zbek folklorining epik janrlari (o‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar, 7-kitob) o‘zbekiston. fan nashriyoti,t. 1981.

3.Jirmunskiy V.M.Skazanie ob alpamыshe i bogatырskaya skazka. izd. vostochn. literaturы., M.1960.

4.Jirmunskiy V.M. narodnыy geroicheskiy epos. l., 1962.-195 b.

5.Zarifov X.T. K Izucheniyu uzbekskogo narodnogo eposa. sb. voprosы izucheniya eposa narodov SSSR, M, izd.ansssr, 1958. 101 str.

BO’LAJAK MUSIQA O’QITUVCHILARI IJROCHILIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TEXNOLOGIYALARNI QO’LLASH MASALALARI.

Omonov Hasan Sulaymanovich,

Ilmiy raybar: JDPU,Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti

Tojiqulov Nurbekjon Mahkam o’gli,

JDPU,”Musiqa ta’limi va san’at” yo’nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Musiqa darslarining o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi kamlik qiladi. Ular musiqaning inson hayotida nima sababdan bunchalik katta ahamiyat kasb etishni bilishlari zarur. Shuning uchun ushbu maqolada asosan musiqa o’qituvchisini manorati o’z ustida ishlashi hozirda qanday texnologiyalarni qo’llash zarurligi orqali yangi natijalarga erishishi to’grisida fikr yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *o’qituvchi, o’quvchi, ijro, qobiliyat, musiqa, dars, mashgulot, didaktika, pedagogika, psixologiya, idrok, malaka, tarbiya. vokal, ligato, ovoz, texnologiya.*

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning qo‘shiq aytib, kuy chalishida, umumiy va musiqaviy rivojlanishlarida, ularning “ijrochiligi” ni qanday tushunmoq kerak?- degan va shunga o‘xshash boshqa savollar musiqa o‘qituvchisidan o‘z kasbiy faoliyatiga munosabatda bo‘lishni talab qiladi. O‘quvchilarda musiqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha ko‘plab nazariy va amaliy - tavsifdagi xarakterdagi tadqiqotlar olib borilgan. E.V. Nazaykinskiy o‘zining «Musiqa idrok psixologiyasi» kitobida indivudning tafakkuri, sensor (ko‘rish, eshitish. his qilish) va kinetik (motor-harakat) hissiyot turlari va hayotiy tajribasi orasida aloqa mavjudligi qayd qilinadi.

Muallifning fikriga ko‘ra, ushbu o‘zaro aloqalar orqali tinglovchi va ijro etilayotgan asar o‘rtada psixologik aloqa o‘rnatiladi. Shuning uchun ham o‘quv-tarbiya jarayoniga majmuaviy va tizimli yondashuv zaruriyati hozirgi musiqa pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri xisoblanadi. Ya’ni, pedogog doim

ko‘tarinki ruhda bo‘lishi, istalgan vaqtda o‘z emotsional ko‘tarinki kayfiyatini bolalarga o‘tkaza olish kerak. Bunda ko‘p narsa o‘qituvchining hayotiy tajribasiga, kuzatuvchanligiga musiqaviy bilimlariga ham bog‘liqdir. Darslar ham pedagogning aynan shu sifatlariga, ya’na uning tashabbuskorligi, ijodkorligiga tayanadi. O‘qituvchi o‘quv dasturi mazmunining o‘quv-tarbiyaviy zaruriyatdan kelib chiqqan holda o‘zgarishlar kiritish mumkin. Bu o‘zgarishlar esa uning shaxsiy ijobiy tajribasidan kelib chiqishi buning uchun musiqa o‘zining barcha xayoti aloqalari va namoyishlariga ko‘ra o‘qituvchini harakatlantiruvchi kuchga aylanmog‘i kerak. Bugungi kunda mamlakatimizda 500 dan ortiq bolalar xor studiyalari mavjud bo‘lib, ularning soni tobora ortib bormoqda.

Ular o‘quvchilarda qobiliyatlar rivojlanishiga poydevor yaratib, dunyo qarash, axloq va ma’naviy extiyojlarni shakllantirishi zarur.

Keyingi yillarda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarda abstrakt tafakkurni rivojlantirishga e’tibor kuchayib, o‘quv jarayonining tarbiyaviy jihatiga ahamiyat bir oz susaymoqda. Bu ayniqsa, «Musiqa» predmetida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Haftada bir dars (45 daqiqa), uning 7- sinfgacha davom etishi va ba’zi xolda maktab tadbirlariga qo‘shib yuborilishi o‘quvchilarni musiqaviy tarbiyalashni yuqori darajaga ko‘tarishga to‘sqinlik qilmoqda.

Bunday sharoitda o‘quvchilarni musiqa olamiga olib kirish, jalb qilish qiyin. Musiqaviy malakalarni shakllantirish esa musiqani idrok qilish va ijro etishga doir ayrim xarakatlarni qayta-qayta takrorlashni taqozo qiladi. Mashq, va xarakatlarning mohiyatini chuqur anglash uchun ular erkin, badiiy-ijodiy darajada bajarilishi kerak. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, musiqa darslarining ko‘paytirilishi o‘quvchilarni toliqtirmaydi, aksincha, ulardagi charchoqni emotsional – qiziqarli vaziyatlar tashkil qilish orqali tarqatishga xizmat qiladi. Ijodiy-bilish faoliyatida o‘quvchilarning muhim axloqiy-ma’naviy sifatlari shakllanib, ma’naviy xayotining tarkibiy qismiga aylana borada. Me’yoriy hujjatlarda o‘qituvchining yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishdagi roli aniq belgilab berilgan. Biroq, musiqa o‘qituvchisini ushbu faoliyatga kasbiy tayyorlashda hal etilgan bir qator masalalar bor.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlari musiqiy ta’lim yunalishida taxsil oluvchi talabalar bilan o‘tkazilgan suxbatlar ularning aksariyatida o‘qituvchilik kasbiga qiziqish pastligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli pedagogik ta’limining asosiy vazifasi ularni bolalarni musiqaviy tarbiyalashga yo‘naltirish emas, balki ularni o‘qituvchilik kasbiga qiziqtirishdan iborat bo‘lib qolmoqda.

Musiqa darslarining o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi kamlik qiladi. Ular musiqaning inson hayotida nima sababdan bunchalik katta ahamiyat kasb etishni bilishlari zarur. Aks holda, ularning musiqa mashg‘ulotlariga «qiziqish» lari asta-sekin so‘na boradi.

Hozirgi paytda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi musiqaviy pedagogikaning muhim muammolaridan biriga aylandi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish yo‘llaridan biri sifatida keyingi yillarda o‘quvchilarning assotsiativ tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Biroq musiqa o‘qituvchilari faoliyatining tahlili bu ishda qator muammolar borligini ko‘rsatmoqda. Musiqa studiyalarida musiqaviy idrokni rivojlantirishning ahamiyati katta, chunki studiyalarning asosiy vazifasi o‘quvchilarni musiqani tushunish va sevishga o‘rgatishdir.

D.B. Kobalevskiy o‘zining «Umumta’lim maktablarida musiqa dasturining asosiy tamoyil va uslublari» kitobida «musiqani faol idrok qilish –musiqa tarbiyasi va uning barcha tarmoqlarining asosidir» deb yozgan edi. Bu maqsad xor studiyalarining barcha mashg‘ulotlarida amalga oshirilishi zarur. Ayniqsa, yangi kelgan bolalar bilan o‘tkaziladigan xor mashg‘ulotlarida katta ahamiyatga ega. Chunki, ayni shu bosqichda ularning kelajakdagi musiqiy rivojlanishining poydevori yaratiladi. Xor sinflari mashg‘ulotlari bevosita ijrochilik, konsertlar bilan bog‘liq. Buning uchun esa quyidagi musiqiy - didaktik tamoyillar:

1) o‘quv-pedagogik ishlarda foydalaniluvchi material hajmini oshirish;

2) qisqa muddatda zaruriy ijro malakalarini egallash;

3) musiqa ijrochiligining nazariy yo‘nalishini boyitish;

4) mashg‘ulotlarda o‘quvchi - ijrochilarida mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlikni to‘la namoyon qilishni talab qiluvchi ish uslublarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xor ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlari, uning majmuaviy - xarakterda ekanligini takidlash bilan birgalikda ularning nafaqat xor bo‘lib kuylash, matn ustida ishlash, balki qo‘shiq ijrosini rejalashtirishni, musiqaviy ifoda vositalarini o‘zlashtirishni ham o‘z ichiga olishini aytib o‘tish lozim.

Repertuar tanlash-o‘ta mas’uliyatli jarayon. Zero, bu o‘quvchilarda musiqa madaniyatini rivojlantirish sifatini belgilovchi muhim omildir. Qo‘shiqni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda musiqiy xotira, tinglash qobiliyati rivojlanadi, vokal xor malakalari paydo bo‘lib, o‘quvchilar asar mazmunini, badiiy obrazlarini anglay boradilar. Shu sababli repertuar tanlashda uni quyidagi tamoyillardan kelib chiqqan xolda belgilashni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz;

- tarbiyaviy nuqtai nazardan ushbu asar o‘quvchilar psixologiyasining shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

- pedagogik nuqtai nazardan qo‘shiqdan musiqaviylikning ayrim tamoyillarini rivojlantirishda qanday foydalanish mumkin bo‘ladi.

- qo‘shiqlarni tanlashda ularning emotsional ta’sirchanligi, badiiy qimmati, oson o‘zlashtiruvchanligiga katta e’tibor berildi;

- shuningdek, o‘quvchilarga musiqiy tushunchalar, musiqaning marsh, o‘ynoqilik, tasvir xususiyatlari, musiqiy ifoda vositalari bilan tanishtira borildi. Endi shakllana boshlagan xor jamoasiga «konsert nomeri ijrochisi» deb qarash noto‘g‘ri bo‘lib, bu o‘quvchilar qobiliyatini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu haqda B.M. Teplov «Bir faoliyat bo‘yicha mashq tariqasida ijod qilish, chalish, chizish mumkin emas. Bola badiiy faoliyatining bir qismgina mahsulot yaratishga qaratilib, bu biron kishiga zarur bo‘lib, ta’sir ko‘rsata olishi kerak... Bu siz bolaning umumiy rivojlanishi o‘rniga uning biror malakasigina rivojlana boradi[1] xolos». Shu tarzdagi fikrlar o‘rganilsa, bolalar tomonidan yaratilgan har bir mahsulot pedagoglar tomonidan taklif qilingan quyidagi alohida yo‘llar orqali taxlil etildi:

a) ijroda musiqaning xarakterini ochib berishga erishildimi?

b) ijrodan ko‘zda tutilgan reja bo‘yicha nimalar qilindi?

c) qanday kamchiliklarni qayd qilish mumkin va ularni qanday bartaraf qilish mumkin?

d) qo‘shiqning badiiy matnini tinglovchilarga etkaza olindimi?

Savollardan o‘quv jarayonning yo‘nalishi sezilib turadi. Chunki asar ustida ishlash jarayonida uning xarakteri, ijro rejasi, tahlil qilindi. O‘rganish jarayonida musiqaning ifoda vositalarini murakkablasha borishi ta’minlandi. Ko‘rgazmali qo‘llanmalar va «modellar» dan foydalanish ishning samaradorligini rag‘batlantirdi. Bolalar ijro rejasini tuzish, yakka va jamoa bo‘lib ijrosini tahlil qilishga jalb qilindi. Bunda loto shakldagi kartochkalar tayyorlab, tarqatish qo‘l keldi.

Vokal ovozning tembr xususiyatlari va ovozni ishlatish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Masalan, bolalar ovozini rivojlantiruvchi asosiy usullardan biri – mashqlarda ko‘proq ligato belgisini qo‘llashdir. Ashulachilik ovozining tembr xususiyatlarini rivojlantirish uchun uzoq muddatli, birinchi qadamdan boshlanuvchi ta’lim talab qilinadi. Qo‘shiq matni bilan tanishishda o‘quvchilar she’rning asosiy g‘oyasi, ma’no urg‘ularining qo‘yilishini o‘rganib, mazmunini ochishga harakat qilishadi. Matnni ifodali o‘qish, kuylash o‘quvchilarda ijro rang barangligining o‘sishi va til talaffuzi tozaligiga xizmat qildi. Matn tahlili musiqiy ifoda vositalarini o‘rganish bilan uyg‘un olib borildi. Tajribamizda xor mashg‘ulotlariga tahlil usulining kiritilishi, ijro rejasini tuzishning o‘quvchilar musiqaviy rivojlanishiga yordam berishi, asarni o‘zlashtirishni tezlashtirishi, ongli yondoshuvga o‘rgatish, ijroning har bir nozik jihati, urg‘u, qochirim, zarbga rioya qilishga o‘rgatishi kuzatildi. O‘z navbatida ular bolalarning vokal-xor malakalarni egallashlariga ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Xordagi o‘quv jarayoni bolalar uchun mos shakllarda tashkil qilinganida o‘quvchilarda musiqa idrokining chuqurlashuviga, musiqiy til va uni shaxsiy ijroda ifodalash malakalari shakllana boradi.

Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda maxsus ijrochilik sifatlari bo‘lmish jo‘shqinlik, ilhomlanish, obrazga kirishib ketish, tinglovchilar bilan muloqotga kirishish va ularga ta’sir ko‘rsatish malakalarini shakllantirish vazifalarini belgilab olish zarur deb o’ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. R.J.Ishmuxammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.Nizomiy nomidagi TDPU, 2004 yil. 18 b.

2. K.Tolipov, m.usmonboeva. pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari.t. «fan», 2006 yil.29 b.

3. Panjiyev Q. B.Rahimov. Sh.N. Trigulova A.X.“Musiqa ta’limi fanlarining taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari” t.2008.36 b.

4. Sochinenie I Aranjirovka muzыki na kompyutere / R. Yu. Petelin, Yu. V. Petelin. — SPB.: BXV-Peterburg, 2009. 98-99 b.

5. Lebedev S. N., Trubinov P. Yu. Russkaya kniga o finale.— SPB.: kompozitor · sanktpeterburg, 2003. 121-122 b.

VOKAL ANSAMBLLARIDA DASTURIY ASARLARNING IFODALI IJROSI USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI.

Omonov Hasan Sulaymanovich,

Ilmiy raybar: JDPU,Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti

Abdullayev Shomurat Goyibovich,

JDPU, Musiqa ta’limi va san’at yo’nalishi 1 - kurs magistrant

Annotatsiya. *Vokal darslarida o’quvchi va talabalar o‘zi g‘oyibona tanish bo‘lgan musiqa va qo‘shiq olami bilan tanishadi, bunda uning iste’dod kurtaklari riojlanib, qobiliyati va imkoniyatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Musiqa va qo‘shiqqa ixlosmand, yaxshigina ovozi tufayli istiqboli bo‘lgan talabalarni vokal darslarga jalb etish, ular bilan samarali ish olib borish vokal darslarida qanday texnologiyalardan foydalansa samara berishi to’grisida yoritilgan.*

Kalit so’zlar*: intonatsiya, vokal, qo’shiq, musiqa, asar, o’qituvchi- o’quvchi, ansambl.*

Badiiy ifoda – asarning g‘oyaviy mazmunini ochish formasi hisoblanadi. Agar vokal ansambli yaxshi intonatsiya va sozga, ansamblga va so‘z talaffuziga, vokal texnikasiga ega bulsa-yu, uning ijrosi badiiy ifodaga ega bo‘lmasa, unda asarning goyaviy-badiiy mazmuni tinglovchiga yetib bormaydi. Demak, vokal ansamblida olib boriladigan barcha ishlar badiiy-ifodali ijro bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi zarur. Zero, ifodali ijro asarning mohiyatini ochib beradi. Ansamblda yaxshi soz, sof intonatsiya, unda agogika, dinamika va jumlalash kabi ijro vositalari yetishmasa, uning ijrosi jonli, emotsional qiziqarli bo‘lmaydi. Shuning uchun raxbar badiiy ifoda vositalaridan qay o‘rinda qanday foydalanish kerakligini bilishi lozim. Vokal ansambli dinamik, ritmik, temp, jumlalash (frazalash) kabi har xil badiiy ifoda vositalariga ega bo‘lishi kerak.

Musiqa asari qism va davrlarga bo‘linadi. Asarning ma’lum bir qismidagi musiqaviy fikr davrni tashkil qiladi. Davr esa gaplarga, gaplar jumlalarga, jumlalar ohanglarga bo‘linadi. Ana shu (ohang, jumla, gap, davr) musiqa bo‘laklarini yaxlit bir fikrga birlashtirib, ma’nosini tushungan holda ijro qilish musiqaviy jumlalash deyiladi. Rahbar jamoaga asarning musiqaviy tilini, ifoda vositalarini va uning mantiqiy rivojlanishini, umuman, asar mazmunini to‘liq tushungan holda ijro etishni o‘rgatishi zarur.

Tinglovchi qulog‘iga aniq va lo‘nda eshitilishi uchun ritm va o‘lchovlarga putur yetmagan holda sezilar-sezilmas tsezuralar (ajratib turgan jumlalar) ligalar yordamida ulab boriladi.

Jumlalash dinamika, tsezura, agogika, nafas, tembr, artikulyatsiya, ritm, temp, fermato kabi musiqaviy ifoda vositalarini o‘z ichiga oladi. Asarni to‘g‘ri jumlalash bilan u bir butun talqin qilinadi, umumiy kulminatsiyasiga erishiladi va musiqaviy badiiy obraz yaratiladi. Musiqa rahbari o‘z faoliyatida har bir talaba bilan yakka tartibda ish olib borib, ovozlar tarbiyasini yo‘lga qo‘ysa, uning vokal ijrochiliga doir ishlari ham hal bo‘laveradi, guruh oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishiga ham yo‘l ochiladi. Yoshlarnng ovoz apparatlari, turgan gapki, ancha mo‘rt va nozik bo‘ladi. Ular har jihatdan o‘sib borishlari bilan bir qatorda, bunga mos holda ovoz apparatlari ham o‘zgarib boradiki, bu jarayon muntazam va

uzluksizdir. Shuning uchun vokal rahbari dars o‘tkazgan vaqtlarida rahbari talabalarning ovozini muhofaza qilish, asrash va to‘g‘ri o‘stirishga ham jiddiy e’tibor qilishi kerak. Qo‘shiq aytish, o‘z tabiatiga ko‘ra, kompleks jarayon hisoblanadi. O’quvchi qo‘shiq aytganda uning butun organizmi ishga tushadi. Bunda hammasidan ham organizmning ma’lum bir qismi to‘la faol ishlaydi, ya’ni tovush hosil qilishida artikulyasion, nafas, asab – muskul apparati o‘zini ko‘rsatadi. Ulardan birortasining noto‘g‘ri ishlashi ashulabop ovoz chiqishi yohud me’yoriy oqimiga xalal beradi. Shu sababli talabaning ijrochililik malakasini tarbiyalash ishi kompleks tarzda olib borilishi va bunda uzulishga yo‘l qo‘yilmasligi zarur. O‘qituvchi talaba ovozini yakka holda eshitib, ko‘rikdan o‘tkazib turganida, avvalo, undagi musiqa sezgisining qay darajada o‘sganligiga, ovoz ohangidagi o‘zgarishlarga, nafas chiqarishiga, ovoz hujumining xarakteriga, ovoz ko‘lami va turiga, uning qanday qo‘yilganligiga, shuningdek, ijrodagi o‘sishda ko‘zga tashlanadigan nuqsonlarga e’tibor bermog‘i kerak. Bunda hammaga yaxshi tanish bo‘lgan qo‘shiqni ayttirib sinash mashg‘uloti o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu mashg‘ulotda talabalarning ovoz imkoniyatlarini hisobga olib, ohista va bamaylixotir tezlikda yohud cho‘zib aytiladigan qo‘shiqni sinov uchun tanlash mumkin. Shundagina talabaning musiqa va ijrochilik qobiliyati qay darajada rivojlanayotganligini ko‘rish va kamchiliklarni aniqlash mumkin bo‘ladi. Vokal darslarida talabalarning ovozlari tabiiy jarang kasb etishini hamda ular ovozini pedagogik nuqtai nazardan asrab tarbiyalash, asosan, quyidagi jihatlarga bog‘liq bo‘ladi:

1. Jarangdorlikka erishish. Kuzatuv va tekshiruvlarimiz yoshlar ovozidagi jarangdorlik turlicha ifodalanishini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham, talabalarning ovoz jarangdorligiga erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan vokal o‘qituvchisi ularning yosh xususiyatlari doirasidagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish ko‘rishi mumkin. Birinchi bosqich O’quvchilari ovozlaridagi jarangdorlik ko‘lami kamroq bo‘ladi. Ovoz jorangdorligi asta – sekin ortib boradi.

2. Serparvozlikka erishish. O’quvchilar ovozining serparvozligi ovoz jarangdorligi, avji va ijrochining yosh jihatidan imkoniyatlariga bog‘liqdir.

3. Vibratorning sayqallanishi. O’quvchilik davrini ilk boshlaganlarning ovozlarida garchi vibrato namoyon bo‘lmasa ham bunga avval boshdan e’tibor berish kerak bo‘ladi. Iste’dodli yoshlarda vibrato 11 – 14 yoshligida o‘zini ko‘rsatishi mumkin. Ularning ovozi rasta bo‘lganda vibrato yo‘qoladi. Buni o‘g‘il bolalar misolida ko‘rish mumkin. Katta yoshdagilarning ovozida vibrato mavjudligi yaxshi seziladi.

4. Jarangdorlikning tekisligiga erishish. Bu jarayon ham asta – sekin ro‘y beradi. Yangi o‘qishga kirgan talabalar ovozida undosh tovushlar notekis jaranglaydi. O‘qituvchi o’quvchilar bilan mustaqil ravishda ish olib borganida ular e’tiborini jarangdorlikda tabiiylikka intilishga qaratishi kerak bo‘ladi. Bunda u ovoz past yoki baland chiqqan paytdagi o‘zgarish holatini konsert misollarida ko‘rsatib berishi zarur. Qo‘shiq kuylashda nutqning diksiyasi (tiniqligi) tovushlarning balandligiga, talabaning ovoz xususiyati va nutq madaniyatiga, undoshlarning to‘g‘ri talaffuz qilishiga, ijrochilik hamda uning umumiy saviyasiga bog‘liqdir. Talabalardagi qo‘shiqbob ovozni tarbiyalash ishi mashg‘ulotlarda muntazam ravishda olib borilishi lozim. Bunda vokal darslari va uning repertuarlari bo‘yicha mashqlar ko‘zda tutiladi. Vokal o‘qituvchisi jarangdorlikdagi nozik o‘zgarishlarni ham nazardan chetda qoldirmasligi va ularni to‘g‘ri yo‘lga solishni o‘ylashi kerak. O’quvchilarda vokal sezgisini tarbiyalashda ularning o‘z ovozlariga ongli ravishda tanqidiy munosabatda bo‘lishlari ham nazardan chetda qolmasligi zarur. Har bir talaba o‘z – o‘zini kuzatib borishi vokal rahbarining bu boradagi ishini bir muncha yengillashtiradi. O`qitishda tadrijiylik va davomiylik tamoyili. Bu umumpedagogik tamoyil bo`lib, ta'lim jarayonida soddadan murakkabga qarab borishni nazarda tutadi. Tadrijiylik xonanda diapazonini kengaytirishda — vokal mashqlari, repertuar tanlash, lirik hissiyotdan dramatik hissiyotga o`tish uchun qo`llaniladi. Repertuarni murakkablashtirish ovoz zo’riqishi va ovozni yo`qotishga olib keladi. O`quvchi bilan ishlaganda birinchi navbatda ovoz tembri, uning yorqinligi, sifati va uchqurligi uchun g`amxo’rlik qilish zarur. Bu ishlarni amadga oshirayotganda ovoz zo’riqishidan saqlanish lozim. Vokal darslarining ham yo‘qlamasi bo‘lib, unga qatnashuvchilarning

davomadi va o‘zlashtirishi, talabalarda o‘rgatilayotgan musiqa me’yorlarining nomi, mazmuni va vaqti qayd etib boriladi. Bu narsa boshqa fanlar qatori talabalarning vokal mashg‘ulotalaridan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini kuzatib borishga, ishdagi ba’zi bir nuqsonlarga o‘z vaqtida chek qo‘yishga imkon beradi. Vokal o‘qituvchisi o‘z zimmasiga muhim va mas’uliyatli vazifa turganligini sira ham unutmasligi kerak

Adabiyotlar ro’yxati

1. M. Ismoilova, “Xalq qo’shiqlari vositasida o’quvchilarning ma’naviy – axloqiy fazilatlarini shakllantirish”// 2012-y 156-bet.

2. Sodiqov O. Vokal ansambli. o‘quv qo‘llanma -musiqa, T. 2005 y.

3. P. Qodirov. “Boshlang’ich maktabda ko’p ovozda kuylash”. – T: o’qituvchi nashriyoti, 1997-y. 211-215-betlar

4. S. R. Irkinovich “Bolalar vokal ansambillarini tashkil etish” https://pshedu.jspi.uz/index.php/journal/article/view/2337/1532

5. Sodiqov O. Vokal ansambli. o‘quv qo‘llanma -musiqa, T. 2005 y.

6. P. Qodirov. “Boshlang’ich maktabda ko’p ovozda kuylash”. – T: O’qituvchi nashriyoti, 1997-y. 211-215-betlar

7. Sovet jazzi. Sovet bastakori. -M.: 1985 yil.

8. www.jzz.ru

9. www.atmuzik.ru

JAHON KOMPOZITORLARINING BOLALAR UCHUN YARATILGAN ASARLARINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDA O’RGATISH METODLARI

Omonov Hasan Sulaymanovich,

Ilmiy raybar: JDPU,Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti

Oqilov Karimjon Tirkash o’gli,

JDPU,Musiqa ta’limi va san’at yo’nalishi 1 - kurs magistranti

Annotatsiya. *Jahon kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan musiqiy asarlarini va ijod na’munalarini o’rgatishda, hozirgi zamon o’quvchilarda jahon*

musiqasi bilan tanishishga va musiqaning dunyoviy ilmlarini egallashiga, ular orqali musiqaning turli qirralarini anglashga yordam beradi. Milliy musiqa bilan cheklanib qolmasdan jahon kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan asarlari orqali barkamol avlodni tarbiyalashda musiqaning o'rni, usullari va samarali yo'llarini ishlab chiqishda hamda musiqa o'qituvchisining kasbiy mahorati to'grisida.

Kalit so'zlar: *kompozitor, musiqa, kasb, kompetensiya, maktab, o'qituvchi, o'quvchi, madaniyat, asar, jahon.*

Jahon kompozitorlarining bolalar uchun mo'ljallab yozilgan asarlarini o'rgatishda musiqa madaniyati o'qituvchisidan yuksak mahorat, keng dunyoqarash, ko'nikma, malaka, ijodiy yondoshish, aniq faktlarga asoslangan hamda statistik holatda o'rganilgan ma'lumot va bilimlarini, kasbiy va pedagogik kompitentliklarni talab qiladi. Ummumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida milliy kompozitorlar yozgan asarlardan tashqari jahon kompozitorlik asarlariga murojaat qilish hozirgi zamon o'quvchilarda jahon musiqasi bilan tanishishga va musiqaning dunyoviy ilmlarini egallashiga, ular orqali musiqaning turli qirralarini anglashga yordam beradi. Milliy musiqa bilan cheklanib qolmasdan jahon kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan asarlari orqali barkamol avlodni tarbiyalashda musiqaning o'rni, usullari va samarali yo'llarini ishlab chiqishda musiqa o'qituvchisining kasbiy mahorati quyidagi vazifalarlardan iboratdir:

- barkamol avlodga jahon kompozitorlik asarlarini o'rgatishda musiqiy bilimlarini shakllantirish darslarining samarali yollarini ishlab chiqish;

- musiqa darslarida jahon kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan asarlarini o'rgatishning turli shakl va metodlarini qo'llash, mintalitetimizga hos bo'lgan va bolalar ruhiyatida aks ta'sir ko'rsatmaydiganlarini tanlab olish;

- jahon kompozitorlarining musiqiy meroslari bilan yaqindan ilmiy o'rgangan holda tanishish, musiqashunos olimlarning ilmiy-tadqiqot izlanishlarini ushbu mavzuga oid fikrlarini o'rganib chiqish, tahlil qilish, moslash;

- musiqa darslarini rejalashtirilishda musiqa darslari faoliyat turlari va ularni xususiyatlari orqali o'quvchilarda badiiy didni o'stirishga e'tibor qaratish;

- bolalar qo’shiqlari orqali eng avvalombor ruhiy mustahkam, vatanparvarlik, tinchliksevarlik, do’stlik tuyg’ularini qaror topdirish, yuksaltirish yo’llarini ishlab chiqish;

- musiqiy, badiiy vositalar orqali o’smir yoshlarda jahon musiqasi haqida tasavvurni shakllantirish;

- musiqa darslari jarayonida jahon kompozitorlarining bolalar qo’shiqlari vositasida barkamol avlodni tarbiyalashda ma’lum marralarni zabt etish, oldiga qo’ygan maqsadlarga yetishsish;

- musiqa madaniyati o’qituvchisining har tomonlama bilimli pedagog bo’lishida o’z fanini chuqur o’zlashtirish, pedogogik faoliyatida yaxshi natijalarga erishish;

- o’quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan musiqiy tadbirlar, bayramlar va ko’ngilochar konsertlarni muntazam tashkil etib borish.

Bugungi kun taraqqiyotida ma’nan hamda jismonan sog’lom avlodni tarbiyalash muhim masalalar sifatida ko’tarilgan bir paytda hayotning o’zi hammamizdan, ayniqsa yoshlardan ma’naviy va ruhiy sog’lom komil shaxs sifatlarini kuchaytirish kerak. Umuman olganda sog'lom avlodni tarbiyalash, keljak ijodkorlariga befarq bo’lmagan holda ularda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko’tarish orqali komil shaxslarni voyaga etkazishga yanada ulkan e'tibor qaratishimiz kerak. o’qituvchining yuqori darajadagi pedogogik tajribasi va madaniyati o’quv tarbiyaviy ishlar jarayonida barcha turdagi psixologik vazifalarni samarali tashkilashtirishga yordam beradi. Shuning uchun o’quvchilar musiqiy madaniyatini shakllantirish barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida o’quvchilarni diqqatini to’play olishi, ularning ham bir tomondan aqliy boshqa tomondan hissiy idrok etishini tashkil etish, mustahkam xotirasini, ijodiy taffakurini rivojlantirish, irodaviy va boshqa xususiyatlarini shakllantirish kabi psixologik jarayonlardan samarali foydalanishga bevosita chambarcharsdir.

Hozirgi zamon musiqa madaniyati o’qituvchisi yuksak madaniyatli, o’z kasbiga sadoqat, ilg'or pedagogik tafakkur egasi bo’lmog'i davr talabi hisoblanadi.

U o’zining uzluksiz kasbiy madaniy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo’lishi bilan birga, musiqa, nafosati, pedagogika va psixologiya-fiziologiya fanlaridan, xususan, musiqa o’qitish uslubiyotidan kompleks tarzda chuqur bilim va malakalar egasi bo’lmog'i darkor[31]. Yana musiqa o’qituvchisida xonandalik, cholg’uchilik xor dirijorligi va ayniqsa musiqa nazariyotchiligi kabi sifatlar o’z mujassamligini topmog’i darkor. Unda o’zbek va jahon musiqasi mukammal bilmog’i hamda o’zbek adabiy tilini yuqori darajada bilmog'i, umumbashariy musiqa madaniyatidan habardor bo’lishi, kundalik musiqiy-madaniy hayotdan voqif bo’lishi, musiqiy yangiliklardan habardor bolishi orqali boshqalardan bir qadam oldinda yurishi shart. Musiqa madaniyati o’qituvchisi pedagogik muloqot ustasi bo’lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo’lmog'i darkor, bor bilim tajribalaridan foydalanib va bu orqali cheklanib qolmasdan zamon bilan hamnafas shaklda yangi pedagogik tomonlarni o’zida shakillantirish talab qilinadi.

Jahon kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan musiqiy asarlarini va ijod na’munalarini o’rgatishda, kuylash, ijro etish va tinglashda o’qituvchining kasbiy va pedagogik kompitentligi asosiy urg’u bergan holatini inobatga olgan holda mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishi. Zamonaviy pedagogikada kasbiy kompetentlilikni shakllantirish, o’qitish texnologiyalariga katta urg’u berilmoqda. Mutaxasis olimlar tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o’qitish texnologiyalari bo’lajak pedagoglar va o’qituvchilarning kasbiy kompetentligining shakllanishi va rivoj topishi, ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo’lib, mutaxasisslikni egallashning ahamiyatli bazasini yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada marralarga olib chiqishda amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va imkoniyatlarning sekin-asta shakllanishiga turtki va ko’mak beradi.

[31] S.n.gulov.@ buxdu.uz.Sadriddin Niyozovich Gulov.Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini tashkil etishning asosiy shakllari.

Shuning uchun ijodkor pedagog ta’lim – tarbiyaning samarali shakli va usullarini tanlab, natijani oldindan aniq ko’ra olish, pedagogik faoliyatini ilmiy asoslanib yo’naltirishi kerak. Pedagogik muloqatda o’qituvchi shaxsining sifatlari va uning xatti – harakatlari o’quvchining ideali sifatida namoyon bo’ladi.

Jahon kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan asarlarini o’rgatishning ahamiyati o’ziga xosdir. Ummumta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida milliy kompozitorlar yozgan asarlariga murajaat qilgan holda, shuning birgalikda tizimlilik asosida standartlar asosida jahon kompozitorlik asarlariga murojaat qilib, izchillik bilan o’quvchilarda jahon musiqasi bilan tanishishga, ular orqali musiqaning jozibador sehri va turli qirralarini sof anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Musiqa madaniyati darslarida rus kompozitorlari ijodi orqali o’quvchilarning estetik didini rivojlantirish rhttps://openscience.uz/index.php/sciedu/article/1237

2. https://hozir.org/2-mavzu-pedagogning-kasbiy-kompetentligi-va-unga-xos-sifatlar.html

3. Metodicheskaya razrabotka Tema: “Izuchenie mirovых kompozitorov detmi 1 goda obucheniya” Razrabotal: Rzaeva Yelizaveta Zoxrabovna Pedagog dopolnitelnogo obrazovaniya vыsshaya kvalifikatsionnaya kategoriya Nijniy Novgorod 2019 36-42 s.

4. Rahimova N.-“O’qituvchining kasbiy kompetentligi va uni shakillantirishning pedagogik imkoniyatlari”-magistrlik ishi-Buxoro-2017 II-bob.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLARI VA MUSIQIY MUHARRIRLAR VOSITASIDA MUSIQA FANLARINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sh. Usmonova.

NavDPI 1-bosqich magistranti.

Bugungi shiddatli va globallashuv jarayonida eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelayotgan ta’lim tizimida yoshlarga ta’lim berish, bo’lajak musiqa fani

o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Hozirgi axborot asrida fan-texnika taraqqiyoti naqadar yuksak bosqichda jadal ravnaq topayotganligining guvoh bo`lib, barcha sohalar shu jumladan, tasavvur qilish mushkul ekanligiga amin bo`lamiz. Ta’lim jarayonida media-ta`lim, kompyuter, internet, multimedia vositalari, televideniya, radio va boshqa texnik aloqa vositalari o`z samarasini ko`rsatmoqda. Elektron ta’lim barcha ta’lim sohasi sifatini yanada yuqoriroq pag‘ona ko`tarishga, axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda. Ya’ni, o`qituvchiga o`quv jarayonida nazariy bilim berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamoniviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatini yaratdi. Shu sababdan, ta’lim muassasalarida o’quvchilarning savodxonligini baholash bo’lajak o’qituvchilardan yuqori kasbiy kompetentlik, shuningdek zamonaviy yangicha innavatsion yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahon oliy ta’lim muassasalarining bo’lajak musiqa fani o’qituvchilarining kasbiy kompetentligi, uning mazmuni, tizimli tarzda tashkil etishning metodikasini takomillashtirish bo’yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modellarining samaradorligini oshirish, innovatsion metodikalar hamda, elektron ta’lim resurslari asosida tashkil etish, bo’lajak musiqa fani o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini yanada rivojlantiruvchi jarayonni tashkil etishga yo’naltirilgan pedagogik imkoniyatlarni aniqlash bo’yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda ta’lim sohasi rivojida pedagogik kadrlarning bilimli, zamon talablariga mos tarzda bo’lishi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy sog`lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo‘ymoqda. Yangi O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda o’z yo’lini tanlashida kadrlar masalasini ham dolzarb vazifa sifatida belgiladi. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi kelajakdagi ta’lim tizimining ikkita asosiy tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi: mavjudlik printsipi va uzluksizlik printsipi. Aynan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchilarga yo‘naltirilgan

ta’limni yanada qulaylashtirdi. So‘nggi yillarda umumiy ta’lim maktablari, kollejlar va universitetlar tobora ko‘proq o‘quv fanlarini o‘rganishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga murojaat qilmoqdalar, ta’lim sohasini axborotlashtirish amalga oshirilmoqda. Axborotlashtirish deganda kompyuter texnologiyalari va yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqarish, ta’lim, odamlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotining turli sohalariga joriy etishning faol jarayoni tushuniladi. Bugungi kunda musiqiy kompyuter dasturlari musiqiy ta’limning quyidagi asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilmoqda. Musiqachining badiiy tafakkurini tarbiyalash; amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish; musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish; ijodiy faoliyat; atamalarning asosiy tushunchalarini o‘rganish; nazariy bilimlarni ta’minlovchi dasturlar – ular talabalar tomonidan musiqiy asarlar tuzish qonunlari va qoidalarini, asosiy nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishga qaratilgan. Dasturlar, qoida tariqasida, ko‘plab musiqiy atamalarni, musiqiy savodxonlik va musiqa nazariyasining elementlarini, notalarni, akkordlarni va boshqalarni aniqlash uchun test topshiriqlarini tushuntirib beradigan o‘yin va ta’lim bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Solfedjio, garmoniya, polifoniya an’anaviy mashg‘ulot shakliga muvofiq nazariy fanlardan biridagi darsga taqlidni ifodalaydi yoki uzoq muddatli mashqlarni talab qiladigan individual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, dastur talaba bilan pedagogik muloqotni olib borishi, fikr-mulohazalari bo‘lishi va baho berishi kerak.

Eshitish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar - intonatsiya, garmonik, ohangdor eshitish va hokazolarning sofligini rivojlantirish bo‘yicha turli treninglarni o‘z ichiga oladi. Ular tarkibida notalar, intervallarni, tarozilarni va boshqalarni aniqlashda mashq qilishga imkon beradigan turli xil eshitish diktantlari mavjud. Musiqiy adabiyot dasturlari - bular kitoblar, ensiklopediyalar, MIDI fayllari ko‘rinishidagi musiqiy asarlar to‘plamini, tegishli bastakorlar va musiqachilarning qisqa tarjimai hollarini o‘z ichiga olgan turli xil musiqiy asarlar to‘g‘risidagi kichik rasmli ma’lumotnomalar va ushbu material bo‘yicha kichik viktorina bo‘lishi mumkin. Musiqa va musiqiy adabiyotlar tarixi bo‘yicha

dasturlarning matnlari slaydlar va reproduktsiyalar, musiqiy asarlardan parchalar, videofilmlar bilan tasvirlangan, tanlangan musiqiy va badiiy asarlar va maqolalar slayd-shousibilanbirga rivoyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday dasturlar yordamida siz turli mamlakatlar va davrlarning bastakorlari ijodi bilan tanishishingiz, ularning tarjimai hollarini bilishingiz, u yaratgan musiqa haqida ma’lumot olishingiz, lavhalar bo‘yicha ba’zi qismlarini saralashingiz, musiqiysan’atning turli janrlari, musiqachilar va musiqa asboblari haqida bilib olishingiz mumkin. Gipermurojaatlar dasturning bir qismidan ikkinchisiga tezda o‘tish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalaridan turli xil kasbiy faoliyatda foydalanish qobiliyati zamonaviy sharoitlarda tobora zaruriy talabga aylanib bormoqda. Musiqachi ishida musiqa muharrirlari alohida ahamiyatga ega, ular juda keng imkoniyatlarga ega va deyarli barcha musiqa mutaxassisliklari vakillari tomonidan talab qilinadi. Musiqiy muharrirlardan bastakorlar va aranjirovkachilar ijodiy muammolarni hal qilishda foydalanadilar, ijrochilik mutaxassisliklari musiqachilari turli xil aranjirovkalarni yaratishda, taniqli asarlarning moslashuvlarida, original ijro nashrlarida, shuningdek, professional musiqachilar ushbu dasturlardan uslubiy va ilmiy ishlarda musiqiy material tayyorlashda foydalanadilar. Musiqiy muharrirlarga faoliyatning turli sohalarida - professional musiqa ta'limi va ijodida, kino sanoatida, televidenieda, teatr, konsert, musiqa nashriyoti tashkilotlari va kutubxonalarida talab katta**.** Zamonaviy musiqa amaliyotida yangi axborot texnologiyalaridan tobora ko‘proq foydalanilmoqda, bu zamonaviy madaniyatning bir qismiga aylandi. Elektron musiqa asboblarining (sintezatorlar, namuna oluvchilar, musiqa kompyuterlari) tobora ko‘payib borayotgan turlari mavjud. Musiqiy ta’limda multimedia tizimlaridan foydalanish musiqiy entsiklopediyalar, kitoblar, ma’lumotnomalar va lazer kompakt-disklariga yozilgan turli xil antologiyalardan ta’lim maqsadida foydalanish imkoniyatini beradi. Zamonaviy musiqa darsi – bu darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompyuter texnologiyalari va elektron

musiqa asboblaridan foydalaniladi. Musiqa fanlarini o‘qitishda ayniqsa, quyidagi axborot-kommunikatsiya vositalari judakatta yordam ko‘rsatadi.

Finale Musiqiy matnni terish bilan shug'ullanadigan ko'plab odamlar **Finale** dasturini yaxshi tanishishadi. Boshqalar kamroq tarqalgan, ammo juda faol bo'lgan **Sibelius** dasturidan foydalanadilar. Eng tajribali foydalanuvchilar dasturlarning **Finale + Score** kombinatsiyasidan foydalanadilar. Notalarni Finaledan Scorega o`girish uchun maxsus yordamchi dastur mavjud. Dasturning kamchiligi shundaki, uni tushunish juda qiyin. Umuman intuitiv interfeys emas. Musiqa muharriri dasturining yangi foydalanuvchilari uchun Sibelius ko'proq mos keladi. U aniq nazoratga ega. Har qanday funktsiyani bir necha marta bosish bilan bir vaqtning o'zida topish mumkin. Barcha ob'ektlar grafik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri fayl menyusida ko'rsatiladi, shuning uchun hatto ingliz tilini yaxshi bilmaydigan odam ham dasturni tushunishi mumkin. Ishni tezlashtirish uchun siz ularning klaviatura birikmalarini o'rganishingiz va hatto ularni o'zingiz tayinlashingiz mumkin. Sibeliusda buni bajarish juda oson, masalan, chiziqli tanaffuslar va boshqa zamonaviy musiqaga xos bo'lgan narsalar. Ushbu dasturda atigi 20 ga yaqin nota yozuvi ko`rinishlari, shuningdek, taxminan 25 ta kalit mavjud. Finaleda ham siz bunday yozuvlarni muvaffaqiyatli yozishingiz mumkin, lekin ba'zi ba'zida muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilish uchun siz mutlaqo g'ayrioddiy yechimlarni topishingiz kerak. Sibeliusda bu ikki marta bosish bilan amalga oshirilishi mumkin. Finale juda chalkash fayllar menyusiga, juda ko'p sonli panellarga ega, qaysi biri nima uchun javobgar ekanligini darhol anglash qiyin, ammo Sibeliusda hamma narsa mantiqiy ravishda qurilgan. Ammo tezkor tugmachalarni yoqtirganlar Finaleni yaxshi ko'radilar. Deyarli barcha operatsiyalar uchun asosiy topshiriqlar mavjud. Shuningdek, maxsus dastur mavjud - FinKey, bu sizga kalitlarni tayinlash bo'yicha operatsiyalar sonini ko'paytirishga imkon beradi. To'g'ri, Sibeliusning so'nggi versiyalari deyarli barcha funktsiyalar uchun o'zlarining klaviatura yorliqlariga ega, bu juda qulaydir. Finale ham, Sibelius ham Plug In 'ni qo'llab-quvvatlaydi, shuning uchun ularning imkoniyatlari yangi

versiyalar chiqishini kutmasdan kengaytirilishi mumkin. Va yana bir muhim jihat - bu nashr qilish kabilardir.

Axborot texnologiyalari musiqa va unga aloqador mavzular uchun o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. Axborot texnologiyalari imkoniyatlari musiqa fanlarini o‘qitishda ham o‘qitish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arobidin Xusnidinovich Arabbayev. Musiqa darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samarasi, o’ziga xosligi va bugungi kundagi ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences VOLUME2|ISSUE10|2021.

2. . Axmedov Bekjan. Musiqa fanlarini mustaqil o’zlashtirishda axborot kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish.

3. Karimova D.A. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. Darslik T., 2020.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY – AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH.

M. Murodillayeva

*NavDPI 1-bosqich magistranti***.**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Ma’naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi”[105], tarzida ifodalangan metodologik prinsip ma’naviy-ma’rifiy faoliyat funksiyalarini, rolini, o‘rnini, ahamiyatini asoslab berdi.

Shaxsning insoniy munosabatlar tizimini umumiy shaklda aks ettiruvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan, yetarlicha shakllangan sifatlarini xarakterlovchi xususiyatlari majmuasi tarbiyalanganlik deyiladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi deganda o’quvchilarda mavjud bo’lgan axloqiy meyorlar va ko’nikmalarni amaliyotga qo’llay olish darajasi tushuniladi. O’quv-tarbiyaviy

jarayonda tarbiyalash natijasi tarbiyalash tadbirlari o’tkazilgandan keyin birdaniga namoyon bo’lmaydi.

Darsda o‘quvchilar axloqiy madaniyatini shakllantirishda milliy xalq qo‘shiqlaridan foydalanish eng samarali vositalaridan biridir. Xalqimizning boy merosidan foydalanish har bir o‘quvchi shaxsining ma’naviy kamol topishida eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Xalq qo‘shiqlarida halollik va poklik, to‘g‘rilik, birovning haqiga ko‘z olaytirmaslik, xiyonat qilmaslik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, diyonat, imon, halol luqma bilan kun ko‘rish, ota-onaga hurmat kabi inson uchun zarur ma’naviy xislatlar yuqori badiiy saviyada aks ettirilgan.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyada Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Oydin Hojiyeva, Omon Matjon, Rauf Parfi, Xosiyat Bobomurodova, Muhammad Yusuf kabi shoirlarimizning asarlari va she’rlaridan ham keng foydalanish, badiiy asarlarda tarannum etilgan vatan madhi, uni ko‘z qorachig‘idek asrash, e’zozlash kabi tuyg‘ularni o‘quvchilar qilbiga jo qilish, ular axloqiy madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Masalan, Xosiyat Bobomurodova so‘zi bilan ijro etilayotgan mashhur qo‘shiq «Vatan yagonadur» qo‘shig‘ini olib ko‘raylik.

Derlar shirin so‘zning gadolari ko‘p,

Yonib turgan ko‘zning gadolari ko‘p.

Yurtlar bor hattoki, xudolari ko‘p,

Vatan yagonadur, Vatan bittadur.

Vatanparvarlik g‘oyasidagi ushbu qo‘shiq har bir o‘quvchi shaxsini ma’naviy rivojlantirishga katta ta’sir qiladi.

Ma’naviy – axloqiy tarbiyani amalga oshirishda kishilar ongi, ruhiyatiga ta’sir etishda teatr san’atining ham roli, o‘rni va ahamiyati ta’sir doirasi va imkoniyatlari cheksizdir.

Musiqa darslari jarayonida ma’naviy – axloqiy fazilatlarning tarkibiy qismlari o‘zaro birlik va aloqadorlikda singdirib borilishi lozim. O‘quvchilarning ma’naviy – axloqiy fazilatlarini shakllantirish aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy,

huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy kabi ko‘p qirrali qismlari bilan yaxlitlikni tashkil etadi. Axloqiy fazilat bilim, ko‘nikma va malakalar, axloq qoidalari asosida o‘quvchining xulq – atvori, odatlarini boshqarishning o‘ziga xos tizimini tashkil qiladi. Axloqning namoyon bo‘lishi ko‘p qirrasi bo‘lib, insonparvarlik, vatanparvarlik, erksevarlik, halollik, haqiqatgo‘ylik pokizalik, ijodkorlik, saxiylik, xushmuomalalik kabi tushunchalarni qamrab oladi. Faoliyat jarayonida bu kabi xislatlar o‘quvchi ongi va hulqiga ta’sir etuvchi omillar sanaladi.

Shuni aloxida qayd etish mumkinki sharqona islomiy mezonlar sanalmish iymon, e’tiqod kabi tushunchalar umuminsoniy mazmun va mohiyatga ega bo‘lib, uning asosida e’tiqod madaniyati aks etadi. Diniy mafkura va dunyoqarashga tayanib kishilar afsonalar, rivoyatlar, qo‘shiqlar, ertaklar, dostonlar, badiiy obrazlar ijod etishgan. Diniy dunyoqarash inson ongi, hayoli, tilak va orzulariga keng yo‘l ochib bergan. Shuning uchun dinning asrlar davomida sinovdan o‘tgan g‘oyalardan o‘quvchilarni ma’naviy – axloqiy tarbiyalashda o‘rni bilan foydalanish imkoniyati mavjuddir.

Milliy xalq qo‘shiqlari vositasida 5-7-sinf o‘quvchilariga ma’naviy – axloqiy tarbiya berishning muhim shartlaridan biri ulardagi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishdir. Axloqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning samarali shakl va metodlarini amaliyotga tadbiq etishdan iboratdir. Bu o‘rinda san’atning milliy xalq musiqasi, qo‘shiq, raqs, teatr, kompozitsion badiiy chiqishlar, mavzuli badiiy kechalar, ijodiy ko‘rgazmalar, san’at haftaliklari, she’riyat klublari kabi ommaviy tadbirlar eng muhim ish shakllari hisoblanadi. Badiiy asarlarda tarannum etilgan Vatan madhi, insonni ulug‘lash, milliy qadriyatlarga sodiqlik, insoniy fazilatlarni ulug‘lash kabi tuyg‘ularni o‘quvchilar ongi, tafakkuriga singdirish ularning axloqiy madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa san’ati vositasida axloqiy tarbiyalash - bu bolalarni musiqani boshdan kechirish, boshqalar xursandchiligiga hamnafas bo’lish qobiliyatini rivojlattirish, o’zgalar g‘amini his qilish - hamdardlik, o’zining hayotga nisbatan munosabatini umuminsoniy axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashdir.

Musiqa o’qituvchisining vazifasi san’at vositasida fikrlashni o’rgatish, his qilishni, dardlashishni o’rgatib, o’quvchilarda nafaqat aqliy, balki qalbining rivojlanishiga ernishishdan iborat.

Ma’naviy – axloqiy tarbiyalash deganda, insondagi axloqiy-ma’naviy shakllanish jarayoniga ta’sir qiluvchi quyidagi ma’naviy parametrlarni shakllantirishi tushuniladi:

— ma’naviy hislar (iymon, burch, ishonch-e’tiqod, mas’uliyatlik, fuqaroparvarlik, tashabbuskorlik);

— ma’naviy qiyofa (sabr-toqat, rahm-shafqatlilik, yuvoshlik);

— ma’naviy holat (yaxshilik va yomonlikni farqlash, hayot sinovlariga bardoshlilik, ishq muhabbatning paydo bo’lishiga erishish);

— ma’naviy xulq (vatanga va insonlar xizmatiga tayyorlik, axloqiy muloxazakorlik, itoatkorlik, irodalilik).

O‘quvchilar xalq qo’shiqlarini, kuylarini, mashhur o’zbek bastakorlarning asarlarini tinglab, ajdodlarning bebaho madaniyatini, o’zbek xalqining dard-hasratlarini, O’zbekiston tabiatini anglaydilar.

Navro’z, mehrjon, lola sayli, qovun sayli, non sayli, tabiat saxovati, yil boshi, hosil bayrami, sumalak sayli, boychechak, xotira va qadrlash kuni, ustozlar, shifokorlar bayrami, xotin-qizlar bayrami, yangi yil, xayit bayramlari tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazishda faol qatnashish bolalarning axloqiy madaniyatini rivojlatirishga kuchli ta’sir qiladi.

Insonlar o’rtasidagi munosabatlar, insonning jamiyatga munosabati qoidalarining meyori-axloqdir. Axloqning hal qiluvchi tomoni ishonchdir. Mustahkam ishonchni shakllantirish tarbiyalashning bosh masalasidir. Oddiy ma’naviy qiyofalar, odatlar - axloqning alifbosidir.

O’quvchilarning aloqiy tarbiyalanganlik darajasini ularning xalq qo’shiqlarini yaxshi ijro qilib borishlari va yaxshi baholarga o’qishlari bilangina o’lchab, baholab bo’lmaydi. Bunday o’lchash va baholashlar ilmiy jihatdan asoslangan mezonlar va ko’rsatkichlar orqali aniqlanadi. O’quvchilarning xalq qo’shiqlari matni va musiqasini bilishi, qo’shiqning mazmuni va g‘oyasini bayon

qilib berishi, qo’shiqning yaratilish sabablari, xalq an’analari va urf-odatlari bilan bog‘liqligi, ijro etish tartibini bilishi, uning mazmunidan kelib chiqargan ma’naviy – axloqiy xulqni tartiblashtirish va rivojlantirishda foydalana olish ko’nikmalarini egallash muhim ahamiyatga ega bulib, mezonlar uchun ko’rsatkichlar bo’lib xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilar axloqiy madaniyatini shakllantirish ishlarini olib borishda musiqa darslarini tashkil etish jarayonida xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilar axloqiy madaniyatini shakllantirish, ularni ijtimoiy yo‘naltirishga qaratilgan ishlarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad, o‘quvchilarni axloqiy shakllantirishga yo‘naltirilgan ishlarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad musiqa darslari mazmunida milliy g‘oya, vatanparvarlik, baynalminallik g‘oyalarining singdirilishiga erishish hamda shu asosda o‘quvchilar axloqiy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “O’zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risida. Toshkent sh. 2023 yil 11 sentabr, PF-158-son.

2. Mustafayev Sh. Barkamol shaxs tarbiyasida san’at va pedagogika uyg‘unligi // Fan va jamiyat. Ilmiy uslubiy jurnal. 2-son –Nukus, 2021. – B. 86-88. (13.00.00; №3).

3. Мансуров А, Каримова Д, Мусиқа 5-синф учун дарслик. –Т: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт- матбаа ижодий уйи, 2012 й.

TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSIDA MUSIQA MADANIYATINING RIVOJLANISHI.

E.Husanov

NavPI. 1-bosqich magstranti

Hayotimizning barcha jihatlarida, jumladan yosh avlod ta’lim tarbiyasida ham keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ma’naviyatimizni “milliy tiklanishdan-milliy yuksalish” g‘oyalari asosida yanada boyitish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda musiqa san’ati hayotni o‘rgatadi, tasvirlaydi

va ifodalaydi. Shu bois musiqa vositasi orqali ularning ma’naviy va ahloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirishda, ularda oliyjanob fazilatlarini shakllantirishda ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda kelajagimiz bunyodkorlari bolmish oquvchilarni manaviy yetuk, aqliy barkamol, jismonan soglom, milliy, madaniy qadriyatlarga ongli munosabatda boladigan, shuningdek, fan sirlarini chuqur egallagan har tomonlama bilimli insonlar qilib tarbiyalsh jamiyatimizni rivojlantirishga qaratilgan barcha vazifalar ichida ustuvor ahamiyat kasb etib turibdi. Talimning barcha boginlarida va fanlar yonalishlarida bolgani kabi oquvchiyoshlarni axloqiy, estetik, manaviy jihatdan yetuk va milliy goyalarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ularning badiiy tafakkurini ostirishda “musiqa madaniyati” muhim orin egallaydi.

Temur va temuriylar davrida yaratilgan yuksak madaniyatni YUNESKO tashkiloti ham bir necha bor e’tirof etganligi – Temuriylar Renessansini xalqaro miqèsda tan olinganligini yaqqol isbotlab turibdi. YUNESKOning sobiq bosh direktori Federiko Mayorning ispan elchisi Klavixo asarlaridan ta’sirlanib, o‘sha davrda yaratilgan me’morchilik, she’riyat, texnik va ilmiy topqirlik – ushbu madaniyatga afsonaviy jahongir Amir Temurning ta’siri to‘g‘risidagi aytgan so‘zlari bejiz emas.

Mohir sarkarda, davlat arbobi, ilm-fan, madaniyat homiysi bo‘lgan Amir Temur ana shunday tarixiy shaxslardan biridir. Hazrat sohibqiron markazlashgan davlatga asos soldi, uni har tomonlama mustahkamlab, rivojlantirib, shon-shuhratini butun jahonga yoydi, buyuk saltanatning hukmdori sifatida millatlar va halqlarni birlashtirdi. Uning hukmdorlik yillarida madaniyat, ilm-fan, me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa va she’riyat yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Bir so‘z bilan aytganda, temuriylar davri renessansiga asos solindi.

Jahon tamaddunida Temuriylar davri ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan chuqur iz qoldirdi. Orta Osiyo Temur hokimiyati ostiga birlashtirilishi munosabati bilan XIV asrning ikkinchi yarmidanoq madaniyat va sanatda yangi yuksalish boshlandi. Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movorounnahr juda katta tashqi mavqeyga ega boldi. Arxitektura gullab-yashnadi, davlat poytaxti

Samarqand hamda Temurning ona shahri Kesh (Shaqrisabz) ulkan qurilishlar bilan obodonlashtirildi va bezatildi. Bosib olingan Xuroson, Eron, Suriyaning madaniy markazlaridan Temur turli xil hunarmandlar, jumladan musiqachilarni ham keltirgan edi. Osha davr kishilarining guvohlik berishicha, dabdabali saroy marosimlari musiqa jorligida otkazilgan. Masalan, hofizi Abro yozadi: «Xushovoz hofizlar va shirinnavoz sozandalar esa fors namunalari, arab ohanglari, turkiy ananalar, mogul ovozlari, xitoyliklar (ashula aytish) qonunlari va oltoyliklar olchovlari asosida kuy chalib, qoshiq aytar edilar». Taniqli olim va musiqachi Abdulqodir avval Temur, keyinchalik esa uning vorislari saroyida xizmat qilgan. U saroy musiqa shakllari bayon qilingan musiqa risolasining muallifidir. Abdulqodir madhiya xarakteridagi («Mayatayn») musiqa asari ham ijod qilgan. Risolada tarje, peshrav va boshqa bir qator bizning davrimizgacha yetib kelgan musiqa janrlari ham eslatib otilgan. Movaraunnahr zaminida Amir Temur asos solgan yangi davlatda yuzaga kelgan ijtimoiymadaniy muhit Islom madaniyatining Ikkinchi Uygonish davri deb etirof etiladi. Shunga kora saltanat poytaxtiga aylangan Samarqandga dunyoning turli burchaklaridan atoqli olimlar, hunarmandlar, shoiru sanatkorlar quyilib kela boshladilar. Ular orasida koplab hofizu cholguchilar, sozandayu goyandalar ham bor edi. Saltanatning bosh sozandasi Xoja Abdulqodir Marogiy boldi. U oz davridayoq "sohibi advor" ("advor egasi"), "saromadi advor" ("advor ilmining eng oldingi vakili") degan yuksak unvonlarga sazovor bolgan. Temuriylar davri madaniyatining korki hisoblangan Abdulqodir ijodi nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosida katta ahamiyatga ega.

Taniqli hofiz, musiqashunos, bastakor Xoja Abdulqodir Marog‘iy ham temuriylar saroyida faoliyat olib borgan tarixiy shaxslardan biridir. Asl ismi Abdulqodir ibn G‘aybi al-Hofiz al- Marog‘iy nomi bilan mashhur bo‘lib, Tabriz yaqinidagi Marog‘a shahrining Noi nomi bilan taniqli bo‘lgan. Noi-iste’dodli naychi, sibizg‘achi sifatida mashhur ekanligiga ishora.

Xoja Abdulqodir bir muddat Bag‘dodda jaloyirlar sulolasidan bo‘lgan Uvays va Sulton Axmadlar saroyida xizmat qilgan. Bag‘dod Amir Temur tomonidan fatx qilinganidan keyin ham uzoq vaqt unga qarshi kurash olib borgan. Amir Temur

vafotidan so‘ng o‘z mulklarini qayta egallashga muvaffaq bo‘lgan.1410-yilda Turkman Qora Yusuf bilan to‘qnashuvda halok bo‘lgan.

Amir Temur Sulton Axmad hayotlik paytida Bag‘dodni fath qilgan edi. G‘alabadan so‘ng Marog‘iy Xoja Abdulqodirning musiqachi sifatida yuksak qobiliyatidan xabar topadi va 1393-yilda uni izdoshlari va shogirdlari bilan birga Samarqandga olib keladi. Bu yerda unga ijod qilishi, forsiy va turkiy xalqlar musiqalarini o‘rganish uchun sharoit yaratadi. Uning tashabbusi bilan Samarqandda bastakorlar, musiqashunoslar maktabi vujudga keladi. Darvesh Axmad Qonuniy Sulton Axmadiy, Sulton Muhammad Udiy samarqanddiy, Arab Navoiy Qo‘buziy, Tabib Mavloni Xasan Samarqanddiy, Xo‘ja Muhammad ibn Abdulxasan Samarqanddiy ana shu maktabning faol a’zolaridandir. Amir Temur vafotidan keyin Xoja Abdulqodir uning o‘g‘li Shohruh Mirzo, xalil Sulton va boshqa Temuriylarning saroyida xizmat qiladi. Uning jamoasi asosan rasmiy diplomatik tadbirlarda Sohibqiron va farzandlarining g‘alabalari bilan bog‘liq tadbirlarda, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlarda ishtirok etgan. Bundan tashqari, shaxsan Amir Temur va temuriyzodalar oilaviy tantanalarda farzandlarining to‘y marosimlarida ishtirok etadi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zinig «Zafrnoma» asarida Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton, Pirmuhammad Mirzolarning nikoh to‘y marosimlarini quyidagicha ta’riflaydi:” har biriga bir huri najod qizni sha’riy mutahhara yo‘suni bila berdi va Bog‘i Behishtda to‘y qildi”. Bayram tusini olgan bu to‘yda Xoja Abdulqodir boshchiligidagi san’atkorlar turli tillarda qo‘shiqlar ijro etganligini alohida aytib o‘tadi.

Bu ma’lumotlar Amir Temur hamda keyingi davrlarda musiqa san’ati rivojida, qadimgi maqom qo‘shiqlarining maydonga kelishida Xoja Abdulqodirning xizmatlari katta ekanligini isbotlaydi. U ijro bilangina shug‘ullanib qolmay, balki musiqashunos olim sifatida bastakorlik, musiqa san’atiga doir nazariy asarlar ham yaratgan. “Amir Temur jahon tarixida”nomli risolada u tomonidan bastalangan asarlar 200dan ortiq ekanligi qayd etiladi.

Ayniqsa, uning musiqiy usullar sirasiga kirgan “Maytayn”-200 zarbdan iborat vazn va ohang shaklidir. Har bir shakl o‘ziga xos usulda ijro etilgan. Bu usul

nihoyatda murakkab bo‘lib, uni yaratish har qanday bastakorga nasib yetmagan. Uni yaratish uchun kamida 15-20yillik tajriba va matonat kerak bo‘lgan. Shu bois ayrim mashhur bastakorlar ijodida faqat ikki-uchtagina muvaffaqiyatli chiqqan maytayn uchraydi.

Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois”tazkirasining yettinchi majlisida quyidagi ma’lumotni keltiradi: naql qilishlariga ko‘ra Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh Mirzo Tabrizda paytida bir oz ichkilikka ruju qo‘yadi. Natijada nomaqul ishlarni qila boshlaydi. Mironshohning ichkilikka berilishiga sababchi bo‘lgan uch nodimi haqidagi xabar Amir Temurga yetib boradi. G‘azablangan Sohibqiron ularni o‘limga mahkum etadi. Bular Mavlono Muhammad Kohiy, ustod Qutb Noyi va sozanda Xoja Abdulqodir bo‘lgan. Farmonni eshitgan Xoja Abdulqodir qochib, qalandar libosida yurtma-yurt kezadi. Amir Temur Iroqqa yurish qilganida Xoja Abdulqodir haqida xabar topadi va uni oldiga olib kelishini buyuradi. Xoja Abdulqodir jahongir qoshida juda chiroyli qiroat bilan qur’on o‘qiydi. Undagi bu mahoratni ko‘rgan Sohibqiron, uning gunohidan kechadi. Sohibqiron keyinchalik Xoja Abdulqodirga iltifotlar ko‘rsatib, nodim va mulozim sifatida saroyda olib qoladi.

Bizgacha yetib kelgan ma’lumotlarga ko‘ra, Xoja Abdulqodirning “Peshravi dor”nomli musiqiy asari uni qatl qilish haqidagi farmondan oldin yaratilgan. Bu kuyni eshitgan Sohibqiron bastakorning mahoratiga tan berib, uni jazodan ozod etgan. Bu rivoyat qanchalik haqiqatga yaqin,bir narsa deyish qiyin. Ammo Amir Temurning musiqa san’atini his qila bilishi, buyuk iste’dodlarni qadrlashi, mahoratini tan olishi haqiqat bo‘lib, uning yuksak ma’naviyatli inson ekanligidan dalolat beradi.

Xoja Abdulqodir vafotidan so‘ng ham u yaratgan san’at asarlari keyingi avlod, aniqrog‘i, Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqiy”, Alisher Navoiyning musiqaga oid mulohazalari, Darvesh Ali Changiyning “Risolai musiqi, Zahiriddin Muhammad Boburning “Musiqa ilmi”kabi asarlarida davom etdi. Aynan mazkur davrlarda yaratilgan maqomlar tizimi “Shashmaqom”ning shakllanishida ham Xoja Abdulqodir ijodining ta’siri borligi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunova M. Sohibqironning e’zozli sozandasi. Zarafshon gazetasi. 2013 Samarqand.

2. Tashkanbayev X. Amir Temur va Temuriylar davrida san’at va madaniyat. O‘z.FA 2014.

3. Sattorov X. Temuriylar davrida ma’naviyat va ma’rifatning rivojlanishi. Farg‘ona.2022

4. Amir Temur o‘gitlari. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2007.

MUSIQA VA SAN’AT MAKTABLARI O‘QUVCHILARINI AXLOQIY-ESTETIK SHAKLLANTIRISH.

Tadjiyev A.
*NavDPI 1-bosqich magistranti***.**

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Jamiyat madaniyatsiz yashay olmaydi, shunday ekan, farzandlarimizni yuksak darajada axloqiy-estetik tafakkurli insonlar qilib tarbiyalash barchamizning burchimizdir”. Prezidentimizning bu fikrida o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy muhitda musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faollik va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini yuqori darajaga ko‘tarishning samarali texnologiyalarini amaliyotga joriy etish orqali ularni axloqiy-estetik tarbiyalash dolzarb vazifa qilib, belgilab berilgan. Musiqa san’ati axloqiy-estetik tarbiyaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, u inson ma’naviy dunyosiga emotsional ta’sir ko‘rsatuvchi ulkan kuchdir. YA’ni Ibn Sino tabiri bilan aytganda-“Musiqa kishilarning hissiyoti va ruhiy kechinmalariga kuchli ta’sir qiladi, uni muhim bir muvozanatda saqlab turishda katta yordam beradi”.

Musiqa va san’at maktablari o‘quvchilarini axloqiy-estetik shakllantirishda musiqa nihoyatda katta o‘rin tutishi shubhasizdir. Zero, musiqa bolaning ruhiy olamiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi san’at turlaridan biridir. Musiqaning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u bolalar his-tuyg‘ulari va ruhiy holatlarining eng nozik qirralarini, ulardagi farqlarni o‘zida ifoda qiladi va shu orqali bolaning ichki

olamiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bolalarning musiqiy istedodi, talanti, qobiliyatlarini o‘rganayotganda, uning pedagogik-psixologik jihatlari bilan bir qatorda biologik hamda ijtimoiy xususiyatlarning nisbati, tuzilmasi uni shakllantirish, rivojlantirish imkoniyatliri va qonuniyatlari kabi eng muhim nazariy masalalarni ko‘rib chiqish lozim.

Musiqaning bolalar hayotidagi ahamiyati shundaki, ularni axloqiy-estetik va ma’naviy jihatdan tarbiyalaydi, psixologik madaniyatini rivojlantiradi, mustaqil ijodiy mehnatga layoqatli barkamol shaxsning shakllanishi uchun, ma’naviy poydevor yaratadi, emotsional- irodaviy tonusini mustahkamlaydi, psixologik rivojlanishi uchun juda zarur bo‘lgan, bilishning faol emotsional-ijodiy shaklini egallashga katta yordam beradi. Bolalarning musiqa tarbiyasi avvalo, nazariy bilim berish, keyin esa amaliy ijrochilik orqali tajriba orttirish bilan boshlanadi va rivojlantirib boriladi.

Bolalar musiqa va san’at maktablari o‘qituvchilari shuni yaxshi tushunib olishi muhimki, o‘quvchilarning musiqa qobiliyati - bu avvalo, musiqiy kechinmalarni boshdan o‘tkazish qobiliyati bo‘lib, u musiqa asarlaridagi qiyofalarni yarata olish qobiliyati va ularni ham musiqiy faoliyat vositalari bilan ifodalay olish qobiliyatidir. O‘quvchilardagi musiqa qobiliyatlarning rivojlanishiga istalgan badiiy faoliyat ta’sir ko‘rsata olishi mumkin. O‘quvchilar bilan har kuni o‘zaro aloqada bo‘ladigan, uning rivojlanishini kuzatib boradigan o‘qituvchi shuni bilishi zarurki, o‘quvchini bilish borasidagi psixik jarayonlarga undab, pedagogik vositalar bilan faollashtira borib, uning umumiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta’lim sohasini isloh qilish barobarida, musiqa maktablari o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy dunyoqarashlarini rivojlantirish, bugungi kunning dolzarb mavzusi sifatida namoyon bo‘lib bormoqda. Bolalarning musiqa maktablarga qatnash istagi, musiqiy faoliyatning turli ko‘rinishlarida yani, musiqa tinglash, kuylash, ritmik harakatlar, cholg‘ularni chalish orqali musiqiy ijodkorlikka intilishida o‘zini ko‘rsatuvchi tug‘ma talant yig‘indisi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shundan ham sezilib turibdiki, ularning musiqaga, san’atga moyilligi, zehnliligi va undan o‘ta ta’sirlanuvchanligi ma’lum bo‘lib turibdi. Bolalarning musiqiy tarbiyasi, ularning tug‘ma istedodining rivojlanishi, axloqiy-estetik jihatdan rivojlanishi yoki ma’naviy qadriyatlarga jalb etilishi, ularning istedodlarini rivojlantirishning samarali vositasi hamda, shaxs sifatida o‘zligini namoyon qilishning aniq yo‘lidir.

Dunyo miqyosida musiqa ta’limining mohiyati va mazmuni uning zaruriy kundalik ehtiyoj sifatda tushunishga olib kelgan. Shuning uchun ham musiqa san’ati qadim zamonlardan beri muhim tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilib kelgan.

Musiqa bolada olamga va tevarak-atrofdagi kishilarga bo‘lgan insoniy munosabat asoslarini tarkib toptiradi. Mana shu sababdan ta’lim tizimida, xususan, musiqa va san’at maktablari faoliyatida o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash vazifasi muhim muamollar qatoridan o‘rin egallaydi.

Dunyoda o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash samaradorligini takomillashtirish axloqiy-estetik tarbiyalashda musiqa va tasviriy san’at turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, musiqiy pedagogika va psixologiya vositasida ta’lim oluvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash samaradorligini takomillashtirish orqali estetik ongi va dunyoqarashini tarkib toptirish, artpedagogika vositasida bolalarning estetik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash samaradorligini takomillashtirish asosida estetik tarbiya jarayonlariga germenevtik yondashuvni tatbiq etishning pedagogik tizimini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar, jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish, go‘zallik tuyg‘usini, estetik ehtiyoj va didni rivojlantirish maqsadida ta’lim va madaniyat muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «O‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya

jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish» kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, musiqa va san’at maktablari musiqa va tasviriy san’at darslarida artpedagogik (san’at pedogogikasi) texnologiyalarni qo‘llashning o‘ziga xosliklarini ochib berish, artpedagogikaning o‘quvchilarni axloqiy-estetik, hissiy va ijodiy rivojlantirishga doir imkoniyatlarini aniqlashtirish, san’at turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda artpedagogik texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shuning uchun ham bolalarni yoshligidanoq xalq cholg‘u asboblarini chalishga o‘rgatish, maqom, xalfa, doston, baxshi, lapar, katta ashula va hokozalarni kuylashga o‘rgatish orqali, ularning intellektual-ijodiy iste’dodini, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi bolalar musiqa va san’at maktablari soni yildan-yilga o‘sib borayotganligi munosabati bilan ularda milliy ta’lim-tarbiyani yo‘lga qo‘yish orqali, ta’lim sifatini yanada takomillashtirish, umuminsoniy-milliy qadriyatlar asosida axloqiy-estetik tarbiyalash vazifasi, shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bolalardagi musiqiy iste’dod, kuylash, musiqa cholg‘ularini chalish, musiqiy ijodkorlik sohalarida o‘zini namoyish qilish jarayonida axloqiy–estetik tuyg‘ular boyib boradi. Shuning uchun ham qobiliyatli o‘quvchilarni cholg‘ular, musiqa va ashula orqali axloqiy-estetik tarbiyalash davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Shunday ekan, bolalar musiqa va san’at maktablarining mutaxassislik darslarida o‘quvchilarning yoshiga e’tibor bergan holda, musiqa asboblarida ijrochilik va milliy kuy, qo‘shiqlarimizni kuylash mahoratlarini, ijodkorligini rivojlantirish orqali, hayotga bo‘lgan, san’atga bo‘lgan muhabbati kuchaytirib boriladi. Cholg‘u asboblaridan foydalanishning imkoniyatlari kengayib bormoqdaki, musiqa eshitish, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg‘ularini chalish, musiqiy ijodkorlik sohasida o‘zini namoyon qilishi, ularning ruhiyatini ko‘tarayotganligi sababli, cholg‘u asboblari vositasida o‘quvchilarning

qiziqishlarini, bilim olishlarini chuqurroq shakllantirish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Musiqa va san’at maktablari o‘quvchilarini axloqiy-estetik tarbiyalash samaradorligini takomillashtirish musiqa darslarida artpedagogik texnologiyalarni qo‘llashning o‘ziga xosliklarini ochib berish, artpedagogikaning musiqa va san’at maktablari o‘quvchilarini axloqiy- estetik, hissiy va ijodiy rivojlantirishga doir imkoniyatlarini aniqlashtirish, san’at turkumiga kiruvchi fan (maqom, doston, baxshi, xalfa, katta ashula va hokazo mutaxassislik darslari, hamda o‘zbek musiqa adabiyoti dars)larini o‘qitishda artpedagogik texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik modelini ishlab chiqish; o‘zbek musiqa adabiyoti fanining katta (3-4-5) sinflar uchun choraklar kesimida yillik o‘quv rejasini yaratish, musiqa va san’at maktablari o‘quvchilarining estetik tarbiyalanganlik darajasini baholashning diagnostik tizimini takomillashtirish vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli Farmoni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

2.Vazirlar Mahkamasining “2016-2020-yillarda bolalar musiqa va san’at maktablarini rivojlantirish to‘g‘risida” Qarori, 5-may 1-2016-yil.

FORTEPIANO CHOLG‘U TARIXI VA IJROCHILIK USLUBLARI

Agzamova Dilshoda Baxrom qizi

O’zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti musiqa ta’limi yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annontatsiya. *Ushbu maqolada fortepiano cholg’usining paydo bo’lishi va ijrochiligiga hos tushunchalari yoritib berilgan. Bundan tashqari, fortepiano cholg’u asbobining tarixan rivojlanish bosqichidagi ijodkorlar haqida to’xtalib o’tilgan.*

Kalit so'zlar: *Fortepiano, tembr, klavikord, klaviatura, idrok, usul, xarrak, klavisin.*

Klavishli cholg'u asboblarining tarixi juda qadim zamonlardan rivojlana boshlagan bu esa qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Ko'paytirish nazariyasining asoschisi Pifagor yashagan davrda monoxord deb nomlanuvchi cholg'u asbobi mavjud bo'lgan. Maxsus daraxt yog'ochidan yasalgan bu quti bo'lib, undan chiqadigan tovush baland va o'z tembr xususiyatiga ega bo'lgan.. Ustida tor tortilgan uzun ingincha qutidan bu cholg'u asbobi iborat bo'lgan. Tor qutiga siljitmaydigan xarrak bilan qotirilgan, undan tashqari yana bir harakatlanuvchi xarrak bo'lib, u torda harakatlanib, musiqiy tovushni pasaytirib yoki balandlashtirish uchun xizmat qilgan. Bu cholg'u asbobdan maun (mediator) bilan ba'zida esa torlarga maxsus tayoqcha bolg'acha bilan urib ijro etilgan.

Fortepiano (ital. forte – kuchli va piano — kuchsiz, sekin) — royal va pianinolarning umumiy nomi. Boshqa manbalarda yozilishicha Fortepiano 18-asr boshida B. Kristofori (Italiya), J. Marius (Fransiya) va K.G. Shryoter (Germaniya) tomonidan ixtiro qilingan. Keyinchalik Fortepiano mexanizmi va shakli I. A. Shteyn, I. A. Shtreyxer (Avstriya), A. Bekers (London), S. Erar (Parij) va boshqa ustalar tomonidan takomillashtirilgan. Tovush klavishlarini bosish orqali kigiz qoplangan yog'och bolg'achalar bilan torlarga urish natijasida hosil qilinadi. Klavesin va klavikorddan dinamikasi o'zgaruvchanligi (mas, kuchli peggedan asta sekin piano darajasiga o'tish imkoniyatlari) bilan farq qiladi (nomi shundan). Fortepiano uchun ilk asarlarni I. Gaydn, V. A. Motsart, L. Betxoven va boshqalar ijod qilgan. Fortepiano o'zining keng ijroviytexnik hamda ifodaviy imkoniyatlari tufayli Yevropa ko'p ovozli musiqasida asosiy yakkanavoz va jo'rnavoz soz sifatida keng o'rin olgan.

1711-yilda Italiyaning Podue shahrida klavisin ustasi Bartolomeo Kristofori yangi musiqa asbobini yaratdi. Bu asbobda ijrochi kuyni xohlaganicha past yoki baland (piano yoki forte) ovozda chalish imkoniyatiga ega bo'ldi va "Bu musiqa asbobining nomi ham shundan kelib chiqqan holda Pianoforte, keyinchalik Fortepiano nomi bilan atalgan"

IX asrda 2 ta asosiy fortepiano:1-gorizontal royal (fransuzcha royal-qirol) 2-vertikal pianino (italyancha pianino –kichkina pianino) mavjud bo'lgan. Royal har xil musiqa kechalar va konsertlar uchun mo'ljallangan musiqa asbobiga aylandi.

Fortepiano (pianino) – monoxord sozlanuvchi ko'p torli va ko'p tovushli klavishli cholg'u. Ushbu shaxmat tuzilishida matematik tizimlidir. Ergologik jihatdan yog'och korpusli torlari esa po'lat va mis uyumidan yasaladi. Shu bilan bir qatorda torlari tuzulishi mayin va yo'g'on tor simlardan iborat bo'lib, klavishlari odatda yog'ochli va Fil suyagidan yasalib kelingan bo'lib, hozirgilari esa plastmassa (elastik) sun`iy uyumdan yasaladi.

Fortepiano XVIII asrning oxirlarida kelib klavisin va klavikkordlarni deyarli butunlay amaliyotdan chiqardi. Fortepianoda xromatik tartibda tovush beruvchi to'qsondan ortiq tor bor. Torlar sadosi chapdan o'ngga qadar balandlashib, past va o'rta sado beruvchi torlar yo'g'on simlardan bo'lib, eng pastki sadolari bittadan , o'rta sadolarida ikkitadan , yuqori sadolari uchtadan bo'ladi. Kerakli klavishlar bosilishi bilan shunga xos bolg'achalar simga uriladi va sado beradi. Barmoqlar klavishdan ko'tarilishi bilan dempferlar tovush cho'zimini to'xtatadi. Pastdan chap pedalni oyoq bilan bosilsa sado kuchayadi. Fortepianoda yakka ovozlar ko'p ovozli turli murakkab akkordlarni chalish imkoniyati bor. Hajmi yetti oktavani o'z ichiga oladi. Fortepianoda yakka, ansamblda va orkestrda foydalanish mumkin. Hozirgi kunda Fortepianoning ikki turi ya'ni Pianino va Fortepiano keng tarqalgan. Pianino bu Fortepiano so'zining qisqartirilgani. Fortepianodan kichikroq bo'ladi.

Torsimlarining tuzulishi va diapozoni:

a) Fortepiano - diopozoni lya-fa-lya subkontr oktavadan 5-oktava do-gacha;
b) Royal - diapazoni fa-subkontr oktavadan 5-oktava fa-sol-gacha. Ushbu cholg'ular xromatik sozlanuvchidir.

Ma'lumotlarga qaraganda Pianino organdan keyingi eng murakkab cholg'u hisoblanadi. Aslida uning haqiqiy nomi pianoforte <<past va baland>> degan ma'noni anglatadi.

Ma'lumki, musiqa jozibadorligi bilan tinglovchini maftun qilish, qat'iyatli ohanglari bilan hushyorlikka chaqirish, sho'x sadolari bilan zavq berish, hissiyotga

to‘la kuylari bilan hayajonga solish xususiyatlariga ega. Fortepiano cholg‘usida musiqiy obrazni ishonchli gavdalantira oladigan tovushlarni hosil qila bilish ijrochining qobiliyati, mahoratiga bog‘liq. Taniqli rus fortepiano ijrochisi G.G.Neygauz fikricha “tovush hosil qilish va uni ustida ishlash usullarini egallash fortepiano ijrochisi zimmasiga tushadigan eng qiyin va mashaqqatli mehnatdir, chunki u ijrochining eshita bilish va aqliy sifatlari bilan chambarchas bog‘liqdir” . Shuning uchun fortepiano mashg‘ulotlarida musiqiy asarning matnini tahlil qilishda tovush hosil qilish ustida ishlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fortepiano ijrochisi mahoratini rivojlantirishda texnik mashqlarni muntazam ravishda chalib borish, ko‘nikma va malakalarni oshirish bilan birga, tovush hosil qilish usullari orqali badiiy obrazlar tasavvurini to‘g‘ri his etgan holda ifodali ijro mahoratini egallash hisoblanadi.

Fortepiano cholg‘usining tovushi puflama va torli cholg‘ularga nisbatan tuzulishiga ko‘ra qisqa va davomiy emas. Lekin, shu bilan birga, uning imkoniyatlari nihoyatda keng. Unda yengil, salmoqli, jozibador, o‘tkir, kuychan, qisqa kabi tovushlarni hosil qilish mumkinligi mutaxassislarga yaxshi ayon. Xatto, fortepiano cholg‘usida turli cholg‘ular tovushlarini ham o‘ziga xos taqlidiy ijro orqali ifodalab berish mumkin. Albatta, buning uchun ijrochi tovush hosil qilish va uning cho‘zimini yetarli darajada tuta bilish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lsa, fortepiano cholg‘usi ohanglarining turli-tuman jilosini tinglovchilarga yetkazib bera oladi. Fortepiano cholg‘usining boy, serjilo ohanglarini sadolantirishda nafaqat psixoemotsional holat, balki fiziologik xususiyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijrochi qo‘llarining yumshoq, siqilmagan gavda, qo‘l va bilaklar, barmoq uchlari bilan klaviatura “tubini” his qilish kabi o‘ziga xos xususiyatlar to‘g‘ri shakllanganligi tovush hosil qilish jarayonining eng muhim jihatlaridan biridir. Fortepiano boshqa cholg‘ularga nisbatan qisqa tovush hosil qilish xususiyatiga ega ekanligini yuqorida ta’kidlangan edik. Unda ohangdor tovush taassurotiga kuyning ohang yo‘lini mohirona ijrosi bilan erishiladi. Bunday sifatga bir tovushni keyingisiga turtkisiz, legatoni ichki sezgi bilan his qilgan holda

erishish mumkin. Shu o‘rinda agogika, ya’ni sur’at me’yoridan chetga chiqmasdan metro-ritmik o‘zgarishlar juda katta ahamiyatga egadir.

Asarni o‘zlashtirish jarayonidagi eng muhim jihat musiqiy intonatsiyadir. Tovush va intonatsiya bu asosiy ifoda vositalari hisoblanib, ular orqali musiqiy asarning badiiy obrazi ochib beriladi. Intonatsiya musiqaning mohiyati bo‘lib, fortepiano ijrosining barcha elementlari bilan bevosita bog‘liq. Musiqiy intonatsiya deganda tovushlarni alohida-alohida ajratib emas, balki ularni ichki eshitish qobiliyati orqali kantilena tarzida bir-biriga bog‘lab ijro etish va yaxlit jumlani hosil qilish, shu yo‘sinda badiiy obrazni ochib berish tushuniladi. Ijrochi musiqa “notalar yig‘indisi”ni emas, balki bir-biriga uzviy bog‘langan notalar orqali aks etadigan “jonli” kuy ekanligini doimo yodda tutishi lozim. Demak, tovush ustida ishlash va intonatsiya bir-biriga bevosita bog‘liq ekan. Bu jarayonda gorizontal, vertikal kuy yo‘llarini eshita bilish qobiliyatini rivojlantirish esa yaxshi intonatsiyaning asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mark Zilderkvid. Rojdenie fortepiano. – Moskva: “Detskaya literatura”, 1984-yil. Tarjima, S.B.Saidiy, 2001-yil.
2. Zakirova Sh. O’zbekiston kompozitorlarining fortepiano uchun asarlar. - T.: «O'zbekiston». 2010.
3. Zoirov K. Umumiy fortepiano. (O’quv qo’llanma). - T.: Musiqa, 2004-yil .

MUSIQA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Bannaqulov Mexroj Furqat o’g’li
O’zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti musiqa ta’limi kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. *Zamonaviy texnologiyalar va ta'limning rivojlanishi bilan ta'lim va o'qitish jarayoniga yordam beradigan innovatsion o'qitish usullari tobora ko'payib bormoqda. Interfaol ta’lim usuli shulardan biridir. Interfaol o'qitish - bu*

o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotga ahamiyat beradigan o'qitish nazariyasiga asoslangan o'qitish usuli. Uning eng katta maqsadi - o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot va hamkorlik orqali o'quvchilarga o'ziga xos ta'lim berish strategiyalarini ishlab chiqishdir.

Kalit so'zlar: *Musiqa ta'limi, interfaol , innovatsiya, metod, nazariya, fan.*

Musiqa ta'limida interfaol o'qitish - bu o'qitish nazariyasida ishlab chiqilgan innovatsion o'qitish usuli (o'quvchilarni chuqur o'rganishni osonlashtirish uchun murakkab o'quv vazifalarini oldindan ajratish). Musiqa ta'limida interfaol usullari o'qituvchilarning ta'limi va o'quvchilarning bilimlarini bir-biri bilan chambarchas bog'lash va muloqot qilish imkonini beradi. Interfaol o'qitish metodi zamonaviy ta'limning o'qitish metodini isloh qilish va innovatsiyalarning mazmunli ko'rinishi bo'lib, muhim amaliy ahamiyatga ega. Milliy musiqa ta'limning rivojlanishi bilan ta'lim va o'qitish metodikasining innovatsion va islohotiga qo'yiladigan talablar ham tobora qat'iylashmoqda, pedagoglar o'qitishning ilg'or uslublarini topishda tinimsiz izlanishda davom etmoqda. "Interfaol o'qitish usullarini ta'lim sohalarida, masalan, musiqa o'qitish sohasida qo'llash tobora kengayib bormoqda. Bunga sabab ko'pgina o'qitish sohalarida musiqa o'qitish estetik tarbiyaning asosiy qismi bo'lganligidir. Musiqa ta'limiga tegishli o'quvchilarning fikrlash sifatini rivojlantirish, o'quvchilarning his-tuyg'ularini rivojlantirish va o'quvhilarning bilim va ko'nikmalarini o'sishiga yordam berish uchun musiqadan foydalanish o'rinlidir.

Musiqa ta'limini o'qitishda quyidagi interfaol usullarni ko'rishimiz mumkin.

Musiqiy va ritmik ta'lim - bu quyidagilarni birlashtirgan faoliyat turi: jismoniy rivojlanish, harakat madaniyatini rivojlantirish, sog'lomlashtirish ishlari; bolaning tanasini mustahkamlash, mushak korsetini shakllantirish, nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarini rivojlantirish; harakatlarni muvofiqlashtirish, diqqatni jamlash, epchillik, o'ziga ishonchni rivojlantirish; vosita ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ritmik mashqlar. Mashqlarning maqsadi - gimnastika va raqs harakatlarini rivojlantirish, ularning ritmi va plastikligini mashq qilish (tayyorgarlik va mustaqillikka bo'linadi).

Musiqiy o'yinlar usuli. Ular musiqaning emotsional mazmunini ifodalashga qaratilgan (ular cholg‘u musiqasi va qo‘shiq raqs jo‘rligidagi o‘yinlarga bo‘linadi).

O'yin bolalarda ijodkorlikning ifodasidir. Shuning uchun musiqa darslarida o'ynoqi raqs usulini qo'llash juda muhim hisoblanadi.

Musiqa darslarida o'yin kuchlanishni bartaraf etishga, energiyani bo'shatishga va ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otishga yordam beradi; muloqot qobiliyatlarini, tashabbuskorlikni, fantaziya va tasavvurni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

O'yin zarur bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni qiziqarli tarzda o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi, bu ayniqsa foydalidir.

Kerakli natijaga erishish uchun o'yin shaklidagi vazifalar ma'lum bir diqqat bilan tanlanishi kerak. Ular kerakli mahoratni o'zlashtirish va mashq qilish uchun ko'p marta takrorlanishi mumkin va bu beparvolik bilan qabul qilinadi, qiziqish, istakni uyg'otadi va sinfda yaxshi kayfiyatni yaratishga yordam beradi.

Hozirgi kunda distand uslubi asosida o`quvchilarni o`qitish keng rivojlanib borayotgan yo`nalishlaridan bo`lib, o`qituvchilar bilan o`quvchilar ma`lum bir masofada joylashganligi, o`qituvchi dars jarayonida kompyuterlar, sputnik aloqasi, kabel televideniyasi kabi vositalar asosida o`quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotni uzatish kabellarini rivojlantirish telikommunikatsiya sohasida katta o`zgarishlarga olib kelmoqda. Mamlakatimizdagi barcha o`quv muassasalari distand uslubiga birlashtirilsa, o`qitish jarayonini yanada samarador bo`lishi taminlanadi.

Distand uslubi asososan quyidagi texnologiyalarni o`z ichiga oladi.

Interaktiv texnologiyalar.

-audio yozuvlar;

-video yozuvlar;

-elektron cholg’ular;

-ovoz kommunikatsiyalari;

-ikki tomonlama sputnik;

-Gitara cholg’usi;

- kompyuter;

- telefon;

- Kalonkalar;

Distand uslubi asosida o`qitish muayyan uzoqlikdagi maktablar uchun va akadimik ta`lim uchun mo`ljallangan edi. Lekin zamonaviy axborotlar va telikomunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi tabiiy ta`lim tarbiya jarayonini uzoq masofadan turib amalga oshirishga yo`l ochib berdi. Natijada distand uslubi asosida o`qitish tez vaqt ichida yangi uslublarni qo`llashga yana bir turtki bo`ldi.

Maktab musiqa ta`limida multimediali axborotni quyidagicha taqdimot shaklidan foydalanish ancha qulay:

Odatda multimedia ilovalarini yaratish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

-o`quv matireallarini tanlash va tarkibiy bo`laklarga bo`lish;

-multimedia ilovasi senarisini tuzish,(ilovada tasvirlanayotgan o`quv matireali-notalar, musiqa yozuvi ovozlashtirilgan holati, matn grafik chizmalar) qay holatda, ketma-ketlikda berilishi ko`zda tutiladi;

-taqdimotni dezayini (ko`rinishini ) o`ziga o`quvchilar diqqatini tortadigan holatda) ishlab chiqish;

-media (fragmentlar matnlar, elluratsiyalar, videomatireallarni tasvirga olish, audio matireallalini yozish, taqdimotga umumiy-musiqiy sayqal berish) ni uzviyligini ta`minlash;

-tayyor holga kelgan ilovani tekshirish;

“Uzum pishdi,bog`ga kir”o`yini texnogiyasi. Bu o`yinni kichik guruhlarda o`ynash yaxshi samara beradi.

Har bir guruh uchun “Uzum” maketi tarqatiladi. Uzum bargidagi topshiriqqa asosan uzum “pishiriladi”.(O`quvchilar uzum donalariga milliy cholg’ularimizga oid so`zlarni yozadilar.) Qaysi guruh topshiriqni to`g`riva tez bajarsa, shu guruh g`olib hisoblanadi.

“Grafik test”o`yin texnologiyasi

- Ish tartibi:
- Har bir ishtirokchiga maxsus jadvalli varaqlar tarqatiladi.
- Vazifa:
- O`qituvchi oldindan tayyorlangan savollarni o`qiydi.
- Ishtirokchilar har bir savolga javob variantlardan mosini tanlab shu katakchani bo`yaydi.
- Jarayon yakunida hosil bo`lgan shakl namunaviy shakl bilan solishtiriladi.

Quyidagi savollarning javobini jadvalda belgilang

- 1. xonandalik uslubida ishkomi nafas olish usilidan foydalaniladi
- 2. Aytim yo'lida binnigi nafas olish usulidan foydalaniladi
- 3. Xonandalik uslubida gulligi usuli keng qo'llaniladi
- 4. Oshiq Garib va shoxsanam dostoni shu ijrochilik uslubiga xos
- 5. Ijrochilik uslubida bayotlar asosiy o'rinni eggallaydi.
- 6. Cholg'u ijrochiligida peshraflar yetakchi o'rin tutadi
- 7. Mavrigi ijrochiligi keng tarqalgan
- 8. Asosiy cholg'ulari qo'shnay bulamon qayroq

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Turdiev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. //O'quv-uslubiy qo'llanma.(I-qism). Toshkent, 2015. - 160 b; B. 5-6 b.

2.A.A.Abduqodirov, R.Ishmuxamedov, A.Pardaev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2008.-180 bet.

3. Davronova Go’zal Mardonovna. Musiqa o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma . Samarqand 2021- yil.

MUSIQIY DIDAKTIK O‘YINLAR VOSITASIDA BOLALARNING SENSOR QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Nizomiy nomidagi TDPU Musiqa madaniyati fakulteti 3-bosqich 302-guruh talabasi Baxtiyarova Duriya

Annotatsiya: *Maqolada bolalarning sensor qobiliyatlarini rivojlantiruvchi musiqiy didaktik o‘yinlar va psixologik-fiziologik mashqlar tayanch ta’limni rivojlantirishdagi o‘rni va olimlarning tadqiqotlari haqida atroflicha tahlillar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sensor qobiliyat, musiqa, musiqiy-didaktik, o‘yinlar, tayanch ta’lim, psixologik-fiziologik, mashq, rivojlantirish,tadqiqot.*

Hozirgi kunda ta’lim tizimiga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda, ta’lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida ko‘plab qarorlar qabul qilinmoqda, bunday imkoniyatlarning barchasi Yangi O‘zbekiston Yoshlari uchun ekanligi barchamizga ma’lumdir. Ta’limni tubdan isloh qilish uchun avvalo, tayanch ta’limni ya’ni, maktabgacha ta’lim tashkilotini rivojlantirish ko‘zda tutilgan va hozirgi kunda buning amalda bo‘layotganini ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda bolalarni ta’lim olishga tayyorlash, bolalarning maktabgacha yosh davridan boshlab amalga oshirilishi va bolalarni har taraflama yetuk, bilimli, intekertual salohiyatli qilib tarbiyalash negizida dastlab bolalarning sensor qobiliyati shakllantirish yotadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning fiziologik va psixologik taraqqiyotida muhim davr ekanligi tufayli bu davrdagi bolaning psixik taraqqiyotini o‘rganish borasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Rus olimi L.A.Venger - maktabgacha yosh davridagi bolalarning sensor qobiliyatlarining taraqqiyoti

borasidagi tadqiqotlar natijasi ijobiy chiqqanligi quvonarlidir. U bolalarning aqliy taraqqiyoti bilan sensor madaniyatning bog‘liqligini psixologik jihatdan yoritib bergan. Chunki u olamni bilishning idrok etish bilan bog‘lanishini ko‘rsatib o‘tadi. Shu bilan birga, u har bir yosh davrida bolalarning sensor qobiliyatini yoritib berishga harakat qilgan. Sensor qobiliyatni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib bergan va ularni rivojlantirishda mashq va o‘yinlar orqali foydalangan.

O‘zbek psixolog olimlaridan N.S.Safiyev sensor tizim fenomenlari va ularga tizimli yondashuv muammosi bo‘yicha tadqiqot qilgan. o‘z navbatida eshitish, ko‘rish idroklarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. R.A.Tursunov o‘z tadqiqotlarida idrok badiiy obraz masalasini yoritib berishga harakat qilgan. Ko‘rinib turibdiki, sensor qobiliyatning rivojlanish muammosi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan, ayniqsa musiqiy didaktik o‘yinlar vositasida. Aslida esa, musiqa inson hayotining ajralmas bir qismidir, shuning uchun sensor qobiliyatni rivojlantirishda musiqa juda ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

Musiqa insonning komil inson bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi bu haqida Aflotun shunday degan: “Musiqa insonlarni tarbiyalashda har qanday o‘zga vositalardan afzaldir, chunki ohang va uyg‘unlik inson ruhi va ruhiyati tomon yo‘l topadi”, - degan bo‘lsa, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy: ‘‘Ko‘ngil - xush ohangdan quvvat, ruh esa, xush ovozdan oziq oladi”, - deydi. Bir tabiatshunos olim umrining oxirida o‘zining she’riyatga, musiqaga ishtiyoqi kamaygani xususida kuyinib, agar umrimni qaytadan boshlash nasib qilganda, har haftada loaqal bir marta biroz she’r o‘qish, andak musiqa tinglashni qoida qilib, shu yo‘l bilan miyamning tegishli qismlarini faol holatda saqlab qolgan bo‘lardim, deb yozgandi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, sensor qobiliyatni shakllantirish va uni malaka darajasi olib chiqishda nafaqat, psixologiya-pedagogika, balki musiqaning o‘rni ham beqiyosdir. Musiqiy san‘at maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatiga shubhasiz ta'sir ko‘rsatadi, Musiqa san‘ati bilan tanishish orqali insonda ijodiy salohiyat faollashadi, intellektual va hissiy boshlang‘ichlarning rivojlanishi sodir bo‘ladi va bu tarkibiy qismlar qanchalik erta qo‘yilsa, badiiy qadriyatlar bilan

tanishishda ularning namoyon bo‘lishi shunchalik faol bo‘ladi. Idrokdan tashqari musiqa san‘at sifatida umuman mavjud emas. Agar ular musiqani insonning his-tuyg‘ulari va fikrlarini, hayotiy g‘oyalari va obrazlarini o‘zida mujassam etgan mazmunli san’at sifatida eshitishni o‘rganmagan bo‘lsa, musiqaning ularning ma’naviy dunyosiga ta’siri haqida gapirishning ma’nosi yo‘q.

Shuni alohida takidlash kerakki, bog‘cha yoshidagi bolalar sezgilarini o‘stirishda tarbiyachi va musiqa rahbarining ro‘li juda muhimdir. Musiqa rahbari musiqa mashg‘ulotlarida turli qiziqarli didaktik o‘yinlar orqali bolalar sezgi a’zolarining sezgirlik darajasini o‘stirishda yordam berishi kerak. Shuning uchun, bolalar sezgi a’zolarining rivojlanishiga qaratilgan mashqlar yoki o‘yinlarni aniq va mazmunli o‘yinlar bilan bog‘lab o‘tkazish yaxshi natija beradi. Masalan, bog‘cha yoshidagi bolalarda uzoqdagi narsalarning farqini ajrata olish va ko‘rib yoqda saqlab qolish sezgirligini takomillashtirish uchun bolalar musiqa cholg‘u asboblari va kubiklarni ma’lum uzoqlikka qo‘yib, farqini ajrata olish o‘yinini o‘tkazish mumkin. Bunda bolalarning ko‘rish sezgirliklari darajasiga qarab, kubiklar va cholg‘ular qo‘yilgan masofani ayrim bolalarga nisbatan uzoqlashtirish va boshqa bolalarga nisbatan yaqinlashtirish mumkin. Shuni ham alohida qayd qilib o‘tish kerakki, bolalarda turli narsalarga doir tasavvur hosil bo‘lishida idrokdan tashqari nutqning roli juda kattadir.

Bolalarning musiqiy sensor qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqiy didaktik vositalar va o‘yinlarning asosiy maqsadi quydagichadir:

- ✓ bolalarda musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish;
- ✓ qulay o‘ynoqi tarzda, balandlikdagi tovushlar nisbatini tushunishga yordam berish;
- ✓ ritm, tembr va dinamik eshitish hissini rivojlantirish;
- ✓ musiqa darslarida olingan bilimlardan foydalanib, mustaqil harakat qilishga undashdir.

Didaktik o‘yinlar, shuningdek, idrok etish ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi, uning vazifasi har doim musiqiy ifoda vositalarini farqlash va takrorlash bilan bog‘liq: tovushlar balandligi, ritm, tembr, dinamika. Misol sifatida

quydagini ko‘rishimiz mumkin: “Kim kuylayotganini toping?” o‘yinida. bolalar qo‘shiqchining ovozining tembrini qulog‘iga qarab aniqlaydilar: “Bu qo‘shiqni sizga aytaman, do‘stim. Ko‘zlaringni ochma, men kimman - yaxshi, taxmin qiling." Ularning ijobiy ta'siri shundaki, o‘yinning muvaffaqiyati bolalarning ishlash sifatiga bog‘liq. Harakatlar bolalarning xarakterli ekspressiv vositalarni, xususan, ohangni, ritmik munosabatlarni, dinamik soyalarni, tembrni bo‘yashni mustaqil ravishda o‘zlashtirishlarini ta'minlashga qaratilgan. Har bir o‘yinda o‘zining asosiy vazifasi bor.

Sensor ta'limi quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ bolalarning eshitish diqqatini shakllantirish;
- ✓ turli xil uyg‘un tovush birikmalarini tinglashga o‘rgatish;
- ✓ kontrast va shunga o‘xshash tovush nisbatlarining o‘zgarishini ushlang;
- ✓ musiqiy tovushni tekshirish usullarini o‘rgatish;
- ✓ musiqiy va hissiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Musiqiy didaktik vositalar va o‘yinlar bolalarni yangi taassurotlar bilan boyitadi, ularning tashabbuskorligini, mustaqilligini, idrok etish, musiqa tovushining asosiy xususiyatlarini farqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Barcha bolalarda musiqiy-sezgi qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni, istisnosiz, ularning keyingi musiqiy, intellektual rivojlanishi va musiqa san‘atini ajralmas ma’naviy dunyo sifatida tushunishi uchun iz qoldirmasdan o‘tmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altibayeva G.M. Maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiya metodikasi. Termiz-2018.

2. Sharipova G.M., Yakubova Sh.A. Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o‘qitish metodikasi.

3. Vetlugina N. A. Musiqiy o‘yinlar jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish. M., 1958 yil.

4. Udaltseva E. A. Didaktik o‘yinlar: Maktabgacha ta'lim fakultetining sirtqi bo‘lim talabalari uchun qo‘llanma. ped. in-tov. M., Uchpedgiz, 1963 yil.

5. 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from KualaLumpur, Malaysia https://conferencepublication.com May 31st 2021 153 sensory development in preschool age Mohinur Jalolova.

V SHO‘BA

TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO‘NALISHLARIDA INNAVATSION O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.

TASVIRIY SAN’AT ASARLARI BILAN SO’ZLASHISH SAN’ATI VA UNI ANGLASH.

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika institute Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi professori D.E.Omonov

Annotatsiya *Tasviriy san’at darslaridagina emas balki boshqa fanlarni o’qitish jarayonida ham san’at asarlaridan o’quvchi foydalanadi. O’qituvchi o’quvchilar bilan rassom asarlarini tomosha qilib o’rganadi, o’quvchilar bilan suxbatlashiladi va unga murakkab bo’lmagan vazifalarni tayyorlash topshiriladi. Bolalar hikoya, refarat yoki insho yozadilar. Bu esa o’quvchining fazoviy tasavvurlarini oshirib muloqat tilini boyitadi.*

Kalit so’zlar: *kompozitsiya, rang, grafika, haykaltoroshlik, bezak san’ati.*

Darsda tasviriy ko’rgazma sifatida san’atning u yoki, bu ko’rinishi tabiatning ma’lum bir obrazini yoritib turishi, illyustratsiya ko’rgazma shaklida olinishi uchrab turadi. Ba’zida faqatgina asarlarning mazmuni aytiladi, uning to’liq tuzilishi, yaratilishi to’g’risida kerakli ma’lumotlar berilmaydi. To’g’ri keladiki, kuzatgan kishi uning qanday turda, janrda yaratilgani g’oyasini ham axtarishiga to’g’ri keladi. Kimlardir tasviriy san’at asarlariga murojat qilar ekan rassom asarlarida nima chizgan va nima demoqchi ekanligini bilishga harakat qiladi. Birovlar esa surat “o’xshaydi ” yoki “o’xshamaydi” degan gapdan narirga o’tmaydi. Bunday asarga baho berish me’zoni ba’zilarning asarni kuzatishida ko’rinadi. Shunday bo’lsada tasviriy san’at asarlarining umumy g’oyaviy jihati asosiy o’rinda turishini ham unutmaslik kerak. Asarlarning yaratuvchisi, nomi, yaratilishi, qaysi davr yoki vaqtni o’zida ko’rsatib bera oladi hammasini o’rganishni talab qiladi.

Buning uchun biz ko’rsatganimizdek muammolar hali ko’p. Ulardan asosiylari asarning reproduksiyalari hammaga yetarli darajada emasligi; Muzeylarning tasviriy san’atga oyidi hamma shaharlarda yo’qligi; Ko’rgazmalar ko’pincha talab darajasida emasligi, yoki yo’qligi; Rassomlar bilan uchrashuvlar muntazam o’tkazilmasligi; Rassom ustaxonalarida doimiy bo’lmaslik; Badiiy, xujjatli filimlarning tasviriy san’at bo’yich kamligi; San’at asarlarini taxliliga oid kitoblarning yetishmasligi kabi muommolar mavjud.

Ularning hammasini birdaniga bartaraf etish juda qiyin masaladir. Shuning uchun tasviriy san’at asarlarini taxlil etishda rassomlarning ijodini, hayot faoliyatini ham qisman o’rganiladi. Ammo, ko’p vaqtlardan buyon faqat asarlargina o’rganib kam tahlil etiladi. Maktab tasviriy san’at darsligi va dasturuda taniqli rassomlarning ijodi, asalari tahlili beriladi. Ya’ni, O’.Tansiqboyev, R.Axmedov, R.Choriyev, J.Umarbekov, B.Jalolov, Q.Basharov, P.Benkov. Ch.Axmarov, R.Temurov, A.Abdullayev, S.Abdullayev, L.Abdullayev, A.Mirzayev, O.Qozoqov kabi rassomlarning rangtasvir va grafika asarlari bor. Haykaltaroshlikda I.Jabborov, K.Jqabborov, A.Boymatov, D.Ro’ziboyev, I.Raxmatullayev, R.Mirtojiyev, Aliyev, Bambilazi, Diktoriyov, T.Esonov, R.Aymetov kabilarning asarlari o’rganilib ularning tahlili ham qilinishi kerak. Shuning uchun asar muallifi, yaratilishi, mazmuni yaxshi yoritilishi lozim.

Rangtasvir asarlaridan misol qilib oladigan bo’lsak O’zbekiston xalq rassomi Abdulxaq Abdullayevning portret asarlaridan ulug’ shoir “Alisher Navoiy” portretini tahlil qilib ko’raylik. Asar tarixiy voqiylikga asoslanib o’zida shu davrni jamlagan portret janridi yaratilgan. Bu O’zbek xalqining iftixori, g’ururi, shoiri, allomasi sifatida ma’lum bo’lgan inson haqidadir. Shuning uchun rasson A. Navoiy portretini yaratishdan oldin uning ijodi, qilgan ishlari, unig siymosiga berilgan tarixiy manbalarni izlab topish, o’qib-o’rgtanish kabi jarayonni bosib o’tadi. Kiyin esa xayoliga, ko’z oldiga keltirgan obrazni bir necha bor xomaki tasvirini chizadi. Xatto yuzlab uning siymosini etyut tariqasida ishlaydi. Rassom A.Abdullayev ham A.Navoiy obraziga murojat qilar ekan avval, uning

ishlari, hayot faoliyatiga oid manbaalar bilan tanishadi.Shuningdek, rassom badiiy asarni anashu to’plagan materiallariga asoslangan holda yaratadi.

“Alisher Navoiy” portreti ham rassomning ko’p izlanishlari maxsuli sifatida paydo bo’lgan va ulug’ shoir siymosi moxirona tasvirlanib barcha rassomlar haykaltaroshlar uchun tayyor obraz bo;lib qoldi. Chunki A.Abdullayev hali hech qaysi rassom navoiy abrazini siymosini bunchalik aniq qilib bera olgan emas. Bu asarni quydagicha tahlil qilib o’tsak maqsadli hamda aniq bo’ladi.

Endi shunday asarlardan biri haykaltaroshlikga oid bo’lgan Ilxom va Kamol Jabborovlarning “Amur Temur” haykalini qisqacha tahlil qilsak. Bu asar ham mustaqillik tufayli hayot yuzini ko’rdi. Qisqacha ortga chekinadigan bo’linsa O’zbekiston xalq rassomi, professor Malik Nabiyevning uzoq izlanishlari tufayli buyuk podshox, jahongir “Amur Temur” siymosi rang tasvirda yaratildi. Bu asar konkursda eng yaxshi tasvirlangan deb komissiyalar tomonidan tan olindi. Bu konkursda juda ko’plab rassomlar ishtirok etgan bo’lsada ikkta ish bo’ladi deb qoldirilgan edi. Bunda O’zbekiston xalq rassomi, professor M.Nabiyev hamda N.Qo’ziboyevning asari tanlanadi. Shundan ham M.Nabiyev asari eng yaxshi deb olindi.

Haykaltarosh O’zbekiston xalq rassomi Ilxom va Kamol Jabborovlar buyuk jaxongir “Amur Temur” siymosiga qo’l urdi. Etyud, eskiz kichik hajimdagi haykallarni alohida kompozitsiya xukmiga xavola qilindi. Asarni monumental haykaltaroshlik asari sifatida yoqlab u Samarqand shahrining markaziga, unversitet xiyobonining boshlanish qismiga o’rnatildi. Bu asar turgan joyidan butun registon tamonni kuzatib turgandek qilib tasvirlangan.

Agar shu kabi tasviriy, amaliy va haykaltaroshlik asarlarining tahlil etib berilsa bugungi yoshlar ham ma’naviyatimiz asoslaridan biri bo’lgan tasviriy san’at, me’morchilik va hokazolarni qadirlaydigan bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D.E.Omonov., The Role of Engineering Graphics in the Training of "Fine Arts and Drawing" Teachers Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific

Progress (JARSP) Volume: 01 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2751-7551 http://innosci.org 108 | Page

2. DILSHOD ESONOVICH OMONOV., Ways to introduce the science of painting to the visual arts using new pedagogical technologies.

International journal of philosophical studies and Social sciences ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039 http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss Vol 1, Issue 3 2021

3. D.E.Omonov., Integration of fine arts and computer technologies in art education of students. MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021

Copyright (c) 2021 Author (s). This is an open -access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY).To view a copy of this license, visit https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

DARSDAN TASHQARI TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA KAMOLIDDIN BEHZOD FAOLIYATINING AHAMIYATI.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogiga instituti, professor Omonov Dilshod Esonovich

Annotatsiya *To'garak mashg'uloti davomida Kamoliddin Behzodning ijodiy merosini o'quvchilar shuuriga chuqur singdirish va rassomning bizgacha etib kelgan suratlarining jozibaligini, rassom maharatini o'ziga xosligini, o'sha davr voqiyliklari bilan chambarchas bog'lagan xolda tushuntiriladi. O'quvchilar buyuk rassomning suratlarini zavqlanib o'rganishadi va undan ilxom olib, mustaqillik manzaralarini keng ko'rinishga intilishmoqda.*

Kalit so'zlar: *kompozitsiya, rang, grafika, haykaltoroshlik, bezak san'ati*

Xalqimiz tasviriy va malaliy san'ati qadim – qadim zamondan o'z uslub va yo'nalishiga ega bo'lgan. Ularni o'rganish va bu boradagi har bir yutuqni o'quvchilar ongiga singdirish, shu tariqa ular shuurida Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otish biz o'tuvchilar oldida turgan eng muxim vazifalardandir. O'zbek tasviriy va amaliy san'ati XV asrga kelib yuksak pog'onaga ko'tarildi,

desak also mubolog’a bo’lmaydi. Xususan Kamoliddin Behzodning bu boradagi xizmatlari har qancha maqtovga loyiq.U chizgan turli minatyura asarlari o’z davrida muxlislarini topgan edi. Rassomdagi mahorat har bir minatyurani yaratishda yuksak iste’dod, uning yaratgan asarlarida yaqqol o’z ifodasini topgan. Buyuk rassomning o’sha davrda yaratgan maktabi ona zaminimizda ko’plab iste’dodli qalam sohiblarining kamol topishiga munosib hissa bo’lib qo’shilgan.

K. Behzod ijodining o’ziga xos qirralarining o’rganishga katta ahamiyat berilishining boyisi ham shunda. Rassom qalamidan yaralgan har bir asar xalqimizning buyuk me’rosiga aylandi.Asrlar davomida K. Behzod ijodiga bo’lgan qiziqish so’ngan emas. Rassom ijodining o’ziga xos qirralarini kashf etish, undan ilhom olish bugungi kunda ham davom etmoqda. Rassomning qaysi bir asarini ko’zdan kechirmaylik, unda milliylik bo’yi – basti bilan ifurib turadi. K.Behzod asarlaridan “Temur tarixi muraqqasi”, “Sulton Xusayn Mirzo Boyqoro tasviri ”, “Shoir Abduraxmon Jomiy tasviri”, “Darvishlar raqsi”, “Kampir va yosh yigit tasviri”, “Malik Doro va otboqar tasviri”, “Muhammad Shayboniyxon tasviri”, “Tuyalar jangi”, “Yusuf va Zuloyxo” kabi asarlari yuksak did, ma’naviyatni o’zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Bu rasimlarni diqqat bilan tamosha qilganda xalqimizning XV asrdagi hayoti ko’z oldimizda gavdalanadi. Shuning o’ziyoq bu rasimlarni o’rganganda ijodkorning katta talant egasi ekanligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida xalqimizning boy madaniy merosiga bo’lgan qiziqish, ularni o’rganish yanada avj oldi. Xususan, K. Behzod ijodi o’bek milliy qadryatlarini ifoda etganligi bilan kishi diqqatini tortadi. Zero, biz qadimgi madaniy me’rosimiz bilan bugungi avlodni chuqur tanishtirolsak, oldimizga qo’ygan maqsadga erishgan bo’lamiz. Rassomning har bir chizgan suratidan zavq ola bilish, uning o’ziga xos uslub bilan yaratilganligini his etish va shu tariqa yosh avlod qalbiga o’sha davr ruxini chuqur singdiraolsak bu bizning eng katta yutug’imizdir.

To’garak mashg’uloti davomida Kamoliddin Behzodning ijodiy merosini o’quvchilar shuuriga chuqur singdirish va rassomning bizgacha etib kelgan

suratlarining jozibaligini, rassom maharatini o’ziga xosligini, o’sha davr voqiyliklari bilan chambarchas bog’lagan xolda tushuntiriladi. O’quvchilar buyuk rassomning suratlarini zavqlanib o’rganishadi va undan ilxom olib, mustaqillik manzaralarini keng ko’rinishga intilishmoqda. Minatyura to’garak mashg’ulotlarining qiziqarli o’tishida K.Behzod ijodiga keng yondashish kerak bo’lmoqda va bu o’quvchilar qachonki, qiziqishini yanada oshiradi. O’qituvchi mashg’ulotlari mazmunli va jonli o’tsa, o’sha fanga mehir qo’yadilar. Bu o’qituvchining mashg’ulot qay tarizda o’tishiga ham ko’proq bog’liq bo’ladi. Mashg’ulotda, o’qituvchi ko’rgazmali qurollardan o’rinli foydalangan holda uni mashg’ulotga keng qo’llay olsa o’z oldiga qo’ygan maqsadga erishadi. Behzod asarlarining g’oyasini o’qitish va o’rgatish yangi pedagogik texnalogiyalar asosida tashkil etilib o’quvchilarga sifatli ta’lim berilsa bu malakali o’qtuvchining bosh maqsadiga aylanib borganida yaxshi natija beradi. Ijodning asl moxiyatini o’quvchilar ongiga chuqur singdirib borish ularda o’tmish merosimizga hurmat – e’tibor tuyg’usini shakllantirish kerak bo’ladi. K.Behzod asarlarida tarixiy shaxs sifatida tasvir etilgan ulug’ xonlardan biri Shaybonixon portireti jida obrazli, mazmun va manoli qilib ishlangan. Bir asar sifatida emas balki o’zbek xoni tasvirlangan deb bilib qaraydigan bo’lsak Shaybonixon bolishga suyangan, qo’llarini tizzasiga qo’yib, oyoqlarini chalishtirgan xolda tasvirlanadi. Bir nuqtaga qadalgan ko’zlari xonning fakir yuritayotganligini ko’ramiz. O’tirgan xolatida ham kuchli, bukilmas irodali inson qiyofasi gavdalanadi. Manoli ko’z qarashlari, odiy kiyimlarda tasvirlanishi uning odilligini bildiradi. Minatyuralarga xos qorin solingan xoldagi ko’rinish va unga aloqador narsalarning tasvirlanishi yaniy kitob, patli qalam, siyox don, qamchi va boshqalar aks etgan.

Shaybonixon portiretiga razim solar ekanmiz uning qisiq ko’zlari, vajoxatli turishi yuksak irodali ekanligini ko’rsatadi. Xonning jangu-jadaldan toblanganligi, chiniqqan, moxir jangchi ekanligi ham bilinib turadi.U doimo mag’rur va jasur, irodali, matonatli ekanligi o’quvchilarda ham unga o’xshash bo’lshlk istaklarini keltirsa ajab emas.

Shulardan kelib chiqqan holda o’quvchilar o’z mehnatiga maqsad hissini sezishi kerak. O’quvchilar o’rtasida K.Behzod amaliy sa’atini keng tahlil qilish, o’quvchilarning K.Behzod ijodiga bo’lgan e’tiqodi orqali to’garak mashg’ulotlarini yanada jonli o’tkazish mumkin. Ishonchim komilki, biz to’garak mashg’ulotlarida buyuk rassom qoldirgan ijodiy merosini shogirdlarimiz shuuriga to’liq singdira olsak, haqiqiy vatanparvar farzandlar kamolotiga erishamiz.

To’garak mashg’ulotlarida o’quvchilar K.Behzodning “Xamsa” asariga qiziqish bilan qaraydi. Ularning orasida Behzod uslubiga oid minaturalar ham ishlatilgan.

O’quvchilardan Obloqulov N, Eshboyev Z, Gulmurodova M, Yoqubova Dilbarlarning ishlari alohida ajralib turadi. K.Behzod ijodiy asarlarini o’rganish jarayonida o’quvchilar katta ma’naviy-madaniy ozuqa olmoqda, bobolarimiz izidan borishga intilmoqda. Darslarda K.Behzod asarlarini o’quvchilarga keng tahlil qilib o’z ustida ishlashga undamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D.E.Omonov., The Role of Engineering Graphics in the Training of "Fine Arts and Drawing" Teachers Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP) Volume: 01 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2751-7551 http://innosci.org 108 | Page

2. DILSHOD ESONOVICH OMONOV., Ways to introduce the science of painting to the visual arts using new pedagogical technologies.

International journal of philosophical studies and Social sciences ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039 http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss Vol 1, Issue 3 2021

3. D.E.Omonov., Integration of fine arts and computer technologies in art education of students. MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021

Copyright (c) 2021 Author (s). This is an open -access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY).To view a copy of this license, visit https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA BO’YOQLARNING KIMYOVIY TARKIBI VA XOSSALARI HAQIDAGI BILIM VA KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi professori Omonov Dilshod Esonovich

dilomon77@mail.ru

Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o‘rni, shifobaxshligi, tarbiyaviy, falsafiy va ruhiy tomonlari haqida juda ko‘p ma’naviyat xazinalari qoldirib ketganlar. Afsuski, bu ma’naviy merosdan to‘liq foydalana olmayapmiz. Chunonchi, ta’lim va tarbiyada, tibbiyot, texnika, qishloq xo‘jaligi, iqtisod va boshqa sohalarda bu masalalarga yetarli darajada urg‘u berilmayapti. Xolbuki, jahonning rivojlangan mamlakatlarida ranglarning inson hayotidagi o‘rniga juda katta ahamiyat berilmoqda. Ma’lumki, ta’lim tizimida rangshunos fani o‘rgatiladi. Lekin, hozirgi zamon talabiga javob beradigan darslik o‘quv-qo‘llanma, elektron versiya va boshqalar yetarli emas. Rangshunoslik fanining o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari deyarli olib borilmagan.

Har bir rang bir odam ma’no anglatadi. “Nima bois tabiat yashil rangda yaratilgan? Buni sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo‘lsa, nima ma’noni anglatadi. “Nima bois tabiat yashil rangda yaratilgan? Buni sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo‘lsa, nima ma’noni anglatgan bular edi? Qaysi ranglar inson kayfiyatini ko‘taradi? Qay biri salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatadi? Inson yoki hayvonlarning ranglari orqali ular salomatligini aniqlasa bo‘ladimi?”. [1.160 b] Dunyo cheksiz sir-sinoatlardan iboratdir. Uni bamisoli musavvirning “Qora kvadrat” asariga ramziy ma’noda o‘xshatsa bo‘ladi. Zero, “kvadrat” – uning adabiy yaratilganligini, to‘rt tomoni – cheksizlik timsolini anglatsa, “qora rang” esa mavxumlik dunyo sir-sinoatining barchasini anglab bo‘lmas sir ekanligidan dalolat beradi. Insoniyat naqadar shu sirlarni bilishga harakat qilmasin, biroq uning tafakkuri ojizlik qilishi, tabiiydir.

Tasviriy san’at darslarida bo’yoqlarning kimyoviy tarkibi va xossalari haqida ma’lumotlar berish o’tiladigan fan bilan kimyo fani o’rtasidagi uzviy

bo’liqlikni tushuntirish, ularda bo’yoqlarning kimyoviy tarkibi va xossalari haqida tushunchalarni shakllantirishda muhim o’rinni egallaydi.

Tasviriy san’atda ishlatiladigan bo’yoqlar akvarel, guash, tempera va moyli bo’yoqlarga bo’linadi. [1.160 b]

Akvarel bo’yoqlar - suvda tez eruvchanlik xususiyatiga ega bo’lib, undan foydalanish orqali qog’oz yuzasida plyonka qoplamasi vujudga keladi. Bunga asosiy sabab akvarel bo’yoqlari tarkibida suvda eruvchi kamedi (gummiarabik, gilos elimi) mavjudligi. Akvarel bo’yoqlarni asosan qog’oz yuzasga ishlatish mumkin.

Guash bo’yoqlari - bu bo’yoqarni suvda eruvchi xossaga ega dekstrin moddasi bilan tayyorlanadi. Bu bo’yoqlar akvarel bo’yoqlariga nisbatan quyuq bolib, uni asosan qog’ozga, karton qog’ozga va matolarga ishlatish mumkin.

Tempera - buning tarkibi suvda eruvchi tuxum sarig’i, gummiarabik, (yoki gilos elimi) yoki kazein va moydan tayyorlangan suvli eritma. Bu bo’yoqning boshqa bo’yoqlardan farqi shundaki bu bo’yoq yuzaga ishlatilgandan so’ng ikkinchi bor uni eritish mumkin emas. Bu bo’yoqlardan ko’p xollarda daraxt po’sti (papemashe) ga rang tasvirda ishlanadi, egiluvchanligi bo’lmagani uchun xolst yuzasiga ishlatish to’g’ri bo’lmaydi.

Moyli bo’yoqlar - rafinatsiya qilinib tozalanib, yong’oq yoki kungaboqar moylari bilan tayyorlanadi. Yuzaga (maxsus polotno) ishlatilgandan so’ng u jiddiy o’zgarishi mumkin. Bu bo’yoqlardan asosan grunt berish hamda yog’och materiallarini bo’yashda foydalaniladi.

Agar biz kartondan doira qirqib olsak va uni spektr ranglari tartibida qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havo rang, zangori ranglarga bo‘yab chiqib, o‘z o‘qi, ya’ni ventilyator o‘qiga o‘rnatib o‘z o‘qi atrofida tez aylantirsak umumiy ko‘rinishdagi kul rang tusni kuzatamiz. Yana xuddi shu usulda uchta asosiy ranglar – qizil, sariq va zangori ranglarni aylantirganimizda esa yanada yorug‘roq bo‘lgan och kul rang hosil bo‘ladi. Shu yetti xil rangni palitrada aralashtirib ko‘rsak qoramtir tusdagi ko‘rimsiz aralashma hosil bo‘ladi.

Axromatik ranglarning xromatik ranglardan farqi shuki, ular tanlamay yutish va qaytarish xossalariga ega. Axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya’ni biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi.

Har bir xromatik rang uchta xossaga: rang tusiga, rang yorqinligiga (ya’ni kam yoki ko‘p yorqinligiga), rang kuyinganligiga (ya’ni rang quyuqligiga) ega bo‘ladi.

Spektrni sinchiklab kuzatsak uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglari orasida o‘xshashlik alomatini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qo‘shilsa, ularning oralig‘ida qirmizi ranglar hosil bo‘ladi.

Ranglar doirasida rang tuslari juda ko‘p bo‘lishi mumkin, lekin bizning ko‘zlarimiz 150 taga yaqinini ajratishga qodir.

Sovuq ranglarga esa muz, suv, osmonning rangini eslatuvchi ko‘kish rang, zangori, binafsha, havo rang, to‘q yashil, ko‘kish qizil ranglari kiradi. Tabiatdagi mavjud ranglarni yana o‘z navbatida iliq va sovuq ranglarga ajratish mumkin. Iliq ranglarga quyoshni, alangani, qizigan temirning taftini eslatuvchi sariq, zarg‘aldoq, qizil, sarg‘ish yashil kabi ranglar kirsa.

Dunyo cheksiz sir-sanoatlardan iborat. Ularni o‘rganish uchun cheksiz inson umri kerak bo‘ladi. Ajdodlarimiz tabiat tomonidan yaratilgan barcha ne’matlarning sirli olamini, sabablarini o‘rganishga harakat qilganlar va shunday xulosaga kelganlarki, dunyoda hech bir narsa sababsiz yaratilmagan, Chunonchi “rang” atamasi to‘rtta harfdan iborat bo‘lsa-da, uning ma’nosiga va sirli olamini o‘rganishiga insonlarning umri yetmaydi. Rangni ilmiy o‘rganish uchun “Rangshunoslik” fani yuzaga kelgan.

Ko‘z qorachig‘i kattalashadi, yurak o‘rishi o‘zgaradi, bu holat kishilarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etadi. Buning aksini olaylik har bahorda lola sayliga chiqqaningizda, toza havodan tashqari, qir-adirlarda turli rangdagi gullarni, maysalarni, musaffo osmonni, tog‘ chuqqisidagi oppoq qorlarni ko‘rib, ruhingiz ko‘tariladi, hayotga va tabiatga bo‘lgan muhabbatingiz yanada oshadi. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Komoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonda mashhur ajdodlarimiz rang, uning

turlari, nomlari, ramziy ma’nolari, inson sog‘lig‘iga ta’siri va boshqalar haqida juda ko‘p yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. [4.386 b] Chunonchi: Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Kitob al Javohir-ma’rifat al Javohir” (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o‘tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to‘g‘risida yozib qoldirgan. Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomini, hattoki, har bir rangning ramziy ma’nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba’zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: avlon, rahuvon, bargi karam, binafsha, bug‘doy rang, buz gulgun, jigar rang, zangori, za’faron, zumrad, qahrabo, kul rang, ko‘k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, nafarmon, oq, pistamagiz, pistaqi pushti, sariq, savsar samo rang, sur, feruza, uchoq, kesak qizil, qirmizi, qora, qora mag‘iz, qoracha qo‘ng‘ir, havo rang anordona, aqiq, bayzo gul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo‘ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg‘aldoq, kaptar bo‘yin, ko‘kimtir, lilovi, limurang, maykaylik mikori, novvot rang, nilobi, nimtatir, nim pushti, norgul, olov rang, olmatakor, oq upa suvi, sabzi rang, samak kesaksiyo, sir, sovot, surma rang, tilla rang, tupori to‘liq, tutiyoyi va boshqalar. Afsuski, yillar, asrlar o‘tishi bilan asta-sekin ranglarning nomi, turlari va ramziy ma’nosi hamda ularning tili yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoldi.

XULOSA

Rang inson ҳayotida cheksiz ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida juda ko‘p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Hozirda xattoki bir qancha davlatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy labaratoriyalar ishlab kelmoqda. Ayniqsa, Yaponiyaning Tokio-shahridagi rang instituti dunyoga mashxur. Dunyoning taniqli olimlari tomonidan rang orqali ramziy ma’noda gapirish; ranglar vositasida insonlarni davolash; tarbiyalash; ranglar jilqasi orqali falsafiy fikr berish; rang orqali insonning ichki dunyosini bilish; qishloq xo‘jalik mahsulotlari unumdorligini oshirish; insonlarning ma’naviyatini shakllantirish va boshqa masalalar o‘rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S. Rangshunoslik. – T. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti. 2009. – 160 b.
2. M. Nabiyev "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" T-1995-48б
3. EgamovX. Bo’yoqlar bilan ishlash. –T. O’qituvchi. 1981. -56 b.
4. Bulatov S . O’zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T.Mehnat. 1991. – 386 b.
5. M. Nabiyev Rangshunoslik. –T. O’qituvchi. 1985. -40 b.
6. Shavqiyev.E. Talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. (Metodik qo‘llanma) - T. Tafakkur bo‘stoni.2012.- 14 b

DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA TALABALARNI TARIXIY YODGORLIKLAR RANGLARINI RAMZIY MA’NOLARINI O’RGATISHNI MUHUM AHAMIYATI.

Shavqiyev. Elyor. Raxmonberdiyevich.

O’zbekiston Finlandiya pedagogika institut, dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talaba yoshlarni vatanpabvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy yodgorliklar o’rni masalalariga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Bunda o'zbek xalqining asrlar osha foydalanib, o'rganilib kelayotgan milliy madaniyati ananalari, me'moriy obidalarining ranglarini o’rganish. Ularning yaratilishi, timsollari, mazmuni mohiyati, shuningdek rangshunoslikdagi ifodasi sifatida bayon etilgan, hamda Bibixonim jome masjidi to’g’risida tahliliy fikirlar bildirilgan.*

Kalit so’zlar: *naqsh, tasviriy va amaliy san’at, gumbaz, baraban, peshdoq, minora, feruzasimon koshin, handasaviy, ravoq, muqarnaslar, xoshiya.*

Ma’lumki, Resublikamiz Mustaqqilikka erishgandan keyin madaniy meroslami, ya’ni tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash ishlariga katta e’tibor berila boshlandi. Ana shu maqsadda respublikamizda xarobaga aylangan juda ko’p

tarixiy yodgorliklar qayta ta’mirlana boshlandi. Hozirgi vaqtda Respublikamizda qilinayotgan ishlar ancha ko’zga yaqqol tashlanib qoldi. Tarixiy yodgorliklar to’g’risida beriladigan bilimlarda nafaqat tarixga nazar tashlanadi, balki o’sha davrga mos bo’lgan me’morchilik san’atiga ham e’tibor beriladi va ayrim narsalar o’rganiladi. Respublikamizda turli xil tarixiy yodgorliklarni mavjudligi xalqimizning miliy iftixori, g’ururi bo’lib kelmoqda shu bilan birga yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta axamiyatga ega bo’lmoqda. Ayniqsa tasviriy va amaliy san’at yo’nalishlarida bilim olayotgan yoshlarni etuk mutaxassis qilib tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega bo’lmoqda.

Ushbu maqolada biz talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy yodgorliklarning roli to’g’risida to’xtalib. o’tamiz.

Ma’lumki bizning inistitutda san’atshunoslik fakul’teti mavjud bo’lib, unda tasviriy san’at va muhandislik grafikasi va amaliy san’at yo’nalishi bo’yicha talabalar bilim olmoqda. Ana shu talabalarga ham mutaxasislik bo’yicha bilim berishda, ham ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy yodgorliklardan misol sifatida Bibixonim, Jome’ masjidini olib qaraymiz. Bu maqsadda quydagi malumotlarni talaba yoshlarga birinchi o’rinda yetkazishimiz kerak.

O’rta Osiyo me’morchilik san’atining yuksak namunasi, mahobatli me’moriy inshoot Samarqand sahrida joylashgan Bibixonim Jome’ masjidi 1399-1404 yillarda buyuk sarkarda Amir Temurning Hindistonni zabt etishi sharafiga qurdirgan.

Xalq orasida bu inshoot Amir Temurning katta xotini Bibixonim (Saroy-mulkxonim) nomi bilan mashhur. Bibixonim Jome’ masjidi Markaziy Osiyoda eng yirik inshootlardan hisoblanadi. Bu masjid qurila boshlagan vaqtlarda O’rta Osiyo me’morchiligida ulkan, mahobatli binolar qurish odat bo’la boshlagan edi. Bibixonim masjidi o’sha davrda ham, hozirda ham xalqimizning milly g’ururi bo’lib hisoblanadi. Bu o’rinda Amur Temurning “Agar bizning kuch - qudratimizga ishonmasang, biz qurgan imoratlarimizga boq” degan so’zini keltirsak maqsadga muvofiq bo’ladi. Xuddi shuningdek Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sidan Bibixonim masjidining quydagi ta’rifmi keltirsak

uning qanchalik ahamiyati borligini ko’ramiz, “Agar osmon uning tasviri bo’lmaganda, gumbaz yakkayu yagona bo’lur edi, agar Somon yo’li unga juda bo’lmaganda, o’rnini arilar egallar edi.” Bibixonim jome masjidi to’g’risida Abu Toxir Xo’ja “Samariya” asarida shunday yozadi; “Amir Temur hindistonni olgandan keyin oltin, inju va qimmatli toshlarni to’qsonbitta fllga ortib keltirdi. 1399 melodiy yilida kuchli va tezkor ustalarni dunyo tevaragidan yig’ib kelib ishni boshladi. Va shunday bir masjidi jome’ bino qildiki, sathining sof ishlanishi hushyor dillardan ham munavvarroq va baland qo’ng’iralari boy muqarnasidan bezaklari, feruzasimon koshinlari lojuvard, osmonrang, oftobro’y jiloli zarnigor naqishlari bilan go’zal charx gumbazlariga barobar, baland ovozalik darvozasi “kimki bu yer (xonai ka’ba) ga kirdi, omonlik topdi” oyatlarning kaliti bilan ochiladi. Har bir yuksak tog’lari falak peshtog’da qad ko’tardi”. Bibixonim Jome’ masjidining umumiy sathi 167x109 m, burchaklarida baland minoralar bo’lgan va hozir bu minoralar qayta tiklandi. Jome’ masjidi zilzilalar ta’sirida asta-sekin yemirilib vayron bo’lgan, faqat shimoliy-g’arbiy minoralarining pastki qismigina saqlanib qolgan, balandligi 18,2 m. Bibixonim jome’ masjidi poydevori xarsang toshdan, devorlari pishiq g’ishtdan ishlangan (qalinligi 4,4-5 m). Jome’ masjidining asosiy binosini olib qarasak u Amir Temur zamonasining me’moriy uslublari haqida tasavvur beradi.

Asosiy binoning old tomonida peshtoq, markazida ravoq va burchaklarida ikkita ko’p qirrali minora bor. Peshtoq orqasidagi xona oddiy, ammo salobatli handasaviy sakkiz qirrali qismi shakllar yig’indisi (kubsimon prizma, xonaning ustiga tushgan baraban va gumbaz)dan iborat. Kubsimon prizma binoning asosiy hajmi bo’lib, tomonlari 14,6 metrga teng. Uning ustiga xona devorlari bo’ylab o’tuvchi rovoqlardan iborat sakkiz qirrali prizma bor. Gumbazning doirali asosiga baraban tutashtirilgan. Baraban sirtiga qur’on oyatlari bitilib, usti feruza koshinlar bilan pardozlangan gumbaz berkitilgan. Uning kirish tomonlari ham bosh peshtoq kabi rang-barang koshinlar bilan qoplangan, sopol g’ishtchalar yotiq, sirlangan rangli g’ishtlar tik terilgan. Asosy naqsh shakillari tiniq, lojuvard g’ishtchalardan terilib, ulaminig oralig’i zangori g’ishtchalar, oq toshlar bilan to’ldirilgan. Oddiy

handasaviy shakllar va pechak kabi tirmashib ketgan yozuvlar bino bezagining tarkibiy qismini tashkil etadi. Jome’ masjidning ichki qismini pardozlashda naqqoshlik bezaklari qatorida zarhal bo’rtma gul qog’oz (pap’e mashe) dan keng foydalanilgan.

Masjidning ko’p qirralari yulduzlar, uch qavatli xatlar o’yilgan lavhalar jajji muqarnaslar bilan oro berilgan, xoshiyalar oq toshdan o’yilgan. Vayrona xolatda bo’lsa ham, me’moriy shakllarining serhashamligi, bezaklarning nafisligi bilan kishi diqqatini jalb qiladi. Undagi rang - barang naqshlar o’sha davr xalq ustalarining nozik didi va yuksak mahoratidan darak beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, tarixiy obidalar, yodgorliklar, ularning o’ziga xos me’moriy san’atidan dastlabki ma’lumotlarni bergandan kiyin, o’sha joylarga sayohat (ekskursiya) tashkil etilsa, qo’yilgan maqsadga erishish oson bo’ladi. Chunki talabalar fikrlari, tushunchalari va bilimlari asosli bo’ladi va ularda qat’iy xulosalarni tug’diradi.

Shunday qilib, tajribalarga asoslanib xulosa qilsak, talabalarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda xalqimizning bizga qoldirgan tarixiy yodgorliklar va obidalarning ro’li juda katta ekan.

Shunday ma’rifatli xalqimizning asirlar osha o’rganib, foydalanib kelayotgan an’analarini talabalarga singdirish bizning burchimizdir. Agar tasviriy va amaliy san’atni o’qitish jarayonida tarixiy yodgorliklar va obidalarning ranglarni va ramziy manolari xossalarini talabalarga o’rgatib borsak undan keyin o’quvchilarga bu an’ana etkaziladi. Yurtimizda bunyod etilgan me’moriy obidalar tarixini, ranglarini talaba yoshlar ongiga sigdirishda rangshunoslik fanida ramziylik nihoyatda kerak ekanligi hamda uni chuqur bilib olish lozimligi bugungi kunda ham muhimdir. Mashg’ulotlar davomida aynan shu jihatlarni o’rganish orqali tarixiy, madaniy va milliy merosimizni o’rganib olinishga zamin yaratiladi. Hozirgi davr tasviriy va amaliy san’atini o’qitish jarayoniga ranglarning o’ziga xos xususiyatlari, ramziy ma’nolarini chuqurroq o’rganish ham asosiy maqsad qilib qo’yilsa to’g’ri bo’ladi. Shunda vatanimiz, jamiyatimiz uchun ranglarning xususiyatini ham puxta o’rgangan barkamol kadrlar shakillanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

7. O’ralov A.S Me’moriy shakillarni uyg’unlashtirish va bezash.-samarqand.:, “Sam DAQI,”-2013.

8. Ahmedov M.Q. Me’moriy meros.-T.:, “Fan va texnologiya”, 2011.

9. Bulatov S. Rangshunoslik. -T. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti. 2009. -160 b.

10. M. Nabiyev "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" T-1995

11. Bulatov S. O’zbek xalq amaliy bezak san’ati.–T.Mehnat. 1991. -386 b.

12. Shavqiyev E. Talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. (metodik qo’llanma) -T. Tafakkur bo’stoni. 2012.-14 b.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.

Sidikova Moxira Saloxidinovna

O’zbekiston Finlandiya pedagogika instititi Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi asisstenti

Ma’lumki, ―XXI asr – intellektuallashtirilgan asr ko‘rinishini olib bo‘ldi.Buni hozirdagi ilm-fan va texnika-texnologiyalar rivojidan yaqqol sezish mumkin. Ular negizida ishlab chiqarilayotgan intellektual tizimlarda ko‘plab tizimiy yondashuv,innovatsion yondashuv, kreativ yondashuv, ijodiy yondashuv, majmuaviy (komillik) yondashuv, integrativ yondashuv kabi tadqiqot uslublaridan foydalanilmoqda. Bu tadqiqot uslublari ichidan integrativ yondshuvdan ko‘proq foydalanilmoqda. Bunga sabab intellektuallashtirilgan asrning ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda albatta ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi, ya’ni bular asosidagi hosil bo‘ladigan-yangilangan ta’lim mazmunini tashkil etishda integratsiyalash jarayoni amalga oshiriladi.Bu yo‘nalishning istiqbolli tomoni shundaki, bunda dunyo miqiyosidagi

o‘qitish tizimlarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan integratsiyalashtiriladi, shuningdek,integratsiyalash ta’limni intellektuallashtirish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini yanada mukammallashtirishda nihoyatda zarur. Respublikamizda intellektual saloxiyatli bo‘lajak mutaxasislarni tayyorlash masalasi ham davlat ahamiyatiga molik bo‘lib, ushbu masalani hal qilishga alohida e’tibor qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasida ―Uzliksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish‖ vazifasi belgilangan. Shuning uchun mazkur integrativ yondashuv negizida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashni modernizatsiyalash masalasi qaraladi. Ushbu muammoni hal etishda dastlab an’anaviy ta’lim tizimiga mos va xos bo‘lgan davlat hujjatlari o‘rganilib chiqiladi va ulardagi bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy talablar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni modernizatsiyalashga qaratilgan g‘oyalar va ko‘rsatmaviy fikrlar muammo yechimini hal qilishda etiborga olinib boriladi va ulardagi didaktik imkoniyatlar hisobga olinadi.

Quyida ularning ba’zilari haqida to‘xtalamiz:

1. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning davlat ta’lim standartlarining mavjudligi.

2. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid fanlar bo‘yicha davlat ta’lim standartlarining mavjudligi.

3. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarni malaka tavsifnomalarinig mavjudligi.

4. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejasidagi bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirish mumkunligi va shu kabilar.

Bu ko‘rsatilgan oxirgi imkoniyat bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni dastlabki bosqichidanoq integratsiyalashga kuchli e’tibor berish kerakligi talab qilinadi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini kasbiy

faoliyatga tayyorlashdagi fanlar bloklarining yo‘naltirilgan maqsad-vazifalari bor va ularning muammo yechimini hal qilishga yetarligini aniqlab olishga to‘g‘ri keladi.

O‘rganilgan davlat hujjatlaridagi imkoniyat va shart-sharoitlar bo‘lajak

Tasviriy san’at o‘qituvchisini tarbiyalashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirishga bo‘lgan dastlabki imkoniyatlar bo‘lib hisoblanadi. Shuning birga mazkur yo‘nalishdagi bo‘lajak tasviriy sa’at o‘qituvchilarini intellektual faoliyatga tayyorlashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirish mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa bo‘lajak tasviriy sa’at o‘qituvchilarini tayyorlashni zamon talablarini e’tiborga olgan holda integrativ yondashuv asosida amalga oshirishning ahamiyatini yanada oshiradi hamda bunday muammolarning ijtimoiy ahamiyatini ham yanada yuksaltiradi. Va qayd etish mumkinki, tadqiq etilayotgan muammoning o‘zi ham davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi istiqbolli dolzarb muammo bo‘la oladi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini san’atshunoslik asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish,san’atshunoslikka oid kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, badiiy-estetik tajribaning uyg‘unligini ta’minlash,obrazli fikrlashning asosi sifatida badiiy ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda jamiyatimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi,tasviriy san’atni, hususan, uning san’atshunoslik qonuniyatlarini o‘qitish mazmuni va metodikasini takomillashtirish, xorijiy tajribalarni maqsadli o‘rganishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi” degan fikr bildirgan.

Fanlarni integratsiyalash tendensiyasi, materiya harakatining o‘zaro aloqa shaklini anglash va uning organik birlikda tuzilishini ilmiy metodologik asoslari orqali tushuntirishdan iborat.

Integratsiyalashgan ta’lim global texnik, texnologik, iqtisodiy ekologik muammolarni yechishga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun integratsiyalashgan bilimlarga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Yurtimizda ta’limga e’tibor rivojlanayotgan bugungi sharoitda hech bir pedagog yangiliklarga befarq bo‘lmasligi, faoliyatini innovatsion usullarda tashkil etishi lozim. Bu esa kelajakka tayyorlanilayotgan bo‘lajak mutaxassislarni ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini musta’qilikka va ijodkorlikka yo‘naltiradi. Bu esa ta’lim sifatini ko‘tarib, ilmiy rivojlanishlarga yetaklaydi. Odamning ishlashi qancha erkin bo‘lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo‘ladi. Shakllanayotgan bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchisi oilada kattalar, oliygohda o‘qituvchilar hokimligidan qutulsa, uning ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlariga qarab ish tutilsa, unda o‘z hatti-harakati uchun javobgarlik hissi paydo bo‘ladi. U o‘z ishi, qarashiga ega bo‘ladi. Ijod egasi hamisha o‘z qarashlarini asoslaydi, kerak bo‘lganda himoya qiladi. Shuning uchun yurtimizda yoshlarga barkamol avlod tarbiyasiga alohida e’tibor siyosat darajasiga ko‘tarila oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi pf -4947-sonli O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida‖ gi farmoni// O‘zbekiston respublikasi qonun xujjatlari to‘plami. –Toshkent– 2017 - 6-son. -70-modda.

2. XasanboevJ, To‘raqulov X.A, Xaydarov M, Hasanboeva O, Usmonov N.O‘. Pedagogika fanidan izohli lug‘at.– T.: ―fan va texnologiya‖, 2009, 672 b.

3. Science and innovation international scientific journal 372-376 betlar 2022 №2

O’ZBEKISTON MADANIYATI TARIXI DAVLAT MUZEYIDAGI KASHTA KOLLEKSIYASINI YARATILISHI VA ILMIY-BADIIY AHAMIYATI

Maxkamova G.A.

O’zFPI, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi o’qituvcisi

Anotasiya*. Mazkur maqola “XX-XXI asrlar Samarqand kashtachiligidagi badiiy jarayonlar” mavzusida olib borilayotgan tadqiqot doirasidadir. unda tadqiqot ob’ekti bo’lgan O’zbekiston madaniyati tarixi Davlat muzeyi, etnografiya kolleksiyasining yaratilishi tarixi va tadqiqotchilar, ilmiy kadrlar uchun ahamiyati haqida man’lumotlar berilgan.*

Kalit so’zlar: *etnografiya, san’atshunoslik, so’zana, gavorapo’sh, So’zana, bolinpo’sh, ro’ydo, zardevol, taxmonpech, joynamoz, zebitaxmon, takyapo’sh, tanpokkun, dastorpech, nimso’zani, qo’shjoynamoz, bo’gjoma, palak, qiziq palak, sandalpo’sh, chimiliq.*

Samarqand kashtalarining eng xususiyatli namunalarining katta qismi bugungi kunda O’zbekiston madaniyati va tarixi davlat muzeyida saqlanadi va shu bilan birga madaniyat, tarix, etnografiya, arxeologiya, san’at sohasi uchun taqdqiqot manabaidir. O’zbekiston madaniyati tarixi muzeyida Samarqand markasiga oid yirik va mayda kashtachilik namunalarining matosi, ashyosi, tikish texnikasi va turli davrlarga oidlari jamlangan. Muzeyda yirik kashtalar qariyib 3000 tani tashkil qiladi. Ular orasida “Trud jeнщin” arteliga oid mashinka kashtalari ham bor. So’zana, bolinpo’sh, ro’ydo, zardevol, taxmonpech, joynamoz, zebitaxmon, takyapo’sh, tanpokkun, dastorpech, nimso’zani, qo’shjoynamoz, bo’gjoma, palak, qiziq palak, sandalpo’sh, kabi turli ko’rinishli va ashyoli, bir-biridan qiziqarli buyumlarga boy. Ularning o’lchamlari 160X137 sm, 245X193 santimetr va yirik kashtalar 18 rubldan 180 rublgacha narxda sotib olingan. Mazkur muzey yurtimizdagi Samarqand kashtachiligini, madaniyatini, tarixini chuqurroq o’rganishda asosiy maskanlardan biri.

“Etnografiya fondi xam badiiy hunarmandchilik va amaliy san’atning o’zbek xonliklari davri va XX asrdagi rivojlanishi tarixini o’rganish nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Fond 30 ta kollektsiyada jamlangan 20 mingga yaqin muzey predmetlaridan tashkil topgan. Ulardan O. A. Suxareva va A.K. Pisarchik kabi etiograflar ishtirokida jamlangan O’zbekiston va Tojikiston kashtalari imkon darajasida to’liq taqdim etilgan…..Etnografiya fondidan O’zbekistonning turli hududlari va shaxarlaridan keltirilgan, xar biri o’ziga xos bezatilgan, bolalar, ayollar va erkaklar duppilaridan iborat (600 ta) bosh kiyimlari kollektsiyasi xam o’rin olgan. Shuningdek, muzey XIX asrning 80-90 yillariga oid kelin va kuyovlarning alohida liboslari, 2500 ta an’anaviy o’zbek kiyimlari to’plamlarini o’zida jamlagan.” [32] [1-15 b] (keying o’rinlarda muzey deb ataladi)

Kashtalar muzeyga XX asrning 30 yillarida ekspeditsiya va tashriflar jarayonida Suxareva O.A, Kurtmullayeva G.S, M.F Kaplunovalar tomonidan qabul qilingan bo’lsa, XX-asrning II-choragida L.M.Navruzova, Davidyan Yu, Fattoyeva S, Panchenko G.P va 2000 yildan keyin Mirsaidova L, Ro’zimurodova S, Sh tomonidan qabul qilingan va rasmiylashtirilgan. Kashtalar Samarqand shaxri: Xoji Zulmurod, Xayrobod qismi, Kaftarxona, Yusufboy kvartali, Englis kolxozi, So’zangaron qismi, Motrid, Bog’i – maydon guzari, Pobeda kolxozi bo’lsa, Payariq tumani: Xaylovot guzari, Chelak shaxri, Katta turk, Miyonqul qishlog’i, Pastdarg’om tumani: Qizilyulduz kolxozi, Arabxona, Shakarkent, Urgut tumaniga oid G’os qishlog’i kabi maskanlardan o’zbek va tojik millatli insonlar tomonidan keltirilgan. O.A.Suxareva faolligida 1934 yilda kashtalarlarning chizmalari kashtado’z va qalamkashlar O’rinoy Umurboyeva, Melikoy Karimova, Munavvar Nosirova, Qanoat Roziqovalar (1890 yil) tomonidan yirik va mayda kashtachilik buyumlarning minieskizlari chizdirilgan[33]va muzeyga taqdim qilgan. Yig’ilgan kashta kolleksiyalar kirim kitoblariga rasmiylashtirilgan. Muzeyining ilmiy hodimlari tomonidan ko’plab ekspeditsiya va tashriflar uyushtirigan. Masalan,

[32] САМДРҚАНД ДАВЛАТ МУЗЕЙ-ҚЎРИКХОНАСИ ТЎПЛАМИ. XVIII. SILK ROAD MEDIA » • «EAST STAR MEDIA » ф © TOSHKENT,2020..464 б. 15-bet/)

[33] O’zbekiston madaniyati tarixi Davlat muzeyi kp №829/1, №829/2, №829/3, №829/4, №829/4, №829/7, p №-433, p №437.

1932-yilda Samarqand – Buxoro - Xorazm yo'nalishida Samarqand - Chordjo'y - To'rtko'l – Urgench – Xiva – Gurlan – Xazorasp – Buxoro - Samarqand yonalishlarida muzey hodimlari ishtirokida ikki oy muddatga ekspeditsiya tashkil qilish rejalashtirilgan[34].

Xulosa qilib aytganda muzey kashtalarini o'rganishda uning badiiy, ilmiy ahamiyati nihoyatda katta ekanligini, undagi namunalarning o'z davri urfi, tili, yozuvi, e'tiqodi, san'ati, tarixi, yuksak tikish mahorati, kompozitsiya tuzishgdagi yuksak didni nomoyon qilganini guvohi bo'lamiz. Buyumlarning xalq hayotidagi o'rni muhimligi sabab ijodkorlar mazkur buyumlar tayyorlanishida yuqori talab qo'yganlar. Ilmiy jihati tadqiqotchilar uchun yangi izlanishlarni olib borishga xizmat qilsa, namunalrning tikish choklari, ip ranglari, naqshlari hunarmandlar uchun hunarmandlarga mahalliy markazni saqlash va davom ettirishda ulkan manbaa hisoblanadi. Kashtalardagi naqshlar nihoyatda hususiyatli, hududning taixini, urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini, hunarmandlar estetik qarashlarini, tikish texnikasi ularning mahoratini namoyon qiladi. Kirim kartalari va kitoblarini o'rganishda O.A.Suxareva va A.K.Pisarchilkalrning yozgan ma'lumotlari muzeyshunoslik sohasida metodik ko'rsatma bo'la oladi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samarqand davlat muzey-qo'rikxonasi to'plami. XVIII. silk road media © Toshkent, 2020..464 b. 15-bet/)

2. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi kp №829/1, №829/2, №829/3, №829/4, №829/4, №829/7, p №-433, p №437.

3. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxiv xujjatlari.46 papka 1-2 bet.14 var.1932 y.2 sentyabr

4. Abilkasimovna M. G. (2021). in the view of embroidery designers. central asian journal of arts and design, 2(11), 23-27. retrieved from https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/cajad/article/view/71

. O'zbekiston madaniyati tarixi Davlat muzeyi arxiv xujjatlari.34 46 papka 1-2 bet.14 var.1932 y.2 sentyabr

5. Maxkamova G. A. (2022). Samarkandskie vыshivki XX veka: vidы, stili, ornamentalnыy repertuar (primerы samarkandskogo gosudarstvennogo muzeya)..vzglyad v proshloe, (si-3).

6. Makhkamova G. A. (2022). Samples of embroidery in the samarkand state museum.art and design: social science, 2(03), 26-28.

SHAKLNI KONSTRUKTIV TAHLIL QILISH. QALAMTASVIR FANINI MUHIM XUSUSIYATI OBRAZLI IFODALASH VA TURLI FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI.

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

Alfraganus universiteti Umumkasbiy fanlar kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Abdurahmonov Ilxom Abdujabbor o'g'li, Sotiboldiyev Amiriddin Soxibjon o'g'li

Turizm fakulteti Arxitektura yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarini turli fanlar bilan integratsiyalashda qalamtasvirni o'rni, ta'lim berish usullari hamda qalamtasvir fanida shaklni konstruktiv tahlil qilish haqida manbalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *shakl, konstruktiv, tasviriy san'at, muhandislik grafikasi, integratsiya, fikr, ta'lim, didaktika, o'lcham, orginal.*

Insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o‘tmish kishilaridan qolgan yoki yaratilayotgan boyliklar bo‘lib qolmay, balki o‘zida inson aql-zakovati, hayot to‘g‘risidagi fikr-o‘ylarini aks ettiruvchi ko‘zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o‘rganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish o‘tmish odamlarining his-tuyg‘u, hayotiy tajribalarini o‘rganish g‘oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Bugungi kunning darsliklari dunyo talablari darajasida bo'lishi uchun, boshqa darsliklar bilan integratsiyalashgan holda yozilgan bo'lishi lozim.

Ta’lim berish usuli uch xususiyat bilan tavsiflanadi. U o‘qitish maqsadi, o‘zlashtirish usullari va ta’lim jarayoni sub’ektlarining o‘zaro ta’siri tabiatini ifodalaydi. O’qitish usuli tushunchasi quyidagilarni aks ettiradi: o‘qituvchining ta’lim berish bilan bog‘liq harakatlari majmuasi va ta’lim oluvchilarning o‘quv ishlari usullari hamda har ikkisining o‘zaro aloqadorligi; ularning turli o‘quv maqsadlariga erishish bo‘yicha faoliyati xususiyatlari. Ta’lim berish usullari - bu o‘qituvchi va talabaning didaktik va o‘quv vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirish yo‘llaridir. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan katta hajmdagi kapital qurilishlar, qurilish konstruksiyalaridan samarali foydalanish rivojining juda tez jadallashuviga turtki bo'ldi — konstruksiyalarning turlari va ulardan tayyorlanadigan xomashyolar to'xtovsiz takomillashib bormoqda. Bu so‘zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi. Biz tasvirlayotgan predmetlarni shakli uch o'lchamga (bo'yi, eni, qalinligi) ega.

Boshqacha qilib aytganda u hajmlidir. Ba'zida shundan “hajmli shakl" degan ibora kelib chiqqan. Ba'zida murakkabroq “hajmli fazoviy shakl” iborasi ham ishlatiladi. Bunday aytilgani ancha to'g'ri chunki u shaklning atrof- muhit, borliq bilan uzviyligini bildiradi. Chunki predmet muhitda mavjud bo'libgina qolmay, u bilan har tamondan o'ralib uning ma'lum bo'lagani egallab turadi. Bundan tashqari predmetning turli bo'laklari bizga nisbatan har xil uzoqlikda bo'ladi, ya'ni uning sathi fazoning turli sohalarini egallaydi. Qalamtasvir darslarida naturadan foydalanishning ayrim xususiyatlariga izoh beraylik. Natura, birinchi navbatda, fazoviy tasavvur qilishini yengillashtiradi, chunki tasvirlash jarayoni idrok qilish bilan uyg‘unlashib ketadi; talabalarga predmet shakli va qurilmasi, naturani to‘g‘ri anglash va yetkazib berishda yordam ko‘rsatadi.

Qalamtasvirning tasvirlash vositalari ishlatilishi bo‘yicha tasvir chiziqli va tusli turlarga bo‘linadi. Chiziqli rasm qoidaga ko‘ra och rangli va umumlashtirilgan bo‘ladi. Chiziqlar orqali badiiy obraz yaratiladi. Jadvallar, shartli chizmalar va doskadagi tasvirlar shular jumlasidandir. Tusli tasvirlar muhitdagi buyumning hajmliligi, yorug‘ligi, fakturasi va fazoviy munosabatlarining to‘liq

ta’rifini beradi. Naturadan o'quv-akademik rasm chizishda xomaki rasmlardan ma'lum o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy maqsad ko'zlanadi: maqsad avval olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda boshlovchi rassomni mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish - tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm - avval olingan bilim asosida natura bilan buyum haqida mantiqiy fikrlashdir. Talaba xomaki rasm chizish davomida ushbu natura, uning shakl qurilishi, konstruktiv tuzilishi, anatomik xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zaxirasidan foydalanadi. Bunday rasmlar yorug‘-soyali va tusli rasmlar deb ataladi. Ayrim buyumlar sharpasi va tashqi ko‘rinishi orqali xarakterlidir. Shuning uchun bunday ko‘rinishlarni tasvirlashda ayrim hollarda tusli tasvirning oddiy turi tanlanadi, bu esa siluet deb nomlanadi, ya’ni bir xil tekis tus bilan qoplanib, tashqi ko‘rinish chizig‘i orqali bajariladigan tasvir.

Qalamtasvir bajarish uslubiga ko‘ra asl nusxa (original) va bosma turlarga bo‘linadi. Asl nusxa rasm – rassom tomonidan o‘z qo‘li bilan yaratilgan yagona namuna hisoblanadi. Bosma rasm esa qog‘oz yuzasiga qolipdan tushirilgan rasmdir, u estamp deb yuritiladi. Estampning bir necha ko‘rinishi mavjud: gravyura, lino gravyura, litografika. Qalamtasvir ishlatilishiga ko‘ra akademik va ijodiy tasvirlarga bo‘linadi. Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash o‘quvchilarga, nafaqat, amaliy bilim va ko‘nikmalami beribgina qolmay, balki ulaming umumiy dunyoqarashlarini o‘stirishda katta ahamiyatga ega.

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlarini turli fanlar bilan integratsiyasida:

- tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi mutaxassisini tayyorlash jarayonida qalamtasvir va arxitektura fanining badiiy-grafik vositalarini birlashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash lozim.
- qalamtasvir va arxitektura fanlarini integrativ o’qitish jarayonida me'morning kasbiy tayyorgarligini tashkil etishga qo'yiladigan talablar tizimini aniqlash, bu jarayonning moddiy-fazoviy muhit ob'ektlari va hodisalarining muhim xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga yo'naltirilishini ta'minlash, talabalarning kasbiy faoliyatini faollashtirish uchun asoslash.

- qalamtasvir va arxitektura fanlarini integrativ o’qitish jarayonida sog’lom muhitni tashkil etish uchun iste'molchilarning xohish-istaklari dinamikasini, me'moriy yechimlarning zamonaviy tendentsiyalarini hisobga olishni ta'minlaydigan chizmalar chizish bo'yicha me'morning kasbiy tayyorgarligi mazmunini tanlash va loyihalashtirishning uslubiy vositalarini aniqlash.

- talabalarning ijodiy va qidiruv faoliyatini tashkil etish uchun "tasviriy san’at va muhandislik grafikasi", "arxitektura" fanlarilari bo'yicha integratsiyalashgan vazifalar tizimini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish.

Xulosa shundan iboratki kelajakdagi tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi talabalarini hamda me'morlarning kasbiy o'quv va ijodiy faoliyatining ko'plab jihatlarini integratsiyalashda: badiiy va plastik, ilmiy psixologik va pedagogik, kasbiy ijodiy fikrlashni rivojlantirishga samarali ta'sir qiladi. Arxitektorlarning kasbiy va ijodiy tafakkuri haqiqiy voqelikni rivojlantirishga ilmiy va badiiy yondashuvlarni birlashtiradi, bu esa ularni badiiy tomonlarini ochib beradi. Haqiqiy voqelikni rivojlantirishda rassom ikkita yondashuvdan foydalanadi - oqilona va hissiy-badiiy. Ikkala etr yondashuvlari ham muhimdir, chunki ular badiiy ijodning ajralmas qismidir. Hissiy va badiiy yondashuv badiiy obrazni shakllantirish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqberdiyev B.R., Abbasov I.B. Chizmachilik va dizayn fanini tarixi nazariy va amaliy ahamiyati. 2022 y. 16-20 b. eLIBRARY ID: 48444149 EDN: BTMNYM

2. Haqberdiyev, B. R., & Rustamov, U. (2021). Creative design of buildings and structures.2(09). 76-78

3. Abbasov I.B., Haqberdiyev B.R. The integrated design and engineering graphics subjects described in the design and integration. 2020 y. 121-123- p eLIBRARY ID: 46197548 EDN: HAJUZK

4. Rustamov, U. Q. (2023). Improving the methods of using graphic programs when teaching drawing in engineering graphics. The American Journal of Engineering and Technology, 5(09), 10-12.

5. U.Nasritdinova and B.Khahkberdiyev. Results theoretical study of the form ofa front surface of a chisel-cultivator stand. IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 883 (2020) 012108 doi:10.1088/1757-899X/883/1/012108.

TASVIRIY SAN’AT FANIDA QALAMTASVIR ASOS SIFATIDA. QALAMTASVIR FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI VA TURLI FANLAR BILAN ALOQADORLIGI.

Abdurahmonov Ilxom Abdujabbor o’g’li , Sotiboldiyev Amiriddin Soxibjon o’g’li

Turizm fakulteti Arxitektura yo’nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: *Ushbu tezisda tasviriy san’at va muhandislik fanlarini turli fanlar bilan aloqadorligi, qalamtasvir esa tasviriy san’atni asosi ekanligi, borliqni, uning go‘zalligini tasvirlar hamda ranglar orqali ko‘rish va tasavvur etish, haqiqiy san’at asarini qadrlash, buyumni tekisligida detallarni haqqoniy tasvirlash, qismlar joylarini aniqlash fani mashg'ulotlari ko’rib-kuzatib buyumlami to'g’ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirish haqida qizqa yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *tasviriy san’at, tur, amaliy san’at, chiziq, nur-soya, grafika tasvir, kontur chiziq, shtrix, xromatik-axromatik rang, kompozitsiya, arxitektor, loyiha, madaniyat, fikr, vatanparvar, fazoviy tasavvur, konstruksiya.*

Qalamtasvir – nafaqat tasviriy san’at turlarining asosi hisoblanadi, balki arxitektura va amaliy san’at va uning barcha turlarining ham asosidir. Qalamtasvir - tekis yuzaga qo‘lda chiziq va nursoya (oq-qora bo‘yoq dog‘lari) yordamida ishlangan tasvir, grafika vositalarida qalam, pero va boshqalar yordamida chegara chiziq, kontur chiziq yoki qisqa va yuluq chiziq shtrixlar hamda bo‘yoq dog‘larida bir xil axromatik rangda bajariladi. Arxitektorlar tasviriy san’at turining qaysi janrida ijod qilmasin eng avvalo qalamtasvirga asoslanadi. U o‘zining kuzatishlari, bino va inshoot kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki qoralamalar bilan ifodalaydi. Kompozitsiyalar yaratishda ushbu

qoralamalar arxitektorlarga asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Arxitektor har qanday tasviriy san’at fanida binolarni yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinga estetik zavq bag’ishlaydi 1-rasm. Qalamtasvir fikrni, har qanday kompozitsiya va loyihalash his-tuyg‘u hamda tasavvurni aks ettirish vositasidir.

1-rasm.

Qalamtasvir o‘quv fani ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda o‘zining keng imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu fan san’atkorning dunyosini, borliqni, uning go‘zalligini tasvirlar hamda ranglar orqali ko‘rish va tasavvur etish, haqiqiy san’at asarini qadrlashni o‘rgatadi. Bu fanning bosh maqsadi – insonlarda badiiy madaniyat va badiiy fikrlash tafakkurini yuksaltirish hamda ijodiy faoliyatni tarbiyalashdan iboratdir. Bu borada arxitekturaviy qalamtasvir fanini o‘z oldiga quyadigan maqsad va vazifalarni izohlasak:

– narsani o‘ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o‘zaro solishtirish;

– jismlarni shakl, rangi, materiallik xususiyati bo‘yicha farqlay bilish;

– rasm chizish mashg‘ulotlarida e’tiborli bo‘lish, fikrlab, jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o‘rgatish;

– atrof-muhitdagi ranglarni ko‘ra olish va ularni idrok etishga o‘rgatish;

– badiiy qobiliyat, did va fikrlash faoliyatini o‘rgatish;

– tasviriy san’atning nazariy asoslari: nur-soya, rangshunoslik, perspektiva va fazoviy tasavvurni o‘stirish;

– rangtasvir asarlarini o‘qiy olish va rang ko‘rish malakasi, ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– talabalarni vatanparvarlik, avvolambor milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini tarbiyalash. Qalamtasvir fanini o‘rgatish barcha umumta’lim va turli fanlar bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Qalamtasvir fani uchun kerak bo’ladigan jihozlar:

a) Qog’oz 2-rasm



Qalamlar 3-rasm

b) Ko’miri qalin qalam 4-rasm

c) O’chirg’ich 5-rasm

d) Qalam yo’ng’ich 6-rasm

Har bir buyumni tekisligida detallarni haqqoniy tasvirlash uchun, talabalarga korinib turgan qismi, undagi xos bolgan qo’yidagi barcha xarakterli jihatlari va xususiyatlarini tasavvur etish lozim:

1. Konstruksiya jihatdan tuzlishi. Konstruksiya bu lotin tilidan olingan bo’lib, - tuzilish yoki qurish degan ma’noni bildiradi. Konstruksiyada kerakli qism va elementlarining shakli hamda o‘zaro joylashishi, ularni biriktirish usullari, o‘zaro ta’siri va qanday materiallardan yasalishi hisobga olinadi 7-rasm.

7-rasm

2. Nisbati. Jism tarkibidagi elementlarni, ya’ni qismlar joylarini aniqlashda simmetriya o‘qlari katta ahamiyatga ega. Jism tarkibini aniq bilish va aniq tasavvur qila olish va ma’lum darajada topqirlikni talab qiladi 8-rasm.



8-rasm

3. Hajmi. Tekislikda shakl hajmini tasvirlash qoidalariga to`g`ri amal qilib qalamda ifodalash jarayonida buyumdagi yorug`likning eng kuchli nuqtasi, yorug`lik, yarim soya, aks soya, shaxsiy va tushayotgan soyalarni mohirona ko`rsata olish muhimdir. Buyum hajmini tasvirlashda mo`yqalamda ham qalamdagidek qoyilmaqom qilib ko`rsata olish juda zarur. Tekislikdagi to`g`ri qirrali shakllardagi shtrixlar to`g`ri va parallel, silindr, konus va sharsimon shakllarda esa, chiziqcha yoysimon yo`nalishda berilishi maqsadga muvofiqdir 9-rasm.



9-rasm Qanday materialga ega ekarhigi.

10-rasm Fazoda joylashuvi.

Fanda eskiz chizish (xomaki, qoralama ishlar) strixlash undan ham muhimi rasm chizish ko’nikmalarini oshirishdir 4-rasm. Qalamtasvir boshqa san’at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san’at asari sifatida ham bo'lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajarilgan ko’plab kartinalar jahonning turli san’at muzeyi va ko’rgazmalaridan joy oigan. Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik fani mashg'ulotlari ko’rib-kuzatib buyumlami to'g’ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda nafaqat bo’lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir 10-rasm. Uyg'onish davrining buyuk rassom va olimi Leonardo da Vinchi o’zining “Rangtasvir qonunlari” nomli asarida shunday degan edi: «Yoshlar, o'zlarini ilmfan, tasviriy san’atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo rasm chizishni mukammal bilmdqlan lozimdir».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqberdiyev B.R., Abbasov I.B. Chizmachilik va dizayn fanini tarixi nazariy va amaliy ahamiyati. 2022 y. 16-20 b. eLIBRARY ID: **48444149** EDN: **BTMNYM**

2. Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich Abdurahmonov Ilxom Abdujabbor o’g’li Sotiboldiyev Amiriddin Soxibjon o’g’li Mashınasozlık chızmachılıgıda grafık masalalarnı bajarıshdagı keraklı jıhozlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 556-562

3. Haqberdiyev, B. R., & Rustamov, U. (2021). Creative design of buildings and structures.2(09). 76-78

ZAMONAVIY INTERYER DIZAYNI VA UNDAGI DEKORATIV YONDASHUVLAR XUSUSIDA

Xazratova Zilola Shavkat qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi yo‘nalishi

2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: *Zamonaviy arxitektura-qurilish sohasi jadal o‘sib borayotgan bugungi davrda interyer dizayni alohida e’tiborga molik. Ushbu maqolada interyer dizayni haqida umumiy ma’lumot berish bilan bir qatorda, uning turlari haqida, qurilishdagi ahamiyati hamda inson hayotidagi tutgan o‘rni to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so’zlar: *Interyer, dizayni, jihozlar, uslub, ranglar, xonadon, zamonaviy, minimalizm, texnologiyalar, perspektiva.*

Ushbu maqolada interyer – bu bino va inshoat (turar joy, jamoat va sanoat)larning badiiy bezatilgan va jihozlangan ichkari qismi yoritib berilgan. Tasviriy san’atda interyer mustaqil janr sifatida mavjuddir. Tarixiy, maishiy va zamonaviy mavzudagi badiiy asarlarda interyer fon tariqasida ham ishlatilishi mumkin. Interyer holati orqali xonadon sohibining didi haqida yoki zavod sexini jixozlaganiga qarab ilmiy taraqqiyot holati haqida xulosaga kelish mumkin. Uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. "Teatrdagi interyer har tomonlama ichki jihozlari bilan estetik jihatdan zavod sexidan farq qiladi. Interyer janrida hayotning turli bosqichlarida ko’plab rassomlar ijod

qilishgan, ularning asarlari orqali o‘sha davrdagi qishloq uylari, cherkov, xonani, saroylarni ichki interyerlari orqali qanday holatda bo‘lganini bilamiz".[1-81,bet.]

Ko‘plab shunday realistik san’at asarlarida yozuvchi olimlarning, jamoat arboblarining xonalari tasvirlangan. Natyurmortga nisbatan interyerda chiziq va havo perspektivasining hamma qonunlariga rioya qilinadi. Bu tasvirchini tartibga soladi. Xonani ichki ko‘rinishi natyurmortga nisbatan, har xil balandlikda va masofada joylashgan ko‘p predmetlar gorizontal pol va vertikal devor teksligida joylashgani bilan farq qiladi (mebel, deraza, kartina). "Interyer kompozitsiyasiga xonaning, predmetning konstruksiyasi, perspektiva qisqarishi ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda soya-yorug‘ sharoitlariga qarab tus va «kontrast» rang yechimi ustida mashg‘ulot bajariladi. Interyerda odam figurasi ishtirokisiz ham mavzuni chuqur ifoda etish mumkin".[2-16,bet.] Misol uchun «Maktab kutubxonasi», «Sport zali» kabi kompozitsiya mavzulari bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda dizayner bilan ishlashning ijobiy bir qator ijobiy tomonlari mavjud bo‘lib dizayner zarur material va mebellarni qayerdan sotib olish to‘g‘risida biladi va tanlash uchun katta miqdordagi katalogni taqdim qila oladi. Sizga qurilish do‘konlarini shunchaki aylanishga hojat qolmaydi.

Dizaynersiz ishlashning minus tomonlari: o‘z qimmatli vaqtingizni sarflaysiz, zarur material va mebellarni ko‘rish va tanlash uchun shahardagi o‘nlab do‘konlarni aylanishingizga to‘g‘ri keladi. Xonadonni rejalashtirishda tajribaga ega bo‘lmasdan kundalik hayotda noqulaylik tug‘diradigan xatoliklarga yo‘l qo‘yish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Interyer uslubi to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmasdan siz tanlagan uslubingizga umuman mos bo‘lmagan elementlarni olishingiz mumkin. Barcha do‘konlarda ham yangi zamonaviy va ekologik xavfsiz bo‘lgan material va mebellarni topish mumkin emas. Yangiliklar to‘g‘risida dastlab dizaynerlar biladilar.

Interyer dizayndagi uslublar haqida to‘xtalib o‘tamiz. Zamonaviy ichki dizayn turli xil uslublarni o‘z ichiga oladi. Ular o‘tgan davr davomida shakllangan, xonani loyihalashda nostandart yechimlar bilan ajralib turadi.

Bu tezkor odamlarning ichki olami bo‘lib, kata ma'lumot oqimi va tez o‘zgaruvchan dunyo, xonadon tamirlash va bezashni boshlashdan oldin, uslublar nima ekanligini va ruhga yaqin kishini topish demakdir.

Minimalizm. Ushbu uslub baland shiftli keng xonalarga mos keladi.[3-23,bet.] Bo‘limlar (peregorodkalar) olib tashlanadi. Bo‘shliq yorug‘lik, ranglarning soyalari mebel yordamida ajratilgan. Yorug‘lik devorlar va pollarni qattiq ranglarda oddiy teksturada o‘ynash uchun ko‘p darajali ship.

Jonli ko‘katlar keng qo‘llaniladi: yopiq o‘simliklar, vazalar, guldastalar, ko‘zoynaklardagi gullar. Loft. Loftning ichki dizayni - bu sanoat to‘qimalari, brutal dekoratsiya va ichki qismlarning yo‘qligi. G‘isht devorlari, yalang‘och quvurlar va shamollatish bilan jihozlangan katta xona, minimal mebel, zamonaviy jihozlar - bu loft ichki qismining o‘ziga xos xususiyatlaridir. U eski va yangisini uyg‘unlashtiradi. Siz uchun qulay muhit yaratadi, ayniqsa sizning xonadoningizning maydoni kichik bo'lsa.

Hi-Tech. Bu uslubda metall, shisha, beton, g‘isht, plastmassa yuqori texnologiyali uyning ichki qismida ustunlik qiladi. Asosiy rollarni oq, kulrang, xrom yoki lakdagi qora ranglar o‘ynaydi.

Minimal mebel, ko‘pincha uni o‘zgartirish va ko‘chirish juda oson: divanlar-transformatorlar, yig‘iladigan stollar. Raflar va shkaflar yashiringan. Juda ko‘p yorug‘lik. Asosiy g‘urur - bu eng so‘nggi texnologiyalar, butun dizayn uning atrofida o‘ralgan. Kontemporari. Ushbu uslubda hamma narsa iloji boricha sodda va qulay bo’lishi kerak.[5-105,bet.] Bu nafis klassika va cheklangan minimalizmning simbiozidir. Har bir element aniq belgilangan funksiyani bajarishi kerak. Etnik va klassik elementlar umumiy rasmga yaxshi mos keladi.

Xulosa qilib aytganda uyning ichki dizaynini tanlashda bitta yo‘nalishga rioya qilish yaxshiroqdir. Tamirlash tushunchasi, devor qog‘ozi, mebel, dekorni tanlash bunga bog‘liq bo'ladi. Chiroyli ichki makon hayotni yaxshi tomonga o‘zgartirishga hissa qo‘shadi, kundalik ishdan dam olishga, o‘z uyingizda nafaqaga chiqishga, kuchga ega bo‘lishga, ijobiy his-tuyg‘ular bilan to‘ldirishga imkon beradi. Ishonchli ishlab chiqaruvchidan sifatli mebelga buyurtma berishingiz

mumkin. Interyer dizaynining inson hayotidagi ahamiyati anchayin yuqori. Negaki inson yashar ekan o‘z qarashlaridan, ichki olamidan, dididan kelib chiqib yaxshi muhitda, qulay sharoitda umr kechirishni xohlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova Surayyo Adilovna, "Iteryer va jihozlash" (Toshkent 2020)

2. Добронравова Е.А. "История дизайна" (Ташкент - 2014)

3. https://domtut.uz/uz/blog/interer-dizayni-fotosuratlar-bilan-mashhur-5-ta-uslub

4. Андреева Е. М. "Интерьер в условиях жаркого климата" (Ташкент - 2013)

5. T. A. Hidoyatov, S. A. Kadirova, Y. I. Abdurahmonov "Zamonaviy jihozlash va interyer" (Toshkent - 2012) 213

CHIZMACHILIK DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA INNOVATSION O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Fayziyeva Salomat G’aybullayevna

Termiz davlat Pedagogika institutining

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi o’qituvchisi.

Annotatsiya.*Chizmachilik fanini o‘qitishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o‘zlashtirilishi, ularda amaliy ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishining kafolati bo‘la oladi. Mazkur maqolada shu xususida fikr va mulohazalar berib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *zamonaviy ta’lim, ko’nikma, malaka, talablar, detal, mexanizm.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ko‘plab davlatlar qatori ishlab chiqarish, fan-texnika, ta’lim sohalarida ham ulkan yutuqlarga erishdi. Mamlakatimizda ta’lim rivojining omillaridan biri o‘qitishga yangi zamonaviy

texnologiyalarni joriy etishdir. O‘qituvchi o‘z kasbiy bilimlaridan tashqari, pedagogik-psixologik bilimlarni, yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini o‘z ichiga olgan zarur pedagogik minimumga ham ega bo‘lishi kerak. O’quvchilarda o’rganishga havas, izlash, qidirishga yetaklaydigan masalani yechish jarayoni bilan bog’liq intelektual hislar va ruhiy kechinmalar hosil qiladigan muammoli vaziyat yaratish mumkin ekan. Vazifa quyidagi talablarni qondira oladigan bo’lsagina shu masalaning tub mohiyati bilish muammosiga aylanishi mumkin.

1. O’rganayotgan muammo ustida fikr yuritishda, o’quvchilar uchun bilish (o’rganish) qiyinchiligini tug’dira olsa.

2. O’quvchilarda bilish (o’rganish) har taraflama qiziqish uyg’otsa.

3. 3. Tahlil jarayonida avvalgi tajribasi va bilimlariga suyanilsa.





O’qituvchi dars jarayonida o’quvchilarga mavzuga bo’lgan qiziqishlari so’nayotganini sezib qolsa u vaqtda sun’iy muammoli vaziyat vujudga keltiriladi, hamma o’quvchilarning diqqatini ushbu muammoli vaziyatga jalb qilishi lozim bo’ladi.

Masalan, dars detal (model)ni tahlil qilish mavzusiga bag’ishlangan bo’lsa o’qituvchi o’quvchilarga murojaat qilib -“ Qaysi detalga qirqim berilishi kerak va nima uchun?”, deb savol tashlaydi. Ushbu muammoni yechish uchun o’quvchilar har tomonlama fikr yurita boshlashadi va fikrlash faoliyatida turli javoblar vujudga keladi. O’qituvchi o’quvchilarning javoblaridan eng to’g’risini (agar bilsa) tanlaydi va unga izoh beradi. Shu davr ichida o’quvchilar diqqati mavzuga qaratilganidan foydalanib, darsni davom ettiradi.

Chizmachilik predmeti yoshlarimizga texnik taraqqiyot bilan uyg‘unlashish va u bilan muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Mashina va mexanizmlarda, ularni yaratish va yig'ishda, qismlarni loyihalashda chizma talab qilinadi.



Demak, mamlakatimiz kelajagi rivojida ishtirok etadigan yoshlar uchun rasm chizish darslari zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borilishi shart.



Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan asosiy maqsad o‘quvchilarning o‘tilgan materialni oson o‘zlashtirib olishlari, malakalarini oshirishlaridir

Bunda o’quvchilar chizmachilik darslarida chizayotgan detallarini va mashinasozlik chizmachiligi bo’limidagi modellarni bemalol tahlil qila olish va uni o’qiy olish ko’nikmalariga ega bo’lishlari zarur. Zeroki, chizma dunyodagi barcha millatlar uchun tushunarli til, ya’ni “texnika tili”dir. Pedagogik texnologiya zamonaviy didaktika va pedagogika taraqqiyotining natijasidir. Pedagogikaning

bugungi kungacha mavjud bo'lgan barcha rivojlanayotgan asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy vazifalarni yanada yaxshiroq amalga oshirish yo'lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalarini tashkil etishda muhim talablardan biri - aqliy va jismoniy kuchlarni ortiqcha sarflamasdan, qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida o‘quvchilarga ma’lum nazariy bilimlarni yetkazish, ayrim fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, o‘quvchilar bilimini baholash, amaliy topshiriqlarni bajarishga qiziqishni shakllantirish, o‘qituvchilardan yuqori pedagogik bilimlarga ega bo‘lishni talab qilish. ko'nikmalar, shuningdek, ta'lim jarayoniga yangicha yondashishdir.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalarini tashkil etishda muhim talablardan biri - aqliy va jismoniy kuchlarni ortiqcha sarflamasdan, qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida o‘quvchilarga ma’lum nazariy bilimlarni yetkazish, ayrim fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, o‘quvchilar bilimini baholash, amaliy topshiriqlarni bajarishga qiziqishni shakllantirish, o‘qituvchilardan yuqori pedagogik bilimlarga ega bo‘lishni talab qilish. ko'nikmalar, shuningdek, ta'lim jarayoniga yangicha yondashishdir.

Texnologiyalarni innovatsion texnologiyalar, mashinasozlik texnologiyalari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari deb tasniflash mumkin. Shuning uchun o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'qituvchi o'zining ezgu maqsadini adolatli bajaradigan chizmachilik fanida dars jarayonini yoki mustaqil grafik ishlarni amalga oshirishni tashkil qilish kerak.

Xulosa: O’quvchilarni innovatsion o’qitishda pedagog tomonidan qo‘yilgan muammo yechimini aniqlash jarayoniga albatta ijodiy yondashadi. Ijodiy metod ta’lim oluvchining ijodiy mustaqilligini to‘la amalga oshiradi. Unda o’quvchi o‘qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtda o‘zlari ham o‘quv muammosini shakllantiradi, o‘zlari mustaqil gipotezani yechishga harakat qiladilar, izlanishni amalga oshiradi va pirovard natijaga erishadilar. Ijodiy metod ta’lim

oluvchidagi uzoq vaqtni va maxsus sharoit yaratilishini talab qiladi. Ijodiy metod murakkab muammoni bo‘laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo‘llanadi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini yechishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda o’quvchilar o‘quv mummosining qo‘yilishida, gipotezani taxmin qilish va isbotlashda faol qatnashadilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarini o‘zida qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azizxodjayeva n.n. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. t., “adabiyot jamg'armasi”, 2006.[29,30b]

2. Rahmonov.i, valiyev.a, valiyeva.b, sayidaliyev.s, rasulova.f, dadaboyeva.d, mardov.s “chizmachilikni o’qitishda pedagogik texnologiyalar” t-2012 [34,35b]

3. N.x.gulomova chizmachilik(mashinasozlik chizmachiligi)“fan va texnologiyalar” nashriyoti ,t- 2017 [57,58b]

4. Xalimov m. chizmachilik darslarida yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. - xalq ta`limi jurnali. 2006. 3-son

YURTIMIZ TARIXIY OBIDALARI VA XALQ AMALIY SAN’ATDIA QO‘LLANILADIGAN NAQSH ELEMENTLARNING RAMZIY MA’NOLARI

SUVANKULOV SAYDULLA MAKKAMOVICH

O‘z-FinPI. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi assistenti,

Annotatsiya.*Maqolada yurtimiz tarixiy obidalari va xalq amaliy bezak san’ati namunalarini bezatib kelayotgan, islimiy va girih naqshlarida qo‘llaniladigan elementlarining ramziy ma’nolari tushuntirilib, qisqacha yoritilib o‘tildi.*

Kalit so‘zlar: *naqsh, girih, islimiy, ramz, nisbat, oltin kesim, motiv, gajak, islimiy barg, spiral.*

San’at har doim insonlar uchun o‘z his-tuyg’ularini, fikr g’oyalarini ifodalash usuli bo‘lib kelgan. Sir emaski, go‘zallik san’atning eng asosiy va muhim elementi hisoblanadi. Anashunday go‘zallik baxsh etayotgan, tarixiy m’emorchiligimiz namunalari va xalq amaliy san’atinina ajralmash bo‘lagi bu naqshdir.

“Naqsh” - arabcha «tasvir», «gul» degan ma’noni anglatadi. U qush, hayvon, o‘simlik, geometrik shakl va boshqalar tasvirining ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Me’morchilik va amaliy san’atning barcha turlarida girih, islimiy, gulli girih va ramziy naqshlardan keng foydalanib kelingan. Ushbu naqshni tuzishdan boshlab, yakuniga qadar o‘zining ham ramziy, ham falsafiy ma’no va mazmuniga ega. Shu kabi mazmun bilan qisqacha bo’lsada tanishtirish maqsadida quyida naqsh elementlarining ramziy ma’nolarini yoritib o‘tamiz.

Ko‘p qollaniladigan naqshlardan biri girih bo‘lib, u aksariyat hollarda me’morchilikning ichki va tashqi bezaklari, turli xalq hunarmandchiligi buyumlari, qolaversa yirik nashrlardagi kitoblar uchun ham ishlatiladi. Girihlar geometrik proporsiyalar, “Oltin kesim” qonuniyati, proporsional to‘g’riburchaklar, Pifagor uchburchagi kabi ko‘plab qonuniyatlarga asosan chizilgan[35]. Girih naqshlarini avvalo, musulmon olami aniq fanlari yutuqlarining taqdimoti, deyish mumkin. Girih o‘zaro uyg’un tartib-qoidalarni, borliqning puxta tashkillashtirilgan nizomini, etnik, madaniy turfa-xillik, geografik rang-baranglikni, absolyut kosmik qurilmani ifodalovchi mazmunni aks ettiradi.

Girih naqshida qo‘llaniladigan ayrim elementlarining ramziy ma’nosi: Teng tomonli uchburchak-tik turgan holati-hayotning boshlanishini, teskari turgan holati esa hayotning oxirini bildiradi. Teng yonli uchburchak-yaxlit bo‘lingan bo‘lak, ayriliq. Kvadrat-dunyoning to‘rt tomoni, osmon saroyi, quyosh farzandi, abadiylik. To‘g‘ri to‘rtburchak-ishonch. Romb-ayol, ya’ni ona yer ramzi, serfarzandlik. Aylana-olam, baxt, quyosh, odamlarni yovuz niyatidan qaytarish ramzi. Besh

[35] Булатов. М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XV веков. 2-е изд. -М.: Ноука,1988.

qirrali yulduz-hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo. Yarim aylana-baxt. Yarim oy-islom dinining ramzi. Quyosh - hayot ramzi. Bulut, olov-g‘oliblik ramzi.

Islimiy naqsh go‘zal tabiatga nisbatan iliq tuyg’u, ruhiy yengillik, zavq, olam, jamiyat bilan yaqinlik mazmunini bergan. Islimiy naqshlar ikki qismga ajratilib, to‘lqinli barglar, gullar bilan qoplangan katta va mayda spiralsimon shakllardan tashkil topgan. Asosiy motivlardan islimi, ya’ni spiral va barg (xatai, farangi, abr), domiy ishlatilgan naqshlardan bo‘lgan.

Islimiy naqshda qo‘llaniladigan ayrim elementlarning ma’nolari: Bodom-baxt, iqbol. Baig-bahoigi uyg‘onish. Qalampir-har xil yomonliklardan va yomon ko‘zdan asrash. Zirk guli (gulsafsar)-osoyishtalik va umr uzoqligi. Anor-ezgulik, to‘qchilik, to‘kin-sochinlik. Oygul-baxt, iqbol ramzi. Jingala-to'kin-sochinlik, boylik ramzi. Olma-muhabbat ramzi. Novda boylik va faravonlik. Yaproq-to‘qchilik, bahorgi uyg’onish, navro‘z. Isiriq-yomon ko‘zdan asrash. Atirgul-muhabbat, go‘zallik[36].

Girih va islimiy naqsh elementlaridan tashqari yana qush va hayvonlarning tasvirini ko‘rishimiz mumkinki, ularning naqshdagi ramziy ma’nolari quyidagicha ta’riflanadi: Sher-mardlik, jasorat va kuch. Tulki-makkorlik. Chumoli-donishmaitdlik, xoskorlik ramzi. Bulbul-sadoqat. Humo-baxt keltiruvchi qush. Boyqush-hushyorlik. Sichqon-uy hayvonlarining ko‘payishi. Echki-jasurlik, mardlik, pokizalik. Oq kabutar-tinchlik. Ohu-go‘zallik, himoyasizlik, noziklik.

Islimiy bargning o‘ziga kelsak, u islom san’atida ilohiy olam, go‘zallik, jannat bog’i ramzi hisoblangan. Uning abstrakt shaklda bo‘lishi, ya’ni dunyodagi real barglarga o‘xshamasligi san’atning zaruriy sharti edi.

Islimiy naqsh - egri chiziqli gulli naqsh bo‘lib, u qadar qat’iy bo‘lmagan naqshosti geometrik asoslarga amal qiladi, asosan spiral shaklidagi pechak yoki uzum tok novdasi, gul va barg kabi motivlardan tarkib topadi. Islom bezak san’atida ornamentlar muqaddas bilimlarni yetkazuvchi til bo‘lib xizmat qiladi[37].

[36] Saidahbor Bulatov, Asrol Mxtorov. “Ganchkorlik san’ati”. “Musiqa” nashriyoti. Toshkent 2006.

[37] M. S. Saipova. O’zbekiston o’rta asrlar me’moriy bezaklarida ramziy ifodalarning rivojlanishi. Arxitektura bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent. 2021.

Xulosa.Maqolada yurtimizning mavjud me’moriy yodgorliklari va xalq amaliy san’ati namunalaridan olingan naqsh namunalari asosida ma’lumotlar yoritildi, bir qator grafik tasvirlarni va naqshlarni tuzish tizimi haqidagi mulohazalarni o‘z ichiga olib, biz naqshlarda ko‘p ham e’tibor bermaydigan jihatlardan biri oddiy elementlarning o‘z ramziy ma’nolari orqali takrorlanmas murakkab go‘zalliklar yaratishi mumkinligi haqida qisqacha yoritilib berildi.

Aynan shu naqsh elementlarida insonni kundalik hayotida o‘rab turgan, uning ongi va ruhiy holatiga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan diniy-ma’naviy tamoyillar muhrlangan. Naqsh elementlari barcha insonlarni, turli madaniyatlarni aynan o‘ziga xosligi bilan birlashtiruvchi yagona til bo‘lib xizmat qilishi, yurtimizga turizm maqsadida tashrif buyuruvchi o‘zga millat vakillarini jozibador naqshlarimiz o‘ziga mahliyo qilishini yorqin misol qilishimiz mumkin deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bulatov. M.S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture sredney azii IX-XV vekov.-2-ye izd. -M.: nouka,1988.

2. Saidahbor Bulatov, Asrol Muxtorov. “Ganchkorlik san’ati”. “Musiqa” nashriyoti. Toshkent 2006.

3. M. S. Saipova. o’zbekiston o’rta asrlar me’moriy bezaklarida ramziy ifodalarning rivojlanishi. arxitektura bo’yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi avtoreferati. toshkent. 2021.

MUSAVVIR BEHZOD VA TARBIYA, BILIM, MAHORAT

Iqboljon Ilhomov

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti

“Sanoat dizayn” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Tarixdan ma’lumki, Behzod asarlarining ta’siri O’rta Osiyo xalqlari, Yaqin va O’rta sharq mamlakatlari, Ozarbayjon, Eron, Hind xalqlaridagi miniatyura chizuvchi rassomlarni ham ilhomlantirdi. Behzod portret janrining boshlovchisi va mohir ustasi bo’lgan. Behzod Abdurahmon Jomiy,*

Abdulloh Hotifiy, Sulton Husayn Boyqaro, Shayboniyxon kabi tarixiy shaxslarning portretlarini chizgan. Maqola musavvir Kamoliddin Behzod hayoti va talabalarga estetik tarbiya bo'yicha dars berish metodikasi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: *Kamoliddin Behzod, xattot, musavvir, miniatyura, naqqosh, portret, rassom, naqqosh, hunarmand, tarbiya, bilim.*

Hozirgi kunlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning ma'lum yo'nalishlaridan biri ta'lim tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Chunki, o'z kelajagini o'ylagan har bir xalq, millat yosh avlodning fazilatlari haqida qayg'urishi tabiiydir. Biz har doim mustaqillik, ozodlik g'oyalari haqida fikr yuritganimizda, mustaqilligimizning abadiy bo'lishini va uning kelajak avlodlarga yetkazishimizda san'atning roli juda kattaligini anglashimiz lozim.

Mustaqil O'zbekistonimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etgan holda, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevori qurilmoqdaki, unda adabiyot, san'atning barcha jabhalarida katta o'zgarishlar bo'lmoqda, shu bilan birga keng qamrovli islohotlar ta'lim yo'nalishlarida olib borilmoqda. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning ilk yillarida tarixchi olimlar bilan uchrashuvida o'rtaga tashlagan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»[1] degan g'oyaviy konsepsiyasi asos bo'ldi. Tariximizni haqqoniy yoritishda xalqimizning yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qadimiy shaharlarimizdagi yodgorliklar, obidalar, inshootlarni qayta qurish, ta'mirlash, asl holida saqlab qolish va ularni keyingi avlodlarga yetkazish kabi ishlarga alohida e'tibor berildi. Davlatimiz rahbarining 2024 yil 2 fevraldagi №PQ-54 raqamli «Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi» qarorida[2] ta'lim musaassalarida ishlayotgan barcha o'qituvchilar oldiga bir qancha dolzarb masalalarni qo'ydilar. Bunda ta'lim sohasida olib borilgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta''lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyaini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash maqsad qilib olingan.

Hozirgi zamon talabi milliy istiqlol g’oyasini amalga oshirish sohasidagi talablarni o’z ishining ustasi bo’lishi kerakligi dolzarb bo’lib kelmoqda. Shuning uchun ham oliy ta’lim tizimining bakalavr ta’lim yo’nalishi pedagogika fakul’tetlarida bo’lg’usi talabalarga estetik tarbiya berish muhim pedagogik muammo sifatida e’tirof etiladi. O’rta Sharq mamlakatlarida badiiy bezatilgan qadimgi qo’lyozmalarga oid ilk ma’lumotlar bizning eramizgacha bo’lgan VII-VI asrlarga tegishlidirki, undan beri bu yerlarda taraqqiyot har biri o’ziga xos, bir necha bosqichlarni bosib o’tdi. Uslublar, estetik ideallar o’zgardi, bu hol tabiiy ravishda kitob bezash san’atida aks etdi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Kamoliddin Behzod davridagi Hirot madaniyatining yuksalishi va gullab - yashnashi o’z-o’zidan bo’sh joyda paydo bo’lmadi. Balki XIV asrning ikkinchi va XV asrning birinchi yarmida Temur va Ulug’bek davrida Samarqand, Hirot va Sherozdagi saroy kitobxonalarida ko’plab xattot, naqqosh, musavvirlarning to’planishi, o’nlab ziynatlangan qo’lyozma kitoblar tayyorlanishi Behzod, Sulton Ali kabilarning ijodiy kamolottiga zamin xozirladi. Bu davr san’atiga xos bo’lgan hayotiylik xalqchillikni tasviriy san’at asarlari xalq uchun yaratildi, xalq orasida keng tarqaldi, degan ma’noda tushunmaslik kerak. Avvalo san’at namunalarini yaratuvchilar ko’pincha mehnatkash xalq orasidan chiqqan kishilar bo’lib, «Ular o’z ijodlarida umumxalq ideallari, estetik qarashlari, go’zallik haqidagi tasavvurlarini aks ettirganlar»[3]ini ko’ramiz degan edi san’atshunos olimlardan Pugachenkova G.A. Rempel’.

Miniatyurachi rassomlar, shuningdek, XV asrning birinchi yarmida miniatyura san’ati uchun «Xamsa» dan ham syujet (mavzu)lar tanlab olishgan. «Layli va Majnun», «Xusrav va Shirin» dostonlari ko’plab rasmlar bilan bezatilgan. Rasmlarda tasvirlangan lavhalar orasida «Layli va Majnun sahroda», «Layli va Majnun maktabda», «Shirin va Farhod anhor bo’yida», «Bahrom Go’r ajdaho bilan kurashda», « Bahrom Go’r yetti go’zal shiyponida» va boshqalar bor. Sa’diy asarlarida «Shom podshohining darvishlar bilan suhbati», «Darvishlar raqsi», «Doro podshoh cho’ponlar orasida» lavhalari ko’pgina rasmlar bilan bezatilgan. Behzod ijodi miniatyura san’atining rivojiga, u O’rta Sharqda tasviriy

san’at bo’lib qolishiga kuchli rag’bat berdi. Mumtoz tarixchi Xondamir Behzod 23 yoshidayoq o’z ustozi Mirak Naqqosh ijodiyotining davomchisi, yetuk miniatyurachi rassom bo’lib yetishganligini ta’kidlaydi.[4]

XV asrda o’rtasida Hirotda portret janrining turli xil ko’rinishlari shakllandi: bir kishilik yoki guruhli qilib chizish va portretni manzara bilan bog’lab ishlash. Kamoliddin Behzod chizgan rasmlarida ham boshqa musavvir kabi odamlarning harakatlari, qushlarning uchib ketayotganligi, jang vaqtlari, bog’da, ovda, donishmandlarning suhbat jarayonlari tasvirlanganligini ko’ramiz. Musavvir Behzod portret janrining boshlovchisi va mohir ustasi bo’lgan. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulloh Hotifiy, Sulton Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon kabi tarixiy shaxslarning portretlari Behzod mo’yqalami tufayligina bizgacha yetib kelgan. Musavvir Behzod portret janrini takomillashtirdi va rivojlantirdi. Shuning uchun san’atda qahramon konsepsiyasi ob’yekt bilan su’yektiv voqeliklarni baholash va uni ijodiy o’zlashtirishga qaratilgan estetik tarbiya prinsiplari usullarida ruhan shakllantirish orqali jamiyatning ma’naviy hayotida musavvirlar tomonidan yaratilgan insonlar obrazida aks etganligini ko’ramiz. O’zbekiston tasviriy san’atining portret janrida asarlar yaratgan, O’zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullayev “Inson qiyofasi bilangina emas,- deydi rassom,- balki aqli bilan ham go’zaldir. Biz rassomlar esa kishi psixologiyasini biladigan odamshunos bo’lishimiz kerak”.[5] degan so’zlarida qanchalik katta hikmat bor. Miniatyura san’atidagi portret, shartli darajada bo’lsa ham tasvirlanayotgan shaxsning jussasi va ruhiyatini aniq ko’rsatib bera olmasa-da, uning o’ziga xos jihatlarini ko’rsatish hamda uning kimligini harakatlar orqali ifodalash imkonini beradi. Shuning uchun ham portretning turli janrlari paydo bo’la boshlagan. XV asrning oxirgi choragidagi Hirot miniatyurasida Behzodning iste’dodi tufayli portretlarning asosan uch janri ishlab chiqilgan: 1) alohida varaqdagi portretlar bo’lib, unda odamlar oq fonda, muayyan maktab miniatyuralarida tasvirlangan toifalarga o’xshab qiyofadagi miniatyuralar qahramonlar ko’rsatishida aks ettirilgan; 2) portret - surat, unda aks ettirilgan shaxs muayyan muhitda tasvirlangan: bog’da yoki saroydagi bazmda, ovda yoki

jang maydonida, ba’zan mashhur adabiy qahramon qiyofasida; 3) portret - karikatura – bu portretning yangi janri bo’lib, u orqali rassom o’z homiysini kuldirishga harakat qilganligini ko’rishimiz mumkin.[6] XV asr miniatyura san’atining oltin davri hisoblanadi. Behzod Hirot nafis tasviriy san’at maktabida eng ulkan ustoz musavvir edikim, uning shogirdlari go’zal miniatyurasozlik san’atini butun jahon bo’ylab tarqatdilar. O’tmish ajdodlarimizni san’atiga sodiq qolgan holda zamonaviy asarlari bilan O’zbekiston tasviriy san’atiga g’oyatda katta hissa qo’shganlardan biri O’zbekiston halq rassomi Chingiz Ahmarov Kamoliddin Behzod ijodi haqida o’lmas asarlar yaratdi. Darhaqiqat, Kamoliddin Behzod asarlaridagi g’oyalarni yosh avlodga yetkazish estetik tarbiyasini yuqori darajaga oshirilishida yangi metod, uslublardan va zamonaviy ilmiy texnik vositalardan foydalanish, buyuk musavvir meros qilib qoldirgan ulkan madaniyatdan foydalanib, talaba yoshlarni fikrlarini e’tiborga olish bilan birga ularga go’zallik haqida tushunchalar bermog’i lozim.

Albatta, estetik tarbiyani amalga oshirishda estetik idrok etish birinchi navbatda turadi. Talabalarda Vatanga sadoqat, o’qishga, burchni bajarishga vijdonan yondashish, yuksak darajaligi kasbiy bilimlarni egallashi zarur bo’lgan estetik tarbiya sifatlarni tarbiyalash, ta’lim samaradorligini oshirishda bilim, ko’nikmalarni shakllantirish, o’z ustida ishlash orqali tarixiy merosga bo’lgan estetik qarashlarni shakllantirish orqali talaba-yoshlarni milliy an’analar va qadriyatlar bilan tanishtirib borish orqali talaba-yoshlarda estetik tarbiyani uyg’otish muhim sanaladi.

Estetik tarbiya[7] - talabalarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go’zalliklarini anglash, idrok etish va to’g’ri tushunishga o’rgatish, ularning badiiy didini o’stirish, ularda go’zallikka muhabbat uyg’otish, ular tomonidan go’zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon. Qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va muloxazalarni tarbiyalashni o’z ichiga oladi. Bular o’yin, mehnat jarayonlarida, maishiy faoliyatdv, ijtimoiy va tabiat voqealari bilavn tanishtirish

orqali, san’at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berishdan iborat. Estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

- badiiy adabiyot, tabiat, mehnat;
- insonlarni o’rab turgan muhit, turmush estetikasi;
- tabiat manzalaridan olingan taassurotlar;
- san’at asarlari;
- o’quvchining tasviriy faoliyatlari;
- bayramlar, ko’ngil ochar tadbirlar, urf-odatlar va an’analar;
-ta’lim maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshirilgan tadbirlar.

Bunday ta’lim – tarbiya va go’zallik muhiti insonlarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi.[8] Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarini yaqqol ko’rinib turgan materialni analiz va sintez qilishga o’rgatish, miniatyura asarlarini analiz qila olishlari va tasvirdagi xodisalarga o’z munosabat bildira olish sifatini shakllantirish. Hozirgi pedagogik texnologiyalar tizimida ixcham, oddiy qo’llash ancha osonligi bilan “Munozara”, “Klaster”, “Aqliy hujum” keng qo’llanilib kelmoqda. Dars jarayonida talaba-o’quvchilarga slayd yoki rasmli plakatlar orqali o’tish maqsadga muvofiq bo’ladi va ularda mashg’ulotga bo’lgan qiziqish ortadi, tarix haqida bilimlari kengayadi. Talaba-o’quvchilarda Kamoliddin Behzodning miniatyura asarlaridagi estetik tarbiyaga oid g’oyaviy qarashlarini bilishga, ularning mustaqil bilim olishlariga bo’lgan qiziqish shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev SH. «Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi» qarori. Toshkent - 2024. 223-bet.

2. Pugachenkova G.A. Rempel’ L.I. Istoriya iskusstv Uzbekistana. M.1965.

3. Qosimov R. S. Saidqosimov. A.Ahmedov. B.Ahmedov. Amir Temur jahon tarixida. “SHARQ” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2006. -196 b.

4. Mahmudov T. YA.Olimov. O’zbekiston san’atida inson omili. G’ofur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1988.105 b.

5. Gorelik M.V. Portreti Bexzoda/ K voprosu o tvorcheskom metode: sb. dokladov // Iskussivo i arxeologiya Irana. Vsesoyuznaya konferensiya 1969. M.; nauka, 1971, 111- 121 b.

6. Inoyatov U., Muslimov N., Ro’ziyeva D., Usmonboyeva M. Pedagogika. (nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik) Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent-2016. 65 b.

7. Umarov E. Karimov R. Mirsaidova M. Oyxodjayeva G’. Estetika asoslari. Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2004. 108 - 109 b.

8. Madraimov A. Normatov N. Sharq miniatyura maktablari. Nafosat olami. G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent:. 1989 y. 6 b.

9. Bobur Z.M. Boburnoma. Toshkent. 1960. 233 b.

10. Kuryazova D.T., Gaipova M.T. Miniatyura san’ati tarixidan. Kamoliddin Behzod ijodi - jahon olimlari nigohida” mavzusidagi Xalqaro ilmiy anjuman. // .- T.: Zamon poligraf nashriyoti, 2022. 122 b.

11. Murodov A. O’rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan.T.: 1971. 22 b.

12. Sulaymonov H. Sulaymonova F. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar.

XV-XIX asrlar.O’zbekiston. “Fan” nashriyoti. Toshkent. 1982. 7 b.

CHIZMACHILIKNI FANINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI SHAKILLANTIRISH USULLARI.

Jalilov Jonibek Ma’ruf o‘g‘li.

Annotatsiya. *Maqolada chizmachilik fanini o‘qitishda o‘quvchilarda geometrik shakl chizmasini chizilishi va o‘qish ko’nikmasini rivojlantirishning nazariy masalalariga oid metodik tavsiyalar, chizmachilik fanidagi o‘quvchilarni grafik savodxonligini shakillantirishda AKTdan foydalanib masalalarning*

yo‘nalishi va ko‘rinishlari hamda fazoviy tafakkur qilish orqali fazoviy tasavvurni o‘stirishga oid sodda loyihalash masalalari keltirilgan. Shuningdek, talabalarnining chizmachilik fanidagi grafik savodxonligini shakillantirish jarayonida fazoviy tasavvurini rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. *chizmachilik, loyihalash, grafik savodxonlik, geometrik jism, konstruksiyalash, model, tasavvur, ijodiy izlanish, Power Point, AutoCAD.*

Shiddat bilan rivojlanayotgan va har soatda o‘zgarib borayotgan bugungi zamonda intelektual salohiyatli va kreativlik darajasi yuqori kadrlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Buni hisobga olgan holda mamlakatimizda ta’lim sohasiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “yangi fikr va yangi g‘oya bo‘lmasa, taraqqiyot ham, innovatsiya ham yo‘q” mazmunidagi mulohaza va talabni keskin qo‘ymoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalaridan birida “…nafaqat akademik ilm-fanni, balki oliy o‘quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi” deya ta’kidladilar. Mamlakatimizda qurilish, ishlab chiqarish va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish sohalariga katta investitsiyalar kiritilmoqda. Bu sohalarda ishlaydigan malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Bunday mutaxassislarning tasavvuri va tafakkuri keng, kreativlik darajasi yuqori bo‘lishi lozim. Ta’lim muassasalaridagi asosiy e’tibor mana shunday iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni sohalarga to‘g‘ri yo‘naltirish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Chizmachilik fanida grafik ish deganda o‘quvchi mavzu doirasida ma’lum berilgan shart asosida, belgilangan standart o‘quvchilariga rioya qilgan holda, qayta tiklash xususiyatini o‘zida aks ettirgan va mustaqil tarzda bajargan chizma tushuniladi. Grafik savodxonlik deganda o‘quvchining mavjud yoki hali mavhum bo‘lgan buyumning chizmasini tuzish va o‘qish darajasi tushuniladi. Chizmachilik fanidan o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun dastlab, ularni masalalar yechishga jalb qilish va o‘qish faoliyatini ma’lum darajada rivojlantirish kerak. Keyin ularda mustaqil fikrlashni, faollikni, tashabbuskorlikni, mustaqil

bilim olish koʻnikmasini, ijodkorlikni kuchaytirish lozim. Songra talabalar uchun bilish faoliyatining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish zarur. Bundan koʻrinib turibdiki, oʻqish-oʻrganishda talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish ijodiy izlanish talab qiladigan masalalarda, konstruktiv loyihalash masalalarida oʻz aksini tezroq topadi.

Umumiy oʻrta ta'lim maktablarida chizmachilik fanini oʻqitishning asosiy maqsadi oʻquvchilarni murakkab bo'lmagan texnik chizmalarni bajarish, uni oʻqish va oʻz fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga oʻrgatishdan iboratdir. Chizmachilik darslarida AKTdan foydalanib oʻquvchilarni fazoviy tasavvurini rivojlantirish va ijodiy jarayonga yoʻnaltirish yoʻllari quyidagi mazmunda boʻladi.

Birinchidan, Power Point va AutoCAD dasturlari asosida taqdimot tayyorlanib, biror detalning chizmasini yasash va uning berilgan chizmasini oʻqishga doir topshiriqni bajarish orqali ularga tanish boʻlgan detalning geometrik shaklini fikran aniq tasavvur qila bilish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Ikkinchidan, Power Point va AutoCAD dasturlari asosida oʻquvchilarning fazoviy tasavvur bazasini kengaytirish. Chizmachilik fanidan oʻquv topishriqlarni bajarish jarayonida fazoviy tasavvurlarning toʻplangan zaxiralari asosida Power Point va AutoCAD dasturlarida animatsiyalardan foydalanib, ijodiy masalalar tuzish va uning yechilish yoʻlini ketma ketlikda bajarishga asoslanadi. Oʻquvchilarni chizmachilik faniga boʻlgan qiziqishlarini oshirishda grafik vazifalar katta rol oʻynaydi. Power Point va AutoCAD dasturlarida chizmachilik fanini oʻqitishda grafik tasvir bilan bogʻliq boʻlgan masalalarning hammasi grafik masalalar deyiladi. Grafik vazifalar mavzular boʻyicha optimal darajada ishlab chiqilgan sistemadan iborat bo'ladi. Oʻquv dasturida koʻrsatilgan umumiy xarakterdagi grafik vazifalarni murakkabligiga qarab aniqlashtirish lozim.

1-grafik masala. Berilgan teshikdan tigʻiz oʻtadigan detallarni loyihalang (1-rasm, a). Talaba mazkur teshikdan tigʻiz oʻtadigan bir nechta detallar loyihalashi uchun geometrik sirtlar kombinatsiyasini tuzishi kerak boʻladi. 1- rasm, b da 6 ta variantda mayechim keltirilgan.



a) **1-rasm** b)



2-grafik masala. *Texnik rasmda yetishmovchi chiziqlari bilan berilgan modelning turli shakllarini loyihalang, ya'ni buyumning texnik rasmi yakunlang.*



2- rasm

Bunda talaba bir nechta variantda yechim aniqlash uchu loyihalash jarayoni bilan mashg‘ul bo‘ladi (2- rasm). Buning uchgun talabadan buyum chizmasini tuzish va uni o‘qish ko‘nikmasi, fazoviy tasavvur, tafakkur, ijodiy fikrlash, ijod namunasini grafik tarzda aks ettirish ko‘nikmasi talab etiladi.

				
1-yechim	**2-yechim**	**3-yechim**	**4-yechim**	**5-yechim**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonov I., Qirg„izboyeva N., Ashirboyev A., Valiyev A., Nigmanov B. Chizmachilik. –T.: “Voris-nashriyot”, 2016-456 b.

2. Valiyev A.N. v/b “Chizmachilikda konstruksiyalash asoslari”. –T.: “TDPU rizografi”. 2013-y.

3. Ro‟ziyev E.I., Ashirboyev A.O. “Muhandislik grafikasini o‟qitish metodikasi”. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2010-y.

LOYIHALASH MASALALARINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK VA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI.

Jalilov Jonibek Ma’ruf o‘g‘li

Annotatsiya. *Maqolada chizmachilik fanini o‘qitishda o‘quvchilarda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarga innovatsion texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari to‘g‘risida tushuncha berish, interfaol metodlar va ularni qo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar*

Kalit so‘zlar. chizmachilik, loyihalash, grafik savodxonlik, konstruksiyalash, model, metodika, tasavvur, ijodiy izlanish, pedagogik texnologiya, innovatsion ta’lim .

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida “ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashgan yondashuv”, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning 4- bo‘limidagi “Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari” bandida esa “… ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ta’limning yangi shakl va uslublari, o‘quv, shu jumladan differensiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etilishi” - belgilab qo‘yilgan.

Masalan: shu nuqtai-nazardan yondashilganda respublikamizning ta’lim muassasalari, ayniqsa, mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi oliy ta’lim muassasalari oldida qo‘yilgan mazkur ijtimoiy buyurtma oliy ta’lim auditoriyalarida tahsil ko‘rayotgan bo‘lajak pedagog – tarbiyachilarni innovatsion pedagogik texnologiyalarning mohiyati va mazmuni bilan tanishtirishni, ularni

amalda qo‘llashning amaliy ko‘nikma va malakalari bilan qurollantirishni dolzarb masala qilib qo‘yayotganligi ko‘zga tashlanadi.

Shunga ko‘ra ayni paytda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarga innovatsion texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari to‘g‘risida tushuncha berish, interfaol metodlar va ularni qo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hozirgi kun talabidir.

Pedagogik texnologiya - bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘quvchi (talaba)larga o‘qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya.

Innovatsion ta’lim (ingl. “*innovation*” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar..

Ta’lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar:

- muammoli o‘qitish;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar;
- rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari;
- o‘yinli texnologiyalar;
- o‘qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi;
- programmalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi;
- kompyuter-axborot texnologiyalari.

Hozirda talabalarning darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga, tanqidiy tafakkurini oʻstirishga qaratilgan interaktiv ta’lim olishlariga koʻmak beruvchi innovatsion usullardan, guruhli ta’lim shakllaridan keng foydalanilmoqda.

“Kichik guruhlarda fazoviy tasavvurlarini hamda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi”ning amaliy tatbigʻi. Chizmachilik fanini oʻrganishning pirovard natijasi oʻquvchilarda grafik savodxonlik, ijodkorlik, konstruktorlik, estetik didlilik kabi jihatlarning oʻzaro uygʻunlikda skallanishiga erishishdir. Insonda bu jihatlarning boʻlishi, uning zamonaviy salohiyat va madaniyatga ega boʻlishiga katta xizmat qiladi.

Ushbu materialda “*Tarkibida loyihalash elementlari boʻlgan ijodiy grafik masalalar*” mavzusini “*Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi*” yordamida tashkil etish koʻrsatib oʻtilgan. Bu hamkorlikda oʻqitish texnologiyasining bir metodi hisoblanadi.

Bu metod professor Sh.Sharon tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda koʻproq oʻquvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e’tibor qaratilgan. Oʻquvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib borishadi. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda oʻrganish lozim boʻlgan oʻquv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir oʻquvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir oʻquvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga oʻz hissasini qoʻshadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara oʻtkaziladi. Guruh a’zolari birgalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf oʻquvchilari oʻrtasida oʻz ijodiy izlanishlari natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar oʻrtasida oʻtkaziladigan oʻquv bahsi, munozara oʻquvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni hisoblanadi.

Hamkorlikda ishlash natijasida qoʻlga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir oʻquvchining muntzam va faol aqliy mehnat qilishga, kichik guruhlarni umuman, sinf jamoasini jipslashtirishga, avval oʻzlashtirilagan bilim,

ko‘nikma va malakalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo‘llanilib, yangi bilimlarning o‘zlashtirilishiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘quvchilar alohida-alohida (individual) yoki kichik 6 nafargacha kishilik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar.

Quyida ushbu metod uchun tavsiya beradigan o‘quv materiali taklif etiladi. Kichik guruhlar soniga qarab o‘quv topshiriqlari tuziladi.

1. Modelning geometriyasini qisman o‘zgartirish (masalan, 1-rasm).



1-rasm

2. Modelning fazoviy holatini o‘zgartirish (masalan, 1.1-rasm).

1.1-rasm

3. Modelning shaklini razmetka chizig‘i bo‘yicha o‘zgartirish (masalan, 1.2-rasm).



1.2-rasm

4. Modelning shakli uchta teshikdan tirqish (zazor)siz o‘tadigan qilib loyihalansin (masalan, 1.3-rasm).



1.3-rasm

5. Modelning chiqiq qismi uning asosi hisobiga huddi o‘shanday o‘lcham va shakldagi chuqurchaga almashtirish (masalan, 5-rasm).



Topshiriqlarning didaktik maqsadi: xalq xo‘jaligining turli sohalarida yangi buyumlar ixtiro qilish yoki amaldagilarni takomillashtirish yoki qayta ishlab chiqarishni loyihalashga o‘rgatish.

Yuqorida keltirilgan rasmlarda topshiriqning yechimlari berilgan. Biroq topshiriq javoblari o‘quvchilarga e’lon qilinmaydi. Ya’ni ular topshiriq yechimmini o‘zlari mustaqil ravishda aniqlashlari lozim bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.Ruziyevning “O‘quvchilar grafik tayyorgarligi samaradorligini oshirish” (T. “Xalq ta’limi”, 1997, 4-soni,)

2. E.Ruziyevning “Chizmachilik va tasviriy san’at” mutaxassisligi uchun diplom loyihalarini bajarish bo‘yicha metodik qo‘llanma” sida (T. 1999.)

3. E.Ruziyev va boshqalarning “Maktabda chizmachilikni o‘qitishda gumanitar, politexnik va ijodiy yo‘nalishlarni amalga oshirishning metodik usullari” (T. “Pedagogik tadqiqotlar” UrDU, 2007.)

4. E.Ruziyev va boshqalarning “Grafik savodxonlik va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish muammolari” (Urganch: “Pedagogik tadqiqotlar”, 2013, UrDU,)

TASVIRIY SAN’ATDAN MALAKALI PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHNING NAZARIY ASOLARI

Botir Boltabayevich Baymetov,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori,

Unarova Yorqinoy Norbayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti,

Annotatsiya: *Maqola tasviriy san'atdan malakali pedagog kadrlar tayyorlashda natyurmort kompozitsiyasining nazariy asoslari, badiiy asar shakllantirishda uning qonunlari, metodikasi va uning tarixiy rivojlanish bosqichlari xaqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek unda talabalarga natyurmort asarini yaratishdaning qonun-qoidalarini o'rgatishning usullari ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, natyurmort, rangtasvir, kompozitsiya, badiiy ijod, kompozitsion yaxlitlik, ritm, rang, kolorit.*

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoshlarimizning xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda faol muloqotda bo'lishi, ularning o'z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etishi uchun katta imkoniyat yaratilmoqda. Shu sababli mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan pedagog-olimlar tomonidan bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashga, ularning pedagogik mahoratlarini tizimli tarzda rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bularning barchasidan yagona bir maqsad– O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlarni raqobatbardosh tarzda tayyorlashni nazarda tutadi. Bugungi kunda kreativlilik va innovatsion texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni olib boruvchi mahoratli pedagoglarga katta mas'uliyatlar yuklanmoqda. Yuqoridagi talablar bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini globallashuv jarayoni talablari asosida takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish [1] oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bugungi kunda mamlakatimiz viloyatlarning barcha oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlaydigan fakultetlari va bo'limlari mavjud bo'lib, uning "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishida tasviriy san'atning bir qancha fanlari o'qitilib kelinmoqda. Ular orasida barcha san'at turlari va janrlarini bog'lab turuvchi kompozitsiya fani va

uning ajralmas qismi bo‘lgan natyurmor janri asosiy hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik jarayonida o‘z o‘quvchilarining ijodiy qobilyatlarini va badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim hisoblanidi. Oliy pedagogik ta’limda talabalarga natyurmort kompozitsiyasini o‘qitishning asosiy maqsadi bo‘lajak mutaxassisning ijodiy maxoratini oshirish, nafosat tarbiyasining muhim omillaridan biri bo‘lgan tasviriy san’atning sir-asrorlaridan xabardor qilishdan iboratdir. Har qanday ijodkor qadimda yashab ijod qilgan tasviriy san’at ustalari merosini va tajribalarini o‘rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta’sir etuvchi tasvir qonunlari va uslubiyatini ham o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak. Tasviriy san’at amaliyotida kompozitsiyaning zarur unsurlari va uslubiy jihatlari mavjud. Uning asosiy komponentlari bo‘lgan yorug‘-soya, rang yechimi hamda uning jozibadorligi, chiziq turlari, tus munosabatlarining ketma-ket takrorlanib uzviylik xosil qilishi, shakllarning katta va kichik o‘lcham nisbatlari bilan belgilanadigan perspektiva o‘zgarishlari birgalikda asar mazmunini ochib beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tasviriy san’atning natyurmort kompozitsiyani o‘rganishda G’arb va Sharq tasviriy san’ati maktabi va ijodkorlari asarlaridan bir qanchasining namunalari misol bo‘lishi mumkin. Misol uchun taniqli rassomlaridan K. Korovin I. Shishkin,I. Levitan, V. Surikov, P. Konchalovskiy, I.Repin, V.Surikov, P.Benkov, R. Axmedov, M.Nabiyev, G’.Abdurahmonov va boshqalarning san’at asarlarini keltirib o‘tishimiz mumkinTalabani badiiy asar kompozitsiyasini yaratishga o‘rgatish jarayonida unga har bir ijodkorga hos bo‘lgan his-hayojon, shakllarni ko‘rish va kuzatish jarayonida qanday qabul qilishiga qarab turli metodlardan foydalanib o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun talabaga badiiy asar kompozitsiyasini tuzishda atrof-muhitni kuzatish, insonlarning xayoti va faoliyat jarayonlarini o‘rganib, ular asosida qisqa muddali chizgilar bajarish orqali ijodiy izlanish jarayoniga tayyorlashni talab etadi.

Ma’lumki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda tasviriy san’atning natyurmort janrida kompozitsiyalar ishlash va uning amaliy va nazariy mashg‘ulotlarda talabalarda borliqni xaqqoniy obrazlarda tasvirlashni mukammal

o‘zlashtirishda, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi dastlabki qadam hisoblanadi. Qog‘oz yuzasida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat bilan, hamda to‘g‘ri tasvirlash uchun talaba, tasviriy san’at borasidagi bilimlarni mukammal egallashi va uni amaliyotda qo‘llashi – natura, shuningdek, xotira va tasavvurga asoslanib rasm chizishni o‘rganishi zarur. Albatta, bunday ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun inson ma’lum qobiliyatlarga ega bo‘lishi va o‘z ustida uzluksiz va betinim ishlay olishi muhimdir.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi talabalarda tasvirlash mahorat qirralarini o‘rganish natijasida yuzaga kelgan bilim va malakalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. U talabadan tasvirlash qonun-qoidalarini bilishni va ulardan o‘quv va ijodiy faoliyatda to‘g‘ri foydalana olishni ko‘zda tutadi. Rasm chizishga o‘rgatish bu bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog‘liqdir: narsani o‘ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o‘zaro solishtirish, jismlarni shakli, rangi, materiallik xususiyati bo‘yicha farqlash va boshqalar. Buning uchun eng avvalo, talabani naturaga to‘g‘ri ko‘z bilan, xaqqoniy qarashga o‘rgatish lozim. Bu o‘z navbatida ham eng mushkul, ham eng zaruriy murakkab vazifalardan biridir». Rasm chizish mashg‘ulotlari e’tiborli bo‘lishga, fikrlashga va jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o‘rgatishi lozim.

Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarida bo‘lajak mutaxassis quyidagi bilim va malakalarga ega bo‘lishi zarur: 1. Turli xil qalamlar, bo‘yoqlar bilan ishlashni o‘rganishi. 2. Kerakli rang va tusni hosil qilish uchun bo‘yoqlarni aralashtira olishi. 3. Turli murakkab va tarkibiy ranglarni his etish qobiliyatlari shakllangan bo‘lishi. 4. Ranglar uyg‘unligini tushunishi va amaliyotda undan samarali foydalana olishi muhim bo‘lib hisoblanadi. Badiiy asar nayurmort, portret, manzara, yohud maishiy janrda bo‘lmasin u, kompozitsiya qonuniyati bilan, chuqur xis qilgan xolda, dastlab qalamda eskiz yechimini yaratishni talab etadi. Shu bilan birga ijodkor (eskizni oq-qora, och-to‘q) tus rang munosabatlarini, kartinani mayda unsurlarini his qilgan holda bajaradi [2.34.]. Badiiy asar ijodkor uchun natyurmort janrda asar yaratish uchun turtki bo‘lsa, ikkinchisi tarixda ijod qilgan usta rassomlarning badiiy asarlarini o‘rganishni va san’atda o‘z ijodiy mahoratni ishga solishdir.

Xulosa o‘rnida shularni ta’kidlash kerakki, tasviriy san’atning asosiy vazifasi, bo‘lajak pedagogda natyurmortga qo‘yilgan naturani his etish va uni o‘z ish jarayonida jonli tasvirlay olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Tasviriy mahoratni shakllantirish jarayoni naturani hayotiy tasvirlash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Bunday mashqlar, ayniqsa, tasviriy san’atga endi qadam bosayotgan yoshlar orasida ko‘proq o‘tkazilishi yaxshi natija beradi. Bu tizim jismlarning shakli, konstruksiyasi, nisbatlari va plastikasi to‘g‘risidagi tasavvurni – jismlarning tabiiy ko‘rinishini xotirada yanada mustahkamlanishida asosiy o‘rin tutadi.

Foyfalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 Fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 – son Farmoni.

2. G’.M.Abdurahmonov, Kompozitsiya, Iqtisod-moliya, 2005.

3. Б. Байметов. История развития изобразительного искусства Узбекистана. Наука, образование и культура, Москва, 2016. стр. 19–23.

MUHANDISLIK FANLARINING MOHIYATINI O'QUVCHILAR ONGIGA YETKAZISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI

Faxriddinov Muhammad Faxriddin o’g’li

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o’qituvchisi

Annotatsiya. *Tizimli ta'lim olishning eng muhim va ishonchli usuli bu o'qitishdir. Pedagogikada, bu o'qituvchi va talabaning yaqin hamkorligi bo'lib, u ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilgan va talabalarning shaxsiy fazilatlari o'zgarishining natijasi bo'lishi kerak. Ushbu maqolada muhandsilik fanlarining mohiyatini o’quvchilarning ingiga yetkazishning kreativ yechimlari haqida so’z ketgan.*

Kalit so’zlar: *Ta’lim sistemasi, maktab, zamonaviy dasturlar, rasm, chizmachilik, arxitektura, chiziq, rang, simmetriya, assimmetriya.*

O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning - “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobidagi ma’no mazmunda bir qancha yangi dasturlar, yangi konsepsiyalar, yangi qonun hujjatlari qabul qilinishi nazarda tutilmoqda. Bu bilan mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik rivojlanishining keyingi bosqichida amalga oshiriladigan islohotlar keng qamrab olinmoqda.[1]

Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala bo’lib hisoblanadi deb aytib o’tgan edilar muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev [2].

Narsalarni tekislik ustida tasvirlash va bu tekis tasvirlar bo‘yicha narsalar orasidagi pozitsion va metrik munosabatlarni aniqlash usullarining nazariy asoslarini chizma geometriya ilmi o‘rgatadi. Chizma geometriya qonunlariga asoslanib bajariladigan chizmalar va ular so‘zsiz amal qiladigan davlat standarti talablari, ularni taxt qilishni muhandislik grafikasi fani o‘rgatadi.

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning faoliyati har qanday muhandis singari oliy ta’lim muassasalarida o‘rganilayotgan ko‘pchilik fanlar, mashinalar va texnologik jarayonlarni ularning tasvirlari orqali o‘rganish bilan bevosita bog‘liqdir. Muhandis tasvirlangan buyumning konstruksiyasi va ishlash jarayonini tushunish uchun uning chizmasini o‘qiy va o‘zining texnik fikrini chizmalar orqali ifodalay olishi shart.

O'quv jarayonining aniqlovchi qismlaridan biri bu uning mazmunidir. Ta’limning mohiyati - bu o'quv jarayonining yakuniy natijasini ideal aqliy bashorat qilish, bu o'qituvchi va talabalar intilishidir. Ta'limning umumiy maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi. U hukumat hujjatlarida aks ettirilgan, so'ngra individual o'quv fanlari dasturlari, darsliklar, o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanmalari, talabalar uchun didaktik materiallar bilan aniqlangan. Umumiy maqsaddan tashqari, ma'lum bir fanni o'rganish maqsadlari bilan bir qatorda, o'qituvchi har bir dars uchun

alohida vazifalarni belgilaydi. [3] O'quv jarayonini tashkil etish birinchi navbatda uning maqsadlarini aniq belgilash, shuningdek, ularni talabalar tomonidan xabardor qilish va qabul qilish bilan bog'liq. O'qitishning maqsadli parametrlari maktab o'quvchilariga ularning faollashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan o'quv va bilim faoliyatini tashkil qilishning mohiyati va usullarini tushunishga majbur qiladi. O'quv jarayonida ham, har bir mashg'ulot davomida o'zaro bog'liq bo'lgan uchta asosiy guruh amalga oshiriladi. Ulardan birinchisiga butun ta'lim kiradi: bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni o'zlashtirish; ikkinchisiga - rivojlanish maqsadlari: shaxsning intellektual, hissiy-ixtiyoriy, faoliyat-xulq sohasini rivojlantirish, uchinchisiga - ta'lim maqsadlari: ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, axloqiy, badiiy, estetik, huquqiy, mehnat, ekologik madaniyat va boshqalar. Bu shuni anglatadiki, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishni loyihalashda o'qituvchi o'qitish, rivojlantirish va ta'lim vazifalarini aniq belgilashi kerak. [4] Shu bilan birga, u maqsadli munosabat amalga oshiriladigan darajani aniqlashtiradi: yangi mavzu bilan umumiy tanishish, o'rganilayotgan mavzuning nazariy tomonini o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinab ko'rish va boshqalar. O'quvchilarning ongiga etkazish darsning vazifalari, bilim faolligini oshirish imkoniyatlarini oshiradi. maktab o'quvchilari, ularning dars davomida ongli va izchil ishlashi. Milliy ta'lim tizimida quyidagi umumiy o'quv maqsadlarini aniqlash mumkin: talaba shaxsini davlat fuqarosi sifatida shakllantirish; o'quvchilarni fan sifatida samarali o'rganishga o'rgatish, ularga eng maqbul o'qitish va o'zini o'zi o'qitish metodologiyasini singdirish, doimiy ijodiy o'zini-o'zi takomillashtirish ehtiyojlarini shakllantirish; o'quvchilarni muvaffaqiyatli kasbiy va ijtimoiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalar bilan ta'minlash. shaxsning aqliy, axloqiy, hissiy va jismoniy rivojlanishi uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib, uning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishi, shu bilan birga o'quvchilarda puxta bilim, fan asoslari va ularni mustaqil ravishda to'ldirish qobiliyatini ta'minlash; fanning jadal rivojlanishiga javob beradigan va zamonaviy dunyoda moslashishga imkon beradigan darajada universal ta'lim berish; ta'limni insonparvarlashtirish orqali shaxsning umumiy, intellektual,

axloqiy rivojlanishi g'oyasini amalga oshirish; faol hayot, mehnat, ijodkorlik qobiliyatiga ega, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar asosida rivojlangan fuqaroni tarbiyalash; yuqori intellektual qobiliyatli bolalar uchun dasturlarni tuzishda xalqaro talablarga rioya qilish: dasturlarning mazmunini chuqurlashtirish, fikrlash jarayonlarining yuqori darajasini yaratish, talabalarning o'z qobiliyatlari to'g'risida tushunchalarini rivojlantirish; rivojlangan intellekt va madaniyatning yuqori darajasiga ega, kasbiy ta'lim dasturlarini ongli tanlash va rivojlantirishga tayyor bo'lgan shaxsni shakllantirish.[5]

Xulosa. O'quv jarayoni o'qituvchi va talabaning o'zaro yaqin munosabatini o'z ichiga oladi. Ta'limning asosiy vazifalari ta'lim, tarbiya va rivojlanishdir. An'anaviy ta'limda o'quv vazifasi asosiy hisoblanadi va talabalarni, avvalambor, ma'lum bilim, ko'nikma va ko'nikmalar tizimi bilan jihozlashni o'z ichiga oladi. Bunday o'qitishning asosiy kamchiliklari uning o'ziga xosligi: An'anaviy ta'lim tizimi sotsentristik yondashuvga asoslanadi, uning doirasida shaxsni rivojlantirishning maqsadi uni maksimal ijtimoiy foydalilik nuqtai nazaridan kasbiylashtirish va ijtimoiylashtirishdir. Ushbu model doirasida ta'lim (o'qitish, o'rganish) asosiy maqsadi ma'lum bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni, ya'ni tashqi o'rnatilgan standartlarni egallash ekanligi tushuniladi. Milliy ta'lim tizimining gumanistik paradigmasi shaxsiy yo'nalishga ega va shunga ko'ra o'quv jarayonida o'quvchi ajralmas shaxs vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O’zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Nashriyot uyi tasvir”. Toshkent-2021. 50-bet

2. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O’zbeksiton”. Toshkent-2017. 430-bet.

3. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O’zbeksiton”. Toshkent-2017. 40-bet

4. Faxriddinov M. F. Drobchenko N.V. The role and content of technology in the education system. Modern views and research – 2021 International scientific and practical Conference ISBN 978-1-83853-487-5.

5. Faxriddinov M. F. Drobchenko N.V. Using the Corel Draw computer program to develop students' creative abilities through drawing. Multidiscipline proceedings of digital fashion conference-2022. ISSN 2466-0744 Republic of Korea, Seul.

6. Fakhriddinov M. Opportunities and prospects for using the Auto cad program in the education system. //Problems of increasing the innovative professional training of future primary school teachers. Collection of scientific articles. - Samarkand: Sam SU, 2019. Pages 152-155.

AUTOCAD DASTURI YORDAMIDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH

Rashidov Furqat Abdalim o‘g‘li.

O’zFinPI “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi assistenti.

Abduvohidova Sabina Zokir qizi.

O’zFinPI “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi assistenti.

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada, chizma chizishni o‘rganishda zamonaviy kompiyuter grafik dasturlarining o‘rni. Muhandislik fanlarini o‘rgatishda kompiyuter grafik dasturlari pedagog kadirlarga katta imkoniyat yaratishi, chizmachilik va muhandislik fanlari darslari davomida nazariy va amaliy metodlar bilan kompiyuter grafik dasturlarni uyg‘unlashtirish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *chizmachilik, muhandislik, chizma, kompiyuter, metod, AutoCAD, ta’lim tizimi, pedagog.*

Ushbu tezisda kompyuterli modellashtirishni loyihalashtirishning universal grafik sistemasi muhitidan iborat bo‘lgan AutoCAD grafik dasturidan foydalanish uslubi taklif etilgan. Bu AutoCAD tizimi Autodesk kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, loyihalash jarayonida ko‘p sonli foydalanuvchilar qulay holda

ishlatishlari ko‘zda tutilgan. Tushunmovchiliklar yuzaga kelmasligi uchun takidlab o‘tish joizki dars davomida o‘quvchilarga AutoCAD dasturi tizimi o‘rgatilmaydi. Chizmachilik fani dasturidan chiqmagan holda o‘qituvchining o‘zi AutoCAD dasturidan foydalanib chizmachilikga oid tushunchalarni ko‘rsatadi, o‘quvchilar esa ko‘rsatilgan ma’lumotlarni chizma qog‘oziga chizib boradi. Ushbu jarayonda faqatgina o‘qituvchi AutoCAD dasturi tizimi haqida yetarli bilimlarga ega bo‘lishi talab qilinadi. Quyida zamonaviy ta’lim metodlaridan “Aqliy hujum metod” bilan AutoCAD dasturini uyg‘unlashtirishni ko’rib chiqamiz.

Aqliy hujum metodi. Aqliy hujum metodidan ham ma’ruza ham amaliy darslarda foydalanish qulay. Bu metod bir zumda auditoriyadagi barcha o’quvchi-talabalarni qamrab olib ularni aktiv holatga keltiradi. Yaxlit mavzu, uning bir qismi yoki tanlab olingan muammo yuzasidan o’quvchi-talabalarga beriladigan savollar majmuasi o’qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan bo’lishi ishda yaxshi natija beradi.Aqliy hujum metodi qo’yilgan muammo yechimiga bog’liq ravishda 5-10 daqiqa davom etishi mumkin. Bunda o’quvchi-talabalarning berayotgan javoblariga na o’qituvchining va na boshqalarning aralashuviga, har qanday fikr bildirishlariga yo’l qo’yilmaydi va natijalar baholanmaydi, ballar qo’yilmaydi. Bu qoida ko’pincha o’qituvchi tomonidan avtomatik tarzda buziladi, ya'ni talaba-o’quvchi bildirgan noto’g’ri fikrga tezda o’z munosabatini bildirib to’g’rilaydi. Bu vaziyat talaba-o’quvchilarni fikrlashdan to’xtatadi, darsda foydalanilayotgan aqliy hujum metodiga putur yetkazadi. Maqsad: noto’g’ri bo’lsada o’quvchi-talabaning o’z fikrini bildirishiga erishishdan iborat. O’qituvchi umumlashtirishdan so’ng bildirilgan fikrlarning to’g’ri yoki noto’g’riligi har bir talabaga ma'lum bo’ladi.Talabalarning fikr yuritishlari o’qituvchi tomonidan to’g’ri yo’lga solib turiladi va rag’batlantirilib boriladi. Vaqti-vaqti bilan fikrlar umumlashtirib turiladi. Muammoning yechimi bo’yicha fikrlar shaklannib bo’lgach u oxirgi marta umumlashtiriladi va aniq fikrga kelinadi. Shundan keyin talabalar o’zlarining takliflarini o’zlari solishtirib, to’g’ri va xato fikrlarini anglab yetishadilar va o’zlarini o’zlari baholaydilar. Ammo o’qituvchining ularga baho yoki tanbeh berishiga yo’l qo’yilmaydi. AutoCad dasturi orqali aqliy hujum

metodidan foydalanib Chizmachilik darslarida talabalarni qanday o’qitishimiz mumkin? . Dars jarayonini boshlab olganimizdan so’ng talabalar fkirlash va tasovvur qilish qobiliyati orqali yechaoladigan savol beramiz. Savol o’quv xonasidaki barcha talabalarga yoki alohida alohida bir nechta talabaga berilishi mumkin.

Masalan : Oktantlar soni nechta va ular qanday xosil bo’ladi ?



Ushbu savol bo’yicha talabalar fkri tinglanadi. Barcha fkirlar tinglanganidan so’ng o’qituvchi tomonidan fkirlar umumlashtiradi.AutoCad dasturi yordamida Oktantlarning hosil bo’lsh jarayoni ketma-ketlik asosida ko’rsatiladi (1.1, 1.2 va 1.3 – shakl). Oktantlarni soni videoviy kub yordamida aylantirib ko’riladi (1.4- a va b shakl .) Ushbu jarayon o‘quvchilarni bilish faoliyatini, fazoiy tasovvur qilish qopilyatini yanada oshiradi. Chizmachilik darslarida o‘quvchilar detallarni tasovvur qilishi ularni ortoganal pro yek siya lari bo‘ yic ha tushunchalari yanaham yaxshi shakinanadi.









Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2) O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g’risida»gi qonuni. 2020-yil.

3) Sh.Murodov, L.Hakimov, A.Xolmurzayev “Chizma geometriya” Toshkent – Iqtisod-Moliya, 2008 .-296 b.

4) Yu.Qirg’izboyev, Z. Inog’omova, T. Rihsiboyev “Texnik chizmachilik kursi.” Toshkent - O’qituvchi, 1986. – 368 b.

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI KASBIY-METODIK TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBASINI O‘RGANISH.

Xayrov Rasim Zolimxon o‘g‘li

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti,

Anotatsiya: *Maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorlashda xorijiy pedagog-olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarnining qisqacha mazmun mohiyati ochib berilgan. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishda pedagogik qarashlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, kasbiy-metodik tayyorgarlik, takomillashtirish, mutaxassis ijod, bilim, ko‘nikma, malaka, mahorat.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari

faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son qarorida “Oliy ma’lumotli pedagog kadrlar tayyorlash va o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish” [1] bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa tasviriy san’at o‘qitish metodikasining mazmunini bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorgarligi asosida takomillashtirilishini talab etadi.

Oliy ta’limda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorgarligi bo‘yicha rivojlangan Finlyandiya, AQSh, Fransiya, Germaniya, Angliya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya kabi mamlakatlarda katta ijobiy tajriba to‘plangan. Xorijiy davlat olimlaridan F.M.Roque, R.F.Antunes, D.Hymes kabi olimlar kasbiy-metodik tayyorgarlikni rivojlantirish muammolarga doir tadqiqotlar olib borishgan [2, 60 b.].

Bo‘lajak rassomlarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirish bo‘yicha dastlabki ilmiy-uslubiy qadamlar XIV-XV asrlardan boshlangan. Ilmiy-uslubiy manbalarda o‘z fikrlarini Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, A.Dyurer, P.Rubens, L.Alberti kabi buyuk daho-rassomlarning risolalarida ham o‘z aksini topgan. [8, 24-28-b].

XX asrning ikkinchi yarmi XIX asr boshlarida MDH davlatlarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash masalalari bilan N.N.Rostovsev, Ye.V. Shoroxov, V.S. Kuzin, S.P.Lomov, S.Ye.Ignatev, S.I.Makrousov, L.L.Malinskaya, S.A.Amanjolov, P.V.Paydukov, T.P.Terenteva, A.I.Suxarev N.M. Sokolnikova va boshqalar shug‘ulanishgan.

B.M.Nemenskiy [3] bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligi masalasi borasida uzoq yillardan buyon ilmiy ishlar olib bormoqdalar. Ular nafaqat umumiy pedagogik yetuk mutaxassisni tarbiyalash, balki kasbiy faoliyatning bir qismi sifatida ijodiy o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish uchun ham yuqori darajadagi tayyorgarlikning muhimligini ta’kidlaydilar. N.M.Rostovsevning [5, 154 b.] ilmiy tadqiqiot ishlarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini metodik amaliy faoliyatga maqsadli jalb qilish orqali maxsus bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonidir, deb ko‘rsatib o‘tgan. M.N. Sokolnikova [6, 45 b.] o‘qitishning barcha elementlarining birligini ta’minlaydigan va shu bilan birga barcha o‘quv jarayonlarini o‘qituvchining zarur metodik ko‘nikmalarini

rivojlantirishga yo‘naltiradigan aniq g‘oyalar to‘plamini ilmiy asoslangan xarakteristikasi, deb ilgari surdi.

S.P.Lomov [4] bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha umumiy bilimlar tizimini, tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi fani bo‘yicha maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, badiiy ijodni idrok etish, kasbiy faoliyatni ijodiy bajarish va kasbiy mahoratning nozik tomonlarini o‘zlashtirish jarayoni sifatida belgilanadi, deb qaraydilar.

Osiyo mamlakatlarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning turli jihati Chen Juylin [8] tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Uning ilmiy ishlarida tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o‘quv faoliyati samaradorligining yuqori bo‘lishi hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni ta’limga tatbiq qilish zarurati izohlanadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, mazkur masala bo‘yicha yuqoridagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ma’lum xulosalar chiqarish imkonini berdi. Jumladan, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda tayyorgarlik orqali faoliyatning natijasi; kasbiy vaziyatga doir muammolarni hal qilishga munosabatni o‘rnatadigan sifat; maqsadli faoliyat uchun shart-sharoitlar; sub’ekt faoliyatining konfiguratsiyasi murakkab tarkibiy asosga ega faoliyat turidan kelib chiqadigan shaxsning faol holati sifatida talqin etilgan. Shunday qilib, xorijiy ta’lim sohasida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi yuzasidan salmoqli harakatlar mavjud. Kelajakda hozirgi kunda dolzarb bo‘layotgan muammo va uning yechimi ustida olib borilayotgan ishlar natijasi amaliyotda o‘z ijobiy samarasini beradi, deb ta’kidlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-289-sonli qarori // https://lex.uz/docs/6079561

2. Djurinskiy A.N. Zarubejnaya pedagogika. Uchebnoe posobie. - Saratov: Vuzovskoe obrazovanie, 2017. - 333 c.

3. Nemenskiy B.M. Pedagogika iskusstva. –M.: Prosveщenie. 2012. – 240 s.

4. Lomov S. P., Amanjolov S. A. Metodologiya xudojestvennogo obrazovaniya: ucheb. posobie. - M.: Izd-vo MPGU, 2011. – S. 188.

5. Rostovsev N. N. O pedagogicheskoy deyatelnosti i metodax prepodavaniya. - Omsk: Izd-vo Omskogo gos. ped. un-ta, 2002. 248 s.

O‘ZBEKISTONDA LIBOSLARNI LOYIHALASH YO‘NALISHI BO‘YICHA O‘RTA MAXSUS TA’LIMINING SHAKLLANIShI

UMAROVA Z.S.

K.Behzod nomidagi MRDI

“Libos dizayni”kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistondagi liboslarni loyihalash yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta maxsus ta’limini shakllanish jarayonlari haqida so‘z boradi. Tadqiqot mavzusi Toshkent shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi hamda P.Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktablaridagi soha ta’limi asosida atroflicha yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Libos dizayni, dizayner, badiiy ishlov berish ustasi, P.Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktablari, Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi*

Mamlakatimizda liboslarni loyihalash yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta maxsus ta’limining shakllanishi ham mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrga qadar shakllanib ulgurganligini qayd etish joiz. Soha doirasida o‘rta maxsus ta’lim tizimi bo‘g‘inidagi o‘quv jarayonlari Toshkent shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi hamda P.Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabida olib borilgan. Mustaqillik yillarida “Liboslarni loyihalash” yo‘nalishi doirasidagi ta’lim tizimlaridagi uzviylik tamoyillari - mustaqil, ijodiy, kreativ fikrlaydigan, insonlar dunyoqarashiga ijobiy ta’sir etuvchi libos

namunalarini loyihalovchi professional kadrlarni tayyorlash maqsadlarini qamrab olganligi bilan ahamiyatli.

Yo‘nalishda 2 ta ixtisoslik bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlanadi. Ular: teatr liboslari rassomi, tasviriy san’at to‘garagi rahbari. Yo‘nalishda jamiyat hayotida libosning o‘rni tushuntirilib, qadimiy Shark liboslari, O‘rta Osiyo liboslari, Antik Gresiya, Rim liboslari, O‘rta asr Yevropa liboslari, Yakin Sharq liboslari kabi tarixiy liboslarni zamonga moslab yaratish xaqidagi bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladi.[1]

Mazkur ixtisosliklar bo‘yicha dunyo xalqlarining etnografik, tarixiy liboslari kompozitsiyasini ishlash, zamonaviy va tarixiy teatr liboslarini modellashtirish va ularni yaratish texnologiyalari, ustaxonada ishlash (tarixiy teatr liboslarini tikish texnologiyalari), matolarga badiiy ishlov berish, trafaret-bosma usulida matolarga gul tushirish xamda batik texnologiyalari, badiiy to‘qish (turlar), parcha va zardo‘zlik usullariga o‘xshatish texnologiyalari, “shibori” va “banddon” mato bo‘yash usulida turli sidirg‘a matolarda sharf, aksessuarlar yaratish yullari, milliy, tarixiy va ertak qaxramonlariga libos kompozitsiyalari chizish ko‘nikmalariga o‘rgatiladi.

Xozir kunda mazkur mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quvchilarga Ignateva Olga, Saidberdieva Saodat, Alimova Gulchexra, Rashidova Durdona, Raxmatullaeva Shaxnoza, Rashidxujaeva Nodira, Ziyaeva Dildora kabi ustozlar o‘quvchilarga sabok berishmokda. O‘z kasbining fidoiy mohir ustalari qo‘lida tahsil olgan yoshlarimiz teatr va kino sanati uchun juda muhim bulgan liboslar tayyorlash bo‘yicha malakali mutaxassis bulib yetishib chikadilar.

Teatr liboslari rassomi yo‘nalishning o‘qituvchi va o‘quvchilari libos buyicha xalkaro xamda yurtimizda o‘tkaziladigan ijodiy loyihalarda, sanat xaftaligi, festivallarida, jumladan, “Toshkent moda xaftaligi”, “Tasviriy va amaliy san’at Biennale”si, “Amaliy sanat festivali”larida faol ishtirok etadilar [1].

O‘zbekistonda liboslarni loyihalash yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim tizimiga ega bo‘lgan o‘rta maxsus ta’lim dargohlaridan biri bu hozirgi kunda Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi nomi bilan yuritilayotgan ta’lim dargohi

hisoblanadi. Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi avvalda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida”gi 1997 yil 23 yanvardagi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 1997 yil 11 martdagi qaroriga asosan ta’lim muassasasi O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tasarrufidagi A.A.Xo‘jaev nomli tasviriy va amaliy sanat bilim yurti deb nomlangan. 2004 yil O‘zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasi tasarrufidagi “A.A.Xo‘jaev nomidagi Respublika Dizayn kolleji” maqomi berildi. Kollej maqomi va faoliyati o‘zgarishi bilan binolarda ta’mirlash va qayta ta’mirlash, o‘quv va ishlab chiqarish ta’lim ustaxonlarida yangi mutaxassisliklar bo‘yicha jihozlash ishlari o‘tkazildi. 2013 yil Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2013 yil 9 apreldagi “Toshkent shahridagi ba’zi geografik ob’ektlar nomlarini tartibga keltirish to‘g‘risida”gi 260/4-27-sonli qarori hamda Toshkent shahar O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmasining 2013 yil 19 iyuldagi 186-sonli buyrug‘iga binoan A.A.Xo‘jaev nomidagi Respublika Dizayn kollejiga yangi Respublika Dizayn kolleji deb nom berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 yanvardagi “Ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlarning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 9-sonli qarori hamda O‘zbekiston Badiiy akademiyasining 2019 yil 11 yanvardagi I-497-sonli buyrug‘iga asosan Respublika Dizayn kolleji Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi deb yangi taxrirda nomlandi.[2]

Bugungi kunda ushbu ta’lim dargohida - Badiiy kulolchilik, Badiiy ganch o‘ymakorligi, Badiiy yog‘och o‘ymakorligi, Badiiy zargarlik, Badiiy zargarlik, Badiiy misgarlik, Haykaltaroshlik, Badiiy kashtachilik, Badiiy naqqoshlik, Badiiy gilam va gobelen, Badiiy zardo‘zlik, Grafik rassom, Dastgohli rangtasvir, Libos dizayni, Interer dizayni kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim beriladi.

Libos bo‘limida 15 nafar pedagog xodimlar faoliyat yuritib kelishmoqda. Ushbu bo‘limda zamonaviy va milliy liboslar loyihalari, eskizlari va bichimlari ustida ijodiy ishlar olib borilib o‘quvchilar ushbu ta’lim muassasani bitirgunga

qadar zamonaviy va milliy liboslar etnografiyasi, ularning tarixi, bichish–tikish va eskizlarni yaratish haqidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari ushbu bo‘lim qoshida teatr liboslari yo‘nalishi ham ochilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar ham zamonaviy ham tarixiy mazmundagi liboslar bichimlari, ularning yaratilishi xaqidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda liboslarni loyihalash yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta maxsus ta’limining shakllanishi soha doirasida uzluksiz ta’lim jarayonlarini yo‘lga qo‘yishda salmoqli ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida tarixiy va zamonaviy liboslarni loyihalash jarayonlarining zamon talablari darajasida olib borilishi, ushbu yo‘nalishda malakali mutaxassislar tayyorlashga muhim omil bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik kolleji katalogi [Matn]-Toshkent: “San’at” jurnali nashriyoti, 2018.-64b.

2. https://ridm.uz/maktab-haqida/

3. Umarova Z., M.Irgasheva. O‘zbekistonda dizayn ta’limi: shakllanish va rivojlanish bosqichlari. Ozbekiston badiiy akademiyasi Kamoliddin behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn Instituti “Dizayn - sanat va fan tutashuvidagi faoliyat sifatida” Mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiva materiallari to'plami. 2023 y. 131-b.

BADIIY TA’LIMDA RANGTASVIR O‘RGATISHNING BA’ZI MASALALARI HAQIDA

X.X Jurayev. Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti, san’atunoslik fanlari nomzodi

J.X.Kadirov. Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi kafedrasi assistent

Annotatsiya: *maqolada tasviriy san’at va muxandislik grafikasi bakalvriat ta’lim yunalishida rangtasvir fanini o‘qitishda suvbo‘yoq rang- tasvirini o‘rgatishning ahamiyati, uslubiy jihatlarining ketma-ketligi masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *dizayner, loyiha, maket, mahorat, me'mor, muhit, natura, politra, rangtasvir asarlari, suvbo'yok, qatlam.*

Bizni o'rab turgan atrof muhitni anglash, tabiatdagi ranglarni chuqur sezish rassomlar amaliy san'at ustalari, tasviriy san'at o'qituvchilari, me'morlar va dizaynerlar uchun ham juda zarur. Ulardagi bu fazilat bejirim loyiha va maketlarni bajarish, rangtasvir asarlarini yaratishda ulardagi rang boyligini ta'minlash imkonini beradi. "Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi" kafedrasida yuqorida ko'rsatilgan mahoratni shakllantirib va rivojlantirishni ta'minlaydigan barcha imkoniyatlar majud.

Suvbo'yokda ishlar bajarish rangtasvir o'quv dasturlarning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Talabalarning rangli suratlar ishlab mashq bajarishlarida suv bo'yoq bir qarashda oson va qulaydek tuyuladi. Ammo naturaga qarab, rangtasvir ishlashda uning murakkab tomonlari ko'rinib qoladi.

Politrada moybo'yokda qorishtirib topilgan ranglar matoga quyilganda deyarli o'zgarmaydi.

Suvda eritilgan (qorishtirilgan) suv bo'yoq qog'ozga qo'yilganda idishchalardagidek bo'lmay, boshqaroq rang bo'lib, chiqadi. Likopcha yoki politrada tayyorlangan qorishma rangi yupqa qatlamda qo'yilganda boshqacha bo'lib ko'rinadi. Quriganda rangning kuchi yana o'zgaradi. SHuning uchun suv bo'yoqda ishlaganlar odatda ishlayotgan suratda ko'rishdan oldin har bir topilgan rangni bir bo'lak qog'ozga qo'yib sinab ko'radi.

Moy buyokda yuzani bir tekis bo'yab chiqish juda oson. Lekin bu ishni suv bo'yoqda bajarish ancha murakkab.

Qurigan birinchi qatlam suv buyoqni ustiga ikkinchi marta yopib chiqish har gal xam bo'lavermaydi. CHunki birinchi qatlam yuvilib keta boshlaydi.

Suvbo'yoqda tuzatishlar kiritish juda qiyin, bu bo'yoq qatlamining tiniqligidan kelib chiqadi. Moybo'yoq singari suvbo'yoq birinchi qatlamni ikkinchisi to'liq yopa olmaydi. Bir - biri bilan aralashib, umumiy tiniq qatlam

hosil qiladi. Faqat malakali suvbo‘yoqda ishlaydigan kishilargina bu ishlarni mahorat bilan bajarishlari mumkin.

Suvbo‘yoqda ishlashni boshlaydiganlar uchun muxsus mashqlar bajarishni tavsiya etish mumkin.

Birinchi mashq - qog‘ozni bir rangda tekis bo‘yab chiqish. Buning uchun idishdagi yopib chiqishga etadigan miqdorda bo‘yoq eritib tayyorlanadi. Qog‘oz sathi kiya tutilgan holda, yuqoridan pastga qarab yopib chiqiladi.

Bo‘yok to‘yinib shimdirilgan qilqalam qog‘ozning yuqori chetidan yugiziladi. YAna bo‘yoqqa botirib pastki qismi qurib qolmasdan jarayon davom etdiriladi. Qog‘oz sathi gorizaontal yotiq holda tutilsa suyuq bo‘yoq orqaga oqib, ko‘lmakchalar hosil qilishi mumkin. Bu esa qurigan to‘q dog‘ joylarini chiqaradi. Agar qog‘oz juda tik holda tutilsa har joyidan tez oqib vertikal chiziqli izlar qoldiradi. Demak, kogoz satxi urtacha 30-35 darajadagi kiyalikda tutilgani ma’qul xisoblanadi.

Bir necha ranglar qorishmasi bilan qogozni yopib chiqish ancha murakkab, chunki turli ranglar turlicha og‘irlikka ega bo‘lib, qorishma tubiga cho‘kib qoladi. Qog‘ozning yuqori qismi engil rangda pastki qismi og‘irroq rangda chiqmasligi uchun qorishmani qo‘zg‘ab turishga tugri keladi.

Ikkinchi mashq - qog‘ozning yuqorisini to‘q pastga borgan sari ochlashib borishni ta’minlash uchun asta-sekin qorishmaga suv qo‘shib borish kerak.

Uchinchi mashq - och rangdan to‘qlashtirib borish. Bu hol biroz murakkab.

To‘rtinchi mashq - qog‘ozning ma’lum qismini, ya’ni qog‘ozga chizilgan shaklni ranglash (kvadrat, ko‘pqirrali shakl, murakkab rasm va h.k.)

Beshinchi mashq - ilgarigi qatlam ustiga ikkinchisini yopish. Qog‘ozga suyuq bo‘yoqni qo‘yib,to qurigancha mo‘yqalam bilan tegmaslik kerak, aks holda dog‘lar hosil bo‘ladi. Ikkinchi qatlam juda tezlik bilan yopilishi kerak. Bir joyda bir necha marta mo‘yqalam yurgizilsa o‘sha joy yuvilib ketadi. Bu mashqlarni qo‘l ostida bo‘lgan hamma ranglar bilan bajarib ularning xususiyatdarini o‘rganish kerak. Ayrim ranglar boshqalariga nisbatan ancha engil yoyiladi. Plakatlar, dekarativ ishlar, geografik xaritalar, diagrammalar, me’moriy loyihalarni bexato

bajarish uchun yuqoridagi mashqlarni bajarib tajriba va malakaga ega bo‘lish kerak.

Rangtasvirni o‘zlari o‘rganayotgan yosh rassomlar suratlardan ko‘chirib chizishdan boshlashlari katta xato hisoblanadi. YAxshi suratni mahorat bilan ko‘chirish foydali. Bunday asarlardan nusxa ko‘chirish faqat muzeylarda va hammaga ham mumkin bo‘lmaganligi sababli bosmadan sifatsiz chiqqan otkritka va reproduksiyalardan, ko‘chirish yaxshi natija beravermaydi.

Ko‘pgina taniqli rassomlar o‘zlarining asosiy o‘qituvchilari deb tabiatni hisoblaganlar. Tabiatni kuzatib, ularni tasvirlashga o‘rganganlar. Rangtasvirni mustaqil o‘rganayotgan yoshlar o‘zlariga yoqqan manzarani yozib ko‘rib, masalani qiyinligidan mushkul ahvolga tushib qoladilar. Naturadan yoza olmasliklariga iqror bo‘lib ko‘chirishga o‘tadilar. Xato shundan iboratki, ular qurbi etmaydigan ishni boshlab, oddiyroq va engilroq masalani echishni o‘rganmasdan juda murakkab masalani, echmokchi bo‘ladilar.

Boshlanishida oddiy narsa olib, kontur (chegara) chizig‘ini chizib, o‘ziga o‘xshatib yozishga harakat qilish kerakki, uning yorug‘lik, yarimsoya va soyalari aniq ajralib tursin. Narsaga diqqat bilan qarab, yorug‘lik tushub turgan joyi bir rangda, soyadagisi ikkinchi rangda bo‘lishini anglab etish kerak.

Narsaning qismlari uchun politrada (ranglarni qorishtirib kuriladigan taxtacha) rang tanlangandan keyin qog‘ozga, ya’ni shaklga o‘tkazish kerak. Ranglar odatda naturadagiga kamroq o‘xshagan bo‘ladi. Kuriganda ikkinchi marta naturadagi rangga o‘xshatishga harakat qilgan holda yoziladi.

Boshlanayotgan rassom iloji boricha predmet rangini bera oladigan tonlarni tanlash kerak. Tasvir naturaga yaqinlashgan holdagina masala bajarilgan bo‘ladi.

Ayrim narsalarni tasvirlashga o‘rgangach, narsalar guruhini tasvirlashga o‘tish mumkin. Aniq rangdagi narsalarni (qizil, yashil, sariq) tashlash maqsadga muvofiqdir, Kulrang, ravshan bo‘lmagan rangdan ko‘ra aniq rangni berish oson. Bir burda qora nonni yozishdan, apelsin, olma, sabzi, pomidorni yozish ancha oson.

Narsalar guruhini tashkil qilib shunday joylashtirish kerakki undan yozilgan surat tomoshabinni uxshashligi bilngina jalb qilmasin. YAxshi ko‘rinadigan narsalarning fonini ham o‘ylash kerak.

Narsalar hajmini ko‘rsatadigan eng yorug - yaltiroq qismi, yarimsoya va soyani yaqqol ko‘rsatish uchun yaxshi yoritish kerak. Keyin bu guruhni kog‘ozga qiziqarliroq joylashtirish, surat qanaqa o‘lchamda bo‘lishi kerak va fonga qancha joy qoldirish kerakligi chamalanadi. SHundan keyin hamma narsalarning konturi chizib chiqiladi.

Suvbuyoqda boshlangan konturni tuzatish qiyin, shu boisdan suvbo‘yoq ishi moybuyoqdagiga nisbatan konturni obdon ishlab chiqishni talab qiladi.

Kog‘ozga qalam bilan chizilgan kontur yopilgan tiniq suvbo‘yoq ostidan ko‘rinib turadi va keyin o‘chiriladi.

Tajribasiz rangtasvirchilar odatda yuqoridan pastga yozadilar; boshqalari oldin fon va asosiy narsalarni yozishadi; ya’ni boshqalar aksini, narsalarni tasvirlab keyin fonni bo‘yashadi. Bo‘yash va ko‘chirishning bu usullari rangtasvirda mumkin emas, qaysiki bunday suratda alohida qismlari bir - biriga bog‘liq bo‘lmay qoladi. Fon va orqa plandagi narsalar oldinga chiqib, oldingilari yaqqol tasvirlanmay qoladi.

Rangtasvirda har bir tasvirlanayotgan manzara yoki natyurmort turli kuchga va turli rangga ega bulgan dog‘chalar guruhini tashkil qiladi. Bu dog‘chalar naturaning o‘zida ma’lum nisbatda (munosabatda) bo‘ladi.

Faqatgina rangtasvirni o‘rganuvchilar uchun emas balki tasviriy va amaliy san’atning barcha turlari buyicha o‘qitish alohida ustoz - shogirdchilik uslubida amalga oshirilgan.

Bu an’analar hozirgi ta’lim tizimidagi jadal olib borilayotgan islohotlarda ham o‘z ifodasini topmokda. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida hozirgi etakchi O‘zbekiston xalk rassomlarimiz Alisher Mirzaev, Baxodir Jalolov, Javlon Umarbekov va boshqalarning o‘quv - ijodiy ustaxonalari mavjud bo‘lib, ularda talabalar rangtasvir sirlarini mukammal o‘rganishmokda. Bu borada joylarda (viloyatlar) da ham anchagina ijobiy ishlar amalga

oshirilayotganligi badiiy ta’limning sifatini yuqori darajaga ko‘tarishda muhim omillardan hisoblanadi.

Institutimizning Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishida mutaxasisslik fanlarini o‘qitishga nufuzli pedagoglar jalb etilgan. Jumladan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor Eson Muhammadiev, O‘zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi akademigi Asliddin Isaev singari yuqori salohiyatli pedagoglarning qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya fanlaridan dars berayotganliklarining o‘zi ham ta’limdagi e’tiborli jihatdir. O‘z o‘rnida sifatli ta’lim raqobatbardosh, yukori malakali kadrlar tayyorlashning garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Nabiyev M. “Rangshunoslik”. Toshkent. “O‘qituvchi”. 1996 y.
2. E.Shavqiev “Rangshunoslik”. Toshkent “Zamin nashr” 2020 y.
3. Mirzayev , S., & Izbasarov, I. (2022). DASTGOHLI AKADEMIK RANGTASVIR VA KOMPOZITSIYA ASOSLARI. *O’quv qo’llanma, Usmon Nosir Media nashriyoti*. 12-15.
4. Jorayev, H., & Hoshimov, A. (2023, December). INSON KAMOLOTIDA TASVIRIY SAN'ATNING AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
5. Jo‘rayev, X. X. (2023). TASVIRIY SAN’ATDA RANGLAR UYG ‘UNLIGINI TUSHUNISH. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(13), 182-186.

CHIZMACHILIKNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Izbasarov I.U.

O’zbekistonFinlandiya pedagogika instituti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda mamlaktimizda ta’lim tizimini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarning muhim ahamiyati va ulardan oqilona foydalanib dars mashg’ulotlarini tashkil qilish hamda muhandislik fanlarini o’qitishning sifat va samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni haqidagi masalalarga yondashilgan.*

Kalit so’zlar: *politexnik ta'lim, pedagogik texnologiyalar**,** pedagogik-psixologik*

bilim, simvolikalar tizimi, grafik savodxonlik

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq sanoat, ishlab chiqarish, fan-texnika, ta’lim, san’at va madaniyat sohalarini tobora rivojlantirishga eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaraldi. Bu borada ayniqsa ta’lim tizimida ijobiy o‘zgarishlar qilib ma’lum darajada yutuqlarni qo‘lga kirita boshladi. Ta’limda o‘qitish tizimiga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalasining dolzarbligi kunning asosiy mavzusiga aylandi. Malakali o‘qituvchining o‘z kasbiy bilimlaridan tashqari pedagogik-psixologik bilimlarni, yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini bilishi zamon talabiga aylanib bormoqda.

Chizmachilik fani kursi talabalarda atrofdagi dunyoni tushunish vositalaridan biri hisoblanib, ularga borliqni idrok qilish va o‘zlashtirishga yordam beradi, talabalarning umumiy va politexnik ta'limi uchun katta ahamiyatga ega, talabalarini zamonaviy ishlab chiqarish va texnologiyasi sohasidagi muhandislik bilimlari elementlari bilan tanishtiradi. Talabalarning texnik fikrlash va kompozitsiyon qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. [1, 27 b.]

Chimachilik mashg‘ulotlari talabalarda bilim olish jarayonlarini boshqarish, aniq maqsadga yo‘naltirilgan diqqat, xotira xususiyatlari hamda ularning grafik

savodxonlikka qiziqishlarini, nutq imkoniyatlari, turli belgili simvolikalar tizimi, grafik obrazlilarni tushunish va ulardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Boshqa mutaxassislik fanlari qatorida chizmachilik fanini o‘qitishda ham pedagogik texnologiyalarning o‘rni va amaliy ahamiyati katta. Pedagogik loyihalar bilan jihozlangan har bir mashg‘ulotning fandagi amaliy tatbig’ini va uni tashkil qilish metodikasini talabalarga ilmiy asosda yetkazib berish lozim. O‘qishda talabalarning faolligini oshirish maqsadida chizmachilikni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashg‘ulot davomida ko‘zlangan maqsadga ya’ni kafolatli natijalarga erishishda muhimdir. [2 ,18 b.]

Ma’lumki, har qanday ob’ekt, buyum, bino kabilarni yaratishdan oldin ularning chizma loyihalari bajariladi. Muhandislik loyihalari asosida Hozirgi O‘zbekiston xududida XI-XV asrlarda yaratilgan buyuk ilmiy kashfiyotlar va yirik memoriy obidalar bunyod etilgan. Chizmachilik ilm sifatida me’morchilik bilan birga uning ajralmas qismi bo‘lib o‘sha davrla rdan boshlab rivojlanib kelgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan pedagogika-psixologiyada o‘quv ishlarining eng yaxshi usullarini tanlashga, ta’lim jarayonida talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradigan masalalarni kiritishga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, dars jarayonida talabalarning o‘quv faoliyatlarning almashinuvchanligini amalga oshirish barcha o‘quv predmetlari qatorida chizmachilikni o‘qitish metodikasining diqqat marakzidagi vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. [3, 50 b.]

Chizmachilik darsi ham boshqa fan mashg‘ulotlari singari didaktik tamoyillarga asoslangan bo‘ladi. Qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayoniga mos ravishda qachon va qanday paytda kiritish maqsadida har bir dars tarkibi avvaldan sinchiklab o‘rganiladi va o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan tushunchalar belgilab olinadi.

O‘qituvchi-pedagoglarning fan mashg'ulotlarini o‘qitishga yo‘naltirilgan noan’anaviy shakllarda tashkil etish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga

ega bo‘lish ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o‘zlashtirilishi, ularda amaliy ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishining kafolati bo‘la oladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan asosiy maqsad talabalarning o‘tilgan materialni oson ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida o‘zlashtirib, malakasini oshirish va yuksak natijalarga erishishdan iborat. Pedagogik texnologiya zamonaviy didaktika va pedagogika taraqqiyotining natijasi bo‘lib pedagogikaning bugungi kungacha mavjud bo‘lgan barcha rivojlanayotgan asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy vazifalarni yanada yaxshiroq amalga oshirish yo‘lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin.

So‘ngi yillarda ta’lim mazmuni boyitish yo‘lida rivojlantiruvchi ta’limning bir qator ishonchli interfaol metod va yo‘llari izlanmoqda.

Bu izlanish asosan uchta yo‘nalishda – muammoli, programmalashtirilgan va tabaqalashtirilgan ta’limda olib borilmoqda. Ta’limdagi samarador o‘qitish texnologiyasi – bu muammoli o‘qitishdir. Muammoli o‘qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o‘qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o‘qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o‘sib boradi.

Muammoli o‘qitishning mohiyatini o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. [4, 26 b.]

Innovatsiya (ingliz tilidan - yangi shakllanish) - yangi shakllanish, yangilik, o‘zgarish kabi tushunchalarni anglatadi. Uning qo‘llanilishi asosan fan va texnologiya bilan bog'liq. Lekin innovatsiyalardan inson hayotida foydalanish yil sayin kengayib, dolzarb bo‘lib bormoqda va asosan ta’lim va tarbiya sohasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Innovatsiyalar – texnika, texnologiya sohasidagi yangiliklar, ta’lim va fan yutuqlari hamda yuqori professional usullardan foydalanish, xalq ta’limi tizimida

ta’lim sifatini oshirish. Samaradorlikni oshirish, ta’limga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

Keyin “ustoz-kompyuter-shogird” tizimi “o‘qituvchi-shogird” zanjirida paydo bo‘ladi. Ta’lim va tarbiya tizimiga innovatsion yondashish talabalarda yangi tajriba orttirishga intilish, ijodkorlik va tanqidchilik kabi fazilatlarni shakllantiradi, kelajakka ishonchni kuchaytiradi. Texnologiyalarni innovatsion texnologiyalar, muhandislik texnologiyalari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari deb tasniflash mumkin. Shuning uchun talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘qituvchi o‘zining ezgu maqsadini adolatli bajaradigan chizmachilik fanida dars jarayonini yoki mustaqil grafik ishlarni amalga oshirishni tashkil qilish kerak. Ya’ni, talabalarga o‘qitish oldiga qo‘yilgan vazifalardagi maqsadga erishish, chizmachilik darslarida zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘qitish samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu talabalarning grafik topshiriqlarni bajarishga qiziqishini oshirishga va chizmachilik fanidan grafik savodxonlikni rivojlantirishga olib keladi.

Buning uchun o‘z navbatida xalq ta’lim tizimida texnika, texnologiya sohasidagi yangiliklar, ta’lim va fan yutuqlari hamda yuqori professional usullardan foydalanib ta’lim sifatini tubdan yaxshilash orqali yutuqlarga erishish, ta’limga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, innovatsion texnologiyalar asosida fan yangiliklarini hayotga tadbig‘ etish, ta’lim va tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o‘qituvchini yaratilayotgan yangi sharoitlarga tayyorlash kabi masalalar hal qilinishi ko‘zda tutiladi.

Ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan barcha tajribali olim va malakali o‘qituvchilar to‘plangan boy tajribaga tayanib, birgalikda o‘z bilimlarini yangi texnologiyalar yaratishga, ularga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo’yicha ish olib borsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonov I., Valiyev A., “Chizmachilikni o'qitishda pedagogik texnologiyalar” Metodik qo‘llanma Nizomiy nomidagi TDPU 2012 yil (144 b.) 27 b.

2. Xalimov M. K. Chizmachilik. o‘quv qo 'llanma . Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi. TOSHKENT – 2013(179) 18 b.

3. Sh.K. Murodov, N.Tashimov Grafika tarixi va taraqqiyoti - T., TDPU rizografi, 2011.(150) 50 b.

4. I.Rahmonov, A.Ashirboyev. Geometrik chizmachilik . Toshkent, “Noshir”, 2009.(166) 26 b.

“MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHISINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH"

Kadirova Shahnoza Aminboyevna

UrDU “Pedagogika” fakulteti “TSMG” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Psixologik-pedagogik, pedagogik tajriba umumlashtirildi, uning boshlang'ich pozitsiyalari, maqsadi, vazifalari, gipotezasi aniqlandi. Tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish jarayonining modeli, kasbiy madaniyatning shakllantirilgan mezonlari va o'qituvchilarni bosqichma-bosqich o'qitish ko'lami ishlab chiqildi.*

Kalit so’zlar: *tasviriy san'at, kasbiy madaniyat, kontseptsiya, kasbiy mahorat, tadqiqot gipotezasi, pedagogik faoliyat.*

Zamonaviy ijtimoiy sharoitda madaniy qadriyatlarga, milliy va badiiy an'analarga murojaat qilish yosh avlod uchun ayniqsa muhimdir, chunki u maktab o'quvchilarining axloqiy tarbiyasi va estetik rivojlanishiga, ularni mamlakat va ona yurtning ko'p asrlik ma'naviy merosi bilan tanishtirishga yordam beradi. Biroq, axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi davrida talabalarning badiiy madaniyati darajasi past darajada qolmoqda. Umumta'lim maktablari barcha maktab o'quvchilarining umumiy madaniy darajasini oshirishi mumkin, ular o'quvchilarning tasviriy san'atga qiziqishini shakllantirishga, atrofdagi voqelikka estetik munosabatni

tarbiyalashga va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga mo'ljallangan. Jamiyatning badiiy va estetik talablarini qondirish uchun ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan davlat vazifalarini bajarishning muvaffaqiyati, shu jumladan, tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy madaniyati darajasi qanchalik yuqori bo'lishiga bog'liq.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini shakllantirish pedagogika kollejlari va universitetlarida boshlanadi, lekin ko'pincha ta'lim muassasalari tomonidan maqsadli funktsiya sifatida ko'rib chiqilmaydi. O'qituvchining kasbiy madaniyati uning pedagogik faoliyati davomida rivojlanib boradi, ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu jarayon juda sekin va har doim ham samarali emas. Shu munosabat bilan, ochiqlik, harakatchanlik, o'zgaruvchanlik, integrativlik, ishlab chiqarish qobiliyati, amaliyotga yo'naltirish kabi printsiplarga asoslanib, o'qituvchilar o'rtasida kasbiy madaniyatni shakllantirishning maqsadli jarayonini tashkil etish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lgan malaka oshirish tizimi alohida o'rin tutadi.

O'qituvchilarning uzluksiz ta'lim kontseptsiyalariga asoslanib (A. G. Asmolov, A. A. Verbitskiy, E. M. Nikitin, A. M. Novikov, A. P. Sitnik, T. V. Chelisheva va boshqalar), biz tasviriy san'at o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini ularning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning eng muhim sharti deb bilamiz. Turli mutaxassisliklar talabalari o'rtasida kasbiy mahorat va kasbiy madaniyatni shakllantirish muammolari . I. Voytalyanova, D. V. Kalinkin, E. V. Korjueva, I. M. Kupchigina va boshqalar, bo'lajak o'qituvchilar orasida - M. A. Alekseeva, F. N. Alipxanova, E. V. Bondarevskaya, I. A. Zimniy, N. B. Krilova, M. V. Lagunova, V. A. Slastenina va boshqalar, malaka oshirish tizimida o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish masalalari L. M. Mitina, A. P. Sitnik va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Bugungi kunda turli mutaxassisliklar o'qituvchilarining malakasini oshirish muammolari bo'yicha tadqiqotlar sezilarli darajada faollashdi (E. M. Nikitin, A. M. Novikov, T. S. Panina, I. E. Savenkova, P. V. Xudominskiy, T. I. Shamova va boshqalar), shu jumladan. Nemenskiy, M. A. Polonskaya, N. M. Sokolnikova, H. H. Fomina, T. ya.Shpikalova va boshqalar).

Ilmiy adabiyotlar va turli xil ta'lim muassasalarida diplomdan keyingi ta'lim tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shishi uchun tasviriy san'at o'qituvchilarining mazmuni, shakllari, usullari, malakasini oshirish vositalarini o'zgartirish zarurati paydo bo'ldi. Bilim paradigmasidan faoliyatga o'tish, yangi Davlat ta'lim standartlarini, shu jumladan tasviriy san'atni joriy etish, pedagogik jarayonda yangi texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishni ularning malakasini oshirishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berdi.

O'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish sohasidagi tadqiqotlar tahlili va tasviriy san'at o'qituvchilarining malakasini oshirish natijalari quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqladi:

- zamonaviy maktab o'quvchilarida umumiy madaniyatni, shu jumladan badiiy madaniyatni shakllantirish zarurati va san'at o'qituvchilari orasida kasbiy madaniyatning past darajasi o'rtasida;

- hududlarda tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish uchun ob'ektiv ijtimoiy-madaniy salohiyatning mavjudligi va ularning malakasini oshirish jarayonida ulardan zaif foydalanish o'rtasida;

- san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyati darajasiga zamonaviy yuqori talablar va fanda malaka oshirish tizimida ushbu darajaga erishish yo'llarini yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'rtasida.

Aniqlangan qarama-qarshiliklar tadqiqot muammosini aniqlashga imkon berdi: qanday pedagogik sharoitlar va malaka oshirish vositalari tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishni ta'minlaydi?

Tadqiqotning maqsadi: tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan pedagogik sharoitlar va malaka oshirish vositalari majmuini aniqlash va asoslash.

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, malaka oshirish jarayonida tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin, agar:

- ta'lim va madaniy muhit integratsiyasiga asoslangan ta'lim va tarbiya o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish uchun mintaqaning yagona madaniy va ma'rifiy makonini tashkil etish;

- milliy-mintaqaviy komponentning imkoniyatlaridan foydalanib, mintaqaning ijtimoiy-madaniy resurslaridan o'qituvchilarni kurs ta'limi mazmuniga kiritish;

- badiiy va pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan va malaka oshirish jarayonini individuallashtirish va farqlashga hissa qo'shadigan maxsus vositalarni oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim jarayoniga kiritish.

Tadqiqot muammosi, ob'ekti, predmeti, maqsadi va gipotezasiga muvofiq quyidagi tadqiqot vazifalari qo'yiladi:

1. Tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatining mohiyati va xususiyatlarini aniqlang.

2. Tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan malakasini oshirish jarayonining modelini ishlab chiqish.

3. Tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan pedagogik sharoitlarni va maxsus malaka oshirish vositalarini aniqlash va asoslash.

4. Malaka oshirish tizimida tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayonini ilmiy-uslubiy qo'llab-quvvatlashni ishlab chiqish.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari quyidagilar edi:

- shaxsiyat rivojlanishining psixologik nazariyalari (C. Vygotskiy, A. N. Leontyev, P. C. Nemov, C. JI. Rubinshteyn va boshqalar);

- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv (E. V. Bondarevskaya, V. V. Serikov, I. S. Yakimanskaya va boshqalar);

-faoliyatsiz yondashuvi tizimlari (A. G. Asmolov, yu. A. Konarjevskiy, T. A. Ilyina, T. I. Shamova va boshqalar).;

- madaniyatning falsafiy va tarixiy tushunchalari (M. M. baxtin, B. C. Bibler, yu. B. Borev, M. S. Kagan, P. Sorokin, I. A. Ten, O. Shpengler va boshqalar).;

- madaniyat pedagogikasi tushunchasi (S. I. Gessen);

-ta'lim, tarbiya, ta'lim, madaniy muhitni tashkil etishda psixologik va pedagogik yondashuvlar (JI.B. Bayborodova, S. M. Konyushenko, yu. S. Manuilov, M. I. Rojkov, S. F. Sergeyev, I. K. Shalaev, V. Z. Yusupov, V. A. Yasvin va boshqalar);

- kattalarni o'qitishga psixologik va pedagogik yondashuvlar (I. A. Kolesnikova, M. M. Levin, A. K. Markova, L. M. Mitina va boshqalar).;

- ta'lim xodimlarining malakasini oshirishning zamonaviy tushunchalari (E. M. Nikitin, A. P. Sitnik, I. E. Savenkova, P. V. Xudominskiy, T. V. Chelisheva va boshqalar -)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексеева М.А. Развитие творческого потенциала студентов в процессе обучения методике преподавания специальных дисциплин Текст.: дис.канд. пед. наук : / Алексеева Марина Андреевна. Кострома, 2002. – [181 b];

2. Андреев В.И. Эвристическое программирование учебно-исследовательской деятельности Текст. : метод, пособие / В.И. Андреев. М.: Высшая школа, 1981.- [240 b];

3. Алипханова Ф.Н. Педагогические условия формирования профессиональной культуры студентов педагогического вуза Текст.: дис. .канд. пед. наук: 13.00.08 / Алипханова Фатима Надирбековна. Махачкала, 2006. - [163 b];

4. Андреев, В.И. Эвристическое программирование учебно-исследовательской деятельности Текст. : метод, пособие / В.И. Андреев. М.: Высшая школа, 1981.-[240 b];

5. Анохин, С. Интернет для учителя Текст. / С. Анохин // Учитель. 2006. -№1.-[71-76 b];

6. Аранова, С.В. Обучение изобразительному искусству. Интеграция художественного и логического Текст. / С.В. Аранова. СПб.: КАРО, 2004. – [176 b];

7. Бакушинский, А.В. Искусство в школе Текст. / А.В. Бакушинский. Публикация А. Копировского // Искусство в школе. №4. - 2007.[28 – 29].

MUNDARIJA

I SHO‘BA

OLIY TA’LIM TIZIMIDA DARS SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI.

Oliy o’quv yurtlarida bo’lajak jismoniy madaniyat o’qituvchilarida kasbiy axloqiy fazilatlarni shakllantirish B.T.Xaydarov……..5

Kredit-modul tizimida musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarining shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish. Sh.N.Mustafayev……..12

Musiqa ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda “musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini takomillashtirishning muhim jihatlari. G.M. Davronova……17

Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining kreativligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari Usmanova Xurshida Aybekovna……22

Oliy ta’limda darslar sifatini oshirish: muvaffaqiyat mexanizmlari. Javohir Ismoil o’g’li Abdullayev ……27

Oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar Anvar Lutfullayev,……30

“San’at yo‘nalishlaridagi bo‘lajak kadrlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, muammo va yechimlar” Qurbonova Muslima……34

Magistratura talabalarini ta’lim jarayonida ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli yo‘naltirishga asoslangan integratsion jarayon Usmanova Umida Aybekovna….36

Musiqa o‘qituvchisi kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari Romanova Sanobar Yerejepovna……49

Shaxsni shakllantirishda musiqa o‘qitish jarayoni .D.A.Karimova……53

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda multimedia vositalarini ahamiyati. S.A.Pardayev……60

Talabalarda ijrochilik malakalari davomiyligini barqaror shakllantirishning omillari. Boltayev Baxtiyor Rustamovich……63

Значение духовного наследия узбекского народа в формировании музыкальной культуры у студентов педагогических вузов республики узбекистан Тригулова Аделя Хусаиновна……..……..68
Oliy ta'lim tizimida dars sifatini takomillashtirish. Aliqulov Shukurullo Fayzulla o'g'li Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna……..……73
Mustaqil ta'limni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Quvondiqova Mohinur Ilhomiddin qizi……..77
Talabalarni musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik va psixologik imkoniyatlari Boliyev Uchqun Ismatovich……..80
Talabalarga o'zbek mumtoz ashulalarini 'rgatishning pedagogik muammolari Axrorov Jamshed Rustamovich.....83
Axborot texnologiyalari imkoniyatlari va musiqiy muharrirlar vositasida musiqa fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish. Sh. Usmonova……..……87
Musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari Omanqulova Shohida Nematillo qizi……..91
Xorazm dutor maqomlar. Raximov Botir Matyakubovich……95
Xorazm tanbur notasi Boltayev Rustam Kurbonbayevich……..99

II SHO'BA

SAN'AT YO'NALISHLARIDAGI BO'LAJAK KADRLARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBASINI O'RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.

San'at yo'nalishlaridagi bo'lajak kadrlarni tayyorlashda xorij tajribasini o'rganishning nazariy va amaliy asoslari Nishonova Shahzoda Murodjon qizi..105
Musiqa madaniyati darslarida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish muammo sifatida Xamrokulov Naimjon Baxronovich……108
Talabalarda vokal ijrochiligi ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.Murodov Mirshoxid Burxanovich……..111
Talabalarning kuylash malakasini shakllantirish.M.Djumaboyeva……114
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetmtlikni rivojlantirish texnoiogiyalari. Oygul Sobirova……119

Talaba yoshlarni musiqiy faoliyatlar orqali tarbiyalashda o‘qituvchisining o‘rni. O.Tillaxo‘jayev……122

Madaniy tadbirlarning paydo bo`lish tarixi va ularning jamiyatimizda tutgan o`rni Valijonova Sug`diyona, Ravshan Utaganov……126

Musiqa va uning inson ongiga ta’siri Ismatova Oyniso Hikmat qizi, Jalilov Shokir Isomiddinovich ……129

Fortepiano ijrochiligi uslubiyotiga yangicha yondashuvlar Umaralieva Diyora, Anvar Lutfullayev,.....132

*Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishda vokal asarlaridan foydalanish. Ismoilova Mahbuba Elamonovna *135

Amir Temur davrida sanat va musiqa. Eshboboyeva Diyora, Anvar Lutfullayev.140

Cholg‘u ijrochiligida iqtidorlik va kasbiy mahorat masalalari Muxtorova Sabrina, Anvar Lutfullaev,.....145

Bo`lajak musiqa o`qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirish asoslari. Axrorova Munojat Mashraf qizi……149

III SHO‘BA

MUSIQA FANLARINING BOSHQA FANLAR BILAN O‘ZARO INTEGRATSIYASI.

Musiqa san'atining integrativ o‘zaro ta'sir jarayonlari Karimov Inoyat Allamovich……152

Musiqa ta'limini o‘qitishda integrativ yondashuvlar va uning tahlili Muratova Saodat Abduraxmanovna……156

Musiqa va matematika fanlarining integratsiyasi Murotova Dilnavoz Uktamovna……160

Musiqa va psixologiya fanining uzviy bog’liqligi. N.Madaminov.....165

Ta’lim jarayonida sozandaning orkestr va ansambllarda ijro etishi mahorati Ruziyev D.Yu. ……169

Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarini estetik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari Samatova Dilnoza Salaidinovna……175

Abdurauf Fitratning ijodi o‘zbek klassik musiqasiga qoshgan hissasi U.G‘.Sobirov.....179

O‘zbekiston musiqa san’ati tarixida Samarqand musiqiy maktabining o‘rni Rahmatov Ahmat. ……185

IV SHO‘BA

UMUMTA’LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSLARI, MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI MUSIQA MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA MILLIY G‘OYA TARG‘IBOTI.

Musiqa darslarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishda innovatsion yondashuvlar asosida samaradorlikka erishish yo‘llari. G.M.Davronova.....191
Kompozitor va bastakorning farqi S.Qodirjonova, F.Q.Maksumova ……196
Musiqiy savodxonlikni takomillashtirish imkoniyatlari xususida. Mustabova Guzal Sadulla qizi, I.Qudratov……200
Innovatsion texnologik vositalardan foydalanish orqali boshlang’ich sinf o‘quvchilarida cholg’u mashg’ulotlarining samaradorligini oshirish. Nurboyeva Mahliyo Amaliddinovna, Rejametova Nilufar Ilhamovna……204
Refleksiv munosabatlarda ta’lim nazariyasining o‘rni Vapayeva Fazilat Shuhratovna……208
Bolalarda badiiy-musiqaviy didning shakllanishi. Xodjakulov Baxodir Xudoykulovich……211
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa mashg’ulotlarini mazmunli tashkil etishning nazariy asoslari. Mamatova Sunbula……216
Milliy musiqiy merosdan foydalanishning barkamol avlod tarbiyasida tutgan o‘rni va ahamiyati Qudratov I……220
Qobiliyatning namoyon bo‘lishida musiqa o‘qituvchisining roli. S.Rasulova……224
Musiqaviy ritmik harakatlar vositasida sog‘lomlashtirish texnologiyalari Raxmanov Halim Mo‘minovich……287
Musiqiy-ritmik harakatlar faoliyatida musiqa va harakat uyg’unligi. E.B.Qobilova……233

Musiqa darslarida o‘quvchilarning cholg’u ijrochiligi malakalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari Shukurov Otajon Zoxidovich, Samatova Dilnoza……239
Qo‘shiq aytish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligini mustahkamlash Ergasheva Zilola Ko‘paysin qizi.....242
Sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy faoliyatlarda o‘quvchilarni estetik tarbiyalash Jamolov Sardor Otabek o‘g’li.....246
Barkamol avlod tarbiyasi mustaqil vatanimiz ta’lim tizimining bosh vazifasidir. Jumayev Axmadjon Qodirovich……250
Bolalarda musiqa ijrochiligini rivojlantirish usullari Kuchkarbayeva Feruzaxon Xayrullo qizi……254
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy-estetik tarbiyalashda musiqaning o‘rni Rustamova Xurshidabonu Jamshidovna……258
Maktab musiqa darslarida yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. Mirzayeva Malohat Tohir qizi ……261
Musiqa darslarida o’quvchilarga mumtoz kuy-qo’shiqlarni o’rgatish orqali musiqiy dunyoqarashini shakllantirish Muhammatova Ozoda……265
Musiqa safodxonligi darslarida o‘quvchilarning ovozini tarbiyalash hamda rivojlantirish metodikasi Yarashev Jo‘rabek To‘rayevich……268
O‘rta umumta’lim maktab o‘quvchilari ovozini tarbiyalash va rivojlantirish usullari. Muzaffarova Nurjona Najmiddinovna ……272
Umumta’lim maktablarida musiqa darslarining tarbiyaviy ahamiyati Muzaffarova Nurjona Najmiddinovna ……276
Musiqa ta’limida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish samarali dars va mashg’ulotlarni tashkil etishning muhim omili sifatida. Sh.Sh.Shaykulov……280
Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida musiqiy-ritmik harakatlar komponentlarini pedagogik yondashuv asosida rivojlantirish. Shodiyeva Oygul Axmadjonovna…,……284

Inson shaxsini shakllanishida musiqaning ahamiyati O‘rishboyeva Xumora O‘rol qizi, Sh.N.Omanqulova……289
Maktab musiqa ta’limi samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati Xusanova Maftuna Ilxomiddin qizi……293
Musiqa madaniyati darslarida milliy g‘oyani targ‘ibot qilish imkoniyatlari Jalilov Shokir Isomiddinovich……295
Qahramonlik dostanlarning o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy qadiriyatlarga qiziqishni shakllantirishning muhim manbai A.Yerejepov.....298
Bo’lajak musiqa o’qituvchilari ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologiyalarni qo’llash masalalari. Omonov Hasan Sulaymanovich, Tojiqulov Nurbekjon Mahkam o’gli,.....302
Vokal ansambllarida dasturiy asarlarning ifodali ijrosi ustida ishlash texnologiyasi. Omonov Hasan Sulaymanovich, Abdullayev Shomurat Goyibovich.……307
Jahon kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan asarlarini zamonaviy texnologiyalarda o’rgatish metodlari Omonov Hasan Sulaymanovich, Oqilov Karimjon Tirkash o’gli..……311
Axborot texnologiyalari imkoniyatlari va musiqiy muharrirlar vositasida musiqa fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirish Sh. Usmonova. ……315
Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning ma’naviy – axloqiy fazilatlarini shakllantirish. M. Murodillayeva……320
Temuriylar davri renessansida musiqa madaniyatining rivojlanishi. E.Husanov……324
Musiqa va san’at maktablari o‘quvchilarini axloqiy-estetik shakllantirish. Tadjiyev. A……329
Fortepiano cholg‘u tarixi va ijrochilik uslublari Agzamova Dilshoda Baxrom qizi.....333
Musiqa darslarida interfaol usullardan foydalanish metodikasi Bannaqulov Mexroj Furqat o’g’li.....337

Musiqiy didaktik o‘yinlar vositasida bolalarning sensor qobiliyatlarini rivojlantirish.Baxtiyarova Duriya……342

V SHO‘BA

TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO‘NALISHLARIDA INNAVATSION O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.

Tasviriy san’at asarlari bilan so’zlashish san’ati va uni anglash. D.E.Omonov..346

Darsdan tashqari to’garak mashg’ulotlarida Kamoliddin Behzod faoliyatining ahamiyati. Omonov Dilshod Esonovich……349

Tasviriy san’at darslarida bo’yoqlarning kimyoviy tarkibi va xossalari haqidagi bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish Omonov Dilshod Esonovich……353

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda talabalarni tarixiy yodgorliklar ranglarini ramziy ma’nolarini o’rgatishni muhum ahamiyati. Shavqiyev. Elyor. Raxmonberdiyevich……357

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompitentligini rivojlantirish. Sidikova Moxira Saloxidinovna……361

O’zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyidagi kashta kolleksiyasini yaratilishi va ilmiy-badiiy ahamiyati Maxkamova G.A……365

Shaklni konstruktiv tahlil qilish. qalamtasvir fanini muhim xususiyati obrazli ifodalash va turli fanlar bilan integratsiyasi. Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich, Abdurahmonov Ilxom Abdujabbor o’g’li Sotiboldiyev Amiriddin Soxibjon o’g’li.....368

Tasviriy san’at fanida qalamtasvir asos sifatida. qalamtasvir fanining maqsad va vazifalari va turli fanlar bilan aloqadorligi. Ilxom Abdujabbor o’g’li Sotiboldiyev Amiriddin Soxibjon o’g’li.....372

Zamonaviy interyer dizayni va undagi dekorativ yondashuvlar xususida Xazratova Zilola Shavkat qizi.....377

Chizmachilik darslarida zamonaviy pedagogik va innovatsion o'qitish texnologiyalaridan foydalanish Fayziyeva Salomat G’aybullayevna.....380

Yurtimiz tarixiy obidalari va xalq amaliy san'atdia qo'llaniladigan naqsh elementlarning ramziy ma'nolari Suvankulov Saydulla Makkamovich.....384
Musavvir behzod va tarbiya, bilim, mahorat Iqboljon Ilhomov.....387
Chizmachilikni fanini o'qitish jarayonida talabalarning grafik savodxonligini shakillantirish usullari. Jalilov Jonibek Ma'ruf o'g'li.....393
Loyihalash masalalarini o'qitishda pedagogik va axborot kommunikatsion texnalogiyalardan foydalanish metodikasi. Jalilov Jonibek Ma'ruf o'g'li……...397
Tasviriy san'atdan malakali pedagog kadrlarni tayyorlashning nazariy asolari, Botir Boltabayevich Baymetov, Unarova Yorqinoy Norbayevna.....401
Muhandislik fanlarining mohiyatini o'quvchilar ongiga yetkazishning zamonaviy yechimlari Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li.....405
Autocad dasturi yordamida chizmachilik darslarida o'quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirish Rashidov Furqat Abdalim o'g'li, Abduvohidova Sabina Zokir qizi.....409
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashda xorij tajribasini o'rganish. Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li……...412
O'zbekistonda liboslarni loyihalash yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus ta'limining shakllanishi Umarova Z.S……..415
Badiiy ta'limda rangtasvir o'rgatishning ba'zi masalalari haqida. X.X Jurayev, J.X.Kadirov……....418
Chizmachilikni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati Izbasarov I.U……424
"Malaka oshirish jarayonida tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy madaniyatini rivojlantirish" Kadirova Shahnoza Aminboyevna,.....428

“SAN’AT YO‘NALISHLARIDAGI BO‘LAJAK KADRLARGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2024-yil 23-24aprel

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 27,62
Buyurtma № 0041A/24. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.

SAMARKAND